O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

INNOVATION AND PROGRESS

Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL

Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL

2026-yil, 9-son
2026, Issue 9

Bosh muharrir v.v.b.:
A.Matnazarov – Fizika matemetika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Mas’ul kotib:
U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tahrir hay’ati:
G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.
M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.
F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.
G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.
S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.
O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.
D.Jamalova– Tarix fanlari doktori, dotsent.
F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.
D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.
X.X.Matyaqubov– Tarix fanlari doktori, dotsent.
O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.
N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.
M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.
M.R.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.
Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.
Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.
M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.
Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.
A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.
D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.
A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.
M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, professor.
I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O‘.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
M.K.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi.
Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
I.A.Ishonxanova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
G.Sharipova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Bayxonov– Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor(Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin– Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:
Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.
“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206
Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal. № 9 (44), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil

MUNDARIJA:

TARIX

R.Djurayev. O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterenariya holati 8
S.O.Komilova. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqi vatanparvarlik timsoli 19
B.B. Bekimbetov. Amudaryoning qadimgi o‘zanlari va uzboyning tarixiy-geografik ahamiyati 23
S.Y.Yaxshimuratov. Xorazmda futbol sport turining rivojlanishi va ommalashishi 30
M.S.Abdullayeva. Xorazmda mennonit nemislarining moddiy-madaniy merosi: me’morchilik, hunarmandchilik masalalari 36
F.R.Matqurbanov. Zamonaviy arxeologiyada qo’llaniluvchi texnik vositalar, hamda 3D rekonstruksiyalash 45
B.M.Bekimbetov. Yangi O‘zbekiston sharoitida quyi Amudaryoning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasi 52
H.U.Nurimova. Mustaqillik yillarida ayollarga ta’lim sohasida yaratilgan imkoniyatlar: tadrijiy rivojlanish va tarixiy tahlil 58
Y.A.Karimov, B.Sadullaev. Xorazmning eng qadimgi aloqa yo‘llari tizimining tarixiy tahlili 64
X.Y.Davletov, Sh.Sh.Sabirova. Yoshlar tarbiyasida avlodlararo munosabatlar va ma’naviy mas’uliyat 72
Q.Sobirov. Qalajiq tarixi yangi arxeologik tadqiqotlarda 78
Y.M.Rahmonova. 1930-yillar qatag‘onlari va koreys diasporasi fojiasi 82
Z.X.Kazakova. Xorazm tarixshunosligida davlat xo‘jaliklarining agrar soha va ishlab chiqarishda tutgan o‘rni mavzusini tahlil qilishning ilmiy ahamiyati 89
Z.X.Kazakova. Marks Jumaniyozov memuarida xorazmdagi davlat xo‘jalik (sovxoz)larga oid tafsilotlar tahlili 93
U.Bekmuhammad. Xorazm va Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, faoliyati, mushtarak maqsadlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari 98
Y.X.Sapayeva. XIX asrda Xiva xonligida turkman qabilalarining joylashuvi va yer munosabatlari: xiva xonlari arxivi materiallari asosida 129
Sh.Marupov. 1920-1930 yillarda sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSR ta’lim muassasalarida amalga oshirgan “Tozalov” siyosati 137
J.R.Abdullayev. Xorazm vohasida etnomadaniy jarayonlarning tarixi 143

J.R.Abdullayev. XX asrda Xorazm vohasi etnik-madaniy qiyofasining shakllanish tarixi 154
N.R.Normetova. Sovet davri tarixshunosligida xiva jadidchilik harakatiga bo‘lgan munosabat va uning mustaqillik davrida o‘zgarishi 161
X.X.Matyakubov. Antik Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo munosabatlari 167
A.A.Mamanov. Movarounnahr tarixida Dashti qipchoq va Mo‘g‘ulistonning tutgan o‘rni 175
F.J.Jumaniyazova. 1945-1991-yillarda ikkinchi jahon urushi voqealarining matbuotda yoritilish evolyutsiyasi 189
Z.X.Farxadov. Qadimgi Xorazmliklarning kelib chiqish tarixi 195
J.Eshchanov. Polvonniyozhoji Yusupovning Xorazm respublikasi rahbari sifatidagi faoliyati 205
X.B.Aminov. XX asrning 20-30-yillarida Xorazmda teatr san’atining shakllanishi va rivojlanishi 214
B.O.Aminov. “Хоразмская правда” gazetasida qishloq xo'jaligining front ehtiyojlari uchun safarbar etilishi masalalari 219
M.S.Jumaboyeva. Xiva shahri tarixiy qismida turar joy muhitini regeneratsiya qilishning me’moriy-shaharsozlik tamoyillari va modeli 225
A.B.Muratbaeva. Qoraqalpog‘iston matbuoti (1990–2000-yillar): ahvoli, ijtimoiy muammolari va rivojlanish omillari 232
M.U.G‘afurova. Qadimgi Xorazmliklarning kelib chiqish tarixi 242
H.O.Xushvaqtov. Qishloq xo‘jaligida ilk traktorlar haqida ayrim mulohazalar 251
R.M.Saotboyev. O‘zbek xonliklari adabiy jarayonlari va davlat homiyligini o‘rganishda yozma va arxiv manbalarining o‘rni 262
D.X.Jumaniyozov. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng o‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlari iqtisodiy hayotining tiklanishi: mizdahqon va janpiqqal’a misolida 269
M.O.Badalova. O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning ilmiy ahamiyati 278
M.A.Eshchanova. Sovet Qatag‘on siyosati va safo mug‘anniy qismati 285
Sh.K.Nurullayeva. Umr-ipga terilgan marjon 291
Sh.Q.Nurullayeva. Andijon etnologiya maktabining asoschisi 294

FILOLOGIYA

D.T.Yuldashev. Namangan nomshunoslik maktabining sinchi darg‘asi 297
M.Hamroyeva. Normurod Norqobilov hikoyalarida inson ruhiyati 302

M.A.Qodirova, M.Fayzullayeva. O‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik va qahramon ruhiyati 306
H.R.Homidov. Sarlavhalarning qo‘rquv tasvirini yaratishdagi roli 310
G.Egamberdiyeva. O‘zbek va ingliz hikoyalarida ayol ruhiyatini tasvirlashda muallif va qahramon nuqtayi nazarining o‘ziga xosligi 315
G.Mavlonova. Yoshlar nutqida ingliz va o‘zbek tillari kod almashinuvinining ijtimoiy tarmoqlar misolidagi sotsiolingvistik tahlili 323
M.T.Qurbonova. “Tinch don” roman-epopeyasida ilinichna obrazida onalik va oilaviy fidoyilikning badiiy talqini 329
M.A.Sattorova. Xalq kitoblarining kompozitsion tuzilishi va syujet qurilishining o‘ziga xos xususiyatlari 334
M.U.Matchanova. Milliy-tarixiy realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishning leksik-semantik muammolari 340
M.A.Baqoyeva. Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasida modernistik va postmodernistik poetikaning uyg‘unligi 347
A.O‘rozboyev. Ogahiy she’riyatida obro‘ konsepti 353
M.S.Samandarova. Adabiyotshunoslikda gender muammosi 363
M.S.Abdukarimova. Navoiy asarlari leksikasining etimologik elektron bazasini yaratish 371
F.H.Karimova. O‘zbek mumtoz asarlari elektron korpusini yaratishning nazariy asoslari 377
N.R.Tosheva. O‘zbek va ingliz tillarida diskurs va konseptning aksiologik xususiyatlari 384
N.B.Muratova. Tilak va tabrik nutqiy aktlarida deyktik birliklar va illokutiv performativlarning o‘zaro munosabati 391
K.Sh.Irisova. Jaloliddin Rumiy hikmatlarida zohir va botin poetikasi 398
M.F.Matqurbanova. Inoyatulloh Ibn Muhammad Safo – Xiva adabiy muhiti namoyandasi 405
O.X.Xoshimova. O‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy omillari 411
Sh.A.Dovletov. Qoraqalpoq Omirbek haqidagi sikl materialida latifani lingvomadaniy tahlil qilish metodologiyasi 421
D.S.Nematov. So‘Fi Olloyor va uning ilmiy-adabiy merosi 432
D.Abdusharipova. Xorazm shevalari leksikasida umumturkiy qatlam va tarixiy asoslari 442
G.B.Mayliyeva. Ingliz va o‘zbek tillarida raqamli iqtisodiyot terminlarining semantik va sintaktik derivatsion xususiyatlari 450

B.R.Masharipova. O‘zbek ismlarida milliy mentalitet va dunyoqarashning ifodalanishi 456
M.B.Atadjanova. Nemis hajviy matnlarini tarjima qilishda maqol va matallar tarjimasi va ularning prinsplari 462
M.B.Atadjanova. O‘zbek xalq latifalari va anekdot janrining tarjimashunoslikda tutgan o‘rni 469
D.A.Sultanova. Oshiq Erkin asarlari tilidagi dialektizmlarning lingvokulturologik xususiyatlar 475
A.K.Ismailova. Paremiologik birlik lisoniy-semiotik kategoriya sifatida: chegaralash mezonlari va Xorazm O‘g‘uz shevalari materiali 481
A.K.Ismailova. Xorazm O‘g‘uz shevalari paremiologik fondini to‘plash tarixi va manbaviy bazaning diaxron tahlili 487
S.B.Sadullaeva. Rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda kompyuter texnologiyalari va onlayn platformalardan foydalanish 494
H.J.Jalilova. Xitoy va o‘zbek tillarida argo va jargonning shakllanish modellari: qiyosiy-semantik va pragmatik tahlil 500
A.R.Tursunov. O‘zbek tilshunosligida affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya asosida so‘z yasalishining rivojlanishi 507
K.O.Asrorov. Ta’liq yozuvining ijodiy va tarbiyaviy ahamiyati 513
Z.A.Raxmanova. Berdaq asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalari 521
J.B.Nusratov. Ingliz va o‘zbek tillarida twitter/x va instagram ijtimoiy tarmoqlarida kontekst tushunchasi 527
H.D.Bekchanova. Onomastik birliklarning kontekstual ekspressivligi va baholash funksiyasi 541
M.B.Tillayeva. O‘zbekiston toponimlarini yig‘ish, hujjatlashtirish va raqamlashtirishning ilmiy-metodologik asoslari 548
Sh.M.Alimova. Areal lingvistika va lingvogeografiyaning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni 553
P.Oydinova. “Makon” konseptining ertak matnida konseptual dominant sifatida namoyon bo‘lishi 559
F.N.Sapayeva. O‘zbek va ingliz tillaridagi mifonim tarkibli frazemalarning matnlarda qo‘llanishi 565
H.M.Ibragimova. Muhammad Rizo Erniyozbek O‘g‘li Ogahiy va xalq og‘zaki ijodi 572

TARIX

O‘ZBEKISTON SSR CHORVACHILIGIDA ZOOVETERENARIYA HOLATI

Djurayev Ravshan,
O‘zbekiston milliy universiteti

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishida zooveterinariya xizmatining o‘rni va uning faoliyat holati tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyati yillarida chorva mollarining kasalliklarini oldini olish, veterinariya xizmatlarini tashkil etish, chorva mollarini davolash, naslchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish hamda chorvachilik xo‘jaliklarida zooveterinariya tadbirlarini amalga oshirish jarayonlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston SSR, chorvachilik, zooveterinariya, veterinariya xizmati, chorva mollari, hayvon kasalliklari, veterinariya punktlari, veterinariya stansiyalari, naslchilik, sanitariya, chorva mollari salomatligi, agrar siyosat.*

Аннотация. *В статье с исторической точки зрения анализируется роль и состояние зооветеринарной службы в развитии животноводства Узбекской ССР. Особое внимание уделяется процессам профилактики и лечения заболеваний сельскохозяйственных животных, организации ветеринарного обслуживания, проведению зооветеринарных мероприятий в колхозах и совхозах, а также развитию племенного дела.*

Ключевые слова: *Узбекская ССР, животноводство, зооветеринария, ветеринарная служба, сельскохозяйственные животные, болезни животных, ветеринарные пункты, ветеринарные станции, племенное дело, санитария, здоровье животных, аграрная политика.*

Abstract. *This article examines the role and condition of zooveterinary services in the development of livestock farming in the Uzbek Soviet Socialist Republic from a historical perspective. Particular attention is paid to the organization of veterinary services, the prevention and treatment of livestock diseases, the implementation of zooveterinary measures in collective and state farms, and the development of livestock breeding practices.*

Keywords: *Uzbek SSR, livestock farming, zooveterinary services, veterinary service, livestock, animal diseases, veterinary posts, veterinary stations, animal breeding, sanitation, animal health, agricultural policy.*

KIRISH.

Chorvachilik O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligining muhim va strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining go‘sht, sut, jun, qorako‘l terisi va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda muhim o‘rin egallagan. Respublikaning tabiiy-iqlim sharoiti, yaylov va ozuqa resurslari chorvachilikning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlar yaratgan. Shu bilan birga, chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish masalasi hayvonlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish va veterinariya xizmatini samarali tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va keyinchalik kolxoz-sovxoz tizimining mustahkamlanishi chorvachilikni boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish tizimida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Chorvachilik xo‘jaliklarida veterinariya punktlari, stansiyalari va laboratoriyalarining tashkil etilishi, veterinariya mutaxassislarini tayyorlash va ularni qishloq joylariga jalb etish, hayvonlarni muntazam ko‘rikdan o‘tkazish hamda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish davlat agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Zooveterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri chorva mollari orasida yuqumli va parazitar kasalliklarning tarqalishining oldini olish edi. Chorva mollarining kasallanishi nafaqat ularning nobud bo‘lishiga, balki mahsuldorlikning

pasayishi, chorvachilik xo‘jaliklarining iqtisodiy zarar ko‘rishi va go‘sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kamayishiga ham olib kelgan. Shu sababli emlash, dezinfeksiya, veterinariya nazorati, kasallangan hayvonlarni ajratish va davolash kabi tadbirlar chorvachilikni rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida qaralgan.

Biroq amaliyotda zooveterinariya xizmatini tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlash bilan bog‘liq qator muammolar mavjud edi. Ayrim hududlarda veterinariya muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmagan, malakali mutaxassislar tanqisligi kuzatilgan, dori-darmon va veterinariya vositalari bilan ta’minlashda uzilishlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, uzoq qishloq va yaylov hududlarida veterinariya xizmatlarini o‘z vaqtida tashkil etish murakkab kechgan. Chorva mollarini saqlash sharoitlari, yem-xashak ta’minoti va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish darajasi ham hayvonlar salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur masalaning tarixiy jihatdan o‘rganilishi O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanish mexanizmlarini, davlatning agrar siyosati va uning amaliy natijalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Zooveterinariya xizmatining shakllanishi va faoliyatini tadqiq etish orqali nafaqat hayvonlar salomatligini muhofaza qilish tizimining evolyutsiyasini, balki sovet davrida qishloq xo‘jaligini boshqarish, moddiy-texnik ta’minot va kadrlar siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ham aniqlash mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterinariya holatini tarixiy manbalar asosida o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sovet davrida respublikada zooveterinariya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi, uning chorvachilik samaradorligiga ta’siri, erishilgan natijalar hamda mavjud muammolarni tarixiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Natijalar.

1947-yilda O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligining hayvonlarning oyoq va og‘iz kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi buyrug‘i e’lon qilinadi[1]. 1949-yilda jamoat chorvachiligida zootexnika va veterinariya xizmatlari ma‘lum darajada rivojlandi. Zooveterinariya shahobchalarini dori-darmon, asbob-uskuna, dezinfeksiya vositalari va biologik preparatlar bilan ta‘minlash yaxshilandi. Shu bilan bir qatorda, ko‘p rayonlarda zooveterinariya shahobchalari mutaxassislar bilan, ayniqsa, zootexniklar bilan yetarlicha

ta‘minlanmadi. Zooveterinariya shahobchalarida ishlovchi mutaxassislarning uy-joy va transport bilan ta‘minlanishi yomon ahvolda edi. Lekin shunday bo‘lsa-da, zooveterinariya muassasalari qurish uchun «Госстрах» tomonidan ajratilgan mablag‘lar o‘z o‘rnida ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin[2].

O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi ministrligining 1951-yil 2-fevralda 1093-sonli Zoovet xizmatining ishini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar qarori e‘lon qilindi. Ministrlikning 1952-yil 15-martda chiqargan № 329 buyrug‘iga ko‘ra, O‘zSSRda hayvonlar va qushlarda yuqumli kasalliklar bilan kurashish ishlari nihoyatda qoniqarsiz deb topildi. O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi ministrligi Respublika bo‘yicha eng yomon holatdagi yuqumli kasallik, qo‘chqor o‘pka og‘rig‘i va qushlarning rotavirus infeksiyasi 1951-yilda keng tarqalganligini ma‘lum qildi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va boshqa hududlarda kasalliklar va yuqumli kasalliklarni davolash va oldini olish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar bajarilmagan edi[3].

1955-yil 3-fevralda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Qoraqalpog‘iston SSRda brusellyozga qarshi kurash bo‘yicha tadbirlar haqidagi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 1955-yil 1-iyunga qadar brusellyozga qarshi kurash bo‘yicha veterinariya ekspeditsiyasini tashkil etish va 16,5 birlik miqdorida jihozlash, xarajatlar smetasiga asosan 1955-yil 6-apreldagi Qoraqalpoq SSR Ministrlar Sovetining №58-r qarori asosida, jami 323,082 rubldan, shu jumladan, ish haqi 104,480 rubl ajratilgan edi[4].

1956-yil 10-yanvarda O‘zbekiston SSRda hayvonlar quturishiga qarshi profilaktika va unga qarshi kurash tadbirlarini yaxshilash bo‘yicha O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligini buyrug‘i qabul qilindi. Unda muvofiq, 1956-yil 1-fevralga qadar barcha uy, xizmat va xo‘jalik ehtiyoji uchun boqiladigan itlarni ro‘yxatga olish va ularni quturishga qarshi emlash ishlarini yakunlandi[5].

1958-yil dekabr oyida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Chorvani sun‘iy urug‘lantirishni kengaytirish va yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmonni qabul qildi[6]. Ushbu farmonni amalga oshirish maqsadida respublikada kolxoz va sovxozlardagi chorva zotdorligini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Zotdor chorvachilikni hududlar bo‘yicha ixtisoslashtirish rejasida shvis, alatau, qora-ola va qozoq dasht zotlarini keng tarqatish ko‘zda tutildi. Bushuev zoti Toshkent viloyatining ikki tumanida va alohida aralash chorvachilik xo‘jaliklarida yetishtirildi. XX asrning 80-yillarida O‘zbekiston veterinariya sohasi ko‘p jihatdan rivojlanib bordi. Sovet davridagi

markazlashtirilgan boshqaruv tizimi doirasida veterinariya xizmatlari keng qamrovli tashkil etilgan, hayvonlar kasalliklarining oldini olish va davolash, epidemiyalarga qarshi kurashish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1950-yillarda Oʻzbekistonda veterinariya sohasining moddiy-texnik bazasi rivojlanish yoʻlida edi, biroq bu davrdagi iqtisodiy va siyosiy holatlar, xususan, Ikkinchi jahon urushi va urushdan soʻnggi tiklanish jarayoni, soha rivojiga salbiy taʻsir koʻrsatgan. Veterinariya xizmatlari asosan qoliplashgan, lekin zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar yetarli emas edi. Qishloq joylardagi veterinariya punktlari jihozlanmagan, laboratoriyalar yetishmas edi. Maxsus transport, sovutkichlar va biologik dori vositalari yetarli emasligi epizootik kasalliklarga qarshi samarali kurashishda jiddiy toʻsiq boʻlib qolgan[7].

1961-yilda viloyat qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash boshqarmalari, Qoraqalpogʻiston ASSR qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash vazirligining vetvrachlari tayinlanmagan boʻlsa, 1962-yilda esa 8 nafar vetvrach tayinlangan edi[8].

Oʻzbekiston SSRda 1971-yilda 8 ta veterinariya boʻlimlari mavjud boʻlgan boʻlsa, 1971-yilda esa ularning soni 11 taga yetdi. Bundan tashqari, goʻsht mahsulotlari nazoratini amalga oshiruvchi stansiyalar faoliyatida ham yirik oʻzgarishlar roʻy berdi[9].

1968-yili respublikada naslli qoramollarni sunʻiy urugʻlantirish boʻyicha 1272 punkt faoliyat koʻrsatib, ularda 247,6 ming bosh sigir va gʻunajinlar urugʻlantirildi yoki reja 96,9 foizga bajarildi[10]. Shu jumladan, 8,1 ming bosh muzlatilgan urugʻi olindi. Biroq 1969-yilda respublikaning kolxoz va sovxozlarida chorva mollarini koʻpaytirish boʻyicha olib borilgan ishlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni taʻkidlash kerakki, ayrim viloyatlarni hisobga olmaganda, 1968-yilga nisbatan tugʻish bilan bogʻliq vaziyat birmuncha yomonlashganligini kuzatish mumkin. 1979-yilgacha boʻlgan davrda veterinariya sohasi obyektlari qurilishlari olib borildi. Jumladan, Chorvachilik institutining «Красний водопад» eksperimental bazasida 1200 bosh sigirga moʻljallangan sutchilik kompleksi qurilib foydalanishga topshirilgan edi.

Oʻzbekistonda zootexnika va veterinariya shahobchalarini kadrlar bilan taʻminlash ishlari olib borildi. Shu maqsadda, 1949-yilda oliy va oʻrta oʻquv yurtlarini tamomlagan 372 nafar mutaxasislar joylarga yuboriladi. Sohada mutaxassislar tayyorlaydigan bir yillik maktablarda 174 nafar chorvachilik mutaxasissi, kurs va seminarlarda kolxoz chorvachilik fermalarining 14 ming

xodimi tayyorgarlikdan o‘tdi[11]. Biroq chorvachilik uchun kadrlar tayyorlash ishida ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. 1949-yilda Respublikada umumiy malakaga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Zootexniklar va veterinariya xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yilmadi, institutlar huzurida ularning malakasini oshirish ishlari tashkil qilinmadi. Respublika hukumatning tegishli qarori bo‘lishiga qaramasdan, 1949–1950-yil kuz-qish davrida malakali kadrlar tayyorlash rejasi 10 foizga ham bajarilmadi. Shu sababdan kolxozlarda ishdan ajralmagan holda o‘qitish uchun bir yillik muddat bilan zootexnika kurslari tashkil qilindi. Bu kurslarda mingdan ziyod kishi tahsil oldi[12].

50-yillarda respublikadagi 147 tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limlarida 701 nafar shtat birligida kadrlar faoliyat yuritishi kerak bo‘lgani holda amalda 58 nafar oliy ma‘lumotli, 373 nafar o‘rta ma‘lumotli va 160 nafar maxsus kurslarda tahsil olgan xodimlar faoliyat yuritdi. Binobarin, qo‘shimcha 243 nafar oliy ma‘lumotli zootexnik talab qilinar edi[13]. 1977-yilda kolxoz va sovxozlarning chorvachilik firmalarida, shuningdek, chorvadorlar o‘rtasida 9682 ta plakat, 9290 ta ma‘lumot beruvchi varaqa, 77774 ta eslatma tarqatildi. Gazeta va jurnallarda esa 591 ta maqola, 318 ta radio va televideniyeda chiqishlar, 386 ta seminar, ko‘rgazma va uchrashuvlar tashkil etildi. Shu bilan birga bu boada yakka tartibda ham ishlar olib borildi. Jumladan, chorvdorlar va chorva egalariga 1088 ta ma‘ruza o‘qilgan bo‘lsa, 157 ta maxsus film namoyish etildi. Shu bilan birga, 186 marta yakka tartibdagi suhbatlar o‘tkazilgan[14].

1950-yillarda O‘zbekistonda chorvachilik sohasiga katta e‘tibor qaratildi. Yirik davlat ferma va sovxozlari tashkil etildi, veterinariya xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq shunga qaramay, chorva mollari orasida brusellyoz, yalova, sibirg‘i yara va tulyaremiya kabi xatarli kasalliklar keng tarqalishda davom etdi. Buning asosiy sabablaridan biri sanitariya-gigiyena talablariga yetarli darajada rioya qilinmasligi va yetarli moddiy-texnika bazaning shakllanmaganligi bo‘ldi[15]. 1962-yildagi kolxozlar, sovxozlar va ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilarning veterinariya bo‘yicha hisobotlari tahlillaridan shuni ko‘rish mumkinki, respublikada kasallangan hayvonlarning katta qismi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bilan kasallangan edi. Jumladan, bu davrda respublika bo‘yicha yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bilan kasallangan 75 ming bosh otning 73 ming 800 tasi, 614 ming 100 bosh yirik shoxli qoramollarning

489 ming 900 tasi, shuningdek, 1 mln 853 ming 900 mayda shoxli qoramollardan esa 1 mln 609 mingtasi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bilan kasallangan edi[16].

Bu paytda turli kasalliklarning oldini olish va nasldor mollarning nobud bo‘lishini bartaraf etish maqsadida veterinariya mutaxassislari tomonidan sun‘iy urug‘lantirish ishlari olib borildi[17]. 1968-yilda respublikada naslli qoramollarni urug‘lantirish bo‘yicha 1272 ta punkt faoliyat ko‘rsatib, 247,6 ming bosh sigir va g‘unajinlar urug‘lantirildi yoki reja 96,9 foizga bajarilgan edi[18].

1976-yilda kolxoz va sovxoz veterinariya tashkilotlarida 1578 ta veterinariya vrachlik punkti va kasalxonalar faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu davolash-profilaktika punktlarida 1976-yilda 429,4 ming bosh yirik shoxli qoramol, 1348,1 ming mayda shoxli qoramol, shuningdek, 211,6 ming bosh cho‘chqa davolangan[19].

1947-yillarda veterinariya vrach feldsherlari yetishmasligi, emlash ishlari to‘liq amalga oshirilmaganligi va hisobotlar aniq olib borilmasligi tufayli mamlakatimizdagi hayvonlar o‘rtasida kuydirgi kasalligi keng ko‘lamda tarqalib, nosog‘lom va noxush joylar kupaydi. Bu hol Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari hududida, ayniqsa, ko‘p kuzatilgan[20]. 1965-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikada 604 ta brusellyoz kasalligi tarqalishi xavfi mavjud nuqtalar punktlari bo‘lib, ularda 23 ming 459 bosh hayvonlar brusellyoz bilan kasallangan edi[21]. Brusellyozga qarshi kurash ishlariga qaramasdan bu boradagi holat yildan yilga og‘irlashib bordi. O‘zbekiston SSRda 1955-yildan yo‘lga qo‘yilgan umumiy chora-tadbirlar doirasida qo‘ylarni maxsus vaksina bilan emlash chorva xo‘jaliklarining brusellyoz infeksiyasidan xalos bo‘lish vaqtini qisqartirdi. Masalan, 1965-yilda maxsus vaksina yordamida brusellyoz kasalligidan bir qancha xo‘jaliklar xalos bo‘ldi. Qarnob qorako‘l davlat naslchilik zavodi, Samarqand viloyatidagi Pobeda kolxozi, Surxondaryo viloyatidagi 21 xo‘jaliklari (7 ta sovxoz va 14 ta kolxoz), Qoraqalpog‘iston ASSRda 7 ta xo‘jalik (3 ta sovxoz va 4 ta jamoa xo‘jaligi) va Farg‘ona viloyatida bitta kasallik tarqalgan xo‘jalik shular jumlasidandir[22].

Chorva hayvonlarida ko‘p uchrovchi sil kasalligiga qarshi kurash ishlari ham olib borildi. Ushbu yillarda amalga oshirilgan tekshiruvlar natijasida sil kasalligi tarqalishi xavfi yuqori bo‘lgan nuqtalar aniqlandi. Xususan, 1967-yil boshiga qadar respublikada qoramol sil kasalligi aniqlangan 8 ta fermer xo‘jaligi (3 ta sovxoz va 5 ta jamoa xo‘jaligi) mavjud edi[23]. Ushbu kasallik o‘choqlarini viloyatlar kesimida tahlil qilganda Toshkent viloyatiga 3 ta, Qoraqalpog‘iston ASSRga 2 ta, Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida bittadan to‘g‘ri kelgan edi[24].

1969-yilda mayda shoxli qoramollar kasallanishi 1968-yilga nisbatan 59,2% ga oshdi. Shu bilan birga, mayda shoxli qoramollar o‘limi 523,9 ming boshni tashkil etdi, bu esa 1968-yilga nisbatan 172,6% ga ko‘pdir. 1969-yilgi qish mavsumida, ayniqsa, homilador qo‘ylar orasida yuqori nobud bo‘lish holatlari kuzatildi[25].

1975-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu yilda respublika veterinariya mutaxassislari tomonidan hayvonlarning oqsil kasalligining oldini olish va barham berish borasida ulkan tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikada hayvonlarning yuqumli va parazitar kasalliklar bilan kasallanishi va ulardan o‘lim ko‘rsatkichi turli ko‘rinishga ega bo‘ldi[26]. Jumladan, 1977-yilda 1976-yilga nisbatan birgina qoramollarning kasallanish darajasi 25,7 foizga va o‘lim darajasi 50 foizga kamaydi[27]. Mayda qoramollar bo‘yicha esa kasallanish darajasi 19,4 foizni tashkil etdi. Hammasi bo‘lib 1977-yilda qishloq xo‘jaligi hayvonlarining 4 asosiy turi bo‘yicha yuqumli kasalliklar kamaygan edi.

O‘zbekistondagi veterinariya ilmiy tadqiqot muassasalari olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tadbiq etilishi natijasida, respublikada chorvachilikka keskin zarar keltiruvchi qoramollarning o‘lat va plevropnevmaniya, otlarning yuqumli plevropnevmoniya kasalligi, manka, yuqumli ensefalomiyelit kabi kasalliklar butunlay bartaraf etildi. Nayvonlar orasida ko‘p uchraydigan kuydirgi, qorason, quturish, leptospiroz, qo‘tir, chenak va boshqa infeksion, invezion kasalliklaridan keladigan zarar kamaytirildi.

O‘zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan davrda O‘zbekistonda olimlardan M.S.Abidjanov, V.K.Prinko, R.G.Yarayev, R.A.Ismatova kabi olimlar chorva mollarining bursilyoz kasalligi bo‘yicha o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishgan bo‘lsa, N.M.Mamatov, X.S.Salimovlar esa quturish kasalligi bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

Shuni alohida takidlab o‘tish joizki, mazkur yillar davomida O‘zbekistonda veterinariya fanini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda Ozbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining o‘rni beqiyos bo‘ldi. Institut tashkil etilgan dastlabki paytlardan e‘tiboran yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo‘yicha xalq xo‘jaligi ahamiyatiga molik yirik ilmiy tadqiqotlar o‘tkazildi. Jumladan, I.A.Dukalov va I.S.Porkovnikovsalar tomonidan birinchi bo‘lib echkilarning plevropnevmoniyasini virus qo‘zg‘atishi aniqlangan bo‘lsa, T.D.Lukashenka, C.P.Irinovlar tomonidan ushbu kasallikka qarshi yuqori samarali vaksina yaratildi. Natijadan, mazkur kasallikni mamlakat hududida tugatgani uchun, o‘tgan

asrlarning 40-yillarda vaksinaning mualliflaridan biri F.D.Lukashenka davlat mukofoti lauriyatiga sazovor bo‘lgan edi.

1970-yildan e‘tiboran O‘zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining virusologiya laboratoriyasida tadqiqotlar qo‘ylarning bola tashlash sabablarini o‘rganish va ularga qarshi kurash tizimlarini yaratish hamda quturish kasalliklarini epizootopogiyasi o‘rganish va uning maxsus proflaktikasini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda olib borildi. Bundan tashqari, biokimyoviy tadqiqotlar bo‘yicha ham bir qator ishlar olib borildi. Xususan, 1981-yilda qishloq xo‘jaligi hayvonlari va qushlarning qoni, a‘zolari, suti, tuxumi va siydigi, shuningdek, go‘sht va sut mahsulotlarining 61 ming 700 ta tekshiruvidan 246 ming 498 ta biokimyoviy tekshirish o‘tkazildi. Shundan 93466 ta holatda va tadqiqotlar sonining 37,9 foizida ijobiy natijalarga erishildi. Bundan tashqari, Respublikada sigirlarning biokimyoviy tadqiqotlar bilan qamrab olinishi 11,9 foizni tashkil etdi[28].

XULOSA

O‘zbekiston SSRda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi zooveterinariya xizmatining faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Tadqiq etilgan davrda davlat tomonidan chorva mollarining sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, veterinariya nazoratini kuchaytirish va chorvachilik xo‘jaliklariga amaliy xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Veterinariya punktlari, stansiyalari va laboratoriyalarining tashkil etilishi mazkur tizimning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Zooveterinariya tadbirlarining muntazam amalga oshirilishi chorva mollari orasida kasalliklarning tarqalishini cheklash, hayvonlarning mahsuldorligini saqlash va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, profilaktik emlash, sanitariya tadbirlari, hayvonlarni veterinariya ko‘rigidan o‘tkazish, kasallangan chorva mollarini davolash va ajratish kabi tadbirlar chorvachilik xo‘jaliklarining kundalik faoliyatida muhim o‘rin egallagan.

Shu bilan birga, zooveterinariya tizimining rivojlanishi bir qator muammolar bilan kechgan. Moddiy-texnik bazaning hududlar bo‘yicha bir xil darajada emasligi, malakali veterinariya mutaxassislarining yetishmasligi, dori-darmon va zarur uskunalar ta’minotidagi kamchiliklar hamda ayrim xo‘jaliklarda sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq rioya qilinmasligi chorva mollarining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Yaylov va chekka qishloq hududlarida veterinariya xizmatini

tashkil etish bilan bog‘liq muammolar esa tizim samaradorligini yanada pasaytirgan.

Umuman olganda, O‘zbekiston SSRda zooveterinariya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi chorvachilikni davlat tomonidan boshqarish siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Mazkur tizimning faoliyati natijasida veterinariya muassasalari tarmog‘i kengaygan, mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashgan va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlari shakllangan. Biroq erishilgan natijalarni baholashda sovet davridagi markazlashgan boshqaruv tizimi, resurslarni taqsimlashdagi nomutanosibliklar va hududiy sharoitlarning o‘ziga xosligini ham hisobga olish lozim.

Shunday qilib, O‘zbekiston SSR chorvachiligida zooveterinariya xizmatining tarixiy rivojlanishini o‘rganish nafaqat chorvachilik tarixining muhim jihatlarini ochib beradi, balki sovet davridagi agrar siyosatning amaliy mexanizmlari, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining shakllanishi va veterinariya xizmatining institutsional taraqqiyotini kompleks baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zMA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 52-ish, 87–88-varaqlar.

2. Ўзбекистон ССР Министрлар Совети ва Ўзбекистон КП(б) Марказий Комитетида СССР Министрлар Совети ва ВКП (б) Марказий Комитетининг 1949 йил 18 апрелда ―Колхоз ва совхозларнинг жамоат маҳсулдор чорвачилигини ривожлантириш уч йиллик плани (1949–1951 йиллар) ҳақида чиқарган қарорининг қандай бажарилаётганлиги тўғрисида ССР Иттифоқи Министрлар Совети ва ВКП (б) Марказий Комитети қарорини бажариш тадбирлари ҳақида// Ленин йўли, 1950 йил 7 апрель, 69(5676)-сон. – Б. 5.

3. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2677-ish, 137-varaq.

4. O‘zMA. R-90-fond, 1-ro‘yxat, 2757-ish, 122-varaq.

5. O‘zMA R. 90-fond, 9-ro‘yxat, 5437-ish, 37-varaq.

6. Лебедев С. Быстрее преобразоват породный состав крупного рогатого скота в колхозах и совхозах Узбекистана // Сельское хозяйство Узбекистана, 1962. – № 12. – С. 52.

7. Шопўлатов Ж. Ветеринария асослари. – Тошкент, 1993. – Б. 18–20.

8. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 11-varaq.

9. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 1979. – № 1. – Б. 22.

10. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 56-ish, 116-varaq.

11. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 11-varaq.

12. Ўзбекистон ССР колхоз ва совхозларида жамоат маҳсулдор чорвачилигини ривожлантириш уч йиллик планини бажаришнинг бориши тўғрисида // Ленин йўли, 1950 йил 7 декабрь, 241 (5848)-сон. – Б. 3.

13. O‘z MA. 90-fond, 9-ro_yxat, 2754-ish, 126-varaq.

14. Конопаткин А.А Эпизоотология и инфекционние болезни сельхоз животних. Справочник. – Москва, Колос, 1984. – С. 71–73.

15. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 80-varaq.

16. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 126-varaq.

17. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 80-varaq.

18. Беляков С. Искусственное осеменение овес транспортированним семенем // Сельское хозяйство Узбекистана, 1965. – № 8. – Б. 48.

19. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 126-varaq

20. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 126-varaq.

21. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 80-varaq.

22. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 80-varaq.

23. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 126-varaq.

24. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 128-varaq.

25. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 82-varaq.

26. O‘z MA. 90-fond, 9-ro‘yxat, 2754-ish, 126-varaq.

27. O‘zR VDQA. 25-fond, 1-ro‘yxat, 76-ish, 80-varaq.

28. Узбекский научно исследовательский ветеринарний институт 50 лет. – Ташкент: Издательство Узбекистан, 1974. – С. 11–13.

29. Самарқанд Қишлоқ хўжалик институти 70 ёшда (институтимиз тарихига бир назар…). – Самарқанд, 1999. – Б. 14.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQI VATANPARVARLIK TIMSOLI

Komilova Sabohat Otaxon qizi,
Urganch davlat universiteti,
Tarix kafedrasi,
o‘qituvchisi
E-mail:
sabohatkamilova020@gmail.com

UO‘K 94(575.1)

ANNOTATSIYA

Ikkinchi jahon urushi tufayli turli hududlardan mamlakatimizga ko‘chirib keltirilgan aholiga xalqimiz tomonidan ko‘rsatilgan yordam haqida ma'lumotlar keltirilgan. Respublika shaharlari va qishloqlari aholisi bu yerga kelgan fuqarolarni mehmondo‘stlik bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar-joy berib, o‘zi siqilib yashadi, ko‘chib kelganlarni to‘ydirish uchun oxirgi bo‘lak nonini ham bo‘lib berdi, ular uchun poyabzal, kiyim-bosh bilan ta'minlaganliklari, o‘zbek ayollarining matonati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Sen-yetim emassan, o‘zbek xalqi, evakuatsiya, maktab-internatlar, o‘zbek ayollari, qahramonlik timsoli.*

АННОТАЦИЯ.

В статье рассказывается о помощи, оказанной нашим народом населению, переселенному в нашу страну из разных регионов в связи со Второй мировой войной. Население городов и сел республики с гостеприимством встречало прибывших граждан, предоставляло им жилье, отдавало последний кусок хлеба, снабжало обувью и одеждой; отдельно рассказывается о стойкости узбекских женщин.

ABSTRACT

Information is provided about the assistance provided by our people to the population relocated to our country from various regions due to World War II. The population welcomed the arrivals with hospitality, provided housing, food, shoes and clothing, and the article also discusses the fortitude of Uzbek women.

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat boshiga misli koʻrilmagan darajada dahshatli va ogʻir kulfatlarni solgan urush sifatida jahon tarixida qoldi. 1939-yil 1-sentyabr kuni fashistlar Germaniyasi qoʻshinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan boshlangan bu urush jahonning 61 mamlakatini, yer shari aholisining 80 foizini, ya'ni 1,7 mlrd. kishini oʻz girdobiga tortdi. Ikkinchi jahon urushi bizning hududlarimizda boʻlmadi — bizdan ancha uzoqroq Ukraina, Belorussiya, Boltiqboʻyi va Rossiya yerlarida boʻldi. Bilamizki, Oʻzbekiston ham Sobiq Ittifoq tarkibida boʻlgani uchun urushda qatnashdi.

2. METODLAR VA OʻRGANILGANLIK DARAJASI (METHODS)

Ikkinchi jahon urushi yillarida koʻchirib keltirilgan aholiga koʻrsatilgan ijtimoiy yordam mavzusini tadqiq qilishga qaratilgan dissertatsiyalar va bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan M. Matniyozov [1; B.102], Adham Rahmat [2; B.135], Dadaboyev Q., Allaberganov Sh., Rahmanova Y., Jumaniyozova F. va boshqalarning tadqiqot ishlarini keltirib oʻtish mumkin.

(Tadqiqot manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy tahlil metodlariga, shuningdek arxiv va statistik ma'lumotlarga asoslangan.)

3. TAHLIL VA NATIJALAR (RESULTS)

Koʻchirib keltirilganlarga yordam berish maqsadida Fargʻona viloyatidagi "Birinchi may" qishloq xoʻjalik arteli mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, sabzavot, kartoshka, goʻsht mahsulotlari ortilgan karvonlar yetib kela boshladi. Koʻchirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi: faqat Toshkent shahrining oʻziga 1941-yil 24-noyabrdan 31-dekabrgacha 37,6 mingdan ortiq kishi, 1941–1942-yillarda esa qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

Oʻzbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajralgan bolalarni ayniqsa samimiy gʻamxoʻrlik bilan qabul qildi. "Sen-yetim emassan!" — oʻzbek shoirining qalb qa'ridan otilib chiqqan bu samimiy soʻzlar butun oʻzbek xalqining hayajonli his-tuygʻularini ifodalar edi.

Bolalarni joylashtirish tizimi:

- 1941-yil oktabrda respublika hukumati qaroriga koʻra evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etildi, Respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi.

- 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktabrga qadar evakuatsiya punktlari orqali 15 649 nafar bola o‘tdi.
- 1942-yil 2-yanvarda Toshkentda shahar xotin-qizlarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, bu yig‘ilish o‘zbek xotin-qizlarini ota-onasiz bolalarga onalik qilishga chaqirdi.
- Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Bahri opa Akromova turli millat farzandlaridan 14 bolani o‘z oilasiga tarbiyaga oldi.
- Kattaqo‘rg‘onlik Xamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi.
- Yangiyo‘lda 9 ta kolxoz jamoasi ko‘chirib keltirilgan 169 bolani o‘z tarbiyasiga oldi.
- 1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda 870 bola o‘zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi.

Bolalar muassasalari tarmog‘i:

- 1945-yilda O‘zbekiston viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda 268 ta bolalar uyi bo‘lib, ularda 31 300 bola tarbiyalangan; urush arafasida esa faqat 106 ta bolalar uyi bo‘lib, 12 ming bola tarbiyalangan edi [3; B.54].
- Mehnat jamoalari korxona va tashkilotlarda bolalar uylarining filiallarini tashkil etib, ularni to‘liq o‘z mablag‘i hisobidan ta'minladi.

Moliyaviy yordam:

- 1942-yil boshida UzSSR XKK huzuridagi Komissiya Davlat bankida 160676-raqamli hisob ochdi.
- 1942-yil mart oyiga kelib bu hisobga 2 mln. 74 ming so‘m, 1943-yilga kelib esa 3,5 mln. so‘m mablag‘ tushdi [4; B.454].

Mehnat jamoalarining ishtiroki:

- Toshkent viloyat paxta tayyorlash tresti kolxozchilari 1942-yil bahorida klub binosini internatga aylantirib, Belorussiyadan kelgan 25 bolani tarbiyaladi; bu namunaga shahardagi deyarli 70 ta korxona qo‘shildi.
- 1943-yilda bolalar bog‘chalarida tarbiyalanayotgan 53 072 boladan 15 108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi [5; B.455].

Yuqorida keltirilgan dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo‘lgan bag‘rikengligini, insonparvarligini va samimiyatini o‘zida aks ettiradi.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Urush O‘zbekiston xalqlari uchun chuqur sinov bo‘libgina qolmay, bu davrda xalqimizning o‘ziga xos jihatlari — birovning dardiga sheriklik, kulfatda

qolgan insonlarga beg‘araz yordam qo‘lini cho‘zish, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik — yaqqol namoyon bo‘ldi. "Sen-yetim emassan!" shiori ostidagi beg‘araz yordamlar o‘zbek xalqining bolajon va mehmondo‘st xalq ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Bundan tashqari, o‘zbek ayollarining urush frontlaridagi ishtiroki alohida o‘rin tutadi: ular jarohatlangan jangchilarga malham qo‘yib, murakkab jarrohlik ishlarini amalga oshirib, ularning jang maydonlariga qaytishiga ko‘maklashdi, shu bilan birga qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatdi.

5. XULOSA (CONCLUSION)

Ikkinchi jahon urushi insoniyatni fashizm balosidan asrab qolishga qaratilgan kurash bo‘lib, unda sovet ittifoqi tarkibidagi barcha millat vakillari, jumladan o‘zbek ayollari ham ishtirok etdi. Vatan himoyasini or-nomus masalasi deb bilib, urush frontlariga jo‘nagan bu ayollarning yuksak vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ulari kuchli bo‘lgan.

1945-yil 2-sentyabrda Yaponiyaning taslim bo‘lishi bilan Ikkinchi jahon urushi fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba bilan yakun topdi. Urushning dastlabki yillarida sovet askar-zobitlarining aksariyati halok bo‘lganiga qaramay, minglab kishilar ko‘ngilli bo‘lib frontga jo‘nayverdi — bu ularda kuchli or-nomus va jangovar ruh mavjudligidan dalolat beradi.

O‘zbek ayollarining bu urushdagi o‘rni beqiyos: ular to‘plar gumburlashi, o‘qlar yomg‘iri va minalar orasida ham o‘zbek ayoliga xos mardonavorlik va jangovar ruh bilan kurash olib bordi, jarohatlangan jangchilarni davolab, ularga jangovar ruh bag‘ishladi. Shu tariqa o‘zbek xalqi ayollarining jasorati o‘zbek tarixi zarvaraqlaridan munosib o‘rin egallad1.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adham Rahmat. Shinelli qizlar. – T.: 1970. – B. 98–102.

2. M. Matniyozov. Xorazm tarixi. – Xorazm: "Xorazm". – B. 135.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. I jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – B. 54.

4. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. – B. 454.

5. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. – B. 455.

AMUDARYONING QADIMGI O‘ZANLARI VA UZBOYNING TARIXIY-GEOGRAFIK AHAMIYATI

B.B. Bekimbetov,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

UO‘K 94(575.1):556.51

Annotatsiya. *Maqolada Amudaryoning qadimgi o‘zanlari, xususan, Uzboy o‘zanining tarixiy-geografik ahamiyati tahlil qilingan. Amudaryo oqimining o‘zgarishi, Uzboyning shakllanishi, XVIII–XX asrlardagi tadqiqotlar va Amudaryoning Kaspiy dengiziga yo‘naltirish loyihalari yoritilgan. Shuningdek, qadimgi o‘zanlarning aholi joylashuvi, sug‘orish tizimlari va mintaqaning tarixiy-ekologik rivojidagi o‘rni baholangan.*

Kalit so‘zlar. *Amudaryo, Uzboy, Sariqamish, Xorazm, qadimgi o‘zan, sug‘orish, tarixiy geografiya, Orolbo‘yi.*

Kirish. Amudaryo Markaziy Osiyoning eng muhim tarixiy-geografik va sivilizatsion omillaridan biri hisoblanadi. Uning suvlari qadimdan Xorazm vohasi aholisining iqtisodiy hayoti, sug‘orma dehqonchilik, shaharsozlik, savdo va madaniy aloqalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimgi davrlarda Amudaryoning turli tarmoqlari va o‘zanlari orqali aholi manzilgohlari o‘rtasida iqtisodiy va transport aloqalari amalga oshirilgan.

Amudaryo o‘zanlarining tarix davomida o‘zgarib turishi tabiiy va antropogen omillarning o‘zaro ta’siri natijasi bo‘lgan. Ayniqsa, Xorazm hududida sug‘orish inshootlarining barpo etilishi, dambalar qurilishi, kanallarning o‘zgarishi va ayrim hollarda vayron qilinishi daryo oqimining yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli Amudaryoning qadimgi o‘zanlarini o‘rganish tarix, arxeologiya, geografiya, geologiya va gidrologiya fanlarining kesishgan nuqtasida turgan murakkab ilmiy muammolardan biridir[10]. Mazkur muammoning muhim jihatlaridan biri Amudaryoning g‘arbga qarab oqib, Sariqamish havzasi va Uzboy orqali Kaspiy dengiziga chiqishi haqidagi ma’lumotlardir. Uzboy Amudaryoning qadimgi g‘arbiy tarmog‘i sifatida ilmiy adabiyotlarda alohida o‘rin egallaydi[8].

Tadqiqotning maqsadi Amudaryoning qadimgi o‘zanlari, xususan Uzboyning tarixiy ahamiyatini aniqlash, mazkur masalaning XVIII–XX asrlardagi

ilmiy o‘rganilish bosqichlarini tahlil qilish va inson faoliyatining Amudaryo gidrografiyasiga ta’sirini tarixiy nuqtayi nazardan baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, xronologik, retrospektiv, manbashunoslik va tarixiy-geografik tahlil usullaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, etnografik ma’lumotlar, sayyohlar va elchilar xabarlari, arxeologik tadqiqot natijalari hamda XIX–XX asrlardagi geografik va geologik ekspeditsiyalar materiallari qiyosiy o‘rganildi[2]. Asosiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “eski o‘zan” haqidagi tasavvurlar dastlab ilmiy gipoteza emas, balki mahalliy aholi orasida saqlangan tarixiy xotira va rivoyatlar shaklida mavjud bo‘lgan. Keyinchalik ushbu tasavvurlar davlat loyihalari va ilmiy tadqiqotlar predmetiga aylangan[3].

Tadqiqot natijalari. Amudaryo va uning deltasi Xorazm sivilizatsiyasining iqtisodiy asosini tashkil etgan. Daryoning suv resurslaridan foydalanish qadimgi davrlardayoq sun’iy kanallar va sug‘orish tarmoqlarini barpo etishni taqozo qilgan. Shu bilan birga, daryoning tabiiy o‘zani o‘zgarishi sug‘orish tizimlarining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan[4].

Tarixiy ma’lumotlar Amudaryo havzasida tabiiy suv oqimi va inson tomonidan yaratilgan gidrotexnik inshootlar o‘rtasida murakkab munosabat mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayrim davrlarda sug‘orish tizimlarining buzilishi natijasida daryo suvi boshqa o‘zanlarga yo‘nalgan. Bu jarayonlar natijasida Sariqamish havzasi va Uzboy tizimida suv sathining ko‘tarilishi yoki pasayishi kuzatilgan[6].

S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari ushbu jarayonlarni arxeologik va geomorfologik materiallar bilan bog‘lash imkonini berdi. Ekspeditsiya materiallarida Amudaryo, Sariqamish va Uzboy hududlaridagi qadimgi suv tizimlari va aholi joylashuvi tarixi o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilgan[7].

XVIII asr boshlariga kelib Amudaryoning Kaspiy dengiziga yo‘nalgan qadimgi oqimi haqidagi ma’lumotlar Rossiya siyosiy doiralarida ham qiziqish uyg‘ota boshladi. 1713-yilda Mangishloq hududidan Astraxonga kelgan Xo‘ja Nafas Amudaryoni Kaspiy tomonga burish mumkinligi haqida ma’lumot bergan. Ushbu ma’lumot keyinchalik Pyotr I davridagi siyosiy va geografik rejalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan[11].

Xo‘ja Nafas bilan bog‘liq ma’lumotlar masalaning etnografik jihatini ham ochib beradi. Mangishloq turkmanlari orasida saqlangan rivoyatlarda suv bilan

bog‘liq hayotiy ehtiyojlar va qadimgi o‘zan haqidagi xotiralar avloddan avlodga o‘tib kelgani qayd etilgan. Mazkur etnografik ma’lumot “eski o‘zan” g‘oyasi mahalliy aholi tarixi va ijtimoiy xotirasi bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi[1]. Bu yerda muhim jihat shundaki, XVIII asrda Rossiya siyosiy doiralarida shakllangan loyiha mahalliy aholining geografik tasavvurlari bilan birlashgan. Keyinchalik mazkur g‘oya harbiy-siyosiy, iqtisodiy va transport maqsadlari bilan boyitilgan.

Amudaryoning qadimgi o‘zanini tiklash g‘oyasi Pyotr I davrida muayyan davlat loyihasiga aylandi. 1714-yilda A.B. Cherkasskiyga Amudaryoning qadimgi o‘zani haqidagi ma’lumotlarni tekshirish, “Irken” shahri va daryoning avvalgi quyilish joyini aniqlash vazifasi berilgan. Cherkasskiy Astraxonda ma’lumotlar to‘plagan va keyinchalik Amudaryoning g‘arbiy yo‘nalishlarini izlash ishlarini tashkil etgan. Bu loyihaning asosiy maqsadlaridan biri Markaziy Osiyo bilan Kaspiy dengizi orqali Rossiya o‘rtasida transport yo‘lini tashkil etish edi. Shu sababli Amudaryoning suv yo‘li sifatidagi imkoniyatlarini o‘rganish strategik ahamiyat kasb etgan. Biroq Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizligi mazkur g‘oyaning amaliy jihatdan murakkabligini ko‘rsatdi. 1717-yildagi ekspeditsiya fojiali yakunlangan bo‘lsa-da, Amudaryoning “eski o‘zani” haqidagi tasavvur yo‘qolmadi. Aksincha, keyingi geografik va harbiy ekspeditsiyalar ushbu masalani yana kun tartibiga olib chiqdi[5].

XVIII asrda Florio Beneveni ham Amudaryoning qadimda Kaspiy dengiziga og‘gani haqida ma’lumotlar keltirgan. Uning xabarlarida Amudaryo oqimining tarixiy o‘zgarishlari, aholi manzilgohlari va siyosiy voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida qarashlar mavjud.

IX asrning ikkinchi yarmiga kelib Amudaryoning qadimgi oqimi masalasi ilmiy bahs mavzusiga aylandi. Geograflar, geologlar, tarixchilar va sharqshunoslar o‘rtasida Amudaryoning Kaspiy dengiziga qachon va qaysi o‘zan orqali og‘gani haqida turli qarashlar shakllandi[9].

A.I. Gluxovskiy Amudaryoning qadimgi g‘arbiy o‘zanlarini o‘rgangan eng faol tadqiqotchilardan biri bo‘ldi. 1879–1883-yillarda olib borilgan ekspeditsiya natijasida u Amudaryo, Kunya-Daryo, Lauzan va Sariqamish tizimlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga harakat qildi. 1878 yilgi suv toshqini esa unga Amudaryoning g‘arbiy o‘zanlari qayta suv bilan to‘lishi mumkinligi haqidagi fikrni kuchaytirgan.

A.V. Kaulbars Amudaryoning Kaspiy tomonga yo‘nalgan ehtimoliy ikki tarmog‘i sifatida Uzboyni ko‘rsatgan. A.M. Konshin esa boshqacha xulosaga kelib,

Uzboy tizimidagi ayrim geologik shakllar Amudaryodan Kaspiyga doimiy oqim bo‘lganini to‘liq tasdiqlamasligini ta’kidlagan.

V.A. Obruchev nisbatan muvozanatli konsepsiyani ilgari surgan. Uning fikriga ko‘ra, Sariqamish havzasi tarixiy davrlarda mustaqil suv havzasiga aylangan, keyinchalik Amudaryodan kelgan suvlar uni to‘ldirgan va ortiqcha suv Uzboy orqali Kaspiy dengiziga yo‘nalgan.

XX asrda masalani o‘rganishda arxeologiyaning roli keskin oshdi. Bu davrgacha olib borilgan geografik va geologik ekspeditsiyalarda arxeologik materiallar yetarlicha jalb etilmagan edi. S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi mazkur kamchilikni bartaraf etishga harakat qildi.1950–1956-yillarda amalga oshirilgan kompleks tadqiqotlarda Amudaryoning qadimgi o‘zanlari, Sariqamish va Uzboy hududlari geomorfologik va arxeologik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Natijada suv tizimlarining o‘zgarishi aholi joylashuvi va sug‘orish inshootlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

Arxeologik ma’lumotlar Uzboy bo‘ylab XI–XIV asrlarda karvon yo‘llari va karvonsaroylar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Otra-kuyu, Talayxan-ota va Akyayla kabi yodgorliklar, shuningdek, turli davrlarga oid kulolchilik buyumlarining topilishi ushbu hududning tarixiy transport va iqtisodiy makon sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Uzboy bilan bog‘liq arxeologik ma’lumotlar nafaqat suv oqimini tiklash, balki qadimgi aholi migratsiyasini o‘rganish uchun ham muhimdir. Suv resurslarining o‘zgarishi natijasida aholi ayrim hududlarni tark etgan va boshqa suv manbalariga yaqin joylarga ko‘chgan bo‘lishi mumkin.

Amudaryoning tarixiy o‘zanlari haqidagi tadqiqotlarda antropogen omil alohida ahamiyatga ega. Xorazm hududida qadimdan yirik sug‘orish inshootlari qurilgan. Damba va kanallarning barpo etilishi suv oqimining yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatgan.S.P. Tolstov tadqiqotlarida Amudaryo suv tizimining ayrim tarixiy davrlarda o‘zgarishi aholi tomonidan qurilgan irrigatsiya inshootlarining vayron bo‘lishi yoki qayta tiklanishi bilan bog‘langan. Jumladan, mo‘g‘ullar istilosi davrida sug‘orish tizimlarining buzilishi natijasida Sariqamish havzasiga suv kelishi kuchaygani haqida xulosalar berilgan. Keyinchalik sug‘orish tarmoqlarining tiklanishi bilan suv oqimi yana boshqa yo‘nalishlarga o‘zgargan. Bu holat Amudaryo tarixini faqat tabiiy geografik jarayonlar orqali tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Daryoning oqimiga insonning xo‘jalik faoliyati ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan.

XX asr o‘rtalarida Amudaryoni burish g‘oyasi yana davlat darajasida muhokama qilindi. 1932-yilda Amudaryo suvlarini Uzboy yo‘nalishiga qaytarish g‘oyasi rasmiy darajada qo‘llab-quvvatlangan. Keyinchalik ushbu reja keng ko‘lamli gidrotexnik loyihaga aylantirildi. 1950–1953-yillarda janubiy Orolbo‘yidan Krasnovodsk qo‘ltig‘igacha taxminan 1200 km uzunlikdagi Bosh Turkman kanali qurilishi rejalashtirildi. Loyiha Amudaryo suvlarini g‘arbga yo‘naltirish va yangi suv-transport tizimini shakllantirishni nazarda tutgan. Biroq I.V. Stalin vafotidan keyin loyiha to‘xtatildi. Mazkur loyiha tarixiy nuqtayi nazardan muhim saboq beradi. Birinchidan, Amudaryo oqimini yirik masshtabda o‘zgartirish texnik jihatdan murakkab bo‘lgan. Ikkinchidan, suv resurslarini bir hududdan boshqasiga yo‘naltirish butun ekologik tizimga ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi.

Amudaryoning qadimgi o‘zanlari tarixini o‘rganish zamonaviy Orolbo‘yi ekologik muammolarini tushunishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur hududda suv oqimi o‘zgarishi tarix davomida bir necha marta sodir bo‘lgan. Uning sabablari iqlimiy o‘zgarishlar, tabiiy gidrologik jarayonlar va insonning irrigatsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.Uzboy tarixi shuni ko‘rsatadiki, Amudaryo havzasi yagona va o‘zgarmas gidrologik tizim emas. Uning tarmoqlari tarixiy davrlarda o‘zgarib turgan. Shuning uchun Amudaryo va Orol dengizi tarixini o‘rganishda “suv–jamiyat–tabiat” munosabatlarini yaxlit tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Amudaryoning qadimgi o‘zanlari atrofidagi arxeologik yodgorliklar esa suv resurslarining inson sivilizatsiyasi uchun qanday strategik ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Suvning mavjudligi aholi manzilgohlari va savdo yo‘llarining shakllanishiga turtki bergan bo‘lsa, suv oqimining o‘zgarishi ushbu makonlarning inqiroziga olib kelgan.

Shu nuqtayi nazardan, Uzboyni faqat “quruq daryo o‘zani” sifatida emas, balki Markaziy Osiyoning tarixiy-ekologik xotirasini saqlovchi muhim geografik va arxeologik makon sifatida baholash lozim.

Xulosa. Amudaryoning qadimgi o‘zanlari va Uzboy tarixi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida suv resurslarining hal qiluvchi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Birinchidan, Amudaryoning qadimgi o‘zanlari tarixiy davrlarda o‘zgarib turgan murakkab gidrologik tizimning tarkibiy qismi bo‘lgan. Ularning

shakllanishi va faollashuvida tabiiy-iqlimiy jarayonlar bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim o‘rin tutgan.

Ikkinchidan, Uzboy va Sariqamish hududlari qadimgi va o‘rta asrlarda aholi joylashuvi, sug‘orish , dehqonchilik va savdo yo‘llari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik materiallar Uzboy bo‘ylab karvon yo‘llari va aholi manzilgohlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, XVIII asr boshlarida Amudaryoning “eski o‘zani”ni tiklash g‘oyasi mahalliy aholi orasidagi tarixiy xotira va rivoyatlardan siyosiy-geografik loyiha darajasiga ko‘tarildi. Xo‘ja Nafas bilan bog‘liq ma’lumotlar mazkur g‘oyaning mahalliy ildizlarini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

To‘rtinchidan, XIX asrda Amudaryoning qadimgi oqimi masalasi geograflar, geologlar va tarixchilar o‘rtasida jiddiy ilmiy bahslarga sabab bo‘ldi. Turli tadqiqotchilar Uzboyning kelib chiqishi, Amudaryo bilan aloqasi va Kaspiy dengiziga suv yetkazish imkoniyati bo‘yicha turli gipotezalarni ilgari surdilar.

Beshinchidan, XX asrda arxeologik tadqiqotlarning ushbu masalaga jalb qilinishi “eski o‘zan” muammosini yangi bosqichga olib chiqdi. Arxeologiya, geomorfologiya va tarixiy manbalarni birlashtirish orqali Amudaryo, Sariqamish va Uzboy tizimining tarixiy dinamikasini chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Oltinchidan, Amudaryoni burish bo‘yicha XVIII va XX asrlardagi yirik loyihalar suv resurslarini boshqarish masalasi doimo nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va geostrategik ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Amudaryoning qadimgi o‘zanlari tarixini o‘rganish Orolbo‘yining ekologik tarixi, aholi migratsiyasi, qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi va mintaqadagi suv munosabatlarini kompleks tadqiq etish uchun muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андреев А.А. «Старое» русло Амударьи: от древних легенд и проектов XVIII в. к научной дискуссии второй половины XIX – первой половины XX в. // Новое прошлое. 2019. №2. С. 36–51.

2. Глуховский А.И. Пропуск вод р. Аму-Дарьи по старому руслу в Каспийское море и образование непрерывного водного Аму-Дарьинско-Каспийского пути. СПб., 1893.

3. Каульбарс А.В. Древнейшие русла Амударьи // Записки Императорского Русского географического общества. 1887. Т. XVII.

4. Коншин А.М. Разъяснение вопроса о древнем течении Амударьи // Записки Императорского Русского географического общества. 1897. Т. XXXIII.

5. Княжецкая Е.А. Судьба одной карты (о географе А. Бековиче-Черкасском). М.: Мысль, 1964.

6. Обручев В.А. Закаспийская низменность. Геологический и орографический очерк. СПб., 1890.

7. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.: Издательство Академии наук СССР, 1948.

8. Толстов С.П. Низовья Аму-Дарьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 3. М., 1960.

9. Yagodin V.N. The Medieval Aral Sea Crisis // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. 2005. Band 37. S. 307–322.

10. Létolle R. Histoire de l'Ouzboï, cours fossile de l'Amou Darya: synthèse et éléments nouveaux // Studia Iranica. 2000. Vol. 29, Issue 2. P. 195–240.

11. Létolle R., et al. Uzboy and the Aral regressions: A hydrological approach // Quaternary International. 2007. Vols. 173–174. P. 125–136.

XORAZMDA FUTBOL SPORT TURINING RIVOJLANISHI VA OMMALASHISHI

UO‘K 94(575.1):556.51

Yaxshimuratov San’atbek Yaxshimuratovich,
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazmda futbol sport turining rivojlanishi, uning dastlabki ommalashish bosqichlari va tarixiy evolyutsiyasi arxiv hujjatlari hamda davriy matbuot materiallari asosida yoritilgan. Tadqiqotda 1920-yillarning boshlarida jadid ziyolilari va yoshlar tashkilotlari faoliyati tufayli vohaga kirib kelgan futbol o‘yini, dastlabki sport maydonlari, qo‘lbola inventarlar hamda an’anaviy qarashlar bilan to‘qnashuv jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, "Spartak" ko‘ngilli jamiyatlari faoliyati, shaharlararo ilk rasmiy o‘yinlar, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi sport harakati va 1989 yilda professional "Xorazm" futbol klubining tashkil etilish bosqichlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, futbol tarixi, jadidlar, «Spartak» jamiyati, Urganch, Xiva, arxiv hujjatlari, «Xorezmskaya pravda», professional klub.*

Annotatsiya: *В статье на основе архивных документов и материалов периодической печати освещаются история зарождения, этапы первоначальной популяризации и историческая эволюция футбола в Хорезмском оазисе. В исследовании проанализированы процессы проникновения футбола в начале 1920-х годов благодаря деятельности джадидов и молодежных организаций, появление первых спортивных площадок, самодельного инвентаря, а также столкновение нового вида спорта с традиционными взглядами консервативного населения. Кроме того, освещены деятельность добровольных спортивных обществ «Спартак», первые межгородские официальные матчи, спортивное движение в годы Второй мировой*

войны и создание профессионального футбольного клуба «Хорезм» в 1989 году.

Ключевые слова: *Хорезм, история футбола, джадиды, общество «Спартак», Ургенч, Хива, архивные документы, «Хорезмская правда», профессиональный клуб.*

Annotatsiya: *This article highlights the emergence, initial popularization stages, and historical evolution of football in the Khorezm oasis based on archival documents and periodical press materials. The study examines the introduction of football to the region in the early 1920s through the activities of Jadid intellectuals and youth organizations, the establishment of the first sports grounds, self-made equipment, and the clash between the new sport and the traditional views of the local population. Furthermore, the paper details the activities of the "Spartak" voluntary sports societies, the first official intercity matches, the sports movement during World War II, and the establishment of the professional football club "Khorezm" in 1989.*

Keywords: *Khorezm, history of football, Jadids, "Spartak" society, Urgench, Khiva, archival documents, "Khorezmskaya pravda", professional club.*

Kirish

Xorazm vohasi o‘zining ko‘p asrlik boy madaniy merosi, qadimiy me'morchiligi va o‘ziga xos an'analari bilan bir qatorda, XX asrda hududga kirib kelgan zamonaviy sport turlarining ham qutlug‘ beshigiga aylangan. Bugungi kunda o‘lka sport va madaniyat salohiyatining muhim tarkibiy qismiga aylangan futbol o‘yini bu zaminga osonlikcha kelib qolmagani, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy burilishlar va ma'rifiy o‘zgarishlar davrini bosib o‘tgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqolada Xorazmda futbolning ilk kurtaklari otishidan tortib, professional klub darajasigacha bo‘lgan tarixiy bosqichlari arxiv hujjatlari va davriy matbuot manbalari asosida yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Xorazm vohasida futbol sport turining tarixiy shakllanishi, uning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liqligi masalasi turli davr manbalari, arxiv hujjatlari hamda ilmiy-tadqiqot adabiyotlarida o‘z aksini topgan. Mavzuni ilmiy jihatdan yoritishda bir nechta asosiy manbalar guruhiga tayanildi.

Birinchi guruhni XX asr boshlaridagi davriy matbuot materiallari, xususan, o‘lka hayotini yoritib boruvchi «Xorezmskaya pravda» gazetasining ilk tarixiy sonlari tashkil etadi. Mazkur nashrlarda 1920-yillarning boshlarida Xiva va Urganch shahrida yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishi, dastlabki ko‘ngilli jamiyatlarning tashkil etilishi, shuningdek, yangi turmush tarzi bilan bog‘liq o‘zgarishlarning mahalliy aholi ongiga singish jarayonlari jonli ravishda yoritilgan. Matbuot sahifalaridagi xabarlar va tanqidiy maqolalar o‘sha davrdagi an’anaviy qarashlar bilan zamonaviy sport o‘rtasidagi ziddiyatlarni o‘rganishda muhim birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh manbalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlaridagi hujjatlar, jumladan, Xorazm okrug ijroiya qo‘mitasining sport hisobotlari va arxiv yig‘ma jildlaridan iborat. Ushbu rasmiy hujjatlar vohada jismoniy tarbiya va sport harakatining tizimlashuvi, xususan, «Spartak» kabi ko‘ngilli jamiyatlar faoliyati, birinchi jamoalarning tuzilishi hamda shaharlararo birinchiliklarning tashkil etilishiga oid aniq statistik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Uchinchi guruhni mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy-tarixiy tadqiqotlar va ocherklar tashkil etadi. Jumladan, M. Ahmedovning «Xorazmda madaniy hayot va o‘zgarishlar», S. Matyaqubovning «Xorazm sporti: tarixi va buguni», shuningdek, o‘lka tarixi va sport ocherklari bo‘yicha boshqa ilmiy ishlar mintaqada zamonaviy madaniyatning o‘rnashuvi jarayonlarini kengroq tahlil qilish imkonini berdi. Mazkur tadqiqotlarda jadid ziyolilarining ma’rifiy harakatlari sportning ommalashuviga qanday zamin yaratgani ilmiy asoslab berilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar va arxiv manbalarining qiyosiy tahlili Xorazmda futbol shunchaki o‘yin emas, balki jamiyatni modernizatsiya qilish, yoshlarni uyushtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishdagi muhim ijtimoiy omillardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorazm vohasida futbolning paydo bo‘lishi va ommalashishi tarixini o‘rganish muayyan ilmiy tamoyillar va yondashuvlarga tayangan holda amalga

oshirildi. Mazkur mavzuni har tomonlama, xolisona va obyektiv yoritishda tarixiy-qiyosiy, mantiqiy va xronologik usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Xorazm vohasida futbol sport turining kirib kelishi va asta-sekin ommalashuvi jarayoni o‘tgan asrning dastlabki yigirma yilligiga, aniqrog‘i, mintaqada kechgan keskin ijtimoiy-siyosiy burilishlar davriga borib taqaladi[1]. Tarixiy manbalar va tadqiqotlarga ko‘ra, 1910-yillarda dastlab Toshkent hamda Farg‘ona vodiysida, xususan Qo‘qon shahrida o‘zbek futbolining ilk kurtaklari otgan bo‘lsa, ko‘p o‘tmay, 1920-yillarning boshlariga kelib bu yangi o‘yin to‘lqini Amudaryo quyi havzasiga — Xorazm vohasiga ham yetib kelgan.

Mazkur jarayon hududda yangi madaniy muhit va zamonaviy sport turlarining o‘rnashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mahalliy yoshlar orasida jamoaviy o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishning keskin ortishiga zamin yaratgan[2].

“Xorezmskaya pravda” gazetasining ilk tarixiy sonlari va arxiv hujjatlariga tayanib, futbolning vohadagi shakllanish davrini quyidagi muhim bosqichlarga ajratish mumkin:

- Ilk qadamlar: Jadidlar va Mahalliy yoshlar harakati (1920–1924 yillar).

Xorazmda futbol dastlab Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati e’lon qilingan ilk yillarda paydo bo‘ldi. Vohaga zamonaviy madaniyat, ta’lim va sport yangiliklarini olib kirishda mahalliy jadid ziyolilari va yangi tuzilgan yoshlar tashkilotlari katta rol o‘ynadi.

Xorazmda zamonaviy futbolning ilk sahifalari aynan maydonlar va inventar yetishmagan sharoitda, asosan Xiva hamda Urganch shaharlaridagi harbiy garnizonlar atrofi va ta'lim muassasalarining keng sahnalarida boshlangan. Dastlabki musobaqalar uchun futbol toplari yetishmagani bois, hududdagi mohir kosiblar maxsus charmdan qo‘lda yasashgan yoki markaziy shaharlardan maxsus keltirilgan oddiy inventarlardan foydalanilgan.

Jamiyatdagi eskirgan qoliplar va an'anaviy dunyoqarash bilan yangi sport turining to‘qnashuvi muqarrar edi. O‘sha davr matbuot sahifalarida qayd etilishicha, mahalliy aholining konservativ va turg‘un fikrlovchi qatlamlari kalta sport liboslarida to‘p ortidan quvib yurgan yoshlarning qilig‘ini avvaliga o‘zgacha hayrat, hatto keskin tanqid ostida qarshi olgan. Shunga qaramay, futbolning o‘ziga

[1] O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005. — B. 45.
[2] Ahmedov M. Xorazmda madaniy hayot va o‘zgarishlar (1917–1930 yy.). — Urganch: Xorazm, 2018. — B. 112.

xos dinamikasi, jozibasi va shiddati qisqa fursat ichida barcha to‘siqlarni yengib o‘tib, hududdagi minglab o‘g‘lonlarni o‘ziga rom etishga ulgurgan[3].

- Tizimlashish davri (1925–1930 yillar).

Bu davrga kelib futbol shunchaki ko‘ngilochar o‘yindan rasmiy maqomga ega sport turiga aylana boshladi:

Hududda sport harakatining uyushqoq tus ola boshlashi bevosita dastlabki ko‘ngilli jamiyatlar, xususan, Xiva va Urganchda tashkil etilgan "Spartak" kabi sport tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liqdir. Mazkur jamiyatlar qoshida maxsus futbol jamoalari tuzilib, ularning safini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. O‘sha davr matbuotida ishchi-dehqon qatlamiga mansub yoshlarni mazkur sport to‘garaklariga va futbol jamoalariga a'zo bo‘lishga chorlovchi maxsus e'lonlar muntazam ravishda chop etila boshlagan.

Xorazmda futbol harakati shiddat bilan rivojlanib, o‘n yillikning so‘ngiga kelib yanada kengroq qamrov kasb etdi. 1920-yillarning oxirlarida Xiva va Urganch shaharlarining asosiy terma jamoalari o‘rtasida voha birinchiligi uchun ilk rasmiy va o‘rtoqlik o‘yinlari tashkil etila boshlandi. Mazkur shaharlararo bellashuvlar shunchaki sport musobaqasi bo‘lib qolmay, balki butun mahalliy aholi uchun chinakam bayramga aylangan: maydon atrofidagi muxlislar oqimi shunchalik ko‘p bo‘lardiki, barcha tomoshabinlar sig‘may, maydon atrofi odamlar bilan to‘lib-toshib turar edi[4].

- Urush davri va undan keyingi professional bosqich (1940–1980 yillar).

Ikkinchi jahon urushi yillarining og‘ir va mashaqqatli sinovlariga qaramay, xalqning ruhini ko‘tarish, ularga bardosh bag‘ishlash maqsadida vohada futbol o‘yinlari vaqti-vaqti bilan tashkil etib turilgan. O‘sha davrdagi qiyinchiliklar va yetishmovchiliklarga qaramasdan sport o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, bu haqidagi qiziqarli ma’lumotlar front ortidagi mehnatkashlarning kundalik hayoti va fidokorona mehnatini yoritib boruvchi matbuot sahifalarida qisqacha xabarlar tarzida o‘z aksini topgan[5].

Xorazm futboli bosib o‘tgan uzoq va mashaqqatli taraqqiyot yo‘lining mantiqiy davomi sifatida 1989 yilda Urganch shahrida professional darajadagi «Xorazm» futbol klubiga asos solindi. Mazkur jamoa keyinchalik yurtimiz

[3] «Xorezmskaya pravda» gazetasi. «O yunosheskom sporte v Xive i Urgenche» maqolasi, 1923-yil 14-mart.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-1831-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish (Xorazm okrug ijroiya qo‘mitasining sport hisobotlari).
[5] «Xorezmskaya pravda» gazetasi. 1943-yilgi maxsus sonlar va urush davri xronikasi.

mustaqillikka erishgach, mamlakat futbolidagi nufuzli divizionlarda viloyat nomini sharaf bilan himoya qildi hamda bugungi kunda ham o‘zining shonli tarixiy sahifalarini muvaffaqiyatli davom ettirib kelmoqda[6].

Xulosa

Xorazm vohasida futbolning shakllanish va rivojlanish tarixi mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlabki yillarda yetishmovchiliklar, inventar tanqisligi va an’anaviy dunyoqarash qarshiliklariga duch kelgan bu sport turi vaqt o‘tishi bilan jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Jadid ziyolilari tashabbusi, ko‘ngilli sport jamiyatlari faoliyati va fidoyi yoshlarning g‘ayrati tufayli oddiy hovli o‘yinlaridan boshlangan harakat professional jamoalar darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda qadimgi Xorazm zaminida yashnab kelayotgan futbol an’analari o‘tgan asrning mashaqqatli, ammo shonli yo‘lini bosib o‘tgan tarixiy merosning mantiqiy davomi sifatida yosh avlodni birlashtirib, o‘lka sport madaniyatining yorqin ramzi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005. — B. 45.

2. Ahmedov M. Xorazmda madaniy hayot va o‘zgarishlar (1917–1930 yy.). — Urganch: Xorazm, 2018. — B. 112.

3. «Xorezmskaya pravda» gazetasi. «O yunosheskom sporte v Xive i Urgenche» maqolasi, 1923-yil 14-mart.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-1831-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish (Xorazm okrug ijroiya qo‘mitasining sport hisobotlari).

5. «Xorezmskaya pravda» gazetasi. 1943-yilgi maxsus sonlar va urush davri xronikasi.

6. O‘lka tarixi va sport ocherklari. — Urganch, 2008. — B. 91.

[6] O‘lka tarixi va sport ocherklari. — Urganch, 2008. — B. 91.

XORAZMDA MENNONIT NEMISLARINING MODDIY-MADANIY MEROSI: ME’MORCHILIK, HUNARMANDCHILIK MASALALARI

Abdullayeva Mohira Saparboy qizi,
Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi kichik ilmiy xodimi
mokhiraabdullayeva1998@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-7092-1940

UO‘K 94(575.1):556.51

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi hududiga ko‘chib kelgan mennonit nemislarining Xorazm vohasida shakllantirgan va qoldirgan moddiy-madaniy merosi tarixiy-arxiv manbalari hamda ilmiy adabiyotlar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda mennonit jamoasining Oqmachit qishlog‘ida joylashuvi, mahalliy aholi bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari, me’morchilik va hunarmandchilik faoliyati, sanoat-texnik yangiliklarning joriy etilishi, shuningdek, Nurillaboy saroyi qurilishidagi ishtiroki tahlil qilinadi. Alohida e’tibor Vilgelm Penner va Xudoybergan Devonov faoliyati misolida fotografiya va kino san’atining rivojlanishiga ko‘rsatilgan ta’sirga qaratiladi. Shuningdek, 1937-yildagi siyosiy surgun natijasida mennonit jamoasining Xorazmdan majburiy ko‘chirilishi va buning ularning moddiy-madaniy merosiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Oqmachitdagi tarixiy obyektlarning bir qismi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning ilmiy hujjatlashtirish, huquqiy muhofazasi, konservatsiyasi va muzeylashtirilishi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatadi. Tadqiqotda mennonit merosini saqlash va undan samarali foydalanish bo‘yicha, jumladan, uni hujjatlashtirish, raqamlashtirish, restavratsiya qilish va davlat muhofazasiga olish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mennonit nemislari, Xiva xonligi, Oqmachit, moddiy-madaniy meros, me’morchilik, hunarmandchilik, Nurillaboy saroyi, fotografiya.*

Аннотация: *В статье исследуется материально-культурное наследие меннонитов-*

немцев, переселившихся на территорию Хивинского ханства в конце XIX – начале XX века и оставивших значительный след в культурно-историческом пространстве Хорезмского оазиса. Исследование основано на архивных источниках и научной литературе. Анализируются расселение меннонитской общины в селе Ак-Мачит, её социально-экономические и культурные связи с местным населением, деятельность в области архитектуры и ремесла, внедрение промышленных и технических новшеств, а также участие меннонитов в строительстве дворца Нуриллабай. Особое внимание уделяется влиянию деятельности Вильгельма Пэннера и Худайбергана Деванова на развитие фотографии и кинематографии в Хорезме. Рассматриваются также последствия принудительного переселения меннонитской общины из Хорезма в результате политических репрессий 1937 года и их влияние на сохранность материально-культурного наследия. Результаты исследования показывают, что, несмотря на сохранение части исторических объектов в Ак-Мачите, их научная документация, правовая охрана, консервация и музеефикация остаются недостаточно развитыми. В статье разработаны практические рекомендации по сохранению и эффективному использованию меннонитского наследия, включая его документирование, цифровизацию, реставрацию и включение в систему государственной охраны.

Ключевые слова: *Меннониты-немцы, Хивинское ханство, Ак-Мачит, материально-культурное наследие, архитектура, ремесло, дворец Нуриллабай, фотография.*

Abstract: *This article examines the material and cultural heritage of Mennonite Germans who migrated to the territory of the Khiva Khanate in the late nineteenth and early twentieth centuries and left a significant legacy in the historical and cultural landscape of the Khorezm oasis. The study is based on archival sources and scholarly literature. It analyzes the settlement of the Mennonite community in the village of Aqmachit, its socio-economic and cultural relations with the local population, activities in architecture and crafts, the introduction of industrial and technical innovations, and the participation of Mennonite craftsmen in the construction of the Nurillaboy Palace. Particular attention is paid to the contribution of Wilhelm Penner and Khudaybergen Devanov to the development of photography and cinema in Khorezm. The study also examines the forced relocation of the Mennonite community from Khorezm as a result of the political repressions of 1937 and their impact on the preservation of the community's material and cultural heritage. The findings indicate that although some historical objects in Aqmachit have survived, their scientific*

documentation, legal protection, conservation, and museumification remain insufficiently developed. The article provides practical recommendations for the preservation and effective use of Mennonite heritage, including its documentation, digitization, restoration, and inclusion under state protection.

Keywords: *Mennonite Germans, Khiva Khanate, Aqmachit, material and cultural heritage, architecture, crafts, Nurillaboy Palace, photography.*

KIRISH

O‘zbekiston hududida tarixan istiqomat qilgan turli etnik guruhlarning moddiy va nomoddiy madaniy merosini o‘rganish mamlakat tarixining ko‘pmillatli xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm vohasida istiqomat qilgan mennonit nemislarining tarixiy-madaniy merosi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ularning Xorazm hududiga kelishi nafaqat migratsiya jarayonlari, balki turli madaniy va texnologik an’analarning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan ham muhim tarixiy hodisa hisoblanadi.

XIX asrning 80-yillarida Rossiya imperiyasi hududidan O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan mennonitlar Xiva xonligi hududida ham o‘z jamoalarini shakllantirdilar. Manbalarda ularning Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning ruxsati bilan Oqmachit hududiga joylashtirilgani qayd etiladi [1; 4; 12]. Diniy e’tiqodlari sababli harbiy xizmatdan bosh tortish, iqtisodiy faoliyat yuritish uchun qulay sharoit izlash hamda nisbatan mustaqil jamoa sifatida yashash istagi ularning migratsiyasining muhim omillaridan biri bo‘lgan.

Mennonitlarning Xorazm hayotidagi faoliyati, avvalo, hunarmandchilik, yog‘och va metallga ishlov berish, mexanika, tegirmonsozlik, aravasozlik va boshqa texnik sohalarda namoyon bo‘ldi [7; 8; 10]. Ular olib kirgan ayrim texnologik tajribalar mahalliy ishlab chiqarish an’analari bilan uyg‘unlashib, Xorazmning xo‘jalik va madaniy hayotida muayyan yangilanishlarni yuzaga keltirdi.

Mennonit ustalarining me’morchilik sohasidagi faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, Nurillaboy saroyi qurilishida nemis duradgorlarining ishtiroki, saroyning yog‘och qismlari, eshik va deraza elementlari hamda parket ishlarida ularning mahoratidan foydalanilgani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [2; 7; 10]. Bu holat mahalliy Xorazm me’morchiligi bilan Yevropa duradgorlik tajribasining o‘zaro ta’sirini o‘rganish uchun muhim material beradi. Mennonit

jamoasining Xorazm madaniy hayotidagi yana bir muhim yo‘nalishi fotografiya bilan bog‘liq. Vilgelm Pennerning fotografiya sohasidagi faoliyati va uning Xudoybergan Devonov bilan ijodiy hamkorligi Xorazmda zamonaviy fotografiya madaniyatining shakllanishi tarixida muhim o‘rin tutadi [9]. Shu sababli mennonitlarning merosini faqat etnik jamoa tarixining bir qismi sifatida emas, balki Xorazmning texnologik, me’moriy va madaniy taraqqiyoti bilan bog‘liq kompleks tarixiy hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Biroq, XX asrning 20–30-yillarida siyosiy va ijtimoiy sharoitning o‘zgarishi mennonit jamoasining an’anaviy hayot tarziga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. 1937-yildagi siyosiy repressiyalar va majburiy ko‘chirishlar natijasida jamoa tarqatib yuborildi. Natijada mennonitlarga tegishli bo‘lgan turar joylar, ustaxonalar va boshqa obyektlarning bir qismi o‘z funksiyasini yo‘qotdi yoki keyinchalik buzilib ketdi [3; 5]. Mavjud ilmiy adabiyotlarda mennonitlarning Xorazmdagi tarixi, xo‘jalik faoliyati va diniy hayoti ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning moddiy-madaniy merosi obyektlarini yaxlit tizim sifatida aniqlash, tasniflash va saqlash muammolari yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur maqolaning ilmiy muammosi mennonit jamoasining Xorazmda qoldirgan moddiy izlarini tarixiy, me’moriy va madaniy meros nuqtayi nazaridan tizimlashtirish hamda ularni muhofaza qilishning ilmiy-amaliy choralarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning manbaviy bazasini arxiv hujjatlari, birlamchi guvohlik manbalari, ilmiy tadqiqotlar hamda muzey fondlariga oid materiallar tashkil etadi.

Arxiv manbalari: Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyati davlat arxivi fondlaridagi Xiva xonligi davri hamda sovet hokimiyatining dastlabki yillariga oid hujjatlardan foydalanildi. Jumladan, 1-fond doirasidagi Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari, 126-fond tarkibidagi qurilish va me’morchilikka oid materiallar hamda 394-fond doirasidagi 1920–1930-yillardagi Oqmachit qishloq sho‘rosi va jamoa xo‘jaligiga oid hujjatlar tadqiqotning asosiy arxiv manbalarini tashkil etdi [1–3]. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari va sovet davridagi ma’muriy hamda repressiv siyosatga oid materiallardan foydalanildi [4; 5].

Arxiv manbalarini tahlil qilishda tarixiy-tanqidiy va manbashunoslik usullari qo‘llanildi. Hujjatlardagi ma’lumotlarning xronologik, institutsional va mazmuniy jihatdan o‘zaro muvofiqligi qiyosiy tekshirildi.

Birlamchi guvohlik va ilmiy adabiyotlar: Mennonitlarning Xorazmdagi kundalik hayoti, xo‘jalik faoliyati va madaniy muhitini yoritishda Herman Yantzenning xotiralari [6], Valdemar Yanzenning mennonit mebelsozligi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqoti [7] hamda xorijiy tadqiqotchilar F. R. Belk [12], A. Ratatz [11] va H. Huebert [13] asarlaridan foydalanildi.

Xorazmdagi fotografiya va kino san’ati tarixini o‘rganishda M. Matrizayevning tadqiqoti [9], hunarmandchilik va me’morchilik masalalarida A. Boltayevning asari [10], mennonitlarning Xorazmdagi faoliyatini o‘rganishda K. Rahimovning monografiyasi [8] asosiy ilmiy adabiyotlar sifatida jalb qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari mennonitlarning Xorazmga kelishi XIX asrning 80-yillarida Rossiya imperiyasidagi diniy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lganligini ko‘rsatadi. Diniy e’tiqodlari asosida harbiy xizmatdan bosh tortgan mennonitlarning bir qismi dastlab Rossiya imperiyasining boshqa hududlariga ko‘chirilgan, keyinchalik esa O‘rta Osiyoga migratsiya qilgan [4; 12]. Xiva xonligi hududiga kelgan mennonitlar Oqmachit qishlog‘ida joylashtirilgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida xorijiy mutaxassislar va texnologik tajribalarni jalb qilish siyosati ularning mahalliy xo‘jalik hayotiga qo‘shilishiga imkon yaratgan [1; 8].

Mennonitlarning Oqmachitdagi hayoti diniy jamoaviylikni saqlash bilan birga, mahalliy aholi bilan iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi bilan xarakterlangan. Natijada ularning faoliyati faqat ichki jamoa ehtiyojlari bilan cheklanib qolmay, Xorazmning mahalliy xo‘jalik tizimi bilan ham bog‘langan.

Tadqiqot davomida Oqmachit qishlog‘ining me’moriy-rejaviy tuzilishi mennonit jamoasining o‘ziga xos ijtimoiy tashkiloti va xo‘jalik ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lganligi aniqlandi. Qishloqning to‘g‘ri chiziqli ko‘cha tarmog‘i, hovli uchastkalarining nisbatan muntazam joylashtirilishi va jamoat makonlarining mavjudligi uning an’anaviy Xorazm qishloqlaridan ayrim jihatlari bilan farqlanganini ko‘rsatadi [14].

Oqmachit me’moriy muhiti mennonitlarning Yevropa qurilish tajribasi bilan mahalliy me’moriy an’analarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan. Turar joylar, xo‘jalik inshootlari va ustaxonalar birgalikda jamoaning kundalik hayoti va ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlovchi yaxlit makon hosil qilgan.

Mennonitlarning Xorazm me’morchiligi tarixidagi eng muhim faoliyat yo‘nalishlaridan biri Nurillaboy saroyi qurilishi bilan bog‘liq. Mavjud ilmiy

ma’lumotlarga ko‘ra, nemis duradgorlari saroyning ayrim ichki qismlarida, xususan, yog‘och elementlari, eshik va deraza qismlari hamda parket ishlari tayyorlanishida ishtirok etgan [2; 7; 10].

Bu jarayon Xorazmning an’anaviy yog‘och o‘ymakorligi va Yevropa duradgorlik texnikalarining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon nafaqat saroyning badiiy-me’moriy qiyofasiga, balki Xorazmda qurilish va bezak texnologiyalarining rivojlanishiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalari mennonitlarning Xorazmdagi faoliyatida yog‘och va metallga ishlov berish, aravasozlik, mexanika, tegirmonsozlik hamda ayrim ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi [7; 8].

Ularning hunarmandchilik tajribasi mahalliy ishlab chiqarish an’analari bilan o‘zaro aloqaga kirishgan. Natijada texnik bilimlarning tarqalishi, mehnat qurollari va maishiy buyumlarning takomillashuvi kabi jarayonlar yuzaga kelgan.

Shu ma’noda, mennonitlardan qolgan moddiy merosni faqat me’moriy obyektlar bilan cheklash mumkin emas. Unga ustaxonalar, ishlab chiqarish moslamalari, yog‘och va metall buyumlar, maishiy jihozlar va texnik qurilmalar ham kiradi.

Mennonitlar merosining muhim yo‘nalishlaridan yana biri fotografiya tarixidir. Vilgelm Pennerning fotografiya sohasidagi faoliyati hamda Xudoybergan Devonov bilan ijodiy hamkorligi Xorazmda zamonaviy fotografik madaniyatning rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan [9].

Mazkur hamkorlik texnologik bilimning bir madaniy muhitdan boshqasiga o‘tishi va mahalliy ijodiy tajriba bilan uyg‘unlashishining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli Vilgelm Penner faoliyati mennonitlarning moddiy merosidan tashqari, Xorazmning ilmiy-texnik va madaniy hayotining ham tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiq etilgan materiallar 1920–1930-yillarda mennonit jamoasining ijtimoiy mavqeyi o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 1937-yildagi siyosiy ta’qiblar va majburiy ko‘chirishlar jamoaning tarixiy mavjudligiga keskin ta’sir ko‘rsatgan [3; 5]. Jamoaning tarqatib yuborilishi natijasida turar joylar, ustaxonalar va boshqa jamoaviy obyektlarning an’anaviy funksiyasi yo‘qolgan. Ularning ayrimlari boshqa maqsadlarda foydalanilgan, ayrimlari esa qarovsiz qolgan yoki vaqt o‘tishi bilan buzilgan.

Shunday qilib, mennonitlarning Xorazmdagi moddiy-madaniy merosining qisqarishiga nafaqat tabiiy yemirilish, balki siyosiy-ma’muriy o‘zgarishlar, qarovsiz qolish va keyingi xo‘jalik faoliyati ham ta’sir ko‘rsatgan.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari mennonit nemislarining Xorazmdagi faoliyatini faqat migratsiya tarixi doirasida emas, balki mintaqaning me’moriy, texnologik va madaniy rivojlanishi bilan bog‘liq holda baholash zarurligini ko‘rsatadi. Mavjud tadqiqotlarda mennonitlarning Xorazmga ko‘chib kelishi va xo‘jalik faoliyati ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da [6; 8; 11–13], ularning moddiy-madaniy merosini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Oqmachit qishlog‘ining me’moriy-rejaviy tuzilishi mennonitlarning yashash va xo‘jalik ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Qishloqdagi nisbatan muntazam ko‘cha tarmog‘i va hovli uchastkalarining joylashuvi uning an’anaviy Xorazm qishloqlaridan ayrim jihatlari bilan farqlanganini ko‘rsatadi [14]. Biroq bu xususiyatlarni faqat Yevropa me’morchiligining bevosita ta’siri sifatida emas, balki Yevropa tajribasi va mahalliy qurilish an’analarining o‘zaro moslashuvi natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Nurillaboy saroyi qurilishida nemis duradgorlarining ishtiroki ham madaniy-texnologik almashinuvning muhim ko‘rinishidir. Ularning yog‘och elementlari, eshik va deraza qismlari hamda parket ishlaridagi ishtiroki [2; 7; 10] mahalliy Xorazm ustachiligi bilan Yevropa duradgorlik tajribasi o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ta’sirning aniq ko‘lamini belgilash uchun arxiv hujjatlari va obyektning xususiyatlarini yanada chuqur o‘rganish talab etiladi.

Mennonitlarning yog‘och va metallga ishlov berish, aravasozlik, mexanika va tegirmonsozlik sohalaridagi faoliyati Xorazmda texnik tajribaning rivojlanishiga muayyan ta’sir ko‘rsatgan [7; 8; 10]. Bu jarayonni Yevropa texnologiyalarining bir tomonlama joriy etilishi sifatida emas, balki yangi texnik tajribalarning mahalliy ishlab chiqarish an’analari bilan uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Fotografiya sohasida Vilgelm Penner va Xudoybergan Devonov o‘rtasidagi ijodiy aloqalar texnologik bilimlarning mahalliy madaniy muhitga kirib kelishining muhim namunasi hisoblanadi [9]. Bu holat mennonitlarning Xorazmdagi merosi moddiy obyektlar bilangina cheklanmasligini, balki texnik bilim va madaniy tajribani ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

1937-yildagi siyosiy jarayonlar va majburiy ko‘chirishlar mennonit jamoasining tarixiy mavjudligiga keskin ta’sir ko‘rsatdi [3; 5]. Jamoaning tugatilishi natijasida turar joylar, ustaxonalar va boshqa obyektlar o‘zining avvalgi funksional muhitidan uzildi. Ayrim obyektlarning qarovsiz qolishi, boshqa maqsadlarda foydalanilishi va vaqt o‘tishi bilan buzilishi merosning qisqarishiga olib keldi. Demak, mennonit merosining yo‘qolishida tabiiy yemirilish bilan bir qatorda siyosiy-ma’muriy o‘zgarishlar ham muhim omil bo‘lgan.

Shu sababli bugungi kunda saqlanib qolgan obyektlarni alohida binolar sifatida emas, balki yaxlit tarixiy-madaniy majmua sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Ularni muhofaza qilishda arxiv hujjatlari, tarixiy fotosuratlar, xaritalar va zamonaviy dala tadqiqotlarini o‘zaro qiyoslash, obyektlarning ilmiy inventarizatsiyasini amalga oshirish hamda tarixiylikni saqlagan holda konservatsiya va restavratsiya ishlarini olib borish zarur.

Umuman, mennonit nemislaridan qolgan meros Oqmachit qishlog‘i, me’moriy va hunarmandchilik obyektlari, texnik qurilmalar hamda fotografik faoliyatni o‘z ichiga olgan ko‘p qatlamli tarixiy-madaniy hodisa sifatida baholanishi lozim. Uni o‘rganish va saqlash Xorazmning ko‘pmadaniyatli tarixiy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yashagan mennonit nemislari mintaqaning tarixiy-madaniy rivojlanishida muayyan iz qoldirganini ko‘rsatdi. Ularning merosi me’moriy inshootlar, yog‘och va metallga ishlov berish an’analari, texnik qurilmalar, ishlab chiqarish obyektlari hamda fotografiya bilan bog‘liq madaniy tajribalarni qamrab oladi.

Oqmachit qishlog‘i mennonitlarning Xorazmdagi tarixiy mavjudligini o‘rganish uchun muhim hududiy obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Uning me’moriy-rejaviy tuzilishi jamoaning ijtimoiy va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq xususiyatlarni saqlab qolgan. Nurillaboy saroyidagi nemis ustalarining ishtiroki esa Yevropa duradgorlik texnikalari bilan Xorazmning mahalliy me’moriy-hunarmandchilik an’analarining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadigan muhim tarixiy dalildir.

Mennonitlarning merosi 1937-yildagi siyosiy taqiblar va majburiy ko‘chirishlar natijasida jiddiy zarar ko‘rgan. Jamoaning tugatilishi tarixiy obyektlarning an’anaviy muhitidan uzilishiga, ularning bir qismining qarovsiz

qolishi va keyinchalik yo‘qolishiga olib kelgan. Shu sababli bugungi kunda saqlanib qolgan obyektlar alohida tarixiy-madaniy qiymatga ega.

Umuman olganda, mennonit nemislaridan qolgan meros Xorazm tarixining ko‘pmadaniyatli va o‘zaro ta’sirga asoslangan taraqqiyot jarayonlarini yorituvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. Uni saqlab qolish faqat alohida etnik guruh tarixini muhofaza qilish emas, balki Xorazmning umumiy tarixiy-madaniy landshaftini asrash va kelajak avlodlarga yetkazishning muhim tarkibiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm viloyati davlat arxivi (XVDA). Fond 1, ro‘yxat 1. Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari.

2. Xorazm viloyati davlat arxivi (XVDA). Fond 126. Xonlik davridagi qurilish va me’morchilik ishlariga oid hujjatlar.

3. Xorazm viloyati davlat arxivi (XVDA). Fond 394, ro‘yxat 1. 1920–1930-yillardagi Oqmachit qishloq sho‘rosi va jamoa xo‘jaligi hujjatlari.

4. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). Fond I-1. Turkiston general-gubernatori devonxonasi hujjatlari.

5. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA). Fond R-837. IIXK/NKVDning 1934-yilgi ro‘yxatga olish va 1937-yilgi surgun jarayoniga oid hujjatlari.

6. Jantzen, H. Im wilden Turkestan: Ein Leben unter Moslems. 1948.

7. Janzen, W. Mennonite Furniture: A History of Craftsmanship.

8. Rahimov, K. Xiva xonligida mennonit nemislarining faoliyatiga (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Toshkent: Fan, 2018.

9. Matrizayev, M. Xorazmda ilk foto va kino san’atining yuzaga kelishi: Vilgelm Penner va Xudoybergan Devonov ijodi. Urganch: Xorazm, 2012.

10. Boltayev, A. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda hunarmandchilik va me’morchilik takomili. Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

11. Ratatz, A. Die Mennoniten in Chiva: Ein vergessenes Kapitel der mittelasiatischen Geschichte. Berlin: Nicole Schimkus Verlag, 2005.

12. Belk, F. R. The Great Trek: The Mennonites' First Migration to Central Asia. Scottdale, PA: Herald Press, 1976.

13. Huebert, H. T. Events and People in Events in Mennonite History. Winnipeg: Springfield Publishers, 2003.

14. Abdullayev, M., Rahmonov, N. Oqmachit qishlog‘ining me’moriy-shaharsozlik tuzilishi va uni saqlab qolish muammolari // O‘zbekiston tarixi jurnali. 2021. № 3.

ZAMONAVIY ARXEOLOGIYADA QO'LLANILUVCHI TEXNIK VOSITALAR, HAMDA 3D REKONSTRUKSIYALASH

Matqurbanov Fayzulla Rajabovich,
Xorazm Ma'mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi kichik ilmiy xodimi.
e-mail:
fmrking_1992@mail.ru
ORCID:
https://orcid.org/0009-0003-3660-0083

UO'K 94(575.1):556.51

Annotatsiya: *Mazkur maqolada arxeologik izlanishlarning asosiy bosqichlari — tadqiqotlarni rejalashtirish, tashkil etish, dala-qidiruv ishlarini olib borish va olingan natijalarni analitik tahlil qilish jarayonlarida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash masalalari yoritiladi. Maqolada ilg'or texnik uskunalar va kompyuter dasturiy ta'minotlari yutuqlaridan foydalanishning metodologik hamda amaliy ahamiyati nazariy va empirik ma'lumotlar asosida dalillanadi.*

Kalit so'zlar: *Arxeologik tadqiqotlar, zamonaviy texnik vositalar, kompyuter dasturlari, 3D modellar, vizul tarix, obidalarni raqamlashtirish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы применения современных подходов на основных этапах археологических исследований — от планирования и организации проектных работ до проведения полевых изысканий и аналитической интерпретации полученных данных. На основе теоретических и эмпирических материалов обосновывается методологическая и практическая значимость интеграции передового технического оборудования и специализированного программного обеспечения в археологическую практику.*

Ключевые слова: *Археологические исследования, современные технические средства, компьютерные программы, 3D-модели, визуальная история, оцифровка памятников.*

Annotation: *This article examines contemporary approaches to the primary stages of archaeological research, including project planning, field organization, excavation execution, and*

analytical data interpretation. The article highlights the theoretical and practical significance of integrating advanced technical equipment and software solutions into archaeological methodologies based on empirical evidence.

Key words: *Archaeological research, modern technical tools, computer software, 3D models, visual history, digitization of monuments.*

Kirish: Arxeologiya empirik ma’lumotlar bazasi jadal kengayib borayotgan fanlar qatoriga kiradi. XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan yirik arxeologik kashfiyotlar qadimgi sivilizatsiyalar hamda madaniy jarayonlar haqidagi ilmiy tasavvurlarni tubdan o‘zgartirdi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi arxeologik topilmalarni keng jamoatchilikka ommalashtirish imkonini berdi, bu esa fanning ilmiy-texnik revolyutsiya tamoyillariga moslashib, ommaviy ilmiy maqomga ega bo‘lishini ta’minladi. Bugungi kunda arxeologiya fanlararo integratsiyani chuqurlashtirib, zamonaviy texnika va raqamli texnologiyalar bilan sinxron rivojlanmoqda. Xususan, gipoteza va metodologiyalarni ishlab chiqishda invaziv bo‘lmagan (*non-invasive*) masofadan zonDirectory usullari, geofizik tadqiqotlar hamda kompyuter modelirovkalash dasturlaridan foydalanilmoqda. Ushbu texnologik yondashuvlar arxeologik ob’ektlarni shikastlamasdan doimiy monitoring qilish, ularning uch o‘lchamli tasvirlarini shakllantirish hamda dala-qidiruv ishlarini yuqori aniqlikda rejalashtirish imkonini beradi.

Asosiy qism:

XX asrning 30-yillaridan to hozirgi davrga qadar olib borilgan tizimli arxeologik tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston tarixining empirik manbalar bazasi sezilarli darajada boyidi. Shunga qaramay, rekonstruskiya qilinmagan va chuqur ilmiy izlanishlarni talab etuvchi tarixiy-madaniy muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Ushbu metodologik va konseptual masalalarni hal etishda arxeologiya faniga yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiluvchi zamonaviy texnik va raqamli

texnologiyalarning o‘rni hamda ularning metodologik tavsifi mazkur ishda atroflicha tahlil qilinadi.

1. Yer Radari (Ground Penetrating Radar - GPR): Yer radari impulsli elektromagnit to‘lqinlarni yerga yuboradi va aks ettirilgan signallarni qayd qiladi. Bu usul yerdagi qatlamlar, infratuzilmalar, devorlar yoki qabristonlarni aniqlashda juda foydali bo‘ladi. Bu texnologiya arxeologlarga qazish ishlari boshlanishidan oldin yer osti strukturasi haqida ma’lumot beradi.

1.

2. Lidar (Light Detection and Ranging): Lidar – nurning akslanishi asosida yuqori aniqlikdagi 3D xaritalar yaratishga imkon beruvchi texnologiya. Ushbu usul o‘rmonzorli joylardagi ham topilmalarni aniq aniqlash imkoniyatini beradi. Masalan, Maya sivilizasiyasiga oid joylarda Lidar o‘rmon ostidagi xarobalarni kashf qilishda muhim rol o‘ynagan.

2.

3. Fotogrammetriya: Bu texnologiya fotosuratlardan foydalanib obyektlarning uch o‘lchamli modelini yaratadi. Fotogrammetriya yordamida qazilma maydonlar yoki yodgorliklar haqidagi batafsil 3D modellarni olish mumkin, bu esa topilmalarning geometrik o‘lchamlarini aniq qayd qilishda yordam beradi.



ayniqsa katta qazish ishlari olib borilayotgan joylarda.

4. **GPS va GIS (Geographical Information System)**: GPS va GIS arxeologik topilmalarni geolokatsiyalashda va ularning keng miqyosli xaritalarini yaratishda qo‘llaniladi. Bu usul tadqiqotlarda har bir topilmaning aniq joylashuvini belgilashda muhim rol o‘ynaydi,



5. Dronlar (Uchuvchisiz uchish apparatlari): Dronlar katta maydonlarni qisqa vaqt ichida suratga olish imkoniyatini beradi. Bu texnologiya katta arxeologik joylarni yuqoridan kuzatishda va xaritalashda samarali hisoblanadi. Dronlar yordamida yuqori sifatli tasvirlar olinib, ulardan qazish ishlari davomida yo‘riqnoma sifatida foydalanish mumkin.

6. 3D Scannerlar: Ushbu qurilmalar yodgorliklar yoki topilmalarni aniq o‘lchash va raqamlashtirishda qo‘llaniladi. 3D skanerlar yordamida obyektlarning aniq uch o‘lchamli modellarini yaratish mumkin, bu esa topilmalarning saqlanishiga zarar yetkazmasdan tahlil qilish imkonini beradi.

7. Mikroskoplar: Zamonaviy mikroskoplar juda yuqori aniqlikdagi optik tizimlarga ega bo‘lib, ular yordamida arxeologlar topilmalar sirtidagi mikroskopik izlar, minerallar va boshqa elementlarni o‘rganishlari mumkin. Ayniqsa, eski buyumlar, ashyolar va skelet qoldiqlarini tadqiq qilishda foydalidir.

Bu qurilmalar arxeologiyaga zamonaviy yondashuvlarni olib kirib, an’anaviy qazish va o‘rganish usullarini to‘ldiradi, hamda ish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.

Arxeologiyada kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi kompyuter grafikasi usullarining takomillashuvi, shuningdek, tasvirlarni kiritish va qayta ishlash vositalarining rivoji bilan bog‘liq. Dastlab, arxeologik yodgorliklar, alohida obyektlar va topilmalar tasvirlari ma’lumotlar bazalarida tasvirlangan obyektlarni ko‘proq ko‘zga ko‘rinarli shaklda taqdim etish uchun yordamchi resurs sifatida qaralgan. Keyinchalik, kompyuter grafikasi va tasvirlarni qayta

ishlash texnologiyalarining rivojlanishi bilan arxeologik obyektlarni vizualizatsiya qilish va ularni chuqurroq o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu texnologiyalar arxeologik topilmalarni, obyektlarni va yodgorliklarni aniqroq hujjatlashtirish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu bilan birga, yangi kompyuter usullari yordamida yodgorliklarning virtual rekonstruksiyalari, uch o‘lchamli modellar va raqamli xaritalar yaratish mumkin bo‘lib, ular arxeologik tadqiqotlarni ancha osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shu o‘rinda eng muhim xususiyatlardan biri bu vizual tarix yoritilgan video rolik yarata olishga qodir kompyuter dasturlarini takidlab o‘tish joizdir.

Bu borada nafaqat chet ellik balkim, O‘zbekistonlik arxeologlar keng miqyosda AutoCad, MicroStation, AutoCad Map, Easy Cad, 3DsMax, Autodesk Maya, ArchiCAD, 3DWorldStudio, Unity 3DQuest 3D, 3DVia Studio (Virtual Tools), Unigine, 3D Game Studio va boshqa shu kabi maxsus dasturlardan foydalanib kelishmoqda. Bu dasturlarga qo‘shimcha sifatida Revit, Blender, Unreal Engine, Lumion dasturlarini ham sanab o‘tish lozim hisoblanadi. Tadqiqotchi D.I.Jerebyatevning ilmiy ishida 3D (uch o‘lchovli) modellashtirishning tarix va arxeologiya sohasidagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Xulosa: Butun dunyoda xalqlar tarixi, milliy madaniy meros namunalariga nisbatan e’tibor oshib bormoqda, qaysiki tarxiy obidalarning vaqt o‘tishi bilan asl holicha saqalanib qolish muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu boisdan ham obidalarni o‘rganish va asrashda arxeolog olimlar zamon bilan hamnafas holda harakat qilib faoliyat yuritib kelmoqdalar. Chunonchi, arxeologik yodgorliklarga chang solayotgan katta xavf hisoblangan tabiiy va sun’iy ta’sirlardan obidalarni asrab qolib, kelajak avlodga yetkazishdek mashaqqatli vazifada ilg‘or texnika yutuqlaridan unumli tarzda foydalanib kelishmoqda. Arxeolog olimlarning mehnatlari natijasida kelajakda o‘quvchilar tariximizni mukammal tarzda o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Chunki har bir obida, har bir arxeologik topilmaning 3D modeli yaratilib, raqamlashtirishi natijasida o‘sha tarixni virtual holda real holatda ko‘rib, his qilib o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. – Самара. 1996.

2. Афанасьев Г.Е., Джаникян Г.Г., Сорокина И.А., Эрлих В.Р. Полнотекстовая и картинно-графическая база данных для описания

археологических памятников SITE//Практика и теория археологических исследований. М. 2001. (Тр. Отдела охранных раскопок.)

3. Деревянко А.П., Холюшкин Ю.П., Воронин В.Т., Штабной К.В., Воробьев В.В. О работах по созданию виртуального музея "Секреты Сибири"//Информационные технологии в гуманитарных исследованиях. Новосибирск. Вып. 1. 1998.

4. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкцияси масаласи (Жанубий Ўзбекистон мисолида). Монография. — Тошкент, 2020.

5. Жеребятьев Д.И. Методы исторической реконструкции памятников истории и культуры России средствами трёхмерного компьютерного моделирования. Автореф. дисс. канд. ист. наук. — Москва, 2013.

Ilovalar (3DsMax kompyuter dasturi yordamida tayyorlangan amaliy natija. Ko‘za va piyola 3D modeli.)

Darvozaqir 1. 3DsMax dasturi yordamida tayyorlangan 3D model, hamda Lumion dasturi yordamida tayyorlangan video rolikdan olingan tasvir.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QUYI AMUDARYONING EKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY TRANSFORMATSIYASI

B.M. Bekimbetov,
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekiston davrida Orolbo‘yiga nisbatan davlat siyosatining shakllanishi va uning Quyi Amudaryo hududidagi ekologik, suv-xo‘jalik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Orol inqirozining tarixiy oqibatlari bilan bir qatorda 2017–2021-yillardagi davlat dasturi, xalqaro hamkorlik, Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida rivojlantirish tashabbuslari, qurib qolgan dengiz tubini o‘rmonlashtirish, suv resurslarini boshqarish, aholi turmushi va Mo‘ynoqning yangi rivojlanish modeliga e’tibor qaratilgan. Quyi Amudaryo misolida ekologik tiklanishni faqat texnik tadbirlar bilan emas, balki suv xavfsizligi, mahalliy aholi manfaatlari, iqtisodiy diversifikatsiya va madaniy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Orolbo‘yi, Quyi Amudaryo, Amudaryo, Yangi O‘zbekiston, ekologik siyosat, suv resurslari, Orolqum, Mo‘ynoq, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, barqaror rivojlanish.*

Kirish. Orol dengizi inqirozi Markaziy Osiyoning eng yirik ekologik va ijtimoiy muammolaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Quyi Amudaryo hududi hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Suv resurslaridan keng miqyosda sug‘orish maqsadlarida foydalanish natijasida dengizga yetib boradigan oqim qisqardi, delta ekotizimlari o‘zgardi, baliqchilik tanazzulga uchradi, sho‘rlanish va chang-to‘zon jarayonlari kuchaydi. Shuning uchun Orol muammosi faqat gidrologik yoki ekologik masala emas, balki aholi salomatligi, bandligi, migratsiyasi, iqtisodiy faolligi va madaniy xotirasi bilan bog‘liq kompleks tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi.[1]

2016-yildan keyin O‘zbekistonning Orolbo‘yiga munosabatida yangi siyosiy bosqich shakllana boshladi. Bu davrda ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish bilan birga aholi turmush sharoitini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari

yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va hududning yangi iqtisodiy-madaniy imkoniyatlarini shakllantirishga e’tibor kuchaydi.[2] 2017-yilda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturining qabul qilinishi ushbu yondashuvning muhim institutsional asosi bo‘ldi.[3]

Metodlar. Maqolaning maqsadi — Yangi O‘zbekistonda Orolbo‘yiga nisbatan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini va ularning Quyi Amudaryo hududidagi ekologik, suv-xo‘jalik hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga ta’sirini tarixiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslash, tizimli tahlil, manbalarni tanqidiy o‘rganish va hududiy yondashuv usullaridan foydalanildi.

Orol muammosiga nisbatan yangi siyosatning muhim xususiyati ekologik muammolarni inson xavfsizligi va hududiy taraqqiyot masalalari bilan bir tizimda ko‘rishdan iborat bo‘ldi. 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturida aholi bandligi, ijtimoiy infratuzilma, ichimlik suvi, tibbiy xizmat va ekologik holatni yaxshilash bilan bog‘liq vazifalar uyg‘unlashtirildi.[3] Bu yondashuv Orolbo‘yini faqat tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish obyektidan kompleks rivojlantirish hududiga aylantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. 2018-yilda BMT shafeligida Orolbo‘yi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik asosidagi Trast fondining tashkil etilishi xalqaro hamkorlikning yangi institutsional mexanizmini yaratdi. Unda sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, iqtisodiy faollik, suv ta’minoti va ekologik barqarorlik masalalari bir-biri bilan bog‘liq holda qaraldi.[4] Shu tariqa Orolbo‘yi siyosatida «inson–tabiat–iqtisod» uchligiga asoslangan kompleks yondashuv kuchaydi.

Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida rivojlantirish tashabbusi ham yangi siyosatning muhim belgisi bo‘ldi. 2021-yil 18-mayda BMT Bosh Assambleyasining tegishli rezolyutsiyasi qabul qilinib, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik innovatsiyalar, texnologiyalar, o‘rmonlashtirish, suv va energiya tejamkorligi bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun siyosiy asos mustahkamlandi.[5]

Mazkur siyosatning huquqiy asoslari keyingi yillarda ham kengaydi. 2023-yilda yangilangan Konstitutsiyada davlatning Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash bo‘yicha majburiyatlari mustahkamlandi.[6] Bu ekologik siyosatni vaqtinchalik kampaniya emas, balki davlatning uzoq muddatli vazifasi sifatida baholash imkonini beradi.

Quyi Amudaryodagi ekologik jarayonlarni tushunish uchun Amudaryo oqimining tarixiy ahamiyatini hisobga olish zarur. Deltadagi ko‘llar, qamishzorlar, tuqayzorlar va botqoqliklar daryo suvi bilan bog‘liq tabiiy tizimni tashkil etgan. Amudaryo oqimining uzoq muddatli qisqarishi ushbu tizimning

barqarorligini zaiflashtirdi. Suvning makon va vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanligi ortishi baliqchilik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va aholining kundalik suv ta’minotiga ta’sir qildi.[7]

Quyi Amudaryoda suv muammosi faqat suv miqdori bilan cheklanmaydi. Suvning sifati, mavsumiyligi, taqsimoti va ekologik ehtiyojlar uchun qoldiriladigan qismi ham muhimdir. Shu nuqtayi nazardan qishloq xo‘jaligida suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish zarur bo‘lsa-da, tejalgan suvning qaysi maqsadga qayta taqsimlanishi ham strategik ahamiyatga ega. Agar iqtisodiy samaradorlik ekologik oqim hisobiga ta’minlansa, qisqa muddatli natija uzoq muddatli ekologik xarajatlarni yashirishi mumkin.[8]

Qurib qolgan Orol tubida o‘rmonlashtirish va saksovul ekish chang-to‘zonni kamaytirish, tuproq yuzasini barqarorlashtirish va yangi o‘simlik qoplamini shakllantirishning muhim vositasiga aylandi. Biroq ekish maydonining kattaligi daraxtlarning yashovchanligi yoki ekologik samara bilan avtomatik ravishda teng emas. Shu sababli ekologik loyihalar natijasini baholashda o‘simliklarning saqlanishi, tuproq holati, chang miqdori va bioxilma-xillik kabi ko‘rsatkichlar muntazam kuzatilishi kerak.[9]

Suv va ekologik siyosatni birlashtirish Quyi Amudaryo uchun ayniqsa muhim. Amudaryo transchegaraviy daryo bo‘lgani sababli yuqori va quyi oqim manfaatlari o‘zaro bog‘langan. O‘zbekiston ichida esa suvni qishloq xo‘jaligi, shaharlar, sanoat va ekotizimlar o‘rtasida taqsimlashda kompleks yondashuv talab etiladi. Quyi Amudaryo havzasi uchun integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarishga qaratilgan tashabbuslar suv xavfsizligi va ekotizim barqarorligini birlashtirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.[10]

Orol inqirozining eng muhim oqibatlaridan biri aholining an’anaviy tirikchilik manbalariga ta’sir ko‘rsatganidir. Baliqchilikning qisqarishi, qishloq xo‘jaligida suv taqchilligi, yerlarning sho‘rlanishi va ichimlik suvi muammolari aholi daromadlari hamda mehnat bozoriga bosim o‘tkazdi. Yangi O‘zbekiston davrida ekologik dasturlarni ijtimoiy-iqtisodiy choralar bilan bog‘lashga harakat qilinishi shu tarixiy ehtiyojning natijasidir.

Qoraqalpog‘istonda infratuzilma, aholi bandligi va xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Biroq loyihalar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan aholi farovonligining barqaror o‘sishini anglatmaydi. Ish o‘rinlarining doimiyligi, mahalliy aholi ulushi, daromadlar va xizmatlar sifati kabi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi kerak.[11]

Qishloq xo‘jaligida suv tejamkor texnologiyalar, agrar diversifikatsiya va meliorativ tadbirlar muhim yo‘nalishga aylanmoqda. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish nafaqat hosildorlikni saqlash, balki tuproq degradatsiyasini sekinlashtirishga ham xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, fermerlarning texnologiyalardan foydalanish bilimlari, texnik xizmat ko‘rsatish va monitoring tizimi ham mustahkamlanishi lozim.

Mo‘ynoq shahri Quyi Amudaryodagi ijtimoiy-ekologik transformatsiyaning eng yaqqol misollaridan biridir. Dengiz chekingandan keyin baliqchilik va portga asoslangan iqtisodiy funksiyalar susaydi. Yangi davrda shaharning iqtisodiy qiyofasi infratuzilma, turizm, madaniy tadbirlar va ekologik loyihalar bilan qayta shakllanmoqda. Bu jarayon shaharni tiklash faqat binolar qurish emas, balki jamoaviy xotira va hududiy identiklikni qayta anglash ekanini ko‘rsatadi.[12]

Orolbo‘yida so‘nggi yillarda madaniy tashabbuslarning ko‘payishi hudud haqidagi tasavvurning o‘zgarishiga ta’sir qilmoqda. Muzeylar, tarixiy obyektlar, festivallar va ekologik turizm loyihalari Orolbo‘yini faqat fojia makoni sifatida emas, balki tarix, madaniyat va ijod hududi sifatida ko‘rsatish imkonini bermoqda. Bu jarayonda Qoraqalpog‘istonning madaniy merosi muhim resurs hisoblanadi.

Savitskiy muzeyi, Mo‘ynoqdagi Orol tarixi bilan bog‘liq obyektlar va mahalliy madaniy meros turizm uchun muhim asos yaratadi. Biroq madaniy merosni iqtisodiylashtirishda obyektlarning asl qiymati, mahalliy aholi manfaatlari va ilmiy-ta’limiy funksiyalari saqlanishi lozim. Turizm madaniy merosni asrashga xizmat qilgandagina uzoq muddatli ijtimoiy samara beradi.

Madaniy tadbirlar ekologik muammolar haqida jamoatchilik muloqotini kuchaytirishi mumkin. Ammo madaniyat ekologik va ijtimoiy muammolarning o‘rnini bosmasligi kerak. Suv xavfsizligi, sog‘liq, ishsizlik va yer degradatsiyasi kabi masalalar dolzarbligicha qoladi. Shu sababli madaniy tashabbuslarni ta’lim, ekologik ma’rifat va mahalliy ishtirok bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Yangi O‘zbekiston davrida Orolbo‘yi siyosatida bir qator ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Birinchidan, Orol muammosi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar va donorlar bilan hamkorlik kengaydi. Uchinchidan, ekologik tiklanish aholi bandligi, infratuzilma, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy diversifikatsiya bilan bog‘lana boshladi. To‘rtinchidan, Orolbo‘yining madaniy va turistik salohiyatiga e’tibor kuchaydi.

Shu bilan birga, mavjud muammolar saqlanib qolmoqda. Amudaryo oqimining beqarorligi, ekologik ehtiyojlar uchun suv ajratish, yer sho‘rlanishi,

chang-to‘zon, aholi daromadlarining barqarorligi va yangi iqtisodiy loyihalarning ekologik ta’siri uzoq muddatli nazoratni talab qiladi. Ayrim holatlarda loyiha natijalari haqidagi ma’lumotlar bilan mustaqil ekologik monitoring natijalarini farqlash zarur.

Ekologik siyosatning samaradorligini baholashda aniq indikatorlar tizimi muhim. Suv sohasida — ekologik oqim va suv sifati; yer sohasida — sho‘rlanish va hosildorlik; o‘rmonlashtirishda — o‘simliklarning yashovchanligi; ijtimoiy sohada — doimiy ish o‘rinlari, daromad va ichimlik suvi sifati; turizmda esa mahalliy aholi daromadi va madaniy merosning saqlanishi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan Yangi O‘zbekistonda Orolbo‘yi siyosatining keyingi bosqichi «ko‘proq loyiha» emas, balki «o‘lchanadigan va uzoq muddatli natija» tamoyiliga asoslanishi maqsadga muvofiq. Quyi Amudaryo uchun suv xavfsizligi, ekotizim barqarorligi va aholi manfaatlarini yagona rejalashtirish tizimida birlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston davrida Orolbo‘yiga nisbatan davlat siyosati ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatishning an’anaviy modelidan hududni kompleks ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirish modeliga siljish bilan xarakterlanadi. 2017–2021-yillardagi davlat dasturi, 2018 yilgi Trast fondi, 2021-yilgi BMT rezolyutsiyasi va keyingi konstitutsiyaviy-strategik hujjatlar mazkur jarayonning institutsional asoslarini kuchaytirdi.

Quyi Amudaryo misolida siyosatning real samarasi, avvalo, suv xavfsizligi bilan bog‘liq. Suv tejamkor texnologiyalar, melioratsiya va agrar diversifikatsiya muhim bo‘lsa-da, ekologik oqim va delta ekotizimlarining ehtiyojlari ham suv boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Ekologik tiklanishni aholi farovonligi bilan bog‘lash esa dasturlarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Mo‘ynoqning yangi iqtisodiy va madaniy qiyofasi, Orolqumda o‘rmonlashtirish, infratuzilma va turizm loyihalari hududda o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu natijalarning uzoq muddatli barqarorligi mustaqil monitoring, mahalliy aholi ishtiroki va suv-ekologik muvozanatni ta’minlashga bog‘liq.

Shunday qilib, Quyi Amudaryoda Yangi O‘zbekiston siyosatining istiqbolli modeli «ekologiya–suv–iqtisodiyot–aholi–madaniyat» o‘zaro bog‘liqligiga asoslanishi kerak. Bunday yondashuv Orolbo‘yini faqat ekologik falokat hududi sifatida emas, balki yangi rivojlanish, innovatsiya va inson kapitali shakllanayotgan makon sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Micklin P. The Aral Sea Disaster. Annual Review of Earth and Planetary Sciences. 2007. Vol. 35. P. 47–72. https://www.academia.edu /59304727/Aral_Sea_Disaster

2. Bekimbetov B. M. Yangi O‘zbekistonda Orol fojiasini hal qilish mafkurasining tubdan o‘zgarishi va uning natijalari. Ma'mun science jurnali. 3-tom, 5-son, 2025 y. https://www.tadqiqot.uz/index.php/jms/article/view/11944

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Оролбўйи минтақасини ривожлантириш давлат дастури. 2017–2021 йиллар. https://lex.uz/docs/3099705

4. United Nations Multi-Partner Trust Fund Office. Aral Sea Region Human Security Multi-Partner Trust Fund. Annual reports. https://uzbekistan.un.org/en/178016-annual-fund-level-report-un-multi-partner-human-security-trust-fund-aral-sea-region

5. United Nations General Assembly. Declaring the Aral Sea region a zone of ecological innovations and technologies. A/RES/75/278. 18 May 2021. https://docs.un.org/en/A/RES/75/278

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги таҳрир. 2023. https://constitution.uz/uz

7. Shields K. F. Seeing Beyond Catastrophe: Rethinking Development and Environmental Transformation in the Aral Sea Region of Uzbekistan. University of Oregon, 2023. https://scholarsbank.uoregon.edu/items /8ca8f61d-aa62-4a55-82f3-be433b62cba9

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Сув хўжалигини ривожлантириш концепцияси. 2020–2030 йиллар. https://lex.uz/en/docs/4892953

9. Ўзбекистон Республикаси Экология соҳасига оид миллий ҳисобот ва материаллар. 2024. https://gov.uz/oz/eco/sections/view/48809

10. UNDP Uzbekistan. Integrated Water Resources Management Plan for the Lower Amu Darya Basin. 2026. https://gov.uz/en/eco/news/view/171968

11. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга оид давлат дастурлари ва ҳисоботлар. https://ach.gov.uz/cr/events-nav/news/detail/6a1d05e2b9b9e42c59790505

12. United Nations Economic Commission for Europe. Just Transition Case Study Brief: The Case of Muynak in the Aral Sea Region. 2025. https://unece.org/sites/default/files/2025-12/UZB%20JET%20Aral%20Sea%20Case%20Study%20Brief_0.pdf

MUSTAQILLIK YILLARIDA AYOLLARGA TA’LIM SOHASIDA YARATILGAN IMKONIYATLAR: TADRIJIY RIVOJLANISH VA TARIXIY TAHLIL

Nurimova Hilola Ulug‘bek qizi,
Osiyo xalqaro universiteti stajyor-o‘qituvchisi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqil O‘zbekiston tarixida 1991-yildan 2026-yilgacha ta’lim sohasida xotin – qizlarga yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar va islohotlarning tadrijiy rivojlanishi tarihiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ayollar, islohotlar, strategiya, ta’lim, tarix, gender, ayollar daftari*

Abstract: *This article presents a historical analysis of the progressive development of opportunities, conditions, and reforms established for women and girls in the education sector of independent Uzbekistan between 1991 and 2026.*

Keywords: *women, reforms, strategy, education, history, gender, Women's Register*

Аннотация: *В статье представлен исторический анализ поступательного развития возможностей, условий и реформ в сфере образования для женщин и девочек в независимом Узбекистане в период с 1991 по 2026 год.*

Ключевые слова: *женщины, реформы, стратегия, образование, история, гендер, «Женский реестр».*

1991-yil O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq, davlat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ta’lim sohalarida tubdan islohotlar amalga oshirila boshladi. Xususan, xotin-qizlarning ta’lim sohasida ham chuqur islohotlar qilinib, ayollarning ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Bu tarixiy jarayonni tarixiy tahlil qilish uchun avvalambor e’tiborimizni xotin-qizlar sohasining tarixiy bosqichlariga qaratishimiz lozim. Chunonchi, mustaqil O‘zbekistonda xotin-qizlar va gender tengligi masalalari 3 tarixiy bosqichga bo‘linadi: Birinchi bosqich-1991-2003-yillarda xotin-qizlarning jamoat birlashmasi sifatida vakilligi – Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilishi asnosida

ayollarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlashning dastlabki tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich-2004-2016-yillar oralog‘ida ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvida ishtirokini takomillashtirish amalga oshirildi, chunonchi, vakillik organlariga saylanish huquqida ayol nomzodlarga 30 foizlik kvota ajratildi va mahalla idoralarida ayollarning muammolari bilan tizimli shug‘ullanish joriy etildi. Uchinchi bosqich-2017-yildan hozirgi kunga qadar xotin-qizlar manfaatlariga doir, xalqaro standartlar asosida 24ta me’yoriy hujjatlar qabul qilinishi bilan uzoq yillardan buyon yechimini kutgan oilaviy va gender tenglikka oid muammolarni kompleks hal etishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirila boshlandi[1].

Bu 3 tarixiy bosqichlarning har biri davomida xotin-qizlar ta’limiga chuqur e’tibor berilgan bo‘lsada, so‘nggi yillar davomida, xususan, 2017-2026-yillar ichida xotin – qizlarga ta’lim sohasida yaratilgan imkoniyatlar tubdan isloh qilinib, yanada keng shart-sharoitlar yaratib berildi. Chunonchi, 1990-yillar bilan 2017-yillarni solishtirganda, buning yaqqol ifodasini sezish mumkin. 1992-yilda ta'lim olishni kengaytirish va xotin-qizlar uchun o‘qish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda ayollar orasida oliy ta'limni olganlarning soni o‘sib bordi. Ta'limning barcha bosqichlarida, shu jumladan, universitetlarda ayollar ko‘plab sohalarda o‘qishni boshlashdi. Biroq, bu borada ba'zi hududlarda, ayniqsa qishloq joylarida, xotin-qizlar hali ham ta'lim olishda to‘siqlarga duch kelishdi. Ma'lum darajada, qishloq joylarida oila va jamiyatning konservativ qarashlari ayollarning o‘qishiga qarshi turdi[2].

Biroq, 1992-yil 2-martda O‘zbekiston BMT ga a’zo bo‘lishi bilan, BMT tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalarga ham a’zo bo‘la boshladi, buning natijasida mustaqil O‘zbekistonda ayollarga ta’lim sohasida oldingi davrlardagidan yangicha yondashuv holatlari yuz berdi. Xususan, O‘zbekistonning ba’zi oliy ta’lim muassasalarida 2001 yildan boshlab, tashabbuskor o‘qituvchilar tomonidan maxsus kurslar shaklida gender tadqiqotlari ning u yoki bu jihatlarini yorituvchi ma’ruzalar o‘qilmoqda. Bu boradagi tajribalar talabalarning gender tadqiqotlariga qiziqishi kuchli ekanligini

[1] K.P. Aliyeva. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari (o'zbek). Toshkent: "Leson Press" MCHJ nashriyoti, 2022 — 169 bet.
[2] O’ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING MAVQEYI (1991–2016). (2025). *Zamonaviy Fan Va Tadqiqotlar*, *4*(1), 960-962. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.59255

ko‘rsatdi. Respubli-kamiz oliy ta’lim muassasalarida gender tadqiqotlarining o‘rganilishi bo‘lg‘usi mutaxassislar tafakkurining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllani-shigagina emas, balki mazkur sohaning O‘zbekiston ilm-fanida yanada rivojlanishiga yordam berishi shubhasiz[1], deb baholangan.

Shu asnoda nima uchun xotin- qizlarga nisbatan yaratilgan ta’lim sohasidagi islohotlarni tarixiy tahlil qilish joiz va o‘zi bu sohadagi islohotlarning davlatimiz rivojidagi o‘rni qanday degan savollarga javob berib o‘tishlik joiz: bularning tub sababi, butun dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar statistikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak barcha sohalarda ayollarning mehnat ulushi erkaklarniki bilan deyarli bir xil foizni tashkil qilsada, yaqin yillargacha bizda bu ulushlar soni bir biridan sezilarli farq qilar edi. Shu ulushlarni tartibga solish hamda demokratik huquqlarni amalda qo‘llay olishlari uchun ayollarga ta’lim berish joiz edi va bu mustaqilligimiz qo‘lga kiritilishi bilan o‘z amaliy tasdig‘ini topa boshladi.

Xususan, “Olima” Uyushmasi tashabbusi bilan 2011 yilda «Ilm yulduzlari» intellektual ko‘rik tanlovi tashkil etilgan bo‘lib, u har ikki yilda bir marta o‘tkazdiriladi. Maxsus Nizom orqali olib boriladigan intellektual ko‘rik tanlovi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va O‘zbekiston xotin-qizlar “Olima” uyushmasi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda bo‘lib o‘tadi Uyushma qoshida “Yosh olimalar akademiyasi” tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi iqtidorli talabalar, magistrlar xususan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat[2].

Buning amaldagi davomi o‘laroq, 2016-yilda oliy ta’lim muassalariga jami 61 ming yoshlar o‘qishga qabul qilingan, shundan xotin-qizlarning soni 23 mingni yoki 37 % ni tashkil etgan bo‘lsa 2017-yilgi ko‘rsatkichlarga ko‘ra, mamlakatda kasb-hunar bilim yurtlarida va oliy ta’limlarda axborot texnologiyalari, arxitektura va qurilish sohasida o‘qiyotgan talabalarning mos ravishda 43 % va 17 % qismini xotin-qizlar tashkil etganini[3] qayd etib o‘tishimiz joiz. Chunonchi, 2017-yildan boshlab aksariyat oliy ta’lim muassasalarida turli

[1]Qurbonova G.M. Gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari// Zamonaviy ta’lim. 20 15, 12. – B. 59-63.
[2] https://uzolima.uz/
[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligini_ta%E2%80%99minlashning_tashkiliy-huquqiy_asoslari#cite_note-13

mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan birga oliy ma’lumot olish imkoniyatini ham berdi.

Aytib o‘tish joizki, bugungi kunda ta’limdagi, xususan, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichdagi ayol-qizlarning ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-2022-o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning umumiy soni 808 ming nafardan oshgan bo‘lsa, ulardan 369 mingini, ya’ni 45,6 foizini ayol-qizlar tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 2020-2021 o‘quv yilida 260 ming, ya’ni 36 foizni tashkil etgan. Tayanch doktoranturada tahsil oluvchilarning jinsiy proporsiyasiyaga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yilda tayanch doktoranturaga qabul qilinganlarning 40 foizini ayol-qiz talabgorlar tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2019-yilda esa 38 foiz bo‘lgan. 1 o‘quv yili davomida oliy ta’limdagi talabalar orasida ayol-qizlarning ulushi kishi hisobida 100 mingdan ortiqroq, foizlarda esa deyarli 10 foizga oshgani ayollar ta’limiga berilayotgan e’tibordan dalolat[1].

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tasdiqlangan nizomga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab har yili o‘zlarining hududlaridan o‘qishga kirgan 25 nafardan hamda 2-4-kurslarda o‘qiyotgan 75 nafar (har bir kursdan 25 nafardan), jami 100 nafar xotin-qizlar uchun to‘lov-kontrakt summasini to‘rt o‘quv yilining yakunlanishiga qadar to‘lab berilish tartibi joriy qilindi. Bu ayollarning jamiyatda ziyoli qatlam sifatida shakllanishiga yordam beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ta’lim sohasida xotin-qizlarning ta’limning barcha bosqichlarida qamrovi masalasi, shuningdek, ularning Oliy ta’limdan keyingi bosqichlarda moliyaviy imtiyozlar berish, Xorijiy Oliygohlarda ta’lim olishlarini rag‘batlantirish, kam ta’minlangan oila qizlarining imtiyozli ta’lim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. ta'lim kontraktlarini to‘lash uchun ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit ajratish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, 2023 yilda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Qizlar ovozi klubi bilan hamkorlikda ilmiy

[1] https://daryo.uz/2022/08/10/talimdagi-tafovut-erta-turmush-oiladagi-zoravonlik-va-tolanmayotgan-alimentlar-ozbekistonda-gender-tengligi-bilan-bogliq-vaziyatga-chetdan-nazar

tadqiqot ishi olib borayotgan barcha yosh ayol-qizlar uchun to‘liq moliyalashtiriladigan “Ilm-fan oromgohi” loyihasini taqdim etdi. U yerda Respublikamizning olima ayollari, turli sohalarda yutuqlarga erishgan ayollar ishtirokida ilmiy seminarlar tashkil etildi. Bu kabi loyihalar yosh ayol-qizlarni ilmiy tadqiqot ishlarini natijadorligini oshirish, ularni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, iqtidorli talaba qizlarni izlab topish, ularni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishlarini orttirish va ilm-fanga jalb qilishda yo‘lchiroq vazifasini bajaradi[1].

Bu mavzuni tarixiy tahlil qilib xulosa shuni aytish mumkinki, Xotin-qizlarning ta’lim olishi, jamiyatning barcha jabhalarida ayollar safining kengayishi, davlat iqtisodiy va siyosiy boshqaruvining hamma bosqichida xotin-qizlar erkin faoliyat yuritishiga zamin yaratilgani ham malakatimizda xotin-qizlar manfaatlarining nechog‘li ustuvor qo‘yilganini namoyish etadi. Ayni paytda xotin-qizlar ular mahalladan to oliy qonunchilik organigacha o‘z vakillariga egadirlar

Hozirgi globallashuv davrida, milliy qadriyat va urf-odatlarimizni saqlab qolgan holda chetdan kirib kelayotgan zararli oqimlar va aqidaparastlik g‘oyalaridan uzoq bo‘lishimiz barobarida, yosh qizlarimizni turmushga tayyorlash, ularni ilmli, ma'rifatli va xalqimizning urf - odatlarlariga to‘la munosib ziyoli ayollari bo‘lib shakllanishlarida yanada imkoniyat yaratish zarurati tug‘ilmoqda. Shu zarurat sababidan hamda demokratik huquqlarni amalda qo‘llashni yanda chuqurlashtirish sababidan ham ayollarga ta’lim berish va ularning jamiyat va davlat hamda boshqaruv sohasidagi ulushini oshirish mustaqilligimiz qo‘lga kiritilganidan to bugungacha ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. K.P. Aliyeva. O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari (o‘zbek). Toshkent: "Leson Press" MCHJ nashriyoti, 2022 — 169 bet.

2. O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING MAVQEYI (1991–2016). (2025). Zamonaviy Fan Va Tadqiqotlar, 4(1), 960-962.

3. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.59255

[1] Tahir Abdukarimovich Urkinboev XOTIN-QIZLARNING ILM-FANDAGI O‘RNI YUKSALISHIDA O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR // OC. 2024. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/xotin-qizlarning-ilm-fandagi-o-rni-yuksalishida-o-zbekistonda-olib-borilayotgan-islohatlar (дата обращения: 14.05.2024).

4. Qurbonova G.M. Gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari// Zamonaviy ta’lim. 2015, 12. – B. 59-63.

5. https://uzolima.uz/

6.https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligini_ta%E2%80%99minlashning_tashkiliy-huquqiy_asoslari#cite_note-13

7.https://daryo.uz/2022/08/10/talimdagi-tafovut-erta-turmush-oiladagi-zoravonlik-va-tolanmayotgan-alimentlar-ozbekistonda-gender-tengligi-bilan-bogliq-vaziyatga-chetdan-nazar

8. Tahir Abdukarimovich Urkinboev XOTIN-QIZLARNING ILM-FANDAGI O‘RNI YUKSALISHIDA O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR // OC. 2024. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/xotin-qizlarning-ilm-fandagi-o-rni-yuksalishida-o-zbekistonda-olib-borilayotgan-islohatlar (дата обращения: 14.05.2024).

XORAZMNING ENG QADIMGI ALOQA YO‘LLARI TIZIMINING TARIXIY TAHLILI
(mil. avv. I mingyillikkacha)

Karimov Yashin Abdusharibovich,
Urganch davlat universiteti,
Tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha PhD
e-mail: yashin_0101@mail.ru
Sadullaev Bakhram,
Xorazm Ma’mun akademiyasi,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi katta ilmiy hodimi
e-mail: bahram76@mail.ru

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasida qadimgi aloqa va kommunikatsiya tizimining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tarixiy-arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Neolit, eneolit va bronza davrlaridagi quruqlik hamda suv yo‘llari, transport vositalari, xo‘jalik aloqalari va transmintaqaviy yo‘nalishlarning voha taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, madaniy va iqtisodiy almashinuv jarayonlari ko‘rsatiladi. Ushbu jarayonlarning hududlararo aloqalarni kuchaytirganligi asoslanadi.

Аннотация: В статье на основе историко-археологических источников анализируются формирование и основные этапы развития древней системы коммуникаций Хорезмского оазиса. Рассматриваются сухопутные и водные пути, транспортные средства, хозяйственные связи и трансрегиональные направления неолита, энеолита и бронзового века. Показана роль коммуникаций в экономическом, культурном и социальном развитии оазиса. Особое внимание уделено межрегиональному характеру связей.

Abstract: The article examines the formation and development of the communication system of the Khorezm oasis using archaeological sources. It analyzes land and water routes, transport means, economic contacts and transregional connections during the Neolithic, Chalcolithic and Bronze Age. The study highlights their role in cultural development of the oasis.

Kalit so‘zlar: Xorazm vohasi, kommunikatsiya tizimi, aloqa yo‘llari, Amudaryo, neolit, eneolit, bronza davri, transmintaqaviy aloqalar.

Ключевые слова: Хорезмский оазис,

коммуникационная система, пути сообщения, Амударья, неолит, энеолит, бронзовый век, трансрегиональные связи.

Keywords: Khorezm oasis, communication system, communication routes, Amu Darya, Neolithic, Chalcolithic, Bronze Age, transregional connections.

KIRISH

Xorazm vohasining qadimgi tarixini o‘rganishda aloqa va kommunikatsiya yo‘llarining shakllanishi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Vohaning tabiiy-geografik sharoiti, Amudaryo va uning irmoqlari, aholi manzilgohlarining joylashuvi hamda xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi qadimgi jamoalar o‘rtasidagi aloqalarning yo‘nalishlari va mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli kommunikatsiya tizimini faqat yo‘l tushunchasi bilan cheklamasdan, quruqlik va suv yo‘llari, kechuvlar, bandargohlar, transport vositalari hamda ular orqali amalga oshirilgan iqtisodiy va madaniy almashinuvlar majmui sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mavjud tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari, Xorazm vohasining arxeologik yodgorliklari va hududlararo madaniy aloqalari turli jihatlardan yoritilgan [1–5]. Mazkur maqolada ushbu ilmiy qarashlar asosida Xorazm kommunikatsiya tizimining shakllanish jarayoni neolit davridan boshlab eneolit va bronza davrigacha bo‘lgan tarixiy bosqichlar kesimida ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor aloqa yo‘llarining xo‘jalik ehtiyojlari, aholi migratsiyasi, hunarmandchilik va transmintaqaviy almashinuv bilan bog‘liqligiga qaratiladi.

ASOSIY QISM

Xorazmning tabiiy-geografik sharoitlari aloqa yo‘llari va kommunikatsiya vositalarining shakllanishi hamda bosqichma-bosqich rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Quruqlik orqali o‘tuvchi yo‘nalishlar mintaqaviy kommunikatsiya tizimida yetakchi o‘rin tutgan bo‘lsa-da, tabiiy suv yo‘llari ham qadimgi aloqalarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan [1, 2-bet]. Xorazm vohasida dastlabki aloqa yo‘llari qadimgi jamoalarning kundalik hayot ehtiyojlari, xo‘jalik yuritish shakllari va tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Amudaryo va uning irmoqlari voha hududidagi tabiiy kommunikatsiya tizimining muhim omillaridan biri bo‘lgan. Daryo bo‘ylaridagi aholi manzilgohlarini bog‘lovchi kechuvlar, suvdan foydalanish imkoniyatlari va keyinchalik shakllangan kichik bandargohlar hududlararo aloqalarni tezlashtirgan. Suv yo‘llari orqali harakatlanish xo‘jalik aloqalaridan tashqari, harbiy va madaniy munosabatlarning kengayishiga ham sharoit yaratgan. Demak, tabiiy geografik muhit va inson faoliyati o‘zaro bog‘liq holda Xorazm vohasida o‘ziga xos kommunikatsiya tizimining shakllanishiga zamin yaratgan.

Xorazmda neolit davridan, ya’ni mil. avv. VI–V mingyilliklardan boshlab, mintaqaviy ahamiyatga ega aloqa yo‘llarining nisbatan barqaror yo‘nalishlari shakllana boshlagan. Buni Janubiy Turkmanistondagi Joytun, Amudaryoning o‘rta va quyi oqimidagi Kaltaminor hamda Zarafshon tog‘ining shimoliy yonbag‘rida o‘rganilgan Sazag‘on kabi madaniyatlarning o‘zaro aloqalari misolida ko‘rish mumkin [2, 5-bet]. Mazkur madaniyatlarga mansub makonlardan aniqlangan arxeologik materiallar Xorazmning Eron va Mesopotamiya, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Xitoy, Sibir hamda Uralbo‘yi hududlari bilan turli darajadagi aloqalari shakllana boshlaganini ko‘rsatadi [2, 6-10-bet].

Neolit davrida voha orqali o‘tgan yo‘llar faqat xo‘jalik aloqalariga xizmat qilmagan. Ular hunarmandchilik an’analari, keramika ishlab chiqarish usullari, oziq-ovqat tayyorlash tajribasi va qurilish madaniyati kabi ko‘nikmalarning tarqalishiga ham imkon bergan. Shu tariqa, turli hududlar o‘rtasidagi harakat va almashinuv jarayonlari madaniy tajribalarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirgan [2, 6-10-bet].

Qadimgi aloqa yo‘llarining shakllanishini so‘nggi paleolit, mezolit-neolit, eneolit va bronza davrlarini qamrab olgan bosqichli jarayon sifatida ko‘rsatish mumkin. Dastlab quruqlik yo‘llarida maxsus ulov-transport vositalaridan foydalanilmagan. Aholining voha hududlarini o‘zlashtirishi, antropogen landshaftning o‘zgarishi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllarining taraqqiy etishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichki hamda tashqi aloqa yo‘nalishlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan [1, 2-bet].

Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzining mavjudligi, ovchilik va termachilikdan dehqonchilikka o‘tish jarayonlari ham aloqa yo‘llari tarmog‘ining kengayishiga ta’sir ko‘rsatgan. Qadimgi jamoalar o‘rtasida mahsulot almashinuvi, xomashyo izlab harakatlanish, suv va oziqa manbalarini

qidirish kabi ehtiyojlar yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishini rag‘batlantirgan. Tog‘, cho‘l va daryo kabi tabiiy to‘siqlarni kesib o‘tish zarurati esa kechuvlardan foydalanish va yo‘l yo‘nalishlarini takomillashtirishga undagan.

Shunday qilib, tosh davrining oxiriga kelib Xorazm va unga tutash hududlarda aloqa-kommunikatsiya tizimi hali sodda ko‘rinishda bo‘lsa-da, keyingi tarixiy bosqichlar uchun muhim asos shakllangan. Bu bosqichning asosiy xususiyati aloqa yo‘llarining bevosita xo‘jalik ehtiyojlari, migratsiya va yangi hududlarni o‘zlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligidir.

Markaziy Osiyo, xususan Xorazm vohasida eneolit va bronza davrlari kommunikatsiya tizimining sifat jihatidan rivojlangan bosqichi bo‘ldi. Bu davrda aloqa yo‘llarining barqarorlashuvi bilan bir qatorda harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirgan transport vositalaridan foydalanish boshlandi. Mavjud materiallarda ot, tuya va eshak kabi ulovlardan hamda aravalardan foydalanishning paydo bo‘lishi kommunikatsiya tarixidagi muhim o‘zgarishlardan biri sifatida qayd etiladi.

• Mintaqaning turli hududlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni ta’minlagan nisbatan barqaror yo‘nalishlar shakllandi.

• Sug‘orma dehqonchilik markazlari, shaharmonand makonlar va aholi manzilgohlari metall konlari bilan bog‘lovchi yo‘nalishlar vujudga keldi.

• Tashqi aloqalarni amalga oshirishga xizmat qilgan transmintaqaviy yo‘llar tizimi rivojlandi.

• Quruqlik va suv yo‘llarining o‘zaro to‘ldiruvchi imkoniyatlari hududlararo harakatni kuchaytirdi.

Mazkur jarayonlar natijasida mintaqaning iqtisodiy va madaniy hayoti yanada jonlandi. Ulov vositalari va aravalardan foydalanish insonning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirib, uzoq masofadagi hududlar o‘rtasidagi aloqalarni osonlashtirdi. Sug‘orma dehqonchilik markazlari bilan metall konlari o‘rtasidagi bog‘lanish esa hunarmandchilik va xomashyo ayirboshlash tizimining rivojlanishiga xizmat qilgan. Tashqi aloqalarning kuchayishi Xorazm vohasining Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi muhim tranzit makon sifatidagi ahamiyatini oshirgan.

Kommunikatsiya tizimining rivojlanishi siyosiy va madaniy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatgan. Turli hududlar o‘rtasidagi muntazam harakat natijasida ishlab chiqarish tajribasi, hunarmandchilik ko‘nikmalari va madaniy an’analar almashinuvi uchun sharoit yuzaga kelgan. Shu jihatdan eneolit va bronza davrida kommunikatsiya tizimi iqtisodiy ehtiyojlarni

qondiruvchi vosita bo‘lish bilan birga, jamiyatlararo munosabatlarni mustahkamlovchi omil sifatida ham namoyon bo‘lgan.

1-jadval.

Qadimgi Xorazm kommunikatsiya tizimining asosiy rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Asosiy kommunikatsiya xususiyatlari	Tarixiy ahamiyati
So‘nggi paleolit–mezolit	Tabiiy yo‘nalishlar, suv manbalari va oddiy quruqlik yo‘llaridan foydalanish	Harakat va xo‘jalik ehtiyojlari uchun dastlabki aloqalar
Neolit	Barqarorroq quruqlik va suv yo‘nalishlari; manzilgohlararo almashinuv	Madaniy va xo‘jalik tajribalarining tarqalishi
Eneolit	Ulov vositalari va transport imkoniyatlarining kengayishi	Hududlararo aloqalarning jadallashuvi
Bronza davri	Aravalar, ulovlar va transmintaqaviy yo‘llarning rivojlanishi	Iqtisodiy, madaniy va uzoq masofali aloqalarning kuchayishi

Eneolit va bronza davrida kommunikatsiya tizimining muhim xususiyatlaridan biri transmintaqaviy aloqa yo‘llarining shakllanishidir. Markaziy Osiyoni Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan bog‘lovchi nisbatan barqaror yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi ushbu davr uchun xarakterli jarayon sifatida ko‘rsatiladi. Tadqiqotchilar transmintaqaviy yo‘llarning shakllanishida mis, qurg‘oshin, oltin, kumush va nodir toshlar kabi xomashyo manbalarining mavjudligi muhim iqtisodiy omil bo‘lganini ta’kidlaydilar [6, 11-16-bet].

Ayniqsa, lojuvarddan yasalgan buyumlarning Mesopotamiya va Misr [11], Hindiston [12], Kichik Osiyodagi Troya-Gissarliktepa [13] kabi hududlardan topilishi uzoq masofali almashinuv jarayonlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Qadimgi Shumer sopol bitiklaridagi ma’lumotlar ham Tog‘li Badaxshondan Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlariga yo‘nalgan lojuvard yo‘llari haqida fikr yuritish imkonini beradi [14]. V.I. Sarianidi tadqiqotlarida ham qadimgi Sharqdagi katta lojuvard yo‘lining yo‘nalishlari va uning tarixiy ahamiyati ko‘rib chiqilgan [15].

Ushbu dalillar Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm vohasining qadimgi jahon sivilizatsiyalari bilan aloqalaridagi o‘rnini yoritadi. Savdo va madaniy almashinuv natijasida turli hududlar o‘rtasida nafaqat moddiy buyumlar, balki ishlab chiqarish tajribasi, texnologik ko‘nikmalar va san’at an’analari ham tarqalgan. Shu ma’noda kommunikatsiya yo‘llari qadimgi jamiyatlarning o‘zaro ta’sirini ta’minlovchi muhim tarixiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bronza davrida Zarafshon va Xorazm vohalari aholisining Volga bo‘yi va Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari ham tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan [2, 16-bet]. Ushbu aloqalar asosan savdo va hunarmandchilik mahsulotlari almashinuvi orqali amalga oshgan. Zarafshon va Xorazm vohalaridan olib chiqilgan metall buyumlar, sopol idishlar va bezaklarning shimoliy hududlardan topilishi munosabatlarning izchilligini ko‘rsatuvchi arxeologik dalillar sifatida talqin qilinadi. Shimoliy hududlardan esa teridan tayyorlangan mahsulotlar, hayvon terilari va suyakdan yasalgan hunarmandchilik buyumlarining voha tomon kirib kelishi mumkin bo‘lgan.

Natijada, bronza davrida Xorazm vohasi keng hududlarni bog‘lovchi aloqa makonlaridan biriga aylangan. Bu jarayon vohaning iqtisodiy hayotiga, hunarmandchilik taraqqiyotiga va madaniy almashinuviga ta’sir ko‘rsatgan. Kommunikatsiya tizimining rivojlanishi orqali turli hududlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib, Xorazmning tarixiy taraqqiyotida tashqi aloqalarning salmog‘i ortgan.

OLINGAN NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Xorazm vohasida qadimgi kommunikatsiya tizimining shakllanishi bir martalik hodisa emas, balki tabiiy-geografik sharoit, xo‘jalik ehtiyojlari, aholi harakati va hududlararo almashinuv bilan bog‘liq uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lganligi aniqlandi. Dastlabki bosqichda tabiiy yo‘nalishlar va suv manbalari asosiy harakat vositasi bo‘lgan bo‘lsa, neolit davrida manzilgohlararo aloqalar nisbatan barqarorlashgan.

Eneolit va bronza davrlarida kommunikatsiya tizimining rivojlanishida transport vositalarining paydo bo‘lishi, xo‘jalik markazlari va xomashyo manbalarining bog‘lanishi, shuningdek transmintaqaviy yo‘nalishlarning shakllanishi muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, quruqlik va suv yo‘llari bir-birini to‘ldirgan. Natijada kommunikatsiya tarmog‘i iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy munosabatlarning kengayishiga xizmat qilgan.

Tahlil qilingan ma’lumotlar Xorazmning qadimgi davrlardayoq turli madaniy-hududiy tizimlar o‘rtasidagi aloqalarda ishtirok etganini ko‘rsatadi. Bunda lojuvard kabi qimmatbaho xomashyolar bilan bog‘liq almashinuv yo‘nalishlari, metall va hunarmandchilik mahsulotlari harakati, shuningdek voha va shimoliy hududlar o‘rtasidagi aloqalar muhim daliliy asosni tashkil etadi [6, 11-16-bet].

XULOSA

Xorazm vohasining qadimgi kommunikatsiya tizimi tabiiy-geografik muhit va inson faoliyatining o‘zaro ta’siri asosida shakllangan. Uning dastlabki ko‘rinishlari tosh davridayoq paydo bo‘lib, neolit davrida manzilgohlararo aloqalarning barqarorlashuvi bilan rivojlangan. Eneolit va bronza davrlarida esa ulov vositalari, aravalar, quruqlik va suv yo‘llari hamda transmintaqaviy yo‘nalishlarning rivojlanishi kommunikatsiya tizimining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

Kommunikatsiya yo‘llari Xorazm tarixida faqat transport vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarni bog‘lovchi tizim sifatida ahamiyat kasb etgan. Ular orqali mahsulotlar, xomashyo, hunarmandchilik tajribasi va madaniy an’analar hududlar o‘rtasida tarqalgan. Shu jihatdan qadimgi Xorazm kommunikatsiya tizimini o‘rganish vohaning mintaqalararo tarixiy aloqalarini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Akademiya, 2008.

2. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С. 59–67.

3. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986. – 304 с.

4. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зерафшана. – Ташкент: Фан, 1991. – 122 с.

5. Холматов Н.У. Общее и особенное центральноферганского и сазаганского неолита // Палеоэкология и проблемы первобытной археологии Центральной Азии. – Самарканд, 1992. – С. 54–56.

6. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.–Л.: Наука, 1964. – С. 37, 86–88, 395–449.

7. Окладников А.П. К вопросу о мезолите и эпипалеолите в Азиатской части СССР. Сибирь и Средняя Азия. У истоков древних культур // Материалы и исследования по археологии. – М.: Наука, 1966. – Вып. 126. – С. 215, 221.

8. Крюков М.В. У истоков древних культур Восточной Азии // Народы Азии и Африки. – М., 1964. – № 6. – С. 85–99.

9. Айтбоев А. Қадимда Марказий Осиё халқларининг кўчиши ҳақида … – Б. 155–157.

10. Жўрақулов М., Жўрақулова Д.М. Самарқанд ҳудудининг энг қадимги маданият тарихи саҳифаси // Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни: Халқаро илмий симпозиум материаллари. – Тошкент–Самарқанд: Фан, 2007. – Б. 7–9.

11. Культура и искусство Вавилонии, Ассирии и соседних стран. – М.: Искусство, 1953. – С. 8.

12. Fairservis W. Excavations in the Quetta Valley. – New York, 1956. – P. 230.

13. Mellaart J. Anatolia, c. 4000–2300 B.C. – Cambridge, 1956. – P. 26, 32.

14. Крамер С.Н. История начинается в Шумере / Пер. с англ. Ф.Л. Мендельсона. – М.: Наука, 1991. – С. 35.

15. Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на Древнем Востоке // КСИА. – М.: Наука, 1968. – Вып. 114. – С. 3–9.

16. Аванесова Н.А. У истоков шелкового пути // Формирование и развитие трасс Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье. – Ташкент, 1990. – С. 240.

YOSHLAR TARBIYASIDA AVLODLARARO MUNOSABATLAR VA MA’NAVIY MAS’ULIYAT

Davletov Xurshid Yuldashevich,
Urganch innovatsion universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

Sabirova Shoxida Shakirovna,
Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani “Sho‘rtepa” MFY yoshlar yetakchisi, Osiyo xalqaro universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar xulq-atvorida kuzatilayotgan o‘zgarishlar tanqidiy yondashuv asosida emas, balki ijtimoiy-tahliliy nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Yosh avlodning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi va intellektual salohiyati e’tirof etilgan holda, ularning ma’naviy-axloqiy shakllanishida katta avlodning ijtimoiy mas’uliyati, tarbiyaviy ta’siri hamda shaxsiy namunasining ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, avlodlar munosabati, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, shaxsiy namuna, intellektual salohiyat, ma’naviy muhit, uzluksiz ta’lim.*

Аннотация. *В данной статье изменения, наблюдаемые в поведении современной молодежи, рассматриваются не только с критической, но и с социально-аналитической точки зрения. Наряду с признанием уровня освоения молодым поколением современных технологий и его интеллектуального потенциала освещается значение социальной ответственности старшего поколения, его воспитательного воздействия и личного примера в духовно-нравственном формировании молодежи.*

Ключевые слова: *молодежь, взаимоотношения поколений, воспитание молодежи, духовные ценности, социальная ответственность, личный пример, интеллектуальный потенциал, духовная среда, непрерывное образование.*

Abstract. *This article examines the changes observed in the behavior of contemporary youth not only from a critical perspective but also from a*

socio-analytical point of view. Along with recognizing the level of young people's mastery of modern technologies and their intellectual potential, the article highlights the importance of the social responsibility of the older generation, its educational influence, and personal example in the spiritual and moral development of young people.

Keywords: *youth, intergenerational relations, youth development, spiritual values, social responsibility, personal example, intellectual potential, spiritual environment, lifelong learning.*

KIRISH.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, xususan, yosh avlodning intellektual, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi davlat siyosatida yoshlar mamlakatning muhim strategik resursi sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuv yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash bilan bir qatorda, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratish masalasi muhim ekanligini ham belgilab beradi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida yosh avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlarning bilim olish, muloqot qilish va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, axborot makonining kengayishi ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, axborotni tanqidiy baholash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda.

Yoshlar tarbiyasida mavjud muammolarni faqat yosh avlodning xatti-harakatlari bilan izohlash yetarli emas. Mazkur jarayonni yoshlarni shakllantiruvchi ijtimoiy-ma’naviy muhit, oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi va katta avlodning shaxsiy namunasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarur.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** – yoshlar tarbiyasida avlodlararo munosabatlarning o‘rnini, katta avlodning ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatini hamda yoshlarning zamonaviy intellektual va texnologik salohiyatini tahlil qilishdan iborat. Asosiy **vazifalar** quyidagilardan iborat:

– avlodlararo munosabatlarning yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’sirini aniqlash;

– yoshlar tarbiyasida ma’naviy muhit va shaxsiy namunaning ahamiyatini tahlil qilish;

– raqamli transformatsiyaning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini baholash;

– yoshlarning intellektual va texnologik salohiyatini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatish;

– avlodlararo ma’naviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotning metodologik asosini yoshlar tarbiyasi va avlodlararo munosabatlarni ijtimoiy-ma’naviy jarayon sifatida o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda **ijtimoiy-tahliliy, qiyosiy, tavsifiy va umumlashtirish metodlaridan** foydalanildi.

Tadqiqot materiallari sifatida yoshlar tarbiyasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy ong, modernizatsiya, milliy tafakkur va komil inson masalalariga bag‘ishlangan ilmiy hamda ilmiy-publitsistik manbalar, shuningdek, yoshlar bilan olib borilgan amaliy muloqot va kuzatuvlar asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar uch asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqildi: **ma’naviy qadriyatlarning avloddan avlodga uzatilishi, katta avlodning shaxsiy namunasi va yoshlarning zamonaviy texnologik salohiyati**.

Amaliy kuzatuvlar mahalla yoshlari bilan olib borilgan muloqotlar asosida amalga oshirildi. Kuzatuv jarayonida yoshlarning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, raqamli vositalardan foydalanish, mavjud muammolarga innovatsion yechimlar taklif etish hamda mustaqil fikrlash imkoniyatlariga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda olingan ma’lumotlar mazmuniy jihatdan tahlil qilinib, yoshlarning intellektual salohiyati va ularning ma’naviy-axloqiy shakllanishi o‘rtasidagi munosabat umumlashtirildi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori va dunyoqarashi shakllanishida bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, iqtisodiy barqarorlik, bandlik imkoniyatlari, ta’lim sifati, oilaviy muhit, shaxsning individual madaniyati, motivatsiyasi, axborot muhiti va

ma’naviy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Avlodlararo munosabatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, katta avlod tomonidan yosh avlodga moddiy farovonlik, iqtisodiy imkoniyatlar va texnologik vositalarni taqdim etishning o‘zi yetarli emas. Ma’naviy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash, hayotiy tajriba, axloqiy mezonlar va ijtimoiy mas’uliyatning keyingi avlodga izchil yetkazilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yoshlarning hayotiy maqsadlari va qadriyatlar tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklar ma’naviy muhit bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ijtimoiy befarqlik, iste’molchilikka yo‘naltirilgan qarashlar va shaxsiy manfaatni ustuvor qo‘yish kabi holatlar ayrim hollarda oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, katta avlodning shaxsiy namunasi yoshlar tarbiyasining muhim omili ekanligi aniqlandi. Mutolaa qiladigan, yangi bilim va ko‘nikmalarni muntazam egallaydigan, o‘z faoliyatini tahlil qiladigan va shaxsiy rivojlanishga intiladigan kattalar yoshlar uchun ijobiy ijtimoiy model vazifasini bajarishi mumkin.

Amaliy kuzatuvlar yoshlarning texnologik va intellektual salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Mahalla yoshlari bilan olib borilgan muloqotlarda ularning zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, murakkab jarayonlarni raqamlashtirish va mavjud muammolarga innovatsion yechimlar taklif etish imkoniyatlari namoyon bo‘ldi.

Yoshlarni axborot ta’siridan to‘liq ajratishdan ko‘ra, ularda axborotni saralash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish samaraliroq yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar yoshlar tarbiyasini faqat yosh avlodning xatti-harakatlari doirasida baholash bir tomonlama yondashuv ekanligini ko‘rsatadi. Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvori zamonaviy ijtimoiy sharoitlar bilan bir qatorda, ular yashayotgan oilaviy, ma’naviy va tarbiyaviy muhit ta’sirida ham shakllanadi.

Bugungi yosh avlod raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog‘liq muhitda shakllanayotgan bo‘lsa, katta avlodning ijtimoiy tajribasi boshqa tarixiy va madaniy sharoitlarda shakllangan. Shu sababli avlodlar o‘rtasidagi farqni faqat ziddiyat sifatida emas, balki tajriba va yangi imkoniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida ham baholash mumkin.

Muhim masalalardan biri katta avlodning o‘z ustida ishlashidir. Agar ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning faol vakillari bilimlarini yangilash, mutolaa qilish va shaxsiy rivojlanishga intilishni to‘xtatsa, ularning tarbiyaviy ta’sirchanligi pasayishi mumkin. Aksincha, uzluksiz rivojlanishga intiladigan shaxs yoshlar uchun tabiiy namuna yaratadi.

Shu jihatdan **“Lifelong learning”** – **uzluksiz ta’lim** tamoyili katta avlod uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda bilim va texnologiyalarning tez yangilanib borishi insondan doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashni talab qiladi. Uzluksiz ta’lim shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan birga, uning dunyoqarashini kengaytiradi va avlodlararo muloqot imkoniyatlarini oshiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlar tarbiyasida asosiy vazifa yosh avlodni faqat mavjud qadriyatlarga moslashtirish emas, balki katta avlodning hayotiy tajribasi bilan yoshlarning zamonaviy bilim va texnologik imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur.

XULOSA.

Yoshlarning xulq-atvori va dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni oilaviy tarbiya, ta’lim, ijtimoiy muhit, raqamli axborot makoni va katta avlodning shaxsiy namunasi bilan bog‘liq holda kompleks o‘rganish zarur. Kelajak avlodga qoldiriladigan meros faqat moddiy boyliklar bilan belgilanmaydi. Ilm, tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, hayotiy tajriba, ijtimoiy mas’uliyat va shaxsiy namuna avlodlar davomiyligini ta’minlovchi muhim omillardir.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Mahalla darajasida yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi **“Ziyoli yoshlar – ibratli avlod”** kabi ijtimoiy-ma’rifiy loyihalarni kengaytirish.

2. Katta avlod va yoshlar o‘rtasida tajriba almashinuvi, fikr almashish hamda qadriyatlar davomiyligini ta’minlovchi **“Ma’naviy muloqot”** klublarini tashkil etish.

3. Yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan trening va seminarlar tizimini yo‘lga qo‘yish.

4. Katta avlod vakillari uchun uzluksiz ta’lim, mutolaa, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ma’rifiy dasturlarni tashkil etish.

Umuman olganda, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy masofani qisqartirishning muhim sharti yoshlarni o‘zgartirish bilan bir qatorda, katta avlodning ham doimiy ravishda rivojlanishi va yangilanishidir. Kelajak avlodning qanday dunyoqarash va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lishi bugungi avlodning bilim darajasi, tarbiyaviy faoliyati, ma’naviy pozitsiyasi va shaxsiy namunasi bilan bevosita bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: “Navro‘z”, 2015.
3. Umarova F., Norqulov S. Modernizatsiya va o‘zbek etnotafakkuridagi yangilanishlar. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2021.
4. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001.

QALAJIQ TARIXI YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA

Q. Sobirov,
Abu Rayhon Beruniy nomida Urganch davlat universiteti professori

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Maqolada Amudaryo o‘ng sohili xududida Qalajiq mudofaa devorida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *al Istahriy, al Muqaddasiy, Munis, Ogahiy, G‘ulomov Ya.G‘, Mametullayev M.M,. Zavyalov, Turon, O‘zbekiston, Xorazm, Qoraqum, Bozorqala, Ding‘ildja, Xiva, Kaltaminor, Tozabog‘yob, Amirobod Dovdon, Daryoliq, Charmanyob, Kardaronxos, Qalajiq.*

Аннотация: *В статье освещены результаты археологические исследования оборонительных стен Калажике на левого бережья Амударьи*

Ключевые слова: *ал Истахри, ал Мукаддаси, Мунис, Агахи, Ғулямов Я.Г, Мамбетуллаев М,М, Завьялов В, Турон, Узбекистон, Хорезм, Каракум, Базаркалья, Дингильджа, Хива, Калтеминар, Тазабагяб, Амирабад, Довдон, Дарёлик, Чарманяб, Кардаранхос, Қалажиқ.*

Abstract. *This article presents the results of archaeological investigations conducted on the defensive walls of Qalajiq, located on the right bank of the Amu Darya River. The study examines the archaeological features of the defensive structures and their significance in understanding the historical and cultural development of the Khorezm region.*

Keywords. *al-Istakhri, al-Muqaddasi, Munis, Agahi, Ya.G. Gulyamov, M.M. Mambetullayev, V. Zaviyalov, Turan, Uzbekistan, Khorezm, Karakum, Bazarkala, Dingildzha, Khiva, Kaltaminor, Tazabagyab, Amirabad, Dovdon, Daryoliq, Charman-yab, Kardaran-khos, Qalajiq.*

Kirish. [Introduction]. O‘zbekiston yer yuzasi tuzilish xususiyatini bir qator tarixiy-madaniy va etnik-madaniy xududlar namoyon qilgan. Shunday

geoiqtisodiy xududlardan biri Xorazm tekisligi Turonning shimoli-g‘arbida joylashgan, o‘ziga xos geografik muhiti, antropogen landshafti, iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, aholi joylashishi jihatida qo‘shni tarixiy-geografik manzarasida alohidalik xususiyatga ega. Xorazm vohasi Turon tekisligi davlatchilik tuzilmalari shakllangan qadimgi dehqonchilik xududlardan biri hisoblanadi. Xorazm ekspeditsiyasi o‘lkamiz xududida ajdodlarimiz tomonidan qad ko‘tarilgan qishloq va shaharlarda keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan noyob manbalar Xorazm vohasini Jaxon madaniyati sahifasidan o‘rin olishiga zamin bo‘lgan. Mil avv U1 asr birinchi so‘nggi choragida Bozorkala qalasi barpo qilingan. Mil avv U asr boshlarida Sho‘raxon qishlog‘i shimoli-sharkida Ding‘ilja bunyod qilingan. Aynan ushbu tarixiy davrda Qoraqum chegarasida Xiva shahri madaniy-xo‘jalik markaz shakllangan. Mil avv-gi 1U-111 asrda markazlashgan Xorazm davlati xukmdorlari ichki siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri Amudaryo dan o‘ng soxili xududida Kaltaminor, Tozabog‘yob va Amirobod sug‘orilish inshootlari sohili bo‘ylab qishloq va shaharlar qurish tadbiri olib borilgan. Bunday siyosat natijasida Amudaryo Dovdon irmog‘i o‘rta qisidan shimoli-g‘arbiy tomon Charmanyob sug‘orilish inshoot sohili bo‘ylab aholi tomonidan turar-joylar qad ko‘tarilgan. Daryoliq irmog‘idan chiqarilgan suhorilish inshootlari va Qoraqum chegarasi bo‘ylab aholi tomonidan arxeologik yodgorliklar barpo qilingan.

Mil avv-gi 1U-111 asrlarda ziroatkor aholi tomonidan Amudaryo o‘ng va so‘l sohili xudularda istehkomga ega bo‘lgan qishloq va shaharlar qurilishi keng tus olgan. Mudofaa devor paxsa va kvadrat g‘isht bilan qad ko‘tarilgan qalalar o‘rab olgan Qalajiq hisoblanadi. Mazkur maqola Qalajiq qalasi mudofaa devor tuzilish xususiyatini arxeologik jihatidan o‘rganilish natijalariga bag‘ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili [Literature review].

Xorazm vohasi ilk va o‘rta asr yodgorliklari arab geograflari al-Istahriy, Maqdisiy asarlari, noma’lum muallifi “Xudud ul-Olam” asarida qayd qilingan ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. “Xudud ul-Olam” asarida Kadaronxos qalasi eslatiladi[1. 1939-S.216]. Demak, Kardaronxos nomi kanal va istehkomli shahar to‘g‘risida ilk ma’lumotlar qayd qilingan. Lekin topografik joylashishi, mudofaa tizimi xamda aholi turmush tarzi to‘g‘risida xulosani kuzatish mushkul. al-Taboriy “Tarix” asrida Gurganch, Kat va Hazorasp yodgorliklarni izohlagan(2.1939-S.181-182.) al Istahriy asarida Hazoraspdan 2 farsah uzoqlikda Hazorasp kanalidan kattaroq Kardaronxush kanali xarakat qilib, Hazoraspdan Xivaga boradigan yo‘lda, voha janubiy tomonida Kardaronxush Hazorasp oralig‘i 3 farsah, Kardaronxushdan Xivaga 5 farsahdan iborat bo‘lgan deydi(3. S.178-181]. Al Muqaddasiy asarida esa Amudaryo so‘l sohilida

Kardaronxos-Xazorasp va Xiva shaxarlari oraligida sahro chekkasida joylashganligi Kardaronxos darvoza, uni o‘rab olgan xandak mavjudligini eslagan(4.1939-S.187-188]. Munis tomonidan boshlangan “Firdavs ul-Ikbol” asarida tarixiy jaryonlar aks ettirgan Ogahiy asarda Kardaronxos haqida: “Beshariq xududida Gardonxost kulidakim, xolo Nukuz kuliga mashxurdur”. Bu Kal’ajik, ya’ni Kardaronxos xarobalari kayd kilingan(5.2010- B.134-b). Ya. G‘. G‘ulomov asarida esa Kardaronxos xozirgi kundagi Kal’ajiq o‘zi ekanini qayd qilib, uning topografik joylashishiga e’tibor berib, Qoraqum chegarasida joylashgan. Janubiy devor uzunligi 221m, shimol-184m, sharqiy-114m. Devor balandligi 7-8m. Tashqi paxsa va kvadrat g‘ishtdan 45x45x15 sm kvadrat tiklangan(6.1959-B.81). 1973-1974 yillarda O‘zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘ston filiali arxeologiya bo‘limi M.Mambetullayev boshchiligida guruh yodgorlikda yodgorlikda qazishmalar olib borishi natijasida mudofaa devor tuzilishiga oid manbalarni olishga muyassar bo‘lgan[7,1983-S 53-55) . 1991 yilda Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tadqiqotchilari V.A.Zavyalov boshchiligida keng qamrovli arxeologik qazishmalarni amalga oshirdilar(8.-1992- S.298-317]. Arxeologiya izlanishlari natijalariga ko‘ra, Qalajiq mil avv-gi 1U asrda Qizilqum chegarasida o‘troq aholi tarkibida xunarmandlarning bir guruh vakillari sharqiy tomondan mukdofaa chizig‘ini hosil qilganlar. Tashqi devorda 1,20 m masofaada nayza o‘q shinaklar joylashgan. Qalajiq g‘arbiy tomonida tashqi devordan 3,5m uzoqlikda paxsa devor bunyod qilingan uzunligi 58m, balandligi 0,50-1,5m. Qoraqum sahroi sharoitida harbiy manzarani aks ettirgan harbiy qala bo‘lgan.

Metodologik uslublari quyidagilar belgilab olindi[Research methodology]. Ilmiylik, Tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy taxlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa. Arxeologiya, geografiya, geomorfologiya fanlari natijalaridan foydalanildi.

Taxlil va natijalar[Analysis and results] quyidagicha izohlandi:

O‘tgan asr nashrlar va zomonoviy tadqiqotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar asosida Qalajiq qalasi Qoraqum sahroi sharoitida sharqiy tomondan bo‘ladigan harbiy havf inobatga olinib barpo qilingan. Xorazmning Yonboshqala, Aqchagelin kabi devor bo‘ylab xilma-xil burjlardan xoli, lekin nayza o‘q shinaklar me’moriy ziynat bergan. Yodgorlik yo‘lakda o‘rnashgan ximoyachilar himoya ishlarini olib borishida nayza o‘qli shinaklardan foydalanganlar. Yodgorlik Ayozqala-1 yodgorligi kabi harbiy qala vazifasini bajargan. Mazkur ma’lumotlardan quyidagi natijalar qayd qilindi. Mil avv-gi 1U-111 asrdan boshlab Xorazm vohasini siyosiy manzarasini aks ettirgan Xorazm davlati qo‘shni xududlarda tinch vaziyat sharoitida Amudaryo o‘ng va

so‘l sohil xududida qishloq va shaarlarni bunyod qilish klassik darajaga ko‘tarilgan. Xorazm viloyati xududida Qalajiq harbiy qala bo‘lgan.

Xulosa va takliflar[Conelusion/ Recommendations]. Yuqorida qayd qilingan ma’lumotlarni asos qilib olib quyidagi xulosalarni qayd qilish mumkin.

- Amudaryo suv toshqini natijasida Xorazm tekisligi o‘ng va so‘l sohil xududlariga bo‘linganligi bois, geografik xolati farqlanish xolati haqida;

- Qishloq va shaharlar topografik joylashishish xususiyatlari Qalajiq misolida;

- Qorqum sahrosi chegara ilk mudofaa chizig‘ini hosil qilgan, Qalajiq ikkinchi mudofaa chizig‘ini hosil qilgan. Mazkur ma’lumotdan vujudga kelgan xulosa qilindi: Qayd qilingan xulosalar mazmunidan hosil bo‘lgan takliflar:

1. Xorazm vohasi antik davr geografik xolat, aholi joylashish jarayonini yoritish;

2. Qalajiq qalasi misolida qishloq va shaxarlarning topografik xolatini o‘rganish.

3. Amudaryo o‘ng va so‘l sohil xudularida shaharlarning mudofaa inshootlari tarixi taxlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Митт- М-Л, 1939 т.1

2. Митт-М-Л, 1939.-т-1

3. Извлечения из “Китаб месалик ал-мемалик” ал-Истахри, по изданию De Goeje (BGA, I), пер. С.Волина// Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ), Арабские и персидские источники. VII-XV вв. Труды института востоковедения. Т.1. Изд-во АН СССР, М – Л, 1939.

4. Извлеения из “Ахсан ат-такасим фи-ма'рифат ал-акалим” ал-Макдиси, по изданию De Goeje (BGA, III) пер. С.Волина//Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ), Арабские и персидские источники. VII-XV вв. Труды института востоковедения. Т.1. Изд-во АН СССР, М – Л, 1939.

5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол(Бахту саодат жаннати). Маъсул муҳаррир ва туркум муаллифи Ш. Вохидов. Тошкент, Янги аср авлоди. 2010

6. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент, Фан, 1959.

7. Мамбетуллаев М. Городище Каладжик. Вестник КК «Фан» УзССР, Нукус, №1, 1983.

8. Завьялов В.А. Отчет о работах Багатской экспедиции ИИМК в крепости Каладжик в мае-июне 1991 г. Санкт-Петербург, 1992. Маданий мерос департаменти архиви. А 9351/3-13.

1930-YILLAR QATAG‘ONLARI VA KOREYS DIASPORASI FOJIASI
(Xorazm viloyati, Gurlan tumani misolida)

Yulduzxon Madirimovna Rahmonova,
O‘zbekiston tarixchilar jamiyati Xorazm viloyat bo‘limi raisi,
Osiyo xalqaro universiteti Ijtimoiy fanlar va filologiya kafedrasi mudiri,
t.f.n., prof.

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sovet totalitar tuzumining 1930-yillarda amalga oshirgan ommaviy siyosiy qatag‘onlari va koreys diasporasining Markaziy Osiyoga, jumladan Xorazm viloyatiga deportatsiya qilinishi jarayonlari ilmiy-tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan. Shuningdek, Gurlan tumani misolida ko‘chirib keltirilgan koreys aholisining ijtimoiy-maishiy ahvoli, duch kelgan qiyinchiliklari va soxta ayblovlar bilan repressiya qilingan shaxslarning taqdiri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Siyosiy qatag‘onlar, koreys diasporasi, deportatsiya, Xorazm viloyati, Gurlan tumani, sovet totalitar tuzumi, arxiv hujjatlari, oqlash, soxta ayblovlar, shaxsiy taqdirlar, tarixiy xotira.*

Аннотация. *В данной статье на основе научно-исторических источников и архивных документов анализируются процессы осуществления массовых политических репрессий советским тоталитарным режимом в 1930-х годах и депортация корейской диаспоры в Центральную Азию, в том числе в Хорезмскую область. Также на примере Гурланского района освещаются социально-бытовые условия депортационного корейского населения, столкнувшегося с трудностями, а также судьбы лиц, подвергшихся репрессиям по сфабрикованным обвинениям.*

Ключевые слова: *Потические репрессии, корейская диаспора, депортация, Хорезмская область, Гурланский район, советский тоталитарный режим, архивные документы, реабилитация, фальсифицированные обвинения,*

судьбы людей, историческая память.

Abstract. *This article analyzes the processes of mass political repressions carried out by the Soviet totalitarian regime in the 1930s and the deportation of the Korean diaspora to Central Asia, including the Khorezm region, based on scientific-historical sources and archival documents. Furthermore, using the example of the Gurlan district, it highlights the social and living conditions of the relocated Korean population, the hardships they faced, and the destinies of individuals repressed under fabricated charges.*

Keywords: *Political repressions, Korean diaspora, deportation, Khorezm region, Gurlan district, Soviet totalitarian regime, archival documents, rehabilitation, fabricated charges, human destinies, historical memory.*

XX asrning 30-yillari oxirida sovet totalitar tuzumi tomonidan amalga oshirilgan ommaviy qatag‘onlar sobiq Sovet Ittifoqi hududida istiqomat qiluvchi ko‘plab etnik guruhlar va turli millat vakillariga nisbatan og‘ir oqibatlarni keltirib chiqardi. Xususan, koreys diasporasi uchun bu davr majburiy ko‘chirish, og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, huquqiy cheklovlar hamda soxta siyosiy ayblovlar bilan kechgan ta’qiblar davri sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

XX asrning 30-yillari o‘rtalariga kelib sovet markaziy rahbariyati tomonidan yuritilgan agressiv millatlararo siyosat hamda “chegara hududlarini tozalash” konsepsiyasi bahonasida yuz minglab insonlar o‘zlarining tug‘ilib o‘sgan hududlaridan majburan ko‘chirildi.

Primorye o‘lkasida 1876 yildagi koreys-yapon shartnomasi va 1905 yildagi rus-yapon urushidan so‘ng Koreyadan ko‘chib o‘tgan juda ko‘p koreyslar yashardi[1].

1937 yil kuzidagi sovet koreyslarining deportatsiyasi SSSR tarixidagi butun bir xalqning birinchi ommaviy surguni bo‘ldi[2]. Jarayon SSSR Xalq Komissarlari Kengashi va VKP(b) MKning 1937 yil 21 avgustdagi №1428-

[1] Xan V., Yong S. Koreysы v Sentralnoy Azii: proshloye i nastoyaщeye. – M. 2014. – S.66.
[2] Postanovleniye Politbyuro SK VKP(b) p. 51/831 "O koreysax". 28 avgusta 1937 g. / RGASPI F.17, Op.166, D.578 L.123.

326ss-sonli maxsus yopiq qarori bilan rasmiylashtirildi. Unga ko‘ra, Rossiyaning Uzoq Sharq mintaqalarida yashovchi 172 mingdan ortiq etnik koreys geosiyosiy kon’yunktura va oldindan gumon qilish ostida “hukumatga sodiq bo‘lmagan etnik guruh” sifatida tasniflandi hamda Markaziy Osiyoga — asosan Qozog‘iston va O‘zbekiston SSRga majburan ko‘chirildi.

Bu siyosat geopolitik omillar — 1937 yil 7 iyulda Yaponiyaning Xitoyga bostirib kirishi va Koreyaning Yapon imperiyasi mustamlakasi ekani bilan izohlandi. NKVDning 1937 yil 20 sentabrdagi №00593-sonli buyrug‘iga muvofiq, Yaponiyaga qaram bo‘lgan Manchjou-Go davlati sobiq fuqarolari va Xitoy-Sharqiy temir yo‘li xizmatchilari ham qatag‘on nishoniga aylandi[1].

Arxiv manbalarining tahlili ko‘rsatishicha, 1937 yilning oktabr–noyabr oylarida O‘zbekiston SSR hududiga jami 16 307 oila, 74 500 nafar koreys aholisi deportatsiya qilingan. Ularning ma’lum bir qismi Xorazm vohasiga joylashtirilib, jumladan, Gurlan tumaniga 1197 ta oila — 5 799 nafar shaxs ko‘chirib keltirildi[2]. Bu jarayon respublikada hukm surgan og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, oziq-ovqat tanqisligi, uy-joy va kommunal infratuzilmaning nochorligi sharoitida kechdi.

Ko‘chirib keltirilgan koreys aholisini moslashtirish va joylashtirish asosan Xorazm viloyatining Gurlan tumani hududida, xususan Akkum massivida amalga oshirildi. Mavjud arxiv fondlari hujjatlari va dala tadqiqotlari materiallari shuni tasdiqlaydiki, deportatsiya qilinganlar uchun turar joy qurilishi davlat tomonidan tizimli tarzda rejalashtirilgan va moliyaviy mablag‘lar ajratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda mazkur ko‘rsatmalar bajarilmagan. Ko‘plab koreys oilalari vaqtinchalik moslashtirilgan sovuq binolarda, qamish va shox-shabbalardan yasalgan boshpanalarda yoki yarim vayrona xo‘jalik inshootlarida sovuq va og‘ir turmush mashaqqatlari ostida yashashga mahkum etildilar.

Oziq-ovqat ta’minotining past darajada ekanligi, tibbiy-sanitariya xizmatining yomonligi va ta’lim muassasalarining mutlaqo yetishmasligi deportatsiya qilingan aholi ahvolini yanada murakkablashtirdi. Shunga qaramay, koreys etnosi vakillari qisqa muddat ichida Xorazmning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashib, qishloq xo‘jaligida, xususan, sholichilikni rivojlantirishda yetakchi

[1] Ma’lumot uchun: 1937 yilgi deportatsiya oqibatida shakllangan koreys jamoasi yillar davomida kengayib bordi va 1989 yilgi Umumittifoq aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, SSSRdagi eng yirik (350 ming atrofida) koreys diasporasi aynan O‘zbekistonda qayd etildi.

[2] Urganch Davlat universiteti tuzilmasidagi (Xorazm viloyatining) Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ekspozitsiyasi va arxiv materiallari.

o‘rin tutdilar. Ular Gurlan tumanidagi kolxoz va sovxozlarda faol mehnat qilib, sholi va paxta yetishtirishda yuqori natijalar ko‘rsatdilar.

Majburiy deportatsiya va ma’muriy-huquqiy cheklovlar bilan cheklanib qolmasdan, 1938 yilga kelib Gurlan tumanida va umuman Xorazm vohasida istiqomat qilayotgan koreys millati vakillariga nisbatan ommaviy siyosiy qatag‘onlarning yangi to‘lqini boshlab yuborildi. SSSR Ichki ishlar xalq komissariati hududiy organlari tomonidan ularga nisbatan asosan “aksilinqilobchi”, “yapon josuslik tarmog‘i bilan aloqada bo‘lgan”, “sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot-tashviqot olib borgan” degan soxta, o‘ylab topilgan va asossiz ayblovlar qo‘yildi. Sovetlarning qatag‘on tizimi mehnatkash dehqonlar, ziyolilar va hattoki oddiy xizmatchilarni ham chetlab o‘tmadi.

O‘zbekiston Respublikasining turli arxivlari Xorazm viloyatidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ilmiy fondida saqlanayotgan hujjatlar 1930-yillar oxirida nohaq jazolangan koreys millati vakillarining fojiali taqdirini ochib beradi:

· **Soy Sun Min** 1889 yilda tug‘ilgan – kolxozchi. 1938 yilda «aksilinqilobchi» sifatida asossiz ayblanib hibsga olingan. O‘n yillik qamoq jazosidan so‘ng, 1989 yil 14 noyabrda rasman oqlangan[1].

- **Soy Don Gu** 1897 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 25 fevralda hibsga olingan, 1989 yil 12 sentabrda oqlangan[2].

- **Soy Men Dyun** (Soy Miron) 1897 yilda tug‘ilgan – kolxozchi, 1939 yil 7 martda qamalgan, 1990 yil 5 sentabrda oqlangan.

- **Soy Sek Xvan** 1881 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 23 mayda hibsga olingan, 1990 yil 19 mayda oqlangan.

- **Soy Tya Yun** 1899 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 11 aprelda qamalgan, 1990 yil 3 mayda oqlangan.

- **Cha Xon Do** 1897 yilda tug‘ilgan – 1937 yilda Uzoq Sharqdan deportatsiya qilingan. Kolxozchi lavozimida ishlagan, 1938 yil 23 mayda qamalib, 1990 yil 1 noyabrda oqlangan.

- **Chen Xon Sun** 1879 yilda tug‘ilgan – kolxozchi, 1938 yil 25 fevralda hibsga olingan.

---

[1] Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Xorazm viloyati. 2-jild / Tuzuvchilar: B.V. Hasanov, Yu.Rahmonova va boshq. — Toshkent: Matrix, 2025. — B. 155, 169, 214.

[2] Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Xorazm viloyati. 2-jild / Tuzuvchilar: B.V. Hasanov va boshq. — Toshkent: Matrix, 2025. — B. 214.

- **Chu Shi Xen** 1878 yilda tug‘ilgan – Gurlan tumanida istiqomat qilgan, kolxozchi, 1938 yil 23 mayda qamalgan, 1990 yil 24 aprelda oqlangan.

- **Nam Yen Sun** 1891 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 20 mayda «aksilinqilobchi» sifatida hukm qilingan, 1990 yil 17 aprelda oqlangan.

- **Nam Xi Kir** 1899 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 24 mayda qamoq jazosiga tortilgan.

- **Do Yen Fu** «Aksilinqilobchi» sifatida ayblanib jazoga tortilgan.

- **Kim Xaik (Kim Semyon)** 1881 yilda tug‘ilgan – 1937 yilda sovet hukumatiga qarshi targ‘ibot yuritganlikda ayblanib hibsga olingan.

- **Kan Sen Sam** 1889 yilda tug‘ilgan – 1938 yil 25 mayda qamoqqa hukm qilingan, 1998 yil 14 noyabrda oqlangan.

- **Kan U Bon** 1876 yilda tug‘ilgan – ko‘cha tozalovchi (supuruvchi) bo‘lib ishlagan, 1938 yil 26 fevralda hibsga olingan.

- **Kan Chan Dyun** 1906 yilda tug‘ilgan – kolxozchi, 1938 yilda qamalib, 1989 yil 14 noyabrda oqlangan.

- **Kim Andrey** 1912 yilda tug‘ilgan – hisobchi, 1938 yil 29 aprelda hibsga olingan, 1991 yil 18 yanvarda oqlangan.

- **Kim Sergey** 1902 yilda tug‘ilgan, Primorsk o‘lkasida tug‘ilgan – Gurlan tumani paxta zavodida hisobchi lavozimida ishlagan, 1938 yil 7 noyabrda qamoq jazosiga hukm qilingan[1].

- **Li Xe Dik** 1879 yilda tug‘ilgan – sovet hokimiyatiga qarshi qurolli yoki siyosiy kurash olib borganlikda ayblanib qamalgan.

- **Son Yen Duk** 1880 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

- **Yu Gvan Sen** 1892 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

- **Yu Xan Chu** 1885 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

- **Yuno Dyun** 1899 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

- **Xan Arxin** 1905 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

[1] Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Xorazm viloyati. 2-jild / Tuzuvchilar: B.V. Hasanov va boshq. — Toshkent: Matrix, 2025. — B.156.

- **Xe Sen Dam** 1876 yilda tug‘ilgan – 1938 yilda qamoqqa olingan, 1989–1991 yillarda oqlangan.

Ushbu shaxslarning aksariyati SSSRdagi “qayta qurish” davrining siyosiy reabilitatsiya jarayonlari doirasida — 1989–1991 yillarda oqlanganlar.

Koreys diasporasi vakillarining 1930-yillardagi fojiali tarixiy qismati sovet totalitar tuzumining etnik guruhlar taqdiriga nisbatan yuritgan shovinistik va mustabid siyosatining tarixiy dalili hisoblanadi. Huquqiy asosga ega bo‘lmagan deportatsiya va ommaviy siyosiy qatag‘onlar minglab begunoh insonlarning taqdirini izdan chiqardi hamda butun boshli oilalarni parchalab yubordi.

Shunday qilib, 1937 yilgi deportatsiya rasman Yapon imperiyasi ayg‘oqchiligiga qarshi chegara xavfsizligini ta’minlash bahonasi bilan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mohiyatan totalitar tuzumning strategik chegaralarni etnik jihatdan “tozalash” va majburiy mehnat resurslari orqali yangi yerlarni o‘zlashtirishga qaratilgan siyosatining natijasi edi.

Deportatsiyaning og‘ir va ayanchli oqibatlariga qaramay, o‘zbek aholisining yuksak insonparvarligi ko‘chirib keltirilgan koreys xalqining omon qolishida va yangi muhitga tez moslashuvida hal qiluvchi rol o‘ynadi. O‘z navbatida, koreys diasporasi O‘zbekistonni o‘zlarining chin Vatani sifatida qabul qilib, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdi[1].

Bugungi kunda ushbu tarixiy xotira va minnatdorlik tuyg‘usi O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik hamda mustahkam do‘stlik aloqalarining ma’naviy va madaniy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda[2].

Zamonaviy ilmiy-tarixiy tadqiqotlar doirasida mazkur fojiali sahifalarni xolisona o‘rganish, arxiv fondlarida unutilib ketgan har bir inson ismini ilmiy muomalaga qayta kiritish, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish — mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ustuvor tarkibiy qismidir. Bu ilmiy-tarixiy yondashuv mazkur jarayonlarning asl

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi Xorazm viloyat bo‘limi arxivi. 2- fond, 23-ro‘yxat, 505-yig‘ma jild. 2-varaq.

[2] Shavkat Mirziyoyev,O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekistonda koreys millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilayotganining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. 17.11.2017. https://www.president.uz/uz/lists/view/1246
Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Xorazm viloyati. 2-jild / Tuzuvchilar: B.V. Hasanov va boshq. — Toshkent: Matrix, 2025. — B.156.

mohiyatini ochib berish hamda yosh avlodni tinchlik, bag‘rikenglik va huquqiy demokratiya qadriyatlari ruhida tarbiyalash yo‘lidagi muhim nazariy saboq bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekistonda koreys millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilayotganining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim ishtirokchilariga tabrik (17 noyabr 2017 y.) [Elektron resurs]. — https://www.president.uz/uz/lists/view/1246

Arxiv va muzey materiallari

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Xorazm viloyati bo‘limi arxivi. — Fond 2.

3. Rossiyskiy gosudarstvennыy arxiv sotsialno-politicheskoy istorii. — F. 17. — Op. 166. — D. 578. — L. 123. (Postanovleniye Politbyuro SK VKP(b) p. 51/831 «O koreysax». 28 avgusta 1937 g.).

4. Arxiv Prezidenta Rossiyskoy Federatsii. — F. 3. — Op. 58. — D. 139. — L. 1–2. (Postanovleniye SNK SSSR i SK VKP(b) № 1428-326ss «O vыselenii koreyskogo naseleniya iz pogranichnыx rayonov Dalnevostochnogo kraya». 21 avgusta 1937 g.).

5. Urganch Davlat universiteti tuzilmasidagi (Xorazm viloyati) Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ekspozitsiyasi va arxiv materiallari.

Kitoblar, to‘plamlar va monografiyalar

6. Bugay N. F. Vыseleniye koreysev s Dalnego Vostoka: Istoriko-arxivnыy ocherk. — Moskva: Vыsshaya shkola, 1994. — 142 s.

7. Kim P. G. Koreysы Respubliki Uzbekistan: Istoriya i sovremennost / Otv. red. D. V. Soy. — Tashkent: Uzbekistan, 1993. — 176 s.

8. Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi: Xorazm viloyati. 2-jild / Tuzuvchilar: B. V. Hasanov va boshq. — Toshkent: Matrix, 2025. — 264 b.

9. Xan V. S., Sim Xon Yon. Koreysы v Sentralnoy Azii: proshloye i nastoyaщeye. — Moskva, 2014. — S. 66.

10. Xan V. S., Sim Xon Yon. Koreysы Sentralnoy Azii: proisxojdeniye i evolyutsiya (etnoistoricheskiy ocherk). — Tashkent: Baktria press, 2014. — 240 s.

XORAZM TARIXSHUNOSLIGIDA DAVLAT XO‘JALIKLARINING AGRAR SOHA VA ISHLAB CHIQARISHDA TUTGAN O‘RNI MAVZUSINI TAHLIL QILISHNING ILMIY AHAMIYATI

Kazakova Zuxraxon Xamdamovna,
E-mail: zuhraxonqazaqova@gmail.com
ORCID: 0009-0002-6200-2960

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm tarixshunosligida fan va jamiyat uchun tahlil qilinishi zarur bo‘lgan davlat xo‘jaliklarining agrar soha va ishlab chiqarishda tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Bu mavzuni o‘rganish uchun qanday manbalar borligi va ularni tahlil qilish bilan bog‘liq jihatlar yoritiladi.*

Аннотация. *В данной статье исследована роль государственных хозяйств в аграрном секторе и производстве, анализ которых представляет высокую научную и общественную значимость для хорезмской историографии. Рассматриваются источниковедческая база, необходимая для изучения данной проблематики, а также ключевые аспекты, связанные с источниковедческим анализом привлеченных материалов.*

Abstract. *This article examines the role of state farms in the agricultural sector and production, the analysis of which is essential for science and society within Khorezm historiography. It highlights the source base available for studying this topic and outlines the key methodological aspects involved in analyzing these historical sources.*

Kalit so‘zlar: *Xonlik, respublika, okrug, viloyat, agrar soha, davlat xo‘jaligi, jamoa xo‘jaligi, memuar, matbuot, arxiv, tarix, fan.*

Ключевые слова: *Ханство, республика, округ, область, аграрный сектор, совхоз (государственное хозяйство), колхоз (коллективное хозяйство), мемуары, периодическая печать, архив, история, наука.*

Keywords: *Khanate, republic, okrug, region, agricultural sector, state farm, collective farm, memoirs, press, archives, history, science*

Quyi Amudaryo bo‘ylarida joylashgan Xorazm vohasida azaldan suv xo‘jaligi, u bilan bog‘liq kasblar, shu bilan birga aholi yashash joylarining shakllanishidan kelib chiqib qishloqda kechgan jarayonlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ya’ni, agrar soha Xorazm tarix davomida imperiya, xonlik, respublika, okrug, viloyat tarzidagi boshqaruv tuzilmalariga ega bo‘lgan davrlarda ham xalqning turmush kechirishidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lgan.

Biroq asrlar davomida , xususan Xiva xonligi deya atalgan monarxiya tuzumi davrida (1511 yildan to 1920 yil 2 fevralgacha) yer xususiy mulk hisoblangan va hajmidan kelib chiqib bir necha turlarga bo‘lingan. Shuningdek madrasa, masjidlarga qarashli vaqf yer egaligi ham mavjud bo‘lgan.

Ma’lumki, xonlik tugatilib respublika tuzumi o‘rnatilgacha dastlab xon va uning amaldorlari yerlari, mulklari tortib olinib oz miqdorlar yeri bor kambag‘allarga, shuningdek umuman yeri bo‘lmagan tabaqalarga taqsimlab berilgan. Negaki, sovet davlati hokimiyatga kelishidan oldin va dastlabki davrda o‘z tarafdorlarini ko‘paytirish maqsadida “yer dehqonga, zavod fabrikalar ishchilarga” shiori bilan o‘z manfaatiga erishib boshladi.

Ammo 1929-35 yillarda Sovet davlatida xususiy mulk, yer egaligi to‘liq tugatilgan tarzda nafaqat o‘rtahollar, balki 1920-24 yillarda yerga ega bo‘lgan kambag‘allarning ham yerlari, xususiy mulki, ishlab chiqarish qurollari tortib olinib, jamoa xo‘jaliklar-ya’ni kolxozlar, shuningdek davlat xo‘jaliklari-sovxozlar tashkil etila boshlanadi.

Shu tarzda Sovet davlatining hamma hududida bo‘lgani singari Xorazmda ham jamoa (kolxoz) va davlat (sovxoz) xo‘jaliklari tashkil etila boshlanadi.

Ana shu jarayonda dastlab jamoalashtirish davrida Xorazm okrugida ham 2 ta davlat xo‘jaligi, ya’ni sovxozlar tashkil qilinadi. Ammo boshqaruv tuzilmasida yo‘l qo‘yilgan ma’muriy xatolar tufayli ushbu 2 ta sovxoz tugab ketadi. Aynan ana shu davrdagi majburiy o‘tkazilgan jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun va qatag‘on siyosati to‘g‘risida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Umid Bekmuhammadning “Sovetlarning Xorazmda amalga oshirgan kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari (1929-1959 yillar) “nomli monografiyasi nashr etilgan (1).

Xorazm okrugi 1938 yildan ma’muriy hududiy boshqaruv tuzilmasi tarzida oblast(ya’ni viloyat) deya nomlana boshlaydi. Hudud rahbari oblast partiya komiteti birinchi sekretari, hozirgi tuman darajasida esa rayon partiya

komiteti birinchi sekretari deya nomlangan va ushbu lavozimga saylangan shaxslar hududlarga rahbarlik qilishgan.

Qishloqlarda esa ma’muriy boshqaruvning ikki xil tuzilmasi mavjud edi. Ya’ni, jamoa xo‘jaliklari va davlat xo‘jaliklari. Jamoa xo‘jaliklari (kolxoz)da rais, davlat xo‘jaliklari (sovxoz)da direktor lavozimidagi shaxs qishloq aholisiga rahbarlik qilishgan.

Shu tarzda to O‘zbekiston mustaqillikka erishgan 1991 yil oxirigacha kolxoz va sovxoz boshqaruv tuzilmalari agrar soha va ishlab chiqarishda muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Mustaqillikdan keyingi dastlabki davrda esa jamoa va davlat xo‘jaliklari birdaniga fermer xo‘jaliklariga aylantirilmay shirkat xo‘jaligi deya nomlanadigan bo‘ldi. So‘nggi bosqichdagina shirkat xo‘jaliklari tugatilib, 2000-2005 yillarda fermer xo‘jaliklariga aylantirildi.

Xorazm tarixshunosligida aynan Xorazm viloyati davrida, ya’ni 1938-1991 yillarda davlat xo‘jaliklarining agrar soha va ishlab chiqarishda tutgan o‘rni fan va jamiyat nuqtai nazaridan tahlil etilmagan ilmiy muammo sifatida turibdi va bu mavzuning dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Negaki, kolxoz va sovxozlarda ishlab chiqarilgan agrar mahsulotlarning o‘zaro farqi nimada? Viloyat bo‘yicha kolxozlarda qancha mahsulot topshirilgan va bu sentner hisobda sovxozda qanchani tashkil qiladi? Sovxozlardagi boshqaruv tuzilmasi qanday bo‘lgan? Ya’ni kolxozda rais, sovxozda direktor bo‘lishdan tashqari, bundan tashqari boshqaruvchi rahbariyat qanday nomlangan va ularning vazifalari bir-biriga o‘xshashmi yo kolxoz va sovxoz boshqaruvidagi o‘zaro farqli jihatlari bo‘lganmi?

Sovxozlar odatda ma’lum bir agrar soha mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan tuzilma sifatida, Xorazmda odatda sholi va poliz sabzavotgagina ixtisoslashganmi? Tuproqqa’la (Buxoro viloyati bilan chegarada) va Qoraqalpog‘istondagi Qo‘ng‘irot singari hududlarda Xorazm viloyatiga qarashli sovxozlar tashkil etilishdan maqsad nimaga qaratilgan? Mavsumiy ishchi kuchini o‘zga hududlarga qaratish ish bilan ta’minlash va cho‘l hududlarni o‘zlashtirishga qaratilganmi va bu manfatdorlik sovxozlar byudjetiga qanday ta’sir qilgan? Har bir tumandagi ilg‘or xo‘jalik tarzida targ‘ib qilingan sovxozlar aholisining turmush darajasi bilan kolxoz aholisining turmush darajasi o‘rtasida qnday farqli jihatlar va o‘xshashliklar bo‘lgan?

Negaki, Xonqa tumanidagi Al-Xorazmiy, Yangibozor tumanidagi Rossiya, Gurlan tumanidagi Guliston, Yangiobod davlat xo‘jaliklari sovetlar davrida Xorazm viloyatidagi ilg‘or xo‘jaliklar sifatida matbuot, TV, radioda eng ko‘p targ‘ib qilingan.

Aynan ana shu jarayonni o‘rganish, ilmiy tadqiq qilish dolzarb mavzu bo‘lgani tufayli davlat xo‘jaliklarining viloyatdagi agrar soha va ishlab chiqarishda tutgan o‘rnini tahlil etish uchun quyidagi manbalar mavjud:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi.
2. Xorazm viloyat davlat arxivi.
3. Sovet davridagi ittifoq, ryespublika, viloyat va tuman matbuotidagi maqolalar.
4. Sovet davrida turli darajada rahbarlik vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan N.Muhitdinov, I.Usmonxo‘jayev, R.Nishonov, M.Xudoyberganov, M.Jumaniyozov, Sh.Aliyeva, Q.Xolimbetov, A.Vapoyev singari yana turli lavozimdagi shaxslar yaratgan memuarlar.
5. O‘zbekiston va viloyat, tuman statistika tashkilotlaridagi hujjatlar.
6. Viloyat, tuman va qishloqlar tarixiga boshlangan ilmiy ommabop va o‘lkashunos asarlari.

Myemuarlarga masalan Xorazm viloyatiga 1968-1986 yillarda Xorazm viloyatiga rahbarlik qilgan Madiyor Xudoyberganovning “Sinovlarda kechgan umr” (2) va 1992-96 yillarda viloyatning birinchi hokimi bo‘lgan Marks Jumaniyozovning “Esimda qolgan onlar”(3) va Gurlan tumani hokimi bo‘lib ishlagan Amin Vapoyevning “Xotiramda jonlangan o‘tmish” (4) nomli xotiralarini kiritish mumkin va ularda viloyatdagi sovxoz-davlat xo‘jaliklaridagi jarayonlar qamrab olingan.

Ana shu manbalarni tahlil qilish, tarixiy metodologiyaga ko‘ra qiyosiy taqqoslash natijasida Xorazm viloyatidagi davlat xo‘jaliklarining agrar soha va ishlab chiqarishda tutgan o‘rnini ilmiy tarzda fan va jamiyat uchun dolzarb mavzu sifatida tadqiq qilish imkoni mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umid Bekmuhammad “Sovetlarning Xorazmda amalga oshirgan kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari (1929-1959 yillar)”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2026 yil.
2. Madiyor Xudoyberganov “Sinovlarda kechgan umr” ,A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1997 yil.
3. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar”, “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2008 yil.
4. Amin Vapoyev “Xotiramda jonlangan o‘tmish”, “Istiqlol” nashriyoti, Toshkent-2013 yil.

MARKS JUMANIYOZOV MEMUARIDA XORAZMDAGI DAVLAT XO‘JALIK (SOVXOZ)LARGA OID TAFSILOTLAR TAHLILI

Kazakova Zuxraxon Xamdamovna,
E-mail: zuhraxonqazaqova@gmail.com
ORCID: 0009-0002-6200-2960

UO‘K 94(575.1)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyati hokimi va respublika qishloq xo‘jaligi vaziri vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan Marks Jumaniyozov memuarida yoritilgan davlat xo‘jaliklariga oid tafsilotlar tadqiq qilingan. Viloyatdagi davlat xo‘jaliklari, ulardagi jarayonlar, ilg‘or rahbarlar hayoti, faoliyati va tashkilotning jamiyatda tutgan o‘rni memuar asosida tahdid etiladi.*

Аннотация: *В данной статье исследуются сведения о совхозах (государственных хозяйствах), изложенные в мемуарах Маркса Джуманиязова, осуществлявшего деятельность на должностях хокима Хорезмской области и министра сельского хозяйства республики. На основе мемуаров анализируются государственные хозяйства области, протекавшие в них процессы, жизнь и деятельность передовых руководителей, а также роль организации в жизни общества.*

Abstract: *This article examines the details concerning state farms (sovkhozes) highlighted in the memoirs of Marks Jumaniyazov, who served as the Khokim (Governor) of the Khorezm Region and the Minister of Agriculture of the Republic. Based on the source material, the paper analyzes the region's state farms, their operational processes, the life and career of progressive leaders, and the socio-economic role of these organizations in society.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, oblast, agrar soha, davlat xo‘jaligi, direktor, Yangibozor, Gurlan, Xonqa, hudud, rayon, sovxoz, kolxoz, partiya, ishlab chiqarish, qishloq aholisi, sholichilik, paxtachilik, poliz va sabzavotchilik.*

Ключевые слова: *Хорезм, область, аграрный сектор, государственное хозяйство,*

директор, Янгибазар, Гурлен, Ханка, территория, район, совхоз, колхоз, партия, производство, сельское население, рисоводство, хлопководство, бахчеводство и овощеводство.

***Keywords**: Khorezm, region, agrarian sector, state farm, director, Yangibazar, Gurlan, Khanka, territory, district, sovkhoz, kolkhoz, party, production, rural population, rice farming, cotton cultivation, melon and vegetable growing.*

Har bir hudud, u hoh viloyat, yoki tuman va qishloq bo‘lsin, o‘z mehnatlari, intilishlari, aqliy salohiyati bilan o‘zi tanlagan sohaning ilg‘or namoyandasi darajasiga chiqqan shaxslari bo‘ladi. Xorazm hududidan ham sovet davrida u okrug (1925-1938 yillar), oblast (1938-1991 yillar) deya atalgan yillari jamiyatning turli sohalaridan ilg‘or kishilar nafaqat o‘zlarining oliy ta’limda tanlagan mutaxassisliklari, balki jamiyatdagi jarayonlarda faollik ko‘rsatib viloyat, respublika va sobiq ittifoqqa tanilgan. Ana shunday shaxslar davlatning oliy mukofotlariga, eng asosiysi esa xalq e’zozi, mehriga sazovor bo‘lishgan.

Ular orasida turli yillarda viloyatga rahbarlik qilgan Madiyor Xudoyberganov (1968-1986), Marks Jumaniyozov (1992-1996) singari shaxslar ham bo‘lib, ular shu lavozimga kelgancha va undan so‘nggi faoliyatlari davomida ham o‘z davrining matonatli shaxslari sifatida faoliyat ko‘rsatishgan.

Madiyor Xudoyberganov istiqlol yillarida “Sinovlarda kechgan umr” (1) va yana o‘zining hayoti faoliyatiga, yashagan davriga munosabat tarzidagi xotiralar yaratdi. Shu kabi Marks Jumaniyozov ham nafaqana chiqqach davr va jamiyat, shaxs taqdirini aks etdirgan “Esimda qolgan onlar “(2) nomli memuarini nashr qildirdi.

Shu singari yana Qozoq Xolimbetov, Rahimboy Tohirov, Aminboy Vapoyev,Sharqiya Aliyeva va boshqa rahbarlik vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan shaxslar ham o‘zlarining hayoti, faoliyati, jamiyatda kechgan jarayonlarni memuar tarzida turlicha nom bilan kitob tarzida nashr qildirishdi.

Ularning asarlarida Xorazmning sovet davridagi manzarasi, xorazmliklarning turlicha sharoitdagi jo‘shqin va og‘ir mehnatlari, turli sohalardagi fidokorona, tabiiyki qiyinchiliklarga to‘la va matonat bilan yengib o‘tilgan davr ifodalangan.

Bu asarlar garchi bir insonning boshidan kechirgan tafsilotlardek tuyulsada, ularda sovet davridagi inson taqdiri, jamiyat va shaxs faoliyati shu asrdagi davlat siyosati bilan bog‘langan holda yoritilgan.

Aynan sovxoz, ya’ni davlat xo‘jaliklari deya nomlangan qishloq aholisining faoliyat kechirgan sohalari ham memuarlarda aks qildirilgan.

Masalan, Madiyor Xudoyberganov memuarining 90, 91 sahifalarida paxtachilik bilan birga hududda sholichilikga ixtisoslashgan davlat xo‘jaliklari tashkil qilish, uning ahamiyati, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, buning uchun davlat xo‘jaliklariga pul ajratish, umuman shu soha rivoji bilan bog‘liq tafsilotlarga to‘xtalib o‘tgan (3).

Mutaxassisligiga ko‘ra Marks Jumaniyozov (1938-2012)tajribali muhandis, mehnat faoliyati davomida “Qishloqxo‘jalik texnikasi” tashkilotining tuman, viloyat boshqarmalarida, viloyat ijroqo‘mi, Xonqa va Urganch tumanlari rahbari, istiqlol davrida esa Xorazm viloyati hokimi, respublika qishloq xo‘jaligi vaziri, respublika O‘simliklar karantini inspeksiyasi direktori singari asosan texnika, qishloq xo‘jaligi, tuman, viloyat va respublika darajasida rahbarlik vazifalarida ishlab katta hayotiy va kasbiy tajriba to‘plagan davlat va jamoat arbobi sifatida tarixda qolgan.

Ana shu bosib o‘tilgan qiyinchliklar, xalq hayotiga yaqinlik va doimo xalq ichida bo‘lish , shu bois har bir jamoada mehnatkashlar ishonchini qozonish tufayli Marks Jumaniyozov lavozim jihatdan garchi qiyinchiliklarga duch kelsada, matonat bilan sharafli yo‘lni bosib o‘tadi. Ana shu umr yo‘li haqida esa “Esimda qolgan onlar” nomli memuar yaratdi va bu asar o‘zbekistonlik kitobxonlar orasidagi noyob asarga aylandi.

Ana shu asarda bevosita qishloq xo‘jaligidagi muhim hayot jarayoni-sovxozlardagi mehnat kashlar faoliyati ham yoritib o‘tilgan va unda rahbariyat va ishchilarning turmushi, sovxozlarning jamiyat va agrar sohada tutgan o‘rni yoritib berilgan.

Ma’lumki, kolxoz(jamoa xo‘jaligi)da boshqaruv rahbari rais, sovxoz (davlat xo‘jaligi) da direktor deya nomlangan va tuzilma sifatida ma’muriy jihatdan ham farqli jihatlar bo‘lgan. Sovxozda ishchi, kolxozda jamoa xo‘jaligi a’zosi(kolxozchi) deya nomlash ham shu davrga xos atama bo‘lgan.

Marks Jumaniyozov memuarining 52, 53, 123, 124, 125,132,141, 167186-sahifalarida aynan sovxoz-davlat xo‘jaliklariga oid tafsilotlar yoritib berilgan.

...”viloyatda suv xo‘jaligi ishlarini bajaradigan 2 ta tashkilot: “Xorazmvodstroy” va “Xorazmsovxozvodstroy” trestlari bor edi. “Xorazmvodstroy” 1969 yilda tuzilib, Suv xo‘jaligi vazirligiga qarardi. Uning rahbari Xiva rayonida mirob vazifasini bajargan Akop Grigoryevich Avanesov

edi. U kishi suv xo‘jaligini yaxshi bilardi. Biz sovxozlarning suv xo‘jaligi qurilishi va yangi yerlar ochish bilan shug‘ullanamiz. Sovxozlarga qurilish-montaj ishlari va yangi yerlarni ochishga oz miqdordar mablag‘ ajratiladi “ (4).

...”Trestimiz joylarda o‘z tashkilotlarini barpo etishni davom qildirdi. Qizil Jar massivida, Orol dengizining Xorazm viloyatiga qarashli yaylovda “Qiziljar” sovxozining yonida yana bir xo‘jalik-“Do‘stlik” sovxozi tuzildi. Bularni kompleks qurishga ruxsat oldik va “Qiziljar” ko‘chma kollonasini tashkil qildik. Urganch shahrida barcha tashkilotlarga xizmat qiladigan maxsus Urganch ko‘chma kollonasini tuzdik “ (5).

“...Trestda 1975 yil 5 yanvargacha boshqaruvchi bo‘lib 4 yildan ko‘proq vaqt ishladim. Shu davr ichida To‘rong‘isoqa, Paxta-arna, Hazoraspda Chap qirg‘oq, Gurlanda Chap qirg‘oq kabi yirik kanallar, ko‘plab turar joylar qurdik. Qiziljar massivida ko‘chma kolonna tashkil qilib, “Qiziljar”, “Do‘stlik” sovxozlarini kompleks qurishga asos soldik.

Hazoraspda Gagarin va Lenin nomli, Bog‘otda “Bog‘ot”, Xonqada Al-Xorazmiy nomli, Yangiariqda baliq xo‘jaligi va “Yangiariq” , Shovotda “Shovot”, Gurlanda “Guliston” va “Yangiobod”, Yangibozorda “Amudaryo”, “Begovot” sovxozlari qurilishini tashkil qildik. Xiva Qo‘shko‘pir tumanlarida ham ko‘pgina ishlarni qildik. “Qoraqum”, “qo‘shko‘pir” sovxozlari qurilishida qatnashdik. Viloyatning iqtisodini ko‘tarishda bu ishlarimiz yaxshi samara berdi, desak yanglishmaymiz” (6).

“Al-Xorazmiy nomli sholichilik sovxoziga Nikolay Vasilyevich Kim rahbarlik qilardi. Bir vaqtlari u bizni ishga qabul qilgan, sizlar katta odam bo‘lasizlar, deb bizga, ya’ni 1959 yilda institutni bitkazib kelgan mexaniklarga oq fotiha bergan edi. Nikolay Vasilyevich 1937 yildan rahbar bo‘lib ishlagan, viloyatda katta obro‘ qozongan kishi edi. Viloyat qishloq xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i bo‘lib turganida 1961 yilda nafaqaga chiqqan.

...1963 yilda Al-Xorazmiy nomli sovxoz tashkil bo‘lganida uni shu sovxozga direktor qilib yuborganlar. Sovxoz to‘qayzorlar va Amudaryo tashlab ketgan yerda tashkil etilgan va na bir nomiga bo‘lsa ham uy bor. Faqat to‘qay. Nikolay Vasilyevich rahbarligida 13 yil davomida qancha yerlar o‘zlashtirildi, posyolkalar tashkil qilindi, maktab, bolalar bog‘chalari ishga tushirildi. Viloyatda sholi yetishtirish keskin ko‘paydi. Pirovardida u kishi Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston Oliy Sovetining deputati etib saylandi. Bu ikki mashhur kishi xo‘jalikning biri 10000 tonnadan ko‘proq paxta, ikkinchisi 20000 tonnadan ziyodroq sholi yetishtirardi “ (7).

Marks Jumaniyozovning memuarida Xorazm viloyatidagi o‘zi rahbar bo‘lib ishlagan davr, jamoa va davlat xo‘jaliklaridagi hayot tarzi, ma’muriy-boshqaruv tizimi, yuqoridagi singari sovxozlarning tashkil qilinishi, ularning moddiy texnika bazasi, ishlab chiqarish darajasi, agrar soha taraqqiyoti va xalq farovonligiga qo‘shgan hissasi, rahbarlar faoliyati jamiyatdagi jarayonlar bilan umumlashtirilgan, qiyosiy taqqoslangan holda yoritib berilgan.

Tabiiyki, Marks Jumaniyozov sovxozlar mavzusini atayin tahlil qilmaydi. Shu bois olingan hosil sentneri, viloyatdagi jamoa va davlat xo‘jaliklari orasidagi bu boradagi farq va boshqa tafsilotlarga atayin to‘xtalib o‘tmagan. Ammo o‘zi yashagan, shu davrda faoliyat ko‘rsatgan idora tashkilotlari, rahbarlik qilgan Xonqa, Urganch tumanlaridagi jarayonlarni yozish asnosida bevosita shu davrlarda sovxozlarning ham o‘rni katta bo‘lganligiga ahamiyat berib o‘tadi.

Umuman olganda, ushbu memuar nafaqat Marks Jumaniyozovdek viloyat va respublika miqyosida ishlagan taniqli davlat va jamoat arbobining hayoti va faoliyati, balki xotiralarda 20 asr Xorazm tarixiga oid jarayonlar qamrab olingan. Shu bois ushbu memuarni matbuotdagi maqolalar, arxiv manbalari, statistika ma’lumotlari, boshqa rahbarlarning xotiralari, ilmiy va publitsistik adabiyotlarga taqqoslagan holda tarixni yoritish, xolisona tahlil qilishda o‘rni katta. Ya’ni, Marks Jumaniyozov memuarisiz 20 asr tarixini to‘la yoritish qiyin. Shu jumladan sovxoz-davlat xo‘jaliklaridagi jarayonlarni tahlil qilish, boshqa manbalarga taqqoslashda ham ushbu asarning ilmiy aamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madiyor Xudoyberganov “Sinovlarda kechgan umr”, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1997 yil.

2. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” , “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 yil.

3. Madiyor Xudoyberganov “Sinovlarda kechgan umr”, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1997 yil, 90, 91-betlar.

4. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” , “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 yil, 123-bet.

5. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” , “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 yil, 125-bet.

6. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” , “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 yil, 141-bet.

7. Marks Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” , “Musiqa” nashriyoti, Toshkent-2018 yil, 141-bet.

XORAZM VA BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI, FAOLIYATI, MUSHTARAK MAQSADLARI HAMDA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Umid BEKMUHAMMAD,
Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

ANNOTATSIYA*: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi turkiy musulmon xalqlari hayotida fenomenal hodisa bo‘lgan jadidchilik harakatiga Ismoil Gasprali tomonidan asos solinishi va uning Buxoro, Xorazmga ta’siri tahlil etiladi. Buxoro va Xorazmdagi jadidlar harakatining o‘xshash jihatlari, farqli tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.*

Ismoil Gaspralining Buxoro, Samarqand, Toshkentga qilgan safarlari, Turkistondagi hukmdorlar tabaqa vakillari va milliy ziyolilar bilan jadid maktablari ochish bo‘yicha muzokaralari o‘sha davrga oid manbalar asosida yoritib beriladi. Qrimda nashr etilgan “Tarjimon” gazetasining Xorazm tarixini tahlil etishdagi o‘rni unda nashr etilgan maqolalar asosida tahlil qilinadi.

Buxoro va Xorazmda tashkil qilingan jadid maktablari, ularga hukmdor va xalq ommasining munosabati, yangi maktablarning ta’lim tizimidagi o‘rni yoritib beriladi. Pedagoglar va ziyolilarning jadidchilikni ta’lim tizimidan ijtimoiy siyosiy, milliy uyg‘onish harakati darajasiga chiqarishdagi ishtiroki tahlil etiladi.

АННОТАЦИЯ*: В статье исследуются процессы зарождения джадидизма - феноменального явления в общественно-политической жизни тюрко-мусульманских народов Российской империи, — инициированного Исмаилом Гаспринским, а также анализируется его влияние на Бухарский эмират и Хорезм (Хивинское ханство). В центре внимания автора находится компаративный анализ джадидских движений в Бухаре и Хорезме, направленный на*

выявление их общих черт, локальных различий и исторической специфики.

На основе первоисточников эпохи подробно освещаются визиты И. Гаспринского в Бухару, Самарканд и Ташкент, а также его переговоры с представителями правящих элит и национальной интеллигенции Туркестана по вопросам организации новометодных школ. Особое место в работе отведено контент-анализу публикаций крымской газеты «Тарджиман» как ценного исторического источника по изучению общественно-политической мысли Хорезма указанного периода.

Автором реконструирована история создания джадидских школ в Бухаре и Хорезме, определено отношение к ним со стороны власти и широких слоев населения, а также раскрыта роль реформированной системы образования в модернизации региона. В заключении анализируется деятельность педагогов и просветителей по трансформации джадидизма из образовательно-реформаторского течения в мощное общественно-политическое движение национального возрождения.

***ABSTRACT**: This article examines the origins of Jadidism—a phenomenal movement in the socio-political life of the Turkic-Muslim peoples of the Russian Empire, initiated by Ismail Gasprinsky—and analyzes its profound impact on the Emirate of Bukhara and Khwarazm (the Khanate of Khiva). The author focuses on a comparative analysis of the Jadid movements in Bukhara and Khwarazm, aiming to identify their shared characteristics, localized variations, and distinct historical specificities.*

Drawing on primary historical sources of the era, the study provides a detailed account of I. Gasprinsky's visits to Bukhara, Samarkand, and Tashkent, as well as his negotiations with the ruling elites and national intelligentsia of Turkestan regarding the establishment of new-method schools. Special attention is dedicated to the content analysis of publications in the Crimean newspaper Tarjiman, demonstrating its value as a significant historical source for studying the socio-political thought of Khwarazm during the specified period.

The author reconstructs the history of the establishment of Jadid schools in Bukhara and Khwarazm, evaluates the attitudes of both the ruling authorities and the general public toward them, and clarifies the role of the reformed educational system in the modernization of the region. The conclusion analyzes the endeavors of educators and enlighteners to transform Jadidism from an educational reform current into a powerful socio-political movement of national revival.

KALIT SO‘ZLAR: *Qrim, Buxoro, Xorazm, Rossiya, imperiya, xon, amir, monarxiya, musulmon, turk, qrim tatar, o‘zbek, fenomen, maktab, yangi usul, tarix, islohot, ijtimoiy hayot, siyosat, gazeta, muxbir, partiya.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Крым, Бухара, Хорезм, Российская империя, хан, эмир, монархия, мусульмане, тюрки, крымские татары, узбеки, исторический феномен, новометодная школа (усул-и джадид), история, реформа, общественная жизнь, политика, периодика, корреспондент, партия.*

KEYWORDS: *Crimea, Bukhara, Khwarazm, Russian Empire, Khan, Emir, monarchy, Muslims, Turks, Crimean Tatars, Uzbeks, historical phenomenon, new-method school (usul-i jadid), history, reform, social life, politics, periodicals, correspondent, party.*

KIRISH. Rossiya imperiyasi mustamlakasidagi musulmon xalqlarning hayotini keskin o‘zgartirgan, milliy g‘ururni qayta uyg‘otgan fenomen aynan Qrim shahridan boshlangandi. Dastlab, matbuot, so‘ngra ta’lim sohasi, keyinchalik esa ma’rifiy-ijtimoiy, siyosiy harakat sifatida jamiyatning barcha qatlamlari, sohalarini qamrab olgan va Milliy Uyg‘onishga asos solgan jadidchilik, 1880-yillarda Rossiya imperiyasi musulmonlari, xususan Kavkaz va Volga bo‘yida, Turkiston, Buxoro va Xorazmda yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakati sifatida paydo bo‘ldi.

Jadidchilik davlat boshqaruvi va tuzumni isloh qilish, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va strategik, amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan harakat sifatida tarixiy jarayonlarga ta’sir qildi. Ushbu harakat jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o‘ynagan Turkiston, Buxoro, Xorazmdek tarixiy hududda, ko‘p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni G‘arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni maqsad qilib olgandi. Jadidlar harakati Rossiya mustamlakasidagi musulmon xalqlarning dunyo xalqlari darajasida erkin, farovon yashamoqni vujudga keltirish yo‘llarini izlagan, istibdod sharoitida o‘z taqdirini o‘zi belgilash borasida kurashgan murakkab jarayonlarni bosib o‘tdi.

“Jadid”so‘zi lug‘aviy jihatdan arabcha yangi ma’nosini bildirib Qrimlik Ismoil Gaspralining 1884 yilda tashkil qilgan maktablariga nisbatan ishlatilgan va qisqa vaqt ichida ta’limdan boshlangan bu harakat Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi asoratidagi musulmon xalqlar hayoti, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan edi. Natijada har bir hududning jadid liderlari yetishib

chiqishdi va ular Ismoil Gaspralining g‘oyalari asosida umumturkiy dunyoda, xususan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidagi xalqlarda milliy uyg‘onishni yuzaga keltirishdi.

Bu bejiz emasdi. Negaki,1883 yildan boshlab Ismoil Gasprali bosh muharrirligida nashr etilayotgan “Tarjimon” gazetasidagi shior-“Tilda, fikrda, ishda birlik” jadidlarning o‘ziga xos g‘oya, strategik maqsadi bo‘lib xizmat qildi. Bunda Qrimlik Ismoil Gasprali asos solgan “Tarjimon” gazetasi va “Usuli jadid” maktablari katta rol o‘ynadi va harakatga asos bo‘lib xizmat qildi hamda uning g‘oyalari Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligiga ham shiddat bilan kirib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Mavzuni xolis va haqqoniy etish maqsadida “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi” hamda Ismoil Gasprali, Begali Qosimov, Zaynobiddin Abdurashidov, Dilnoza Jamolova, Ne’matjon Polvonov, Otamurod Qo‘shjonov, Sayyora Samandarlarning monografiyalari va Qrimda nashr etilgan “Tarjimon” gazetasidagi maqolalari qiyosiy tahlil etildi. Shuningdek, o‘sha davrdagi tarixiy voqeliklarni dunyoda kechgan jarayonlar, xususan Qrim, Usmonli saltanatidagi vaziyat bilan taqqoslandi. Shulardan kelib chiqgan holda Buxoro va Xorazmdagi jadidchilik harakati, uning farqli va o‘xshash jihatlari, o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

MUHOKAMA. Tabiiyki har qanday yangilik, taraqqiyparvarlik g‘oyalari hali nazariya paytidan boshlab har bir davrda to‘sqinliklarga uchraganiga tarixda misollar ko‘p. Aynan shu singari jadidchilik harakati ham, paydo bo‘lganidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi davridan nafaqat Turkiston, Buxoroda, balki Qrimning o‘zida, Ismoil Gaspraliga nisbatan ham konservativ kuchlar, mustamlakachilar tomonidan turli to‘siqlar qo‘yilgan holda, qarshiliklar qilingan.

Shu bilan birga o‘sha davrning o‘zida va shundan boshlab hozirgi paytgacha jadidchilikga bo‘lgan munosabat jamiyat va ilmu fanda turlicha bo‘lib kelgan. Ya’ni jadidshunoslikning o‘zi ham, ayni harakatning o‘zi bilan tengdoshdir.

Aynan jadidchilik mavzusi va jadidlar faoliyatini, xususan Xorazm jadidchilik harakati, uning Turkiston, Buxorodagidan farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshash tomonlarini tadqiq etishda, shu davrga nur kiritishga intilgan, zulmatli zamonda yorqin kelajak umidlarini uyg‘otgan, turkiy millat lideri darajasiga yetgan siymo hayoti va faoliyatiga to‘xtalib o‘tish joiz.

“Jadidchilik harakati, fenomenining asoschisi Ismoilning bobosi Ali Qrimdagi Gaspra qishlog‘ining nufuzli shaxslaridan bo‘lgan. Shu bois ham o‘g‘li Mustafobey Kavkaz va Qrimning general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkovning tarjimoni bo‘lib ishlagan va 1853 yilda poruchik unvoni bilan taqdirlanib, dvoryanlik martabasiga ko‘tarilgan. Mustafobey ikki marta uylanadi. Birinchi turmush o‘rtog‘i 1849 yilda vafot etadi va shu yili Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fotima xonimga uylanadi. Mustafobeyning ushbu turmush o‘rtog‘idan ikki o‘g‘il va to‘rt qiz tug‘ilgan.

Ismoil 1851 yilning 21 martida ana shu oiladagi ikkinchi o‘g‘il bo‘lib tug‘iladi. Dastlab Boqchasaroylik Hoji Ismoilning an’anaviy maktabi, so‘ngra Simferepoldagi gimnaziya, undan keyin Voronej shahridagi harbiy o‘quv yurtida va 13 yoshidan Moskvadagi Milyutin gimnaziyasida tahsil oladi. 1868 yilda Ismoil Bog‘chasaroyga qaytib “Zanjirli ”madrasasida rus tili fani o‘qituvchisi bo‘lib pedagoglik faoliyatini boshlaydi.

1872 yilda Fransiyaga boradi va Parijdan tashqari Vena, Myunxen, Shtutgard shaharlarida ham safarda bo‘ladi. Fransiyada yashayotgan buyuk rus yozuvchisi I.S.Turgenevning kotibi bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, Sorbonna universitetida tahsil oladi.1876 yilda Bog‘chasaroyga qaytib “Zanjirli” madrasasidagi faoliyatini davom etdiradi.

Aynan Yevropa safari Ismoil Gaspralining dunyoqarashiga katta ta’sir qiladi va an’anaviy tahsilning zamonaviy taraqqiyotdan orqada qolganini anglab, ta’lim sohasidagi yangi usul maktabi ochishni rejalashtiradi. Biroq har qanday yangilik singari Ismoil Gaspralining ta’lim sohasida boshlamoqchi bo‘lgan bu say’i harakati to‘siqlarga uchraydi.

Shunday bo‘lsada ajdodlarining nufuzi, qolaversa o‘zining Yevropada tahsil olgani bois, 1878-1884 yillarda Bog‘chasaroy shahri boshlig‘i vazifasida faoliyat ko‘rsatadi. Bog‘chasaroy hokimi Ismoil Gasprali 1882 yilda Qozon tatarlaridan Aqchurinning qizi Zuhroxonim bilan oila quradi va Rifat,Shafiqa,Bahiya,Doniyol,Nigor, Mansur, Haydar ismli farzandlarni tarbiyalashadi. Laylo ismli qizi kichikligida vafot etadi.

Hokimlikdan iste’foga chiqqach, Ismoil Gasprali o‘zining keyingi faoliyatini matbuot va pedagoglikka bag‘ishlaydi. 1883 yildan “Tarjimon” gazetasini nashr etishni yo‘lga qo‘yib, o‘ziga xos erkin fikr minbarini yaratdi va dunyodagi jarayonlar, Rossiya imperiyasi, bu hududlarda yashovchi turkiy musulmon xalqlar hayoti, ularni taraqqiyotga yetkazish bilan bog‘liq takliflarni

ko‘tarib chiqdi, muammolarga yechim izladi. Aynan “Tarjimon” gazetasi o‘z davridagi jadidlar minbari, musulmon xalqlarning tayanchi, huquqlari kafolati va erkin ovozi darajasiga yetdi.

Bora-bora faqat Qrimda emas, turkiy va tojik musulmon xalqlari yashaydigan har bir hududning ham jadid nashrlari paydo bo‘la boshladi. Shu tarzda, ta’lim sohasidan boshlangan hamda ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat sifatida jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan va Milliy Uyg‘onishga asos solgan jadidchilik 1880 yillarda Rossiya musulmonlari, xususan Kavkaz va Volga bo‘yida, Turkiston, Buxoro va Xorazmda yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakati sifatida paydo bo‘ldi. Bunda Qrimlik Ismoil Gasprali asos solgan “Tarjimon” gazetasi va “Usuli jadid” maktablari katta rol o‘ynadi va harakatga asos bo‘lib xizmat qildi hamda uning g‘oyalari Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligiga ham shiddat bilan kirib keldi” (1).

Ma’lumki, 1873 yil maydagi Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng Amudaryoning o‘ng tarafi Turkiston general gubernatorligi ixtiyoriga o‘tgan va ushbu hududda Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo‘limi tashkil etilgandi. Bo‘limning poytaxti sifatida To‘rtko‘l hududi tanlanib Petro-Aleksandrovsk shahri barpo etilgandi. Aynan yevropacha uslubdagi ushbu shaharda tez orada Rossiya garnizoni, rus-tuzem maktabi, cherkov, ishlab chiqarish korxonalari va pochta-telegraf aloqa xizmati ham ishga tushirilgandi. Sankt-Peterburg, Moskva va boshqa shaharlardagi gazeta-jurnallar bilan birga Qrimda nashr etiladigan “Tarjimon” gazetasi ham Xorazmga ushbu shahar orqali tarqalardi. E’tiborli jihati Xiva xoni Muhammad Rahimxon 11, valiahd Islomxo‘ja va boshqa saroy amaldorlari boshqa nashrlar qatorida “Tarjimon”ga obuna bo‘lishgan va Ismoil Gaspralining g‘oyalari o‘lkaga gazeta orqali tarqalgandi. Ya’ni, Xorazmda 1898 yilda birinchi jadid maktabiga asos solingan, ushbu ta’lim maskanini ochish fikrini uyg‘otgan, umuman jadidchilik g‘oyalarini o‘lkaga yoygan ham “Tarjimon” gazetasi bo‘lgandi.

Dunyoviy fanlar o‘qitiladigan ushbu maktablar tez orada eski deb ataladigan an’anaviy va rus tuzem maktablariga raqobatchi sifatida ta’lim maskaniga aylanadi. Aynan Ismoil Gasprali tomonidan “Xojai sibyon” (1888y)-“Bolalar muallimi” kabi darsliklar yaratiladi. Darslikning har bir sabog‘idan keyin savollar berilgan bo‘lib, muallif fikricha ular o‘quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun buyuk vosita edi. Muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga e’tibor qaratadi va har bir

harfni alohida “sadosi bilan” muntazam va izchil o‘rganishni ta’kidlaydi.Ushbu usul shunga ko‘ra “usuli savtiya” (tovush usuli) deb ham ataldi.

Shu tariqa, o‘qitiladigan darsning mazmunidan uni o‘qitish usuli va baholash jarayonigacha, o‘quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu qishki va yozgi ta’tiligacha, maktabning joylashish o‘rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu, yorug‘lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko‘rib chiqilib, maktab ta’limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Ismoil Gaspralining ta’lim sohasidagi bu yangi dasturi “usuli jadid” nomi bilan dovruq qozondi.

“Ismoil Gasprali jurnalistika va pedagogikadan tashqari, “Solnomai turkiy”, “Mir’oti jadid” nomli ikkita risola, “Rossiya musulmonligi”, “Turkiston ulamosi” asarlarini ham yaratdi. Bu borada yana Ismoil Gasprali faqat pedagoggina emas, o‘tkir publitsist, jamoat arbobi va siyosatchi sifatida e’tirof etilishida “Tarjimon” gazetasi, unda berib borilgan millatning dardu hasratlari, istiqbollari to‘g‘risidagi maqolalari, shuningdek yuqoridagi singari asarlari katta rol o‘ynadi.

Ana shunday serqirra faoliyati bois, Ismoil Gasprali nafaqat Rossiya imperiyasida, shuningdek Usmoniylar saltanatida, umuman olganda turkiy dunyo va Yevropada ham nufuzi katta shaxsga aylandi.

Tabiiyki, u nufuzini, ta’sir kuchini o‘zining jadidchilik g‘oyalarini keng tarqalishiga safarbar qildi. Ana shu ezgu maqsad, istiqbolli g‘oya yo‘lida u 1893 yilda Shirvonlik shogirdlaridan Majid G‘anizoda bilan Turkistonga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent shaharlarida safarda bo‘ldi va jadid maktablari tashkil etish borasidagi faoliyatini davom etdirdi hamda maslakdoshlari bilan tanishdi.

Gaspralining Turkistonga sayohati “Tarjimon” gazetasining 1893 yilgi 29-38 va boshqa bir qismi 40-43-sonlarida chop etilgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tohir Qahhor tadqiq qilganidek,” Gaspralining barcha o‘lkalarga safar qilishidan ikkita maqsadi bo‘lgan:birinchisi-yangi usuldagi maktablar ochishni tashkil etish, ikkinchisi-“Tarjimon” gazetasining tarqalishi bilan bog‘liq masaladir.Turkistonga ham ayni ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun kelgandi. Asarlaridan va u haqdagi esdaliklardan ma’lum bo‘lishicha, Ismoilbek sharqu g‘arbning ko‘plab davlat arboblari, yuksak doiralari bilan yaxshi munosabat o‘rnata olgan shaxs edi” (2).

Ismoil Gaspralining Turkistonga ikkinchi safari 1908 yilda bo‘lib o‘tadi. Safar tafsilotlari “Buxoroda na ko‘rdim?” sarlavhasi ostida “Tarjimon”ning o‘sha yil sonlarida (47,50,57, 59,64,78) chop etilgandi. Ismoil Gasprali Kaspiy dengizidan “General Skobelev” kemasida kelib, Krasnovodskdan poyezdga o‘tar ekan, Rossiya bosqini paytidagi Ko‘ktepa urushini eslaydi. Qal’a aholisining “butun Osiyoga shuhrat va ibrat deya bola-chaqasi barobar qilichdan kechurulub, ot oyog‘ida toptalgani”ni alam va iztirob bilan yodga oladi.

Ismoil Gaspralini Yangi Buxoro(Kogon) standiyasida amir amaldorlari va Rossiya siyosiy agentligi tarjimoni Mirhaydarbek kutib olishadi. Amir uni Karmanaga taklif etadi. Ziyofat asnosida valiahd Sayyid Olimxon bilan uchrashadi. Valiahdning Rossiya matbuotini muntazam o‘qib borishini, dunyo voqealaridan xabardorligidan voqif bo‘ladi. So‘ngra Samarqandga borib, shahardagi “usuli jadid” maktablari bilan tanishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy singari maslakdoshlari bilan maqsadu vazifalari, ta’limoti to‘g‘risida uzoq suhbatlar quradi. Mavzudagi asosiy mohiyat tarix va kelajak, muqaddas obidalar va ularning taqdiri, Rossiya istilochilik siyosati va ana shu sharoitda o‘zlikni saqlab qolish haqida edi. Samarqanddan qaytishda yana Buxoroga keladi va Qushbegi Ostonaqulbek bilan faoliyati to‘xtab qolgan jadid maktabini yuritish bo‘yicha muzokara olib boradi. Asosiy to‘sqinlik qozikalon tomonidan ekanligini anglab, huzuriga boradi va uning maktabni tiklash haqidagi va’dasini oladi. Safar davomida Buxorodagi no‘g‘oylar diasporasi Ismoilbek Gaspralini mehmonga chaqirib, “Jamiyati xayriya” tashkilotiga faxriy a’zo qilishadi. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga “Ismoiliya” deya atamoqchi ekanliklarini aytishadi. Biroq Ismoilbek bunga unamaydi va boshqa taklif-Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga “Muzaffariya” deya nomlashni maslahat beradi.

Ismoil Gaspralining 1893, 1908 yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkentga tashrifi davomida Xorazmga kela olmaganligiga, masofaning uzoqligi, temir yo‘l o‘rnatilmaganligi sabab edi. Biroq Gasprali “Tarjimon” gazetasi orqali Xorazmga oid har bir voqelik, jarayonni Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniy singari jadid maktablari pedagoglari orqali yoritib borgan. Bosh vazir Islomxo‘ja bilan maktublar orqali muloqot qilib, jadid maktablari, pedagoglar, darsliklar, ta’lim jamiyatlari borasida maslahatlashib turishgan.

Ismoil Gasprali faqat pedagog,publitsist, noshir va jamoat arbobigina emas, taniqli adib sifatida ko‘plab badiiy asarlar ham yaratgandi. Uning “Farangiston maktublari” (1887), “Dorur-rohat musulmonlari” (1889), “Sudan

maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1890), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897), “Mukolamayi salotin” kabi ko‘plab nasriy asarlari yaratilgan. Asarlaridan ba’zilari o‘zbek tiliga tarjima ham qilingan.

Ismoil Gasprali jadidchilik harakatining dunyoda e’tirof etilgan lideri edi. Ana shu boisdan Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihatlari bilan shu nom, uning “Tarjimon” gazetasi, hamda jadid maktablari bilan bog‘liqdir. Natijada ushbu davrdan e’tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror Turkiston, Buxoro, Xorazmlik ijtimoiy faol ziyoli yo‘qki, ushbu nom, u bilan bog‘liq harakatni chetlab o‘tgan emasdi. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchilik harakati va jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Professor Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish“asarida ta’kidlaganidek, “Ismoil Gasprali ismi sharifi 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi.Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar.U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 1908 yildagi 25 yillik qutlug‘ sanasida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910 yilda esa Fransiyaning eng e’tiborli jurnallaridan “Revyu dyu monde musulman” uning millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti”ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko‘p matbuot nashrlari qo‘llab-quvvatlab chiqqan edi.

U vafot etgan 1914 yilning 11 sentabrida mashhur Narimon Narimonov yozadi: “Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajaqdir”. Negaki u tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi. Uning eng katta xizmati Rossiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoq tushgan (to‘g‘rirog‘i, uzoqlashtirilgan) va begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi. Behbudiy so‘zlari bilan aytganda, “Rossiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘ldi”. Bu dard o‘sha davr chor Rossiyasi asoratida o‘z erku huquqigina emas, asriy urf-udum, ma’naviy qadriyatlaridan tortib, til va din-e’tiqodigacha unutishga mahkum qilingan turkiy xalqlarning eng katta dardi, so‘ngsiz armoni edi.

Ismoil Gasprali Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga- jadidchilikka asos soldi.

Gasprali barcha turkiy xalqlarni yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularni ham ilm-ma’rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko‘rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga- millatning ravnaqi va muhofazasi yo‘liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirini teran anglagan, Sharqni ham, G‘arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko‘rgan bir kishining aniq va rejali hatti-harakati edi” (3).

Natijada Ismoil Gaspralining maktab sohasidan boshlangan jadidchilik harakati jamiyatning barcha sohalari, qatlamlarini qamrab oldi va turkiy musulmon xalqlarning mafkurasiga, fenomenal hodisasiga aylandi ham Gasprali nomi islohotchi sifatida tarixda qoldi.Bu borada “Tarjimon” gazetasi ham katta rol o‘ynadi va tarixiy jarayonlarni o‘z sahifalariga muhrladi va erkin fikr minbari darajasidagi matbuot nashriga aylandi.

Professor Begali Qosimov ko‘p yillik tadqiqotlariga asoslanib, haqqoniy ravishda xulosa qilganidek, “jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po‘panak bosib, biljirab ketgan o‘rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldirak bo‘lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo‘lib, ona Turkiston ko‘ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasiga ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar” (4).

Begali Qosimov ta’kidlagan, mudroq g‘ururni uyg‘otishdek ushbu jarayonlar Turkiston, Buxoro hududlari singari Xorazmni ham qamrab oldi va bu shiddatli harakat turkiy dunyo bilan yaxlit, uzviy bog‘liqlikda kechdi. Tabiiyki, Qrimdan boshlangan Ismoil Gaspralining jadid maktabi, “Tarjimon”

gazetasi va umuman ushbu harakatning jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri Xorazmga ham tegishli ediki, bu moziyning eng yorqin, shu bilan birga alamli sahifalaridan biridir.

Negaki, jamiyat hayotidagi, xalq turmushiga kirib kelgan to‘lqindek shiddatli ushbu harakat g‘oyatda qiyinchiliklar, to‘siqlar, to‘sqinliklar bilan kechdi..

O‘rta Osiyodagi -Qo‘qon, Buxorodan so‘nggi uchinchi davlat, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga uchragan hudud Xiva xonligi edi. Shu tarzda 1873 yil may oyida Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Xiva xonligini zabt qilgandi. Afsuski, Xiva xonligi ham hududdagi Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi singari texnologik va harbiy-taktik jihatdan dunyo taraqqiyotidan orqada qolgani tufayli mag‘lubiyatga uchragandi.

Turkiston general-gubernatori, general-a’dyutant fon Kaufman Xiva xonining qarindoshlari (masalan taxtga da’vogar Otajon to‘ra) bilan emas, legitim hukmdor Muhammad Rahimxon 11 bilan 1873 yilning 12 avgustida Gandimiyon qishlog‘ida shartnoma tuzdi.

Ma’lumki, Qo‘qon xonligi tugatilishiga sabab Rossiya istilo qilib olganidan so‘ng ham taslim bo‘lmay, saroy amaldori Abdurahmon oftobachi va boshqalarning kurashni to‘xtatishmagani, xalq qo‘zg‘olonlarining davom qilganligida edi. Qolaversa Qo‘qon xonligi Xitoy bilan chegaradosh strategik hudud bo‘lgani uchun ham Rossiya qo‘zg‘olonlarni bostirib davlatni tugatib yuborgandi. Agar harbiy layoqat, real vaziyatga qaramay Xiva xonligi qo‘shini ham kurashni davom etdiraversa ushbu xonlik ham tugatilib yuborilishi mumkin edi. Geografik jihatdan har tomonlama qumlar oralig‘idagi, ichkarida joylashgan Xiva xonligi ham strategik jihatdan Kaspiy dengizi va Eron hududlariga tutashib ketgan hududlar edi.

Shu tarzda 1873 yil 12 avgustdagi Gandimiyon shartnomasi tufayli Xiva xonligi mustaqilligini yo‘qotdi. O‘sha davrda shartnoma og‘ir bo‘lib, iqtisodiy kontributsiya to‘lash majburiyati xonlik uchun qiyin edi. Gandimiyon shartnomasi tarixning alamli, fojiali sahifasi sifatida tarixda qoldi.

Tabiiyki, Gandimiyon shartnomasi tarixiy sharoit, vaziyat taqozosi edi. Bu unikal davlatchilik rivojlanishiga chek qo‘ydi deb aytish mumkin. O‘rta Osiyo hududlari masalasida ko‘p yillar davom etgan Rossiya-Angliya raqobati tufayli birinchi harakat qilgan Rossiya imperiyasi zabt etishning uddasidan chiqdi.Qolaversa bu davrga kelib dunyodagi siyosiy-harbiy jarayonlar,

ziddiyatlar kuchaygan va siyosiy qo‘zg‘olish Angliyadagi sanoat inqilobi bilan bog‘liq edi. Ya’ni, bu sanoat inqilobi shunday o‘zgarishga sabab bo‘ldiki, Angliyaning juda ham katta harbiy qudrati paydo bo‘ldi. U nafaqat yer yuzi, quruqlikdagi, balki dengiz, suv yo‘llari orqali yurishni boshladi. Aynan mana shu siyosiy qo‘zg‘olish tabiiy ravishda imperiyalar ichida deyarli eng zaifi bo‘lgan Rossiyaning ham o‘ziga tutash hududlarni bosib olishiga sabab bo‘ldi.

....Yangi jahon siyosiy tartiblari o‘rnatilayotgan ana shunday vaziyatda O‘rta Osiyodagi uchala xonlik autsayder edi va butun dunyodan izolyatsiya holatida bo‘lib, nafaqat geografik izolyatsiya, balki bu fikriy izolyatsiya edi. Ya’ni, xonliklardagi davlat va din tandemi, radikalizm, kirib kelayotgan boshqa madaniyatlarga xos yangi fikrlarga mutloq qarshi turdi. Hatto xonlar ichidagi eng ma’rifatlilaridan bo‘lgan Xiva xoni Feruzxon bu yangi jarayonlarni qabul qilolmay, hokimiyatni modernizatsiya qilolmadi. O‘sha vaqtda qurilgan obidalar ham bu elitaning yashashi uchun edi. Agar bu kuchni, qurilish bilan bog‘liq chiqimlarni mudofaaga, ishlab chiqarishga yo‘naltiradigan bo‘lsa, biroz boshqacha natija bo‘lishi mumkin edi. Ya’ni, elita dunyoda nima kechayotganligini anglay olmadi va shu bilan birga o‘zidagi mablag‘ni komfort uchun sarfladi. Harbiy sanoat, yoki harbiy byurokratiya, boshqaruv tizimini o‘zgartirganida hokimiyat tez qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lardi. Oldingi effektiv bo‘lmagan boshqaruv saqlanib qolgan, harbiy va hokimiyat islohi qilinmagandi.

Ismoil Gaspralining Qrimdan boshlangan jadidchilik g‘oyalari aynan ana shunday vaziyatda, ya’ni Xiva xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan sharoitda kirib keldi. Tabiiyki, Feruzxon ijodkor-shoir va bastakor, ma’rifatparvar inson bo‘lganidan Ismoil Gasprali g‘oyalarining maqsadu mohiyatini anglab yetdi va xayrihohlik qildi. 1898 yildan Xorazmda jadid maktablarini tashkil etish, ularga zarur shart-sharoit yaratib berish, o‘qituvchilarni Qozon, Qrim, Orenburg, Toshkent, Namangandan taklif etish tashabbuskori bo‘ldi.

Shu tariqa, barcha turkiy musulmon o‘lkalarda bo‘lgani singari jadidchilik harakati Xiva xonligida dastlabki davrda-ya’ni 19 asr oxirlarida ta’lim sohasidan boshlandi. Faqatgina 1914-1916 yillardangina jadidchilik Xorazmda ijtimoiy-siyosiy jarayonga aylanib ta’sirchan siyosiy kuch darajasiga yetdi. Tabiiyki bu jarayon nafaqat O‘rta Osiyo, balki dunyo davlatlaridagi vaziyat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq edi.

E’tiborli jihati shundaki, Xorazmda jadid maktablarini tashkil etish, ushbu maktablarga Qozon, Orenburg, Toshkent shaharlaridan o‘qituvchilarni taklif qilish, hattoki “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lish singari ezgu ishlarga bevosita Feruzxon (1844-1910), Asfandiyorxon (1872-1918)lar xayrihohlik bilan qarashgan.

Qo‘shni Buxoro amirligidagi vaziyat,xususan hukmdor va amaldorlarining jadidlarga bo‘lgan munosabatini taqqoslaydigan bo‘lsak, Xorazm bilan o‘xshash va farqli jihatlarga e’tibor qaratish zarur.

Buxoro va Xorazm qadimdan hudud jihatdan qo‘shni, qolaversa har ikkala o‘lka davlatchilikda muhim o‘rin tutgan vatanimizdagi diyorlardan bo‘lgan. Har ikkala hududdagi sulolalarning davlatchilikda tutgan o‘rni katta bo‘lib, afsuski temuriy shahzodalar davridagi inqiroz tufayli hokimiyatga shayboniylar kelganidan so‘ng mintaqada Buxoro, Xiva va keyinchalik Qo‘qon xonliklari tashkil etiladi.

Biroq, ana shu uchta monarxiya o‘rtasidagi nizolar, xalqni zulm ostida ushlab turish dunyo taraqqiyotidan orqada qolishiga sabab bo‘ldi. Bu davrlarda gegemon imperiyalar kuchayib, O‘rta Osiyo hududlari masalasida ko‘p yillar davom etgan Rossiya-Angliya raqobati yuzaga keldi. Tabiiyki, raqobatda sharqqa, xususan O‘rta Osiyoga tobora yaqinlashgan Rossiya imperiyasi o‘lkani zabt etishning uddasidan chiqdi.

Natijada 1853 yili Qo‘qon xonligi, 1868 yilda Buxoro amirligi va 1873 yili Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinadi.

Ismoil Gasprali (1851-1914) ning Qrimdan boshlangan jadidchilik g‘oyalari aynan ana shunday vaziyatda, “Tarjimon” gazetasining 1883 yildan, yangi usul maktabining 1884 yildan tashkil etilishi bilan boshlandi.

Ma’lumki, Amir Muzaffar (1860-1885 yillar hukmdorlik qilgan)ning “to‘rtinchi o‘g‘li Abdulahad taxtga bo‘lajak vorisligini tasdiqlatish uchun Peterburgga borgan 1883 yilda Ismoil Gasprali bilan uchrashgan va “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lgandi” (5).

Bu ayni “Tarjimon” gazetasining nashr etilgan va hali Gasprali tomonidan “jadid” maktablari tashkil etilmagan davr edi.

Oradan ikki yil o‘tib-Amir Muzaffarning o‘limidan so‘ng Abdulahadxon hokimiyatga keladi va davlatda islohotlar o‘tkazishni boshlaydi.

“1893 yilning fevral oyida Amir Abdulahadxon Sevastopol shahrida Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashib, uni Buxoroga taklif qilgan. Amirning

taklifini mamnuniyat bilan qabul qilgan Ismoilbek Gasprinskiy “Safarnomai oliya”ni kitob holida nashr qilishga va Buxoro aholisi uchun “Muallimi lisoni rusiy” nomida bir darslik yozishga va’da bergan”(6).

Aynan amir taklifi, qolaversa Ismoil Gaspralining Turkiston hududlariga bo‘lgan mehri, hurmati bois u 1893 yil may oyida Buxoro amirligiga tashrif buyuradi va Abdulahadxonning islohotlari, tabiiyki ayrim maktab, madrasalarga borib jarayon bilan tanishadi. “Oliy madrasalarda diniy ilmlar yuksak saviyada o‘qitiladir.. O‘tmish davrlarda e’tibor qozongan astronomiya, tib, handasa, kimyo va boshqa fanlar keyingi zamonlarda bu yerda unutilib yuborilgan. Umidvormizki, Tehronda, Istanbulda, Misrda, Bombeyda yangidan jonlangan bu tur ilmlar Buxoroyi sharifda ham tirilib qolar” deb yozali u safarnomasida (Ismoil G‘asprali “Turkiston sayohatlari”. 91-bet).

Safar davomida Gasprali amirlikning turli ziyoratgohlari, turli mavzelarida bo‘ladi va 12 iyun kuni Shahrisabz shahrida uchinchi marotaba Amir Abdulahadxon bilan uchrashadi.Bu vaqtda Abdulahadxon “Tarjimon” gazetasini o‘qib borar jadid maktablari tashkil etilganidan xabardor bo‘lgani bois, suhbat mavzusi yangi usul maktablarini amirlikda tashkil etilishga qaratilgandi.

Natijada “1897 yilda Badriddin qozikalonning ruxsati bilan Mulla Jo‘raboy Ne’matulloh o‘g‘li Buxoro shahrida jadid maktabi ochadi. U “Xo‘jayi sibyon” darsligini fors tiliga tarjima qilib, 13 nafar bolani o‘qitishni boshlaydi” (7).

Bu haqda xabar topgan Ismoil Gasprinskiy “ushbu maktabga 10 dona sarmashq va 1000 nusxa alifbo kitobini bosmaxonasida hadya sifatida bosib berishi haqida yozgandi “Tarjimon”da. (“Buxoroi sharif “(maktub). “Tarjimon”, 1897 yil 28 aprel, № 17.

Ya’ni, Buxoro va Xorazmda jadid maktablariga bo‘lgan munosabatda shuni taqqoslash kerakki, Amir Abdulahad Ismoil Gasprali bilan Sankt-Peterburg, Sevastopol, Shahrisabz, Buxoro shaharlarida to‘rt marotaba uchrashgan va dunyoda, Rossiya imperiyasi, Sharq o‘lkalarida kechayotgan jarayonlar bilan birga “Tarjimon” gazetasi, jadid maktablari va uning amirlikda tashkil etilishiga oid mavzularda suhbatlashilgan.

Shunga ko‘ra, 1897 yilda Buxoro, taqqoslash uchun ta’kidlash joizki Xorazmdan bir yil oldin amirlikda birinchi jadid maktabiga asos solingan. Biroq Buxorodagi jadid maktabida o‘qitish ishlari fors-tojik tilida olib borilgan va bu o‘sha davrdagi vaziyatda tabiiy edi.

Biroq ushbu maktab 1900 yildagi imtihonda yaxshi ko‘rsatgichlarga ega bo‘lsada, oradan biroz vaqt o‘tib faoliyati to‘xtab qolgan.

“1907 yilda Badriddin qozikalon ruxsati bilan Nizomiddin Sobitiy Buxoroda, o‘z uyida tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. Bu maktabda dastlab 10-12 nafar tatar bolalari o‘qigan bo‘lib, qozonlik Abdurahmon Sa’diy o‘qituvchilik qilgan”(8).

Buxoroda jadid maktablari bo‘yicha shunday jarayon ketayotgan 1908 yilning bahorida Ismoil Gasprali amirlikka ikkinchi bora tashrif buyuradi va Amir Abdulahadxon bilan uchrashadi. Gasprali safar davomida “jadid maktablarini tashkil etish bo‘yicha tatar va buxorolik ma’rifatparvarlar bilan yig‘ilish o‘tkazgan. Unda mulla Nizom uyidagi maktab uchun hukumatdan alohida joy olish va unda buxorolik bolalar ham tahsil olishiga imkoniyat yaratish to‘g‘risida qaror qilingan va bu maktabga I.Gasprinskiyning taklifiga ko‘ra, Amir Muzaffar sharafiga “Muzaffariya” nomini berishga kelishib olingan.” (9).

Nizom Sobitiy uyidagi maktab Xolid Burnashev uyiga ko‘chirilgan va kam sonli buxorolik bolalargina ushbu maktabga o‘qishga qabul qilingan.

“Nizom Sobitiy maktabida darslar tatar tilida olib borilganligi sababli unda buxorolik bolalarning tahsil olishi qiyinroq kechgan. Shuning uchun 1908 yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan. Ushbu maktabda 20-30 yoshli kishilar uchun kechki o‘quv kurslari ham tashkil qilinib, katta yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o‘tilgan. Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo‘lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo‘zg‘atishga kirishganlar. Vaziyat murakkablashgach, 1909 yil 26 sentabrda Ostonaqul qo‘shbegi, qozikalon Baqoxo‘ja va Burhoniddin raislar mirzo Abdulvohidga maktabning yopilganini rasman e’lon qilganlar.

O‘sha yili Buxoro jadidlaridan Abulqosim Sayfullazoda ham Buxoro shahrida jadid maktabi ochgan. 1909-1910 yillarda faoliyat yuritgan ushbu maktabda 100-150 nafar o‘quvchi tahsil olgan.Abulqosim maktabining o‘ziga xos jihati shu ediki, u iste’dodli o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanib, mualimlikka tayyorlar edi.Bu maktab ham tez orada qora fikrli maktab domlalarining ig‘vosi bilan, muftilarning “jadid haromdir” fatvosiga uchrab,

yopib qo‘yilgan.Ammo Abulqosim kechalari yashirin suratda xususiy uylarga bolalarni to‘plab, o‘qitishda davom etgan”(10).

“Agar Buxoro va Xorazmdagi jadid maktablari faoliyatini taqqoslaydigan bo‘lsak, o‘xshash va farqli jihatlar yaqqol ko‘rinadi.

a). Amir Abdulahadxon Ismoil Gasprali bilan bevosita to‘rt marotaba uchrashib jadid maktablariga xayrihohligini bildirgan va “Tarjimon” gazetasini o‘qib borgan;

b).Muhammad Rahimxon 2 esa Ismoil Gasprali bilan bevosita uchrashmasada jadid maktablariga xayrihohlik qilgan va qo‘llab quvvatlagan. Shuningdek, Xiva xoni ham “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lgan;

v).Buxorodagi jadid maktablarida mahalliy millatlar yashashidan kelib chiqib fors-tojik, tatar va turkiy tillarda saboq berilgan;

g).Xorazmdagi jadid maktablarida faqat turkiy tilda saboq berilgan;

d).Amir Abdulahad garchi jadid maktablariga xayrihohlik qilgan bo‘lsada, mutassib ulamolar ta’sirida yangi usul maktablari yopib qo‘yilgan;

e).Xorazmdagi jadid maktablariga Feruzxon xayrihohlik qilgani bois, mutassib ulamolar yangi usul maktablariga qarshi chiqisholmagan va bironta maktab yopilmagan” (11);

Bu vaqtda Xorazmda Feruzxon, valiahd Asfandiyorlarning xayrihohligi, yangilikka qiziqishi va taraqqiyotga intilishi bois esa Islomxo‘ja(1872-1913), Salimoxun, Husaynbek Muhammadmurodov (...-1918), Mamat Mahram (...-1907), Bobooxun Salimov (1877-1929), Xudoybergan Devonov (1879-1938) singari amaldorlarning ham siyratidagi taraqqiyparvarligini yuzaga chiqargandi. Natijada ushbu siymolar va maslakdoshlari nafaqat jadid maktablari tashkilotchilari, balki ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy jarayonlarning namoyandalari, jamiyatdagi ta’sirchan kuchga aylanishdi.Bu borada Xorazmdagi jadidlar xuddi Buxorodagi Abdulvohid Burhonov(1875-1934), Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy (1877-1914), Mukamil Burhonov (1884-1937), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Usmon Xo‘ja (1878-1968), Abdurauf Fitrat (1886-1938) , Otaulla Xo‘jayev (1880-1937), Abduqodir Muhiddinov (1892-1934),Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938), Muso Saidjonov(1893-1937) singari jadid namoyandalari bilan jamiyatda bir xil vazifani bajardilar. Ta’limdan boshlangan jarayonni jamiyat va millatni uyg‘otuvchi, davlatchilik borasida o‘z umrini o‘tab bo‘lgan, dunyo taraqqiyotidan ortda qolgan monarxiyani respublika tuzumiga o‘tkazish bo‘yicha harakat qilishdi.

Nafaqat Feruzxon va amaldorlarining xayrihohligi, balki o‘qitish tizimi yuqoriligi bois ham, talab va ehtiyojdan kelib chiqib maktablar soni ortib borgan. Ta’lim jarayoni faqat o‘quvchilarning bilimini nazorat etishdan o‘qish-o‘qitish ishlarini ham tahlil qilish, islohot darajasiga ko‘tarilgan.

Qolaversa, Feruzxon hukmronligining so‘nggi o‘n yili va Asfandiyorxon hokimiyatdaligining dastlabki uch yillik davrida, ya’ni 1900-1913 yillarda xonlikka bosh vazirlik qilgan Sayid Islomxo‘ja (1872-1913) ham jadidlarning vohadagi rahnamosi darajasidagi nufuzli shaxsga aylandi. ”Tarjimon” gazetasidagi maqolalardan ayon bo‘lishicha, Islomxo‘ja taraqqiyparvar bosh vazir sifatida Ismoil Gaspraliga bir necha bor xat orqali murojaat qilib, g‘oyaviy maslahatlar olib turgan. Ana shu bois ham, ya’ni bevosita bosh vazir Islomxo‘janing taraqqiyparvar ekanligi tufayli xonlikda jadidchilik g‘oyalari nazariyadan amaliyotga aylana boshlanadi.

Natijada, Gaspralining Islomxo‘ja va Asfandiyorxonning ham 1913 yilgacha bo‘lgan davrda ta’lim va ma’rifatparvarlikdan boshlangan jadidchilik g‘oyalarini qo‘llab quvvatlashi tufayli xonlikda ko‘plab islohotlar o‘tkazildi.

Ma’lumki, jadidchilik ta’limni isloh qilish va milliy uyg‘onishni yuzaga keltirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oya va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizim edi.

Qolaversa bu jarayon imperiya asoratidagi musulmon xalqlarni zamonaviy dunyo tamadduni, ma’rifati, ilg‘or ilmiy salohiyati darajasiga ko‘tarish g‘oyasi bilan sug‘orilgandi. Ya’ni O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida o‘zgarish bo‘lgan jarayonga, Qrimdagi Ismoil Gasprali ta’limoti bilan birga, Usmoniylar saltanatidagi “Yosh turklar”ning islohotchilik faoliyatlari ham ta’sir qildi va bu ham burilish bosqichi bo‘ldi.

“Aynan “Yosh turklar”ning ta’sirini shundan ham sezish mumkinki, O‘rta Osiyodagi jadidlar ham “Yosh buxoroliklar”,“Yosh xivaliklar” nomi bilan o‘zlarining harakatini atagandilar.Vaholanki, bu safdagi taraqqiyparvarlarning ko‘pchiligi o‘rta yoshdagi shaxslar bo‘lishgan. Masalan, Polvonniyozhoji Yusupov 1914 yilda “Yosh xivaliklar” harakatiga asos solingan davrda 53 yosh, Bobooxun Salimov 37, Xudoybergan Devonov 35, Nazir Sholikorov 33 yoshda bo‘lishgan. Ana shundan ham bilsa bo‘ladiki, ta’limdan boshlangan jarayonning siyosiy harakat, ta’sir kuchi sifatida siyosiy maydonga kelishida Usmoniylar davlatidagi “Yosh turklar”dan ta’sirlanish ham yuqori bo‘lgan” (12).

Professor Begali Qosimov ta’kidlaganidek “jadidlar Usmonli Turkiyadagi “Ganch (yosh) turk” “Ganch usmonli” ta’siri bilan“Yosh buxoroliklar”,“Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” deb ham nomlanadilar. Birinchi ikki nom rasmiy tashkilot darajasiga ko‘tarildi “ (“Milliy uyg‘onish”, yuqoridagi nashr, 5 bet)..

Qolaversa, Turkiston, Buxoro va Xivada kechgan bu jarayon Rossiya mustamlakachiligi asoratidan qutilish imkonini ham yaratishga zamin hozirlagan edi. Ya’ni, najotni ta’limdan deb bilgan jadidlar, o‘zlari yuritayotgan milliy uyg‘onish jarayonini ham mustamlakachilikdan qutulish yo‘lidagi najot, tarixiy imkoniyat deb anglagandilar.

Shuningdek, milliy ziyolilar, taraqqiyparvar kuchlarni xonliklardagi inqirozli ahvol, bu o‘lkalarning umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, jamiyatni isloh qilish zarurati, jadidchilik g‘oyalarining amaliyotga aylanishiga ham sababchi bo‘ldi. Natijada jadidlar tomonidan bunday ezgu g‘oyalarni nazariyadan amaliyotga aylantirish uchun faqatgina maktab, matbuot, teatr, turli ma’rifiy jamiyatlargina emas, hattoki siyosiy partiyalar (“Yosh buxoroliklar”,“Yosh xivaliklar”) ta’sis qilinish darajasiga erishildi.

“Ana shunday jarayonda Xorazmdagi jadidchilik harakatining farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, boshqa hududlardan ajralib turadigan jihatlarga ega bo‘lgan.

Bu farqli jihatlar quyidagilardan iborat:

1.Xivada 1874 yildan boshlab shaxsan Feruzxonning homiyligi bilan ko‘plab badiiy va tarjima asarlari, hujjatlar chop etiladigan , Eronlik Ibrohim Sultonning matbaaxonasi tashkil qilingandi. U o‘z yurtiga qaytib ketgach shogirdi Otajon Obdalov uning ishini davom etdirayotgandi.

Biroq 20 asr boshlarida Turkistonning turli hududlarida ko‘plab jadidchilik g‘oyalari aks etgan gazeta-jurnallar nashr qilinsa va tarqalsada (“Tarjimon”: Qrim, 1883-1919), “Vaqt” (Orenburg, 1907-1917), “Sirotil mustaqim” Istanbul, 1911), “Buxoroyi sharif” (Buxoro, 1912-1913), “Turon” (Buxoro, 1912-1913), “Sadoi Farg‘ona”(Farg‘ona, 1914-1915) va boshqalar) Xorazmdagi matbaaxonada to 1920 yil 8 martgacha bironta matbuot nashri faoliyat ko‘rsatmadi. Ya’ni matbuot to monarxiyaga asoslangan xonlik tugatilib Xorazm Xalq respublikasi o‘rnatilmaguncha tashkil etilmadi. Vaholanki Xorazmdagi jadid maktablari pedagoglari Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniylar Qrimga-Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasiga vohadan

pochta-telegraf orqali xabarlar, maqolalar yuborib turishgan. Ya’ni, matbaaxona, jadid pedagog jurnalistlari bo‘lsada Xorazmda matbuotga asos solinmagan.

2. Xorazm vohasida azaldan musiqa va san’atga ixlosmandlik aholi orasida keng tarqalgan bo‘lsada, bu borada san’atkorlarning teatrga jipslashishi va pyesalar sahnalashtirishi ham ro‘y bermadi.Ya’ni Turkistonning turli hududlaridagi Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hamza Hakimzoda singari Xorazm jadid dramaturglari yetishib chiqmadi va teatr ham to xonlik tugatilgach-1922 yildagina tashkil etildi. Aynan bu soha-Xorazmda dramaturgiya, teatr san’atining tashkil etilishi, shakllanishida ham jadid ma’rifatparvari Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)ning roli katta bo‘ldi.

Ma’lumki, Xiva xoni Feruzxon (1844-1910) ma’rifatparvar hukmdor bo‘lishiga qaramay, o‘z saroyiga ijodkorlarni to‘plab ularga homiylik qilsada, xalq ommasi uyg‘onishi uchun zarurat, ehtiyoj bo‘lgan bironta matbuot nashri va teatr tashkil qilinmadi. Vaholanki bu paytda, ya’ni 20 asr boshlaridan Turkiston hududlarida matbuot va teatrga asos solina boshlangandi.

Qolaversa ko‘plab ijodkorlar va san’atkorlar tomonidan matbuot, teatr tashkil etish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatilgani o‘sha davrga oid Laffasiyning “Tazkirai shuaro”,“Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm navozandalari”, Polvonniyozhoji Yusupovning xotiralarida, Bobojon Safarovning “Xiva xonligi bo‘yicha tarixiy ma’lumotlar” (O‘zRFA SHI. inv. №10231) va yana shu muallifning “Asfandiyorxon hukmronlik qilgan davrlarda bo‘lib o‘tgan ba’zi bir voqealar haqida” (O‘zRFASHI,F-№ 11254/III) qo‘lyozmalarida qayd etilmagan.

Feruzxonning 1910 yildagi vafotidan so‘ng hokimiyatga kelgan Asfandiyorxon ham shoir bo‘lsada, otasi singari bironta gazeta-jurnal, teatr tashkil etishga harakat qilmadi. Vaholanki, bu paytlari 20 asrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tezlashgan bo‘lib, Turkistonning turli hududlarida Xiva xonligidan farqli ravishda ko‘plab matbuot nashrlari, teatr truppalari faoliyat ko‘rsatar, bu san’at turi xalq orasida ommalasha boshlagan edi. Ammo Asfandiyor hali taxtga chiqmagan valiahdlik davridayoq “Tarjimon” va boshqa nashrlarni mutoala qilib turgani, jadid maktablari tashkil qilish, o‘qitish tizimini tahlil etib borgani Ismoil Gaspralining maqolalarida yoritib borilgan va buni e’tirof etish joiz.

Gazeta-jurnallar ta’sis qilinmaganligi sababini ikkita bo‘lishi mumkin.

a). Xorazmga temir yo‘l keltirilmaganligi tufayli Rossiya yo Erondan qog‘oz keltirish imkoni bo‘lmagan va shu boisdan gazeta-jurnallar tashkil

etilmagan. Karvon yo‘llari orqali keltirilgan qog‘ozlar faqat kitoblar nashri uchun sarflangan.Negaki vaqtli matbuot nashri uchun tonnalab qog‘oz sarflanar va bunday miqdorda qog‘oz keltirish imkoni yo‘q edi;

b). Matbaaxona, jurnalistlar, ijodkorlar bo‘lishiga qaramay gazeta-jurnallar ta’sis etilmaganining yana bir sababi, hukmdor Feruzxon, Asfandiyorxonlar jadidchilik g‘oyalari keng xalq ommasi orasida tarqalib, monarxiyaga qarshi muxolifat yuzaga kelishidan cho‘chishgan. Negaki, o‘sha davrda matbuot yagona axborot almashish, fikrlashish, aholi savodxonligini oshirish yo‘li bilan milliy uyg‘onish vositasi edi.

Teatr tashkil etilmasligi sababini ham xuddi matbuot vositalari kabi keng xalq ommasi oldida jadidchilik g‘oyalari tarqalib, milliy uyg‘onish yuzaga kelmasligi, monarxiyaga qarshi kuchlar yuzaga kelishiga to‘sqinlik deb izohlash mumkin.

Biroq shunday bo‘lsada, X1X asrdagi Xorazmda yashab ijod qilgan shoir, tarixchi, tarjimonlarning ko‘pligi, ularning asarlaridagi g‘oyalar va tashqi savdo-madaniy aloqalar jamiyatda ilg‘or fikrli, taraqqiyot tarafdorlari bo‘lgan kishilar guruhi-ma’rifatparvarlarning shakllanishiga, ya’ni jadidchilik g‘oyalarining yetishib chiqishiga zamin yasadi”(13).

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne’matjon Polvonov o‘zining “Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi” (“Akademnashr”nashriyoti,Toshkent-2011yil) risolasida Xorazm jadidchiligining boshqa hududlardan farqli jihatlarining yana birisi bu g‘oyani qo‘llab quvvatlagan insonlarning boy-badavlat insonlar ekanligiga e’tibor qaratgan edi.

Ya’ni, xonlikda katta ta’sirga ega bo‘lgan qozikalon noibi Bobooxun Salimov, devonbegilar sulolasiga mansub Husayinbek Matmurodov, Asfandiyorxonning qaynotasi-shoir Komil Xorazmiyning mirzaboshi ekanligi, Islomxo‘jadek islohotchining bosh vazirlik qilishi, Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorovlarning katta savdogarligi, Xudoybergan Devonov, Jumaniyozhoji Boboniyozov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalarning ham boy-badavlat tabaqaga mansub ekanligi, ulardagi ma’rifatparvarlik Xorazmdagi jadidchilik harakatining o‘ziga xosligini tashkil etgan edi.

Biroq Xorazm jadidchilik harakatining ushbu namoyandalari vaziyat taqozasi, qolaversa farzandlari, kelajak avlodning savodxonligini o‘ylab

faqatgina maktablar tashkil qilishga homiylik qilishgan va 1914 yildan keyingi dunyo hamda imperiyadagi vaziyat bois siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanishgan.

Ya’ni, shu davrga oid manbalar, xususan Polvonniyoz hoji Yusupovdek Xorazm jadidlari yetakchisining memuarini tahlil qilishdan kelib chiqadigan fikr, qolaversa tarixda bo‘lgan real tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, boy-badavlat bo‘lgan jadidchilik g‘oyasidagi shaxslarning faoliyati asosan 1910 yildan keyin siyosiy jihatdan kuchaygan va mustamlakachilar, monarxiya, qadimchi ulamolar bilan siyosiy kurashlarda kechdi.

Masalan, 1910 yilda o‘zi ishlab chiqqan 10 bandlik dasturni Asfandiyorxonga imzolatgan bosh vazir Islomxo‘ja va uning maslakdoshlari ham asosan jamiyatni isloh qilish, zamonaviylashtirish borasida siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanishdi.

Qolaversa, 1913 yildagi Islomxo‘janing vafoti, natijada Asfandiyorxon saroyidagi ziddiyatlarning kuchayishi va guruhbozlikning ortishi tufayli xonlikda konservativ kuch bo‘lgan qadimchilar, mustamlakachilar mavqeining ta’siri oshib ketdi.

Natijada badavlat tabaqadan chiqqan Xorazmlik jadidlar-Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Husayinbek Matmurodov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobooxun Salimov va boshqalarning asosiy faoliyati endi faqat Asfandiyorxon, qadimchilar hamda mustamlakachilarga qarshi siyosiy kurash boshlashlariga sabab bo‘ldi.

Otamurod Qo‘shjonov va Ne’matjon Polvonov o‘zlarining “Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar”, (“ABU MATBUOT-KONSALT” MCHJ, Toshkent-2007yil). nomli hammualliflikda yaratgan asarlarida Xorazm jadidchiligidagi yana bir farqli jihatlarga e’tibor qaratishgan:

“-Turkiston va Buxorodagi kabi xonlik hududida jadidchilik g‘oyalarining yoyilishida turli sabablar bilan bu yerga kelgan tatar ziyolilari tashviqot va targ‘ibotining ham katta ta’siri bo‘lgan;

-shu bilan birga, jadidchilik Xiva xonligida muxolifat darajasida bo‘lib, eski tartib tarafdorlariga qarshi yangilik, islohot tarafdorlari harakati edi;

-jadidchilik harakati qatnashchilari orasidan “Yosh xivaliklar” tashkiloti partiya sifatida o‘sib chiqdi”(14).

Xullas, Xorazm jadidchiligi ana shu kabi Turkiston va Buxorodan farqli, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ta’lim, hamda ma’rifiy harakatdan ijtimoiy va siyosiy harakat darajasiga ko‘tarilib borgan.

Dastlab maktab sohasini isloh qilish orqali boshlangan jadidchilik vaqt o‘tib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi va o‘sha davrdagi real vaziyatda o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilish, ommalashtirish va turkiy xalqlarni jipslashtirishda matbuot tabiiy zarurat edi.

Aynan ana shunday mas’uliyatli vazifani “Tarjimon” gazetasi bajardi va bu boradagi dastlabki nashr bo‘ldi. Jadidlar lideri Ismoil Gaspralining taraqqiyparvarlik g‘oyalari ruhidagi “Tarjimon “gazetasi 1883 yil 10 apreldan Qrimning Bog‘chasaroy shahrida chop etila boshlagan va erkin fikr minbari va turkiy musulmon xalqlarning o‘zaro axborot almashish, dunyoda, imperiyada kechayotgan jarayonlardan xabardorlik vositasi edi.

“Tarjimon” gazetasi chiqa boshlaganidan boshlab 20 yil davomida Rossiya imperiyasidagi yagona musulmon matbuoti bo‘lib qoldi. . Bu davr mobaynida gazeta haftasiga 1-2 marta kichik hajmda nashr bo‘ldi. Lekin bu kichik gazetaning turkiy millatlarga ko‘rsatgan ta’siri katta edi. “Tarjimon”ning ta’siri ostida Rossiya imperiyasining turli hududlarida musulmonlar tarafidan ko‘p sonli yangi maktablar ochildi, ko‘plab xayriya jamiyatlari tashkil etildi, yangi adabiyot, darslik, qo‘llanmalar yaratildi.

Ismoil Gasprali mahoratli publitsist sifatida jumlalarni sodda, qisqa va lo‘nda ifodalovchi uslub qo‘lladi.“Tarjimon”ning o‘rta umumiy turk tilini yaratdi.Ismoil Gasprali butun turkiy millatlarni “Tarjimon” ning yagona adabiy tili ostida birlashtirishni orzu qildi. Buning uchun umrining oxiriga qadar “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida kurashdi. Ismoil Gasprali targ‘ib qilgan til o‘z vaqtida Qrimda, Istanbulda, Toshkent va Bakuda ham birdek tushunarli edi”.

“Tarjimon” gazetasi mahalliy qrim tatar va rus tilida chop etilib, biri ikkinchisining aynan tarjimasidan iborat bo‘lgan. Vaqt o‘tib, Ismoil Gasprali maqolalardagi mavzular doirasini o‘zgartirib, gazetani Rossiya imperiyasidagi turkiy musulmon xalqlarining milliy nashri darajasiga erishtirdi.

”Tarjimon” 1914 yil 11 sentabrgacha, ya’ni Gaspralining vafotigacha uning noshirligi va bosh muharrirligida, vafotidan keyin esa o‘g‘li Rifat va safdoshi bo‘lgan Hasan Sabriy tomonidan chop etdirilgan. Gazeta 1903 yildan haftada ikki, 1905 yildan uch marotaba va 1912 yildan esa kundalik gazetaga aylantirilgan va jami bo‘lib 2826 ta soni chiqqan. Rossiya imperiyasi va Usmoniylar imperiyasi bo‘yicha “Tarjimon” obunachilari soni 5 ming nafargacha yetgan edi.

Obunachilar orasida Turkistonning turli hududlaridagi, xususan, Xorazmdagi turli tabaqaga mansub insonlar, xususan Xiva xonlari Feruz va Asfandiyorxon ham bo‘lishgan. Dastlab gazeta Xorazmga Toshkent-Chorjo‘y-To‘rtko‘l (Petro-Aleksandrovsk)dagi pochta tarmoqlari orqali, 1913 yildan esa bevosita Xivada pochta-telegraf ishga tushganidan, Xivadagi pochtaga keltirilib obunachilarga tarqatilgan.

Ma’lumki, Turkistonda birinchi matbaaxona 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligining Toshkentdagi okrug shtabida tashkil qilingandi. Biroq matbaaxona kichik bo‘lganidan unda bosma imkoniyatlari cheklangan edi.Shu bois matbaaxonada Turkiston general gubernatorligining turli buyruq, ish hujjatlarigina chop etilib borgan. 1870 yilga kelib bosmaxona uskunalari ko‘paytiriladi va general gubernatorlikning rus tilidagi “Turkestanskaya vedomosti” gazetasi tashkil etilib, nashr ishlari yo‘lga qo‘yiladi. O‘sha yili yana mahalliy aholi uchun “Turkiston viloyatining gazetasi” ham arab harfida chop etila boshlaydi. Tabiiyki har ikkala nashr general gubernatorlik mahkamasining gazetasi bo‘lganidan mustamlakachilik mafkurasi va g‘oyalari, targ‘iboti asosidagi gazetalar edi.

Ana shunday vaziyatda “Tarjimon” faqat Qrim, Volgabo‘yi, Kavkazdagi musulmonlar uchungina emas, Turkiston ahli, shuningdek Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun ham milliy ruhdagi, ziyolilar, xususan savodxon qatlam sevib mutoalla qiladigan, mushohada yuritadigan gazetaga aylandi.

“Tarjimon”ning g‘oyalari sabab vaqt o‘tib Turkistonning turli hududlarida “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Hurriyat”,“Najot”,“Turon”, “El bayrog‘i” singari jadid taraqqiyparvar --lari tomonidan ko‘plab gazeta-jurnallar chop etilib, ularda ham millat dardi, jamiyatni isloh qilish istagi, muammolarga yechim sifatidagi takliflar yoritilgan mavzular nashr qilindi.

Natijada professor Begali Qosimov tadqiq qilganidek, “jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat”darajasiga yetdi.

1) Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) Mustaqillik uchun kurash olib bordi.Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” .

Aynan ana shu maqsadlarga erishishda matbuot, xususan “Tarjimon” va boshqa jadid gazetalari katta rol o‘ynadi va vaqt o‘tib tariximizni o‘rganishda eng muhim ilmiy ahamiyatga ega, boshqa manbalarga taqqoslab, qiyosiy o‘rganuvchi manbaga aylandi.

Qrimda yashab faoliyat ko‘rsatgan va dunyoning ko‘plab davlatlariga safarlar qilgan jadidlar lideri va “Tarjimon” asoschisi Ismoil Gasprali tabiiyki Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi vaziyat bilan tanishib bordi. Negaki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori ostida faoliyat ko‘rsatgan Ismoil Gasprali turkiy dunyoning katta bir hududi va dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan o‘lkaga istiqbolli mintaqa sifatida qaragan.

Filologiya fanlari doktori, professor Zaynobiddin Abdurashidov o‘zining ilmiy faoliyatida jadidchilik harakati va “Tarjimon”ni tadqiq qilgan holda, gazetaning Turkiston bilan bog‘liq bibliografiyasini nashr etdirdi.

Professor Z.Abdurashidovning ta’kidlashicha, “mazkur bibliografiyani tuzishda professor Yo. Oqpinar arxivida saqlanayotgan “Tarjimon” gazetasi kolleksiyasidan foydanilgan. Ushbu kolleksiya 1883 yildan to 1917 yildagi sonlarini o‘z ichiga oladi.

Afsuski, gazetaning 1917 yilgi sonlari to‘liq saqlanmagan hamda 1918 yilgi sonlari umuman mavjud emas. Professor Yo.Oqpinarning harakati bilan gazetaning turli yillardagi sonlari dunyo kutubxonalari va arxivlaridan topilib imkon qadar to‘liq holga keltirilgan. Mazkur kolleksiya hozirda “Tarjimon” gazetasining to‘liq arxivi hisoblanadi”(15).

Ma’lumki, Xorazm tarixining X1X asr oxiri va XX asr boshlaridagi davrini o‘rganish, tadqiq qilish, qiyoslashda Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimovning xotiralari, shuningdek o‘sha davrdagi ijtimoiy va adabiy jarayon, bundan tashqari Feruzxon va Asfandiyorxon saroyidagi muhit manzarasini teran anglashda Bobojon Tarrohning “Xorazm navozandalari”, Laffasiyning “Tazkirai shuaro” asarlari muhim o‘rin tutadi.

Biroq “Tarjimon” gazetasidagi Xiva xonligiga oid yoritilgan maqolalar, lavhalar aynan yuqoridagi asarlarda yoritilmagan ma’lumotlardan, shu paytgacha hattoki sovet va istiqlol davri tarixchilari o‘z tadqiqotlarida yoritmagan noyob voqelik, jarayonlardan iborat. Shu bois ham “Tarjimon” gazetasining Xorazm tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati katta hisoblanadi.

Gazetada chop etilib borgan Xiva xonligi bilan bog‘liq ko‘plab maqolalar, xabar va lavhalarda Xorazm va xorazmliklarga oid ko‘plab mavzular yoritilgan. Tabiiyki, Qrimda yashayotgan, ammo ikki marotaba Turkiston va Buxoroda bo‘lgan Ismoil Gasprali vohadagi vaziyatni Rossiyaning turli hududlarida chop etilgan, shuningdek “Turkestanskiye vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi” dagi materiallar orqali kuzatib borgan.

Vaqt o‘tib esa bevosita Xorazmdan ham maxsus “Tarjimon”gazetasiga maqola, xabar yozadigan muxbirlar yetishib chiqdi. Shulardan biri Xorazmdagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilayotgan Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniylar edi. Natijada “Tarjimon” gazetasida yuqoridagi nashrlar va Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniylarning maqola, xabarlari orqali Xorazmga bog‘liq ko‘plab maqolalar yoritildi. Ismoil Gasprali ba’zida Xorazmdagi jarayonlarga oid o‘zining tahliliy maqolalarini ham yoritib bordi.

Obunachilar orasida Turkistonning turli hududlaridagi, xususan, Xorazmdagi turli tabaqaga mansub insonlar ham bo‘lishgan. Ma’lumki, To‘rtko‘l (Petro-Aleksandrovsk), Xiva shaharlaridagi pochta orqali Qrim, Sankt-Peterburg, Qozon, Toshkent shaharlaridagi gazeta-jurnallar Xorazmga olib keltirilgan. Matbuot nashrlari muxlislari orasida Feruzxon va amaldorlari, shuning madrasa talabalari, jadid maktablari pedagoglari, o‘quvchilari ham bo‘lishgan. Polvonniyozhoji Yusupov o‘zining “Xotiralar”ida shu vaqtdagi turli soha vakillari qatori o‘zining ham gazeta-jurnallar muxlis ekanligini ta’kidlab o‘tgandi.

Aynan Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniylar ham dastlab Petro-Aleksandrovsk (To‘rtko‘l), 1913 yildan esa Xivadagi pochta-telegraf binosidan Qrimga maktub, telegramma tarzidagi xabarlar, maqolalarini jo‘natib turishgan.

Shu o‘rinda, Xorazmning jadid jurnalistlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak:

“SAYDASHEV RAMAZON - 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan pedagog va jurnalist. Ramazon Saydashev Xivadagi dastlab rus tuzem, keyinchalik Mamat mahramning jadid maktabida faoliyat ko‘rsatgan.

Ramazon Saydashev Xorazmdan Qrimga-“Tarjimon” gazetasi bosh muharriri Ismoil Gaspraliga maqolalar yozib turgan. Ismoilbek Gasprali Xorazmdan kelgan har bir xabarni gazetada “Xivadan maktub” ruknida chop etib borgan. “Mulla Ramazon”, “Ramazon Saydashev”, “R.Saydashev” nomlari

bilan vohada kechayotgan har bir jarayon, voqeliklar gazetada nashr qilinib turilgan. Oldinlari Rossiya, Kavkaz, Turkistondagi gazetalar va muxbirlar orqali yoritilgan Xorazm bilan bog‘liq jarayonlar bevosita Ramazon Saydashevning jurnalistlik faoliyati orqali Qrimda nashr etilib, minglab muxlislar va turli hududlarga yetib bordi.

USMONIY G‘OFUR - Xorazmdagi jadid maktablarida faoliyat ko‘rsatgan pedagog va jurnalist. XX asr boshlarida Xiva, Yangi Urganch shaharlaridagi jadid maktablarida o‘qituvchilik qilgan. Ramazon Saydashevning ta’lim va matbuot sohasidagi shogirdi.

“Vaqt”, “Tarjimon” gazetalarida Xorazmdagi ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi maqolalarini chop ettirib turgan”(16).

Bu borada Ismoil Gasprali va Xiva xonligi bosh vaziri, taraqqiyparvar, islohotchi Islomxo‘ja o‘rtasidagi xat orqali fikrlashuvlar ham katta ahamiyat kasb etdi.

«Shulardan kelib chiqqan holda “Tarjimon” gazetasida Xorazm bilan bog‘liq holda yoritilgan mavzularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Xiva xoni va amaldorlari, valiahdining Rossiya imperiyasiga safari bilan bog‘liq xabarlar;
2. Xon va amaldorlarining Turkiston, xususan Toshkentga tashrifiga oid lavhalar;
3. Xiva xonligidagi jadid maktablari holatiga oid xabarlar.
4. Xorazmdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat to‘g‘risidagi maqolalar va xabarlar.
5. Jadidchilik harakati va vohada olib borilgan taraqqiyparvarlarning islohotlariga oid maqolalar tahlili.

Ana shu tarzda 1883-1917 yillarga oid “Tarjimon” gazetasidagi 150 dan ortiq maqolalar, xabarlar, lavhalarda shu davrda kechgan jarayonlar, voqeliklar yoritib o‘tilganki, bu tariximizni o‘rganishda katta ahamiyatga ega va ushbu manbalarsiz Xorazmning X1X asr oxiri, 20 asrning 17 yiligacha bo‘lgan davr tarixini to‘laqonli yoritish imkonsiz” (17).

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “Tarjimon”dagi maqolalar, xabarlar, lavhalar faqatgina Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan jadid maktabi o‘qituvchilari Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniylarning ma’lumotlariga asoslanib qolmasdan, Toshkent, Sankt Peterburg, Orenburg, Qozondagi nashrlar asosida ham tayyorlangan. Ba’zida esa shu va boshqa nashrlardagi maqolalar aynan

ko‘chirilib, ayrim holatlarda esa “Tarjimon” tahririyati tomonidan izohlar bilan chop etilgan.:

“Turkiston viloyatining gazeti”,“Turkestanskiye vedomosti”, “Okraina”, “Sankt Peterburgskiye vedomosti” va boshqa nashrlardagi Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga oid maqolalar bevosita “Tarjimon” gazetasida chop qilinib turilgan. Ya’ni, Ismoil Gasprali ularni nashr etish orqali turk dunyosini va O‘rta Osiyo hududlaridagi aholini bir-biri bilan muloqot qilish hamda jarayonlar bilan tanishtirib turuvchi vositachi vazifasini ham bajargan. Shuningdek, dunyoda kechayotgan jarayonlar bilan tanishib borayotgan ziyolilardagi milliy uyg‘onish mustamlakachilikka qarshi kurashga ham ta’sir qilgan.

Bu borada “Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi) asoschilaridan Polvonniyozhoji Yusupov o‘z xotiralarida gazetalar bilan bog‘liq holatlarni bir necha o‘rinda qayd qilib ketgan: “Man gazetalar o‘qib, xalqni inqilobiy ruh bilan ruhlantirar erdim”. “ Yapun muhorabasidan so‘ng Gosudarskiy Duma tashkil bo‘lib, har turlik inqilobchi gazetalar chiqa boshladi. Ondin burun ham “Tarjimon” gazetasini olib o‘qib yurar Yapon mahorabasidin so‘ng chiqqan gazetalar har turlik taraqqiylarga doir maqolalar yoza boshladilar. Man alardin har turli gazeta, jurnallar olib o‘qiy boshladim. Ondin so‘ng har kunda ijtihodim (jahlim) ziyoda bo‘lib, hurriyat uchun talasha boshladim. Ba’zi hurriyatparvar birodarlar ham qo‘shilib, hurriyatga doir muzokaralar qila boshladik” (18).

Polvonniyozhoji Yusupov ta’kidlaganidek, u va maslakdoshlari o‘qib borgan gazetalar orasida “Tarjimon” nashri ham bor edi.“Tarjimon” gazetasida yoritilgan maqolalarning Xorazm tarixini o‘rganishda ahamiyati katta ekanligini inobatga olib, ayrim maqolalar mavzusi, izohlarini keltirib o‘tsak:

“Xiva xoni Muhammad Rahimxon va Buxoro valiahdi Abdulahad Rossiya imperatoriga qimmatbaho sovg‘alar hadya qilgani haqida” (10.06.1883 yil), “Xiva xoni va Buxoro valiahdi Moskvadan Peterburgga ketgan; ko‘rganlaridan ibrat olishlari kerakligi haqida” (1.07.1883),” Xiva xoni Peterburgda har kun teatr tomoshalariga borgani haqida” (2.08.1883), “Xiva xoni va Buxoro valiahdi Rossiyada ko‘rganlaridan juda ajablangan; Xiva xoni daryo paroxodchiligi ochish niyatida”(25.08.1883).

“Xivada xon tarafidan maktab ochilib, unda bolalar rus tili o‘rganadilar; maktab xon sarmoyasi bilan ta’minlanadi; maktab uchun 34 xonali bino

qurilgan; 2 yil oldin Xiva xoni dunyoviy ilmlar ham o‘qitiladigan yangi madrasa ochmoqchi edi, bu ishning boshi bo‘lsa kerak” (15.08.1887);

Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiy paroxod bilan Petro-Aleksandrovsk shahriga borgan, Xiva xoni bilan ko‘rishgan; muzokara mavzulari: Amudaryoni eski o‘zani bo‘yicha Kaspiyga burish; shahar yaqinidagi Amudaryo qirg‘oqlarini mustahkamlamoq, agar bu suv toshqiniga foyda bermasa shaharni Xiva tarafiga ko‘chirish haqida”(23.11.1890), “Ruslar Xiva bilan tijoratlarini kengaytirish maqsadida Petro-Aleksandrovsk shahrida katta karvonsaroy qurishlari haqida”, (27.01.1891),

“Buxoro amiri va Xiva xoni Moskvadan Nijniy Novgorod ko‘rgazmasiga ketgani haqida” (30.06.1896), “Xiva xoni Moskvadan Nijniy Novgorodga borgan va Xivaga qaytgan. Xivada birinchi marta nishon ta’sis etilgan va ularni tayyorlashga Moskvada buyurtma berilgani haqida” (30.06.1896),“ Xiva xoni Muhammad Rahimxon Nijniy Novgorod ko‘rgazmasidan bosma mashinasini barcha harflari bilan sotib olgan va Xiva madrasalaridan biriga vaqf qilish niyatida ekanligi haqida” (7.07.1896);

“Xiva xoni Moskvada bo‘lgan vaqtda Amudaryo eski o‘zaniga qaytayotganinni bildirgan; komissiya yuborilgan; daryo Kaspiyga quyilsa arzon suv yo‘li ochilishi haqida” (27.10.1896), “Amudaryoni Kaspiyga burish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlovchi komissiya Xivaga ketgani haqida” (3.11.1896), “ Xivaga borgan komissiya Krasnovodskgacha yo‘l qurilishi kerakligini taklif kilgani haqida” (3.11.1896), “Xivaga temir yo‘l qurilishi uchun maxsus bir shirkat tuzilgani haqida” (22.12.1896),”Xiva ekspeditsiyasi fevral boshida Peterburgga qaytadi; uning qaroriga ko‘ra, Amudaryoni Kaspiyga burish mumkin, Orenburg-Toshkent temir yo‘lidan arzonroq tushishi haqida” (14.01.1897), “ Xivadan savdo mollari karvon yo‘li bilan to‘g‘ri Krasnovodskka olib boriladigan bo‘ldi, temir yo‘l markazi bu shaharga ko‘chirilgani haqida” (24.02.1897);

Ana shu maqolalar mavzusi va izohidan ko‘rinib turibdiki, Ismoil Gasprali turkiy musulmon xalqlari, shu jumladan Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi jarayonlarni kuzatib borgan. Rossiya imperiyasidagi qaysiki nashrda bu hududlarga doir maqola chop etilgan bo‘lsa, ularni “Tarjimon”da ko‘chirib bosgan. Ba’zida esa izoh berib, o‘z fikr mulohazalarini ham bildirib turgan.

Maqolalar sarlavhasi va mavzusi, ularning Xorazm tarixini o‘rganishda ahamiyati beqiyos va ilmiy ahamiyati katta ekanligining dalolatidir. Bu singari

Xorazmdagi tarixiy jarayonlarni aks etdiruvchi ma’lumotlar Bayoniy, Bobojon Tarroh, Laffasiy, Polvonniyozhoji Yusupovning asarlarida ham uchramaydi.

XULOSA:Turkiston, Buxoro va Xorazmdagi jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy darajaga chiqishi va o‘lkadagi voqeliklar, jarayonlarga ta’siri kuchayishida, Qrimda 1883 yildan nashr etila boshlangan “Tarjimon” gazetasining, 1884 yildan jadid maktablarining tashkil etilishi katta rol o‘ynadi. Shu tarzda matbuot, ta’limdan boshlangan yangilik jamiyatdagi barcha sohalar va qatlamlarni qamrab olgan ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga yetdi va Xorazm, shuningdek Buxoroda ham o‘ziga xos uyg‘onish mafkurasi, fenomen bo‘lib tarixga kirdi.

Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan turkiy musulmon xalqlar hayotida uyg‘onishga sabab bo‘lgan jadidlar harakati Xorazm va Buxoroda ham ta’lim sohasidan boshlandi. Buxoro va Xorazmda jadid maktablari tashkil qilinishi, rivojlanishi va boshqa hududlardan o‘qituvchilar taklif qilish tashabbusini Buxoro amiri Abdulahadxon, Xiva xoni Muhammad Rahimxon 11 hamda boshqa saroy amaldorlari, mulkdorlar qo‘llab quvvatlashgan. Natijada bitiruvchilar orasidan Istanbulda, keyinchalik Germaniyada o‘qigan talabalar yetishib chiqdi.

Jadidchilik Buxoro va Xorazmda ta’limdan, ma’rifatparvarlikdan siyosiy harakat va partiya darajasigacha, monarxiyada islohot o‘tkazishga majbur qilgan va parlament, ijro hokimiyatini tashkil etishdek murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Buxoro va Xorazmlik jadidlar Qrim, Qozon, Ufa, Toshkent va boshqa hududlardagi singari ta’limdagi islohotdan boshqaruv, tuzum va davlatni isloh qilish, millatni ma’rifatli qilgan holda jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygandi. Natijada, Buxoroda Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Xo‘ja kabi jadidlar aniq amaliy tadbirlar bilan harakat qilishdi va 1910 yilda pedagoglar, mulkdorlar, ijodkorlar, turli tabaqa vakillari a’zo bo‘lgan siyosiy harakat –“Yosh buxoroliklar”ga, Xorazmda Bobooxun Salimov, Husayinbek Matmurodov, Polvonniyozhoji Yusupov singari islohotchi namoyandalar esa 1914 yilda “Yosh xivaliklar” harakati (partiya)ga asos solishdi.Ushbu partiyalar afsuski 1917 yilda Rossiyada hokimiyatga kelgan bolsheviklarning soxta va’dalari, siyosiy mafkuralariga aldanib, ular bilan murosa qilishdi va Buxoro amirligi, Xiva xonligini tugatishda ishtirok qilishdi. Garchi jadidlar Buxoro respublikasi, Xorazm respublikasi rahbariyatida to 1924 yil kuzida O‘rta Osiyoda milliy chegaralanish o‘tkazilgan

davrgacha xizmat qilishsada, sovet hukumatining asl siyosatini anglab yetishdi. Ya'ni, Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari tugatilib milliy nomlar bilan yangi hududlardagi Kremlga bo'ysunuvchi respublikalar tashkil qilindi. Shu tarzda 1920 yildan Buxoro va Xorazm respublikasidagi jadidlar o'rtasidagi sovetlar siyosati bois boshlangan ayrim kelishmovchiliklar jadidlar o'rtasida ziddiyatlarni ham keltirib chiqardi. Ayrim jadidlar (masalan Buxoroda Fayzulla Xo'jayev va boshqalar sovetlarning milliy respublikalar rahbariyatida xalq manfaatlari uchun xizmat qilishdi. Fitrat va Xorazmlik Bekjon Rahmon singarilar esa ilmu fan bilan shug'ullanishdi. Bobooxun Salimov. Polvonniyozhoji Yusupov kabi Xorazmlik jadidlar bo'lsa siyosatdan chekinib agrar, muzey sohalarida faoliyat olib borishdi. Ammo qaysi yo'ldan borishidan qa'tiy nazar, Buxoro va Xorazm jadidlari doimo sovet mafkurasi, harbiy siyosiy idoralari tomonidan doimo bosim va kuzatuv, nazorat ostida bo'ldilar va 1937-38 yillardagi "Katta terror"davri qurbonlari bo'lishdi. Ammo jadidlar harakati xalq hayotida keskin islohotlar o'tkazgan, monarxiyani tugatgan fenomenal davr sifatida tarixning yorqin sahifalari bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Sayyora Samandar, U.Bekmuhammad "Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta'lim va adabiyot", "MILLENIUMUS PRINT" nashriyoti ,Urganch- 2024 yil, 67-bet.

2. Tohir Qahhor "Ismoilbek G'asprali va uning Turkiston sayohatlari", "Jahon adabiyoti" jurnali -2010 yil oktabr.

3. Begali Qosimov, "Milliy uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent-2002 yil,. 162-163-betlar.

4. Begali Qosimov "Milliy uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent-2002 yil, 4-bet.

5. Qahramon Rajabov "Amir Abdulahadxon yoxud "ojiz" hukmdor "."Buxoro mavjlari", Buxoro-2007 yil, № 2,36-bet.

6. Dilnoza Jamolova "Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (19 asr oxiri-20 asr boshlari). "Muharrir" nashriyoti, Toshkent-2021 yil, 41, 42 betlar).

7. Dilnoza Jamolova "Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (19 asr oxiri-20 asr boshlari). "Muharrir" nashriyoti, Toshkent-2021 yil, 44- bet.

8. Dilnoza Jamolova "Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (19 asr oxiri-20 asr boshlari). "Muharrir" nashriyoti, Toshkent-2021 yil, 44- bet.

9. Umnyakov I.K.“K istorii novometodnoy shkolы v Buxare (Byulleten Sredne-Aziatskogo Gosudarstvennogo Universiteta-Vыpusk 16.-Tashkent, 1927.-S-81.

10. Dilnoza Jamolova “Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (19 asr oxiri-20 asr boshlari). “Muharrir” nashriyoti, Toshkent-2021 yil, 45-46 betlar.

11.U.Bekmuhammad “Buxoro va Xorazmda jadidlar harakati: o‘xshash jihatlari, farqli tomonlarining qiyosiy tahlili”, “Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi”, Xiva- 2026 yil, № 8.

12. S.Samandar, U.Bekmuhammad “Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi”, "MILLENIUMUS PRINT” nashriyoti ,Urganch-2024 yil, 185-bet.

13.U.Bekmuhammad “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, "MILLENIUMUS PRINT” nashriyoti ,Urganch-2024 yil, 230-bet.

14. Otamurod Qo‘shjonov va Ne’matjon Polvonov “Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar”, “ABU MATBUOT-KONSALT” MCHJ nashriyoti, Toshkent-2007yil, 47-bet.

15. Zaynobiddin Abdurashidov “TARJIMON (1883-1917) GAZETASIDAGI TURKISTON MATERIALLARINING IZOHLI BIBLIOGRAFIYASI”, 2012, Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi.

16.U.Bekmuhammad, Sayyora Samandar “Xorazm matbaachiligi va matbuoti tarixi”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2025 yil, 58-bet.

17.S.Samandar, U.Bekmuhammad “Jadid ma’rifatparvari va matbaachilik asoschisi”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2025 yil, 14-bet.

18. Polvonniyozhoji Yusupov “Yosh xivaliklar tarixi”, “Xorazm”nashriyoti, Urganch-1999 yil, 60, 76, 77-betlar.

XIX ASRDA XIVA XONLIGIDA TURKMAN QABILALARINING JOYLASHUVI VA YER MUNOSABATLARI: XIVA XONLARI ARXIVI MATERIALLARI ASOSIDA

Sapayeva Yulduz Xudayorovna,
sternyulduz@gmail.com
ORCID 0009-0002-7260-1561

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrda Xiva xonligi hududida yashagan turkman qabilalarining hududiy joylashuvi, yer bilan ta’minlanishi, urug‘-qabila tuzilmasi va davlat ma’muriyati bilan munosabatlari Xiva xonlari arxivi hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy manba bazasini №5, №18, №24, №26 va №98-daftarlardagi yer taqsimoti, nukerlar ro‘yxatlari hamda turkman qabilalariga oid ma’lumotlar tashkil etadi. Arxiv materiallari sakar, salor, igdir, tivedji, ali-ili va goklen kabi qabilalarning joylashuvi, yer bilan ta’minlanishi va ichki tuzilmasi haqida muhim ma’lumot beradi. Yer taqsimoti aholini joylashtirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish va nukerlik majburiyatlarini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, ali-ili va goklenlar misolida turkmanlarning ko‘chishi hamda «yangi kelganlar» va «qadimdan kelganlar» sifatida hisobga olingani Xiva xonligining joylashtirish siyosatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Xiva xonligi, turkmanlar, sakar, goklen, ali-ili, salor, igdir, tivedji, imreli, yer munosabatlari, tanob, nuker, urug‘, qabila, yer taqsimoti, Toshovuz, Qandum-qal’a, Qiziltakir, Xiva xonlari arxivi.*

Аннотация. *В статье на основе документов Архива хивинских ханов анализируются территориальное расселение, обеспечение землёй, родоплеменная структура туркменского населения Хивинского ханства XIX века, а также его взаимоотношения с государственной администрацией. Основу источниковой базы исследования составляют сведения из дафтаров №5, №18, №24, №26 и*

№98, содержащих данные о распределении земель, списках нукеров и родоплеменном составе туркмен. Архивные материалы дают важные сведения о расселении, землепользовании и внутренней структуре таких туркменских племён, как сакар, салор, игдыр, тиведжи, али-или и гоклен. Распределение земель было связано с размещением населения, освоением новых земель и регулированием нукерских обязанностей. Особенно важное значение для изучения политики Хивинского ханства в сфере расселения имеют сведения о перемещении племён али-или и гоклен, а также их учёте как «вновь прибывших» и «давно пришедших».

***Ключевые слова**: Хивинское ханство, туркмены, сакар, гоклен, али-или, салор, игдыр, тиведжи, имрели, земельные отношения, танап, нукер, род, племя, распределение земель, Ташауз, Кандум-кала, Кызылтакыр, Архив хивинских ханов.*

***Abstract.** This article analyzes the territorial settlement, land provision, tribal structure, and relations with the state administration of the Turkmen population living in the Khiva Khanate in the nineteenth century, based on documents from the Archive of the Khiva Khans. The main source base of the study consists of information from daftars No. 5, 18, 24, 26, and 98, which contain records on land distribution, lists of nukers, and the tribal composition of the Turkmen population.*

The archival materials provide important information on the settlement, land use, and internal structure of such Turkmen tribes as the Sakar, Salor, Igdir, Tivedji, Ali-ili, and Goklen. Land distribution was closely connected with population settlement, the development of newly cultivated lands, and the regulation of nuker obligations. In particular, information on the migration of the Ali-ili and Goklen tribes, as well as their classification as "newly arrived" and "long-established" groups, is of particular importance for studying the settlement policies of the Khiva Khanate.

***Keywords**: Khiva Khanate, Turkmen, Sakar, Goklen, Ali-ili, Salor, Igdir, Tivedji, Imrali, land relations, tanap, nuker, clan, tribe, land distribution, Tashauz, Kandym-Kala, Kyzyl-Takyr, Archive of the Khiva Khans.*

Kirish. XIX asr Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar jadal kechgan davrlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonlarda Xiva xonligi alohida o‘rin egallagan. Xonlik nafaqat Amudaryoning quyi oqimidagi o‘troq dehqonchilik hududlarini, balki uning atrofidagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashaydigan keng hududlarni ham o‘z siyosiy va iqtisodiy ta’siri doirasida ushlab turgan.

Turkman qabilalari Xiva xonligining siyosiy, harbiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli Xiva davlatining turkmanlar bilan munosabatlarini o‘rganish xonlikning ichki siyosiy tuzilishi, yer-suv munosabatlari, harbiy majburiyatlar va ko‘chirish siyosatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalani o‘rganishda Xiva xonlari arxivi nihoyatda qimmatli manba hisoblanadi. P. P. Ivanov tomonidan aniqlangan Xiva xonlari arxivi XIX asr Markaziy Osiyosining ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganish uchun muhim manba sifatida baholangan. Ivanovning tadqiqotida arxiv hujjatlarining mazmuni, yer egaligi, sug‘orish, soliqlar, nukerlar va davlat boshqaruviga oid ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Arxivning turkmanlarga oid hujjatlari maxsus ahamiyatga ega. Mazkur hujjatlar to‘plamining so‘zboshisida Ivanov tomonidan aniqlangan 137 ta arxiv hujjatining 50 tasi turkmanlarga u yoki bu darajada daxldor ekani, boshqa fondlardan aniqlangan materiallar bilan birga turkmanlar tarixiga oid hujjatlar soni yanada ko‘payishi qayd etilgan. Hujjatlarning asosiy qismi daftarlar va nukerlarni hisobga olish ro‘yxatlaridan iborat bo‘lgan.

Manbashunoslik va tadqiqot metodologiyasi. Xiva xonlari arxivi XIX asr Xiva xonligi tarixini o‘rganishda eng muhim yozma manbalardan biridir. Arxiv materiallari XIX asrda Xiva davlatining ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga oid turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

P. P. Ivanov arxivni ilmiy muomalaga kiritgan asosiy tadqiqotchilardan biri bo‘lib, uning «Arxiv xivinskix xanov XIX v.» asari 1940 yilda Leningradda nashr etilgan. Asar 290 sahifadan iborat bo‘lib, unda arxivning tarixiy ahamiyati, Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, yer egaligi va sug‘orish tizimi, soliqlar, nukerlar va harbiy masalalar bo‘yicha alohida bo‘limlar berilgan. Mazkur arxiv materiallarini keyingi davrda M. Yu. Yuldashev va boshqa tadqiqotchilar ham o‘rgangan. Yuldashevning Xivadagi yer egaligi va davlat tuzilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlari arxiv hujjatlaridan ijtimoiy-iqtisodiy tarix uchun keng foydalangan. Xiva xonlari arxivining taqdiri ham manbashunoslik nuqtai nazaridan muhim. Arxiv materiallarining bir qismi 1873 yilgi Rossiya harbiy yurishi natijasida Xivadan olib ketilgan. Keyinchalik arxiv hujjatlarining ayrim qismlari boshqa sharqshunoslik muassasalarida ham aniqlangan. Tadqiqotda asosan tarixiy-qiyosiy, statistik va prosopografik usullardan foydalanildi. Arxivdagi ismlar, urug‘ nomlari, yer miqdori, hududiy nomlar va ma’muriy belgilar o‘zaro qiyoslandi. Manbalarning yana bir muhim jihati shundaki, ular faqat umumiy tarixiy voqealarni emas, balki alohida

shaxslarning ismi, ularga ajratilgan yer maydoni, urug‘i, yashash joyi va ba’zan ijtimoiy maqomini ham qayd etadi. Shu sababli mazkur hujjatlar mikro-tarixiy tadqiqotlar uchun ham katta imkoniyat yaratadi.

Asosiy materiallar. Arxiv hujjatlarida turkmanlarni yer bilan ta’minlash masalasi alohida ro‘yxatlar orqali qayd etilgan. Bu ro‘yxatlarda odatda qabila yoki urug‘ nomi, masjid, qabila boshlig‘i va yer olgan shaxslar soni keltirilgan. №5-daftardagi hujjatlardan biri «Inoqbekning chovdur nukerlari»ga bag‘ishlangan. Ro‘yxatda 42 ta ism qayd etilgan. Hujjatning pastki qismida 39 nafar chovdur nukerga Bozyobning quyi qismida har bir kishiga 50 tanobdan yer ajratish haqida yozilgan.Agar 39 kishi uchun har biriga 50 tanobdan berilgani qabul qilinsa, umumiy yer miqdori 39 × 50 = 1950 tanob bo‘ladi. Bu raqam turkman nukerlarini yer bilan ta’minlash ko‘lami haqida tasavvur beradi. Bu hujjatda yer taqsimoti nukerlik maqomi bilan bevosita bog‘langani ko‘rinadi. Demak, yer davlat tomonidan turkman harbiy xizmatkorlarini rag‘batlantirish va ularni muayyan hududda mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

№24-daftarda salar qabilasiga mansub yer egalari haqida keng ma’lumotlar mavjud. Ro‘yxatlar urug‘ va masjidlar bo‘yicha tuzilgan.

Birinchi yirik ro‘yxat Taza-Honobod va Gandum-qal’a hududlarida yer olgan sakarlarga tegishli bo‘lib, unda jami 985 kishi qayd etilgan. Shulardan salarlar 44, sakarlar (dara sakarlar, kiche-sakarlar) 83,yo‘ltaklar 78, ushoq-qozon urug‘idan 43 kishi, mallachalar 43, bishkechlar 19, oyloklar 57, yuhalar 148, aynabeklar 155 va xakozo. Ko‘rinib turibdiki, sakar qabilasi yagona va bir xil ijtimoiy birlik sifatida emas, balki ko‘plab urug‘ va kichik guruhlarga bo‘lingan holda hisobga olingan.

Eng yirik guruhlardan biri Nurmuhammadbek masjidiga tegishli bo‘lib, unda 110 kishi qayd etilgan. Undan keyin Qurbonniyoz-ishon masjidi - 83 kishi, Sulaymonquli masjidi - 82 kishi va Odinaxon-yuzboshi masjidi - 78 kishi bilan ajralib turadi. Bu ma’lumotlar turkman jamiyatida urug‘-qabila tuzilmasi nafaqat ijtimoiy munosabatlarda, balki davlat hisob-kitoblarida ham asosiy birliklardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

№24-daftarning keyingi qismi Gandum-qal’ada qushbegi tomonidan yer bilan ta’minlangan sakarlarga bag‘ishlangan.Bu qismda aylak-qizan, melleche-qizan, jelleke-qizan, yultak-qizan va kyouli-myeryeli kabi guruhlar ajratilgan va ular jami 487 kishini tashkil etgan. Gandum-qal’adagi sakarlarning eng yirik guruhi jelleke-qizan bo‘lib, unda 126 kishi qayd etilgan. Shu bilan birga,

hujjatdagi ayrim arifmetik jami va tarkibiy qismlar o‘rtasida nomuvofiqliklar uchraydi. Bu holatni arxiv ro‘yxatlarining turli vaqtlarda qayta tuzilgani, ba’zi ismlarning keyinchalik qo‘shilgani yoki o‘chirilgani bilan izohlash mumkin. Shuning uchun statistik raqamlarni mutlaq emas, balki manbadagi hisob birligi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

№24-daftardagi eng muhim ma’lumotlardan biri — 17 nafar urug‘ oqsoqolining o‘z urug‘i uchun kafil bo‘lgani haqidagi yozuvdir. Ular o‘z urug‘larining hududni tark etmasligi, isyon ko‘tarmasligi, davlat hokimiyatiga bo‘ysungan holda yashashi uchun javobgarlik olganlar. Bu Xiva davlatining turkman qabilalari bilan munosabatida jamoaviy kafolat instituti mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Urug‘ oqsoqollari orasida bek, sardar, yuzboshi, oqsoqol, vakil kabi unvonlarning uchrashi turkman jamiyatida ichki ijtimoiy iyerarxiya shakllanganini ko‘rsatadi. Bu yerda davlat boshqaruvi va qabila tuzilishi bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

№18-daftarda salor, igdir va tivedji qabilalariga mansub yer egalari ro‘yxatlari saqlangan. Chorjo‘y salorlari tarkibida Yegen-mirab masjidida 8 kishi qayd etilgan. Ulardan bir kishiga 5 tanob, qolgan yetti kishiga 10 tanobdan yer berilgan. Jami $5 + (7 \times 10) = 75$ tanob. Igdir masjidida 31 kishi bo‘lgan, ammo faqat 6 kishining yer miqdori ko‘rsatilgan. Jumladan, 3 kishi — 5 tanob, 2 kishi — 10 tanob, 1 kishi — 20 tanob yerga ega bo‘lgan. Jami yer miqdori $15 + 20 + 20 = 55$ tanobga teng. Allaberdi igdir masjidida 9 kishi bo‘lib, har biri 10 tanobdan yerga ega. Jami 90 tanob.

Tivaji masjidida 82 kishi qayd etilgan. 42 kishining yer maydoni ko‘rsatilmagan. Qolgan 40 kishining yerlari esa turlicha bo‘lgan.Tivaji bo‘yicha 40 kishining hujjatda ko‘rsatilgan yer miqdori hisoblangan; 42 kishining yer maydoni ma’lum emas. Bu ma’lumotlar turkman yer egaligi bir xil standartga asoslanmaganini ko‘rsatadi. Bir kishiga 5, 10, 12,5, 20 tanob kabi turli hajmlarda yer ajratilgan.

№26-daftar ali-ili turkmanlarining ko‘chish tarixini o‘rganish uchun alohida ahamiyatga ega. 1268 yilda Qiziltakirda ali-ili qabilasiga yer berilgan. Ro‘yxat Niyozquli-yuzboshi boshchiligidagi 53 kishi bilan boshlanadi. Keyinchalik 3 kishi, 1270 yilda esa yana 11 kishi qo‘shilgan.

Ro‘yxatlarda Muhammadquli-kadxudo, Nazarboy-yuzboshi, Sari-xon, Mirzaali-kedxudo va Anna-Durdi qarqin kabi boshliqlar nomi keltirilgan.

Hujjatda jami 138 kishi degan raqam keltirilgan. Biroq bu yerda arxiv hujjatlariga xos muhim xususiyat — ro‘yxatlarning doimiy ravishda o‘zgarib borishi ko‘rinadi. Ayrim ismlar o‘chirilgan, ayrimlari keyin qo‘shilgan, ba’zi shaxslarning boshqa hududga ko‘chib ketgani belgilab qo‘yilgan. Shu sababli №26-daftarni oddiy statistik ro‘yxat emas, balki ko‘chish dinamikasini aks ettiruvchi hujjat sifatida baholash mumkin.Raqamlar ali-ililarning bir necha hudud o‘rtasida harakatlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa «qolganlar» va «kelib yer olganlar» degan ikki xil toifaning mavjudligi ko‘chish jarayonining bosqichma-bosqich kechganini ko‘rsatadi.

№26-daftarda «bir nuker», «ikki nuker» kabi belgilar ko‘p uchraydi. Ayrim hollarda ikki kishi bir nuker sifatida qayd etilgan.Bundan tashqari, ayrim shaxslarga «ikki nuker» belgisi qo‘yilgan.Bu ma’lumotlar nukerlikning oddiy shaxsiy harbiy maqomdan ko‘ra murakkabroq hisob-kitob birligi bo‘lganini ko‘rsatishi mumkin.Ya’ni davlat uchun muhim bo‘lgan narsa faqat aholining nomi emas, balki ulardan qancha harbiy xizmat birligi chiqarish mumkinligi ham bo‘lgan. Shu jihatdan yer taqsimoti va harbiy xizmat o‘rtasida bevosita aloqa mavjud bo‘lgan, deb xulosa qilish mumkin.

№26-daftarning 86b-varaqida 1268 yil jumodi I oyida, ya’ni 1852 yil mart oyida Aqtepa hududida imreli qabilasi kishilariga 45 atliq yer berilgani qayd etilgan.Bu qisqa yozuv ham muhim ahamiyatga ega. Chunki u davlat tomonidan turkmanlarni muayyan hududga joylashtirish amaliyoti faqat yirik qabilalar bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi.Imreli kabi kichikroq guruhlarning ham yer bilan ta’minlangani Xiva xonligida turkmanlarni joylashtirish siyosati ko‘p bosqichli bo‘lganidan dalolat beradi.

№98-daftar turkmanlar tarixida alohida ahamiyatga ega. Uning boshida 1276 yil zu-l-qa’da oyida, ya’ni 1860 yil may–iyun oylarida Mexter-aka tomonidan 400 nafar goklen nukerga 50 tanobdan yer berilgani qayd etilgan.

Jami 20 000 tanob miqdorida yer nazarda tutilgani anglashiladi.

Biroq daftarda keyinchalik jami 501 kishi qayd etilgan. Bu esa arxiv hujjatlarining tuzilishi va ularning vaqt davomida to‘ldirilib borilganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi arxiv ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, XIX asrda Xiva xonligida turkman qabilalarini yer bilan ta’minlash jarayoni davlatning iqtisodiy manfaatlari bilan bir qatorda ma’muriy va siyosiy maqsadlariga ham xizmat qilgan. Yer ajratishda qabila va urug‘ mansubligi,

nukerlik maqomi, qabila boshliqlarining mavqei hamda aholining muayyan hududga joylashuvi hisobga olingan. Ayniqsa, №24, №26 va №98-daftarlardagi ma’lumotlar turkmanlarning ichki urug‘-qabilaviy tuzilishi, ko‘chish jarayonlari va davlat tomonidan ularni hisobga olish mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, arxiv ro‘yxatlaridagi o‘chirishlar, keyingi qo‘shimchalar va ayrim hisob-kitoblardagi nomuvofiqliklar ularni statik statistik manba sifatida emas, balki ma’lum bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi dinamik hujjatlar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman, mazkur materiallar Xiva xonligining turkman qabilalariga nisbatan yer ajratish, joylashtirish, nukerlik va jamoaviy kafolat mexanizmlariga tayangan boshqaruv siyosatini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanov P. P. Arxiv xivinskix xanov XIX v.: issledovaniye i opisaniye dokumentov s istoricheskim vvedeniyem. Novыe istochniki dlya istorii narodov Sredney Azii. Leningrad: Gosudarstvennaya publichnaya biblioteka im. M. Ye. Saltыkova-Щedrina, 1940. 290 s.

2. Ivanov P. P. Arxiv xivinskix xanov. Novыe istochniki dlya istorii Sredney Azii XIX v. // Zapiski Instituta vostokovedeniya Akademii nauk SSSR. T. VII. Leningrad, 1939. S. 5–26.

3. Dokumentы po istorii turkmen iz arxiva xivinskix xanov. Predisloviye i dokumentalnыe materialы.

4. Yuldashev M. Yu. Novыe arxivnыe istochniki po istorii Sredney Azii. // Kratkiye soobщeniya Instituta vostokovedeniya. Vып. 1. Moskva, 1951. S. 35–41. N Nauka Turkmenistana

5. Yuldashev M. Yu. Zemlevladeniye i gosudarstvennoye ustroystvo feodalnoy Xivы XIX veka v svete materialov arxiva xivinskix xanov. Leningrad, 1953. Dissertatsiya. V

6. Yuldashev M. Yu. K istorii krestyanskogo zemlevladeniya v Sredney Azii. // Obщestvennыe nauki v Uzbekistane. №7. 1964. Bregel Yu. E. Dokumentы arxiva xivinskix xanov po istorii i etnografii karakalpakov. Moskva: Nauka, 1967.

7. Bregel Yu. E. Arxiv xivinskix xanov: predvaritelnыy obzor novыx dokumentov. // Narodы Azii i Afriki. 1966. №1. N Nauka Turkmenistana

8. Troitskaya A. L. Zemelno-vodnaya politika xivinskix xanov 1850, 1857 gg. (Zagraditelnыe plotinы na pritoke Amu-Dari). // Sbornik Gosudarstvennoy publichnoy biblioteki im. M. Ye. Saltыkova-Щedrina. Vып. II. Leningrad, 1954. S. 75–88. V

9. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk. — turkman urug‘-qabilalarining kelib chiqishi va genealogik tuzilishi bo‘yicha muhim yozma manba.

10. Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyoz ud-davla va Xiva xonligi tarixiga oid boshqa tarixiy asarlar.

11. Bayoniy M. Yu. Shajarai Xorazmshohiy. — XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Xorazm tarixini o‘rganish uchun muhim manbalardan biri.

12. XIX asr Xiva davlat hujjatlari. II jild. Toshkent, 1960.

13. Ivanov P. P. Materialы po istorii Sredney Azii. Po povodu otkrытiya arxiva xivinskix xanov. // Istorik-marksist. 1937. №3.

14. Shkapskiy O. A. Amu-Darinskiye ocherki. K agrarnomu voprosu na nijney Amu-Darye. Tashkent, 1900.

1920-1930 YILLARDA SOVET HOKIMIYATINING O‘ZBEKISTON SSR TA’LIM MUASSASALARIDA AMALGA OSHIRGAN “TOZALOV” SIYOSATI

Marupov Sherzod,
Andijon davlat universiteti tadqiotchisi

UO‘K 9(575.1)

Maqolada sovet hokimiyatining 1920-1930 yillarda O‘zbekiston SSR ta’lim tizimida amalga oshirgan “tozalov” siyosati va uning ayanchli oqibatlari tarixi birlamchi manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *“tozalov”, qatag‘on, bolsheviklar, ta’lim tizimi institut, universitet, talaba, kurs, professor-o‘qituvchi, chetlatish.*

В статье на основе первичных источников освещается история политики «чистки», проводившейся советской властью в системе образования Узбекской ССР в 1920–1930-е годы, а также её трагические последствия.

Ключевые слова: *«чистка», репрессии, большевики, система образования, институт, университет, студент, курс, профессорско-преподавательский состав, отстранение.*

The article examines the history of the “purge” policy implemented by the Soviet government in the higher education system of the Uzbek SSR in the 1920s and 1930s, as well as its tragic consequences, based on primary sources.

Key words: *“purge,” repression, Bolsheviks, education system, institute, university, student, course, teaching staff, dismissal.*

XX asrning 20-30-yillarida O‘zbekistonda sovet totalitar tartibotining mustahkamlanishi jarayonida amalga oshirgan qatag‘on siyosati nafaqat hukumat idoralarida balki ta’lim tizimida ham amalga oshrilgan edi. Bu ayniqsa o‘rta maktab bilan bir qatorda, o‘rta maxsus bilim yurtlari hamda oliy ta’lim sohasidagi professor-o‘qituvchilar hamda talabalarni ham chetlab o‘tmadi. Sovet hokimiyati oliy ta’lim tizimida dastavvalida 1918 yil 21 aprelda Toshkent shahrida ochilgan Turkiston xalq universiteti faoliyati, uning rahbariyati hamda

professor-o‘qituvchilari tarkibini “yot unsurlar”dan tashkil topgan, deb shu yilning kuzidayoq yopib qo‘ydi.

1918 yil kuzida Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan Turkiston xalq universiteti rahbariyati hamda professor-o‘qituvchilari tarkibida “tozalov” o‘tkazildi hamda uning tarkibi “yot unsurlardan tozalanib”, tuzilishi ham qayta ko‘rib chiqilgan, ko‘plab professor-o‘qituvchilari universitet faoliyatidan chetlatilgan edi [1.6-7]. Undan so‘ng ushbu universitetning talaba hamda professor-o‘qituvchilari jamoasi 1919 yil yanvar oyidagi Osipov isyonidan so‘ng yana bir bor kommunistik partiya vakillari tashabbusida “tozalovdan” o‘tkazilib ko‘plab yoshlar talabalar safidan chiqarildi, shu bilan birga bu isyonga xayrixoh deya universitetning ko‘plab professor-o‘qituvchilari ham “yot unsurlar” sifatida universitetdan chetlatildilar [2.35].

1920-yillarda sovet hokimiyati oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashdan ko‘zlagan maqsadi nafaqat xalq xo‘jaligi va madaniyatning turli sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirish, balki o‘zlarining sotsialistik tuzumi, kommunistik partiya ishiga sodiq bo‘lgan, o‘z mafkura va g‘oyalariga sodiq bo‘lgan kadrlarni tayyorlab chiqarishi kerak edi. Bu borada ijtimoiy hayotda o‘zgacha fikrlashga bo‘lgan har qanday urinish “sinfiy dushman qarshiligi” deb baholangandi. Go‘yo “sinfiy dushman” ta’limda, fanda, adabiyot va san’atda, ishlab chiqarishda mavjud bo‘lib, uni qidirib topish, barchani shubha ostiga olish, qatag‘on domiga tortish birlamchi vazifaga aylangan edi.

1922 yildan sovet hokimiyatining jazolovchi idorasi bo‘lmish GPU boshqarmasida ziyolilar faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha alohida bo‘lim faoliyat boshlagan edi. Bo‘lim barcha sohalarda hamda hokimiyat bo‘g‘inlarida, ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan ziyolilar to‘g‘risida ma’lumot to‘plardi [3.20-21]. Shunday qilib, sovet hokimiyati jamiyatning ilg‘or qatlami bo‘lgan ziyolilarni faoliyatini ham nazoratga olgan edi. Shu davrdan Turkistonda taraqqiyparvarlar va jadidchilik ruhida tarbiyalangan ziyolilar, jumladan, oliy ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog xodimlar ta’qib ostiga olina boshlandi. Ularning ma’ruzalari, nashr ettirgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-tadqiqot ishlari sinchkovlik bilan kuzatildi.

Sovet hokimiyatining ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli aholining “mehnatkash” tabaqalaridan chiqqan aholi vakillarini tarbiyalash, ularni joy-joyiga qo‘yish va o‘stirish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. “Madaniy inqilob” “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyati”ni vujudga keltirishidan iborat edi. Kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va

ma’lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi. VKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosi raisi I.A.Zelenskiy xalq ta’limi bo‘yicha 1928 yilda o‘tkazilgan O‘rta Osiyo kengashida pedagogika texnikumida tahsil olayotgan talabalar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Biz madaniy sohada ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan quyidagi shaxslarni tayyorladik: yirik savdogarlarning farzandlari 37 foiz, mayda va o‘rta savdogarlarning farzandlari 27 foiz, qishloq boylari farzandlari 18 foiz, dehqon farzandlari 9 foiz, hunarmandlar farzandlari 9 foiz [4.12]. O‘rta Osiyo byurosi raisi Respublika xalq ta’limi va madaniyat sohalarida tayyorlangan mutaxassislarning ko‘pchiligi “begonalar”, ya’ni ijtimoiy yot unsurlardan iborat bo‘lib qolganligini keskin tanqid ostiga olgandi. Bu tabiiyki, ogohlantiruvchi ishora bo‘lib, maorif tizimida “tozalash”ga da’vat edi.

1920-yillarning boshlaridan oliy o‘quv yurtlari talabalarining “siyosiy sofligi”ni aniqlovchi “Oliy o‘quv yurtlarini tozalash bo‘yicha markaziy komissiya” faoliyat ko‘rsatgan. Har bir oliy o‘quv yurtida mazkur komissiyaning organlari bo‘lib, ushbu organlar talabalar qo‘mitasi (studkom) deb atalgan. Sovet hokimiyati talablariga javob bermaydigan, mulkdor sinfga taalluqli bo‘lgan talabalarni “fosh” qilish va ularni oliy o‘quv yurtlaridan chetlashtirish ushbu qo‘mitaga yuklatilgan.

Proletarlashtirish ishiga sovetlar jon-jahdi bilan kirishib ketdiki, ijtimoiy kelib chiqishi shubha ostiga olinganlarga nisbatan qat’iy choralar qo‘llana boshlandi. O‘rta Osiyo byurosi qarorlaridan birida ham “o‘zining ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishini yashirgan talabalarni oliy o‘quv yurtlaridan chetlashtirish” alohida ta’kidlangan edi [5.4].

XX asrning 20-30 yillarida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan “tozalov” tadbirlari natijasida Abdurauf Fitrat, Qayum Ramazon, G‘ozi Olim Yunusovlar Toshkent davlat pedagogika institutidan, Otajonov Farg‘ona pedagogika institutidan, Po‘lat Soliyev, Cho‘pon Zoda, Raximov, Burnashev, Fayzullayevlar O‘zbek davlat universitetidan, Miyon Buzrukov Buxoro pedagogika institutidan “xalq dushmani”, “trotskiychilar”, “burjua millatchilari” degan ayblovlar bilan ta’limdan chetlashtirilgan edi [6.128].

Sovet hukumati ta’limni proletarlashtirishga katta “mas’uliyat” bilan yondashgan. Oliy o‘quv yurtlari, ishchi fakulteti, kasb-hunar bilim yurtlaridagi talabalarni tekshirish va “tozalash” haqida maxsus ko‘rsatma berilib, unda talabalar safidan o‘zining ijtimoiy kelib chiqishini yashirganlar, sovet hokimiyatiga dushman sinfga taalluqli bo‘lganlar va ota-onalari boy oilalar bilan

moddiy va mafkuraviy aloqada bo‘lganlar, sovet jamoatchiligiga yot mafkurani targ‘ib qilayotganlar, kelib chiqishidan qat’iy nazar sovetlarga qarshi dushmanlik mafkurasini, millatchilik harakatlarini olib borayotganlar chiqariladigan bo‘ldi [7.3].

1930-yil 17-oktyabrdagi O‘zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot instituti partiya yacheykasi byurosi majlisining 12-sonli bayonnomasida professor N. Polivonov, A. Fitrat, V. Vyatkin va ilmiy xodim M. Yunusovlarning ishi ko‘rib chiqilgan. Yig‘ilishda ularni millatchilik-panturkizm partiyasining rahnamolari, mahalliy aholi orasida inqilobiy harakatni bo‘g‘uvchilar deya ayblangan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Afandi Zoda, Xo‘jayevlar, Laziz Zoda va boshqa millatchi guruhlarning maslakdoshlari deya ayb qo‘yilgan.

Yig‘ilish qarorda professor N. Polivonov o‘z ishida tilni o‘rganish bo‘yicha Hind-Evropa maktabini, marksizmga yaqin yangi til o‘rganish nazariyasi sifatida dars olib boruvchi birinchi professor bo‘lsa-da, o‘zi bu g‘oyalarga qarshi. Professor A. Fitrat — ashaddiy millatchi, marksistik adabiyotshunoslikning zamonaviy muammolaridan yiroq, shuning uchun u aspirantlarni milliy ruhda tarbiyalab, faqat ularni buzishi mumkin. Professor V. Vyatkin institut uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, ishga qiziqmaydi, mafkuraviy jihatdan begonadir. Arxeologiyani o‘rganishda o‘sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini asos qilib olmaydi. Yuqorida bayon etilgan sabablarga ko‘ra, yacheyka byurosi ushbu xodimlarni institutda rahbar lavozimlarda qoldirishni mumkin emas deb hisoblaydi va partiya bo‘limi orqali direktordan ularni zudlik bilan almashtirishni so‘raydi, deyiladi [8.23].

Ushbu yig‘ilish qarorida, shuningdek, partiya a’zolari — professorlar, dotsentlar va assistentlarning har biri o‘z fani doirasiga yopishib olib, oliy o‘quv yurtining akademik hayotidagi qator mafkuraviy da’vatlarga mutlaqo munosabat bildirmasliklari va bu holatda partiya yacheykasining hech qanday munosabat bildirmaganligi ham butunlay g‘ayritabiiy holdek ko‘rinadi, deyiladi.

Bularning barchasi, birgalikda, masalan, adabiyot bo‘limidagi talabalarning bir qismi, jumladan, komsomolchilar qizg‘in bahs-munozaralarda Batun va boshqalarni haqiqiy proletar yozuvchilar deb hisoblovchi nuqtai nazarni ilgari surishlariga olib keldi; adabiyot bo‘limi professorlaridan biri professor Saadi o‘quv rejasining asosiy metodologik asosi sifatida O‘quv Kengashi majlisida dehqon adabiyotiga yo‘naltirilganlikni ilgari suradi; adabiyot bo‘limi talabasi Zufarov ochiq partiya majlisida chiqish qilib, 1930 yilgi 16-syezd qarorini «utopiya» deb ataydi va kapitalistik qurshov sharoitida sotsializm

qurishning mumkin emasligiga ishora qiladi; paxta terimi davrida talaba qiz Taxtamisheva proletar mafkurasiga dushman bo‘lgan qarashlar, mahalliy millat vakillariga, Qizil Armiya askarlariga nisbatan mensimaslik munosabati va boshqalarni namoyon qiladi, deb institut faoliyati va unda faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar faoliyati sinfiylik nuqtai nazaridan qattiq tanqid ostiga olinadi.

Ana shu turli yo‘llar va turli shakllarda proletariatga dushman bo‘lgan, sinfiy kurash, antisemitizm, shovinizm, ideologizm va boshqalarni aks ettiruvchi tendensiyalar akademiya devorlari ichida o‘z o‘rnini topdi [9.48].

1937-yil oktabr oyida O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasi MK taftish komissiyasi O‘rta Osiyo Davlat universitetining boshlang‘ich partiya qo‘mitasi faoliyatini o‘rganib, ishchilar fakulteti va uning faoliyatini o‘rganib, uni uzoq vaqt davomida, 1937-yil oktabrigacha burjua millatchilari Qutbiddinov (o‘quv bo‘limi mudiri) va Nishonboyev (kutubxona mudiri), rus tili o‘qituvchisi Fayzulina ishlagani, u NKVD organlari tomonidan hibsga olingan va hibsdan keyin ishdan bo‘shatilgan. Usmonova — burjua millatchisining xotini, NKVD organlari tomonidan hibsga olingan. Hozirgacha ishlab turganlar deya — Saydalim — fizika o‘qituvchisi, xalq dushmani Xo‘janovning qarindoshi, otasi burjua millatchisi otib tashlangan, o‘zi ma’muriy surgunda bo‘lgan. Sagirov — geografiya o‘qituvchisi, shu yilning noyabridagi darslaridan birida talabalarning savoliga, go‘yoki Lenin va Stalin sovet iqtisodiyoti nazariyasini yaratmagan, deb javob bergan. Pilyarevskiy — rus tili o‘qituvchisi, shuningdek, o‘quv bo‘limi kotibi, 1933-yilda ishchilar fakultetidan shovinizm, sovet hokimiyatiga qarshi targ‘iboti uchun haydalgan edi. Ishchilar fakulteti o‘quv bo‘limi mudiri Zufarova sovet hokimiyatiga qarshi burjuaziyacha g‘oyalarni targ‘ib qilganlikda, trotskiy-zinovyevchilar to‘dasi ustidan sud jarayonlari paytida xalq dushmanlariga (Kamenev, Zinovyev, Trotskiyga) hamdardlik bildirgan, deya ayblangan. Tojik tili o‘qituvchisi Abdulla-Zodani esa xalq dushmani, burjua millatchisining ukasi. Matematika o‘qituvchisi Qodirovni Qosimovchilik davrida hukm qilingan taniqli burjua millatchisining ukasi, deya ayblangan edilar [10.117].

Biz yuqorida qayd etgan o‘qituvchi Plishevskayani 1934–1935-o‘quv yillarda o‘quv bo‘limi mudiri lavozimidan shovinizm uchun olib tashlangan va qaytadan o‘qituvchilik ishiga taklif qilingan edi, yana millatchilikda ayblab ishdan bo‘shatilgan edi [11.117].

Oliy ta’lim tizimida sovet hokimiyati o‘z mafkurasini mustahkamlash va bu tizimga sovet tuzumi uchun yot bo‘lgan boshqa sinf vakillarini kirib qolishini oldini olish masalariga bag‘ishlangan yana bir yig‘ilish 1937 yil 4-5 iyul kunlari O‘zbekiston SSR KP Markaziy Komiteti huzurida oliy o‘quv yurtlari partiya qo‘mitalari kotiblari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda respublikaning oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy va madaniy-ommaviy ishlarning ahvoli, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari hamda talabalari orasida o‘tkazilgan “tozalov”lardan so‘ng siyosiy-tarbiyaviy ishlar sezilarli darajada yaxshilangani qayd etiladi. Ya’ni sovet hokimiyati uchun yot bo‘lgan mafkura va qarashlarga ega shaxslardan oliy o‘quv yurtlari tozalanganini qayd etadi [12.1].

Xullas, sovet hokimiyati 1920-1930 yillarda O‘zbekiston SSR oliy talim dargohlarida talabalar hamda professor-o‘qituvchilar tarkibini sinchkovlik bilan o‘rganib, o‘z mafkurasiga mos kelmovchi talaba va xodimlarni, sotsialistik jamiyat uchun yot bo‘lgan sinf vakillarini o‘tkazilgan “tozalov” siyosatlari natijasida oliy ta’limdan chetlatish amaliyotini qo‘llagan edi. Bu bilan sovet tuzumi o‘zi uchun yot bo‘lgan boshqa sinf vakillari bo‘lmish talabalarni oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish huquqidan, dars berayotgan professor-o‘qituvchilarni o‘zga sinf vakili deya ta’lim berish, mehnat qilish huquqlaridan mahrum qildi.

Adabiyotlar:

1. XX let SAGU. –Toshkent, 1940.
2. Partiynaya organizatsiya Tashkentskogo gosudarstvennogo universiteta im. V.I.Lenina. –Tashkent: O‘zbekistan, 1990.
3. Mchelin L. KGB. Predsedateli organov gosudarstvennoy bezopasnosti: rassekrechennыe sudbы. — M.: Sentrpoligraf, 2001
4. Zelenskiy I. V borbe za kulturu // «Za partiyu». — 1928. — № 7.
5. O‘z MA, R-36-fond, 3-ro‘yxat, 11-ish.
6. Tursunova Y.B. Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ta’lim siyosati (1918-1941-yillar): Tarix fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.
7. O‘z MA, R-34-fond,1-ro‘yxat, 14-ish.
8. O‘z R PAA, 58-fond, 218-ro‘yxat, 390-ish.
9. O‘z R PAA, 58-fond, 218-ro‘yxat, 390-ish.
10. O‘z R PAA, 58-fond, 12-ro‘yxat, 1323-ish.
11. O‘z R PAA, 58-fonl, 12-ro‘yxat, 1323-ish.
12. O‘z MA, R-368-fond, 3-ro‘yxat, 11-ish.

XORAZM VOHASIDA ETNOMADANIY JARAYONLARNING TARIXI (1900-1920 yy)

Abdullayev Jasurbek Rahimboy o‘g‘li,
UrDPI Tarix kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
ORCID 0009-0000-2897-1683
abdullayevjasurbek1992@gmail.com

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr davomida Xorazm vohasida yuz bergan etnomadaniy o‘zgarishlarning tarixiy omillari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xiva xonligining tugatilishi, 1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davri, O‘zbekiston SSR tarkibida sovet siyosiy-ma’muriy tizimining qaror topishi, milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish, paxtachilikning ustuvor yo‘nalishga aylanishi, ta’lim va madaniyat tizimining qayta tashkil etilishi, diniy institutlarning cheklanishi, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining voha etnomadaniy muhitiga ta’siri o‘rganiladi. Xorazm vohasi tarixan o‘troq dehqonchilik, chorvachilik va turli etnik guruhlar o‘zaro aloqasi shakllangan makon bo‘lganligi sababli, XX asrdagi siyosiy-iqtisodiy transformatsiyalar uning etnomadaniy tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet modernizatsiyasi bir tomondan savodxonlik, yangi ta’lim tizimi, professional madaniyat va urbanizatsiyaning rivojlanishini jadallashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan an’anaviy ijtimoiy institutlar, diniy-ma’rifiy muhit va xo‘jalik-madaniy hayotning tarixiy shakllarini keskin o‘zgartirgan. Shu bilan birga, Xorazmning tarixiy-madaniy xususiyatlari yangi siyosiy sharoitda ham etnomadaniy davomiylikni ta’minlagan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm vohasi, etnomadaniy jarayon, etnik tarkib, madaniy transformatsiya, sovetlashtirish, kollektivlashtirish, milliy-hududiy chegaralanish, urbanizatsiya, migratsiya, ta’lim, diniy institutlar, milliy madaniyat, tarixiy xotira.*

Аннотация. *В данной статье комплексно анализируются исторические факторы*

этнокультурных изменений, произошедших в Хорезмском оазисе на протяжении XX века. В исследовании рассматриваются ликвидация Хивинского ханства, период Хорезмской Народной Советской Республики 1920–1924 годов, становление советской политико-административной системы в составе Узбекской ССР, национально-территориальное размежевание, коллективизация, превращение хлопководства в приоритетное направление, реорганизация системы образования и культуры, ограничение религиозных институтов, а также влияние процессов урбанизации и миграции на этнокультурную среду оазиса. Поскольку Хорезмский оазис исторически представлял собой пространство оседлого земледелия, скотоводства и взаимодействия различных этнических групп, политико-экономические трансформации XX века оказали непосредственное влияние на его этнокультурный состав. Результаты исследования показывают, что советская модернизация, с одной стороны, ускорила рост грамотности, развитие новой системы образования, профессиональной культуры и урбанизации, а с другой резко изменила исторические формы традиционных социальных институтов, религиозно-просветительской среды и хозяйственно-культурной жизни. Вместе с тем историко-культурные особенности Хорезма обеспечили этнокультурную преемственность и в новых политических условиях.

Ключевые слова: *Хорезмский оазис, этнокультурный процесс, этнический состав, культурная трансформация, советизация, коллективизация, национально-территориальное размежевание, урбанизация, миграция, образование, религиозные институты, национальная культура, историческая память.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the historical factors behind the ethnocultural changes that took place in the Khorezm oasis during the twentieth century. The study examines the abolition of the Khiva Khanate, the period of the Khorezm People's Soviet Republic (1920–1924), the establishment of the Soviet political-administrative system within the Uzbek SSR, national-territorial delimitation, collectivization, the transformation of cotton growing into a priority sector, the reorganization of the education and culture system, the restriction of religious institutions, and the impact of urbanization and migration processes on the oasis's ethnocultural environment. Since the Khorezm oasis has historically been a space of settled agriculture, animal husbandry, and interaction among various ethnic groups, the political and economic transformations of the twentieth century directly affected its ethnocultural composition. The research findings show that, on the one hand,*

Soviet modernization accelerated the growth of literacy, a new education system, professional culture, and urbanization, while, on the other hand, it sharply altered the historical forms of traditional social institutions, the religious-educational environment, and economic-cultural life. At the same time, Khorezm's historical and cultural characteristics ensured ethnocultural continuity even under the new political conditions.

Keywords: *Khorezm oasis, ethnocultural process, ethnic composition, cultural transformation, Sovietization, collectivization, national-territorial delimitation, urbanization, migration, education, religious institutions, national culture, historical memory.*

KIRISH. Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lib, uning etnomadaniy taraqqiyoti uzoq tarixiy davrlar davomida turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan. Vohaning geografik joylashuvi, Amudaryo havzasidagi sug‘orma dehqonchilik tizimi, shahar va qishloq madaniyatining o‘zaro aloqasi, shuningdek, o‘zbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa guruhlarning tarixiy munosabatlari Xorazmning o‘ziga xos etnomadaniy makon sifatida rivojlanishiga zamin yaratgan. Zamonaviy etnografik tadqiqotlarda ham Xorazm vohasi o‘troq dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlari o‘zaro tutashgan, murakkab etnogenez jarayonlari kechgan hudud sifatida baholanadi.

XX asr Xorazm tarixida tub burilishlar davri bo‘ldi. Ayniqsa, 1920-yilda Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi vohaning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi [9]. 1920–1924-yillarda Xorazmda yangi davlat boshqaruvi, ta’lim va madaniyat tizimlari shakllantirildi. Biroq mazkur jarayonlar mahalliy tarixiy an’analar bilan sovet siyosiy-mafkuraviy modeli o‘rtasidagi murakkab munosabatlar sharoitida kechdi. Tadqiqotlarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yangi tipdagi maktablar tashkil etilgani, ta’lim o‘zbek va turkman tillarida olib borilgani, savodsizlikni tugatishga e’tibor qaratilgani qayd etiladi [4].

1924-yildagi O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish Xorazmning tarixiy makoniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Xorazm SSR tugatilib, uning hududlari O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Qoraqalpog‘iston muxtor viloyati tarkibiga taqsimlandi. Shu tariqa ilgari yagona siyosiy-iqtisodiy makon sifatida mavjud bo‘lgan Xorazm hududi yangi ma’muriy chegaralar asosida qayta tashkil qilindi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Xorazm vohasidagi XX asr etnomadaniy o‘zgarishlarini faqat sovetlashtirish yoki iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari

bilan izohlash yetarli emas. Mazkur o‘zgarishlar siyosiy boshqaruv, demografik jarayonlar, xo‘jalik tizimi, ta’lim, til, din, urbanizatsiya, ayollarning ijtimoiy faollashuvi va madaniy merosga munosabat kabi ko‘plab omillarning birgalikdagi ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Maqolaning maqsadi XX asr davomida Xorazm vohasida sodir bo‘lgan etnomadaniy o‘zgarishlarning asosiy tarixiy omillarini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- XX asr boshlarida Xorazm vohasining etnomadaniy xususiyatlarini aniqlash;
- 1920-1924-yillardagi siyosiy o‘zgarishlarning etnomadaniy jarayonlarga ta’sirini ko‘rsatish;
- milliy-hududiy chegaralanishning voha etnomadaniy makoniga ta’sirini tahlil qilish;
- kollektivlashtirish va iqtisodiy siyosatning an’anaviy turmush tarziga ta’sirini aniqlash;
- ta’lim, til va madaniyat siyosatining ijtimoiy-madaniy transformatsiyadagi rolini ochib berish;
- urbanizatsiya, migratsiya va demografik jarayonlarning etnomadaniy muhitga ta’sirini baholash;
- XX asr oxiriga kelib etnomadaniy davomiylik va transformatsiyaning nisbatini aniqlash.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy va muammoviy-xronologik yondashuvlardan foydalanildi. Xorazm vohasidagi etnomadaniy o‘zgarishlar alohida hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, demografik va madaniy jarayonlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini Xorazm tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, etnografik materiallar, sovet davri tarixiga oid ilmiy ishlar, zamonaviy tarixshunoslik materiallari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi elektron bazasida joylashtirilgan dissertatsiya tadqiqotlari tashkil etadi [10]. Xususan, OAK materiallarida Xorazmda kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun jarayonlarining demografik vaziyatga ta’siri, aholining qo‘shni hududlarga ko‘chishi va ijtimoiy tuzilmaning o‘zgarishi bilan bog‘liq muhim xulosalar keltirilgan.

Tadqiqotda etnomadaniy o‘zgarish tushunchasi keng ma’noda qo‘llanib, etnik tarkib, til, diniy qarashlar, an’analar, urf-odatlar, oila va mahalla

munosabatlari, xo‘jalik faoliyati, ta’lim, madaniy institutlar hamda tarixiy xotiradagi o‘zgarishlarni qamrab oladi.

Xronologik jihatdan tadqiqot XX asr boshidan asr oxirigacha bo‘lgan davrni qamrab olsa-da, asosiy tahlil uch bosqichda olib borildi:

Birinchi bosqich – 1900-1924-yillar: an’anaviy Xorazm jamiyatining inqirozi, Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi.

Ikkinchi bosqich – 1925-1945-yillar: sovetlashtirish, kollektivlashtirish, madaniy inqilob, repressiyalar, yangi ta’lim tizimi va urush sharoitidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.

Uchinchi bosqich – 1946-1991-yillar: sovet modernizatsiyasining institutsionallashuvi, paxta xo‘jaligining kuchayishi, urbanizatsiya, migratsiya, ommaviy ta’lim va XX asr oxiridagi milliy-madaniy tiklanish jarayonlari.

Mazkur bosqichlashtirish Xorazmdagi etnomadaniy o‘zgarishlarni sabab–jarayon–natija tamoyili asosida tahlil qilish imkonini beradi.

NATIJALAR. XX asr boshlarida Xorazm vohasining etnomadaniy muhiti XX asr boshlarida Xorazm vohasi o‘ziga xos tarixiy-etnomadaniy makon edi. Vohaning ijtimoiy hayotida mahalla, qishloq jamoasi, qarindoshlik munosabatlari, diniy institutlar, hunarmandchilik va sug‘orma dehqonchilik muhim o‘rin egallagan.

Bu davrdagi etnomadaniy muhitning muhim xususiyati uning ko‘p qatlamliligida namoyon bo‘lgan. Xorazm hududida o‘zbeklar bilan bir qatorda turkman, qoraqalpoq va boshqa etnik guruhlar yashagan. Ular o‘rtasidagi xo‘jalik, savdo, nikoh va madaniy aloqalar vohaning etnomadaniy qiyofasini shakllantirgan.

Xorazm etnik tarkibini o‘rganishda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga ega [1]. Mazkur ekspeditsiya nafaqat qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini, balki voha aholisi guruhlari, ularning xo‘jalik faoliyati va turmush tarzini ham o‘rgangan.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Xorazmning etnomadaniy tuzilmasi faqat etnik mansublik bilan emas, balki hudud, xo‘jalik, qarindoshlik, diniy qarash va mahalliy jamoaviy aloqalar bilan ham belgilanardi.

Siyosiy transformatsiya va etnomadaniy muhitning qayta tashkil etilishi.

1920-yilda Xiva xonligining tugatilishi Xorazm tarixidagi eng muhim siyosiy burilishlardan biri bo‘ldi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi bilan an’anaviy davlat boshqaruvi o‘rniga yangi siyosiy institutlar joriy

qilindi. 1920-1924-yillarda besh marta Butun Xorazm xalq vakillari qurultoyi chaqirilib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, maorif, irrigatsiya va boshqa sohalar bo‘yicha qarorlar qabul qilindi [3].

Bu jarayonning etnomadaniy ahamiyati shundaki, an’anaviy jamiyat institutlari bilan yangi sovet institutlari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ldi. Yangi hukumat maktab, maorif, matbuot va madaniyatni rivojlantirishga intildi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yangi tipdagi maktablar tashkil qilinib, o‘zbek va turkman tillarida ta’lim berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Biroq siyosiy transformatsiya asta-sekin sovet mafkuraviy modelining ustunligiga olib keldi. Natijada an’anaviy diniy-ma’rifiy institutlar jamiyatdagi avvalgi mavqeini yo‘qota boshladi.

1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish esa Xorazmning tarixiy makonini ma’muriy jihatdan parchaladi. Xorazm SSR tugatilib, hududlar yangi tashkil etilgan O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Qoraqalpog‘iston muxtor viloyati tarkibiga kiritildi.

Bu holat etnomadaniy jarayonlarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, o‘zbek milliy hududining institutsional shakllanishi kuchaydi. Ikkinchi tomondan, tarixan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan Xorazm aholisi ma’muriy chegaralar bilan ajratildi.

Kollektivlashtirish va an’anaviy xo‘jalik-madaniy tizimning o‘zgarishi.

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda amalga oshirilgan kollektivlashtirish Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayotida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Xorazmda dehqonchilik qadimdan sug‘orish tizimiga asoslangan bo‘lib, yer, suv, urug‘-aymoq, qo‘shnichilik va mehnat munosabatlari nafaqat iqtisodiy, balki madaniy mazmunga ham ega edi. Yer-suv islohotlari, xo‘jaliklarni kollektivlashtirish va davlat xo‘jaliklarining tashkil etilishi natijasida an’anaviy xo‘jalik munosabatlari tubdan o‘zgardi.

1920-1924-yillardagi yer-suv islohotlari davomida yer va suv resurslarini qayta taqsimlash, vaqf mulklarini davlat nazoratiga o‘tkazish, kooperativ xo‘jaliklarni tashkil qilish kabi choralar amalga oshirilgan [2].

1930-yillarga kelib kollektivlashtirishning jadallashuvi ijtimoiy qarshiliklarni ham kuchaytirdi. OAK elektron materiallarida Xorazmda kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun qilish siyosati natijasida demografik vaziyat keskinlashgani, aholining ayrim qismlari Qoraqalpog‘iston ASSR va Turkmaniston SSR tomon ko‘chib ketgani qayd etiladi.

Demak, kollektivlashtirishni faqat iqtisodiy islohot sifatida baholash metodologik jihatdan yetarli emas. U turmush tarzi, oilaviy xo‘jalik, mahalla munosabatlari, mehnat madaniyati va demografik tarkibga ta’sir ko‘rsatgan kompleks ijtimoiy transformatsiya bo‘ldi.

Ta’lim va madaniyat siyosatining etnomadaniy o‘zgarishlardagi roli.

XX asrda Xorazmning etnomadaniy qiyofasini o‘zgartirgan eng muhim omillardan biri ta’lim tizimining qayta tashkil etilishi bo‘ldi.

An’anaviy maktab va madrasalar faoliyatining qisqarishi bilan sovet tipidagi umumta’lim maktablari, pedagogik kurslar va yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi. 1930-yillarda Xorazmda o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi [5]. Tadqiqotlarda bu davrda madaniyat va ta’limning rivojlanishi sovet mafkuraviy tizimi bilan chambarchas bog‘langanligi ko‘rsatiladi.

Ta’limning ommalashuvi savodxonlik darajasining oshishi va yangi ijtimoiy qatlam - ma’lumotli ziyolilarning shakllanishiga olib keldi. Buning natijasida Xorazm jamiyatida kasbiy, madaniy va ijtimoiy mobillik imkoniyatlari kengaydi.

Shu bilan birga, ta’lim mazmunining o‘zgarishi milliy-madaniy an’analarni uzatish mexanizmlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Avval bilim berishning muhim markazlari bo‘lgan madrasa, masjid va mahalla tizimining mavqei pasaydi; davlat maktabi esa ijtimoiylashuvning asosiy institutiga aylandi.

Bu jarayonning murakkab jihati shundan iboratki, sovet ta’lim tizimi bir vaqtning o‘zida modernizatsiya va mafkuraviy qayta tarbiyalash vazifalarini bajardi.

Din va an’anaviy institutlarning transformatsiyasi.

Xorazm vohasining tarixiy madaniyatida islom dini, masjid, madrasa, vaqf va diniy ta’lim muhim o‘rin egallagan. Sovet davrida esa diniy institutlar davlat siyosati asosida cheklab borildi.

Diniy ta’limning qisqarishi, vaqf mulklarining davlat nazoratiga olinishi va diniy amaliyotning institutsional imkoniyatlari cheklanishi natijasida an’anaviy diniy-madaniy muhit sezilarli darajada o‘zgardi.

Biroq diniy qadriyatlarning institutsional jihatdan cheklanishi ularning ijtimoiy xotiradan to‘liq yo‘qolishiga olib kelmadi. Oilaviy tarbiya, marosimlar, nikoh, dafn, sunnat, qarindoshlik va mahalla munosabatlari orqali ayrim an’analar norasmiy ravishda davom etdi.

Shu nuqtayi nazardan, XX asr Xorazm etnomadaniy tarixida “uzilish” va “davomiylik”ning parallel kechgan davri sifatida tavsiflanishi mumkin.

Urbanizatsiya, sanoatlashtirish va migratsiyaning ta’siri.

Sovet davrida Xorazm vohasida shaharlar, sanoat korxonalari, transport va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Urganch va boshqa shahar markazlarining iqtisodiy va ma’muriy ahamiyati oshib bordi.

Sanoatlashtirish bilan bog‘liq yangi kasblarning paydo bo‘lishi an’anaviy kasbiy tuzilmaning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi [8]. Hunarmandchilikning ayrim shakllari davlat korxonalari va artellar tizimiga integratsiyalashdi. Qishloq aholisi esa ta’lim, ish va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari tufayli shaharlarga tobora ko‘proq yo‘naldi [6].

Migratsiya jarayonlari ham etnomadaniy muhitni o‘zgartirdi. Kollektivlashtirish davridagi majburiy ko‘chirishlar, mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, ta’lim va ish uchun hududlararo harakatlar natijasida aholi tarkibining geografik joylashuvi o‘zgardi. Xorazmga boshqa hududlardan kelgan mutaxassislar ham yangi ijtimoiy-madaniy aloqalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Natijada XX asrning ikkinchi yarmida Xorazmning etnomadaniy muhiti avvalgi yopiqroq voha makonidan nisbatan ochiqroq, urbanizatsiyalashgan va ijtimoiy mobilligi yuqori bo‘lgan makonga aylana bordi.

Paxta xo‘jaligi va etnomadaniy muhit.

Xorazmning sovet davridagi iqtisodiy taraqqiyotini paxtachilikdan ajratib o‘rganish mumkin emas. Paxta yetishtirishning davlat iqtisodiy siyosatidagi ustuvorligi qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvini kuchaytirdi.

Bunday ixtisoslashuv Xorazmning an’anaviy xo‘jalik tizimiga ta’sir ko‘rsatdi. Dehqonchilikning tarkibi, mehnat taqsimoti, mavsumiy mehnat va qishloq aholisining iqtisodiy faoliyati o‘zgardi. Xorazmda kollektiv xo‘jaliklar tizimining qaror topishi qishloq jamoalarining an’anaviy tashkiliy shakllarini qayta qurdi. 1925-1945-yillarni qamrab olgan tadqiqotlarda kollektivlashtirish, paxtachilikning rivojlanishi, repressiyalar va urushning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga kuchli ta’siri qayd etilgan [7].

XX asrning ikkinchi yarmida paxta monokulturasi yanada kuchaydi. Bu holat mehnat madaniyati, suvdan foydalanish, ekologik sharoit va qishloq aholisining kundalik hayotiga ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, iqtisodiy siyosat etnomadaniy jarayonlardan tashqarida emas, balki uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar Xorazm vohasidagi XX asr etnomadaniy o‘zgarishlarini bir yo‘nalishli “an’anadan zamonaviylikka o‘tish” modeli orqali tushuntirish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, siyosiy omil etnomadaniy transformatsiyaning boshlang‘ich mexanizmlaridan biri bo‘ldi. 1920-yildan keyingi siyosiy tizim almashinuvi Xorazm jamiyatining boshqaruv institutlarini o‘zgartirdi. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish esa tarixiy Xorazm makonining ma’muriy bo‘linishiga olib keldi.

Ikkinchidan, iqtisodiy omil an’anaviy hayot tarzini o‘zgartirdi. Yer-suv munosabatlarining qayta tashkil etilishi, kollektivlashtirish va paxtachilikka ixtisoslashuv natijasida qishloq aholisining xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlari o‘zgardi. Yer-suv islohotlarining davlat fondi, vaqf mulklari va qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasiga ta’siri bu jarayonning muhim ko‘rinishlaridan bo‘ldi.

Uchinchidan, madaniy-ma’rifiy omil jamiyatning yangi ijtimoiy modelini shakllantirdi. Savodsizlikni tugatish, yangi maktablar tashkil etish, pedagogik kadrlar tayyorlash va madaniyat muassasalarini rivojlantirish natijasida Xorazmda yangi ziyolilar qatlami shakllandi. Shu bilan birga, ushbu modernizatsiya sovet mafkurasi bilan uyg‘unlashgan holda olib borildi.

To‘rtinchidan, demografik omil etnomadaniy o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichi bo‘ldi. Kollektivlashtirish, surgun, migratsiya, urbanizatsiya va mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi aholining hududiy joylashuvini o‘zgartirdi. OAK materiallarida kollektivlashtirish oqibatida Xorazm aholisining bir qismi qo‘shni hududlarga ko‘chib ketgani qayd etiladi.

Beshinchidan, diniy omilning o‘zgarishi alohida ahamiyatga ega. Diniy institutlarning cheklanishi natijasida madrasalar va masjidlarning jamiyatdagi institutsional roli qisqardi. Biroq diniy-madaniy qadriyatlar oilaviy va mahalliy ijtimoiy amaliyotlarda ma’lum darajada saqlanib qoldi.

Oltinchidan, etnik omilni ham alohida qayd etish lozim. Xorazm tarixan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa guruhlar o‘zaro aloqada bo‘lgan hudud hisoblanadi. Shu sababli milliy-hududiy chegaralanish va yangi respublika chegaralarining o‘rnatilishi etnik munosabatlarning siyosiy-administrativ shakliga ta’sir ko‘rsatdi.

Yuqoridagi omillarni umumlashtirganda, Xorazm vohasidagi XX asr etnomadaniy transformatsiyasini quyidagi mantiqiy model orqali ifodalash mumkin:

Siyosiy transformatsiya → iqtisodiy modernizatsiya → ijtimoiy tuzilmaning o‘zgarishi → ta’lim va madaniyatning qayta tashkil etilishi → demografik va urbanistik o‘zgarishlar → etnomadaniy transformatsiya.

Biroq bu jarayonning ikkinchi tomoni ham mavjud bo‘lgan. Xorazm jamiyati tarixiy xotira, qarindoshlik, mahalla, marosimlar, hunarmandchilik, milliy taomlar, xalq og‘zaki ijodi va boshqa madaniy mexanizmlar orqali o‘zining tarixiy identifikatsiyasini saqlab qolgan.

Shu sababli XX asr Xorazm etnomadaniyatini “to‘liq yo‘qolish” emas, balki “transformatsion moslashuv” jarayoni sifatida baholash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, XX asrda Xorazm vohasidagi etnomadaniy o‘zgarishlar birgina omil ta’sirida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, demografik, ta’limiy, diniy va madaniy jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan.

Ikkinchidan, 1920-yilda Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi an’anaviy siyosiy-madaniy tizimdan sovet modernizatsiyasi tomon o‘tishning boshlanishi bo‘ldi. 1920-1924-yillarda ta’lim, maorif va boshqaruv sohalarida yangi institutlar shakllandi.

Uchinchidan, 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish Xorazmning tarixiy hududiy yaxlitligiga ta’sir ko‘rsatib, vohaning turli qismlarini yangi ma’muriy birliklar tarkibiga kiritdi. Bu jarayon keyingi etnik va madaniy munosabatlarning siyosiy-geografik asoslarini o‘zgartirdi.

To‘rtinchidan, kollektivlashtirish va paxtachilikka ixtisoslashuv Xorazmning an’anaviy xo‘jalik-madaniy tizimini tubdan o‘zgartirdi. Yer-suv munosabatlari, mehnat shakllari, qishloq jamoalari va demografik jarayonlarda yuz bergan o‘zgarishlar etnomadaniy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Beshinchidan, sovet ta’lim tizimining joriy etilishi savodxonlikning kengayishi, yangi ziyolilar qatlamining shakllanishi va ijtimoiy mobillikning ortishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, an’anaviy maktab-madrasa tizimining qisqarishi madaniy merosning avloddan avlodga o‘tish mexanizmlarini o‘zgartirdi.

Oltinchidan, urbanizatsiya va migratsiya Xorazm vohasining etnomadaniy muhitini yanada murakkablashtirdi. Shahar madaniyatining kengayishi, yangi kasblar, ta’lim va mehnat migratsiyasi aholining ijtimoiy tarkibiga ta’sir ko‘rsatdi.

Yettinchidan, sovet davrida diniy institutlarning cheklanishi va mafkuraviy bosimga qaramay, Xorazmning tarixiy-madaniy xotirasi to‘liq uzilmadi. Mahalla, oila, marosimlar, qarindoshlik, xalq ijodi va kundalik turmush amaliyotlari orqali ko‘plab an’analar saqlanib qoldi.

Umuman olganda, XX asr Xorazm vohasining etnomadaniy tarixini an’anaviylik, majburiy modernizatsiya, ijtimoiy moslashuv va madaniy davomiylikning birgalikdagi jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu xulosa Xorazm vohasining zamonaviy etnomadaniy qiyofasini anglashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1948.

2. Yuldosheva B., Latipov M. 1920–1924-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yer-suv islohotlari va ularning iqtisodiy ta’siri // Oriens. – 2025. – B. 344–354.

3. Mo‘minov X. XXSRda sovet tuzumini mustahkamlashda Butun Xorazm xalq vakillari qurultoylarining o‘rni va roli (1920–1924) // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2023. – №4(2). – B. 1–5.

4. Mamadaminova B. Cultural changes in the Khorezm People's Soviet Republic and their features // The Caucasus and the World. – 2022. – №26.

5. Xusainbekova G.M. Issues of Training the Teachers in Khorezm in the 30s of the XX Century // International Journal on Integrated Education. – 2021. – Vol. 4, №12.

6. Allanazarov S. Xorazm qishloq va shahar aholisining ijtimoiy turmush darajasi va muammolari (1925–1941-yillar) // Tamaddun Nuri jurnali. – 2025.

7. Xudaynazarov S. 1925–1945-yillarda Xorazm viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy hayot // Modern Science and Research. – 2025.

8. Quryazov B.G‘. Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonning Xorazm vohasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti (1925–1941-yillar) tarixiy tahlili // Yuksak ehtirom. – 2025.

9. Khiva // Encyclopaedia Iranica. – 2021. Xorazmda 1919–1924-yillardagi siyosiy jarayonlar, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish haqida.

10. Saidov Sh.J. Scientific, theoretical and methodological aspects of the research of Khorezm-Russian relations in the Soviet era // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2024. – Vol. 6, Issue 4. – P. 38–43.

XX ASRDA XORAZM VOHASI ETNIK-MADANIY QIYOFASINING SHAKLLANISH TARIXI

Abdullayev Jasurbek Rahimboy o‘g‘li,
UrDPI Tarix kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
ORCID 0009-0000-2897-1683
abdullayevjasurbek1992@gmail.com

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr davomida Xorazm vohasida kechgan etnomadaniy jarayonlar va ularning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy asoslari tahlil etiladi. Tadqiqotda Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi, 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish siyosati, an’anaviy ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xo‘jalik shakllarining tugatilishi, “Hujum” harakati, majburiy va tabiiy migratsion jarayonlar, shuningdek Orol dengizi ekologik inqirozining voha aholisi turmush tarzi va moddiy-ma’naviy madaniyatiga ta’siri kabi masalalar yoritilgan. Muallif etnomadaniy o‘zgarishlarning ko‘p jihatdan tashqi (davlat siyosati) omillar ta’sirida kechganini, biroq ularning ildizlari vohaning tarixiy-geografik va etnik xususiyatlarida yotganini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm vohasi, etnomadaniy jarayon, milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish, “Hujum” harakati, migratsiya, Orol dengizi inqirozi, an’anaviy madaniyat, XX asr.*

Аннотация. *В статье анализируются этнокультурные процессы, происходившие в Хорезмском оазисе на протяжении XX века, а также их исторические, общественно-политические и экономические основы. Рассмотрены ликвидация Хивинского ханства и образование Хорезмской Народной Советской Республики, национально-территориальное размежевание 1924 года, политика коллективизации, ликвидация традиционных кочевых и полукочевых форм хозяйства, кампания «Худжум», принудительные и естественные миграционные процессы, а также влияние экологического кризиса Аральского моря*

на образ жизни и материально-духовную культуру населения оазиса.

Ключевые слова: *Хорезмский оазис, этнокультурные процессы, национально-территориальное размежевание, коллективизация, движение «Худжум», миграция, кризис Аральского моря, традиционная культура, XX век.*

Abstract. *This article examines the ethnocultural processes that took place in the Khorezm oasis during the twentieth century, along with their historical, socio-political, and economic foundations. It discusses the abolition of the Khiva Khanate and the formation of the Khorezm People's Soviet Republic, the national-territorial delimitation of 1924, the collectivization policy, the elimination of traditional nomadic and semi-nomadic economic forms, the "Hujum" campaign, forced and natural migration processes, and the impact of the Aral Sea ecological crisis on the population's way of life and material-spiritual culture.*

Keywords: *Khorezm oasis, ethnocultural processes, national-territorial delimitation, collectivization, Hujum campaign, migration, Aral Sea crisis, traditional culture, twentieth century.*

KIRISH. Mustaqillik yillarida milliy tariximizni xolisona, mafkuraviy qoliplardan xoli holda, zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida qayta o‘rganish davlat siyosati darajasidagi vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, mintaqaviy tarix, xususan, alohida hudud va vohalarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarini chuqur tahlil qilish umumdavlat tarixini yaxlit va aniq tasavvur etish imkonini beradi. Xorazm vohasi o‘zining ming yillik davlatchilik an’analari, o‘ziga xos sug‘orma dehqonchilik madaniyati va ko‘p millatli etnik tarkibi bilan Markaziy Osiyoning eng muhim tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri hisoblanadi[14].

XX asr Xorazm vohasi tarixida tub burilishlar davri bo‘ldi: xonlik tuzumining tugatilishi, sovet davlat tizimining o‘rnatilishi, milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish, madaniy inqilob, gender munosabatlaridagi tub o‘zgarishlar hamda asr oxiriga kelib yuzaga kelgan ekologik inqiroz

vohaning etnik tarkibi, moddiy va ma’naviy madaniyatida chuqur iz qoldirdi. Ushbu o‘zgarishlarning tarixiy ildizlarini, sabab-oqibat munosabatlarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish barcha o‘tmishni to‘g‘ri anglash, balki mintaqaning bugungi ijtimoiy-madaniy jarayonlarini tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Xorazm vohasining qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, xususan, arxeologik-etnografik jihatlari S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan chuqur o‘rganilgan[1].

Vohaning sug‘orilish tarixi va unga bog‘liq xo‘jalik-madaniy jarayonlar Ya. G‘ulomov tadqiqotlarida yoritilgan[2]. Sovet davri milliy siyosati va uning Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarkibiga ta’siri masalalari G‘arb tarixshunosligida Y.Bregel, A.L.Edgar, D.Northrop, M.Kamp kabi tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan[3, 4, 5, 6]. Mustaqillik davri o‘zbek tarixshunosligida esa B.Ahmedov, A.Ashirov, R.Nazarov va boshqa mualliflarning ishlarida Xorazm va Markaziy Osiyoning etnik tarixi, an’anaviy madaniyati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan[7, 8, 9]. Shunga qaramay, XX asr davomida Xorazm vohasida kechgan etnomadaniy o‘zgarishlarni yaxlit, kompleks tarzda, ularning tarixiy asoslari bilan bog‘liq holda tahlil etuvchi maxsus tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - XX asrda Xorazm vohasida yuz bergan etnomadaniy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va ularning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda tabiiy-geografik asoslarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: asrning boshida vohaning etnik-demografik tarkibini tavsiflash; 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanishning voha yaxlitligiga ta’sirini aniqlash; kollektivlashtirish va o‘troqlashtirish siyosatining an’anaviy xo‘jalik madaniyatiga ta’sirini ochib berish; gender munosabatlaridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish; migratsion jarayonlarning etnik tarkibga ta’sirini o‘rganish; Orol dengizi ekologik inqirozining etnomadaniy oqibatlarini baholash.

MATERIALLAR VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot manba bazasini bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hamda Xorazm viloyat davlat arxividagi tegishli fondlarda saqlanayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ijroiya organlari qarorlari, statistik hisobotlar kiradi. Ikkinchi guruhni sovet davrida nashr etilgan statistik va rasmiy hisobotlar tashkil etadi[12], ular aholi soni, etnik tarkib, xo‘jalik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni miqdoriy jihatdan kuzatish imkonini beradi. Uchinchi guruhga davriy matbuot materiallari,

memuar adabiyoti va etnografik dala tadqiqotlari natijalari kiradi, ular davr voqeliklarini jonli tasvirlar orqali boyitadi. To‘rtinchi guruh sifatida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar monografiyalar va maqolalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologik jihatdan tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanadi. Ish jarayonida tarixiy-qiyosiy metod (turli davrlardagi etnik-demografik ko‘rsatkichlarni qiyoslash), tarixiy-genetik metod (jarayonlarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini izchil kuzatish), statistik-miqdoriy tahlil metodi (arxiv va statistik ma’lumotlarni tizimlashtirish), shuningdek etnografik tavsif metodidan foydalanildi. Tadqiqot interdisiplinar xarakterga ega bo‘lib, tarix fani bilan bir qatorda etnologiya, tarixiy demografiya va tarixiy geografiya sohalari yutuqlariga ham tayanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

1. XX asr boshida Xorazm vohasining etnik-demografik manzarasi.

XX asr boshlarida Xorazm vohasi (Xiva xonligi hududi) ko‘p millatli etnik tarkibga ega bo‘lgan yagona xo‘jalik-madaniy majmua sifatida shakllangan edi. Vohaning asosiy aholisini o‘zbeklar tashkil etgan bo‘lib, ular bilan bir qatorda voha hududida turkmanlar (asosan janubi-g‘arbiy va janubiy tumanlarda), qoraqalpoqlar (shimoliy, Amudaryo etaklariga yaqin hududlarda), qozoqlar, shuningdek forslar, yahudiylar va boshqa etnik guruhlar istiqomat qilgan. Ularning voha ichida joylashuvi ko‘p jihatdan sug‘orma dehqonchilik tizimi - asosiy va tarmoq kanallar bo‘yicha shakllangan xo‘jalik hududlari bilan belgilangan edi. Xiva xonligi davrida bu turli etnik guruhlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar, o‘zaro ta’sir jarayonlari faol kechgan, biroq ma’muriy-hududiy chegaralar zamonaviy ma’nodagi qat’iy etnik chegaralarga mos kelmagan[9].

2. Siyosiy tuzum almashinuvi va 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanishning etnomadaniy oqibatlari.

1920-yilda Xiva xonligi tugatilib, uning o‘rnida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi vohaning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish nuqtasi bo‘ldi. Yangi davlat tuzilmasi bilan bir qatorda mulkchilik munosabatlari, sud-huquq tizimi va mahalliy boshqaruv asoslarida ham o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. 1924-1925-yillarda o‘tkazilgan Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish natijasida Xorazm vohasi hududi O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR tarkibiga kiritilgan tumanlarga, shuningdek keyinchalik Qoraqalpog‘iston tarkibiga kiritilgan hududlarga bo‘lib yuborildi[3]. Bu chegaralanish, garchi milliy davlatchilikni shakllantirishning muhim bosqichi bo‘lsa-da, tarixan yaxlit xo‘jalik-madaniy majmua bo‘lgan vohaning ma’muriy jihatdan bo‘linishiga olib keldi. Natijada bir vohada

yashagan turkman, qoraqalpoq va o‘zbek aholisining an’anaviy xo‘jalik va oilaviy-qarindoshlik aloqalari davlat chegaralari bilan qisman uzilib qoldi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda etnik o‘zaro ta’sir dinamikasiga ta’sir ko‘rsatdi[11].

3.Kollektivlashtirish siyosati va an’anaviy xo‘jalik-madaniy shakllarning transformatsiyasi.

1920-yillar oxiri - 1930-yillarda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati Xorazm vohasi aholisining xo‘jalik yuritish tizimini tubdan o‘zgartirdi. Voha hududidagi turkman va qoraqalpoq aholisining bir qismi orasida saqlanib qolgan yarim ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligi majburiy o‘troqlashtirish siyosati orqali tugatildi[6], bu esa ushbu guruhlarning an’anaviy turmush tarzi, kiyim-kechagi, oziq-ovqat madaniyati va ijtimoiy tashkilotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Kolxoz-sovxoz tizimining joriy etilishi bilan bir vaqtda paxta yakkahokimligi siyosati kuchaytirildi, natijada an’anaviy dehqonchilikda muhim o‘rin tutgan poliz ekinlari, mevachilik va don ekinlari maydonlari qisqarib, aholining oziq-ovqat mustaqilligi pasaydi, shu bilan birga sug‘orish tarmoqlarining kengaytirilishi yer va suv resurslaridan foydalanish madaniyatida ham yangi tartib-qoidalarni shakllantirdi.

4. Ijtimoiy-huquqiy va gender munosabatlaridagi o‘zgarishlar.

1927-yilda boshlangan “Hujum” harakati Xorazm vohasida ham keng ko‘lamda amalga oshirildi[4]. Bu harakat doirasida ayollarning paranji va chachvondan voz kechishi, ularning ijtimoiy ishlab chiqarish va ta’lim jarayoniga jalb etilishi, shariat sudlarining bekor qilinishi, ko‘p xotinlilik va qiz bolalarni erta turmushga berishga qarshi kurash choralari ko‘rildi. Xorazm vohasida bu jarayon o‘ziga xos qarshilikka ham duch keldi: mahalliy an’analar, diniy qadriyatlar va oilaviy-qabilaviy tuzilmalarning mustahkamligi sababli islohotlarga qarshilik boshqa ba’zi mintaqalarga nisbatan yanada kuchli namoyon bo‘ldi, bu esa davr matbuoti va arxiv hujjatlarida qayd etilgan qator ziddiyatli holatlarda o‘z aksini topgan. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda mazkur siyosat ayollarning ta’lim va bandlik darajasini oshirishga, an’anaviy gender rollarining qisman transformatsiyasiga olib keldi[5].

5. Migratsion jarayonlar va ularning etnik tarkibga ta’siri.

XX asr davomida Xorazm vohasi va unga tutash hududlarda bir necha yirik migratsion to‘lqinlar kuzatildi[10]. 1930-yillardagi siyosiy repressiyalar natijasida mahalliy va boshqa hududlardan surgun qilingan oilalar, 1937-1938-yillarda Uzoq Sharqdan Markaziy Osiyoga majburiy ko‘chirilgan koreys aholisining bir qismi, Ikkinchi jahon urushi yillarida g‘arbiy hududlardan evakuatsiya qilingan aholi, shuningdek urushdan keyingi davrda amalga

oshirilgan tashkiliy ko‘chirishlar natijasida mintaqaning etnik tarkibi yanada murakkablashdi. Bu jarayonlar, bir tomondan, madaniy xilma-xillikni kuchaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholi bilan yangi kelgan guruhlar o‘rtasida moslashuv va o‘zaro madaniy ta’sir jarayonlarini keltirib chiqardi[7].

6. Orol dengizi ekologik inqirozi va uning etnomadaniy oqibatlari.

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1980-yillarda sug‘orma dehqonchilik maydonlarining keskin kengaytirilishi va Amudaryo suvining haddan tashqari sarflanishi natijasida yuzaga kelgan Orol dengizi ekologik inqirozi Xorazm vohasi va unga tutash hududlar aholisining turmush tarziga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi[13]. Dengiz sathining pasayishi natijasida an’anaviy baliqchilik xo‘jaligi va u bilan bog‘liq kasb-hunar turlari deyarli yo‘q bo‘lib ketdi, tuproq va suv sho‘rlanishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini pasaytirdi, bu esa aholining bir qismini boshqa hududlarga, jumladan shahar markazlariga ko‘chishga majbur qildi. Ekologik omillar bilan bog‘liq bunday migratsiya va turmush tarzi o‘zgarishlari mintaqaning etnomadaniy jarayonlarida alohida, tabiiy-geografik asosga ega bo‘lgan yo‘nalish sifatida ajralib turadi.

7. Til, ta’lim va ma’naviy madaniyatdagi o‘zgarishlar.

XX asr davomida Xorazm vohasida alifbo almashinuvlari (arab yozuvidan lotin yozuviga, so‘ngra kirill yozuviga o‘tish) va umumiy savodxonlikni yo‘qotish kampaniyalari amalga oshirildi, bu esa aholining bilim olish va axborot almashish tizimini tubdan o‘zgartirdi. An’anaviy diniy ta’lim muassasalari - maktab va madrasalar faoliyati cheklanib, ularning o‘rnini dunyoviy sovet maktab tizimi egalladi[8]. Diniy amaliyot va marosimlar rasmiy mafkura tomonidan cheklanishiga qaramay, oilaviy va mahalliy darajada ko‘plab an’anaviy urf-odatlar - to‘y-marosimlar, milliy bayramlar, hunarmandchilik an’analari saqlanib qoldi hamda mustaqillik yillarida qayta tiklanish jarayonini boshdan kechirdi. Bu holat Xorazm vohasi aholisining madaniy o‘zligini saqlash borasidagi ichki barqarorligidan dalolat beradi.

XULOSA. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, XX asrda Xorazm vohasida kechgan etnomadaniy o‘zgarishlar tabiiy-evolyutsion jarayondan ko‘ra ko‘proq tashqi, ya’ni davlat siyosati bilan bog‘liq omillar ta’sirida yuz berdi. Milliy-hududiy chegaralanish, kollektivlashtirish, o‘troqlashtirish, gender siyosati va ekologik boshqaruvdagi qarorlar mintaqaning etnik tarkibi, xo‘jalik madaniyati, oilaviy-ijtimoiy munosabatlari hamda ma’naviy hayotida chuqur izlar qoldirdi. Shu bilan birga, ushbu o‘zgarishlarning kechish xususiyatlari - xususan, ularga nisbatan bildirilgan qarshilik darajasi va moslashuv shakllari - bevosita vohaning tarixiy-geografik xususiyatlari (yagona sug‘orma

dehqonchilik majmuasi), ko‘p millatli etnik tarkibi hamda xonlik davridan meros bo‘lib qolgan ijtimoiy-madaniy tuzilmalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Demak, XX asr Xorazm vohasi etnomadaniyatidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda tashqi siyosiy omillar bilan bir qatorda mintaqaning ichki tarixiy asoslarini ham hisobga olish zarur. Olingan xulosalar mintaqaviy tarixni yanada chuqur o‘rganish, shuningdek zamonaviy sharoitda milliy-madaniy meros va etnik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд-во МГУ, 1948.

2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1957.

3. Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. – Leiden: Brill, 2003.

4. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006.

5. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Ithaca: Cornell University Press, 2004.

6. Edgar A.L. Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan. – Princeton: Princeton University Press, 2004.

7. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

8. Ashirov A. O‘zbek xalqining an’anaviy dini va irim-sirimlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

9. Nazarov R. Markaziy Osiyoda etnik jarayonlar tarixidan // O‘zbekiston tarixi. Ilmiy-ommabop jurnal. – Toshkent.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi materiallari (tegishli fond va ish raqamlari).

11. Xorazm viloyat davlat arxivi materiallari (tegishli fond va ish raqamlari).

12. O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi statistik yig‘ma majmualari. – Toshkent: O‘zdavnashr (tegishli yillar).

13. Micklin P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. – 2007. – Vol. 35.

14. Абашин С., Арапов Д., Бекмаханова Н. (ред.) Центральная Азия в составе Российской империи. – М.: Новое литературное обозрение, 2008.

SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA XIVA JADIDCHILIK HARAKATIGA BO‘LGAN MUNOSABAT VA UNING MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZGARISHI

N.R. Normetova,
o‘qituvchi,
67- maktab,
Toshkent

UO‘K 930.1:94(575.1)"19/20"

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sovet davri tarixshunosligida Xiva jadidchilik harakatiga bo‘lgan munosabat, uning mafkuraviy asosda talqin qilinishi hamda mustaqillik davrida ushbu yondashuvlarning tubdan o‘zgarishi tahlil etiladi. Shuningdek, jadidchilik harakatining tarixiy mohiyati, uning milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati xolis ilmiy yondashuv asosida ochib beriladi. Tadqiqot davomida sovet davri va mustaqillik yillaridagi ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, Xiva, sovet tarixshunosligi, mustaqillik davri, milliy uyg‘onish, tarixiy talqin, ma’rifatparvarlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируется отношение к джадидскому движению в Хиве в советской историографии, его идеологическая интерпретация, а также коренные изменения в подходах в период независимости. Раскрывается историческая сущность джадидизма, его рол в процессе национального пробуждения и значение на основе объективного научного подхода. В ходе исследования проводится сравнительный анализ научных взглядов советского и постсоветского периодов.*

Ключевые слова: *Джадидизм, Хива, советская историография, период независимости, национальные пробуждение, историческая интерпретация, просветительство.*

Abstract. *This article analyzes the attitude towards the Jadid movement in Khiva within Soviet*

historiography, its ideological interpretation, and the fundamental changes in approaches during the independence period. It also reveals the historical essence of the Jadid movement, its role in the process of national awakening, and its significance based on an objective scientific approach. The study provides a comparative analysis of scholarly views from the Soviet and independence periods.

***Keywords*:** *Jadidism, Khiva, Soviet historiography, independence period, national awakening, historical interpretation, enlightenment.*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadal rivojlanayotgan sharoitda har bir xalqning o‘z tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganishi, milliy o‘zlik va tarixiy xotirani mustahkamlashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tarixiy merosni asrab avaylash, ilgari bir tomonlama yoki mafkuraviy yondashuv asosida baholangan tarixiy jarayon va shaxslarni qayta tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Xiva xonligi hududida shakllangan jadidchilik harakati jamiyatni modernizatsiya qilish, ta‘lim tizimini isloh etish va davlat boshqaruvini yangilashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Biroq sovet davrida ushbu harakatga nisbatan yondashuvlar mafkuraviy bosim ostida kechdi. Jadidlar faoliyati ko‘pincha biryoqlama talqin qilinib, ular “millatchi” va “reaksion” “Panislomistik kuch” sifatida baholandi. Mustaqillik yillariga kelib esa tarixshunoslikda tub burilish yuz berib, jadidchilik harakatiga xolis va ilmiy asoslangan yondashuv shakllandi.

Mazkur maqolaning maqsadi – sovet davri tarixshunosligida Xiva jadidchilik harakatiga bo‘lgan munosabatni tahlil qilish hamda mustaqillik davrida ushbu qarashlarning o‘zgarishini ochib berishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Sovet davrida Xiva jadidchilik harakatiga bo‘lgan biryoqlama va noholis qarashlarning ochib berilishi va mustaqillik davrida bu harakatga bo‘lgan yangicha yondashuvlar va uning o‘ziga xosligini, yutuq va kamchiligini yoritish bugungi kunda muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Sovet davri tarixshunosligida jadidchilik harakati asosan marksistik-leninistik mafkura asosida talqin qilingan. Xususan, Xiva jadidchiligi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar J. Rahimov, M. Abdullayev, I.V. Pogorelskiy, K.B. Muhammadberdiyev, G. To‘xtametov, X. Hamdamov, Q. Raxmonov va O. Sodiqov kabi mualliflarning asarlarida “yosh xivaliklar” harakati ko‘proq tanqidiy va Sovet mafkurasi ta‘sirida yozilgan. Mazkur tadqiqotlarda jadidlar jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi kuch sifatida talqin qilinib, ularning siyosiy faoliyati tanqid ostiga olingan. Ayniqsa, 1960 yillarda X. Xamdamovning “Xiva xonligining ag‘darilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi “ nomli monografiyasida jadidlarni “millatchi” va “ inqilobga halaqit beruvchi kuch” sifatida biryoqlama baholashi sovet davri mafkurasini oshkora namoyish etdi.[1]

Q. Raxmonov tadqiqotlarida esa yosh xivaliklar tashkilotining xizmatlarini sovetlar foydasiga tushuntirishga harakat qilinadi.[2] Shuningdek, sovet tarixshunosligida Xorazm Xalq Respublikasining tashkil topishida mahalliy jadidlarning roli kamaytirilib, asosiy e‘tibor Sovet Rossiyasi va bolshevik kuchlariga qaratilgan.

Mustaqillik yillariga kelib esa tarixshunoslikda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim bosqichi sifatida qayta baholandi. Bu davrda D. Alimova, Q. Rajabov, S. Xolboyev, N. Karimov, O. Sharafiddinov, S. Turdiyev, R. Shamsutdinov, Z. Abdirashidov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida jadidchilik borasida yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Tarix fanlari, professori Dilorom Alimovani tom ma‘noda jadidshunos olim sifatida ayta olaman. Nafaqat Turkiston va Buxoro jadidlari to‘g‘risida balki Xiva jadidlarining faoliyatiga ham to‘xtaladi. Xususan, Xiva jadidchilik harakatining dastlabki faoliyatida hukmdorning homiyligi ostida kechganligini uning o‘ziga xos xususiyati sifatida baholaydi.[3] N. Karimov va O. Sharafiddinov ishlarida esa jadidlarning adabiy-ma‘rifiy faoliyati, milliy ongni shakllantirishdagi roli chuqur tahlil qilingan. Filologiya fanlari doktori, professor Zaynobiddin Abdirashidovning ham bir qancha monografiyalari, xususan “Turkistonda jadidchilik” monografiyasi, shuningdek “Tarjimon” gazetasining 1883–1916 yillardagi bibliografiyasiga bag‘ishlangan tadqiqoti ham o‘zbek jadidshunosligiga qo‘shilgan katta hissadir. Shuningdek, aynan shu monografiyasida Xiva jadidlari haqida to‘xtalib , o‘z mulohazlarini yoritib beradi. [4]

Xiva jadidchiligi bo‘yicha arxiv manbalar hamda yosh xivaliklar vakillarining xotiralari asosida tadqiqot olib borgan N.Polvonov “ Xorazmdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar va siyosiy partiyalar tarixi” risolasida Xiva jadidlarining Turkiston va Buxoro jadidchilik harakatidan farqli va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, jadidchilik haqidagi sovet davrida shakllangan biryoqlama va mafkuraviy qarashlarni tanqid qiladi. U jadidlarni “millatchi”, “reaksion” deb baholash noto‘g‘ri ekanini ilmiy asoslab beradi.Sovet davri talqinlarini qayta ko‘rib asoslab beradi. [5] M. Matkarimov iqtisodchi sifatida XXSR faoliyatining iqtisodiy jihatlarini tahlil qiladi.[6] M. Matniyozov tadqiqotlarida esa Xorazm jadidchiligi, “yosh xivaliklar” harakati va Xorazm Xalq Respublikasi davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yangi arxiv manbalari asosida tadqiq qilingan.[7] Shuningdek, Xiva jadidchiligining rahnamosi Polvonniyoz Hoji Yusupovning memuar asari (Xotiralar) arab alifbosidan kirill alifbosiga tarjima qilinadi.Ushbu memuar asar xonlik davridagi ijtimoiy siyosiy muhitni muallif tomonidan kommunistik bosimlarsiz yoritib bergani bilan ahaniyatli asar hisoblanadi.[8]

Bugungi kunda Umid Bekmuhammadning qator risolalari ham Xiva jadidlarining faoliyatiga bag‘ishlangan.U Xiva jadidchilik harakatining asl mohiyati ,yosh xivaliklar partiyasi a’zolarining mustamlakachilik davrida nohaq qatag‘on qilinishini manbalar asosida yoritib beradi.[9] Navro‘z Rahimovning “Xorazm Xalq sho‘rolar jumhuriyati tarixini o‘rganish muammolari va yondashuvlar” nomli monografiyasida XXSR davri tarixshunosligiga qaratilgan va ba‘zi muammolar ochib berilgan. Sovet hamda mustaqillik davri tarixshunosligi qiyosiy tahlil qilingan.[10]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Xiva jadidchiligi harakatiga oid sovet davri tarixshunosligi va mustaqillik yillaridagi ilmiy qarashlarni o‘rganishda tarixiy-qiyosiy, tizimli-tahliliy, xronologik usullari qo‘llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli davrlarda shakllangan ilmiy yondashuvlarni solishtirish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida asosan qiyosiy-tarixiy usul qo‘llanildi. Ushbu usul orqali sovet davri va mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar o‘zaro taqqoslanib, qiyosiy tahlil qilindi. Tizimli-tahliliy usul jadidchilik harakatiga oid ilmiy tadqiqotlarni yagona tizim asosida umumlashtirish, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishga xizmat qildi. Xronologik usul esa Xiva

jadidchiligining shakllanishi, rivojlanishi va tarixshunoslikda o‘rganilish bosqichlarini izchil ravishda aniqlashda qo‘llanildi.

Shuningdek, manbashunoslik yondashuvi asosida turli davrlarda yozilgan monografiyalar va memuar asarlar tahlil qilindi. Bu metodlar o‘z navbatida Xiva jadidchiligi tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganish imkonini berdi.

Olingan natijalar tahlili.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet davri tarixshunosligida Xiva jadidchiligi harakati mafkuraviy yondashuv asosida talqin qilingan bo‘lib, unda tarixiy voqeliklar ko‘pincha biryoqlama va siyosiy maqsadlar asosida yoritilgan. Jadidlar, xususan “yosh xivaliklar” harakati vakillari aksariyat tadqiqotlarda millatchi, burjuaziya vakili yoki aksilinqilobiy kuch sifatida baholangan. Bu esa ularning jamiyat taraqqiyotidagi haqiqiy o‘rnini to‘liq ochib berishga to‘sqinlik qilgan.

Sovet tarixshunosligida xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Respublikasining tashkil topishi jarayonida yosh xivaliklar partiyasining sa‘y harakatlari roli pasaytirilib, bolsheviklarning xizmati bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Bu esa tadqiqotlarda kommunistik ruhning ustunligini yaqqol namoyon qilgan.

Mustaqillik yillarida esa vaziyat tubdan o‘zgardi. Jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim bosqichi sifatida qayta baholanib, uning vakillari ma’rifatparvar va islohotchi ziyolilar sifatida e‘tirof etila boshlandi. Xiva jadidlari va “yosh xivaliklar” harakati jamiyatni modernizatsiya qilish, ta‘limni rivojlantirish va davlat boshqaruvini isloh etishga intilgan ilg‘or kuch sifatida talqin qilindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik davrida ilmiy erkinlikning kengayishi, arxiv manbalarining ochilishi va yangi tadqiqotlarning paydo bo‘lishi jadidchilik tarixini xolis o‘rganish imkonini bergan. Natijada sovet davrida noto‘g‘ri talqin qilingan ko‘plab masalalar qayta ko‘rib chiqilib, tarixiy adolat tiklangan.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xiva jadidchilik harakati sovet davri tarixshunosligida mafkuraviy yondashuv asosida o‘rganilgan va noholis yoritilgan. Sovet davri manbalarida uning tarixiy mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yetarli darajada ochib berilmagan. Bu esa xalqimizda ayrim jadidlarga va jadidchilik harakatiga nisbatan noto‘g‘ri xulosalar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Sovet tarixchilari tomonidan jadidlar, xususan “yosh xivaliklar” harakati vakillari ko‘pincha millatchi yoki aksilinqilobiy kuch sifatida talqin

qilingan, bu esa tarixiy haqiqatning buzilishiga olib kelgan. Shu bilan birgalikda bu davrning ijobiy tomonlari ham ko‘zga tashlanadi. Bu davrda boy manbaviy baza, xotira memuar materiallarining to‘planganligi ham inkor etib bo‘lmaydi. Biroq bu manbalar mafkuraviy talqin asosida tahlil qilingani sababli tarixiy haqiqat to‘liq ochib berilmagan.

Mustaqillik yillariga kelib esa tarix fani va tarixshunoslikda yangi davr boshlandi. Jadidchilik harakatiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bu harakat endilikda ma‘rifatparvarlik harakati sifatida,jadid vakillari esa milliy ziyolilar sifatida e‘tirof etildi.Hattoki bugungi kunda bu harakatni “Uchinchi Renessans” davri deb atash taklif qilindi.Shu munosabat bilan ko‘plab arxiv manbalari ochildi. Qatag‘onga uchragan jadidlarning ishi qayta ko‘rib chiqib, oqlandi.Ularning ilmiy merosi xalqqa qaytarildi. Shu jumladan, “Yosh xivaliklar” faoliyati ham jamiyatni yangilash, ta‘lim va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan ilg‘or harakat sifatida e‘tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хамдамов Х. Хива хонлигининг ағдарилиши ва Хоразм Халқ Совет Республикасининг тузилиши. – Т., 1960. – Б. 76–77.

2. Раҳмонов Қ. Хива – Хоразм Халқ Республикасининг бешиги. – Т., 1970. – Б.13.

3. Алимова Д. Джадидчилик феномени. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б.274.

4. Абдирашидов З. Туркистонда жадидчилик. – Тошкент: Академнашр, 2023. – Б. 123

5. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий ҳаракатлар тарихи (1920–1924). – Т., 2011. – Б. 6, 32.

6. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Хоразм, 1993. – Б. 36–37.

7. Матниёзов М. Хоразм тарихи – II. – Урганч, 1997. – Б. 204.

8. Юсупов П.Х. Ёш хиваликлар тарихи: қувончлар, изтироблар, фожиалар. – Тошкент, 2015. – Б.244.

9. Бекмухаммад У., Самандар С. Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши. – Урганч: Milleniumus Print, 2025. – Б.204.

10. Раҳимов Н.Ш. Хоразм халқ шўролар жумхурияти тарихини ўрганиш муаммолари ва ёндашувлар. – Т., 2020. – Б. 56-64.

ANTIK XORAZMNING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI: DEHQONCHILIK, HUNARMANDCHILIK VA SAVDO MUNOSABATLARI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada antik davr Xorazmining shaharsozlik, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti arxeologik hamda yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ahamoniylar davridan keyingi bosqichda Xorazm hududida shahar markazlarining ko‘payishi, savdo-hunarmandchilik shaharlari va sulolaviy-diniy markazlarning shakllanishi hamda ularning hududiy rivojlanishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, qadimgi Xorazm jamiyatining ijtimoiy tarkibi, katta oila jamoalari, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi, yer-suv munosabatlari hamda sug‘orish tizimini boshqarish masalalari tahlil etiladi. Xorazmning iqtisodiy hayotida hunarmandchilik, ichki mahsulot almashinuvi, pul muomalasi va tashqi savdo aloqalarining ahamiyati ochib beriladi. Tuproqqal’a saroy hujjatlari, Qal’aliqir-2 ibodatxonasi yozuvlari hamda boshqa arxeologik topilmalar asosida soliq yig‘ish, davlat xo‘jaligi, ibodatxona mulklari va qaram mehnat shakllariga oid ma’lumotlar umumlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar. *antik Xorazm, shaharlashuv, shaharsozlik, qadimgi shaharlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, soliq tizimi, davlat boshqaruvi.*

Kirish. Antik davr Xorazm hududida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jadallashuvi, shaharsozlik an’analarining takomillashuvi hamda xo‘jalik yuritish shakllarining murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda Xorazm vohasida yangi shahar markazlari va qal’a-qo‘rg‘onlarning vujudga kelishi hududning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Katta Oybuyurqal’a, Kat, Hazorasp kabi savdo-

hunarmandchilik markazlari hamda Oqchaxonqal’a va Tuproqqal’a singari sulolaviy-diniy markazlarning rivojlanishi qadimgi Xorazmda shaharlashuv jarayoni muayyan davlat va xo‘jalik ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Antik davr Xorazmiga oid yozma manbalar nisbatan cheklanganligi sababli hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘rganishda arxeologik materiallar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qal’alar, saroylar, ibodatxonalar, turar joylar, xo‘jalik inshootlari, sug‘orish tarmoqlari, hunarmandchilik buyumlari, tangalar va yozuvli sopol parchalari qadimgi jamiyatning xo‘jalik faoliyati hamda ijtimoiy tuzilishi haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, Tuproqqal’a saroy hujjatlari va Qal’aliqir-2 ibodatxonasi yozuvlari davlat xo‘jaligi, soliq munosabatlari, mulkchilik va aholining ijtimoiy tarkibini tadqiq etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar Tahlili. Antik davr Xorazmi tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi. Xorazm vohasidagi qadimgi shaharlar, qal’alar, ibodatxonalar va turar joy majmualarining o‘rganilishi hududning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini qayta tiklash imkonini bergan. Tadqiqotlarda Qo‘yqirilganqal’a, Qal’aliqir, Oqchaxonqal’a, Tuproqqal’a va boshqa yodgorliklarning me’moriy tuzilishi, xo‘jalik inshootlari hamda moddiy madaniyat namunalari asosida antik Xorazm jamiyatining rivojlanish xususiyatlari yoritilgan.

Qadimgi Xorazm yozuvlarini o‘rganish ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etishda muhim manba vazifasini bajaradi. Xususan, Tuproqqal’adan topilgan saroy hujjatlari davlat xo‘jaligi, mahsulotlar harakati, xonadonlar tarkibi va qaram aholining mavqei haqida ma’lumot beradi. Qal’aliqir-2 ibodatxonasidan aniqlangan yozuvlar esa soliq yig‘ish, ibodatxona xo‘jaligi va aholining majburiyatlari bilan bog‘liq munosabatlarni o‘rganish imkonini yaratadi. V.A. Livshis tomonidan qadimgi Xorazm yozuvlarining o‘qilishi va izohlanishi ushbu manbalarni tarixiy jihatdan talqin qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Metodologik asoslar. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy va kompleks yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Antik davr Xorazmidagi shaharlashuv, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlat boshqaruvi va xo‘jalik tizimining rivojlanishi arxeologik hamda yozma manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish asosida o‘rganildi. Tadqiqotda

Tuproqqal’a, Qal’aliqir-2, Oqchaxonqal’a, Qo‘yqirilganqal’a kabi yodgorliklardan olingan arxeologik materiallar, qadimgi Xorazm yozuvlari hamda antik mualliflar ma’lumotlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy va tizimli tahlil usullari orqali sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, soliq tizimi, yer-suv munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanishning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, manbashunoslik va muammoviy-tahliliy yondashuvlar asosida davlat xo‘jaligi, ibodatxona mulklari, jamoa munosabatlari hamda qaram mehnat shakllarining o‘rni baholandi. Mazkur metodologik yondashuvlar antik davr Xorazmida shaharlashuv va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini yaxlit tarixiy tizim sifatida ochib berishga xizmat qildi.

Tahlil. Antik davri Xorazmdagi madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berib, ularning ko‘rinishlari o‘ziga xos jihatlardan iborat shaharlashish jarayonlarning yuksalishda ro‘y berdi. Ahamoniylar davriga nisbatan, ko‘plab yangi shahar markazlari vujudga kelib taraqqiy topdi. Ularning son jihatdan o‘sishi Xorazm davlatining maqsadli shaharsozlik siyosatida, shu jumladan, savdo-hunarmandchilik shaharlari (Katta Oybuyurqal’a, Kat, Hazorasp) va sulolaviy-diniy markazlar (Oqchaxonqal’a, Tuproqqal’a) rivojlanishida o‘z aksini topdi.

Mazkur davr Xorazm shaharlari tarixiga oid yozma manbalar ma’lumotlari mavjud emas. Shuningdek, qadimgi Xorazmda jamiyatning tuzilishi, davlat va boshqaruv , ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi haqidagi yozma manbalar ham cheklangan. Shu sababdan qayd etilgan masalalarni qayta tiklashda arxeologik ma’lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.

Mil.avv. VI-V asrlarda Xorazm vohasida aholining joylashishida mutlaq yangi tamoyil namoyon bo‘lib, voha-tumanlarga asoslangan hududiy birliklar shakllana boshladi. Jamiyat asosini dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlarida yashagan katta oila jamoalari tashkil qilib, birlamchi ijtimoiy tashkilot sifatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasida yetakchilik o‘rnini egallab oldi. Bunday oilalar jamoa a’zolari hududiy birliklar doirasidagi yirikroq uyushma – qo‘shnichilik jamoalari tarkibiga kira boshladi.

Markaziy Osiyoda jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi haqida ma’lumotlar dastlab “Avesto” da yoritilib, manbada aholining ozod qismini tashkil qilgan kohinlar, jangchilar, chorvadorlar va hunarmandlar tilga olinadi[7,Б.23.]. Antik davrida jamiyat tarkibi o‘zgarib, “Avesto” da eslatib o‘tilmagan dehqonlar o‘troq aholining ko‘pchiligini tashkil etadi. Shuningdek vohalarda dehqonchilik bilan birga yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Tadqiqotchilarning yozishicha, mazkur davr Xorazm voha-tumanlardagi yerga alohida oila jamoalari egalik qilishgan. Ularga tegishli tomorqalar – dalalar paxsa devorlari bilan o‘rab olingan va har bir uyning hovlisida tandirlar, yozgi uchoqlar va xo‘jalik o‘ralar bo‘lgan[5,cc.42-47.]. Bunday turarjoylar, dalalar va yordamchi xo‘jalik-maishiy imoratlar bilan birgalikda uy xo‘jaligini tashkil qilgan. Yaylovlar va sug‘orish inshootlardan foydalanish jamoatchilik tamoyilga asoslanganini taxmin qilishimiz mumkin. Huddi shunday voha-tuman miqyosida yo‘llar qurish, ko‘priklarni barpo etish kanallar va quduqlarni qazish ishlari jamoatchilik asosida umumiy tarzda amalga oshirilgani bo‘lishi kerak edi. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan vohalarda yer va suvdan foydalanish tizimini yaratish va uni boshqarish dolzab vazifaga aylangan. Suvdan foydalanishda jamoalar o‘rtasida yuzaga kelgan muammolarni hal etish va suvni turli dalalar bo‘ylab taqsimlash vazifalari suvchi kabi amaldor tomonidan bajarilgani ehtimoldan holi emas, chunki sug‘orma dehqonchilik va sun’iy sug‘orish inshootlarning ahvolini markaziy boshqaruv tizimi nazorat qilib turgan. Shuning uchun ham suvchi vazifasini bajargan odam, o‘z ishi uchun ma’lum miqdorda hak olishini faraz qilishimiz mumkin.

Tuproqqal’a saroy hujjatlari va Qal’aliqir-2 ibodatxonasida topilgan yozuvlar Xorazmda saroy va ibodatxonalar o‘z yer mulkiga va aholi yashagan joyiga ega bo‘lganidan guvohlik berib, shuningdek, podshoh va ibodatxona xazinalariga kelib tushgan turli mahsulotlar qayd etilgan. Masalan, Qal’aliqir 2 ibodatxonasidan topilgan xumlar parchalaridagi yozuvlarda “Rashndatakka soliq”, “Vaxshdatakka soliq” va “barcha qullarga soliq” degan so‘zlar bor[4,C.189.]. Bu yozuvlarida Ko‘zaliqir 2 ibodatxonasi atrofida yashagan dehqonchilik jamoalari a’zolariga va ibodatxona xo‘jaligida xizmatlarni bajargan odamlarga belgilab berilgan soliqlar miqdori xususida so‘z yuritilgan bo‘lishi kerak. V.A.Livshis yozuvlarning ma’nosini izohlashda “barcha qullarga (yoki “xizmatkorlarga”) soliq” kabi variantini taklif qilgan. Soliqlar, asosan, qishloq xo‘jalik mahsulotl to‘lovlari shaklida yig‘ib olingan ayrim holatlarda soliq tanga pullar va hunarmandchilik buyumlar shaklida davlat omborxonasiga topshirilgan.

Ibodatxonadan aniqlangan sopol parchalari yuziga bitilgan yozuvlar ichida moliyaviy xujjatlar mavjud bo‘lib, ularda oltin narsalar orasida kumush tangalar tilga olinadi. Mazkur narsalar va tangalar ehson shaklidagi tushumlar bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Qiyoslash misolida, qayd etish joizki, shunday

ehsonlar Baqtriyadagi Taxti Sangin ibodanxonasidan topilgan hamda Oyxonim saroyning g‘aznasida aniqlangan sopol idishlarning sirtidagi yozuvlaridan ma’lum.

Shularni hisobga olib, Xorazmda ham Qo‘yqirilganqal’a, Elxaras, Qal’aliqir, Oqchaxonqal’a va Tuproqqal’adagi davlat miqyosda markaziy, katta ibodatxonalari podshohlar tomonidan, birinchi galda, o‘z manfaatlariga xizmat qilish uchun qurilgani ehtimoldan holi emas. Ushbu ibodatxonalar o‘z yerlari, hunarmandchilik ustaxonalari, omborxonalari, mulki, chorva podalari va xizmatkorlariga ega bo‘lishgan.

Qadimgi Xorazm yozuvlari, o‘zining katta va boy xazinasiga ega saroy va yirik ibodatxona xo‘jaliklari mavjudligini ko‘rsatib beradi. Yana bir muhim masala shundan iboratki, Tuproqqal’adan topilgan va “Xonadonlar ro‘yxati” nomida fanga joriy etilgan hujjatlar asosida Xorazmning qadimgi tarixiga oid katta oilaning tuzilishi qayta tiklanganligi ma’lum. Yozuvlarda avval uy egasi, katta patriarxal oila boshlig‘i “Sunvan uyi” (xonadoni), “Gaunshami uyi”, “Shirmanak uyi”, deb tilga olinadi va keyin uning voyaga yetgan o‘g‘illari, xonadon sohibining xotini va ba’zi holatlarda onasi, kuyovi hamda ular barchasining qullari sanab o‘tilgan. V.A.Livshisning fikriga ko‘ra, oila tarkibida kuyovning mavjudligi turmushga chiqqan qiz ota oilasida qolishi mumkin bo‘lganini ko‘rsatadi. Uy xo‘jaliklarida 12 dan 17 tagacha qullar bo‘lgan.Xonadonlar ozod erkaklari soniga nisbatan hisoblarga ko‘ra, qullar kattaroq miqdor tashkil etishadi[3].

Qullar qarzga botgan yoki o‘z mulkini yo‘qotgan, yashash uchun daromadi yetmagan jamoa a’zolari bo‘lishi kerak, chunki ular va oilaning ozod vakillari xorazmcha ismlarga ega bo‘lgan. Tahlil qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi Xorazmda “uy qulchiligi” deb atalgan tobelik shakli bo‘lib, qullar mehnatidan nafaqat xonadonlar ro‘zg‘orida, balki ishlab chiqarish sohalarida keng foydalanilgan. Qullar har bir xonadon a’zosiga tegishli bo‘lsada, lekin ularning xususiy mulki bo‘lmagan va shu sababdan huquqlari aniq cheklanib, xonadon xo‘jaligidagi xizmatlari uchun ta’minotga ega bo‘lishgan. Ozod kishilarga nisbatan qullar “bandak” deb nomlangan. Bu atama bir odamning boshqasiga tobeligini anglatuvchi tushuncha bo‘lgan.

Natijalar. Qadimgi Xorazm iqtisodiyoti asosini qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni tashkil etgan. Sug‘orma dehqonchilik yuqori darajada rivojlangan. Dehqonchilik qurollari ancha takomillashib, temir tishli omoch, ketmon va belkurak yordamida dalalarga ishlov berish ancha osonlashdi.

Temir o‘roqlar xosil yig‘ish jarayonida ishlatilgan. Bunday o‘roqlardan jamoalar qishloq xo‘jalik ishlarida foydalanish, arxeologik topilmalarga ko‘ra, mil. avv. V asrda boshlanadi.

Antik davrida Xorazm vohasida an’anaviy bug‘doy, arpa, tariq yetishtirilib, ehtimol, sholi ham ekilgan. Yunon geografi va tarixchisi Strabonning aytishicha, sholikorlik Baqtriyada, ya’ni Oks (Amudaryo) havzasida rivojlangan. Yunon muallifi shunday yozadi: “Aristobulning so‘zlariga ko‘ra sholi ko‘p boshoqlar va ancha don hosil qilishi uchun suv to‘silgan joylarda ekilgan bo‘lib, to‘ppa-to‘g‘ri suvdan o‘sib chiqadi.”.

Tuproqqal’ada aniqlangan devoriy rangli suratlarda hamda boshqa arxeologik yodgorliklardan topilgan sopol idishlarning sirtidagi tasvirlarda, bog‘ va uzumzor oralab meva va uzum terib yurgan ayol va erkaklar ifodalanganligi[8,бб.192-197.], Xorazmda uzum yetishtirish va bog‘dorchilik keng rivojlanganidan guvohlik beradi. Uzumdan may tayyorlash va katta sopol idishlarda saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlar, ko‘p xumlar, Xorazmning turli dehqonchilik vohalarida aniqlanib, shuningdek, o‘rik va shaftoli danaklari topilgan.

Katta oila jamoalari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlab, o‘z ehtiyojlarini qondirib turganlar hamda soliqlarni mahsulot bilan to‘lashgan. Uy sharoitida ip yigirish, to‘qimachilik, kiyim tikish, bo‘yra to‘qish, yog‘och va suyakka ishlov berish hamda charm ishlab chiqish rivojlangan.

Ixtisoslashtirilgan hunarmandchilik ichki va tashqi bozor uchun ishlardi. Tadqiqotning oldingi sahifalarida kulolchilik ishlab chiqarish va metallga ishlov berish haqida so‘z yuritilgan edi. Saroy, ibodatxonalar xo‘jaliklarda va voha-tumanlardagi o‘z do‘kon-ustaxonalarga ega metallga ishlov beruvchi ustalar, qurolsozlar, zargarlar, kulollar va boshqa hunar egalari faoliyat yuritib, maxsus buyumlarni ishlab chiqarishgan. Masalan, Tuproqqal’a hujjatlarida 10 dona arava g‘ildiragi topshirilgani qayd etilgan. Mazkur yozma ma’lumot g‘ildirak va arava yasovchi hunarmandlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Xorazmning iqtisodiy hayotida ayirboshlash va tashqi karvon savdosi katta ahamiyat kasb etgan. Mil.avv. II asrning oxiridan Xorazmda hukmdorlarning tangalari zarb etilib, mamlakat iqtisodiy munosabatlariga pul muomalasi kiradi va mintaqalararo bozor rivojlanadi[2,C.50.]. Shuningdek ichki bozorda natural mahsulot almashish jarayoni davom etadi. Tashqi savdo yo‘nalishlari, Amudaryo, Uzboy o‘zani, Sharqiy Kaspiy hududlari bo‘ylab,

Xorazmni Baqtriya, Marg‘iyona, Parfiya va Eron bilan bog‘lagan, shu qatorda Xorazm vohasidan Yevroosiyo dashtlariga tranzit savdo yo‘llari o‘tgan[1,bb.17-18.]. Amudaryo suv yo‘li va Baqtriya hududi orqali Hindiston bilan ham savdo aloqalar rivojlangan, buni voha qadimiy shaharlarida ko‘p miqdorda topilgan kushon podshohlarning tangalari tasdiqlab beradi[6,cc.10-21.].

Yevroosiyo dashtlarida yashagan ko‘chmanchi chorvadorlarning mozor qo‘rg‘onlarida nafaqat Hindiston va Eronda yasalgan hunarmandchilik buyumlari aniqlangan, balki G‘arbiy Sibirdagi Isakov mozor qo‘rg‘onidan topilgan, kumushdan ishlangan, sirtida Xorazm yozuvi mavjud, ikkita idish ham e’tiborga molikdir. Ushbu topilmalar xorazmliklarning tashqi iqtisodiy aloqalarda faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Tashqi tranzit karvon savdosi Xorazm davlatining markaziy boshqaruvi nazoratida bo‘lib, keng taraqqiy topgan.

Xulosa. Qayd etish joizki, antik davri Xorazmda shaharlar, alohida qal’alar va dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlar shakllandi. Ba’zi yirik shaharlar sulolaviy va diniy markazlar, boshqalari hunarmandchilik, savdo markazlari bo‘lgan, qal’alarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarning omborxonalari joylashgan.

Qo‘yqirilganqal’a, Qal’aliqir 2 ibodatxonalarida hamda Okchahonqal’a va Tuproqqal’a saroy-ibodatxonalarida qo‘lga kiritilgan ilmiy ma’lumotlar, Xorazm davlatidagi yirik ibodatxonalar va podshoh saroyi o‘z xo‘jaliklariga – chorva podalari, yerlari, hunarmandchilik ustaxonalari va xazinasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Podshohlik aholining asosiy qismini qishloq xo‘jalik jamoalari (dehqonlar, chorvadorlar) tashkil qilib, shuningdek, ijtimoiy tarkibda zodagonlar, kohinlar, jangchilar, hunarmandlar, savdogarlar va xorazm yozuvlariga ko‘ra, qaram kishilar qullar mavjud bo‘lgan. Qullar yordamida dehqonchilik, qurilish ishlari va boshqa xizmatlar amalga oshirilgan.

Xorazm davlati siyosatida ma’muriy-soliq yig‘uvchi tizimini tashkillashtirish va aholini soliqqa tortish katta ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan, davlat o‘z aholisining xavfsizligini shaxs va mulk himoyasini ta’minlash kerak edi, chunki qishloq xo‘jalik jamoalari va hunarmandlar davlatga daromad keltiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning asosi bo‘lgan.

Davlatning hududiy-ma’muriy bo‘linishi, alohida sug‘orish hududlari, irrigatsiya voha-tumanlariga ajratilishi ham, ko‘p jihatdan soliq siyosati bilan bog‘langan. Bu hududiy tuzilishning yaratilishi mahalliy boshqaruv va ichki nazoratga, yer va suvdan foydalanish tartibiga, jamoa a’zolarining davlat ishlariga (sug‘orish inshootlar - kanallarni qazish, ko‘priklar va yo‘llar qurish,

dashtlarda karvon yo‘llari bo‘ylab quduqlarni qazish, xom g‘isht tayyorlab, qa’alar qurilishi joylariga yetkazib berish) va boshqa majburiyatlarga ko‘maklashgan.

Hunarmandlar va savdogarlar jamiyatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Xorazmda hunarmandchilik ustaxonalari va turlicha kasblar ustalarning uylari dehqonchilik vohalarida va davlat qal’alarining atroflarida joylashgan. Ichki savdo, mahsulot almashinuvi asosan natural shaklda amalga oshirilgan. Uzoq masofadagi tashqi savdo-sotiq tizimi, mintaqalararo bozor taraqqiy topishi natijasida Xorazm davlatida tangalar zarb qilingan.

Adabiyotlar

1. Kudaybergenov S. Sh. Orolbo‘yi qadimgi yo‘llarining tarixi: tarix fan. Falsafa doctor (PhD) diss.. avtoref. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2023. – B.17-18.

2. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.:1977. – С.50.

3. Лившиц В.А. Документы // Топрак-кала. Дворец.Тр.ХАЭЭ. – М.: 1984. Т.XIV. – С.265-266.; Памятники хорезмийской письменности // ВДИ. – М., 2009. – № 3. – С. 108-109.

4. Лившиц В.А. Надписи и документы // Калалы-гыр 2. Культовый центр в древнем Хорезме. – М.:ИВЛ, 2004. – С.189.

5. Неразик Е.Е. Материалы по землепользованию и землевладению в Хорезме первых веков н.э. // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.42-47.

6. Ртвеладзе Э.В. Находки монет на Великом Индийском пути // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент: 2010. Вып IX. – С.10-21.

7. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистан илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 23.

8. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб... Б. 192-197.

MOVAROUNNAHR TARIXIDA DASHTI QIPCHOQ VA MO‘G‘ULISTONNING TUTGAN O‘RNI

Mamanov Abdurahim Abduhakimovich,
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Movarounnahr tarixiy taraqqiyoti davriylik va siklizm nazariyasi asosida tahlil qilinib, Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonning mintaqadagi siyosiy, ijtimoiy va geosiyosiy jarayonlarga ta’siri yoritiladi. Movarounnahr davlatchiligi va siyosiy tizimlarining tug‘ilish, yuksalish, turg‘unlik, inqiroz va tanazzul bosqichlarini takroran bosib o‘tishi tarixiy-siklik jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon Temuriylar imperiyasining shakllanishi, yuksalishi va siyosiy parokandalik davrida ham namoyon bo‘lgan. Tadqiqotda mazkur siklik o‘zgarishlarga O‘rta Osiyoning geografik muhiti, ishlab chiqarish usuli, dasht va voha hududlarining o‘zaro ta’siri hamda Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston bilan siyosiy-harbiy munosabatlar ta’sir ko‘rsatgani asoslanadi.*

Аннотация. *В статье историческое развитие Мавераннахра анализируется на основе теории цикличности и исторического циклизма, а также рассматривается влияние Дешт-и Кипчака и Могулистана на политические, социальные и геополитические процессы региона. Повторное прохождение государственностью Мавераннахра этапов возникновения, подъёма, стагнации, кризиса и упадка интерпретируется как историко-циклический процесс. Данная закономерность проявилась и в истории империи Тимуридов, прошедшей этапы формирования, возвышения и последующей политической фрагментации. Обосновывается, что на эти циклические изменения влияли географическая среда Центральной Азии, способ производства, взаимодействие степных и оазисных территорий, а также военно-политические*

отношения с Дешт-и Кипчаком и Могулистаном.

Abstract. *This article analyzes the historical development of Transoxiana through the theory of historical cyclicity and examines the influence of Dasht-i Qipchaq and Moghulistan on the political, social, and geopolitical processes of the region. The repeated passage of the statehood and political systems of Transoxiana through the stages of emergence, rise, stagnation, crisis, and decline is interpreted as a historical cyclical process. This pattern was also evident in the history of the Timurid Empire, which experienced stages of formation, rise, and subsequent political fragmentation. The study argues that these cyclical transformations were influenced by the geographical environment of Central Asia, the mode of production, the interaction between steppe and oasis territories, and military-political relations with Dasht-i Qipchaq and Moghulistan.*

Kalit so‘zlar: *Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Mo‘g‘uliston, davriylik, siklizm, Temuriylar imperiyasi, geografik muhit, ishlab chiqarish usuli.*

Ключевые слова: *Мавераннахр; Дешт-и Кипчак; Могулистан; цикличность; исторический циклизм; империя Тимуридов; географическая среда; способ производства.*

Keywords: *Transoxiana; Dasht-i Qipchaq; Moghulistan; cyclicity; historical cyclicism; Timurid Empire; geographical environment; mode of production.*

KIRISH

Ma’lumki, har bir xalq o‘z tarixiy taraqqiyoti mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiyva boshqa jihatlar bo‘yicha muntazam o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Bunday o‘zaro ta’sirlashuv uzoqroqda joylashgan xalqlar bilan ham amalga oshishi mumkin bo‘lsada, ammo yaqin, ya’ni qo‘shni xalqlar orasida bunday ta’sirning ahamiyati katta bo‘ladi. Xuddi shuni inobatga olgan holda O‘rta Osiyo-Movarounnahrda yuz bergan tarixiy voqea-hodisalarni

o‘rganish, taraqqiyot yo‘li hamda omillarini belgilash uchun O‘rta Osiyoga yaqin qo‘shni hududlar – Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston bilan tarixiy-jug‘rofiy nuqtai-nazardan tanishib chiqish ehtiyoji seziladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Movarounnahr va Dashti Qipchoq o‘rtasidagi tarixiy-siyosiy munosabatlarni o‘rganishda Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda turkiy xalqlar va sulolalar tarixining siyosiy-geografik makon bilan uzviy bog‘liqligi, dasht hududlarida shakllangan siyosiy kuchlarning Movarounnahrdagi davlatlar taraqqiyotiga ta’siri aks etadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlarida esa Amir Temur davlatchiligining shakllanishi, hududiy kengayishi hamda Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston yo‘nalishlaridagi harbiy-siyosiy jarayonlar batafsil yoritilgan. Mazkur manbalar geografik makonning davlatlararo munosabatlarga ta’sirini ko‘rsatishi bilan sotsiologiyadagi geografik maktabning asosiy g‘oyalari bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashadi. Xususan, dasht va voha hududlarining tabiiy-geografik farqlari, xo‘jalik yuritish shakllari va resurslardan foydalanish xususiyatlari siyosiy kuchlarning shakllanishi hamda ularning o‘zaro munosabatlariga ta’sir ko‘rsatgan omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Rabbimov Erkinning “Amir Temur va To‘xtamish” asarida Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi siyosiy-harbiy qarama-qarshiliklar hamda ularning Movarounnahr va Dashti Qipchoq tarixiy taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot yuqoridagi manbalarni tarixiy-siklik yondashuv asosida qayta talqin qilish uchun muhim empirik asos beradi. Mazkur manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Movarounnahr davlatchiligi rivojida siyosiy tizimlar muayyan sharoitlarda shakllanish, yuksalish, turg‘unlik, inqiroz va tanazzul bosqichlarini takroran boshdan kechirgan. Bu jarayonni faqat siyosiy hokimiyat almashinuvi bilan izohlash yetarli emas; geografik muhit, dasht va voha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ishlab chiqarish usuli va tashqi siyosiy bosimlar ham siklik transformatsiyalarning muhim omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, “Shajarai turk”, ikki “Zafarnoma” hamda “Amir Temur va To‘xtamish” asarlarida keltirilgan tarixiy ma’lumotlarni geografik maktab va siklizm nazariyasi asosida tizimli tahlil qilish Movarounnahr tarixiy taraqqiyotining takrorlanuvchi xususiyatlarini hamda Temuriylar davlati yuksalishi va tanazzulining tashqi-geografik omillarini chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

MUHOKAMA

O‘rta Osiyo-Movarounnahrga yaqin qo‘shni boshqa hududlar, xalqlar ham bor albatta. Lekin bu xalqlarning hech biri O‘rta Osiyo tarixiga Mo‘g‘uliston yoki Dashti Qipchoqchalik ta’sir ko‘rsatgan emas.

Xo‘sh, nima uchun Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston O‘rta Osiyo tarixida boshqa qo‘shni hududlarga nisbatan kattaroq, muhimroq ahamiyatga ega bo‘lgan ta’sir ko‘rsatgan?

Bizning fikrimizcha, Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonning tabiiy-jug‘rofiy sharoitidan kelib chiqadigan ishlab chiqarish usuli – ko‘chmanchi chorvadorlik ana shu xalqlarning O‘rta Osiyoga boshqa xalqlarga nisbatan muhimroq, kattaroq ta’sir ko‘rsatishiga asosiy sabab edi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyoning tabiiy-jug‘rofiy hamda iqlimiy sharoiti bu yerda o‘troq turmush tarziva sug‘orma dehqonchilikning asosiy, ustuvor ishlab chiqarish usuliga aylanishiga olib kelgan. Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston tabiiy sharoitiva iqlimi jihatidan ko‘chmanchi chorvachilik ishlab chiqarishi uchun ko‘proq mos kelar edi.Ma’lumki, o‘troq xalqlar bilan ko‘chmanchi chorvadorlar o‘rtasida doimiy ravishda savdo-sotiq, madaniy, siyosiy aloqalar mavjud bo‘lgan. Sharq mamlakatlari, aniqrog‘i, iqtisodida sug‘orma dehqonchilik ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyatlarda taraqqiyot to‘g‘ri chiziqli ko‘rinishda emas, balki “davriy” ko‘rinishga egadir.[1] Ya’ni, iqtisodida sug‘orma dehqonchilik ustuvor bo‘lgan jamiyatlarda taraqqiyot ma’lum darajaga ko‘tarilgandan so‘ng, qoida tariqasida jamiyatda avval turg‘unlik, keyinchalik esa inqiroz-parokandalik ro‘y beradi.

Ko‘chmanchi chorvadorlar, ya’ni Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston aholisi huddi ana shu paytda,ya’ni o‘troqjamiyat tushkunlikka yuz tutayotgan, markaziy hokimiyat zaiflashgan yoki butunlay barbod bo‘lib, mamlakat mayda bo‘laklarga parchalanib ketgan bir paytda bu jamiyatlarga bostirib kirar va bu yerdagi o‘lib borayotgan jamiyatni qaytadan tiriltirar-yangilar edilar.

O‘rta Osiyo tarixining biz tadqiq qilayotgan davri – tyemuriylar saltanati tarixida ham ushbu hodisa judayam yorqin ko‘rinishda yuz bergan edi. Xuddi shu tufayliham biz Dashti Qipchoq hamda Mo‘g‘ulistonning tarixiy-jug‘rofiy tasviri bilan tanishib chiqishimizga ehtiyoj tug‘iladi.

Dashti Qipchoq deyilganda – Kaspiy dengizidan Ural tog‘larigacha, G‘arbda Vengriya tekisliklaridan Oltoygacha bo‘lgan ulkan dasht tushuniladi. [2]

Dasht aholisining asosiy mashg‘uloti ko‘chmanchi-chorvachilik edi. Ko‘chmanchi-chorvachilik insoniyat o‘rgangan ilk ishlab chiqarish usullaridan

bo‘lib, keyinchalik chorva mollarini yem-xashak bilan ta’minlash zarurati tufayli odamlar dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Bugungi rasmiy tarix fanida chorvachilik oldin paydo bo‘lganmi yoki dehqonchilik degan savolga hali –hanuz hammani to‘la-to‘kis qanoatlantira oladigan javob berilganicha yo‘q. Ishlab chiqarish xo‘jaligining vujudga kelishida ikki faktor – biologik va madaniyat muhim omil bo‘ldi. Hayvonlarni xonakilashtirishga o‘tish muayyan tabiiy sharoiti ma’qul, o‘simliklarga, hayvonot dunyosiga boy o‘lkalarda sodir bo‘ldi.[3]

Dashti Qipchoqning asosiy aholisi O‘rta asrlarda ko‘chmanchi-chorvadorlardan iborat bo‘lgan. Bu ishlab chiqarish usuli hamda turmush tarzi ko‘chmanchilarni yoshligidanoq ot minish, ot choptirish, harbiy mashqlarga o‘rganishga majbur qilar edi. Chunki, doim yaylovlar, o‘z jonini va mol-mulkini begonalardan himoya qilish zarurati ko‘chmanchilarni yoshligidanoq mohir chavandoz va dovyurak jangchi bo‘lishini talab qilar edi.

Daryo vodiylarida, o‘troq turmush kechirayotgan jamiyatlarda vaqti-soati kelgan paytdan boshlab davlat - o‘z fuqarolarining hayoti va mol-mulkini zo‘ravonlarning tajovuzidan himoya qiluvchi tashkilot paydo bo‘ladi. Ammo ko‘chmanchi chorvadorlar jamiyatida ham vaqti-vaqti bilan siyosiy uyushma – davlat paydo bo‘lib tursa ham, birinchidan, bu davlat hech qachon o‘troq jamiyatlardagi kabi barqaror bo‘lmagan.

Ikkinchidan esa, bu davlatdavlat deb atalsada, ammo o‘z vazifalari-funksiyasi jihatidan o‘troq turmush tarziga ega bo‘lgan jamiyatlarda paydo bo‘ladigan davlat vazifalari-funksiyalarini - o‘z fuqarolarining shaxsiy va mulkiy daxlsizligini zo‘rovonlikdan himoya qilish funksiyasini hech qachon to‘la-to‘kis ado eta olmagan.

Ko‘chmanchi-chorvadorlik turmush tarzi uchun eng asosiy ijtimoiy uyushma – urug‘ bo‘lib, urug‘ oqsoqoliva kengashi tomonidan qabul qilingan qarorva tarixan tarkib topgan urf-odatlar, qadriyatlar asosida boshqarilar edi.

Ko‘chmanchilik xo‘jaligi va urug‘-aymoklar hamda el-yurt «biy» — urug‘ oqsoqoli, «yabg‘u» — qabila boshlig‘i, «bek» va «xoqon» — ulus va yurt hukmdori tomonidan boshqarilib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning o‘ziga xos davlat boshqaruvi tizimlari shakllanadi. O‘zlarining serharakatligi, qurol ishlatish mahoratiga ko‘ra ko‘chmanchilar jang olib borishga doimo tayyor edilar.[4]

Ammo, ko‘chmanchi-chorvador boyning asosiy dushmani o‘z qarindoshi – kambag‘al emas, balki tevarak-atrofdagi boshqa urug‘lar, boshqa qabilalar edi. Xuddi shuning uchun ham o‘troq boy uchun kambag‘al qon-qardoshi dushman

bo‘lgani holda, ko‘chmanchi boy bilan kambag‘al bir-birlarining himoyachisi edilar. Xuddi shuning uchun ham ko‘chamanchi-chorvador xalqlarda urug‘ nihoyatda yashovchanlik kasb etib, bu turmush tarzining mazkur xususiyati faqatgina Dashti Qipchoq xalqlari tarixigagina emas, balki unga qo‘shni xalqlar – xususan Movarounnahr xalqlari tarixiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri bo‘ldi.

Oltin O‘rda – bu davlat Chingizxonning nabirasi Botuxon tomonidan asos solinganidan boshlab, tevarak-atrofdagi deyarli barcha xalqlar uchun dahshatli istilochi kuch bo‘lib keldi.Ammo Amir Temur zamoniga kelganda Oltin O‘rda ancha zaiflashgan, o‘zaro urushlar uning tinka-madorini quritgan edi. O‘zaro urushlarda raqiblar doimo raqibiga qarshi kurashda yordam so‘rab, boshqalarga murojaat qilar edilar. Masalan, To‘xtamishxon O‘rusxonga qarshi urushda yordam so‘rab, Amir Temurga murojaat qiladi:

“Vaqtiki To‘qtamish O‘rusxondin qochib, Temuriyning yoniga – Samarqand keldi. Ortindin Edigey mang‘it keldi, aytdi kim O‘rusxon jam’i lashkar qilib bu tarafka mutavajjih bo‘ldi, deb. Temurbiyning madadi birlan To‘qtamishxon O‘rusxonni bosib, Jo‘gixonning xalqiga ega bo‘lub shahri Saroyda xonliq taxtinda o‘lturdi. ... Bir necha vaqtdan so‘ngAmir Temur Eron mamlakatiga otlandi. To‘qtamishxon Movarounnahrni xoli topub Samarqandga kelib, bir necha musulmonlarni shahid qilib, qatl va g‘orat qilib, qaytib ketdi. Amir Temur bu xabarni eshitib, qaytib kelib, Samarqandda turmay To‘qtamishxonning ustiga otlandi. Borib Atil suvining bo‘yinda To‘qtamishxon birlan urishtilar. Axir Amir Temur nusrat topub To‘qtamishxon qochib ketdi. Temuriy ko‘b xalqni qatl qildi”.[5] Sharafiddin Ali Yazdiy: Amir Temur tomonidan To‘qtamishxonni birinchi bor kutib olinishi haqida shunday xabar beradi: “Hazrat SohibqironQo‘chqor mavzesida edi.

To‘xtamish o‘g‘lonO‘rusxondan qo‘rqib, panoh tilab kelayotganini eshitdi. Hazrat Sohibqiron hayallamay, o‘zbek beklaridanTumanbekni uni izzat-hurmat bilan keltirish uchun yubordi”.[6]

Amir Temur Oltin O‘rda taxtida o‘ziga qarashli kishi bo‘lishini xohlar edi. To‘xtamishxonning O‘rusxondan qo‘rqib qochib kelishi Amir Temur uchun ayni muddao bo‘lgan edi.

Ammo To‘xtamishxonni Oltin O‘rda taxtiga o‘tqazish Amir Temur uchun oson kechmadi, ya’ni To‘xtamishxon birinchi gal O‘rusxondan yengilib, o‘zi bazo‘r omon qoladi. Ikkinchi gal O‘rusxonning o‘g‘li uni mag‘lubiyatga uchratdi. To‘xtamishxon Oltin O‘rda qo‘shinlaridan uch marotaba yengilishiga

qaramay Amir Temur uni baribir qo‘llab-quvvatlashda davom etdi va oxir oqibat To‘xtamishxon Oltin O‘rda taxtini egallashga muvaffaq bo‘ldi.

To‘xtamishxon Amir Temurning umidlarini puchga chiqardi. Amir Temurning Eron yurishiga ketganidan foydalangan To‘xtamishxon Amir Temur davlatiga hujum qilib, bu yerlarni – asosan Xorazm va Quyi Sirdaryoni talaydi.Amir Temur tutingan o‘g‘lining bu ishlari haqida eshitganida avval boshda ishongisi kelmaydi: “Biz axir To‘xtamish bilan ota-bolamizku!? Nega biz o‘rtadagi ahdu-paymonni buzishimiz kerak? Agar kimda -kim oramizga nifoq urug‘ini sochayotgan bo‘lsa, u xudoning qarg‘ishiga uchrashi tayin. Biz undaylarni jazolashimiz kerak”.[7]

Bu xabarni eshitgan Amir Temur ortga – Samarqandga qaytishga majbur bo‘ladi, va xiyonatkor ittifoqchi ustiga qo‘shin tortishga majbur bo‘ladi. Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida Itil(Atil) bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda To‘xtamishxon yengildi, ammo o‘zi qochishga muvaffaq bo‘ldi. To‘xtamishxon Amir Temur davlati hududlariga - bu safar Ozarbayjon orqali yurish qiladi. Amir Temur “nonko‘r” ni jazolash uchun Oltin O‘rdaga qarshi uch marta yurish qiladi. (1388, 1391 va 1394-1395). Amir Temurning To‘xtamishxon bilan bo‘lgan Tyerek jangi o‘sha paytdagi eng katta qo‘shinlar va eng buyuk sarkadalar to‘qnashuvi bo‘lganligini mutaxassislar ta’kidlaydilar.

Klavixoning ta’kidlashicha,[8] To‘xtamishxon ustidan qozonilgan g‘alabani Amir Temur o‘zi quchgan zafarlar ichida eng asosiysi deb hisoblagan. Bir necha kun davom etgan jangda kimning qo‘li baland kelishini hech kim aniq bilolmagan. Oltin O‘rdaning Qora dengizdan to Irtish daryosigacha bo‘lgan Osiyo va Yevropa mintaqlarida hukmronlik qilishi xal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, Temur saltanatiga eng katta xavf shu hududdan kelishi tadiiy edi. Jangda har ikki tomon botirlari ham mardlik, jasurlik namunalarini ko‘rsatganlar.: - bu yerda hali hech kimdan yengilmagan ikki qo‘shin baqamti kelgan va har biri ham faqat va faqat g‘alabani o‘ylar, o‘limni nazar pisand qilmas edilar.Tarixchilar ayrim bahodirlar ko‘rsatgan mardligu-matonatni o‘z asarlarida muhrlaganlar:

“Yag‘libiykim, bahrindin erdi, choriki bilan ilgari yurub dedi:
O‘zin maqtabon dedikim: Ey sipoh!
Ki men Yag‘libiymen, bil, kiynagoh
Palang yirtaram kuch bila tog‘ aro,
Choparman agar bo‘lsa sher bog‘ aro.”[9]

To‘xtamishxon tomonidan o‘rtaga chiqqan Yag‘libiy bahodur bahrin Temur qo‘shinidan Usmon bahodurni talab qiladi. Jang qizib ketadi. Yag‘libiy

o‘z oti oyog‘iga zanjir urganligi sababli qochishdan mahrum bo‘lib, Usmon ikkoviot ustida bir-birlarining yoqasidan oladilar va yerga yiqiladilar. Usmon Yag‘libiyning boshini tanasidan judo qiladi. Buni ko‘rib turgan bahrin ulusi dengiz mavji kabi raqib ustiga tashlanadilar. Yag‘libiy jasadi ustida talashgan ikki tarafdan jasadlar tog‘dek uyuladi.

Oxirida “... Aytishlaricha Yag‘libiy bahodir bahrinning jasadini bahrin ulusidan yelkalariga qora jovshan osgan, ot hamda oq qo‘toslar mingan yetti yuz nafar yosh yigit olib chiqib ketdilar”.[10]

Yag‘libiy ulusi – bahrin urug‘ining yigitlari nima uchun o‘z jonlari evaziga bo‘lsada sardor jasadini jang bilan qaytarib olishga bunchalik harakat qiladilar?

Yuqorida aytilganidek, ko‘chmanchilik turmush tarzining asosi – ijtimoiy tuzumning bosh bo‘g‘ini – bu urug‘ edi. Ko‘chmanchi o‘z urug‘i or-nomusi, sharafi uchun doimo jonini berishga tayyor turishi kerak edi. Chunki urug‘ uning vatani, uyi, ovuli, oilasi, bola-chaqasining va o‘zining ham himoyachisi, boshpanasi edi.

Ko‘chmanchilarning mardligi va jasoratlarini ko‘rsatuvchi bir voqea tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan:

Vamberining asarida quyidagicha izoh keltiriladi: Shayboniyxonning odamlari Burga sultonning qarorgohiga kirib, askarlarini o‘ldirib, Burga sultonning qochishga muvoffaq bo‘lganligini va yarador bo‘lganligini aniqlaydilar. Ular qon izidan borib bir yarador askarni topib: “Kimsan” deb so‘raydilar. “Men Burga sultonman” degan javobdan so‘ng, uni Shayboniyxon huzuriga olib kelganlarida uning Burga sultonning navkarlaridan biri ekanligi ayon bo‘ladi. Shunda Shayboniyxon: “Sen nega o‘zingni Burga sultonman deding” , deb so‘raganida navkar: Podshoh, men Burga bilan birlikda o‘sdim, oning emgak tuzini oshladim, sening odamlaring oni izlaganlarini bilganim vaqt, oning hayotini qutqarmoq uchun o‘zimni fido etarg‘a, onga ta’yin etilgan o‘lim o‘qini o‘z ko‘kragimga olurg‘a qaror berdim. Endi ixtiyor sizda, tilasangiz nishlangiz”, deb javob bergan. “Shayboniyxon xeyli bir oliyjanob zod bo‘lg‘onlikdan bu nomusli odamga zo‘r mukofot berib uni ozod etgan”.[11]

Chingizxonning bir hovuch ko‘chmanchilardan butun dunyoni titratgan qo‘shin tuza olishining sabablaridan biri, bu xalqning ko‘chmanchitabiatida, urug‘, qabila, or-nomus kabi qadriyatlarning xalqni xalq qilib birlashtirganligida edi.

Amir Temur Oltin O‘rdaga bunchalik katta e’tibor qaratishining sababi, mintaqaning geosiyosiy ahamiyati bilan ham bog‘liq edi. U To‘xtamishxonni

uch marta xonlik taxtiga o‘tqazadi.[12] Ammo To‘xtamish uning yaxshiliklariga javoban uning mulkiga hujum-tajovuz qildi, tutingan otasiga qarshi qurol ko‘tardi.

To‘xtamishxon har safar mag‘lubiyatga uchraganida qo‘lga tushmay qochib qolishga muvaffaq bo‘lardi. Ikkinchi mag‘lubiyatidan so‘ng, u qochib borib, Qrim xoni bo‘ldi. Ammo Amir Temur uni ta’qib etishga urinmadi, agar xohlaganida, uni tutib, qatl qilishga imkon topardi albatta. Amir TemurningTo‘xtamishxonga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishi tarixda kam uchraydigan holatlardan hisoblanadi.

To‘xtamishxon o‘n yil mobaynida sargardon bo‘lib yurib 1405 yil Xitoy yurishiga otlangan Amir Temur huzuriga elchi yurib, tavba-tazarru etadi. Sohibqiron unga Xitoydan qaytgach, yana bir bor Oltin O‘rda masalasi bilan shug‘ullanishini aytdi”. [13]

To‘xtamishni uch marta Oltin O‘rda taxtiga o‘tqazib qo‘ydi, har safar xiyonat bilan javob qaytardi. To‘rtinchi safar ham tavbasi qabul bo‘lib, Xitoy safaridan so‘ng Oltin O‘rda xonligini unga topshirishga va’da berildi.

Amir Temurning To‘xtamishxonga munosabati Oltin O‘rdaning harbiy salohiyati bilan bog‘liq edi. G‘arbda Vengriyadan, Sharqda Oltoygacha, janubda Kaspiy qirg‘oqlaridan shimolda Uralgacha cho‘zilgan bu bepoyon dasht ko‘pdan ko‘p jangari qabilalar makoni bo‘lib, iste’dodli lashkarboshi rahbarligida ular yengib bo‘lmas dahshatli kuchga aylanishini Amir Temur yaxshi tushunar edi. Amir Temur oldida Oltin O‘rdaga munosabat masalasida ikki yo‘l bor edi. Birinchisi – Oltin O‘rda taxtida Amir Temurga bo‘ysunuvchi odam bo‘lishi kerak edi. 1387 yili To‘xtamishxon kutilmaganda Shimoliy Ozarbayjonga bostirib kirib, ko‘p joylarini taladi va juda ko‘p odamning yostig‘ini quritdi.Amir Temur zudlik bilan askar yuborib, ularni Ozarbayjondan quvib yubordi. Shu to‘qnashuv paytida To‘xtamishxonning bir necha taniqli beklari asir olindi. Boshqa hukmdor bo‘lganida, ularni qatl etardi, ammo Amir Temur asirlarning gunohidan o‘tdi va: “To‘xtamishxon bizga o‘g‘il turur, oramizda ota-bola hurmati bor, unga aytinglar, bunday yomon ishlarga qo‘l urmasin”, deya tayinlab, barini ozod etib, ortga qaytarib yubordi.[14] Endi Amir Temur Oltin O‘rdani iqtisodiy, harbiy, siyosiy jihatdan butkul tor-mor keltirish borasi yakuniy xulosaga keldi.

1494-1495 yillarda Oltin O‘rdaga nisbatan ana shu usul qo‘llanildi – Oltin O‘rdaning eng yirik va boy shaharlari bo‘lgan Astraxan va Saroy Berka talandi va yondirib yuborildi.

Oltin O‘rdani bu yo‘l bilan ham butunlay yengib bo‘lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan bo‘lsa kerak. Uning To‘xtamishxonni qayta-qayta kechirishi bejiz emasdi. Yuqorida ta’kidlaganidek, bu keng va bepoyon dashtda yaylovma-yaylov ko‘chib yurishga odatlangan qabilalarni faqatgina ularning o‘zlaridan bo‘lgan, o‘zlari o‘zimizniki, bizniki deb hisoblaydigan, ya’ni Chingiziylardan bo‘lgan kishigina boshqara olardi.

Shu sababli Amir Temur To‘xtamishxonni bir necha bor qilgan xiyonatlariga qaramay kechirgan, aniqrog‘i kechirishga majbur bo‘lgan edi.

Demak, Amir Temur Oltin O‘rdaga munosabat masalasida judayam teran o‘ylabish tutganligini ko‘ramiz. Bir tomondan u Oltin O‘rdani harbiy, iqtisodiy jihatdan yanchib tashladi, ammo buning yetarli emasligini to‘la anglagan holda Oltin O‘rdaga o‘z kishisini yana bir bor qo‘yishga harakat qilayotganini ko‘ramiz. Ammo Amir Temurning kutilmaganda vafot etishi uning rejalarini ham barbod bo‘lishiga olib keldi. Ammo, baribir Amir Temurning Oltin O‘rdaga bergan harbiy-iqtisodiy zarbasi sababli Oltin O‘rda bu zarbalardan keyin o‘z qudratini tiklay olmadi va bir necha bo‘lakka bo‘linib ketdi.

Ko‘pchilik tarixchilar Amir Temur tomonidan Oltin O‘rda va Usmoniylar saltanatining mag‘lub etilishi Ovro‘poning kuchayishiga olib keldi degan fikrda: ”Temur o‘zining To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi bilan rus yerlarinining mo‘g‘ul-tatar zulmiga qarshi kurashiga bilvosita yordam ko‘rsatdi”.[15]

Amir Temurning To‘xtamishxonni mag‘lub etishi va Oltin O‘rdani xarob qilishi Rusning yuksalishiga asosiy sabab qilib ko‘rsatish bizning fikrimizcha unchalik to‘g‘ri emas. Rus davlati Oltin O‘rda vayron qilinmagan taqdirda ham baribir, o‘z qaddini tiklagan bo‘lar edi. Bunga ishonch hosil qilish uchun Rus bilan G‘arbiy Ovro‘poni taqqoslab ko‘rishning o‘zi yetarlidir.

Bizning fikrimizcha, Rusning Oltin O‘rdaga nisbatan taraqqiyotda ilgarilab ketishi ulardan har-birining tabiiy sharoiti asosida tarkib topadigan ishlab chiqarish usuli bilan bog‘liqdir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Oltin O‘rda-Dashti Qipchoqning tabiiy-iqlimiy sharoiti bu yerda asosan ko‘chmanchi chorvadorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratgani holda Rus tabiiy-iqlimiy sharoiti bu yerda lalmikor dehqonchilikni ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘iga aylantirgan edi.

Ko‘chmanchi-chorvachilik ishlab chiqarish usuli va turmush tarzi taraqqiyotining turg‘unligi bilan ajralib turgan holda, lalmikor dehqonchilik jamiyatlarida taraqqiyot avval boshda sust bo‘lishiga qaramay (Sharq jamiyatlariga nisbatan) to‘xtovsiz ravishda ilgarilab va yuqorilab borilganligi

tufayli vaqti soati kelganda (XV-XVI asr bo‘sag‘alarida) sug‘orma dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvador jamiyatlaridan o‘zib ketdi.[16]

Temur Usmoniylar saltanatini mag‘lub etib, G‘arbiy Ovro‘poni Usmoniylar changalidan bir necha vaqtga bo‘lsada qutqargan edi. Ammo Usmoniylar saltanati keyinchalik kuchayib, deyarli butun Janubiy Ovro‘poni o‘z saltanatiga qaram qilib oldi. Ana shu qaram bo‘lib qolgan xalqlar asta-sekin o‘z xo‘jayinlari – turklardan o‘zib ketganligini biz yaxshi bilamiz. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, Oltin O‘rda ham Rus taraqqiyotini, uning yuksalishini albatta sekinlashtirishi mumkin edi-yu, ammo butunlay to‘xtatib qola olmasdi

Oltin O‘rda bir necha qismlarga bo‘linib ketgan bo‘lsada, ammo uning O‘rta Osiyo – Movarounnahrga ko‘rsatuvchi ta’siri shu bilan to‘xtab qoldi deyish ham xato bo‘lardi. Oltin O‘rda garchi tarqalib ketgan bo‘lsada, uning aholisi – ko‘chmanchi chorvadorlar o‘zining avvalgi shijoati –jangovarligini yo‘qotmagan edi.

“Ma’lumki, 1360-1380 yillar oralig‘ida, ya’ni hokimiyatTo‘xtamishxon tomonidan egallab olinguncha Oltin O‘rdada 25 dan ortiq xonlar almashgan edi. Ular davlat va xuddi shu honlar taqdirini xal qiluvchi feodal guruhlar qo‘lidagi qo‘g‘irchoqlar edilar”.[17]

XV–asrning boshlarida Dashti Qipchoqning deyarli qoq markazidayana kuchli ko‘chmanchilar davlati – Shayboniylar davlati paydo bo‘ldi.

Fikrimizcha, Dashti Qipchoq va Movarounnahr o‘zaro munosabatlarini yaxshiroq tushunish uchun, bu ikki mintaqaga Immanuel Vallerstaynning “Jahon tizimi” nazariyasi orqali qarash yaxshi natija beradi.[18]

Immanuel Vallerstayn nazariyasi asosan kapitalistik munosabatlar boshlangan davrlarga tegishli bo‘lsada, ammo uni ba’zi istisnolar bilan bo‘lsada, O‘rta Osiyo – Dashti Qipchoq munosabatlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Shunday qilib, Immanuel Vallerstayn nazariyasi bo‘yicha dunyoda bir necha iqtisodiy, siyosiy, madaniy markazlar, hamda ulardan har biriga tegishli bo‘lgan chet-qaram o‘lkalar tizimi mavjud.

Immanuel Vallerstayn buni “Jahon tizimi” deb ataydi. Mirosistema nazariyasi bo‘yicha markaz doimo chet-qaram va yarim qaram o‘lkalar ustidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan hukmronlik qiladi. Agar biz ba’ziistisnolar bilan O‘rta Osiyo – Dashti Qipchoq munosabatlariga ana shu nazariyani tadbiq etadigan bo‘lsak, bunda O‘rta Osiyo – Movoraunnahr shubhasiz “markaz” vazifasini bajarishini ko‘ramiz. Ammo O‘rta Osiyo “markaz” vazifasini har doim ham bajaravermaydi.

“Davr”ning “tug‘ilish” bosqichida O‘rta Osiyoda markazlashgan davlatchilikning tashkil topishida Dashti Qipchoq muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Amir Temur davlatining tashkil topishidaDashti Qipchoq ko‘chmanchilarijudayam katta o‘ringa ega bo‘lganlar.

Ammo O‘rta Osiyoda markazlashgan davlatning qaror topishi bilan endi O‘rta Osiyo va Dashti Qipchoq o‘zaro ta’sir masalasida o‘rin almashadilar. Endi yetakchilik, hukmronlik vazifasini bajarish O‘rta Osiyo gardaniga tushadi.

Temuriylar saltanati hukmdorlariAmir Temur, Ulug‘bek Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonda kimlar taxtga o‘tirishini hal qilar edilar.

Biroq, Amir Temur ham, Ulug‘bek ham na Dashti Qipchoqni, na Mo‘g‘ulistonni butunlay istilo qilib, uni o‘zsaltanati tarkibiga butunlay qo‘shib olish va unga o‘z noibini qo‘yishni o‘ylamagan. Buning sababi esa aniq edi – ko‘chmanchilar hech qachon begonalar tomonidan qo‘yilgan begona noibga bo‘ysunmagan bo‘lar edilar. Shuning uchun ham Amir Temur ham, Ulug‘bek ham taxtga ularning o‘z ichidan chiqqan, lekin o‘zlariga, ya’ni Amir Temur yoki Ulug‘bekka sodiq odamlarni o‘tqazishga harakat qilishgan.

O‘rta Osiyoda “davr” o‘zining “turg‘unlik” bosqichiga kirgandan so‘ng, ayniqsa, “turg‘unlik” bosqichining oxirlariga kelib,O‘rta Osiyo o‘zining “markaz” sifatida o‘rnini yo‘qota boshlaydi. “Markaz” o‘rnini endi asta-sekinlik bilan Dashti Qipchoq egallay boshlaydi.

Avvalgi “markaz” hududlari birin-ketin sobiq “qaram” o‘lka ixtiyoriga o‘ta boshlaydi. (Xorazm, Quyi Sirdaryo, Toshkent, Andijon, Konibodom).

“Markaz”da toj-taxt uchun kurashlar boshlangan pallalarda Dashti Qipchoq hatto “markaz”da taxt - hokimiyat to‘ntarish amalga oshirish, taxtga o‘ziga yoqqan, o‘ziga sodiq kishini qo‘yishga harakat qiladi va bunga erishadi ham. (Abulxayr tomonidan Mirza Abdullaning taxtdan olinishi va o‘rniga Abusaidning o‘tqazilishi).

“Davr”ning “turg‘unlik” bosqichi oxirlab, “inqiroz-parokandalik” bosqichi yaqinlashgani sayin Dashti Qipchoqning Movarounnahrga ta’siri kuchayib boradi.

Dashti Qipchoq sarkardalari (Shayboniyxon) avval boshda temuriyzoda shahzodalar qo‘lida xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik bu temuriyzoda amirlar bilan jangga kirishadiva birin-ketin Movarounnahr viloyatlarini o‘z tasarrufiga kiritadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyoning tabiiy jug‘rofiy sharoiti bu yerda aholining asosano‘troq hayot kechirishiva sug‘orma

dehqonchilik bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratar edi. Hudud Shimoli-Sharqiy tomondan (asosan) baland tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, bu tog‘larda hosil bo‘lgan qor va muzliklar O‘rta Osiyoni deyarli yil bo‘yi suv bilan uzluksiz ta’minlash imkonini beradi. Xuddi ana shu shart-sharoitlar- sersuv daryo vodiylarining mavjudligi, dehqonchilik uchun qulay ob-havo, hosildor tuproq bu yerlarda juda qadim zamonlardan boshlab aholining sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanishlari, yuksak darajada taraqqiy etgan madaniyat yaratishlari, shaharsozlik, ilm-fan, san’at, adabiyot kabi sohalarda yuksak natijalarga erishuviga olib keldi. Ammo, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotida sug‘orma dehqonchilik ustuvor bo‘lgan jamiyatlarda taraqqiyotning “davriy” ko‘rinishda yuz berishi tufayli taraqqiyot uzluksiz ravishda yuz bermaydi, ya’ni ma’lum iqtisodiy taraqqiyotdan so‘ng, qoida tariqasida inqiroz-parokandalik yuz beradi. Bu bosqichda markazlashgan davlat parchalanib ketadi, asosiy ishlab chiqarish - sug‘orma dehqonchilik barbod bo‘ladi, jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy tushkunlik yuz beradi. Eng avvalo ishlab chiqarish – sug‘orma dehqonchilikning zavolga yuz tutishi tufayli hamda o‘zaro urushlarda, g‘alayonlarni bostirish harakatlarida aholining ko‘pchilik qismi qirilib ketadi, omon qolganlar turli tomonlarga bosh olib ketadilar.

O‘rta Osiyo –Movarounnahr o‘z tarixida bir necha bor ana shunday yuksalish-inqiroz bosqichlarini o‘z boshidan kechirgan. O‘rta Osiyoda har bir safar yuz bergan ana shunday inqiroz-parokandalik bosqichida , aholi ko‘plab qirilib ketgan va omon qolganlar turli tomonlarga bosh olib ketgan vaziyatlarda bu yerlarga, ya’ni O‘rta Osiyoga Dashti Qipchoq aholisi oqib kelar edi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Dashti Qipchoq aholisining asosiy mashg‘uloti-ko‘chmanchi chorvadorlik aholining juda sekin, ammo to‘xtovsiz o‘sib borishini ta’minlar edi. O‘rta Osiyoda inqiroz-parokandalik bosqichi boshlanishi paytidanoq, Dashti Qipchoq aholisi O‘rta Osiyoning unumdor vohalariga qarab harakat qilar, ular bu yerlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatib, yangi sulolaga asos solar edilar. Bu yerlarga ko‘chib kelib o‘rnashgan Dashti-Qipchoqning ko‘chmanchi-chorvador aholisi dastlabki paytlarda, birdan ko‘chmanchilikni tashlab, o‘troq dehqonga aylana olmas edi. Ular dastlabki paytlarda yarim o‘troq, yarim ko‘chmanchiga aylanar, asta-sekinlik bilan, odatda, ikkinchi yoki uchinchi avlodga borib, butunlay o‘troqlashib qolar edilar.

Shunday qilib ko‘ramizki, O‘rta Osiyoning iqtisodiy, siyosiy, etnik, madaniy, ma’naviy hayotida Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonning o‘rni nihoyatda katta ahamiyatga ega edi. Biz temuriylar saltanati inqirozi tarixini

o‘rganishda ana shu hududlarning ta’sirini doimo hisobga olishimizga to‘g‘ri keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Е. Н. Лобачёва, «Экономическая мысль Древнего Востока», стр. 22.

2. Большая российская энциклопедия - электронная версия. old.bigenc.ru.

3. Шнирельман В. А. Возникновение производящего хозяйства: Очаги древнейшего земледелия. М.2020. С.10-14.

4. Ҳилда Ҳукҳем. Етти иқлим султони. Тарж. Ш.Сокин. Тошкент.1999. Б.17.

5. Абулғозий. Шажараи турк. –Тошкент: 1992. –Б. 99.

6. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. –Тошкент: Шарқ,1997. –Б. 82.

7. Низомиддин Шомий. Зафарнома 1-жилд. Б-102.

8. Ҳилда Ҳукҳем. Етти иқлим султони. Тарж. Ш.Сокин. Тошкент.1999. Б.112.

9. Раббимов Э. Амир Темур ва Тўхтамиш.Унутилган замонлар сари. 19 декабр. 2018.Б-7.s

10. Раббимов Эркин. Амир Темур ва Тўхтамиш. Унутилган замонлар сари. 19 декабр 2018. –Б. 7.

11. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т.: 1990. Б-4.

12. Али Яздий, “Зафарнома”, Тошкент, 1996 й., 30-42. б

13. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т-2000 Б-227-228.

14. Али Яздий, “Зафарнома”, Тошкент, 1996 й., 42. б

15. htss: ru.m.wikipediya. orq>wiki. Тамерлан.

16. Маманов А. Кишилик жамияти тарихий тараққиёт йўлининг умумий манзараси. Тошкент-2023

17. Ахмедов Б. Государства кочевых узбеков. М-1965. Стр.33

18. Иммануэл Валлерстайн. Миросистемний анализ. Введения. М.2006. С.49-85.

1945-1991-YILLARDA IKKINCHI JAHON URUSHI VOQEALARINING MATBUOTDA YORITILISH EVOLYUTSIYASI

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna,
Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d (PhD),
jumanazarovafiruza8485@gmail.com.
ORCID:0009-0009-4929-3143.

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1945-1991-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuotida Ikkinchi jahon urushi voqealarining yoritilish evolyusiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatdagi mahalliy gazetalar materiallari asosida urush ishtirokchilari, front orti mehnatkashlari, harbiy xizmatchilar hamda xotin-qizlarning jangovar va mehnat faoliyatining matbuotda aks ettirilish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, sovet davri matbuotida qahramonlik, vatanparvarlik, tarixiy xotirani shakllantirishga qaratilgan mafkuraviy yondashuvlar, turli tarixiy bosqichlardagi mazmun va uslubiy o‘zgarishlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Xorazm, davriy matbuot, front, front orti, tarixiy xotira, matbuot materiallari, urush qatnashchilari, evolyusiya, tarixiy manba.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng yirik va halokatli voqealardan biri bo‘lib, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy oqibatlari uzoq yillar davomida jamoatchilik ongi va tarixiy xotirasida muhim o‘rin egallab keldi. Urush voqealari haqidagi tasavvurlar-ni shakllantirishda davriy matbuot alohida ahamiyat kasb etib, u nafaqat axborot tarqatish, balki davlat mafkurasini targ‘ib qilish, qahramonlik obrazlarini yaratish, aholida vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash hamda tarixiy xotirani shakllantirishning ta’sirchan vositasi sifatida faoliyat yuritdi.

1945-1991-yillar davomida sovet matbuotida Ikkinchi jahon urushi mavzusi davlat tarixiy siyosati bilan uzviy bog‘liq holda yoritildi. Ayniqsa, g‘alabaning 30, 40, 50 yilliklari munosabati bilan chop etilgan maqolalar, front ishtirokchilari haqidagi ocherklar, xotiralar, intervyular va arxiv materiallari urush haqidagi rasmiy tarixiy tasavvurlarni keng jamoatchilik ongiga singdirishga xizmat qildi. Bu jarayonda Xorazm viloyati davriy matbuoti ham faol ishtirok etib, front va front ortida jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar,

tibbiyot xodimlari, mehnat faxriylari hamda xotin-qizlarning faoliyatini muntazam yoritib bordi.

Mazkur davr matbuoti materiallarining tahlili urush voqealarining yoritilishi vaqt o‘tishi bilan muayyan evolyusiyani boshdan kechirganini ko‘rsatadi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda asosiy e’tibor g‘alabani ulug‘lash, sovet xalqining birligi va qahramonligini targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lsa, 1960-1980-yillarda front ishtirokchilari haqidagi biografik ocherklar, xotiralar va yubiley maqolalari soni ortib, mahalliy qahramonlar faoliyatini kengroq yoritish tendensiyasi kuchaydi. Biroq bu materiallar asosan sovet mafkurasi talablari doirasida tayyorlanib, urushning murakkab ijtimoiy-siyosiy jihatlari, inson yo‘qotishlari va ziddiyatli masalalari cheklangan darajada yoritildi.

Adabiyotlar tahlili. Ikkinchi jahon urushi tarixini o‘rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida shu kunga qadar urush davri tarixini matbuotda yoritish evolyusiyasiga doir bironta ilmiy adabiyot yoki maqola chop qilinmagan. Shu nuqtai-nazardan maqolaning manbaviy asosini 1945-1991-yillarda Xorazm viloyatida chop qilingan davriy matbuot materiallari tashkil qiladi.

Metodlar. Maqoladagi materiallarni ilmiy tahlil qilishda “Xorazm haqiqati” gazetasi sahifalarida keltirilgan maqolalarni kontent tahlil qilish hamda qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1945-yilda Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin respublikaning barcha hududlarida jumladan, Xorazm viloyatida ham asosiy e’tibor xalq xo‘jaligini qayta tiklash ishlariga qaratildi. Davriy matbuot materiallari orasida urush tarixiga oid materiallar faqat 9-may sanasi arafasidada yoki shu sanadan keyingi kunlarda berilgan bo‘lsa, 1965-yildan boshlab aynan Ikkinchi jahon urushi frontlarida bo‘lgan askarlar hayoti va faoliyati yoritilgan maqolalar gazetalarning yanvar, aprel va may oylaridagi sonlarida berila boshladi. Bu davrga kelib frontda qahramonlik ko‘rsatgan yigit-qizlar haqidagi ocherklar, xotiralar, intervyular va yubiley maqola-lari respublika hamda viloyat gazetalarida muntazam chop etilib borildi. Bu materiallarda jangchilarning shaxsiy hayotidan ko‘ra ularning jangovar jasorati, vatanga sadoqati va sobiq sovet xalqlarining birligi g‘oyasi ustuvor tarzda talqin qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda Xorazm viloyati matbuoti sahifalarida ko‘proq Sovet Ittifoqi Qahramonlari - S.Nurmetov, G.Solixov,

P.Sizov, R.Avezmurotov, O.Sanfirova, R.Ibroximovalarning jasoratlari yoritildi. Jumladan, “Xorazm haqiqati” gazetasining 1980-yil 9-may sonida “Qahramon qiz Olga” nomli maqola chop etildi. Ushbu maqolada urushgacha bo‘lgan davrda Xorazm viloyatida yashagan, urushga Turkmanistoning Toshxovuz viloyatidan frontga safarbar qilingan O.Sanfirovaning jangovar jasorati, viloyat prokuraturasida texnik sekritar lavozimida ishlaganligi, uni o‘sha davrda urganchlik hamkasblari “Layli” deb chaqirgani va bu nomni frontdoshlari ham qo‘llagani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, uning 46-gvardiya tungi bombardimonchi aviatsiya polki tarkibidagi xizmat yo‘li, harbiy mahorati hamda 1945-yilda vafotidan keyin Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlangani alohida ta’kidlangan[1].

Shuningdek, “Saodat” jurnalining 1975-yil 5-sonida e’lon qilingan “Uch ayol qissasi” nomli maqolasida xorazmlik R.Ibrohimovaning jangovar faoliyatiga ham katta o‘rin berildi. Gazetalarda uning 3-Belorussiya frontida radist-razvedkachi sifatidagi xizmat yo‘li, razvedka operatsiyalaridagi ishtirok etishi, nemis tilini puxta o‘zlashtirgani, parashyutchi va tankchi sifatidagi tayyorgarligi haqidagi ma’lumotlar batafsil yoritildi[2]. Ayniqsa, yongan tankdan qo‘mondonni qutqarib qolgani uchun “Jangovar xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlangani, Berlingacha bo‘lgan jangovar yo‘li hamda “Qizil yulduz”, “Jasorati uchun”, “Kyonigsbergni egallaganligi uchun” va “Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun” medallari bilan mukofotlangani haqidagi maqolalar uning jasoratini targ‘ib qilishga xizmat qildi. Bu kabi materiallarda front voqealari ko‘proq qahramonlik va fidoyilik nuqtai nazaridan yoritilib, voqealarning murakkab jihatlariga deyarli murojaat qilinmadi.

Shu kabi maqolalar davriy matbuot materiallari orasida juda ko‘p bo‘lib, ularda asosan front qahramonliklari yoritilgan edi. Jumladan, “Saodat” jurnalining 1968-yil 5-sonida “G‘alaba qo‘shig‘i yangrasin mangu” nomli maqola e’lon qilindi. Ushbu maqolada xorazmlik ofitser Sh.Ahmedova harbiy vrach sifatida Stalingrad va Kursk-Oryol yo‘nalishidagi janglarda yuzlab yaradorlarga tibbiy yordam ko‘rsatgani alohida e’tirof etildi. Matbuotda uning jangovar mehnati insonparvarlik, burchga sadoqat va matonat ramzi sifatida talqin qilindi. Urushdan keyin Xiva shahriga qaytib, tibbiyot sohasidagi faoliyatini davom ettirgani haqidagi ma’lumotlar orqali front qahramonlarining tinch hayotdagi mehnat faoliyati ham namuna sifatida ko‘rsatildi[3].

“Xorazm haqiqati” gazetasining 1980-yil 9-may sonida “Reyxstagga dastxat bitgan juvon” sarlavhasi ostida e’lon qilingan maqolada Xorazmda

yashab, frontga Urganchdan jo‘nab ketgan M.F.Dobridneva haqidagi maqolalarda uning Stalingraddan Berlingacha bo‘lgan jangovar yo‘li, tibbiy xizmat sohasidagi faoliyati hamda ko‘plab orden va medallar bilan taqdirlangani yoritildi. Shuningdek, urushdan keyin viloyat shifoxonasidagi mehnat faoliyati haqida ham muntazam xabarlar berildi[4].

1945-1991-yillardagi davriy matbuot sahifalarida frontga ko‘ngilli bo‘lib ketgan hamshiralar faoliyatiga ham keng o‘rin ajratildi. Xususan, M.Xudoyorova, O.Sobirova kabi hamshiralarning Stalingraddan Xarkovgacha bo‘lgan jangovar yo‘li, yaradorlarga ko‘rsatgan yordami va urushdan keyingi mehnat faoliyati haqidagi materiallar orqali front orti va tibbiy xizmat ahamiyati targ‘ib qilindi[5].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda frontda bo‘lgan xotin-qizlardan G.Lapina[6], F.Andreeva[7], Ye.Ivanovalarning[8] urush tugagandan keyingi taqdirlari yoritilgan maqola hamda ocherklar e’lon qilindi. Bu materiallarda ularning snayper, front bosmaxonasi xodimi, aloqachi yoki zenit artilleriyasi operatori sifatidagi xizmatlari tasvirlandi. Ayniqsa, Feodora Andreevaning front gazetalarida harf teruvchi sifatidagi mehnati matbuotning urush yillaridagi mafkuraviy ahamiyatini ochib berishda muhim manba vazifasini bajardi.

1960-1980-yillarda “Xorazm haqiqati” gazetasida nashr etilgan maqolalarda Xorazmdan frontga yuborilgan 580 nafar xotin-qiz haqidagi ma’lumotlar, ularning harbiy qismlar, tibbiy xizmat va qurilish batalonlaridagi ishtiroki ham yoritildi. Jumladan, R.Otamurodova va S.Hasanovaning qurilish batalonlaridagi mehnati haqidagi xotiralar front orti mehnatining og‘ir sharoitlarini aks ettirgan bo‘lsa-da, bu materiallarda ham asosiy e’tibor urush yillarida yashagan odamlarning matonati va g‘alaba uchun qilgan fidokorona mehnatiga qaratilgan edi[9].

1945-1991-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuotida Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari haqidagi materiallar orqali qahramonlik, vatanparvarlik va mehnat jasorati g‘oyalari keng targ‘ib etildi[10]. Ayni paytda, mazkur davr matbuotida repressiyalar, harbiy yo‘qotishlar, front ortidagi ijtimoiy muammolar hamda urushning bahsli va murakkab jihatlari cheklangan darajada yoritilgan bo‘lib, materiallarning aksariyati o‘sha davrning rasmiy mafkuraviy yondashuvi asosida tayyorlangan[11]. Shu bois, mazkur davr matbuoti Ikkinchi jahon urushi haqidagi tarixiy xotiraning shakllanishini o‘rganishda muhim manba

hisoblanishi bilan birga, sovet davri tarixiy siyosati va axborot siyosati xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, 1945-1991-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuotida Ikkinchi jahon urushi, front va front orti hayotining yoritilishi o‘sha davrning rasmiy tarixiy xotira siyosati va mafkuraviy tamoyillari doirasida shakllangan. Urushdan keyingi yillarda matbuotda, avvalo, g‘alabani ulug‘lash, sobiq sovet xalqlarining birligi, jangovar qahramonlik va front orti mehnatkashlarining fidokorona mehnati keng targ‘ib qilingan. Keyingi yillarda esa front ishtirokchilari haqidagi biografik ocherklar, xotiralar, intervyular va yubiley materiallari salmog‘i ortib, urush qatnashchilarining hayoti va faoliyatini yoritishga alohida e’tibor qaratilgan.

1945-1991-yillarda Xorazm viloyatida chop qilingan mahalliy gazetalar tahlili Sotim Nurmetov, Gataulla Solihov, Pyotr Sizov, Rahim Avezmurotov, Olga Sanfirova, Roza Ibrohimova, Shafiqa Ahmedova, Mariya Dobridneva, Mahbuba Xudoyorova, Galina Lapina, Feodora Andreeva, Yelena Ivanova va boshqa front qatnashchilari haqida muntazam materiallar chop etilganini ko‘rsatdi. Ularda mazkur shaxslarning jangovar jasorati, tibbiy xizmat, razvedka, aloqa, aviatsiya, front matbuoti hamda qurilish batalonlaridagi faoliyati vatanparvarlik va fidoyilik namunasi sifatida talqin qilingan. Bu esa mahalliy qahramonlar obrazini umumiy g‘alaba g‘oyasi bilan bog‘liq holda yoritishga xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mazkur davr matbuotida urush voqealari asosan rasmiy sovet tarixshunosligi yondashuvi asosida yoritilgan. Bunda xalqlarning birligi, mehnat va jangovar jasoratga ustuvor ahamiyat berilgan bo‘lsa, urushning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, inson yo‘qotishlari, repressiyalar hamda boshqa murakkab masalalar cheklangan darajada yoritilgan. Shu bois, mazkur davr matbuoti materiallaridan foydalanishda ularning axborot qiymati bilan bir qatorda, yaratilgan ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy muhitni ham hisobga olish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, 1945-1991-yillarda Xorazm viloyati davriy matbuoti Ikkinchi jahon urushi haqidagi tarixiy xotirani shakllantirish, urush qatnashchilari va front orti mehnatkashlarining faoliyatini yoritish hamda vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, ushbu materiallar bugungi kunda Ikkinchi jahon urushi tarixi, Xorazm viloyati aholisining front va front ortidagi ishtiroki hamda urush voqealarining jamoatchilik ongida aks etish jarayonini o‘rganishda muhim tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. “Xorazm haqiqati”. 1980-yil 9-may. – B. 4.
2. “Saodat” jurnali. 1975-yil. 5-son. – B. 16.
3. “Saodat” jurnali. 1968-yil. 5-son. – B. 5.
4. “Saodat” jurnali. 1975-yil. 5-son. – B. 30
5. “Xorazm haqiqati”. 1973-yil 2-fevral. – B. 2.
6. “Xorazm haqiqati”. 1995-yil 19-aprel. – B. 2.
7. “Xorazm haqiqati”. 1980-yil 9-may. – B. 3.
8. “Xorazm haqiqati”. 1982-yil 15-may. – B. 3.
9. “Xorazm haqiqati”. 1973-yil 10-mart. – B. 4.
10. “Xorazm haqiqati”. 1985-yil 4-yanvar. – B. 3.
11. “Xorazm haqiqati”. 1995-yil 9-may. – B. 3.

QADIMGI XORAZMLIKLARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Farxadov Zoyir Xushnud O‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrasi tadqiqotchisi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya

Maqolada qadimgi Quyi Amudaryo havzasi aholisining etnogenezi va etnik tarixi masalalari tarixshunoslik ma'lumotlari asosida ko‘rib chiqilgan. Yozma manbalar va tadqiqotchilar qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali xorasmiylarning dastlabki hududiy joylashuvi hamda Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chib kelish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Quyi Amudaryo, Gekatey, Xorasmiylar, Gerodot, Tajan, Murg‘ob, Tolstov S.P., Ya.G‘. Gulyamov.*

Аннотация

В статье на основе историографических данных рассматриваются вопросы этногенеза и этнической истории населения древности в низовьях Амударьи. Путём сравнительного анализа письменных источников и взглядов исследователей освещены первоначальный ареал расселения хорасмиев и процесс их переселения в низовья Амударьи.

Ключевые слова: *низовья Амударьи, Гекатей, хорасмии, Геродот, Теджен, Мургаб, С.П. Толстов, Я.Г. Гулямов.*

Abstract

This article examines, on the basis of historiographical data, the ethnogenesis and ethnic history of the ancient population of the lower Amu Darya basin. Through a comparative analysis of written sources and the views of researchers, the article sheds light on the original territorial homeland of the Khorasmians and the process of their migration to the lower Amu Darya lands.

Keywords: *lower Amu Darya, Hecataeus, Khorasmians, Herodotus, Tejen, Murghab, S.P. Tolstov, Ya.G. Gulyamov.*

KIRISH

Qadimgi xorazmliklarning kelib chiqishi va dastlabki hududiy joylashuvi masalasi tarixshunoslikda hanuzgacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Dostonlarda va o‘rta asrlar mualliflarining asarlarida (Al-Maqdisiy, Tabariy, Ibn al-Asir) qadimgi xorazmliklar Quyi Amudaryo yerlariga janubdan ko‘chib kelgan aholi sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, o‘rta asrlardan ancha avval yashab o‘tgan yunon tarixchisi Gekatey "xorasmiylar" degan elat parfyanlardan kun chiqar yo‘nalishida sharqiy hududlarda yashaganlar deb habar bergan. Gerodotning "Tarix" kitobida esa xorasmiylarning hududiy joylashuvi tog‘lar bilan o‘rab olgan Akes daryosi vohasi bilan bog‘langan.

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, XX asrning boshlarida xorasmiylarning dastlabki hududiy joylashuvi haqidagi ilmiy masala o‘rtaga tashlandi va keyinchalik keng bahs-munozaralarga aylandi. XX asrning 70-yillarida I.V. Pyankov bu masalani atroflicha ko‘rib chiqib, tarixshunoslikda mavjud I.Markvart, A.Xermann, S.P. Tolstov, V.B.Xenning, I.M. Dyakonov, I.Gershevich va boshqa olimlarning xulosalarini umumlashtirdi hamda xorasmiylarning hududiy joylashuvini Turkman-Xuroson tog‘oldi yerlari va Xirot vohasi bilan bog‘lab, xorasmiylar Ahamoniylar davrida janubdan Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chirilgan, degan xulosaga keldi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, xorasmiylarning etnogenezi va dastlabki vatani masalasi bo‘yicha tarixshunoslikda bir-biriga zid bo‘lgan bir necha nazariyalar mavjud bo‘lib, ular hali yakuniy hal etilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi –Gekatey va Gerodot ma'lumotlariga, shuningdek turli davr tadqiqotchilarining (I.V. Pyankov, M.G. Vorobeva, I.N. Xlopin, L.S. Tolstova, V.N. Pilipko, B.I. Vaynberg, A.A. Asqarov, S. Baratov, Yu.A. Rapoport, A.S. Sagdullaev, E.V. Rtveladze, N.A. Egamberdieva va boshqalar) qarashlariga tayanib, qadimgi xorazmliklarning kelib chiqishi va Quyi Amudaryo havzasiga ko‘chib kelish jarayoni haqidagi mavjud nazariyalarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va tarixiy-tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Qadimgi yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot) asarlaridagi ma'lumotlar, o‘rta asr yozma manbalari (Al-Maqdisiy, Tabariy, Ibn al-Asir, Beruniy) hamda zamonaviy tarixshunoslik adabiyotidagi turli qarashlar manbashunoslik tahlili asosida qiyoslandi. Shuningdek, yozma manbalar

ma'lumotlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari (Odoytepa, Xumbuztepa, Hazorasp, Tillatepa, Qutlug‘tepa, Oltintepa va boshqa yodgorliklar materiallari) bilan solishtirish orqali tarixiy-retrospektiv tahlil amalga oshirildi. Turli tadqiqotchilarning xulosalari tanqidiy tarixshunoslik nuqtai nazaridan baholanib, ularning dalillash asoslari, mantiqiy izchilligi va geografik-hududiy jihatlari qiyosiy tarzda ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR

Gekatey va Gerodotning xorasmiylar haqidagi ma'lumotlariga asoslanib, yunon tarixchilarining asarlarida bayon etilgan quyidagi tayanch holatlarga e'tibor qaratish lozim.

Gekatey bo‘yicha:

1. Xorasmiylar parflardan sharqda, quyosh chiqishi yo‘nalishida, ya'ni Parfiya va Baqtriya o‘rtasida joylashganlar.

2. Ular voha, tog‘oldi hududlarda istiqomat qilganlar.

3. Tog‘larda "yovvoyi daraxtlar" (to‘qayzorlar), tikanli kinara (namatak), tol va yulg‘un o‘sgan.

Gerodot bo‘yicha:

1. Xorasmiylarga barcha tomonlari tog‘ bilan o‘rab olingan vodiy qarashli bo‘lgan.

2. Vodiy xorasmiylar, girkanlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan.

3. Vodiyni o‘rab olgan tog‘dan Akes daryosi boshlangan. Beshta o‘zanlarga bo‘lingan bu daryo sanab o‘tilgan xalqlarning yerlarini suv bilan ta'minlagan.

Akes daryosini olimlar turli daryolar bilan solishtirganlar, jumladan, Amudaryo (S.P.Tolstov), Tajan-Gerirud (V.B.Xenning), Tajan-Gerirud (V.M.Masson), Atrek (I.N. Xlopin) bilan qiyoslangan.[3]

I.V.Pyankovning yozishicha, Gerodotning tog‘ bilan o‘rab olingan vodiy, uni beshta dara kesib o‘tishi va beshta o‘zanga bo‘lingan Akes daryosi haqidagi hikoyasini umumlashtirib, aniq tarixiy xulosalarga ega bo‘lish murakkab vazifadir, chunki bu hikoya asosida daryolar manbai bo‘lgan Hindikush haqida tasavvurlar mavjud bo‘lib, Hindikush tog‘laridan yirik daryolar boshlanib, ulardan turli qadimgi elatlar yerlarini sug‘orishda foydalanilgan.[4] Zamonaviy geografik xaritalarga tayanib, Akes daryosini aniqlash mushkul masala bo‘lib qolmoqda; yunon tarixchilari asarlarida xorasmiylar istiqomat qilgan yerlar o‘z

tarixiy-geografik xususiyatlariga koʻra Oʻrta Osiyoning janubiy hududlarida joylashganga oʻxshaydi.

Ushbu muammo munozarali boʻlib, tadqiqotchilar xorasmiylarning hududiy joylashuvini turlicha talqin qiladilar. Ba'zi olimlar xorasmiylar Quyi Amudaryo yerlarida doimiy yashagan deb yozgan boʻlsa, boshqalari ularni Janubiy Orolboʻyi hududlariga koʻchib kelgan elat sifatida tasvirlaydilar va xorasmiylarning dastlabki yurtini Tajan-Gerirud va Murgʻob vohasi (Marv) bilan bogʻlaydilar.[5]

I.V.Pyankov, XX asrning 80-yillariga qadar ma'lum tarixshunoslik dalillariga asoslanib, Gekatey xorasmiylarining tarixiga tegishli quyidagi xulosalarni bildirgan:

– Beruniy va al-Maqdisiy Xorazm tarixini aholi koʻchib kelishidan boshlab yoritadilar;

– xorasmiylar dastlab Gerirud vohasi va Turkman-Xuroson togʻoldi viloyatlarida joylashganlar;

– ulardan shimolda Xorazm vohasida koʻchmanchi yoki yarim koʻchmanchi massagetlar yashaganlar;

– qadimgi fors podsholari Kir II va Doro I harbiy yurishlarining maqsadi Xorazm vohasi boʻlgan; Doro I ning yurishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, Xorazm vohasi va qoʻshni yerlarda istiqomat qilgan massagetlar zabt etilgan;

– oʻz hukmronligini mustahkamlash va Xorazm vohasida ziroatchilik tayanch maskanlariga asos solish maqsadida, Doro I va uning vorislari Quyi Amudaryo hududlariga janubdan xorasmiylarni koʻchirganlar.[6]

M.G. Vorobeva xorasmiylarning Ahamoniylar davrida janubdan Quyi Amudaryo yerlariga koʻchirilmaganini, aksincha xorazmliklarning qadimgi elat sifatida bevosita Xorazm vohasida shakllanganini bayon etadi.[7] I.N. Xlopin ham xorasmiylarning dastlab Tajan-Gerirud va Murgʻob vohalarida yashab, keyinchalik Quyi Amudaryo hududlariga koʻchganligini arxeologik ma'lumotlar inkor etadi, degan xulosaga keladi.[8]

L.S.Tolstova, tarixshunoslik ma'lumotlarini tahlil qilib, soʻnggi bronza va ilk temir davrida Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlari aholisining Orolboʻyi hududlariga koʻchib kelishi toʻgʻrisida yozadi. Xorazm vohasi tarixiy rivoyatlarida mahalliy aholining olis zamonlarda Badaxshon, Balx, Marv, ya'ni

qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona hududlaridan Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chib kelgani haqida ma'lumot saqlangan.[9]

V.N.Pilipko, O‘rta Amudaryo sohillarida mil.avv. I mingyillikning birinchi yarmiga oid qal'a va shahar harobalari (Karki, Odoytepa, Qo‘shqal'a) o‘rganilishi natijasida, xorasmiylarning Tajan vohasidan Quyi Amudaryoga migratsiyasi yo‘llarini arxeologik ma'lumotlar asosida aniqlash imkoniyatlarini ta'kidlaydi.[10]

B.I.Vaynberg xulosasiga ko‘ra, mil.avv. VII asrda Xorazm vohasiga Erondan ko‘chib kelgan xorasmiylar chorvadorlik turmush tarziga ega Quyisoy madaniyatiga asos solganlar. I.V.Pyankovning yozishicha, bu xulosa mantiqiy asosga ega emas, chunki yozma manbalarda xorasmiylar haqidagi xabarlar mil.avv. VI asr oxiri va V asrning birinchi yarmiga oid bo‘lib, ularning migratsiyasi to‘g‘risida hech qanday ma'lumot yo‘q. Bundan tashqari, Quyisoy madaniyati “sak qiyofasiga” ega, ya'ni chorvadorlarga xos belgilarni namoyon etadi, yozma manbalarda esa xorasmiylarning “Xorasmiya” nomli shahar markazi bo‘lgani qayd etilgan; shu bois shaharsozlik madaniyatini bilgan xorasmiylar qanday qilib Xorazmda chorvador elatga aylangani savolli bo‘lib qolmoqda.

Gekatey va Gerodot asarlarida “xorasmiylar” etnonimi mavjud bo‘lib, Xorazm mamlakat yoki viloyat sifatida tilga olinmagan – bu holat tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan. M.G.Vorobevaning aytishicha, Gekatey O‘rta Amudaryodagi Xorazm yerlari haqida ma'lumotlarga ega bo‘lgan, bu yerlar Parfiyadan shimoli-sharqda joylashgan. Ilk temir davrida Xorazm vohasi moddiy madaniyatida paxsa va xom g‘ishtdan uy-joy hamda mudofaa devorlar qurilishi, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi mil.avv. VII asrda Baqtriya va Marg‘iyona aholisi vakillarining Xorazm vohasiga migratsiyasi natijasi sifatida talqin etilib, xorasmiylar (xorazmliklar) etnos sifatida mahalliy hamda ko‘chib kelgan Marg‘iyona-Baqtriya aholi guruhlari assimilyatsiyasi natijasida Xorazmda paydo bo‘lgan, degan fikr ilgari suriladi.

S.Bolelov, O‘rta Amudaryo yerlaridan Baqtriya ahli guruhlarining so‘l sohil Xorazm yerlariga migratsiyasi davom etib, baqtriyalik hunarmandlarning Xumbuztepa ustaxonalarida ishlaganini yozadi. V.N.Yagodinning ta'kidlashicha, Baqtriyadan janubiy aholi vakillarining Xorazm vohasiga ko‘chib kelishi natijasida vohada kulolchilik charxi, paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan mudofaa devorlari, yirik inshootlar va uy-joylar paydo bo‘lib, sun'iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi yangi asoslarda rivojlangan.

So‘nggi yillarda ushbu masalaga A.A.Asqarov va S.Baratov oydinlik kiritishga harakat qilganlar. A.A.Asqarov, Gerodotning Akes daryosi suvlaridan foydalanish to‘g‘risidagi ma'lumotlariga asoslanib, Ahamoniy podsholarining sharqiy Eron qabilalaridan boj olish maqsadida Hilmend tog‘ daralaridan oqib chiqadigan soylarga to‘g‘onlar qurdirib, suv yo‘llarini xorasmiylar yurtiga – qadimgi Hilmend, hozirgi Hirot vodiysiga burib yuborgani, natijada vodiyda ko‘l hosil bo‘lib, xorasmiylarning vatanlarini tark etib Amudaryoning quyi havzalariga ko‘chishga majbur bo‘lganini bayon etadi. Tadqiqotchining taxminicha, xorasmiylarning Quyi Amudaryo hududiga kirib kelishi bilan bu yerda “Xorazm” makrotoponimi paydo bo‘lgan; ungacha ular Hilmend vodiysida (Hirot vohasi) o‘troq hayot kechirgan.

Biroq, geografik jihatdan Hirot vohasining Hilmend vodiysi bilan hududiy aloqasi yo‘q: Hirot vohasi (“Avesto”da –Xarayva, yunon manbalarida –Areyya, Ariya) Tajan-Gerirud (Herirud) daryosining o‘rta oqimidagi yerlarda joylashgan. Shuningdek, Hirot vohasida mil.avv. VII-V asrlarga oid yodgorliklar aniqlanmagan bo‘lib, bu jiddiy dalil sifatida xorasmiylar yurtini Hirot vohasida joylashtirishga shubha tug‘diradi.

S.Baratov, I.M.Dyakonov xulosalariga asoslanib, mil.avv. VII asrning birinchi yarmida Xorazm, Parfiya, Marg‘iyona, Areyya va Sug‘d Midiya davlati tarkibiga kirgani, qadimgi fors podshosi Kir II ushbu viloyatlarni "Midiya merosi" sifatida Fors podsholigi tarkibiga qo‘shib olganini yozadi. Tadqiqotchining farazicha, mil.avv. VII asrning birinchi yarmida xorasmiylarning bir qismi Tajan-Gerirud daryosining o‘rta oqimidagi Saraxs vohasidan Quyi Amudaryo hududlariga ko‘chib kelgan; keyinchalik, Doro I ning og‘ir soliq siyosati tufayli, mil.avv. VI asrning so‘nggi choragida xorasmiylar o‘z vatanini tark etib Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. S.Baratovning ta'kidlashicha, Doro I ga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan midiyaliklar, parfiyaliklar va marg‘iyonaliklar ham panoh topish maqsadida Xorazm vohasiga qochib borganlar. Demak, S.Baratovning taxminiga ko‘ra, xorasmiylarning migratsiyasi ikki davr mobaynida sodir bo‘lgan: birinchi bosqichda (mil.avv. VII asrning birinchi yarmi) ular Quyi Amudaryo havzasiga ko‘chib kelib, mahalliy chorvador aholiga noma'lum yuksak texnologik bilimlarni olib kelganlar, bo‘z yerlarda shaharlar va ibodatxonalar bunyod etganlar, keng irrigatsiya ishlarini amalga oshirganlar va hunarmandchilik ishlab chiqarishni tashkillashtirganlar. Biroq, mil.avv. VII asrda xorasmiylarning

janubda (Saraxs, Xirot vohalari va boshqa joylarda) joylashganligi haqida yozma manbalarda ma'lumot mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim.

Yu.A.Rapoportning taxminicha, Gerodotning Akes daryosi haqidagi hikoyasi, xorazmliklar –saklarning janubga yurishlari natijasida girkanlar, parfyanlar, saranglar va tamaneylar o‘lkasida qisqa muddatdagi hukmronligiga doir xotiradan kelib chiqqan. A.S.Sagdullaev, Doro I Marg‘iyonada Frada qo‘zg‘olonini tor-mor qilib, isyonchi marg‘iyonalik guruhlarini Xorazmga ko‘chirib yuborgani ehtimoldan holi emasligini, bu farazni fors podsholarining boshqa ko‘chirish siyosati misollari –mil.avv. V asrda Shimoliy Afrikadan Baqtriyaga Barka aholisi va Kichik Osiyodagi Milet shahridan yunonlarning ko‘chirilishi –bilan asoslaydi. Mil.avv. 522 yilda Parfiya va Marg‘iyonada avj olgan qo‘zg‘olonlarni Doro I bostirganidan so‘ng, isyonchilarning ayrim guruhlari davlatning chekka o‘lkalariga ko‘chirilgan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Umuman olganda, iqtisodiy va harbiy-siyosiy sabablarga ko‘ra, Ahamoniylar davlati hududlarida turli elatlarning aralashib joylashuvi kuzatiladi; baqtriyaliklar, sug‘diylar, xorazmliklar va saklarning Misr, Old Osiyo va Bobilda istiqomat qilganlari haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda o‘z aksini topgan.

E.V.Rtveladze xorasmiylar muammosiga tegishli tarixshunoslik ma'lumotlarini tahlil qilib, Gerodot xabarlaridagi beshta alohida daryoni Hindikush tog‘larida boshlangan Tajan (Gerirud), Murg‘ob, Safedrud, Shirin-Tog‘ao va Balhob daryolari bilan solishtiradi. Uning fikricha, xorasmiylar mil.avv. VI asrda Murg‘ob va Amudaryo oralig‘idagi tekisliklar va o‘rta-baland tog‘larda, ya'ni qadimgi Baqtriyaning shimoli-g‘arbiy hududlarida yashaganlar; bu yerlarda ilk temir davriga oid Tillatepa, Qutlug‘tepa va Oltintepa yodgorliklari joylashgan bo‘lib, xorasmiylar baqtriyaliklar singari me'morchilik va shaharsozlik sohalarida yuksak madaniyat an'analariga ega bo‘lganlar. Kir II ning harbiy bosqini tahdidi tufayli, mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida xorasmiylar shimoli-g‘arbiy Baqtriyani tark etib, Kalif Uzboyi orqali Marvga, keyinchalik O‘rta Amudaryo sohillariga (Odoytepa) va u yerdan Janubiy Xorazmga (Xumbuztepa, Hazorasp) ko‘chganlar.

Biroq, E.V.Rtveladzening ushbu yondashuviga tegishli bir qator savollar mavjud. Shimoli-g‘arbiy Afg‘onistondagi Tillatepa, Qutlug‘tepa, Oltintepa va Janubiy O‘zbekistondagi Kuchuktepa, Talashkon, Bandixon 2, Qiziltepa kabi ilk temir davri yodgorliklari umumiy madaniy belgilarga ega bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda umumiy Baqtriya madaniyatiga oid yodgorliklar sifatida qaraladi

–xorasmiylar va baqtriyaliklar madaniyatini qaysi belgilarga koʻra farqlash mumkinligi maxsus tahlilni talab etadi. Bundan tashqari, xorasmiylarning Kalif Uzboyi orqali Marvga va keyin Oʻrta Amudaryoga migratsiyasi sabablari yetarlicha asoslanmagan, chunki Gʻarbiy Baqtriyadan Oʻrta Amudaryo yerlariga Amudaryoning soʻl sohili boʻylab qisqa yoʻl (Tillatepa –Choplitepa –Karki-Odoytepa) orqali yetib borish mumkin edi. Shuningdek, arxeologik ma'lumotlarga koʻra, Odoytepa mil.avv. IX-VIII asrlarda, ya'ni xorasmiylar kelishidan ancha ilgari bunyod etilgan boʻlib, xorasmiylarning uning barpo etilishiga aloqasi yoʻq. Kir II ning harbiy bosqini Oʻrta Osiyoning janubida istiqomat qilgan turli elatlarga (girkanlar, parfyanlar, ariylar, margʻiyonaliklar, baqtriylar) tahdid solgan boʻlsa-da, nima uchun faqat xorasmiylar janubiy hududlarni tark etib Xorazm vohasiga koʻchgani noaniq boʻlib qolmoqda.

2001-yilga qadar mazkur masalaga tegishli ayrim tarixshunoslik ma'lumotlari N.A.Egamberdieva tomonidan koʻrib chiqilgan. Hozirgi kunga kelib, ilmiy adabiyotlarda mavjud xulosalar umumlashtirilgan holda quyidagilardan iborat:

–xorasmiylar Ahamoniylar bosqiniga qadar Tajan-Gerirud va Murgʻob vohalarida istiqomat qilganlar;

–mil.avv. 519 yildan soʻng qadimgi fors podshosi Doro I va uning vorislari Xorazm vohasida oʻz hukmronligini mustahkamlash va ziroatchilik tayanch maskanlariga asos solish maqsadida Quyi Amudaryo havzasiga janubdan xorasmiylarni koʻchirganlar;

–xorasmiylar koʻchirilishi davriga qadar Xorazm vohasida yarim koʻchmanchi sak-massagetlar joylashganlar;

–Doro I ning ogʻir soliq siyosati tufayli, mil.avv. VI asrning oxirlarida Hirot yoki Saraxs vohasida joylashgan xorasmiylar oʻz yurtini tark etib, Quyi Amudaryo yerlariga koʻchishga majbur boʻlganlar;

–xorasmiylar Gʻarbiy Baqtriya hududlarida yashaganlar, Kir II ning harbiy bosqini tahdidi sababli, ular mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida Xorazm vohasiga koʻchganlar.

MUHOKAMA VA XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlildan koʻrinib turibdiki, ilmiy adabiyotlarda qadimgi xorazmliklarning kelib chiqishi muammosiga oid turlicha, koʻp hollarda bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ularning munozarali tomonlari maqolada batafsil ochib berildi. Ayni paytda, janubdan koʻchib kelgan aholi guruhlarining

oʻzlashtirilgan hududlarda oʻz diniy qarashlari va dafn marosimlarini tatbiq qilganligi, shu tufayli antik davrda zardushtiylikning Xorazm vohasida asosiy dinga aylanganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, qadimgi xorazmliklar elati turli etnik guruhlar (quyisoyliklar, baqtriyaliklar, saklar va boshqalar) assimilyatsiyasi – qorishishi natijasida shakllangan. Yozma manbalarda hamda dostonlarda oʻz aksini topgan, dastlab Balx va Marvda, ya'ni Baqtriya va Margʻiyonada yashagan janubiy xorasmiylarga – xorazmliklarga tegishli hikoyalar, aslida Quyi Amudaryo yerlarida xorazmliklar elati tarkibini tashkil qilgan baqtriyaliklar va margʻiyonaliklarning janubiy yurti, vatani haqidagi tarixiy xotiradan kelib chiqqan, degan xulosaga kelish mumkin.

Shuningdek, Xorazmda joylashgan janubiy aholi vakillari, saklarning janubiy hududlarga yurishlari natijasida asirlikka olingan binokorlar va hunarmandlar guruhlaridan iborat boʻlgan, deb taxmin qilish mumkin. Biroq bu haqida yozma manbalarda ma'lumot yoʻq, arxeologik materiallar esa mazkur masalani yechishga yordam bermaydi. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda bahs-munozaralarga aylangan xorasmiylarning janubda (Turkman-Xuroson togʻoldi, Xirot, Saraxs vohalari, Quyi Murgʻob-Gʻarbiy Baqtriya) shakllangan elat sifatida, turli sabablarga koʻra Xorazmga migratsiyasi haqidagi nazariyadan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, mavjud yozma manbalar va tarixshunoslik ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish qadimgi xorazmliklarning kelib chiqishini yagona, tarixiy jihatdan izchil manba doirasida izohlashning murakkabligini koʻrsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda arxeologik materiallarni yanada kengroq jalb etish va yozma manbalarni qayta tanqidiy tahlil qilish orqali ushbu masalaga oydinlik kiritish mumkin boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Толстова Л.С. Исторический фольклор каракалпаков как источник для изучения этногенеза и этнокультурных связей этого народа // Этническая история и фольклор. –М., 1977. –С. 144.

2. Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. –М., 1972. № 2. –С. 3-20.

3. Ртвеладзе Э.В. Государственное объединение «Большой Хорезм» - миф, созданный учеными или историческая реальность? // Хорезм в истории государственности Узбекистана. –Ташкент, 2013. –С. 36.

4. Пьянков И.В. Хорезм в античной письменной традиции // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезми в мировой истории и культуре. –Душанбе: Дониш, 1983. –С. 46.

5. Лившиц В.А. Древнейшие государственные образования // История таджикского народа. –М.: ИВЛ, 1963. Т. 1. –С. 152-153.

6. Пьянков И.В. Хорезм в античной ... С. 43-44.

7. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии. –М.: Наука, 1979. –С. 40-41.

8. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. –Ашхабад, 1983. –С. 32-44.

9. Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. –М.: Наука, 1984. –С. 46-57.

10. Пилипко В.Н. Становление и развитие парфянской культуры на территории Южного Туркменистана: Автореф. дисс. ... доктор. ист. наук. –М.: Институт археологии, 1989. –С. 24.

POLVONNIYOZHOJI YUSUPOVNING XORAZM RESPUBLIKASI RAHBARI SIFATIDAGI FAOLIYATI

Eshchanov Jasurbek,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.
https://orcid.org/0009-0008-5590-4900

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Polvonniyozhoji Yusupovning Xorazm respublikasidagi bir yillik rahbarlik faoliyati, jadid maslakdoshlari bilan o‘tkazgan islohotlari tadqiq qilinadi. O‘tkazilgan siyosiy-huquqiy islohotlar natijasida mustamlakachi bolsheviklar bilan ziddiyatlar kelib chiqishi, natijada P.Yusupovning hukumat rahbarligidan majburiy ketkazilishi yoritib beriladi.*

Аннотация: *В статье исследуется годичная деятельность Полванниязходжи Юсупова на посту руководителя правительства Хорезмской республики, а также проведённые им совместно с единомышленниками-джадидами политические и социально-правовые реформы. Освещаются противоречия, возникшие в результате осуществления политико-правовых преобразований между правительством Хорезмской республики и большевистскими силами, а также обстоятельства, приведшие к вынужденному отстранению П. Юсупова от руководства правительством.*

Abstract: *This article examines the one-year tenure of Polvonniazhoji Yusupov as the head of the government of the Khorezm Republic, as well as the political and socio-legal reforms he carried out together with his Jadid fellow reformers. The study highlights the conflicts that emerged between the government of the Khorezm Republic and the Bolshevik forces as a result of the implementation of political and legal reforms, as well as the circumstances that led to the forced removal of P. Yusupov from the leadership of the government.*

Kalit so‘zlar: *Xiva, Xorazm, xonlik, monarxiya, respublika, hukumat, bolsheviklar, “Yosh xivaliklar”*

partiyasi, jadidlar, siyosat, konstitutsiya, harbiy davlat to‘ntarishi, tarix.

***Ключевые слова**: Хива, Хорезм, Хивинское ханство, монархия, республика, правительство, большевики, партия «Младохивинцев», джадиды, политика, конституция, военный государственный переворот, история.*

***Keywords**: Khiva, Khorezm, Khanate of Khiva, monarchy, republic, government, Bolsheviks, Young Khivans Party, Jadids, politics, constitution, military coup d’état, history.*

KIRISH. 1920 yil 2 fevralida monarxiyaga asoslangan Xiva xonligiga bolsheviklar tomonidan berilgan siyosiy-harbiy zarbalar berilishi natijasida davlatchilikning o‘zining siyosiy umrini yashab bo‘lgan an’anaviy tuzumi tugatildi. Natijada o‘z davriga mos holatda zamonaviy respublika tuzumiga asos solindi. Ya’ni, davlatga hududning azaliy nomi bo‘lgan Xorazm atamasi bilan aytiladigan -Xorazm Xalq Sho‘rolar respublikasi tashkil etildi. Tabiiyki o‘tish davriga xos, muvaqqat hukumatga tayinlandi va “Yosh xivaliklar” partiyasi To‘rtko‘l komitetining raisi, monarxiya va mustamlakachilikga qarshi kurashgan Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov respublikaning o‘tish davri rahbari bo‘ldi. Bu paytda Xorazm jadidlarining “Yosh xivaliklar” partiyasi lideri Polvonniyozhoji Yusupov Toshkentda muhojirlikda yashardi. Aynan To‘rtko‘ldagi Qizil qo‘shin tomonidan zarba berilishi vaqtida u Toshkentda bo‘lgani uchun xonlikning bevosita tugatilish va muvaqqat hukumat tuzilish jarayonida ishtirok etolmadi. Shu boisdan ham To‘rtko‘ldagi partiya komiteti raisi Jumaniyoz Sultonmurodov muvaqqat hukumatga rahbarlik qila boshlagandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI: Mavzuni xolis va haqqoniy yoritish maqsadida O‘zbekiston Milliy arxivi, R.Shamsutdinov, Q.Rajabov, M.Matkarimov, S.Matkarimova, U.Bekmuhammad, N.Polvonov - larning monografiyalari qiyosiy taqqoslandi. Shuningdek, yana boshqa jamoaviy to‘plamlardagi, ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan solishtirib chiqildi. Eng asosiysi Polvonniyozhoji Yusupovning memuaridagi fikrlar maqolaga asos qilib olindi.

MUHOKAMA: Xiva xonligining tugatilishi bolsheviklar uchun muvaffaqiyatli siyosiy hodisa edi. Negaki, Sharq, xususan O‘rta Osiyoda

kommunistik partiya siyosatini, sotsializmni targ‘ib qilishda monarxiyaga asoslangan Xiva xonligining tugatilishi muhim bosqich edi. Shu bois Toshkentdagi tashkiliy siyosiy-huquqiy ishlarni G.I.Broydo singari Moskvadan kelgan RSFSR vakili bilan maslahatlashib olgan Polvonniyozhoji Yusupov mart oyida Xorazm sari yo‘lga chiqishadi. Bu haqda u o‘z xotiralarida shunday yozadi: “Oxiri 1920 yil 4 martda Xivinskiy ekspeditsiyaga maxsus ekstrenniy poyezd birlan yaxshi soatda Toshkentdin chiqdik.Tovarish Broydo rais, chlen kollegiya tovarish Izmaylov ham Rizoaddin Shokirov ham bir necha adad tatar qizil ofitser ham Mirkomil Mirsharopov, Ermuhammedov, Mansurov ham oxran uchun askarlar, turk kotibi Hakim afandi, Markaziy Firqa qo‘mitadin Kavkazli Ismoilov, hukumatdin Olimjon Oqchurin, “Yosh buxorolilar”dan Usmonxo‘ja va boshqa bir nechalari katta bir sostav poyezd birlan “Yo Olloh”, deb Toshkentdin jo‘nab ketdik “ (1).

Shu tariqa ular poyezdda Toshkent-Jizzax-Samarqand-Buxoro-Chorjo‘y, u yerdan esa 17 martda Amudaryoga paroxodda chiqib Xorazmga yo‘l olishadi. 25 martda paroxod Toshsoqa kanali bo‘yiga keladi. U yerdan esa bir guruh Toshkentdan kelayotgan G.I. Broydo boshchiligidagi qo‘shin Polvonniyozhoji Yusupov yo‘lboshchiligida Xivaga yetib kelishadi. Bu paytda muvaqqat hukumatga Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov rahbarlik qilayotgandi.

Jumaniyoz Sultonmurodov 2 fevraldan 26 apreldagi qurultoygacha bo‘lgan davrda respublikaning tashkiliy-huquqiy, siyosiy asoslarini yaratishga intildi. Ya’ni o‘ziga topshirilgan ishni muvaffaqiyatli uddaladi va mas’uliyat bilan muvaqqat hukumat rahbarligini bajardi.Qolaversa u ham xuddi Polvonniyozhoji Yusupov , Xudoybergan Devonov, Nazir Sholikorov singari jadidlardan bo‘lib, xalq va bolsheviklar orasida hurmatu e’zozga sazovor shaxs edi. Biroq respublika boshqaruvini dastlabki davrda jadidlarga ishonib topshirgan bolsheviklar birinchi qurultoyda rahbarlik uchun saylov o‘tirishga rozi bo‘lishdi.

“Yosh xivalik jadidlar Xorazmda ag‘darib tashlangan xonlik tuzumi o‘rniga demokratik respublika qurish uchun intildilar. Yangi davlatning asoslarini yaratishda 1920 yil 26-30 aprelda bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining 1 qurultoyi katta rol o‘ynadi. Qurultoyda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e’lon qilindi. Qurultoyda 15 kishidan iborat yosh respublika hukumati-Xorazm Xalq Nozirlar Sho‘rosi tuzildi. Polvonniyozhoji Yusupov (1861-1936) boshchiligidagi hukumat tarkibiga jadidlar bilan birgalikda turkman qabila boshliqlarining kiritilishi

Xorazmda milliy masalani hal qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Hukumat boshlig‘i P.Yusupov tajribali davlat arbobi bo‘lib, u dastlabki kunlardan boshlab Xorazm respublikasida demokratik islohotlarni o‘tkazish, mamlakatning amalda mustaqil bo‘lishi uchun kurashdi “ (2).

1920 yil 26 aprelidan to 30 aprelda ham o‘tkazilgan Birinchi Butun Xorazm qurultoyida respublika rahbarini saylash uchun yashirin ovoz berish o‘tkaziladi. Boya ta’kidlab o‘tgan saylov bilan bog‘liq jarayonni Xorazmlik jadidlar qay tarzda demokratik tarzda o‘tirgani Polvonniyozhojining xotiralarida batafsil yoritilgan. Ya’ni, ushbu saylov jarayonini Polvonniyozhoji Yusupov o‘z memuarida shunday yoritib o‘tgandi: “Maxfiy qolmasinkim, partiyaning maqsadi Mulla Jumaniyozni raislikka o‘tkazmak turur, xalq vakillarining maqsadi yo faqir yo Bobooxunni o‘tkazmak turur. Shuning birlan bizlarni uchalamizni ham majlisdan chiqarib yubordilar. Qurultoy vakillari muzokara qilib qoldilar. Bizlar zalga kirib o‘tirdik. Bir necha so‘z so‘ylashib o‘tirgan hamon birodar Mulla Jumaniyoz aytdi:

-Taqsir manim ko‘nglimga bir so‘z kelur, agar ma’qul bo‘lsa aytur erdim,-dedi.

Bobooxun eshon :-Xo‘p ayting,-dedi.

Mulla Jumaniyoz aytdi:

-Bizlar uchun xalq muzokara qilib turmoqi hojat ermas turur. Man taklif qilurman, avvaldin inqilobchilarning boshliqi Hoji afandi erdi. Ham Markaziy inqilob qo‘mitasida rais erdi. Bul kishi yana nozirlar sho‘rosiga rais bo‘lsin, man muovin bo‘lurman, siz adliya noziri bo‘ling.

Bobooxun aytdi:

- Man avvaldin ayturman, xo‘p yaxshi,-deb qabul qildi.

Man aytdum:-Bobooxun eshon rais bo‘lsinlar, bizlar muovin bo‘lib xizmat qilurmiz,-dedim.

Bobooxun Eshon aytdilar:

-Man ruscha bilmasman, faqat Hoji bobo bo‘lsin, manim adliya nozirligim bo‘lur,-dedi.

Shuning birlan bir qarorga kelib majlisga chiqib, Mulla Jumaniyoz bayon bo‘lgan so‘zlarini vakillarga e’lon qildi. Hamma bir og‘izdan qo‘l chopib rozi bo‘ldilar. Bizlar o‘tib o‘rinlarimizda o‘tirdik. Qolgan 12 odamni ham saylab qo‘ydilar: Mulla Bekjon maorif noziri, Matpanaboy moliya noziri, Xudoybergan Devonov mufattish noziri, Shokirov harbiya noziri,

Eshchon qori xo‘jalik noziri, Qo‘shmamadxon –ikkinchi muovin, G‘ulom Ali ijtimoiy ta’minot noziri, Shomurod Baxshi-hibzi sihat noziri, Mulla O‘roz a’zo, Nazir Sholikarov sarkotib, Qori Abdulvohid-adliya noziri muovini, Hakim bojibon ziroat noziri, jami 15 adad nozirlar tamom saylandi.Yana hukumat bir necha kishi tayinlab qo‘ydilar. Agar odam darkor bo‘lsa, nozirlar o‘zi tayin qilmoqqa ixtiyor berdilar. Bobojonboy ziroat nozirini muovini qilib tayinlandi. Shunday qilib Qurultoyning rasmini olib, 24 aprelda javob berib, vakillarni qaytarib yubordi. Andin so‘ng Nozirlar sho‘rosining majlisini qilib hukumat tuzmoqqa mashg‘ul bo‘ldilar. Birodar Sholikarovni shahar muhofaza mudiri qildilar. Adliya va chlen kollegiya Yusuf oxun va Sapo Hoji oxun bo‘ldi. Maorifga Karim Qori muovin, Yusup Xarratov sarkotib bo‘ldi. Mulla Jumaniyoz partiyaga rais, shuningdek jazo mahkamasiga rais qilib saylandi. Mulla Muhammadjon Abdolov nozirlar sho‘rosiga sarkotib bo‘ldi. Moliyaga Ismoil Hajiyev muovin bo‘ldi. Shunday qilib, “Yosh xivaliklar”ning har birini tegishli xizmatga qo‘ydilar.Shunday qilib birinchi may 1920 yilda rasmiy ravishda hukumat xizmatiga dalolat qildilar” (3).

Ana shu tarzda Polvonniyozhoji Yusupov Xorazm respublikasining qurultoy tomonidan ko‘p nomzodlilik (ya’ni Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobooxun Salimov, Polvonniyozhoji Yusupov) asosida saylangan rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Afsuski uning va hukumat nozirlarining olib borgan mustaqil siyosati RSFSRning Xorazmdagi vakili I.M. Вык va boshqa harbiy siyosiy bolsheviklarga ma’qul kelmayotgandi. Negaki, bolsheviklar o‘zlarini xuddi Chor Rossiyasi arboblaridek tutishar va Xorazmni, respublika rahbariyatini mustamlaka o‘lka sifatida tutishga intilishardi.

Bu tarzdagi mustamlakachilik, shovinistik siyosat respublikani mustaqil qilishga harakat qilayotgan Polvonniyozhoji Yusupov va uning jadid maslakdoshlariga tabiiyki ma’qul emasdi. Shu bois bir yil davom etgan ziddiyatlar va Xorazm manfaatlari uchun kurashgan Polvonniyozhoji Yusupovning mustaqil siyosati 1921 yil 6 martgacha davom qildi.

M.Matkarimov, S.Matkarimova, U.Bekmuhammadlarning “Yosh xivaliklar” ning respublika davridagi faoliyati” nomli monografiyaga ko‘ra, “Polvonniyozhoji Yusupov hukumati respublikaning konstitutsiyasiga ko‘ra, hududlardagi xonliklarda davrida amal qilingan hokimlik tizimi o‘rniga 22 ta ma’muriy hududda sho‘rolar saylovini o‘tkazgan.Komsomol, kasaba uyushmasi singari tashkilotlar ta’sis qilinadi. 1920 yilda hududlarda 2 ta qozoq, 3 ta

turkman va 11 ta o‘zbek maktablari tashkil qilinadi. Shuningdek, mahalliy yoshlardan 120 kishi RSFSR, Turkiston ASSRga o‘qishga yuboriladi. Pul islohoti o‘tkazilib, pul birligi ishlab chiqiladi. Eng asosiysi 1920 yil 13 sentabrda RSFSR tomonidan XXSRning o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, Rossiya Xorazmning daxlsizligi va mustaqilligini tan oladi “(4).

“1920 yil 13 sentabrda RSFSR va XXSR o‘rtasida tuzilgan, RSFSR tomonidan tashqi ishlar ministri G.V.Chicherin va tashqi ishlar ministri o‘rinbosari L.M.Karaxan, XXSR tomonidan Moskvaga borgan delegatsiya rahbari, adliya noziri Bobooxun Salimov va delegatsiya a’zolari Mulla O‘roz Xo‘jamuhammedov va Mulla Nurmuhammad Boboyevlar imzolagan 24-moddadan iborat ittifoq shartnomasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi” (5).

“Ushbu shartnomaga binoan RSFSR hukumati XXSR mustaqilligini va daxlsizligini so‘zssiz tan oldi. Rossiya imperiyasi davrida rus kapitalistlari tomonidan Xiva xonligi hududida bunyod qilingan barcha banklar, zavodlar, fabrikalar, savdo korxonalar va boshqalarni XXSRning mulki deb belgilandi. Davlat chegarasi sifatida, 1920 yil 13 sentabrdagi chegara tan olindi va maxsus belgilar qo‘yiladigan bo‘ldi. RSFSRda yashaydigan XXSRning fuqarolari, XXSR da yashaydigan RSFSR fuqarolarining huquq va burchlari belgilab olindi va boshqalar.

Ushbu shartnoma 1920 yil 29 sentabrda RSFSR MIK sessiyasida va 1920 yil 26 oktabrdagi XXSR nozirlar kengashida tasdiqlangan edi “(6).

Tabiiyki, Polvonniyozhoji Yusupov va adliya noziri Bobooxun Salimovlarning siyosiy irodasi va qa’tiyati tufayli ushbu shartnoma imzolandi va RSFSR Xorazmning mustaqilligini shartnomada tarzida e’tirof qildi. Ushbu siyosiy diplomatik jarayonlarga oid butun tafsilotlarni Bobooxun Salimov kundalik tutgan holda yuritgan. Xorazzmdan yo‘l olganidan to qaytib kelgungacha bo‘lgan safar davomida ko‘rgan kechirganlari, siyosiy-huquqiy, diplomatik muzokaralarni xolis, haqqoniy ifodalab beradi. Diplomatik missiyani muvaffaqiyat bilan uddalagach esa Bobooxun Salimov hukumat rahbari Polvonniyozhoji Yusupovga hisobot taqdim qiladi. Ushbu hisobot Polvonniyozhoji Yusupovning memuari orasida alohida bob sifatida qo‘shilgan va 1999 yilda nashr etilgan (7).

...”Yosh xivaliklar” o‘z faoliyatlarida hukumatni mahalliy sharoit, shariat va mustaqillik asosida boshqarishga, milliy manffatni himoya qilishga harakat qildilar. Bu esa rus sho‘ro hukumati va firqasining Turkiston va Xivadagi

vakillariga yoqmadi. Shu boisdan “Yosh xivaliklar” hukmronligi ham uzoqqa bormadi. U bor yo‘g‘i o‘n ikki oy umr ko‘rdi. Markaz va mahalliy kommunistlarning tazyiqi bilan 1921 yil 21 fevralda Ikkinchi Butunxorazm qurultoyini chaqiruvchi markaziy saylov komissiyasi tuzildi.

P.Yusupov boshliq hukumat esa uni tarqatib yubordi, saylovoldi targ‘ibotini ma’n etdi, hukumat qaroriga qarshi bo‘lganlarni qamoqqa oldi. Chunki sho‘rolarning so‘zi bilan amaliy ishlari to‘g‘ri kelmayotgan edi....”Yosh xivaliklar” hukumati tez orada o‘zlarining aldanganliklari va bolsheviklarning dahshatli qarmog‘iga tushganliklarini anglab yetdilar. Natijada ular rus kommunistik bosqiniga qarshi milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashga otlandilar...

...Markaziy rus sho‘ro hukumati va firqasining Xorazmga yashirincha yuborgan ayg‘oqchilari mahalliy milliy hukumatga qarshi har xil qo‘poruvchilik, ayg‘oqchilikdan iborat targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishdi. Nihoyat 1921 yil 10 martda kommunistik ayg‘oqchi missionerlar mahalliy sotqinlar yordamida Xiva qizil askarlari garnizoni, turkman qizil eskadroni jangchilari, “ko‘ngilli” o‘zbek militsionerlari, jami bo‘lib 5000 dan ortiq “inqilob”chilarni Xiva ko‘chalariga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldilar. Maxsus harbiy bo‘linma Xiva hukumatining bir necha vazirlarini qamoqqa oldi. Polvonniyozhoji Yusupov va “Yosh xivaliklar”ning boshqa rahbarlari harbiy isyon arafasida kechasi Xivadan qochib ketishga muvaffaq bo‘ldilar. Isyonchilar ana shu tariqa davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Harbiy inqilobiy qo‘mita tuzildi va hokimiyat uning ixtiyoriga topshirildi. Bu sho‘rolar hukumati va kommunistik firqaning navbatdagi makkorligi va qo‘prouvchilik siyosatining klassik ko‘rinishi edi” (8)

Ma’lumki, Polvonniyozhoji Yusupov hukumat rahbarligiga saylangan qurultoyda respublikaning konstitutsiyasi qabul qilingandi. “Konstitutsiya kirish so‘zi, 13 bob, 37-moddadan iborat bo‘lgan. Konstitutsiyaning kirish qismi 2-moddasida Xivada sanoat yaxshi rivojlanmaganligi sababli sinfiy kurash ham Xiva xalqi o‘rtasida rivojlanmaganligi ta’kidlanib, davlat qurilishi haqidagi bobning 5-moddasida “...mamlakatni barcha Xorazm xalqi o‘z vakillari orqali bilvosita boshqaradi” deb qayd etiladi. Oliy organ yilda bir marotaba chaqiriladigan qurultoy bo‘lib, u mamlakatni boshqaruvchi Xalq Nozirlar Sovetini saylaydi “ deya ta’kidlangandi (9)

Polvonniyozhoji Yusupov faoliyati davomida ana shu konstitutsiya va xalq manfaatlaridan kelib chiqib siyosat yuritdi. Biroq u va uning jadid

maslakdoshlari olib borgan siyosati RSFSRning Xorazmdagi vakili I.M.Вык va Qizil qo‘shin komandirlariga ma’qul kelmayotgandi. Natijada shovinistlar va millat mantfaatlari uchun kurashayotgan jadidlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, siyosiy-huquqiy kurashlar kuchayib bordi. Buning natijasida 1921 yil 6 mart kuni Polvonniyozhoji Yusupovni ag‘darishga bo‘lgan qurolli harakat amalga oshib davlat to‘ntarishi qilindi..

NATIJA: Garchi mustamlakachilar, xususan RSFSRning Xorazmdagi vakili I.M.Вык, so‘ngra M.Safonov qattiq qarshilik ko‘rsatishsada, Xorazmlik jadidlar respublikani saqlab qolish, xorijiy davlatlar bilan mustaqil diplomatik aloqalar o‘rnatishga intilishdi. Afg‘onistonga Bobooxun Salimovning elchi qilib tayinlanishi, Yu.Salimjonovning Finlandiya bilan qo‘shma korxona ochishi ana shunday sa’yi-harakatlar natijasi edi. Bu singari respublika manfaatlaridan kelib chiqib qilingan milliy siyosat boshida esa Xorazmlik jadidlar lideri va hukumat rahbari Polvonniyozhoji Yusupov turardi.

XULOSA: Garchi Polvonniyozhoji Yusupov 1921 yil 6 martda majburiy iste’foga chiqarilgan va ma’lum bir muddat yashirinib faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘lgan esada, G.I.Broydo singari Moskvadagi do‘stlari yordamida keyinchalik avf qilindi va o‘zining kasbiy faoliyatini davom etdirdi. 1924 yildagi milliy chegaralanishdan so‘ng esa Xiva muzeyida faliyat olib bordi. Uning xotiralaridagi 9-bob aynan mustamlakachilar bilan kechgan siyosiy kurashlari haqida bo‘lib, “Xivada RSFSRning komil huquqli vakillari va ularning dumlari tomonidan g‘ayri qonuniy ravishda amalga oshirilgan davlat to‘natarishlari xususida” deya nomlanadi.

Oradan vaqt o‘tib, istiqlol davri-1999 yildagina Polvonniyozhoji Yusupovning memuari “Xorazm” nashriyotida chop qilindi va muhim tarixiy , ilmiy manbaga aylandi. Aynan ushbu xotiralarda uning 1920 yil 30 aprelidan to 1921 yil 6 martdagi iste’fosigacha bo‘lgan davrdagi voqealar butun tafsilotlari bilan yoritilgan. Ushbu asar boshqa arxiv hujjatlari, matbuot nashrlari va ilmiy adabiyotlarga taqqoslab o‘rganuvchi noyob memuar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Полвонниёзҳожи Юсупов “Ёш хиваликлар тарихи”, “Хоразм” нашриёти, Урганч-1999 йил, 204-205 -бетлар.

2.Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов, “Ўзбекистон” НМИУ, Тошкент-2019 йил, 114-115-бетлар.

3.Полвонниёзҳожи Юсупов “Ёш хиваликлар тарихи”, “Хоразм” нашриёти, Урганч-1999 йил, 216-217 -бетлар.

4.М.Маткаримов, С.Маткаримова, У.Бекмуҳаммад “Ёш хиваликлар”нинг республика давридаги фаолияти”, “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2024 йил,58, 59, 60-бетлар.

5. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71-фонд, 1-рўйхат, 6-дело, 128-129-варақлар.

6. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-71-фонд, 1-рўйхат, 6-дело, 128-129 варақлар.

7. Полвонниёзҳожи Юсупов “Ёш хиваликлар тарихи”, “Хоразм”нашриёти, 1999 йил, Урганч.Бобоохун Салимовнинг ҳисоботи ушбу китобнинг 221-307 саҳифаларида нашр этилган.

8.Рустамбек Шамсутдинов, Шоди Каримов “Ўзбекистон тарихидан материаллар. (учинчи китоб). “Андижон нашриёт матбаа” ОАЖ, Андижон-2004 йил, 226-227-228-бетлар.

9.Отамурод Қўшжонов, Неъматжон Полвонов “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар”, “Абу Матбуот -Консалт” МЧЖ нашриёти, 2007 йил, Тошкент, 323-бет.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA XORAZMDA TEATR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li.
Xorazm Ma'mun akademiyasi kichik ilmiy xodimi
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3928-9262
E-mail: khurmatbekaminov@gmail.com

UO'K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 20-30-yillarida Xorazm vohasida teatr san'atining shakllanishi, davlat teatrlarining tashkil topishi, Urganch va Xiva teatrlarining faoliyati, moddiy-texnik ta'minot, mahalliy ijodiy kadrlarni tayyorlash, folklor va musiqa merosining sahna san'ati bilan uyg'unlashuvi hamda xotin-qizlarning teatr-musiqa jarayonlariga jalb etilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, teatr san'ati, Urganch davlat teatri, Xiva, sahna, folklor, musiqa, aktyorlik, rejissura, madaniy jarayon.*

Аннотация. *В статье анализируются процессы формирования и развития театрального искусства Хорезмского оазиса в 1920–1930-е годы: создание государственных театров, деятельность Хивинского и Ургенчского театров, материально-техническое обеспечение, подготовка местных творческих кадров, взаимодействие театрального искусства с фольклорным и музыкальным наследием, а также участие женщин в культурно-сценической деятельности.*

Ключевые слова: *Хорезм, театральное искусство, Ургенчский государственный театр, Хива, сцена, фольклор, музыка, актёрское искусство, режиссура, культурные процессы.*

Abstract. *The article examines the formation and development of theatrical art in the Khorezm oasis during the 1920s and 1930s. It focuses on the establishment of state theatres, the activities of the Khiva and Urgench theatres, material and technical conditions, the training of local artistic personnel, the interaction between theatre and folk musical traditions, and the participation of women in cultural*

and stage activities.

Keywords: *Khorezm, theatre, Urgench State Theatre, Khiva, stage art, folklore, music, acting, directing, cultural processes.*

Kirish. Xorazm vohasida XX asr boshlarida sahna san’ati yangi tashkiliy shakllar bilan boyib, an’anaviy xalq tomoshalari va havaskorlik faoliyatidan davlat teatrlariga tomon rivojlandi. Mazkur jarayonni 1922-yil 22-aprelda Xivada davlat teatri binosining qurib bitkazilib, ishga tushirilishi bilan bog‘lash mumkin. 1923-yil kuzida Fotihiy Burnoshning «Zuhra va Tohir» asarining Xivada ilk bor sahnalashtirilishi esa voha sahna san’atining muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi.

Xorazm teatr tarixini o‘rganishda tashkiliy tuzilma bilan bir qatorda repertuar, aktyorlik maktabi, moddiy-texnik baza, folklor va musiqa merosining sahnaga olib kirilishi kabi omillarni birgalikda ko‘rib chiqish muhimdir. 1920-1941-yillarda dramatik truppalar, xalq teatrlari va davlat teatrlari tomonidan turli asarlarning sahnalashtirilgani vohada teatr hayoti tobora kengayganini ko‘rsatadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning manbaviy asosini Xorazm teatrlariga oid tarixiy materiallar, davriy matbuot ma’lumotlari va tadqiqotlarda keltirilgan faktik ma’lumotlar tashkil etadi. Tahlil jarayonida tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Teatrlar faoliyati ularning tashkil topish sanasi, tashkiliy tuzilishi, moddiy ta’minoti, ijodiy tarkibi va repertuar jarayonlari bilan uzviy aloqada ko‘rib chiqildi.

Natijalar. Xorazm davlat teatrining shakllanishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning faoliyati alohida o‘rin tutadi. U 1921-yil noyabrida Xorazmga kelib, mahalliy san’atkorlar bilan hamkorlikda teatr ishining rivojiga hissa qo‘shdi. Uning «Boy ila xizmatkor», «Qarmoq», «Telefon», «Tuhmatchilar jazosi» kabi asarlari sahnaga qo‘yildi. Xorazm okrugi markazining Xivadan Urganchga ko‘chirilishi natijasida Urganchning madaniy hayotdagi mavqei kuchaydi. 1931-yil boshida Urganch tuman ijroiya qo‘mitasi mahalliy sahna havaskorlarini bir markazga birlashtirib, davlat teatri tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Yanvar o‘rtalarida davlat drama-konsert truppasi faoliyat boshladi. Unga 22 ming so‘m mablag‘ ajratilib, tarkibiga cholg‘uchilar, artist va artistkalar, direktor, rejissyor, badiiy qism rahbari hamda boshqa xodimlar kiritildi [2].

1931-yil 16-yanvarda Urganch tuman davlat teatrining tashkil topishi vohadagi teatr tarmog‘ining kengayishiga turtki berdi. Xiva teatri ham faoliyatini davom ettirdi. Muzey hujjatlarida 1931-yil davomida teatr uchun qurol, kiyim va boshqa sahna buyumlari olingani qayd etilgan. 1929-1932-yillarga oid hujjatlar Xiva muzeyi bilan teatr jamoalari o‘rtasidagi amaliy aloqalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar teatrlarning moddiy-texnik imkoniyatlari hali yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi. Urganch davlat teatrining faoliyati tomoshabinlar bilan munosabat nuqtayi nazaridan ham e’tiborlidir. Teatr tashkil etilgach, uning qoshida yoshlar teatri ham tuzildi. Urganch teatrining boshqa tumanlarga xizmat ko‘rsatishi mahalliy teatrlarning shakllanish jarayonini tezlashtirdi. Shu tariqa teatr faoliyati faqat bitta shahar doirasida qolmay, vohaning boshqa hududlariga ham yoyildi.

1930-yillarning o‘rtalariga kelib teatr faoliyati folklor va musiqa merosini o‘rganish bilan yanada chambarchas bog‘landi. 1934-yildan Xorazm vohasida folklor ekspeditsiyalari tashkil qilinib, Tamaraxonim, Zuhur Qobulov va Po‘latjon Rahimov kabi san’atkorlar bu jarayonda muhim rol o‘ynadilar. Ular aktyorlarni tayyorlash, liboslar bilan ishlash va yirik sahna asarlarini qo‘yish bo‘yicha mahalliy ijodkorlarga amaliy ko‘mak berdilar. Tamaraxonim Xorazmning qariyb 30 ta qadimiy o‘yin va raqsini yangi sahna shaklida tiklab, repertuarga kiritgan. «Xorazm lazgisi», «Mavrigi», «Gullola», «Norim-norim» kabi namunalar ana shu jarayon bilan bog‘liq. 1935-yil 22-apreldagi «Inqilob quyoshi» gazetasida «Farhod va Shirin» asarining Xorazm okrug musiqa teatri tomonidan sahnalashtirilishi, rejissyor sifatida Z. Qobulov, raqslarda esa Tamaraxonim ishtirok etishi haqida xabar berilgan [5].

Mahalliy aktyorlik maktabining shakllanishida Toshkentdan kelgan tajribali san’atkorlarning ustozlik faoliyati ham muhim bo‘ldi. Rajabbibi Boyjonova, Onabibi Ochilova, Salimaxon Xo‘jaeva va boshqa mahalliy san’atkorlarning ijodiy kamolotida bu hamkorlikning o‘rni katta bo‘lgan. Shu davrda A. Muhammedov, S. Saraymonov, B. Do‘stmetov, K. Safayev, A. Solayeva, Sh. Mahmudov, I. Xudayberganov, S. Kamolov, Q. Boyjonov va boshqa ijodkorlar teatr jarayonida faol qatnashganlar. Teatr jarayoni musiqa merosini yig‘ish va yozib olish ishlari bilan ham boyidi. 1935-yilda Xorazm qo‘shiqlari va maqomlaridan 48 ta namuna tayyorlangan. Xorazmlik yetakchi san’atkorlarning Toshkentga taklif qilinishi natijasida «Feruz», «Eshboy», «Avazim», «Sanama», «Mustahzod», «Ilg‘or», «Uchinchi suvora», «Segohi ufaro», «Movriy», «Ro‘molim», «Gulufori» kabi kuy va ashulalar yozib olindi [2].

Teatr jamoalarining son jihatdan o‘sishi ham kuzatiladi: Xorazm okrug teatrida 1935-yilda 62, 1936-yilda 69 nafar xodim xizmat qilgan. Biroq moliyaviy ta’minot va malakali kadrlar masalasi dolzarbligicha qoldi. Natijada ayrim teatrlar 1935-1936-yillarda badiiy havaskorlik teatrlari maqomiga o‘tkazildi. 1936-yildan teatr kollektivlarining mahalliy byudjetga ko‘chirilishi ham ularning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan. 1937-yilga kelib Xorazm okrugida 54 ta klub va 37 ta musiqa to‘garagi faoliyat ko‘rsatgani qayd etiladi. 1937-yil may oyida Moskvada o‘zbek adabiyoti va san’ati o‘n kunligida xorazmlik san’atkorlarning ishtirok etishi voha san’atining respublika miqyosidagi namoyishini kengaytirdi [1].

Kadrlar tayyorlash masalasi 1939-yilda yangi bosqichga ko‘tarildi. Moskvadagi teatr institutida maxsus kurs tashkil etilib, 37 kishi safarbar qilindi. T. Ollonazarov, M. Mamutov va Y. Sharipov rejissyorlik faoliyatini, S. Xo‘janiyozov va P. Teleganov esa dramaturgik ijodni boshladilar. Shu bilan birga, 1939-yil 31-iyuldagi yig‘ilishda Xorazm musiqa-drama teatrining faoliyati muhokama qilinib, yetakchi aktyorlar va badiiy rahbar yuborish, repertuarni qayta ko‘rib chiqish, aktyorlarning yashash sharoitini yaxshilash hamda qo‘shimcha mablag‘ ajratish kabi choralar belgilangan. Xotin-qizlarning teatr va musiqa faoliyatiga jalb qilinishi ham 1930-yillarning oxirida sezilarli tus oldi. 1939-yilda 15 nafar qiz-juvondan iborat garmonchilar ansambli tashkil etilgani «Inqilob quyoshi» gazetasida qayd etilgan. Teatr va kolxoz teatrlarida Rajabbibi Boyjonova, O‘rozgul G‘oyipova, Poshshaxon Matchanova, Anabibi Ochilova va boshqa san’atkor ayollar faoliyat yuritgan [6].

Muhokama. Keltirilgan ma’lumotlar Xorazm teatrining shakllanishi bir yo‘nalishli jarayon bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, davlat teatrlarining tashkil etilishi sahna faoliyatiga tashkiliy asos berdi; ikkinchi tomondan, havaskorlik harakati, mahalliy ijodkorlar va xalq san’ati an’analari teatrning mazmuniy asosini boyitdi. Ayniqsa, Urganch davlat teatrining boshqa tumanlarga ko‘maklashishi teatr madaniyatining hududiy yoyilishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, moddiy-texnik baza, moliyaviy ta’minot va malakali mutaxassislar yetishmasligi teatrlarning rivojlanishini murakkablashtirgan. Ayrim jamoalarning havaskorlik maqomiga o‘tkazilishi ham ushbu muammolarning amaliy ko‘rinishlaridan biri edi. 1937-1939-yillarda ayrim teatrlarning rejalashtirilgan asarlarni sahnalashtirish o‘rniga asosan konsert faoliyati bilan shug‘ullangani haqidagi tanqidlar ham repertuar va tashkiliy boshqaruv masalalari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [3].

Davr madaniy siyosatining yana bir jihati teatr repertuari va xalq ogʻzaki ijodiga mafkuraviy talablarning ta’sir koʻrsatganidir. Manbada mahalliy madaniy meros namunalari qayta talqin qilingani, ayrim folklor va epik asarlarga davr siyosiy qarashlari singdirilgani ta’kidlanadi. Shu sababli Xorazm teatr tarixini faqat ijodiy yutuqlar ketma-ketligi sifatida emas, balki professional san’atning rivoji bilan bir qatorda murakkab tashkiliy va mafkuraviy sharoitlar ta’sirida kechgan jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq [4].

Xulosa. 1920-1930-yillarda Xorazmda teatr san’ati an’anaviy xalq tomosha shakllaridan davlat va professional teatr tizimiga tomon sezilarli rivojlanish bosqichini bosib oʻtdi. 1922-yilda Xivada davlat teatri binosining ishga tushirilishi, 1931-yilda Urganch davlat teatrining tashkil etilishi va keyingi yillarda tumanlardagi teatr hamda havaskorlik jamoalarining koʻpayishi ushbu jarayonning muhim bosqichlarini tashkil etdi. Tadqiqot natijalari teatr taraqqiyotining asosiy omillari sifatida davlat tomonidan tashkiliy qoʻllab-quvvatlash, mahalliy ijodkorlarning faoliyati, Toshkentdan kelgan san’atkorlarning ustozlik tajribasi, folklor va musiqa merosining sahna repertuariga kiritilishi hamda ijodiy kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishini koʻrsatadi. Shu bilan birga, moddiy ta’minotning yetarli emasligi, malakali mutaxassislar tanqisligi va repertuar masalalaridagi muammolar teatr rivojining murakkab tomonlarini tashkil qilgan.

Xorazm teatr tarixining mazkur davri keyingi professional sahna maktabining shakllanishi uchun muhim tajriba yaratdi. Ayniqsa, mahalliy aktyor va aktrisalar avlodining voyaga yetishi, xalq raqslari va musiqiy namunalarining sahna madaniyatiga olib kirilishi hamda hududiy teatrlar oʻrtasidagi aloqalarning kuchayishi XX asrning keyingi bosqichlarida Xorazm teatr san’ati taraqqiyotiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Собиров О. Хоразм воҳаси театрлари. Тошкент, 1984. Б. 114, 118, 136.

2. Хусаинбекова Г. Хоразм вохасида маданий жараёнлар. Диссертация. 2010 й.

3. Қиличов Тўра. Хоразм халқ театри. Тошкент, 1988. Б. 115.

4. Собиров А. Развитие советской культуры народов низовьев Амударьи 1928–1940 гг. Нукус: Каракалпакстан, 1984. С. 97.

5. «Инқилоб қуёши» газетаси. 1935 йил 22 апрель, №21.

6. «Инқилоб қуёши» газетаси. 1939 йил 12 сентябрь, №18.

“ХОРАЗМСКАЯ ПРАВДА” GAZETASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING FRONT EHTIYOJLARI UCHUN SAFARBAR ETILISHI MASALALARI

Aminov Bahodir Otabek o‘g‘li,
Urganch Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi.
bahodirotabekovich2@gmail.com.
ORCID: 0009-0007-4158-3977.

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Maqolada 1941-yil iyulidagi “Хоразмская правда” gazetasi materiallari asosida Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligining front ehtiyojlariga safarbar etilishi tahlil qilinadi. Unda rejalarni muddatidan oldin bajarish, ayollarni texnik kasblarga o‘qitish, resurslarni tejash va armiyaga moddiy yordam ko‘rsatish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm viloyati, “Хоразмская правда”, qishloq xo‘jaligi, safarbarlik, paxtachilik, pillachilik, chorvachilik, mashina-traktor stansiyasi, davlat postavkalari.*

Abstract: *Based on materials from the newspaper “Хоразмская правда” from July 1941, the article analyzes the mobilization of agriculture in the Khorezm region for front-line needs. It highlights the early fulfillment of plans, training women in technical professions, resource conservation, and direct material support for the army.*

Keywords: *Khorezm region, “Хоразмская правда”, agriculture, mobilization, cotton growing, sericulture (silk farming), animal husbandry, Machine-Tractor Station (MTS), state procurements (state deliveries).*

Аннотация: *На основе материалов газеты «Хоразмская правда» за июль 1941 года в статье анализируется мобилизация сельского хозяйства Хорезмской области на нужды фронта. Освещаются вопросы досрочного выполнения планов, обучения женщин техническим профессиям, экономии ресурсов и материальной помощи армии.*

Ключевые слова: *Хорезмская область, «Хоразмская правда», сельское хозяйство, мобилизация, хлопководство, шелководство,*

животноводство, машинно-тракторная станция (МТС), государственные поставки.

Kirish. 1941-yil 22-iyunda fashistik Germaniyaning SSSRga xoinona hujumi mamlakat xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini, jumladan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ham qisqa muddat ichida harbiy asosda qayta qurishni taqozo etdi. 1941-yil 30-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi, VKP(b) MQ va SSSR Xalq Komissarlari Soveti qarori bilan tuzilgan Davlat Mudofaa Qo‘mitasi mamlakat boshqaruvining barcha jabhalarini, jumladan qishloq xo‘jaligini ham, frontning tobora o‘sib borayotgan ehtiyojlariga bo‘ysundirdi[1]. Paxtachilik, pillachilik va chorvachilikka asoslangan agrar iqtisodiyotga ega bo‘lgan Xorazm viloyati uchun bu murojaat alohida ahamiyat kasb etdi: viloyat kolxozlari armiyani oziq-ovqat, xom-ashyo va moddiy vositalar bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biriga aylanishi lozim edi.

Viloyat matbuoti, xususan “Хоразмская правда” gazetasi, urushning dastlabki kunlaridanoq qishloq xo‘jaligi jabhasidagi safarbarlik jarayonlarini muntazam yoritib bordi. Gazeta sahifalarida davlat rejalarini muddatidan oldin bajarish, mehnat unumdorligini oshirish, ayollarni erkaklar kasb-hunariga o‘qitish va armiyaga bevosita moddiy yordam ko‘rsatish kabi mavzular markaziy o‘rin egalladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tarixshunosligida Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining front ehtiyojlariga safarbar etilishi masalasi, jumladan paxtachilik va pillachilikdagi mehnat ko‘tarilishi, umumiy ma'noda bir qator tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Biroq bu jarayonning eng dastlabki, hal qiluvchi bosqichi 1941-yil iyul oyida viloyat darajasida qanday kechgani, davlat postavkalarining qay tarzda tezlashtirilgani va ayollarning traktorchilik kasbiga safarbar etilishi qanday tashkil etilgani kabi masalalar Xorazm viloyati misolida davriy matbuot materiallari asosida alohida tadqiq etilmagan. Ayniqsa, mashina-traktor stansiyalari faoliyatining front rejimiga o‘tishi, tarmoqlar orasidagi sotsialistik musobaqaning kuchayishi va bu musobaqaning aniq statistik ko‘rsatkichlar orqali ifodalanishi masalasi bugungi kungacha kompleks o‘rganilmagan. Shu bois mazkur maqolaning manbaviy asosini 1941-yil iyul oyida “Хоразмская правда” gazetasida chop etilgan dastlabki materiallar tashkil etadi.

Metodlar. Maqolada “Хоразмская правда” gazetasining 1941-yil iyul sonlarida keltirilgan materiallarni kontent tahlil qilish, ularni mavzuiy

guruhlarga ajratib tarixiy-qiyosiy tahlil qilish, shuningdek gazetada keltirilgan statistik ma'lumotlarni tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Butun mamlakatning urush davridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvi aynan mana shu qo`mita nazoratiga o`tdi. Xususan O`zbekiston SSSRda ham bu qo`mita tomonidan berilgan topshiriqlar tez fursatlarda amalga oshirib borildi. O`zbekiston SSSRning eng muhim hududlaridan biri hisoblangan Xorazmda ham DMQ ko`rsatmalari asoisda qishloq xo`jaligini front manfaatlariga moslab qaytadan qurish ishlari jadallik bilan amalga oshirildi. Xorazm viloyati kolxozchilari DMQ chaqirig‘iga javoban Qo‘shko‘pir, Hazorasp va Shovot tumanlarining kolxozlari go‘sht va qorako‘l bo‘yicha davlatga topshirish yillik rejalarini muddatidan oldin bajardi, Shovot tumani kolxozlari esa moy yetkazib berishning yillik rejasini ortig‘i bilan uddaladilar.

Xonqa, Hazorasp kabi tumanlarda davlatga har kuni topshiriladigan moy hajmi iyunning birinchi yarmiga nisbatan 5-6 barobar oshdi[2]. Umuman, urushning dastlabki davrida nafaqat Xorazm balki respublikaning boshqa hududlarida ham front uchun zarur bo`lgan oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo`jaligi ekinlarini urushdan oldingi davrga nisbatan bir necha barobar ko`proq yetishtirish qat`iy topshiriq sifatida berildi.

Tuman miqyosidagi qishloq xo`jaligini harbiy asosda qayta qurish jarayonini Xonqa tumani misolida ko`radigan bo`lsak, tumandagi 35 ta kolxoz go‘sht postavkalari bo‘yicha davlat rejasini muddatidan oldin bajargan, teri xom-ashyosi va jun tayyorlash rejalari ortig‘i bilan uddalangan. Xonqa qishloq soveti qorako‘l terisini tayyorlash rejasini 116 % ga muddatidan oldin bajargan. Ayniqsa tumanda 1941-yilgi reja hisobidan davlatga bug‘doy va arpa avans tariqasida ommaviy topshirila boshlandi. Bu hosil yetilishidan oldin ham davlatga g‘alla yetkazib berishni tezlashtirishga qaratilgan tashabbus edi. Shu bilan birga Sarapayon qishloq sovetining “Oq-Oltin” qishloq xo‘jaligi artelida yaxshi paxta hosili olingan. Jumladan, N.Yoqubov zvenosi kolxozchi ayollari rejani 200-250 % bajargan[3].

Urush yillarida paxtachilikda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida sotsialistik musobaqa tashkil etildi va bu ommaviy vatanparvarlik harakatiga aylandi. Jumladan, Gurlan tumani Kirov kolxozi zveno boshlig‘i S. Qodirova zveno boshlig‘i M. Gangibergenovani sotsialistik musobaqaga chaqirib, 1941-yilda yuqori hosil olishga kelishib oldi, natijada zvenoning barcha a'zolari staxanovcha ishlab rejalarni bajargan bo`lsa, Xonqa tuman Stalin qishloq

Sovetidagi Karl Marks nomli kolxozda ketmonchi Sh.Jumaniyozova va H.Ahmedova kuniga 1,5 normadan ishlaganlar[4]. Xiva tumanidagi “Kommuna” kolxozining 1-sonli brigadasi 30 gektar maydonda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarib, belgilangan ikki gektar o‘rniga har kuni 2,5 gektardan sug‘orishni yo‘lga qo‘ydi, Stalin nomli kolxozdagi Xojar Atayeva zvenosi esa paxtachilikdan eng yuqori hosil olish majburiyatini bajardi[5]. Aynan urush davrida yuqoridagi kabi staxanovchilik harakatlari, sotsialistik musobaqalar uyushtirish ishchi-kolxozchilarni manaviy rag`batlantirishga harakat bo`lgan. Bu orqali ishchi-kolxozchilarni yanada samaraliroq va ko`proq mehnat qilishga undash asosiy maqsadlardan biri bo`lgan edi.

Qishloq xo‘jaligini safarbar etishning institutsional shakllaridan biri – tuman darajasidagi ixtisoslashgan matbuotning tashkil etilishi bo‘ldi. 1941-yil 6-iyuldan boshlab Qo‘shko‘pir tumanida VKP(b) tuman qo‘mitasining “Paxta uchun kurash” nomli yangi gazetasi chop qilina boshladi. Gazetaning birinchi sonidayoq hukumat qaror va murojaatlari, tuman bo‘ylab o‘tgan vatanparvarlik mitinglari haqidagi xabarlar, MTS traktorchi va mexaniklari, tuman miqyosida erishilgan yutuqlarga bag`ishlangan maqolalar, frontdan kelgan maktublar hamda frontdagi kunlik voqealar bayoniga oid materiallar joy oldi. Nomining o‘zidan ko‘rinib turganidek, ushbu gazetaning bevosita paxtachilikka bag‘ishlangan holda tashkil etilishi qishloq xo‘jaligi safarbarligining hududiy jihatdan yanada chuqurlashtirilishini ta'minladi[6].

Bu davrda asosiy ishchi kuchi hisoblangan erkaklarning frontga safarbar qilinishi natijasida qishloq xo`jaligi sohasida kadrlar tanqisligi yuzaga keldi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida ayollar traktorchilik va brigada mexaniklik kasblariga ommaviy tarzda o‘qitila boshlandi. Jumaladan, Xivada tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi kurslarida 186 nafar ayol, 134 nafari traktorchi va 52 nafari brigada mexanigi kabi kasblarga o`qitildi[7]. Shuningdek ilgari traktorchi bo‘lib ishlagan 200 dan ortiq xotin-qizlar MTSlarga qaytdi, 2000 dan ortiq ayol esa traktorchilik kurslarida va brigada mexaniklari maktablarida ta'lim oldilar[8]. Deyarli barcha erkaklar frontga safarbar qilinganligi tufayli asosan erkaklar qiladigan ko`plab ishlarni front ortida yoshlar, qariyalar va xotin-qizlar bajarishga majbur bo`lishgan. Xususan, traktor haydab yerga ishlov berish kabi jarayonlarda ham traktorchilikni o`rganib olgan xotin-qizlar faol ravishsda ishtirok qilgan.

MTSlarning o‘zi ham front ehtiyojlariga moslashtirilgan yangi ish uslubiga o‘tdi. Xonqa tumanidagi MTS huzurida tashkil etilgan ikki oylik kurslarda 176 nafar o‘zbek kolxozchi ayollari traktorchilik va brigada mexanikligini o‘rganishdi. Shovot tumani 1-MTS jamoasi esa birinchi yarim yillik rejasini 117 % ga bajarib, 50 ming rubl va 45 ming kilogramm yonilg‘i tejadi. Bunday ko‘rsatkichlar MTS larning nafaqat ishlab chiqarish, balki resurs tejash orqali mudofaa fondiga ham foyda keltirganidan dalolat beradi. MTSlar ham iloji boricha ko`proq belgilangan rejani bajarishga, shuningdek ish jarayonida ortiqcha isrofgarchilikni oldini olib yonilg`i sarfini tejab qolishga qattiq harakat qilganlar. Bu orqali esa shundoq ham mamlakatda yonilg`i taqchilligi kuzatilayotgan bir davrda front uchun oz bo`lsada hissa qo`shishga harakat qilganlar.

Qishloq xo‘jaligida kolxozchilar armiyaga o`zlaridagi mavjud moddiy vositalar bilan ham yordam berishga harakat qildilar. Masalan, Gurlan tumanidagi “Proletariat” kolxozi asalarichisi Tangirbergov o`zining to‘rtta otni bevosita Qizil Armiyaga topshirdi. Yangiariq tumanidagi “Traktor” kolxozida esa yerning 111 gektardan 45 gektari traktor kultivatorlari bilan ishlangan, qorako‘l teri va jun bo‘yicha davlat topshiriqlari esa 100 % ga, pilla bo‘yicha 97 %, go‘sht bo‘yicha 70 % ga bajarilgan hamda kolxozchilar 1941-yilgi topshiriqni yakunlab, kelgusi yil hisobidan mahsulotlarni avans tarzida topshirishga qaror qilganlar[9]. Ko`plab kolxozlardagi mehnatkashlar yillik belgilangan rejalarni ortig`i bilan bajarganlariga qaramay, ko`proq mehnat qilishga va keying yil uchun ham yerni yaxshi holatda hozirlab qo`yishga harakat qilgan.

Zvenolar darajasidagi agrotexnik intizom ham urush davrida yanada kuchaytirildi. Xiva tumanidagi Stalin nomli kolxozning zvenoboshisi, Xodja Otaeva 1940-yilda kolxoz dalalaridagi a'lo xizmatlari uchun Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasining kumush medali bilan taqdirlangan. U boshchiligidagi kolxozchilar dalalarda paxtaning barcha ishlovini ham agrotexnika qoidalariga qat'iy rioya qilingan holda o‘tkazib, dalalarni o‘z vaqtida o‘g‘itlashga muvaffaq bo`ldilar[10]. Bu kabi jarayonlar og`ir urush yillarida ham ish sifatining pasaymasligini ko`rsatadi.

Iyul oyining oxiriga kelib ayollarning paxta dalalaridagi mehnat unumi yanada yuqori ko‘rsatkichlarga yetdi. Gurlan tumanidagi Kaganovich nomli kolxozda ayollar kunlik rejani 250 % gacha bajardilar[11]. Erkaklar bevosita urush maydonlariga safarbar qilingan bir davrda ayollar front orti ishlarida

o`zlarining butun kuch-g`ayrati bilan mehnat qilib, bu kabi natijalarni amalga oshirdilar.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, 1941-yil iyul oyi davomida “Хоразмская правда” gazetasi sahifalarida aks etgan materiallar tahlili Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligining urush boshlanishidan atigi bir necha hafta ichida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirganini ko‘rsatadi. Belgilangan rejalar ko‘plab tumanlarda muddatidan oldin va ortig‘i bilan bajarilgan; ayollar traktorchilik va brigada mexanikligi kasblariga ommaviy o‘qitilgan; mashina-traktor stansiyalari o‘z faoliyatini yonilg‘i va mablag‘ tejash, rejalarni muddatidan oldin bajarish orqali davlatga kata hissa qo`shdilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Хоразмская правда. – 1941. – 3 июля. – № 155. – С. 2.
2. Хоразмская правда. – 1941. – 10 июля. – № 162. – С. 2.
3. Хоразмская правда. – 1941. – 13 июля. – № 165. – С. 3.
4. Хоразмская правда. – 1941. – 2 июля. – № 155. – С. 2.
5. Хоразмская правда. – 1941. – 10 июля. – № 162. – С. 2.
6. Хоразмская правда. – 1941. – 10 июля. – № 162. – С. 2.
7. Хоразмская правда. – 1941. – 4 июля. – № 157. – С. 4.
8. Хоразмская правда. – 1941. – 23 июля. – № 173. – С. 3.
9. Хоразмская правда. – 1941. – 24 июля. – № 174. – С. 3.
10. Хоразмская правда. – 1941. – 20 июля. – № 171. – С. 2.
11. Хоразмская правда. – 1941. – 31 июля. – № 180. – С. 1.

XIVA SHAHRI TARIXIY QISMIDA TURAR JOY MUHITINI REGENERATSIYA QILISHNING ME'MORIY-SHAHARSOZLIK TAMOYILLARI VA MODELI

Jumaboyeva Mahliyo Sanjar qizi,
Assistent labarant
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
mahliyojumaboyeva59@icloud.com

UO'K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Maqolada Xiva shahrining tarixiy qismi, ya'ni Ichan qal'a va Dishan qal'a hududlaridagi an'anaviy turar joy muhitining bugungi holati, uni regeneratsiya qilish zarurati hamda bu jarayonning me'moriy-shaharsozlik tamoyillari tahlil qilingan. Tarixiy shahar landshafti konsepsiyasi, xalqaro muhofaza hujjatlari va mahalliy qurilish an'analari asosida turar joy muhitini qayta tiklashning ko'p bosqichli modeli taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *Xiva, Ichan qal'a, tarixiy shahar, turar joy muhiti, regeneratsiya, hovli uy, mahalla, tarixiy shahar landshafti, moddiy madaniy meros, shaharsozlik modeli.*

Аннотация. *В статье анализируются современное состояние традиционной жилой среды исторической части города Хивы (Ичан-Кала и Дишан-Кала), необходимость её регенерации, а также архитектурно-градостроительные принципы данного процесса. На основе концепции исторического городского ландшафта, международных документов по охране наследия и местных строительных традиций предложена многоэтапная модель восстановления жилой среды.*

Ключевые слова: *Хива, Ичан-Кала, исторический город, жилая среда, регенерация, дворовый дом, махалля, исторический городской ландшафт, материальное культурное наследие, градостроительная модель.*

Annotation. *The article analyzes the current state of the traditional residential environment in the historic part of Khiva (Itchan Kala and Dishan Kala), the need for its regeneration, and the*

architectural and urban planning principles governing this process. Based on the Historic Urban Landscape approach, international conservation charters and local building traditions, a multi-stage model of residential regeneration is proposed.

Keywords: *Khiva, Itchan Kala, historic city, residential environment, regeneration, courtyard house, mahalla, historic urban landscape.*

Xiva Markaziy Osiyoning shaharsozlik merosi to‘liq saqlanib qolgan kam sonli shaharlaridan biridir. Uning ichki shahri Ichan qal’a 1990-yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan [1]. Taxminan 26 gektar maydonni egallagan, uzunligi 2 kilometrdan ortiq mudofaa devori bilan o‘ralgan bu hudud o‘rta asr sharq shahrining yaxlit namunasi sifatida qadrlanadi. Biroq Ichan qal’aning jahonga mashhur qiyofasi, asosan, monumental inshootlar, ya’ni masjid, madrasa, minora va saroylar bilan bog‘lanadi. Ushbu ansamblning “matosi”ni tashkil etuvchi an’anaviy turar joylar esa ilmiy tadqiqotlarda ham, amaliy loyihalarda ham nisbatan kam e’tibor topmoqda.Tarixiy shaharning mavjudligi uning yodgorliklari bilan emas, balki unda yashayotgan aholi, mahalla hayoti va turar joy muhitining uzluksizligi bilan belgilanadi. Ichan qal’a 1968-yilda davlat muzey-qo‘riqxonasi maqomini olganidan buyon hudud ikki qarama-qarshi jarayon ta’sirida rivojlanmoqda. Bir tomondan, monumental yodgorliklar izchil ta’mirlanib, turizm infratuzilmasi kengaymoqda. Ikkinchi tomondan, an’anaviy hovli uylar jismoniy eskirmoqda, zamonaviy muhandislik talablariga javob bermay qolmoqda, aholining bir qismi tarixiy hududni tark etib, turar joylar mehmonxona, do‘kon va hunarmandchilik ustaxonalariga aylanmoqda. Natijada tarixiy shaharning “muzeylashuvi”, ya’ni u yashash muhitidan ko‘rgazma makoniga aylanishi xavfi paydo bo‘lmoqda.

Jahon amaliyotida bu muammoga yechim sifatida “shahar regeneratsiyasi” (urban regeneration) tushunchasi shakllangan. P.Roberts va H.Sayks ta’rificha, regeneratsiya muayyan hududning iqtisodiy, jismoniy, ijtimoiy va ekologik holatini barqaror yaxshilashga qaratilgan kompleks, integratsiyalashgan harakatdir [2]. Tarixiy muhitga nisbatan esa regeneratsiya restavratsiya va rekonstruksiyadan farqli ravishda yodgorlikni emas, balki hayot tarzini, ijtimoiy tuzilmani va makonning tizimli to‘laqonliligini tiklashni nazarda tutadi [3]. YUNESKOning 2011-yilgi “Tarixiy shahar landshafti to‘g‘risidagi

tavsiyanomasi” ham tarixiy shaharni statik obyekt emas, balki qatlamma-qatlam shakllangan, rivojlanishda davom etayotgan tirik organizm sifatida ko‘rib chiqishni taklif etadi [4; 5]. Tadqiqot kompleks yondashuvga asoslandi va quyidagi usullar qo‘llanildi. Tarixiy-arxiv tahlili. Xivaning shaharsozlik rivojiga oid tarixiy xaritalar, XX asr boshidagi fotomateriallar, G.Pugachenkova [6], L.Yu.Mankovskaya [7], M.S. Bulatov [8] kabi tadqiqotchilarning asarlari, shuningdek, Ichan qal’a muzey-qo‘riqxonasi arxiv materiallari o‘rganildi. Tahlillar Xiva turar joy muhitining quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatdi.

Shahar tuzilmasi ierarxik xarakterga ega. Ichan qal’ani g‘arbiy (Ota darvoza) va sharqiy (Polvon darvoza) darvozalarni bog‘lovchi asosiy ko‘cha kesib o‘tadi. Monumental inshootlar ana shu o‘q bo‘ylab to‘plangan, turar joy mahallalari esa undan tarmoqlanuvchi tor ko‘chalar va berk tupiklar atrofida joylashgan. K.Linch talqinidagi yo‘llar, tugunlar va mo‘ljallar tizimi [9] bu yerda aniq namoyon bo'ladi: jamoat makonidan yarim jamoat makoniga (mahalla ko'chasi), undan xususiy makonga (hovli) bosqichma-bosqich o‘tish tizimi yuzaga kelgan.

Xorazm turar joyining asosiy birligi ichkariga yo‘naltirilgan hovli uydir

Ko‘chaga qaragan devorlar deyarli yopiq bo‘lib, butun hayot hovli atrofida kechadi. Xorazm uylarining eng xarakterli elementi baland, odatda shimolga qaratilgan ayvon bo‘lib, u yozgi issiqda salqin shamolni tutish vazifasini bajaradi. Ayvonning o‘ymakor yog‘och ustunlari va to‘sinlari Xorazm yog‘och o‘ymakorligi maktabining mahalliy turar joylardagi yorqin namunalaridir.

Qurilish materiallari va konstruksiyalari mahalliy iqlimga moslashgan: paxsa va xom g‘isht devorlar, sinch konstruksiyalar, tekis tomlar, qalin devorlar orqali harorat inersiyasini ta’minlash. Bu ekologik jihatdan barqaror qurilish tizimi bugungi “yashil me’morchilik” nuqtai nazaridan ham qimmatli. An’anaviy me’morchilikdagi proporsiya va geometrik uyg‘unlik qonuniyatlari [8] turar joy binolarida ham o‘z aksini topgan.

Turar joy muhitining ijtimoiy asosi mahalladir. Mahallaning guzar, masjid, hovuz, choyxona kabi jamoat markazlari hovlilar bilan birga yagona ijtimoiy-makoniy tizim hosil qilgan.

Xalqaro hujjatlar, qiyosiy tajriba va Xivaning o‘ziga xos sharoitlari asosida regeneratsiyaning quyidagi yetti tamoyili asoslandi.

1. Yaxlitlik va kontekstuallik tamoyili. Turar joy alohida bino sifatida emas, balki ko'cha, mahalla va butun tarixiy shahar landshafti tarkibida ko‘rib

chiqiladi Har qanday aralashuv atrofdagi muhitning masshtabi, ritmi va siluetiga muvofiq bo‘lishi kerak.

2. Asliyatni saqlash tamoyili. Nara hujjati ruhida asliyat nafaqat moddiy shakl, balki material, texnologiya, funksiya va an’anani ham qamrab oladi [11]. Shu bois tarixiy qimmatga ega elementlar (ayvon, o‘ymakor ustun, eshik, darcha) saqlanadi, ta’mirlashda an’anaviy materiallar va usullarga ustunlik beriladi. Tarixiy muhitni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish jarayonini ma’lum ma’noda tarjimaga qiyoslash mumkin: tarjimada asl matnning badiiy tasvir vositalarini saqlash uning ruhi va estetik ta’sirini yangi tilda yetkazishning asosiy sharti bo‘lgani kabi [15], regeneratsiyada ham tarixiy muhitning o‘ziga xos “me’moriy tili” va obrazli elementlari yangi funksional sharoitda saqlanib qolishi lozim.

3.Tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyili. Turar joylar tarixiy-me’moriy qimmatiga ko‘ra toifalarga ajratiladi va har bir toifaga mos aralashuv darajasi belgilanadi (konservatsiya, restavratsiya, moslashtirish, fon qurilishini yangilash)

4. Yashash sifatini oshirish tamoyili. Regeneratsiya aholining hayot darajasini oshirishga xizmat qilishi lozim. Zamonaviy sanitariya-gigiyena qulayliklari, muhandislik tarmoqlari va energiya samaradorligi tarixiy tuzilmaga zarar yetkazmagan holda, “yashirin” yechimlar orqali joriy etiladi.

5. Ijtimoiy uzluksizlik tamoyili. Aholining hududda qolishi rag‘batlantiriladi; turar joy funksiyasi ustuvor saqlanadi; mahalla jamoasi loyihalash va qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etiladi. Jeykobs ta’kidlaganidek, shahar muhitining hayotiyligi ko‘cha va mahalla darajasidagi kundalik ijtimoiy aloqalar zichligiga bog‘liq

6. Funksional muvozanat tamoyili. Turar joy, hunarmandchilik, mehmon uylari va savdo funksiyalari o‘rtasida kvotalash asosida muvozanat o‘rnatiladi. Mehmon uyi formatidagi “oilaviy turizm” turar joy funksiyasini yo‘qotmasdan iqtisodiy manfaat keltiruvchi maqbul yo‘l sifatida qaraladi.

7. Bosqichma-bosqichlik va qaytarilish tamoyili. Aralashuvlar kichik qadamlar bilan, monitoring asosida olib boriladi; kiritilgan yangi elementlar kelajakda tarixiy tuzilmaga zarar yetkazmasdan olib tashlanishi mumkin bo‘lishi kerak [9].

Yuqoridagi tamoyillar asosida Xiva tarixiy qismida turar joy muhitini regeneratsiya qilishning uch darajali va besh bosqichli modeli ishlab chiqildi;

shahar darajasi: Ichan qal’a va Dishan qal’ani yagona tarixiy shahar landshafti sifatida zonalash, transport va piyodalar oqimini boshqarish, turizm yuklamasini hududlar bo‘yicha taqsimlash;

mahalla darajasi: mahalla ko‘chalari, guzarlar, hovuzlar va jamoat markazlarini tiklash, ko‘kalamzorlashtirish, muhandislik tarmoqlarini mahalla miqyosida kompleks o‘tkazish;

hovli darajasi: alohida turar joyni tipologik toifasiga ko‘ra ta’mirlash, zamonaviy qulayliklar bilan jihozlash va moslashtirish.

Olingan natijalar tarixiy shaharlarni muhofaza qilish sohasidagi zamonaviy paradigma bilan hamohang. Agar XX asrning o‘rtalarida muhofaza siyosati asosan alohida yodgorliklarga qaratilgan bo‘lsa , Vashington xartasidan boshlab diqqat markaziga tarixiy shaharning yaxlit muhiti va unda yashovchi jamoa chiqdi [10]. Tarixiy shahar landshafti konsepsiyasi esa bu yondashuvni yanada chuqurlashtirib, o‘zgarishni muqarrar deb tan oladi va uni boshqarish zarurligini ta’kidlaydi [4; 5]. Taklif etilayotgan model aynan shu mantiqqa asoslanadi: u Xivani “muzlatib qo‘yish”ni emas, balki o‘zgarishlarni tarixiy asliyat bilan uyg‘unlashtirib boshqarishni maqsad qiladi.

Xorijiy tajriba bilan qiyoslash muhim xulosalarga olib keladi. Marokashning Fes shahri tarixiy medinasida faqat monumental yodgorliklarni ta’mirlashga yo‘naltirilgan dastlabki loyihalar aholining chiqib ketishini to‘xtata olmagan; keyinchalik turar joylarni ta’mirlashga texnik va moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish dasturlari joriy etilgach, vaziyat yaxshilana boshlagan. Eronning Yazd shahrida an’anaviy hovli uylarni mehmon uylariga moslashtirish tarixiy fondni saqlashga yordam bergan, biroq ayrim mahallalarda turar joy funksiyasining keskin qisqarishiga ham sabab bo‘lgan. Bu tajriba Xiva uchun funksional kvotalash tamoyilining ahamiyatini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning o‘z tajribasi ham ibratli. Buxoro va Samarqand tarixiy markazlarida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari turizm infratuzilmasini sezilarli yaxshiladi, biroq mutaxassislar tomonidan tarixiy qatlamlarning yo‘qolishi, fasadlarning unifikatsiyalashuvi va “dekoratsiyaga aylanish” xavfi haqida tanqidiy fikrlar ham bildirilmoqda. Taklif etilayotgan modeldagi tabaqalashtirilgan yondashuv va bosqichma-bosqichlik tamoyillari bunday xavflarning oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, modelni amalga oshirishda bir qator muammolar kutiladi. An’anaviy materiallar (paxsa, xom g‘isht) va texnologiyalarni biladigan ustalar soni qisqarmoqda, bu esa an’anaviy qurilish hunarmandchiligini tiklash va o‘rgatish dasturlarini talab qiladi. Xususiy

mulkdagi turar joylarni ta’mirlashni moliyalashtirish masalasi davlat, xususiy sektor va aholi ishtirokidagi aralash mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi [2]. Sho‘rlanish va sizot suvlari kabi tabiiy-ekologik omillar alohida muhandislik tadqiqotlarini talab qiladi, chunki ular butun hudud uchun umumiy xavf hisoblanadi. Tadqiqotning cheklovlari sifatida shuni qayd etish lozimki, dala tadqiqoti tanlangan mahallalar bilan cheklangan bo'lib, natijalarni butun tarixiy hududga umumlashtirish uchun kengroq inventarizatsiya zarur. Kelgusi tadqiqotlarda model indikatorlarini miqdoriy baholash va pilot loyiha natijalarini empirik tekshirish rejalashtirilgan.

Xiva tarixiy turar joy muhiti ierarxik makoniy tuzilma, ichkariga yo‘naltirilgan hovli uy tipologiyasi, iqlimga moslashgan qurilish tizimi va mahalla ijtimoiy tashkiloti birligidan iborat yaxlit tizimdir. Uning qimmati alohida yodgorliklar qimmatidan kam emas, chunki aynan u tarixiy shaharning asliyatini va tirikligini ta’minlaydi. Turar joy muhitining degradatsiyasi jismoniy-texnik, muhandislik, me’moriy-estetik va ijtimoiy-funksional omillarning o‘zaro bog‘liq ta’siri natijasidir. Shu sababli muammoni faqat restavratsiya bilan emas, balki kompleks regeneratsiya orqali hal qilish mumkin. Regeneratsiyaning yetti asosiy tamoyili, ya’ni yaxlitlik va kontekstuallik, asliyatni saqlash, tabaqalashtirilgan yondashuv, yashash sifatini oshirish, ijtimoiy uzluksizlik, funksional muvozanat, bosqichma-bosqichlik va qaytarilish tamoyillari asoslandi. Shahar, mahalla va hovli darajalarini qamrab oluvchi hamda inventarizatsiya, toifalash, reglamentlash, amalga oshirish va monitoring bosqichlaridan iborat regeneratsiya modeli taklif etildi. Modelning asosiy vositasi sifatida Xiva tarixiy qismi uchun dizayn-kod ishlab chiqish tavsiya etiladi. Modelni amalga oshirishni Ichan qal’aning bitta mahallasida pilot loyiha sifatida boshlash, uning natijalarini baholab, so‘ngra Dishan qal’a hududiga bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.UNESCO World Heritage Centre. Itchan Kala (World Heritage List, No. 543). – Paris, 1990.

2.Roberts P., Sykes H. (eds.) Urban Regeneration: A Handbook. – London: SAGE, 2000.

3.Tiesdell S., Oc T., Heath T. Revitalizing Historic Urban Quarters. – Oxford: Architectural Press, 1996.

4.UNESCO. Recommendation on the Historic Urban Landscape. – Paris, 2011.

5.Bandarin F., van Oers R. The Historic Urban Landscape: Managing Heritage in an Urban Century. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2012.

6.Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX века. – Москва: Искусство, 1965.

7.Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX – начало XX в.). – Ташкент: Фан, 1980.

8.Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. – Москва: Наука, 1978.

9.ICOMOS. International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites (The Venice Charter). – Venice, 1964.

10.ICOMOS. Charter for the Conservation of Historic Towns and Urban Areas (Washington Charter). – Washington, 1987.

11.The Nara Document on Authenticity. – Nara, 1994.

12.O‘zbekiston Respublikasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2001.

13.Lynch K. The Image of the City. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.

14.Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities. – New York: Random House, 1961.

15.Radjapova I. Tarjimada badiiy tasvir vositalarining saqlanishi // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – T. 3, № 7. – B. 205–208.

QORAQALPOG‘ISTON MATBUOTI (1990–2000-yillar): AHVOLI, IJTIMOIY MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Muratbaeva Aziyza Bazarbaevna,
Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali dotsenti, Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Maqolada Qoraqalpog‘iston hududidagi bosma matbuot nashrlari, jumladan, “Erkin Qoraqalpog‘iston”, “Vesti Karakalpakstana” va “Amu tongi” gazetalarining rivojlanish bosqichlari, ularning tiraji hamda jamiyatdagi ijtimoiy ahvol bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ayniqsa, 1990–2000-yillardagi matbuotning holatiga alohida e’tibor qaratilib, bozor iqtisodiyotiga endi qadam qo‘ygan O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va o‘tish davri muammolarining matbuot sohasidagi aks-sadosi yoritib beriladi. Muallif davriy matbuotning aholi ijtimoiy hayotidagi o‘rni, axborot tarqatishdagi dinamikasi va gazetalar tirajining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni atroflicha o‘rgangan.*

Kalit so‘zlar: *Matbuot, tiraj, ijtimoiy ahvol, Erkin Qoraqalpog’iston gazetasi, Vesti Karakalpakstana gazetasi, Amu tongi, gazeta.*

Аннотация: *В статье анализируются этапы развития печатных изданий Каракалпакстана, в частности газет «Еркин Каракалпакстан», «Вести Каракалпакстана» и «Аму тонги», их тираж и взаимосвязь с социальным положением общества. Особое внимание уделено состоянию прессы в 1990–2000 годах, где на примере печатных СМИ отражены социально-экономические трудности и проблемы переходного периода в Узбекистане, только вступавшем в рыночную экономику. Автор подробно исследует роль периодической печати в социальной жизни населения, динамику распространения информации и факторы, влияющие на изменение тиража газет.*

Ключевые слова: *Печать, тираж,*

социальное положение, “Еркин Каракалпакстан”, “Вести Каракалпакстана”, “Аму тонги”, газета

Abstract: *The article analyzes the development stages of print media in Karakalpakstan, specifically focusing on newspapers such as "Erkin Karakalpakstan", "Vesti Karakalpakstana", and "Amu tongi", their circulation, and their correlation with the social status of society. Special attention is paid to the state of the press during the 1990s and 2000s, illustrating the socio-economic hardships and transition-period challenges in Uzbekistan as it took its first steps toward a market economy through the lens of print media. The author thoroughly examines the role of the periodical press in public life, information dissemination dynamics, and the factors influencing changes in newspaper circulation.*

Keywords*: Print media, circulation, social condition, “Erkin Karakalpakstan”, “Vesti Karakalpakstana”, “Amu tongi”, newspaper*

Qoraqalpog‘iston matbuoti o‘z taraqqiyotida tarixiy bosqichlarni bosib o‘tib, qaysi tarixiy davrni olib qarasak ham, Qoraqalpog‘istonda matbuotning boshqa ommaviy axborot vositalariga qaraganda jamoatchilik fikrini shakllantirishda ta’siri juda kuchli bo‘lganini ko‘ramiz. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Milliy matbuotimizga tamal toshini qo‘ygan jadid bobolarimizning “Matbuot – fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo‘lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko‘zgu bo‘lmog‘i lozim” degan fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlashimiz tabiiydir” [1] – degan fikrlari matbuotimizning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatib turibdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi davrda, ya’ni XX asrning 90 yillariga kelib Qoraqalpog‘iston matbuoti birmuncha qiyinchiliklarga duch keldi. Bu bir tomondan mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston matbuot vositalari mamlakatimiz endi mustaqillikka erishgan davrlarda xalqimiz ongidagi bo‘shliqlarni to‘ldiruvchi va milliy istiqlol g‘oyalarining harakatlantiruvchi

kuchiga aylandi. “Matbuot jamoatchilik fikrini shakllantiradi, fuqarolar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, mamlakatda va dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini anglashga yordam beradi, xabardor qiladi, tarbiyalaydi”[2]. Natijada matbuot jamiyatdagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishning zarur texnika va uslublari yordamida maqsadga erishishni ta’minlaydi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillari ommaviy axborot vositalari, ayniqsa matbuot sohasi uchun juda og‘ir davr bo‘ldi. Bu asosan, qog‘oz va bosma xizmatlarining qimmatlashuvi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, “1990 yilgacha gazetalarning tiraji o‘sib kelayotgan edi. Masalan, 1980–1989 yillarda 38188,8 ming dona bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1990 yilda 40863,7 ming dona bo‘ldi. 1991 yilga kelib esa, gazetalarga obuna narxining qimmatlashuvi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak, gazetalarning tiraji 26974,1 ming donaga tushib qoldi” [3]. Shuningdek, qog‘oz narxining haddan ziyod qimmatlashishi, matbuot mahsulotlarini tarqatish bilan shug‘ullanuvchi muassasalar oladigan ish haqining o‘sishi va boshqa moliyaviy sabablarga ko‘ra respublika, shahar va tuman gazetalarining chiqish muddatlari qisqartirildi. Jumladan, “Erkin Qaraqalpaqstan” va “Вести Каракалпакстана” gazetalari 1991 yilda haftasiga besh marta chiqqan bo‘lsa, oradan bir yil o‘tib, haftasiga uch marta chiqa boshladi. 1994 yilga kelib esa haftasiga ikki marta (payshanba, shanba kunlari) chiqadigan bo‘ldi” [4].

Qoraqalpog‘iston matbuotidagi bu og‘ir holatni biz arxiv fondlarida saqlanayotgan “Sovetskaya Karakalpakiya” (Советская Каракалпакия) gazetasining bosh muharriri E.Baynazarovning xatidan ham ko‘rishimiz mumkin. “Katta moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, 1992 yilda tahririyatning normal ishlashini ta’minlash uchun davlat byudjetidan 2,5 mln. rublga yaqin subsidiya ajratildi. O‘z navbatida tahririyat ham gazetani chop etish xarajatlarini kamaytirishga, hukumat tomonidan ajratilgan mablag‘ni tejashga harakat qilmoqda. Gazetaning chiqish muddati haftasiga 3 barobarga qisqartirildi va xodimlar soni 25 foizga kamaytirildi. Lekin qog‘oz, bosmaxona va pochta xizmatlari narxlarining muttasil oshib borishini hisobga olsak, bu chora-tadbirlar kutilgan natijani bermadi”[5] – deyiladi.

Sharoit qanchalik og‘ir bo‘lishiga qaramay, bu nashrlar orasida o‘zbek, rus va qozoq tilida chop etiluvchi nashrlar ham bor edi. Xususan, “Вести Каракалпакстана” gazetasi orqali materiallar rus tilida yoritilgan bo‘lsa, “Dostiq uni” gazetasi orqali materiallar qozoq tilida aks ettirildi. Shu bilan birga,

1992 yil 17 avgust kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Respublika “Amu tongi” gazetasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 194/8-sonli qarori qabul qilinib [6], ushbu nashr o‘zbek tilida jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni yoritib bordi.

Matbuotdagi bu og‘ir holat O‘zbekiston miqyosida chiquvchi boshqa davriy nashrlarda ham yuz berdi. “Narodnoe Slovo” (Народное слово) gazetasining bosh muharriri A.Jo‘raboyevning 1993 yil 25 fevral kungi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisiga yo‘llagan maktubida gazetaga idora, xayriya va individual obuna uchun har tomonlama yordam berish so‘raldi [7]. Natijada “1993 yil boshidan, ya’ni dastlabki uch oyda gazeta obunachilari soni 251 taga ko‘paydi va ayni paytda obunachilar soni 2 mingtaga yetdi”[8] – deb Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar va axborot bo‘limi boshlig‘i D. Niyozov hisobot berdi.

Matbuot vositalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1992 yil 17 avgust kuni “Ijtimoiy ahamiyatga ega ommaviy axborot vositalari uchun zarur sharoitlar yaratib berish to‘g‘risida”gi 195/8-sonli qarori qabul qilindi [9]. Shu bilan birga, matbuot vositalarining tashqi ko‘rinishi va mazmun-mohiyatini yangilash, kommunistik g‘oyalardan voz kechgan holda yangi istiqlol g‘oyalarini keng targ‘ib qilish maqsadida 1993 yil iyul oyida matbuot uyida uchrashuv o‘tkazildi [10]. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi matbuot qo‘mitasi raisi K.Dosimbetov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jurnalistlar uyushmasi raisi J.Tajetdinovlar boshchiligida yangi mafkurani shakllantirishda matbuotning asosiy vazifalari belgilab olindi.

Shuningdek, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrida ayrim gazetalarning nomlari o‘zgarishga uchradi. Xususan, 1992 yil 23 iyul kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Sovetskaya Karakalpakiya” (Советская Каракалпакия) gazetasining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi 173/8-sonli qarori qabul qilindi[11]. Respublikamiz tarixida muhim o‘rin tutgan “Sovetskaya Karakalpakiya” (Советская Каракалпакия) respublika gazetasining nomi “Вести Каракалпакстана” nomiga, “Sovet Qaraqalpaqstanı” (Совет Қарақалпақстаны) gazetasi esa “Erkin Qaraqalpaqstan” nomiga o‘zgartirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining

1993 yil 2 sentabrdagi 451-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari tashkillashtiruvchilari to‘g‘risida”gi vaqtinchalik qonuniga ko‘ra matbuot tashkilotlari, tahririyat va bosmaxona o‘rtasidagi ishlab chiqarish, mulkiy va moliyaviy masalalar amaldagi qonun va shartnomalar asosida olib borilishi belgilandi. 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab viloyat, shahar va tuman gazetalari faoliyati bo‘yicha hisobot ma’lumotlarini O‘zbekiston davlat matbuot qo‘mitasining viloyat boshqarmalariga topshirishdan ozod qilindi [12]. Tarixchi – olim S. Nurjanovning ta’kidlashicha, “umuman bu davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi tomonidan 44 ta nashr ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 8 tasi respublika va shahar, 14 tasi tuman, 13 tasi ko‘p tirajli gazeta va 7 tasi jurnal edi” [13].

Har bir gazeta sahifalarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar va gazeta narxlari nega ko‘tarilayotgani gazeta o‘quvchilariga keng tushuntirilib borildi. Ayniqsa, “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasida yuzaga kelgan og‘ir vaziyat tufayli gazeta o‘quvchilarining 1994 yil uchun obuna puli faqat birinchi yarim yillik uchun yetib, shu yilning iyun oyida gazetaning ikkinchi yarim yilligi uchun qayta obuna tashkil etildi. Bu haqida gazetaning 1994 yil iyun oyidagi sonlarida “Shu yil 1 iyuldan boshlab “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasining har bir donasini chiqarish uchun 621 manat 36 tiyin, shu jumladan faqat pochta xizmati uchun 231 manat sarflanishi kutilmoqda. Joriy yil uchun gazeta obunasidan tushgan mablag‘ning hammasi sarflanib bo‘ldi, buning ustiga davlatdan ancha miqdorda dotatsiya olindi, shularning hammasi bilan deyarli yarim yilga “yetdik”. Endi qayta obuna tashkillashtirishdan boshqa iloj yo‘q. Biz bunga ilojsiz majburmiz” [14] – deyiladi. 1994 yilning ikkinchi yarim yilligi uchun 6 oyga obuna narxi “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasiga 32310 manat, “Вести Каракалпакстана” gazetasiga 23250 manat, “Qaraqalpaqstan jasları” gazetasiga 5796 manat, “Jetkinshek” gazetasiga 7542 manat, “Ámiwdárya” jurnaliga 19974 manat etib belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 1995 yilgi respublika va tuman gazeta tahririyatlarining daromadlar va xarajatlar smetasida qog‘ozni sotib olish narxi byudjetda 1 tonna qog‘oz uchun 8,0 ming so‘m etib belgilangan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 1 tonna qog‘ozning narxi 25,0 ming so‘mga yetganligi aytiladi. Shuningdek, Respublika byudjeti bo‘yicha markaziy gazeta va jurnallarning umumiy soni 55,0 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yil

oxirida 27,2 ming donani tashkil etdi. Jumladan, “Erkin Qaraqalpaqstan” 20,0 ming va 9,3 ming dona, “Вести Каракалпакстана” 5,0 ming va 4,1 ming dona, “Amu tongi” 5,0 ming va 1,2 ming dona, “Qaraqalpaqstan jaslari” 10,0 ming va 8,4 ming dona, “Jetkinshek” 5,0 ming va 2,1 ming dona hamda “Ámiwdárya” jurnali 10,0 ming va 2,1 ming dona chop etildi [15].

1990 yillarning o‘rtalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan matbuot vositalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1995 yil 19 aprelda “Qoraqalpog‘iston Respublikasi davriy matbuot vositalari xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida”gi №85/4-sonli qarori, 1995 yil 4 oktabrda “Respublika gazetalarining chiqish chastotalarini belgilash to‘g‘risida”gi №210/9-sonli qarori, 1996 yil 12 mayda “Nukus poligrafkombinatining tashkil topganligining 75 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi №131/5-sonli qarori, 1998 yil 2 iyul kuni “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 1998 yil 9 iyundagi 367/1 son “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunini (yangi tahrirda) amalga kiritish to‘g‘risida qarori haqida”gi №200/6-sonli qarori [16] va boshqa qarorlar qabul qilindi.

Davriy nashrlar chiquvchi nashriyot faoliyatiga ham e’tibor kuchaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1996 yil 12 maydagi “Nukus poligrafkombinatining tashkil etilganligining 75 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi №131/5-sonli qarori qabul qilindi va respublikamizda 1996 yil 27 iyun kuni keng miqyosda belgilandi [17]. Shu bilan birga, Nukus matbaa kombinatiga Avstriyaning “Бертольд и Штемпель” firmasidan jahon standartlari talablariga javob beradigan zamonaviy matbaa uskunalari olib kelindi. Bunda bir bo‘yoqli ofset mashinasi, ikki bo‘yoqli ofset mashinasi, qog‘ozning ikki tomonini bir yo‘la bosadigan ikki bo‘yoqli ofset mashinasi, plyonka yopishtiruvchi uskuna, nusxani ko‘paytiruvchi uskuna, rasm chiqaruvchi uskuna, shuningdek, “Makintosh” kompyuter komplektlari, “Skaner”, “Multilayn-550” oddiy va rangli lazer printerlari jami 1800000 doychmark turadigan uskunalar mavjud edi [18]. Bu zamonaviy uskunalar o‘rnatilgach, respublikamizda nashriyot ishi ancha yaxshilandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi raisi A.Esemuratovning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga yo‘llagan xatida Nukus poligrafkombinatining yangi zamonaviy poligrafiya texnologiyasiga o‘tishiga oid Respublika gazeta-jurnal tahririyatlarining gazeta

sahifalarini (to‘liq nusxalarini) o‘z vaqtida poligrafkombinatga yetkazib berish uchun “Kompyuter” tizimiga o‘tish zarurligi, buning uchun 8 dona kompyuter va 5 dona printer xarid qilish uchun davlat byudjetidan 2 400 million so‘m yordam so‘raldi [19].

Ma’lumki, zamonaviy ommaviy axborot vositalari milliy (madaniy-siyosiy) o‘ziga xoslik tuzilmasini shakllantira oladi. Matbuot ijtimoiy nazorat tizimini ham o‘zida aks ettirib, uning yordamida ma’naviy-madaniy taraqqiyot sohasidagi shaxslar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ko‘maklashish va jurnalistlarning faolligini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1997 yil 14 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 186-sonli qarori bilan shu yilning sentyabr oyidan boshlab Toshkentda jurnalistlarni qayta tayyorlovchi xalqaro jamoatchilik markazi o‘z faoliyatini boshladi. Markaz tomonidan 1997 yilning sentyabr oyidan 1998 yilning iyunigacha bo‘lgan davrda jurnalistlarni qayta tayyorlash seminarlari tashkil etildi. Dastlabki seminar 1997 yilning 8-12 sentyabr va 15-19 sentyabr kunlari “Ommaviy axborot vositalari demokratiya sharoitida: jurnalistlar faoliyatining huquqiy asoslari” mavzusida o‘tkazildi [20]. Seminarda “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida yangicha ongni shakllantirish”, “Ma’naviyat va ma’rifat – jamiyat taraqqiyotining asosi”, “Milliy istiqlol va ommaviy axborot vositalari” hamda “O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari tizimini qanday rivojlantirish kerak?” kabi mavzularda 30 dan ziyod tajribali jurnalistlarimiz o‘z kasbiy mahoratlarini oshirdi.

2000 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi tomonidan matbuot faoliyatiga oid bir qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2003 yil 11 dekabrda “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2003 yil 12 noyabrdagi 218/11-sonli “Matbaa faoliyati to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 264/5-son qarori qabul qilingan bo‘lsa, 2007 yil 19 sentyabrda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonuni loyihasi (yangi tahrirda) haqida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 158-sonli qarori qabul qilindi [21]. Ushbu qonun 40 moddadan iborat bo‘lib, unda davriy nashrlarni tashkil etish, faoliyati va to‘xtatilishi kabi barcha masalalar qamrab olingan. Xususan, bosma nashrning elektron versiyasi masalasida qonunning 27-

moddasida “Davriy bosma nashrning elektron versiyasi nashrni tarqatish usullaridan biridir. Tegishli davriy bosma nashrning bosma va elektron versiyalari mazmuni bir xil bo‘lgan va qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan taqdirda, davriy bosma nashr tahririyati davriy bosma nashrning elektron versiyasini alohida ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan tarqatishga haqli” [22] deb belgilangan.

2001 yilga kelib Qoraqalpog‘istonda 17 ta respublika gazeta-jurnallari, 14 ta tuman va 8 ta ko‘p tirajli gazetalar, 2 ta shahar gazetalari (Nukus va Taxiatosh) va Qoraqalpog‘iston axborot agentligi faoliyat ko‘rsatdi. Shuningdek, gazeta jurnallari orasida o‘zbek tilida “Jayhun” va qozoq tilida “Órken” jurnallari, gazetalardan esa o‘zbek tilida “Amu tongi” va qozoq tilida “Dostiq uni” gazetalari bor edi. Albatta, bunday yutuqlarga erishishda hukumatimiz ham ko‘mak ko‘rsatdi. Xususan, Nukus poligrafiya kombinatini qayta jihozlash uchun 1 million 200 ming AQSH dollari ajratilib, kombinat eng yangi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlandi. Bu kitob, gazeta va jurnallar kabi bosma mahsulotlar sifatiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazdi [23]. Nashriyot xodimi M. Erejepov o‘z xotiralari bilan gazeta sahifalarida bo‘lishar ekan, shunday degan edi: “Bu yerda ish boshlaganimda zamonaviy texnikalar yo‘q edi. Gazeta chiqarish jarayoni uzoq bo‘lib, bir gazetani chop etishga ulgurmay, boshqasi yo‘lda kelardi. Bundan tashqari, aksariyat hollarda xatolar yuborildi va ularni tuzatishda qiyinchiliklar bo‘ldi. Buning asosiy sababi, o‘sha davrda bosmaxonaning moddiy-texnik bazasining nochorligi edi. Bugungi kunda bosmaxona boshqarmasining faol sa’y-harakatlari va katta tashkiliy ishlari tufayli bu kamchiliklar bartaraf etildi. “ФАСТ-300” gazeta-aylanma mashinasi, ofset bosma mashinalari bizning ishimizni yengillashtirmoqda. Hozir bizda eng zamonaviy texnologiyalar bor” [24].

2000 yillar boshida mamlakatimizda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2002 yil 3 iyuldagi “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 11 iyundagi “O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 2006 yil 7 avgustdagi “Ommaviy axborot vositalari sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2006 yil 8 noyabrdagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasida beg‘araz ko‘makni jalb etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarorlari hamda 2007 yil 15 yanvardagi

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” qarori qabul qilindi. Ushbu qonun normalari kuchga kirishi bilan ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, kundalik davriy nashrlar faoliyatida yangi bosqich boshlandi [25].

Umuman aytganda, bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, birinchi navbatda respublikada chop etiluvchi davriy nashrlar doirasining optimallashtirilishi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, davlatimiz tomonidan mazkur davrda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va rolini yanada mustahkamlash, ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, nodavlat bosma nashrlar, radio, televideniye faoliyatini jonlandirish, ularning internet global tarmog‘iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining sifati, mahorati va ta’sirchanligini oshirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etish, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Баспасөз ҳәм ғалаба хабар қураллары хызметкерлерине // Еркин Қарақалпақстан. – Нөкис, 2023. 4-июль. - №75-76.

2. Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи. (Миллий истиқлол даври). Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2008. – 354 б.

3. Досымбетов К., Юсупов О.Ж. Қарақалпақстан баспа сөзи: (пайда болыўы ҳәм раўажланыўы тарийхынан). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991. – Б. 44.

4. Бекбаўлиев Д. Давлат мустақиллиги йилларида Қорақалпоғистон даврий матбуоти (1991 – 1994 йй.): Фил. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1997. – Б. 11.

5. QR MDA. M-576 – fond, 1 - ro‘yxat, 96 - ish, 4-b.

6. QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 27 – ish, 55-b.

7. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 96 – ish, 8-b.

8. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 96 – ish, 7-b.

9. QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 27 – ish, 64-b.

10. Даулетмуратов А. Встреча в доме печати // Вести Каракалпакстана. – Нукус, 1993. 31-июль. - №90.

11. QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 26 – ish, 54-b.

12. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 201 – ish, 10-11-bb.

13. Нуржанов С.У. Периодическая печать Каракалпакстана в системе общественных отношений. - Нукус: Илим, 2015. – С. 49.

14. Еркин Қарақалпақстан. – Нукус, 1994. 14-июнь. - №62.

15. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 260 – ish, 29-b.

16. QR MDA. M-500 – fond, 1 –ro‘yxat, 440 – ish, 140-b.; QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 448 – ish, 160-b.; QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 549 – ish, 80-b.; QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 752 – ish, 104-b.

17. QR MDA. M-500 – fond, 1 – ro‘yxat, 549 – ish, 80-b.

18. Абибуллаев Д. Заманагөй полиграфиялық үскенелер // Еркин Қарақалпақстан. – Нөкис, 1996. 7-декабрь. - №147.

19. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 671 – ish, 20-b.

20. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 671 – ish, 81-b.

21. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 2331 – ish, 31-b.

22. QR MDA. M-576 – fond, 1 – ro‘yxat, 2331 – ish, 43-b.

23. Тажибаев А. Достояние всего народа // Вести Каракалпакстана. – Нукус, 2001. 26-июнь. - №51.

24. Камалов Р. Печатник – профессия творческая // Вести Каракалпакстана. – Нукус, 2001. 26-июнь. - №51.

25. Нуржанов С. Периодическая печать Каракалпакстана // Вести Каракалпакстана. – Нукус, 2013. 27-август. - №68.

QADIMGI XORAZMLIKLARNING KELIB CHIQISH TARIXI

G‘afurova Mahliyobonu Ulug‘bek qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya. *Maqolada qadimgi Quyi Amudaryo havzasi aholisining etnogenezi va etnik tarixi qarab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Quyi Amudaryo, Gekatey, xorasmiylar, Gerodot, Tajan, Murg‘ob, S.P. Tolstov, Ya.G. G‘ulomov.*

Аннотация. *В статье рассматриваются этногенез и этническая история древнего населения Низовьев Амударьи.*

Ключевые слова: *Низовья Амударьи, Гекатей, хорасмии, Геродот, Теджен, Мургаб, С.П. Толстов, Я.Г. Гулямов.*

Abstract. *The article examines the ethnogenesis and ethnic history of the ancient population of the Lower Amu Darya basin.*

Keywords: *Lower Amu Darya, Hecataeus, Chorasmians, Herodotus, Tejen, Murghab, S.P. Tolstov, Ya.G. Gulyamov.*

KIRISH

Dostonlarda va o‘rta asrlar mualliflarining asarlarida (Al-Maqdisiy, Tabariy, Ibn al-Asir) qadimgi xorazmliklar Quyi Amudaryo yerlariga janubdan ko‘chib kelgan aholi sifatida tavsiflanadi [1]. Shuningdek, o‘rta asrlardan ancha avval yashab o‘tgan yunon tarixchisi Gekatey “xorasmiylar” degan elat parfyanlardan kun chiqar yo‘nalishida, sharqiy hududlarda yashaganlar deb xabar bergan. Gerodotning “Tarix” kitobida xorasmiylarning hududiy joylashuvi tog‘lar bilan o‘ralgan Akes daryosi vohasi bilan bog‘langan.

Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, XX asrning boshlarida xorasmiylarning dastlabki hududiy joylashuvi haqidagi ilmiy masala o‘rtaga tashlandi va keyinchalik bahs-munozaralarga aylandi.

XX asrning 70-yillarida I.V. Pyankov bu masalani atroflicha ko‘rib chiqib, tarixshunoslikda mavjud I. Markvart, A. Xermann, S.P. Tolstov, V.B. Xenning, I.M. Dyakonov, I. Gershevich va boshqa olimlarning xulosalarini umumlashtirgan. Tadqiqotchi xorasmiylarning hududiy joylashuvini Turkman-

Xuroson tog‘oldi yerlari, Hirot vohasi bilan bog‘lab, xorasmiylar Ahamoniylar davrida janubdan Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chirilgan, degan xulosaga kelgan [2].

Maqolaning maqsadi – qadimgi Quyi Amudaryo havzasi aholisining etnogenezi va etnik tarixini, xususan, xorasmiylarning dastlabki hududiy joylashuvi va Xorazm vohasiga migratsiyasi haqidagi ilmiy qarashlarni qarab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotning manbaviy asosini yunon tarixchilari Gekatey va Gerodotning xorasmiylar haqidagi ma’lumotlari, o‘rta asr mualliflari (Al-Maqdisiy, Tabariy, Ibn al-Asir, Beruniy) asarlari, Xorazm vohasi tarixiy rivoyatlari hamda O‘rta Osiyo janubiy hududlari va Xorazm vohasidagi yodgorliklarga oid arxeologik ma’lumotlar tashkil etadi. Shuningdek, masalaga tegishli tarixshunoslik adabiyotlari – I.V. Pyankov, M.G. Vorobeva, I.N. Xlopin, L.S. Tolstova, V.N. Pilipko, B.I. Vaynberg, A.A. Asqarov, S. Baratov, E.V. Rtveladze va boshqa tadqiqotchilarning asarlari jalb qilingan.

Tadqiqotda manbashunoslik tahlili, tarixiy-qiyosiy va tarixshunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Yozma manbalarda bayon etilgan tayanch holatlar ajratib olinib, turli olimlarning xulosalari yozma manbalar va arxeologik ma’lumotlar bilan solishtirildi.

NATIJALAR

Gekatey va Gerodotning xorasmiylar haqidagi ma’lumotlariga asoslanib, yunon tarixchilarining asarlarida bayon etilgan tayanch holatlarga e’tibor qaratish lozim.

Gekatey bo‘yicha:

1. Xorasmiylar parflardan sharqda, quyosh chiqishi yo‘nalishida, ya’ni Parfiya va Baqtriya o‘rtasida joylashganlar.
2. Ular voha, tog‘oldi hududlarda istiqomat qilganlar.
3. Tog‘larda “yovvoyi daraxtlar” (to‘qayzorlar), tikanli kinara (na’matak), tol va yulg‘un o‘sgan.

Gerodot bo‘yicha:

1. Xorasmiylarga barcha tomonlari tog‘ bilan o‘rab olingan vodiy qarashli bo‘lgan.
2. Vodiy xorasmiylar, girkanlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan.

3. Vodiyni o‘rab olgan tog‘dan Akes daryosi boshlangan. Beshta o‘zanga bo‘lingan bu daryo sanab o‘tilgan xalqlarning yerlarini suv bilan ta’minlagan.

Akes daryosini olimlar turli daryolar bilan solishtirganlar, jumladan, Amudaryo (S.P. Tolstov), Tajan (Gerirud) yoki Murg‘ob (V.B. Xenning), Tajan-Gerirud (V.M. Masson), Atrek (I.N. Xlopin) [3].

I.V. Pyankovning yozishicha, Gerodotning tog‘ bilan o‘rab olingan vodiy, tog‘ni esa beshta dara kesib o‘tishi va beshta o‘zanga bo‘lingan Akes daryosi haqidagi hikoyasini umumlashtirib, aniq tarixiy xulosalarga ega bo‘lish murakkab vazifadir, chunki bu hikoya asosida daryolar manbai bo‘lgan Hindikush haqida tasavvurlar mavjud, Hindikush tog‘laridan yirik daryolar boshlanib, ulardan turli qadimgi elatlar yerlarini sug‘orishda foydalanilgan [4].

Haqiqatdan ham, zamonaviy geografik xaritalarga tayanib, Akes daryosini aniqlash mushkul masaladir. Yunon tarixchilari asarlarida xorasmiylar istiqomat qilgan yerlar, o‘z tarixiy-geografik xususiyatlariga ko‘ra, O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida joylashganiga o‘xshaydi.

Ushbu muammo munozarali bo‘lib, tadqiqotchilar xorasmiylarning hududiy joylashuvini turlicha talqin qiladilar. Ba’zi bir olimlar xorasmiylar Quyi Amudaryo yerlarida doimiy yashagan deb yozgan bo‘lsa, boshqalari xorasmiylarni Janubiy Orolbo‘yi hududlariga ko‘chib kelgan elat sifatida tasvirlaydilar va xorasmiylarning dastlabki yurti Tajan-Gerirud va Murg‘ob vohasi (Marv) bilan bog‘lanadi [5].

I.V. Pyankov XX asrning 80-yillariga qadar ma’lum tarixshunoslik dalillariga asoslanib, Gekatey xorasmiylarining tarixiga tegishli quyidagi xulosalarni bildirgan:

– Beruniy va Al-Maqdisiy Xorazm tarixini aholi ko‘chib kelishidan boshlab yoritadilar;

– xorasmiylar dastlab Gerirud vohasi va Turkman-Xuroson tog‘oldi viloyatlarida joylashganlar;

– ulardan shimolda, Xorazm vohasida ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi massagetlar yashaganlar;

– qadimgi fors podsholari Kir II va Doro I ning harbiy yurishlarining maqsadi Xorazm vohasi bo‘lgan. Doro I ning yurishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, Xorazm vohasi va qo‘shni yerlarda istiqomat qilgan massagetlar zabt etilgan;

– o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida Doro I va uning vorislari Xorazm vohasida ziroatchilik tayanch maskanlariga asos solish maqsadida Quyi Amudaryo hududlariga janubdan xorasmiylarni ko‘chirganlar [6].

M.G. Vorobeva xorasmiylar Quyi Amudaryo yerlariga Ahamoniylar davrida janubdan ko‘chirilmagan va xorazmliklar qadimgi elat sifatida, xususan, Xorazm vohasida shakllanganlar degan fikrni bayon etadi [7].

I.N. Xlopin ham xorasmiylar Tajan-Gerirud va Murg‘ob vohalarida dastlab yashab, keyinchalik Quyi Amudaryo hududlariga ko‘chganligini arxeologiya inkor qiladi, degan xulosaga keladi [8].

L.S. Tolstova tarixshunoslik ma’lumotlarini tahlil qilib, so‘nggi bronza va ilk temir davrida O‘rta Osiyo janubiy viloyatlari aholisining Orolbo‘yi hududlariga ko‘chib kelishi to‘g‘risida yozadi. Xorazm vohasi tarixiy rivoyatlarida mahalliy aholi olis zamonlarda Badaxshon, Balx, Marv, ya’ni qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona hududlaridan Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chib kelgani haqida ma’lumot mavjud [9].

V.N. Pilipko tomonidan O‘rta Amudaryo sohillarida mil. avv. I mingyillikning birinchi yarmiga oid qal’a va shahar harobalari (Karki, Odoytepa, Qo‘shqal’a) o‘rganilishi natijasida, xorasmiylarning Tajan vohasidan Quyi Amudaryoga migratsiyasi – ko‘chish yo‘llarini arxeologik ma’lumotlar asosida aniqlash imkoniyatlari vujudga kelishi to‘g‘risida savol olg‘a surilgan [10].

B.I. Vaynberg bildirgan xulosa bo‘yicha, mil. avv. VII asrda Xorazm vohasiga Erondan ko‘chib kelgan xorasmiylar chorvadorlar turmush tarziga ega Quyisoy madaniyatiga asos solganlar. I.V. Pyankovning yozishicha, ushbu xulosa mantiqiy asosga ega emas, yozma manbalarda xorasmiylar haqida xabarlar mil. avv. VI asr oxiri va V asrning birinchi yarmiga oid bo‘lib, xorasmiylar migratsiyasi to‘g‘risida hech qanday ma’lumotlar yo‘q.

MUHOKAMA

Tadqiqotchining fikriga qo‘shilish mumkin, haqiqatdan ham Quyisoy madaniyati “sak qiyofali”, ya’ni chorvadorlarga xos belgilarga ega. Yozma manbalarga ko‘ra, xorasmiylarning “Xorasmiya” nomli shahar markazi bo‘lgan, shuning uchun ham I.V. Pyankov tomonidan ro‘yobga chiqarilgan shaharsozlik madaniyatini bilgan xorasmiylar qanday qilib Xorazmda chorvador elatga aylangan degan savol o‘rinlidir.

Xorasmiylarning Xorazm vohasiga ko‘chib kelishi haqidagi qarashlar olimlar farazlariga asoslangan. Gekatey va Gerodot asarlarida “xorasmiylar”

etnonimi mavjud bo‘lib, Xorazm mamlakat yoki viloyat sifatida tilga olinmagan. Mazkur holat tadqiqotchilarning e’tiboridan chetda qolgan.

M.G. Vorobevaning aytishicha, Gekatey O‘rta Amudaryodagi Xorazm yerlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan. Bu yerlar Parfiyadan shimoli-sharqda joylashgan.

Ilk temir davri Xorazm vohasining moddiy madaniyatida yangiliklarning yoyilishi, paxsa va xom g‘ishtdan uy-joylar va mudofaa devorlar qurilishi hamda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi jarayoni mil. avv. VII asrda Baqtriya va Marg‘iyona aholi vakillarining Xorazm vohasiga kirib kelishi – migratsiyasining natijasi sifatida e’tirof etilishi xorasmiylar (xorazmliklar) O‘rta Osiyoning janubida istiqomat qilmaganlar va ular etnos-elat sifatida mahalliy hamda ko‘chib kelgan Marg‘iyona-Baqtriya aholi guruhlari bilan qo‘shilishi – assimilyatsiyasi natijasida Xorazmda paydo bo‘lgan degan fikr e’tiborga molik.

S. Bolelov O‘rta Amudaryo yerlaridan Baqtriya aholi guruhlarining so‘l sohil Xorazm yerlariga migratsiyasi oqibatida davom etib, baqtriyalik hunarmandlar Xumbuztepa ustaxonalarida ishlagan deb yozadi.

V.N. Yagodinning ta’kidlashicha, Baqtriyadan janubiy aholi vakillarining Xorazm vohasiga ko‘chib kelishi natijasida vohada kulolchilik charxi, paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan mudofaa devorlar, yirik inshootlar va uy-joylar paydo bo‘lib, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi yangi asoslarda rivojlanadi.

So‘nggi yillarda ushbu masalaga A.A. Asqarov va S. Baratov oydinlik kiritishga harakat qilganlar. A.A. Asqarov Gerodotning Akes daryosi suvlaridan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlariga asoslanib, quyidagicha yozadi: “Ahamoniy podsholari tazyiq o‘tkazish orqali sharqiy Eron qabilalaridan yiliga katta boj olish maqsadida Hilmend tog‘ daralaridan oqib chiqadigan soylarga to‘g‘onlar qurdirib, suv yo‘llarini qadimgi Hilmend, hozirgi Hirot vodiysiga – xorasmiylar yurtiga burib yuborgan. Natijada, vodiyda ko‘l hosil bo‘lib, xorasmiylar noilojlikdan vatanlarini tark etib, Amudaryoning quyi havzalariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar”. Tadqiqotchining taxmin qilishicha, xorasmiylarning Quyi Amudaryo hududiga kirib kelishi bilan bu yerda yangi makrotoponim – Xorazm atamasi paydo bo‘ladi. “Ungacha xorasmiylar Hilmend vodiysida (Hirot vohasi) yashab, o‘troq hayot kechirgan”, deb xulosa chiqariladi.

S. Baratov I.M. Dyakonovning xulosalariga asoslanib, miloddan avvalgi VII asrning birinchi yarmida Xorazm, Parfiya, Marg‘iyona, Areyya va Sug‘d Midiya davlati tarkibiga kirgan, qadimgi fors podshosi Kir II ushbu viloyatlarni “Midiya merosi” sifatida Fors podsholigi tarkibiga qo‘shib olgan, deb yozadi. Tadqiqotchining faraziga ko‘ra, mil. avv. VII asrning birinchi yarmida xorasmiylarning bir qismi Tajan – Gerirud daryosi o‘rta oqimidagi Saraxs vohasidan Quyi Amudaryo hududlariga ko‘chib kelgan. S. Baratov parfyanlardan sharqda joylashgan yerlar Xorazm tarkibiga kirgan, xorasmiylar qadimgi fors podshosi Doro I ning og‘ir soliq siyosati tufayli miloddan avvalgi VI asrning so‘nggi choragida o‘z vatanini tark etib, Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar, deb o‘z nuqtai nazarini bayon etadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, Doro I ga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib chiqqan midiyaliklar, parfiyaliklar va marg‘iyonaliklar ham panoh topish maqsadida Xorazm vohasiga qochib borganlar.

Bundan ko‘rinib turibdiki, S. Baratovning taxminiga ko‘ra xorasmiylarning migratsiyasi ikki davr mobaynida sodir bo‘lgan. Tadqiqotchining aytishicha, mil. avv. VII asrning birinchi yarmida xorasmiylarning Quyi Amudaryo havzasiga ko‘chib kelishi oqibatida mahalliy chorvador aholiga noma’lum bo‘lgan “yuksak darajadagi texnologiya bilimlar” yoyiladi, bo‘z yerlarda shaharlar va ibodatxonalar bunyod etiladi, “keng irrigatsiya” ishlari amalga oshirilib, hunarmandchilik ishlab chiqarish tashkillashtiriladi.

Biroq, shuni alohida ta’kidlash joizki, mil. avv. VII asrda xorasmiylar janubda (Saraxs, Hirot vohalari va boshqa joylarda) joylashganlari haqida yozma manbalarda ma’lumotlar mavjud emas.

Yu.A. Rapoportning taxminicha, Gerodotning Akes daryosi haqidagi hikoyasi xorazmliklar – saklarning janubga yurishlari natijasida girkanlar, parfyanlar, saranglar va tamaneylar o‘lkasida qisqa muddatdagi hukmronligiga doir xotiradan kelib chiqqan.

A.S. Sagdullaev Doro I Marg‘iyonada Frada qo‘zg‘olonini tor-mor qilib, isyonchi marg‘iyonalik guruhlarini Xorazmga ko‘chirib yuborgani ehtimoldan holi emas deb yozadi. Tadqiqotchi o‘z fikrlarini isbotlab beruvchi dalil sifatida fors podsholarining ko‘chirish siyosatini keltiradi: mil. avv. V asrda Shimoliy Afrikadan Baqtriyaga Barka aholisi va Kichik Osiyodagi Milet shahridan yunonlar ko‘chirilgan.

Mil. avv. 522-yilda Parfiya va Marg‘iyonada avj olgan qo‘zg‘olonlar Doro I tomonidan bostirilganidan so‘ng, isyonchilarning ayrim guruhlari davlatning chekka o‘lkalariga ko‘chirilganligi ehtimoldan holi emas.

Umuman olganda, iqtisodiy va harbiy-siyosiy sabablarga ko‘ra, Ahamoniylar davlati hududlarida turli elatlarning aralashib joylashuvi kuzatiladi. Baqtriyaliklar, sug‘diylar, xorazmliklar va saklarning Misr, Old Osiyo va Bobilda istiqomat qilganlari haqidagi ma’lumotlar yozma manbalarda o‘z aksini topgan.

E.V. Rtveladze xorasmiylar muammosiga tegishli tarixshunoslik ma’lumotlarini tahlil qilib, o‘z ilmiy qarashlarini ro‘yobga chiqardi. Tadqiqotchining yozishicha, Gerodotning xabarlarida beshta alohida daryo haqida so‘z yuritiladi. Bularni Hindikush tog‘larida boshlangan Tajan (Gerirud), Murg‘ob, Safedrud, Shirin-Tog‘ao va Balxob daryolari bilan solishtirish mumkin. Xorasmiylar mil. avv. VI asrda Murg‘ob va Amudaryo oralig‘idagi tekisliklar va o‘rta-baland tog‘larda yashaganlar. Ushbu yerlar qadimgi Baqtriyaning shimoli-g‘arbiy hududlarini tashkil etgan. Bu yerlarda ilk temir davriga oid Tillatepa, Qutlug‘tepa va Oltintepa yodgorliklari joylashgan, ya’ni xorasmiylar baqtriyaliklar singari, ayniqsa, “me’morchilik va shaharsozlik sohalaridagi yuksak madaniyat an’analariga ega bo‘lganlar”.

Kir II ning harbiy bosqini tahdidi tufayli, mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida xorasmiylar shimoli-g‘arbiy Baqtriyani tark etib, Kalif Uzboyi orqali Marvga yetib borib, keyinchalik O‘rta Amudaryo sohillariga yo‘l olganlar. Bu yerda Odoytepaga asos solib, xorasmiylar Janubiy Xorazmga (Xumbuztepa, Hazorasp) ko‘chganlar.

E.V. Rtveladzening mazkur masalaga yondashuvi yuqorida qayd etib o‘tilgan xorasmiylarning hududiy joylashuvi haqidagi ilmiy farazlardan (Turkman-Xuroson tog‘oldi yerlari, Hirot va Saraxs vohalari) keskin farq qiladi. Biroq bu yondashuvga tegishli ayrim savollar mavjud.

Xorasmiylarning Kalif Uzboyi orqali Quyi Murg‘obdagi Marvga va keyinchalik O‘rta Amudaryo hududlariga migratsiyasi sabablari yetarlicha asoslab berilmagan. Aksincha, G‘arbiy Baqtriyadan O‘rta Amudaryo yerlariga Amudaryo so‘l sohilidagi qisqa yo‘l orqali (Tillatepa – Choplitepa – Karki-Odoytepa) yetib borish mumkin edi. Ushbu yo‘ldan foydalanishning qulay imkoniyatlarini hisobga olish mumkin. Bundan tashqari, arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Odoytepa mil. avv. IX–VIII asrlarda, xorasmiylar

kelishidan ancha ilgari bunyod etilgan. Demak, xorasmiylarning Odoytepaning bunyod etilishiga hech qanday aloqasi yo‘q.

Kir II ning harbiy bosqini O‘rta Osiyoning janubida istiqomat qilgan turli elatlar – girkanlar, parfyanlar, ariylar, marg‘iyonaliklar va baqtriylarga tahdid solgan, ammo ushbu tahdid sababli faqat xorasmiylar janubiy hududlarni tark etib, Xorazm vohasiga ko‘chishi taxmin qilinadi. Bu holat ham noaniq bo‘lib qolmoqda.

2001-yilga qadar mazkur masalaga tegishli ayrim tarixshunoslik ma’lumotlari N.A. Egamberdieva tomonidan ko‘rib chiqilgan. Hozirgi kunga kelib, ilmiy adabiyotlarda mavjud xulosalar umumlashtirilgan holda quyidagilardan iborat:

– xorasmiylar Ahamoniylar bosqiniga qadar Tajan-Gerirud va Murg‘ob vohalarida istiqomat qilganlar;

– mil. avv. 519-yildan so‘ng qadimgi fors podshosi Doro I va uning vorislari Xorazm vohasida o‘z hukmronligini mustahkamlash va ziroatchilik tayanch maskanlariga asos solish maqsadida Quyi Amudaryo havzasiga janubdan xorasmiylarni ko‘chirganlar;

– xorasmiylar ko‘chirilishi davriga qadar Xorazm vohasida yarim ko‘chmanchi sak-massagetlar joylashganlar;

– Doro I ning og‘ir soliq siyosati tufayli mil. avv. VI asrning oxirlarida Hirot yoki Saraxs vohasida joylashgan xorasmiylar o‘z yurtini tark etib, Quyi Amudaryo yerlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar;

– xorasmiylar G‘arbiy Baqtriya hududlarida yashaganlar, Kir II ning harbiy bosqini tahdidi sababli ular mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida Xorazm vohasiga ko‘chganlar.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ilmiy adabiyotlarda muammoga oid turlicha fikrlar mavjud. Ularning munozarali tomonlari yuqorida ochib berildi.

XULOSA

Janubdan ko‘chib kelgan aholi guruhlari o‘zlashtirilgan hududlarda o‘z diniy qarashlari va dafn marosimlarini tatbiq qiladilar. Shu tufayli antik davrda zardushtiylik Xorazm vohasida asosiy dinga aylanadi.

Qadimgi xorazmliklar elati turli etnik guruhlar (quyisoyliklar, baqtriyaliklar, saklar va boshq.) assimilyatsiyasi – qorishishi natijasida shakllangan. Yozma manbalarda hamda dostonlarda o‘z aksini topgan, dastlab Balx va Marvda, ya’ni Baqtriya va Marg‘iyonada yashagan janubiy xorasmiylar – xorazmliklarga tegishli hikoyalar aslida Quyi Amudaryo yerlarida

xorazmliklar elati tarkibini tashkil qilgan baqtriyaliklar va marg‘iyonaliklarning janubiy yurti, vatani haqidagi tarixiy xotiradan kelib chiqqan.

Shuningdek, Xorazmda joylashgan janubiy aholi vakillari saklarning janubiy hududlarga yurishlari natijasida asirlikka olingan binokorlar va hunarmandlar guruhlaridan iborat bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Ammo bu haqda yozma manbalarda ma’lumotlar yo‘q, arxeologik materiallar esa mazkur masalani yechishga yordam bermaydi. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda bahs-munozaralarga aylangan xorasmiylarning Janubda (Turkman-Xuroson tog‘oldi, Hirot, Saraxs vohalari, Quyi Murg‘ob – G‘arbiy Baqtriya) shakllangan elat sifatida, turli sabablarga ko‘ra, Xorazmga migratsiyasi haqidagi nazariyadan voz kechish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

ADABIYOTLAR

1. Толстова Л.С. Исторический фольклор каракалпаков как источник для изучения этногенеза и этнокультурных связей этого народа // Этническая история и фольклор. – М., 1977. – С. 144.

2. Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. – М., 1972. – № 2. – С. 3–20.

3. Ртвеладзе Э.В. Государственное объединение «Большой Хорезм» – миф, созданный учеными, или историческая реальность? // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С. 36.

4. Пьянков И.В. Хорезм в античной письменной традиции // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезми в мировой истории и культуре. – Душанбе: Дониш, 1983. – С. 46.

5. Лившиц В.А. Древнейшие государственные образования // История таджикского народа. – М.: ИВЛ, 1963. – Т. 1. – С. 152–153.

6. Пьянков И.В. Хорезм в античной ... – С. 43–44.

7. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 40–41.

8. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. – Ашхабад, 1983. – С. 32–44.

9. Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984. – С. 46–57.

10. Пилипко В.Н. Становление и развитие парфянской культуры на территории Южного Туркменистана: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – М.: Институт археологии, 1989. – С. 24.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA ILK TRAKTORLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xushvaqtov Husan Ochilboyevich,
Toshkent davlat agrar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, (PhD).

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Anattatsiya. *Maqolada, 1925-1940 yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mashinasozlik sanoatining shakllanishi, mashina-traktor stansiyalarning tashkil etilishi va ilk xorijiy traktorlarning kirib kelishi jarayonlari aks ettirilgan. Shu bilan birga, respublika qishloq xo‘jaligiga ilk traktorlarning kirib kelish jarayonlari, mexanizator kadrlar tayyorlash tizimining qisqa muddatda shakllantirilishi kabi jarayonlar, birlamchi manbalar asosida ochib berilgan. Shu bilan birga maqolada, qishloq xo‘jaligini texnikalar bilan ta’minlashda respublikadagi ilk ilmiy-tadqiqot istitutlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va u yerda mehnat qilgan olimlar, injener mutaxassis kadrlar haqida ham arxiv, matbuoat materiallari va birlamchi manbalar asosida ochib berilgan, qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *Kommunist, qo‘nimsizlik, partiya, plug, din, kadrlar, eskilik sarqiti, omoch, mola, “Fordzon”, “Universal”, “Intertatsional”, MTS, kolxoz, sovxoz, resurs, oqartuv, aqida, milliy, mentalitet.*

Аннотация. *В статье отражено становление сельскохозяйственного машиностроения в Узбекистане в 1925-1940 годах, процессы механизации, организация машинно-тракторных станций и их развитие. Наряду с этим, на основе первичных источников раскрыты такие процессы, как появление первых тракторов в сельском хозяйстве республики и быстрое формирование системы подготовки кадров механизаторов. Кроме того, в статье содержится ценная информация, освещённая на основе архивных материалов,*

публикаций прессы и первичных источников, о начале деятельности первых научно-исследовательских институтов в республике по обеспечению сельского хозяйства техникой, а также об учёных и инженерах-специалистах, работавших в них

Ключевые слова: *коммунист, беспокойство, партия, плуг, религия, кадры, пережитки отсталости, мотыга, мулла, "Фордзон", "Универсал", "Интернационал", МТС, колхоз, совхоз, ресурс, просвещение, убеждение, национальный, менталитет.*

Annotation. *The article reflects the formation of the agricultural machine-building industry in Uzbekistan from 1920 to 1930, the processes of mechanization, the establishment of machine-tractor stations, and their development. Alongside this, based on primary sources, processes such as the introduction of the first tractors into the republic's agriculture and the rapid formation of a system for training mechanization personnel are revealed. Furthermore, the article contains valuable information, elucidated on the basis of archival materials, press publications, and primary sources, about the launch of the first scientific research institutes in the republic for supplying agriculture with machinery, as well as about the scientists and engineer specialists who worked there.*

Keywords: *Communist, anxiety, party, plow, religion, personnel, vestiges of backwardness, hoe, mullah, "Fordson", "Universal", "International", MTS, kolkhoz, sovkhoz, resource, enlightenment, belief, national, mentality.*

Kirish: Bilamizki, yurtimiz tarixining ajralmas qismini qishloq xo‘jaligi tarixi tashkil etadi. Chunki, azal-azaldan ota-bobolarimiz shu zaminda yuksak dehqonchilik madaniyatiga ega bo‘lib hayot kechirgan.

Ma’lumki, insoniyat yaratgan barcha texnika vositalaridan har doim ham ko‘zlangan natijalarga erishilmagan yoki ma’lum vaqtdan keyin o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Keyinchalik oddiy mehnat qurollari yordamida qo‘l mehnatiga asoslangan mahsulotlar tayyorlashga ixtisoslashgan texnikalar vujudga keldi va takomillashib bordi. Mashinasozlik sanoati ishlab chiqarishi vujudga kelguniga qadar xalq orasida keng tarqalgan, ularning ayrim turlari keyinchalik ham saqlanib qolgan..

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish darajasi 81 % ni tashkil etmoqda. Jumladan, so‘ngi yillarda 1 ming 756 ta paxta terish mashinasi xarid qilindi va paxta terimini mexanizatsiyalashtirish darajasi 52 %ga yetdi. O‘tgan mavsumda 2,1 million tonna paxta mashina yordamida yig‘ib olindi. Buning hisobiga keyingi besh yilda qo‘l mehnati 1,8 barobar qisqardi [1].

Mashinasozlik sanoati dunyo mamlakatlarida ham og‘ir qo‘l mehnatining o‘rnini texnika va texnologiyalar egallashi osonlikcha bo‘lmagan. U insoniyatning asrlar davomida qilgan mehnati, ijodiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan. Jumladan, Vatanimiz hududida neolit va bronza davrlaridayoq dastlabki mehnat qurollari yaratilgan. Bunga misol tarriqasida Surxondaryodan topilgan mehnat qurollarini keltirish mumkin.

Qishloq xo‘jalik mashinasozligi sanoati dunyoda, hozirgi darajaga yetib kelgunga qadar, mashaqqatli va og‘ir davrni bosib o‘tdi. Ixtirochilar, injener-texnik xodimlar va olimlar XVIII asrdayoq traktor va avtomobillar yaratishga asos sola boshladilar. Ilgari barcha sohalarda bo‘lgani kabi qishloq xo‘jaligidagi ishlarni bajarishda ham asosan qo‘l kuchidan, sodda mehnat qurollari va g‘ildirak kabi moslamalardan keng foydalanilgan. Dehqonchilikda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida avval bug‘ yordamida yuradigan, so‘ngra mexanik ravishda harakatlanadigan dvigatellar ixtiro qilinishi insoniyat hayotida katta rol o‘ynadi. Ichki yonuv dvigatellarining paydo bo‘lishi traktorlar, avtomobillar va boshqa murakkab texnika hamda mashinalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Qishloq xo‘jalik mashinasozlik sanoati xalq xo‘jaligi uchun mehnat qurollari, shuningdek, iste’mol buyumlari va mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og‘ir sanoat sohalarining majmui hisoblanadi. U butun xalq xo‘jaligini texnika bilan ta’minlashda moddiy asos sifatida ijtimoiy mehnat unumdorligini oshishi, aholi moddiy farovonligining ortib borishi, mamlakat mudofaa qobiliyatining kuchayishi ham mashinasozlik sanoatining taraqqiyot darajasiga bog‘liq bo‘ldi.

Mashinasozlik sanoati o‘z navbatida, mashinasozlik va metallga ishlov berish, metall buyumlar, metall konstruksiyalar ishlab chiqarish hamda mashina va asbob-uskunalarni tuzatish tarmoqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu tarmoqlar ichida -traktorsozlik va qishloq ho‘jaligi mashinasozligi kabi tarmoqlar yetakchi o‘rin egallaydi..

Mashinasozlik sanoati XVIII asrda vujudga keldi va dastlab Buyuk Britaniyada, G‘arbiy Yevropaning ba’zi mamlakatlarida, keyinchalik AQShda tez rivojlana boshladi. Rossiyada birinchi mashinasozlik zavodi ham XVIII asrda qurilgan [2].

O‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan sanoatlashuv jarayonlari faollashib bordi. Yirik ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashtirish va qurish ishlari jadallashdi. Dastlab katta va kichik korxonalarda qurilish ishlari an’anaga ko‘ra umumxalq xasharlari bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik qo‘l mehnati o‘rniga mexanizatsiya kirib kela boshladi.

Sovet hukumati Mehnat va Mudofaa Soveti hamda Oliy Xo‘jalik Kengashi oldiga 1929-1930 yillarda Toshkentda qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodini qurish zarurligi haqida masala qo‘yildi. Zavodni loyihalash va qurilish ishlarini amalga oshirish ishlari «Selmashstroy»ga topshirildi . (Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligi mashinasozlik zavodi qurilishi haqida, Markaziy Osiyo Iqtisodiy Kengashi Prezidiumi majlisi),132-son bayonnoma asosida. 1-band. 1929 yil 7 may [3], da qabul qilindi.

Shu bilan, “VKP(b) Markaziy Komitetining 1929 yil 25 mayda chiqargan O‘zbekiston partiya tashkiloti haqida» nomli qarorida O‘zbekiston SSRda sotsialistik qurilish muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi sanoatni, chunonchi qishloq xo‘jalik mashinalari va kimyoviy o‘g‘itlar ishlab chiqarishni kuchaytirish lozimligi alohida ta’kidlangan. Natijada respublikamizda dastlabki mashinasozlik korxonalari paydo bo‘la boshladi, 1930 yil boshida O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mashinasozligining to‘ng‘ich korxonasi - Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi («Tashselmash») zavodi qad ko‘tardi [4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Tadqiqotchi olimlar, ixtirochilar, injener-texnik xodimlar XVIII asrdayoq traktor va takomillashgan avtomobillar yaratishga asos sola boshladilar. Bunga asosan dehqonchilikdagi og‘ir qo‘l mehnati sabab bo‘ldi. Yer haydashda pluglar o‘rniga omoch, ketmon, belkurak va traktorlar o‘rniga esa uy hayvonlari kuchidan foydalanilgan. Shu kabi jarayonlarni o‘rganish hamma zamonlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Ma’lumki, Rossiya imperiyasi davrida bo‘lgani kabi, sovetlar hukmronligi o‘rnatilgandan keyingi dastlabki yillardanoq kommunistik mafkura va sovet hukumatining siyosatida mamlakatda ishsizlikka barham berish va aholi bandligini ta’minlashning birdan-bir yo‘li qishloq xo‘jaligi bilan band qilishga qaratilgan harakatlar yanada kuaytirildi. Shu bois bunday tadqiqot va izlanishlar o‘zining ko‘lami kengligi hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Ammo bu ma’lumotlar nisbatan qisqa tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, masala tizimli ravishda tahlil etilmagan.

Mustamlakachiligi davrida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoatining shakllanishi shu jumladan, Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodi va taraqqiyoti mafkuraviy yondashuv asosida keng yoritildi. Tadqiqotchilar tomonidan turli hududlarda sanoatning va qishloq xo‘jaligi mashinasozlik sanoatining o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha o‘rganildi. O‘sha davrda mashinasozlik sanoatining muhimligi va uni xo‘jalikning barcha sohalariga tadbiq etish sohalari alohida o‘rin tutgan. Biroq mazkur tadqiqotlar o‘sha davr hukmron mafkurasiga asoslangani ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimiz olimlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoatining tarixiy taraqqiyotini muayyan hududlar kesimida tadqiq qilishga ustuvor ahamiyat qaratila boshlandi.

Tadqiqot davriga oid adabiyotlar tahliliga oid dastlabki tadqiqotlar Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yaratilgan bo‘lib, ular “Xlopkovoe delo”, “Narodnoe xozyaystvo Turkestana”, “Narodnoe xozyaystvo Sredney Azii” [5] va boshqa matbuot organlari materiallaridan iborat bo‘lib, ularning aksariyati 1920 yillarda Turkistonga yuborilgan rahbar kadrlar tomonidan yozilgan bo‘lib, ular matbuotlar materiallari orqali targ‘ib qilingan. Mualliflar, tabiiyki, o‘z lavozimlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, sovet davlatining qishloq xo‘jaligi sohasida olib borayotgan siyosatini, va xususdda paxta monopoliyasini yuzaga keltirishni astoydil harakat qilinayotganligini ko‘rsatgan.

A.I.Dobrosmыslov, F.F. Buyvolov, P.Yu. Livщis, A.Orlovskiy [6] kabi tadqiqotchilar o‘z asarlarida mashinasozlik sanoatining shakllanish jarayonlari, respublikada paxtachilikni yanada ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligiga an’anaviy mehnat qurollari, qishloq xo‘jaligida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish zarurati va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli kabi masalalariga ham to‘xtalib o‘tishgan. Ular masalani ilmiy yoritmagan, paxtachilik sohasidagi muammolar tahlil etilmagan yoki bu masalaga kam e’tibor berilgan. Masalan, A. Orlovskiy asarida AQSh da ishlab chiqarilgan “Fordzon” traktorining SSSRga keltirilishi,

traktorning afzalliklari, uning qishloq xo‘jalik mashinasozligi sanoatida ahamiyati va traktorni ta’mirlashda uslubiy ko‘rsatmalar bayon qilingan. Qishloq xo‘jaligi sanoatining mustamlaka respublikalarga kirib kelishi va ilk sanoatning faoliyati yoritilmagan.

Turbin A.A. [7] tadqiqotlarida sovet davlatida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish masalalari aks ettirilgan va shu bilan birgalikda sovet hukumatining qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish ishlarining davlat iqtisodiyotida tutgan o‘rni, qolaversa bu ishlar hajmining o‘sha davrda dunyoning boshqa mamlakatlariga solishtirib, qancha qudratli ish qilinayotganligi bayon qilingan. Faqat iqtisodiy jihatlari ko‘rsatilgan xolos.

Arutyunyan Yu.V. [8] tadqiqotlarida 1929 – 1957 yillarda aynan qishloq xo‘jaligida mexanizator kadrlar tayyolash va ularning MTS larga jo‘natilishi kabi masalalar aks ettirilgan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashda tor doiradagi mexanizator va mutaxassis kadrlarni qisqa muddatda tayyorlash kerakligi zamon talabi ekanligi ko‘rsatilgan. Respublikada tayyorlangan kadrlar masalasiga oid ma’lumotlarni chetlab o‘tgan.

Sovet hukmronligi davrida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoatining shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarning aksariyati bir yoqlama, hukmron mafkura manfaatlari nuqtai-nazaridan yozilgan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy muammolarga haqqoniy prinsip asosida xolisona yondashilmagan. Shuni ham ta’kidlash joizki, mazkur adabiyotlarning aksariyati kommunistik partiya va sovet davlati belgilab bergan siyosatni to‘la qo‘llab-quvvatlash ruhida yaratilgan bo‘lib, asosiy e’tibor sovet hokimyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va milliy masalalardagi yutuqlarini targ‘ib qilishga qaratilgan edi. Toshkentda Tashselmash zavodining qurilishi, shart-sharoit, ilk ishlab chiqarilgan mehnat qurolllari va mashinalar, u yerda ishlagan ishchi va mutaxassislarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy hayoti haqida chinakkam ochib berilmagan. Xususdda yangi texnikalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa ham, mehnatkash xalqimiz uzoq yillar davomida og‘ir qo‘l mehnatida qishloq xo‘jaligi ishlarini majarishga majbul bo‘lgan.

Partiya va hukumat tashkilotlarining vakolatli organlari tomonidan mahalliy aholining og‘ir turmush tarzi, uzoq yillar qo‘l mehnatining hukmronligi, yangi texnikalardan foydalanishga bo‘lgan tajribaning yo‘qligi kabi holatlar e’tibordan chetda qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi maqola tadqiqotlari tarixiylik, ob'ektivlik, tizimli va qiyosiy tahlil, analiz-sintez, muammoviy, xronologik va sotsiologik so‘rovnoma usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalari, 1920-1940 yillarda Toshkentda qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodini qurishning mutloq zarurligi haqida masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Shuningdek, SSSR hukumati tomonidan loyihalash va qurilish ishlarini amalga oshirish zavod "Selmashstroy"ga topshirgan. Bu qishloq xo‘jaligi mashinasozlik zavodi qurilishi haqidagi topshiriqlar bu sohaga qaratilgan harakatlarni respublikada yanada kuchaytirdi va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish, qishloq xo‘jalik mashinasozligi sanoatining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonlarini barcha mustamlakalarda singari O‘zbekiston SSRda ham mafkuraviy targ‘ibot va o‘ziga xos yondashuvlar asosida olib borildi.

Bunda, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashning rejalashtirilgan sur'atlarini amalga oshirish zaruratidan kelib chiqib, O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaliklari zavodning dastlabki ish yillari uchun ishlab chiqarish dasturini qishloq xo‘jaligining ayrim turlari bo‘yicha quyidagi taqsimot bilan yiliga taxminan 8 million rubl miqdorida oldindan inventarizatsiya belgilashlari kerakligi to‘g‘risida qaror qiladi: bunda,1. Paxta seyalkalari – yiliga 30 000 dona 2. Kultivatorlar - 400 000 3. Xillerlar - 25 000 (tuproq yuzini maydalaydigan yengil ishlaydigan uskuna) 4. Harrow "zig-zag" - 80 000 (borona) 5. Harrow French – 1500 (ko‘p qatorli borona). 6. Yuzlash mashinalari – 8000. 7. Traktor aravalari – 1000 dona. 8. Krestyanskie xoda – 15 000 (asosan, plug, borona, kultivator). 9. Fors aravalari – 10 000 dona kabilar belgilangan [9].

Lekin bu yangi qurilayotgan korxonalar uchun jihozlar, qurilish-materiallarining yetishmasligi va o‘z vaqtida yetib kelmasligi, yangi qurilayotgan zavodlarning o‘z vaqtida ishga tushirilmasligiga, muddatdan oldin tugallanmay sifatsiz pala-tartish topshirilgan.

1927 yil 5 noyabrda "Mexanika zavodi"ning tantanali suratda ochilishi deb e'lon qilindi. "Tashselmash" (Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinalari) zavodi va umuman, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarixi aynan shu sanadan boshlangan. O‘sha paytda zavoda jami 350 nafar kishi ishlagan. Zavod ishga tushgandan so‘ng bir yil o‘tib, paxtani dastlabki qayta ishlash uchun mashina ishlab chiqarishni tashkil qilishga kirishildi. 1928 yilda O‘zbekiston 540 ming tonna paxta yetishtirdi [10].

O‘zbekiston dalalariga ilk kirib kelgan "Fordzon" markali traktor Amerika Qo‘shma Shtatlarida ishlab chiqarilgan. Bu traktor o‘rta va yengil tuproqlarda o‘zini samarali texnika sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, dehqon

xo‘jaliklarida, kichik maydonlarda ham “Fordzon” eng maqbul hisoblangan. Biroq, keyingi yillarda og‘ir va qalin o‘tlar bilan qoplangan yerlarda “Internatsional” 25 ot kuchiga ega bo‘lgan traktorni ishlatish maqsadga muvofiq deyilgan, chunki bu yerlarda “Fordzon” unchalik samarali emas degan xulosaga kelgan. Bundan tashqari “Fordzon” traktorining narxi juda ham qimmat bo‘lgan.

Zavodda 1929 yildan paxta tozalash sanoati uchun ham texnik jihozlar ishlab chiqarish boshlandi. Shu bilan birga, paxta seyalkalari va pluglar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bular O‘rta Osiyoda paxtachilik uchun ishlab chiqarilgan ilk qishloq xo‘jaligi mashinalari namunalari edi. Shuni alohida qayd etish joizki, zavodda mashinalarning konstruktorlik ishlarini bajarish ham yo‘lga qo‘yilgan.

Shu vaqtdan boshlab paxtachilik sohasi xodimlari oldiga qat’iy talablar qo‘yildi. Unga ko‘ra, xorijdan paxta xom ashyosini xarid qilishga chek qo‘yish va mamlakat paxta ta’minotini faqat o‘z kuchi orqali amalga oshirish belgilab berildi. Biroq zarur texnikalarsiz paxta mustaqilligiga erishishi mushkul edi. Yangi qurilayotgan “Selmash” zavodi (bu davrga kelib u shunday nom oldi) O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoatining asosi bo‘lib, u umumxalq zarbdor qurilishiga aylandi.

O‘zbekistonda sotsialistik industrlashtirishni amalga oshirishda bir qancha qo‘shimcha qiyinchiliklarga duch kelingan. Bu qiyinchiliklar ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi pastligi, aholi asosiy qismi zamonaviy texnika to‘g‘risidagi tushunalarning yo‘qligi, shu bilan birga, mahalliy mehnatkashlardan chiqqan mutaxassis kadrlarning yo‘qligi va ishchilar sinfining kam sonli ekanligi sababli kelib chiqqan edi [11]. Respublikada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi birinchi navbatda paxtachilik bilan aloqador tarmoqlarni ko‘proq rivojlantirishni taqozo qildi. Ayni paytda, qishloq xo‘jalik mashinasozligi, paxtachilik va yog‘-moy sanoatini, shuningdek, ipak va shoyi, to‘qimachilik, konserva va vinochilik tarmoqlarini kengaytirishga talab ortib bordi.

Bu davrda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratildi, to‘qimachilik kombinatlari qurildi, o‘sha davr uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. O‘z navbatida O‘zbekistonning paxta yetishtirishda salohiyati yuqori ekanligi e’tirof etilib, bu yerda paxta xom ashyosini yetishtirishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Shu bilan birga, paxta xom ashyosiga qayta ishlov beruvchi fabrikalar, paxta dalalariga ishlov beradigan qishloq

xo‘jalik texnikalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar bunyod etishga e’tibor yanada kuchaytirildi.

Masalan, shunday korxonalardan yana biri XX asrning 30-yillari oxirida Toshkent shahri yaqinida joylashgan Qibray tumanidagi Yalang‘och qishlog‘ining Qizil Azamat kolxozida paxta xom ashyosiga qayta ishlov berishga ixtisoslashtirilgan “Sharq tongi” to‘qimachilik-trikotaj fabrikasi qurilishi boshlandi. Biroq, ikkinchi jahon urushi boshlanishi tufayli bu qurilish to‘xtab qoldi. To‘qimachilik-trikotaj fabrikasiga esa Ukrainadan evakuatsiya qilingan harbiy zavod joylashtirildi. Zavod asbob-uskunalari Toshkentga 1942 yil 11 noyabrda yetib keldi, asbob-anjomlar bilan birga uning ishchilari ham shu yerga evakuatsiya qilindi. 574-sonli harbiy zavod tashkil qilindi [12]. Bunday korxonalar soni keyingi yillarda yanada ortib bordi.

Mamlakatda qishloq xo‘jaligi texnikalari va mashinalariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, ommaviy ishlab chiqarish va ixtisoslashtirish sohasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mashinasozligini tashkil etishning bosh rejasini ishlab chiqish, markazlashtirilgan rahbariyat Bosh qishloq xo‘jaligi mashinasozligi boshqarmasi (Glavselxozmash) boshchiligidagi tarmoqni yaratish, unda ishlaydigan kadrlarni tizimli tayyorlashni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berildi. Bu dastur asosida sovet traktorsozligi va qishloq xo‘jaligi mashinasozligiga asos solindi. Paxtachilikni tezroq taraqqiy ettirish va uni qayta ishlash bo‘yicha partiya va hukumat paxta yetishtirishni markazlashtirish vazifasini qo‘ydi.

Bu davrda O‘zbekistonda paxtachilik yetakchi o‘ringa chiqib, respublikada ixtisoslashgan mashinasozlik sanoatini rivojlantirishga e’tibor yanada kuchaytirildi. Shunday korxonalardan biri “Tashselmash” zavodi bo‘lib, u 1960 – yillarda 3184 dona paxta terish mashinasi ishlab chiqargan bo‘lsa, 1985 yilda ularning soni 9425 taga yetdi. Bu mashinalar Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya kabi 38 ta chet mamlakatlarga ham eksport qilindi. [13].

Sharof Rashidov O‘zbekiston KPMKning 1-kotibi bo‘lib ishlagan davrda (1959-1983) yirik sanoat markazlarini ko‘paytirishga e’tibor yanada kuchaytirildi. Bu davrga kelib, respublikamizda mavjud bo‘lgan yer osti va yer usti zaxiralari atroflicha o‘rganilib, ulardan keng foydalanishga kirishildi. Sanoatning davr talabiga mos mashinasozlik, samolyotsozlik, energetika, gaz, rangli metall va oltin qazib olish, kimyo, traktorsozlik sohalari tez rivojlandi. Respublikamizda 2,5 mingtacha umumiy kon va salkam yuzga yaqin turdagi xom-ashyo konlari bunyod etildi, 850 tadan ko‘proq turli qazilma konlar

topildi. Bu avvalo, oltin, uran, tabiiy gaz, neft, turli nodir rangli metallar hamda kimyoviy moddalardan iborat edi.

Xulosa va takliflar o‘rinda shuni aytish kerakki, O‘zbekiston paxtachilikni rivojlantirish maqsadida, respublikada qishloq xo‘jalik mashinasozligi sanoatining tashkil etilishi, yangi qishloq xo‘jalik texnikalarining respublikaga kirib kelishi, qishloq xo‘jaligida olib borilgan ishlarni osonlashtirdi, deb baholansada, aslida mahalliy dehqonlarning hayotida uzoq vaqtlar katta o‘zgarishlarga yuz bermadi.

O‘zbekiston SSRda industriallashtirish asosida birinchi besh yillik davrida traktorsozlik sohasidagi gigant zavodlar: Stalingrad (1930 y.), Xarkov (1931 y.) va Chelyabinsk (1933 y.) traktor zavodlari, shuningdek, bir qator Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi (Tashselmash) qurildi. Bu zavod negizida, keyingi yillarda qurilayotgan zavodlarga asosiy ba’za bo‘lib xizmat qildi. Mana shu zavodlardan yuzlab ishchilar, muhandis va mutaxassis-kadrlar O‘zbekistonga ko‘chirib keltirildi. 1930 yillardan boshlab respublikada qurilayotgan qishloq xo‘jalik mashinasozligi korxonalarida bir qancha millat vakillari birgalikda mehnat qilishgan. Keyinchalik ular shu yerda ishlab va uzoq yillar yashab qoldi.

Traktor ishlarini tashkil etish davrining boshlarida mexanizator kadrlarning yetishmasligi sezilib turardi. Mexanizatorlar tayyorlash kurslarini keng miqyosda ochilgan bo‘lsada, hamon rejada belgilangan mexanizator kadrlar tayyorlash rejalari bajarilmadi. Bundan tashqari, paxtachilikda mexanizatsiyani tashkil etib, uni ishlab chiqarishga joriy qilishda ilmiy-tadqiqot ishlariga kam e’tibor berildi. Xududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ilmiy asosda o‘rganilmadi yoki e’tiborga olinmadi. Hattoki, eng past rivojlangan mamlakatlar tajribasi darajasida ham ishlab chiqarishga tadbiq etilmadi.

Bunday siyosat zaminida xalqlarning o‘ziga xos milliy madaniyati va mentalitetini qorishtirib yuborish ham ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga erishish uchun mashinasozlik sanoatini rivojlantirish, paxtachilikni yanada kengaytirish siyosati to‘la o‘zini oqlaydigan ijobiy tadbirlar qatoriga kiritilgan.

Respublikada qishloq xo‘jaligi rivojlantirish maqsadida mashinasozlik sanoatining kirib kelishi, xududiy ixtisoslashgan zavodlarning barpo etilishi, mutaxassis mexanizator kadrlarning shakllantirilishi, qisqa vaqt ichida markaz manfaatiga qaratilgan iqtisodiy yuksalishga erishish maqsadlari “shaxsan milliy, mazmunan esa, sotsialistik” xarakterga ega bo‘lgan.

Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi (Tashselmash) bugungi kunda respublikadagi qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodlari bilan birlashtirilgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga qishloq xo‘jaligi texnika va ehtiyot qismlarni milliylashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh. “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligida mahalliy ishlab chiqarish kengaytiriladi”, Yangi O‘zbekiston, gazetasi, 2026 yil 24 fevral.

2. Iofinov S.A, Turbin B.G, sьirin A.A. Mexanizatsiya i elektrifikatsiya selskogo xozyaystva. Gosudarstvennoe izdatelstvo selskoxozyaystvennoy literaturы. Moskva., Leningrad. – 1953 g. S-12.

3. O‘zRMDA, fond – 9, ro‘yxat – 1, yig‘ma jild – 237, varaq – 1.

4. Ikramov A. 1932 yil yakunlari va ikkinchi besh yillikning birinchi yilligi – 1933 yil paxtachilikning navbatdagi vazifalari. O‘zKompartiya MK va MKK fevral plenumidagi dokladi. “O‘zSSR Dav nashr”, Toshkent, - 1933 y, 37-bet.

5. O‘zRMDA, fond – 471, ro‘yxat – 1, yig‘ma jild – 99, varaq – 4.

6. Buyvolov F. Traktorы Fardzon-putiloves i Fordzon. NIZ SSSR vsesayuznыy institut mexanizatsii selskogo xozyaystva. – Leningrad.: 1932. 45 s; Dobrosmыslov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyaщem. Itoricheskiy ocherk. Vыp. 4, -Tashkent: 1912. S. 433-520; Livщis P.Yu. Instruksiya po uxodu i eksploatatsii elektro oborudovaniya traktorov tipov STZ, XTZ i ChTZ. Moskva: - 1937. 60 s; Orlovskiy A. Traktor Fordzon. Leningrad: – 1926. 132 s.

7. Turbin B.G, Mexanizatsiya i elektrifikatsiya selskogo xozyaystva. Gosudarstvennoe izdatelstvo selskoxozyaystvennoy literaturы. Moskva: Leningrad. – 1953 g. S – 622.

8. Arutyunyan Yu.V. Mexanizatorы selskogo xozyaystva SSSR v 1929-1957 gg., Izdatelstvo akademii nauk SSSR., Moskva – 1960 gg. S – 339.

9. O‘zRMDA, fond – 9, ro‘yxat – 1, yig‘ma jild – 237, varaq – 3.

10. Matchonov R. Tiklanish odimlari. Agrotexnika dunyosi. Ilmiy-amaliy jurnal. №1-son. 2017 y. 7-bet.

11. O‘zbekiston SSR tarixi. Qadimgi davrdan hozirgi kunlargacha. O‘zSSR FA akad. I.M.Mo‘minov tahriri ostida. T., “Fan”, 1974. 400-bet.

12. Baykuvatov M. Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi faxri., O‘zFA., “Fan” nashryoti, Toshkent – 2020. 9 – bet.

13. Alimardonov T. “O‘chmas Sharaf” (Monografiya). – Toshkent.: “Dono nashriyoti”, 2017. 129-bet.

O‘ZBEK XONLIKLARI ADABIY JARAYONLARI VA DAVLAT HOMIYLIGINI O‘RGANISHDA YOZMA VA ARXIV MANBALARINING O‘RNI

Saotboyev Raxmatjon Madamin o‘g‘li,
rsaotboyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6896-3849

UO‘K 94(575.1):504.06:556.18

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida shakllangan adabiy-madaniy muhit, hukmdorlarning ma’rifiy-san’atparvarlik faoliyati hamda mazkur jarayonlarni yorituvchi yozma manbalar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning manbaviy bazasini mahalliy tarixnavislar asarlari, tazkiralar, xotira xarakteridagi manbalar, qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblar, shuningdek, saroy devonxonasi va arxiv hujjatlari tashkil etadi. Maqolada Buxoro, Qo‘qon va Xiva tarixnavislik maktablariga mansub asarlarning mazmuniy xususiyatlari va ularning madaniy jarayonlarni aks ettirish salohiyati qiyosiy o‘rganilgan. Ayniqsa, Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II Feruz davridagi adabiy-sanoat muhiti, tarjimonlik, kitobat va tazkiranavislik an’analari davlat homiyligi yoritilgan. Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi yozma manbalar asosida siyosiy tarix bilan bir qatorda ma’naviy-adabiy hayotni tadqiq etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, tarixnavislik, tazkira, qo‘lyozma, kitobat, Feruz, arxiv hujjatlari.*

Аннотация: *В данном исследовании системно анализируются литературно-культурная среда, сформировавшаяся в Бухарском эмирате, Хивинском и Кокандском ханствах, просветительская и культурно-покровительственная деятельность правителей, а также система письменных источников, освещающих данные процессы. Источниковую базу исследования составляют труды местных историков, тазкире, источники мемуарного*

характера, рукописные и литографированные книги, а также документы придворных канцелярий и архивные материалы. В статье в сравнительном аспекте исследуются содержательные особенности произведений, относящихся к историографическим школам Бухары, Коканда и Хивы, и их возможности в отражении культурных процессов. Особое внимание уделяется литературно-культурной среде Хивинского ханства в период правления Мухаммад Рахим-хана II Феруза, а также развитию переводческой деятельности, книжного дела и традиций составления тазкире в условиях государственной поддержки. На основе письменных источников по истории Бухарского и Кокандского ханств научно обосновываются возможности изучения наряду с политической историей духовной и литературной жизни рассматриваемого периода.

Ключевые слова: *Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кокандское ханство, историография, тазкире, рукопись, книжное дело, Феруз, архивные документы.*

Abstract: *This study systematically analyzes the literary and cultural environment that developed in the Bukhara Emirate, Khiva Khanate, and Kokand Khanate, the educational and cultural patronage activities of the rulers, and the system of written sources documenting these processes. The source base of the study consists of works by local historians, tazkiras, memoir-type sources, manuscript and lithographic books, as well as court chancellery documents and archival materials. The article comparatively examines the substantive characteristics of works belonging to the historiographical traditions of Bukhara, Kokand, and Khiva, as well as their potential for reflecting cultural processes. Particular attention is paid to the literary and cultural environment of the Khiva Khanate during the reign of Muhammad Rahim Khan II Feruz, including the development of translation activities, book production, and tazkira-writing traditions under state patronage. Based on written sources relating to the history of the Bukhara and Kokand Khanates, the study provides a scholarly basis for examining not only political history but also the spiritual and literary life of the period.*

Keywords: *Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Kokand Khanate, historiography, tazkira, manuscript, book culture, Feruz, archival documents.*

Kirish

O‘zbek xonliklari tarixida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bir qatorda madaniy va adabiy hayot ham salmoqli o‘rin tutgan. Davlat idorasi, saroy muhiti hamda madaniy markazlarda faoliyat yuritgan ijodkorlar, xattotlar,

tarjimonlar va tarixchilar tomonidan qoldirilgan meros davrning ma’naviy manzarasini tiklashda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

Mavjud yozma manbalar – fors-tojik va eski o‘zbek tillaridagi tarixiy xronikalar, tazkiralar, xotiralar hamda rasmiy hujjatlar majmui – xonliklar davri madaniy-adabiy hayotini harataraflama tadqiq etishga imkon beradi. Ushbu manbalar faqatgina hukmdorlar va ularning harbiy harakatlarini emas, balki saroy adabiy muhiti, kitobat san’ati va ilmiy-ma’rifiy jarayonlarni ham qamrab olgan [1].

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, tarixiy yozma manbalar ko‘pincha faqat siyosiy voqealar nuqtai nazaridan baholanib, ulardagi adabiy-madaniy hayot va davlat homiyligiga oid ma’lumotlar tizimli hamda qiyosiy tadqiqotlardan chetda qolib kelgan. Ayniqsa, Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II Feruz rahbarligida shakllangan serqirra adabiy-madaniy muhit va uning institutsional asoslarini chuqur o‘rganish alohida manbashunoslik tahlilini talab qiladi [7, 8]. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi adabiy-madaniy jarayonlar va davlat homiyligini yorituvchi manbalarni tasniflash, ularning ilmiy ahamiyatini aniqlash va qiyosiy-kritik tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi materiallari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi hujjatlari, mahalliy tarixchilarning asarlari, tazkiralar, xotiralar va ilmiy-metodologik adabiyotlar tashkil etadi.

Buxoro amirligi adabiy-ilmiy muhitini o‘rganishda Hofiz Tanish Buxoriy, Ahmad Donish, Mirza Abdulazim Somiy kabi mualliflarning xronikalari hamda manbashunoslik tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi [2, 3]. Qo‘qon xonligi bo‘yicha Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy, Mirzo Olim Toshkandiy, Muhammad Hakimxon To‘ra hamda A.L. Troitskaya tomonidan kataloglashtirilgan arxiv manbalariga tayanildi [4–6]. Xiva xonligidagi adabiy jarayonlarni tahlil qilishda esa Munis, Ogahiy, Bayoniy xronikalari bilan birga Laffasiy, Tabibiy va Bobojon Tarroh-Xodim tazkira hamda memuarlaridan foydalanildi [7–11].

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tarixiy-tipologik, tekstologik va tizimli-strukturaviy tahlil metodlaridan unumli foydalanildi.

Natijalar

1. Yozma manbalarning tipologik tasnifi

O‘rganilgan manbalarni ularning mazmuniy va tarkibiy xususiyatlariga ko‘ra quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Tarixiy xronikalar: Munisning “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiy va Bayoniy asarlari hamda Buxoro va Qo‘qon xonliklari rasmiy tarixchilarining bitiklari. Ular siyosiy voqealar qatorida madaniy hayotga oid ma’lumotlarni ham qamrab olgan [2, 4, 7, 8].

Tazkiralar va adabiy-biografik manbalar: Laffasiyning “Tazkirayi shuaro”, Tabibiyning “Majmuayi si shuaro” tazkiralari ushbu guruhning yorqin namunasi bo‘lib, ijodkorlar hayoti, ijodiy muhit va saroy adabiy an’analari haqida ma’lumot beradi [9, 10].

Memuar va xotiralar: Bobojon Tarroh-Xodim va Polvonniyoz Hoji Yusupov asarlari kabi manbalar muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida saroydagi adabiy-musiqiy majlislar hamda ijtimoiy jarayonlarni yoritadi [11, 12].

Kitobat mahsulotlari (Qo‘lyozma va toshbosmalar): Devonlar, bayozlar va majmualar bo‘lib, ular orqali matnning o‘zi bilan birga xattotlik, miniatyura va kitob tarqalish geografiyasi o‘rganiladi [3, 13].

Arxiv hujjatlari: Devonxona materiallari, vaqfnomalar hamda rasmiy yozishmalar madaniy va adabiy hayotning moddiy-tashkiliy asoslarini ochib beradi [5, 13].

2. Buxoro amirligida ilmiy-adabiy muhit manbashunosligi

Buxoro amirligiga oid yozma manbalar, garchi ko‘proq siyosiy va harbiy voqealarga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ularda madaniy hayot va kitobat an’analariga oid muhit ham o‘z aksini topgan [2]. Amirlikda amalga oshirilgan kitobat va xattotlik san’ati mahsulotlari dunyo qo‘lyozma fondlarida keng tarqalgan bo‘lib, ularning kataloglashtirilishi Buxoro kitobat maktabi va saroy kutubxonalari faoliyatini tiklash imkonini beradi [3].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy va ma’rifiy muhitini tadqiq etishda Ahmad Donish, Mirza Abdulazim Somiy va keyinchalik jadid namoyandalari asarlari intellektual hamda ijtimoiy-madaniy evrilishlarni ko‘rsatuvchi muhim manbalardandir [2, 3].

3. Qo‘qon xonligi tarixnavisligi va adabiy hayot

Qo‘qon xonligi tarixnavislik maktabiga mansub manbalar – Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy, Mirzo Olim Toshkandiy hamda Muhammad

Hakimxon To‘raning asarlari siyosiy voqelar bilan birga ilmiy-adabiy muhitni, hukmdorlarning shoir va ulamolarga munosabatini aks ettiradi [4].

A.L. Troitskaya tomonidan tahlil va katalog qilingan Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari esa xonlikdagi madaniy va ijtimoiy hayotning amaliy hamda institutsional jihatlarini o‘rganishda yetakchi manba hisoblanadi [5].

4. Xiva xonligida saroy adabiy muhiti va Feruz homiyligi

Xiva xonligida adabiy va madaniy jarayonlar boshqa xonliklarga nisbatan yozma manbalarda, ayniqsa tazkiralarda juda mukammal va izchil yoritilgan. Munis, Ogahiy va Bayoniy xronikalari Xorazm tarixnavisligining uzviyligini ta’minlab, kitobxonlik va tarjimonlik faoliyatini atroflicha aks ettirgan [7, 8].

Muhammad Rahimxon II Feruz davrida saroy adabiy muhiti yangi bosqichga ko‘tarildi. Bobojon Tarroh-Xodimning “Xorazm navozandalari” hamda Laffasiyning tazkirasida Feruz atrofida to‘plangan shoirlar, xattotlar, tarjimonlar va sozandalar faoliyati xususida qimmatli ma’lumotlar berilgan [9, 11].

Ahmadjon Tabibiyning “Majmuayi si shuaro-i payravi Feruzshohiy” asari esa Feruzning adabiy maktabiga va unga ergashgan 30 nafar shoir ijodiga bag‘ishlangan nodir adabiy-biografik manbadir [10]. Usbu manbalar davlat homiyligi faqat moddiy rag‘bat emas, balki ijodiy majlislar tashkil etish, xattotlik ustaxonalari va toshbosma nashrlarini yo‘lga qo‘yish kabi kompleks shakllarda namoyon bo‘lganini tasdiqlaydi [10, 13].

5. Arxiv va vaqf hujjatlarining ilmiy ahamiyati

Badiiy va tarixiy asarlarni arxiv va vaqf hujjatlari bilan qiyosiy o‘rganish adabiy-madaniy jarayonlarning moddiy va ma’naviy poydevorini aniqlash imkonini beradi [5, 13]. Xiva xonlari kanselyariyasi va vaqf hujjatlari madrasalar faoliyati, kutubxonalar ta’minoti va ma’rifiy muassasalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega [13].

Muhokama

Manbalarni manbashunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarida adabiy jarayonlar va davlat homiyligi yozma manbalarning turli tiplarida turlicha darajada o‘z aksini topgan. Tarixiy xronikalar voqelikni siyosiy prizma orqali bersa, tazkira va memuarlar adabiy muhitning ichki dinamikasini ochib beradi. Arxiv hujjatlari esa ushbu jarayonlarning xolis iqtisodiy-tashkiliy tasvirini taqdim etadi [5, 13].

Xiva xonligi misolida manbalarning o‘zaro muvofiqligi yuqori bo‘lib, saroy va adabiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik yaqqol namoyon bo‘ladi [7–11]. Biroq, saroy tarixchilari va tazkiranavislarining hukmdor homiyligida faoliyat yuritganini inobatga olgan holda, matnlardagi subyektiv qarashlar va mubolag‘alarni arxiv materiallari hamda xotiralar orqali kritik va qiyosiy tahlil qilish talab etiladi.

Xulosa

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi adabiy-madaniy muhitni o‘rganishda yozma manbalar muhim ahamiyatga ega. Xronikalar, tazkiralar, biografik va xotira asarlari, kitobat namunalari hamda arxiv hujjatlari adabiy jarayonni turli jihatlardan yoritadi.

Mahalliy tarixnavislik asarlari siyosiy voqealar bilan bir qatorda davrning adabiy va ma’rifiy hayoti haqida ham ma’lumot beradi. Tazkira va biografik asarlar ijodkorlar faoliyati, adabiy muhit tarkibi hamda hukmdorlarning adabiyotga munosabatini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Xiva xonligi misolida yozma manbalar adabiyot, tarjima, kitobat va musiqa rivojida saroy homiyligining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Arxiv hujjatlari esa ushbu jarayonlarning tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Umuman, turli turdagi yozma manbalarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish xonliklar adabiy-madaniy muhitining xususiyatlarini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1–2-kitob. – Toshkent: Sharq, 1999–2000.

2. Donish Ahmad Mahdumi. Risola-y mukhtasare az tarixi saltonati xonadoni Mang‘itiya. – Dushanbe: Sarvat, 1992.

3. Mirzo Olim Toshkandiy. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. – Toshkent: Fan, 2001.

4. Troitskaya A.L. Katalog arxiva Kokandskix xonov XIX veka. – Moskva: Nauka, 1968.

5. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. XIX asr – XX asrning boshlari. – Toshkent, 1998.

6. Munis Xorazmiy, Ogahiy M.R. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Sharq, 2010.

7. Bayoniy M.Y. Shajarayi Xorazmshohiy; Xorazm tarixi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994.

8. Laffasiy Hasanqori. Tazkirayi shuaro. – Urganch: Xorazm, 1992.

9. Matkarimova S. Tabibiy tazkiranavis. – Toshkent: Muharrir, 2011.

10. Bobojon Tarroh-Xodim. Xorazm navozandalari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994.

11. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch, 2000.

12. Xusanov S.X. Xiva xonligida XIX – XX asrning birinchi choragiga qadar davrda arxiv ishi va uning o‘rganilishi // Research Focus. – 2022. – №3. – B. 94–98.

MO‘G‘ULLAR ISTILOSIDAN SO‘NG O‘NG QIRG‘OQ XORAZM SHAHARLARI IQTISODIY HAYOTINING TIKLANISHI: MIZDAHQON VA JANPIQQAL’A MISOLIDA

Jumaniyozov Doniyor Xudoyorovich,
Urganch Innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Elektron pochta: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid: 0009-0009-8056-5047

UO‘K 94(575.171):339“13/14”

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIII–XV asrlarda Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davrda O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining iqtisodiy taraqqiyoti, hunarmandchilik ishlab chiqarishi, savdo aloqalarining qayta shakllanish jarayonlari Mizdahqon va Janpiqqal’a yodgorliklari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab-fors yozma manbalari, xususan Ibn Battuta, al-Umariy va Hamdulloh Qazviniy ma’lumotlari arxeologik hamda numizmatik materiallar bilan qiyosiy o‘rganiladi. Mo‘g‘ullar istilosi natijasida Xorazmning an’anaviy shahar markazlari va xo‘jalik tizimida yuz bergan o‘zgarishlar, Amudaryo o‘zanlarining dinamikasi hamda Oltin O‘rda tarkibida shakllangan yangi siyosiy-iqtisodiy sharoitlarning shaharlar rivojiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.*

Tadqiqot natijalari Kat (Qiyot) shahrining avvalgi mavqei nisbatan pasaygan bir sharoitda Mizdahqonning iqtisodiy va hunarmandchilik markazi sifatidagi ahamiyati ortganini ko‘rsatadi. Janpiqqal’a esa hududlararo harakat va tranzit aloqalar tizimida muhim istehkom-manzilgohlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Arxeologik va numizmatik ma’lumotlar XIII–XIV asrlarda O‘ng qirg‘oq Xorazmda iqtisodiy hayotning to‘liq uzilib qolmaganini, balki yangi siyosiy va geografik sharoitlarga moslashgan holda qayta tashkil topganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Oltin O‘rda, Mizdahqon, Janpiqqal’a, Kat, Qiyot, Shemaxaqal’a, arxeologiya, numizmatika, hunarmandchilik.*

Аннотация: *В статье анализируются процессы экономического развития, восстановления ремесленного производства и*

реорганизации торговых связей городов Правобережного Хорезма в период после монгольского завоевания XIII–XV вв. на примере городищ Миздахкан и Джанпыккала. В исследовании сведения арабо-персидских письменных источников, в частности данные Ибн Баттуты, ал-Умари и Хамдаллаха Казвини, сопоставляются с археологическими и нумизматическими материалами. Рассматриваются изменения, произошедшие в традиционных городских центрах и хозяйственной системе Хорезма в результате монгольского завоевания, динамика русел Амударьи, а также влияние новых политико-экономических условий, сформировавшихся в составе Золотой Орды, на развитие городов.

Результаты исследования показывают, что в условиях относительного снижения прежнего значения города Кат (Кят) возросла роль Миздахкана как экономического и ремесленного центра. Джанпыккала, в свою очередь, выступала одним из важных укреплённых пунктов в системе межрегионального перемещения и транзитных связей. Археологические и нумизматические материалы свидетельствуют о том, что в XIII–XIV вв. экономическая жизнь Правобережного Хорезма не прекратилась полностью, а подверглась структурной перестройке и адаптации к новым политическим и географическим условиям.

Ключевые слова: *Хорезм, Золотая Орда, Миздахкан, Джанпыккала, Кат, Кят, Шемаха-кала, археология, нумизматика, ремесленное производство.*

Abstract: *This article analyzes the processes of economic development, the recovery of craft production, and the reorganization of trade relations in the cities of Right-Bank Khorezm during the post-Mongol period of the 13th–15th centuries, with particular reference to the archaeological sites of Mizdakhkan and Janpykkala. The study comparatively examines information from Arabic-Persian written sources, particularly the accounts of Ibn Battuta, al-Umari, and Hamdallah al-Qazvini, alongside archaeological and numismatic evidence. It considers the changes that occurred in Khorezm's traditional urban centers and economic system as a result of the Mongol conquest, the dynamics of the Amu Darya river channels, and the impact of the new political and economic conditions that developed within the Golden Horde on urban development.*

The findings demonstrate that, amid the relative decline of the former prominence of Kat (Kiyat), Mizdakhkan increased in importance as an economic and craft-production center. Janpykkala, in turn, functioned as one of the important fortified sites within the system of interregional movement and transit connections. Archaeological and numismatic evidence indicates that economic

activity in Right-Bank Khorezm did not completely cease during the 13th–14th centuries; rather, it underwent structural reorganization and adapted to new political and geographical conditions.

Keywords: *Khorezm, Golden Horde, Mizdakhkan, Janpykkala, Kat, Kiyat, Shemakha-kala, archaeology, numismatics, craft production.*

KIRISH

XIII asrning birinchi choragida Mo‘g‘ullar istilosi Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Harbiy to‘qnashuvlar natijasida qator shahar va qishloq manzilgohlari zarar ko‘rdi, sug‘orish tarmoqlarining faoliyati izdan chiqdi hamda mavjud iqtisodiy aloqalarning ayrim yo‘nalishlari vaqtincha susaydi. Shunga qaramay, Xorazm vohasining geografik joylashuvi, qadimdan shakllangan irrigatsiya va shahar madaniyati hamda mintaqalararo savdo yo‘llari bilan bog‘langanligi iqtisodiy hayotning keyingi bosqichda qayta tiklanishi uchun muhim shart-sharoit yaratdi.

Shimoliy Xorazmning Oltin O‘rda – Jo‘ji ulusi siyosiy makoniga qo‘shilishi hududning iqtisodiy aloqalarida yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga olib keldi. Volgabo‘yi, Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xorazm o‘rtasidagi aloqalarning davom etishi mahalliy shaharlarning savdo tizimidagi mavqeini saqlab qolishiga imkon berdi. V. G. Tizengauzen tomonidan jamlangan arab va fors manbalari ham mazkur davrda Oltin O‘rda hududlari bilan Xorazm o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mavjudligini ko‘rsatadigan muhim yozma manbalar qatoriga kiradi [1].

Mazkur jarayonni o‘rganishda O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining iqtisodiy taraqqiyotidagi hududiy o‘zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, Kat (Qiyot) shahrining siyosiy va iqtisodiy mavqei o‘zgarishi fonida Mizdahqonning faollashuvi, Janpiqqal’a singari qal’a-shaharlarning tranzit va mudofaa tizimidagi o‘rni masalasi muhim ilmiy muammolardan biridir.

Maqolaning asosiy maqsadi – yozma, arxeologik va numizmatik manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davrda O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining iqtisodiy hayoti, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo aloqalarining tiklanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy jarayonlarni kompleks o‘rganish tamoyiliga asoslangan bir qator metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, qiyosiy-tarixiy metod yordamida o‘rta asr arab-fors mualliflari asarlaridagi ma’lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirildi. Yozma manbalarda shaharlar va savdo yo‘llari to‘g‘risida qayd etilgan ma’lumotlar moddiy madaniyat yodgorliklari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Ikkinchidan, arxeologik-tipologik metod asosida Mizdahqon, Janpiqqal’a va boshqa O‘ng qirg‘oq Xorazm yodgorliklaridan aniqlangan turar-joy, hunarmandchilik va savdo bilan bog‘liq moddiy topilmalar o‘rganildi. Kulolchilik buyumlari, metall mahsulotlar, bezak buyumlari va boshqa artefaktlar shahar xo‘jaligining turli yo‘nalishlarini aniqlashda muhim manba sifatida baholandi.

Uchinchidan, numizmatik tahlil orqali Xorazm va Oltin O‘rda hududida muomalada bo‘lgan tangalarning xronologiyasi va hududiy tarqalishi iqtisodiy aloqalarni aniqlash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. G. A. Fedorov-Davidovning Oltin O‘rda pul muomalasiga oid tadqiqotlari ushbu masalani yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [2; 3].

Shuningdek, tarixiy-geografik va hududiy tahlil asosida O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining Amudaryo havzasi, Dashti Qipchoq, Volgabo‘yi va Movarounnahr bilan bog‘lovchi savdo yo‘llaridagi o‘rni baholandi.

NATIJALAR

O‘rta asr yozma manbalarida Xorazm shaharlarining iqtisodiy va geografik holati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Ibn Battutaning XIV asrning birinchi yarmidagi sayohati davomida Xorazm hududidagi shaharlar va aholi manzilgohlari haqida bergan ma’lumotlari mazkur davr shahar tizimini o‘rganishda muhim manbalardan biridir [5]. Ayrim tadqiqotlarda Ibn Battuta ma’lumotlari O‘ng qirg‘oq Xorazmda Katning asosiy shahar markazi sifatidagi mavqeini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan [6].

Biroq yozma manbalarda ma’lum bir shahar yoki manzilgohning tilga olinmaganligi uning iqtisodiy faoliyat yuritmaganligini anglatmaydi. Arxeologik materiallar aynan shu jihatdan muhimdir. Yu. P. Manilov va M. Sh. Qdirniyozovning tadqiqotlari O‘ng qirg‘oq Xorazm hududida XIII–XIV asrlarda bir qator shahar va qal’a tipidagi manzilgohlarning faoliyat yuritganini ko‘rsatadi [7; 11].

Janpiqqal’a, Mizdahqon, Abu Muslimqal’a va boshqa yodgorliklardan aniqlangan madaniy qatlamlar ushbu hududda Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davrda urbanistik va xo‘jalik jarayonlari davom etganini ko‘rsatadi. Shu sababli

yozma manbalardagi shaharlar ro‘yxatini arxeologik ma’lumotlar bilan to‘ldirish O‘ng qirg‘oq Xorazmning real tarixiy-madaniy manzarasini tiklash imkonini beradi.

Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davrda O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining rivojlanishi bir xil kechmagan. Siyosiy va tabiiy-geografik sharoitlarning o‘zgarishi ayrim qadimgi markazlarning mavqei pasayishiga, boshqa manzilgohlarning esa iqtisodiy jihatdan faollashishiga sabab bo‘lgan.

Mizdahqon yodgorligi ana shunday iqtisodiy faollashgan markazlardan biri sifatida ajralib turadi. M. Sh. Qdirniyozovning tadqiqotlarida Mizdahqonning Oltin O‘rda davridagi moddiy madaniyati, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va shahar hayoti keng tahlil qilingan [6; 7].

Arxeologik materiallar Mizdahqonda kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik va boshqa hunarmandchilik turlarining mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Shahar hududidan aniqlangan turli madaniy buyumlar uning mahalliy ehtiyojlarni qondiruvchi markaz bo‘lish bilan birga, tashqi iqtisodiy aloqalarga ham jalb etilganini ko‘rsatadi.

Ayrim topilmalar Mizdahqonning uzoq hududlar bilan madaniy va savdo aloqalari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, bronza ko‘zgular, bezak buyumlari, to‘qimachilik mahsulotlari va boshqa import yoki tashqi madaniy ta’sir bilan bog‘liq artefaktlar shaharning kengroq almashinuv tizimiga kirganidan dalolat beradi [6].

Shu nuqtayi nazardan, Katning mavqei pasayishi va Mizdahqonning faollashuvini faqat bitta omil bilan izohlash to‘g‘ri emas. Bu jarayonni Amudaryo o‘zanlarining o‘zgarishi, siyosiy markazlarning siljishi, savdo yo‘llarining qayta yo‘nalishi va Oltin O‘rda iqtisodiy makonining shakllanishi bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq.

O‘ng qirg‘oq Xorazmning muhim yodgorliklaridan biri bo‘lgan Janpiqqal’a hududning harbiy-mudofaa va iqtisodiy tizimida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Yu. P. Manilov va M. Sh. Qdirniyozov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Janpiqqal’aning o‘rta asrlardagi tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini bergan [11].

Janpiqqal’aning geografik joylashuvi uni turli hududlar o‘rtasidagi harakat va aloqalarni nazorat qiluvchi manzilgohlardan biriga aylantirgan. Qal’aning mudofaa vazifasi bilan bir qatorda xo‘jalik va almashinuv funksiyalarini ham bajargan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bunday ko‘p

funksiyali qal’a-shaharlar O‘rta Osiyoning daryo vodiylari va tranzit yo‘llarida keng tarqalgan urbanistik hodisalardan biri hisoblanadi.

Shemaxaqal’a va boshqa yodgorliklardan topilgan moddiy madaniyat namunalari ham O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining mintaqalararo aloqalarda ishtirok etganini ko‘rsatadi [7]. Ushbu topilmalar mahalliy ishlab chiqarish va tashqi almashinuv jarayonlari o‘zaro bog‘langan holda rivojlanganini ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘ng qirg‘oq Xorazm iqtisodiy hayotining tiklanishini o‘rganishda numizmatik manbalar alohida ahamiyatga ega. Xorazm hududidan topilgan tangalar pul muomalasi, siyosiy hokimiyat va savdo munosabatlari haqida muhim ma’lumot beradi.

G. A. Fedorov-Davidovning tadqiqotlariga ko‘ra, Oltin O‘rda davrida Xorazm hududida turli nominaldagi kumush va mis tangalar muomalada bo‘lgan [2; 3]. Tangalar tarkibi va ularning tarqalish geografiyasi hududning Oltin O‘rda iqtisodiy tizimiga integratsiyalashganini ko‘rsatadigan muhim dalillardan biridir.

Numizmatik materiallarni faqat pul muomalasining ko‘rsatkichi sifatida emas, balki savdo va siyosiy-iqtisodiy aloqalarning tarixiy indikatori sifatida baholash lozim. Xorazm tangalarining boshqa hududlardan topilishi mahalliy pul tizimining mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etganini ko‘rsatadi.

Biroq Xorazm tangalarining ayrim uzoq hududlarda kam uchrashi savdo hajmining pastligi bilan bevosita tenglashtirilmasligi kerak. O‘rta asr savdosida naqd pul bilan bir qatorda kredit, qarz, hisob-kitob va boshqa moliyaviy mexanizmlar ham mavjud bo‘lgan. Shu bois numizmatik materiallarni yozma va arxeologik manbalar bilan birgalikda tahlil qilish ancha ishonchli natija beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari XIII–XIV asrlarda O‘ng qirg‘oq Xorazmning iqtisodiy hayoti Mo‘g‘ullar istilosidan keyin ma’lum darajada tanazzulga uchragan bo‘lsa-da, keyingi davrda yangi sharoitlarga moslashgan holda qayta tiklanganini ko‘rsatadi. Mazkur tiklanish jarayoni avvalgi iqtisodiy tizimning oddiy qayta tiklanishi emas, balki siyosiy-geografik sharoitlarning o‘zgarishi natijasida iqtisodiy markazlar va savdo yo‘nalishlarining qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi.

Birinchi muhim omil – geografik joylashuv va tranzit imkoniyatlar. Xorazmning Dashti Qipchoq, Volgabo‘yi va Movarounnahr bilan tutash

hududda joylashganligi savdo aloqalarining davom etishiga zamin yaratgan. G. Le Strange tomonidan Sharqiy xalifalik hududlarining tarixiy geografiyasiga oid tadqiqotlarda Xorazmning mintaqalararo aloqalardagi o‘rni alohida qayd etiladi [9].

Ikkinchi omil – hunarmandchilikning davomiyligi va ixtisoslashuvi. Mizdahqon va boshqa shahar yodgorliklaridan topilgan kulolchilik, metall buyumlar, bezaklar va boshqa artefaktlar shahar iqtisodiyotida hunarmandchilik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Mizdahqonda vinochilik bilan bog‘liq ishlab chiqarish obyektlarining aniqlanishi ham shahar xo‘jaligining ko‘p tarmoqli bo‘lganini ko‘rsatadigan dalillardan biridir [8].

Uchinchi omil – Oltin O‘rda siyosiy-iqtisodiy makonining shakllanishi. Xorazmning Jo‘ji ulusi tarkibiga kirishi uning Volgabo‘yi va Dashti Qipchoq hududlari bilan aloqalarini kuchaytirgan. Natijada Xorazm shaharlari nafaqat mahalliy, balki kengroq mintaqalararo savdo tizimining tarkibiy qismiga aylangan.

To‘rtinchi omil – tabiiy-geografik sharoitlarning o‘zgarishi. Amudaryo o‘zanlarining dinamikasi shaharlarning geografik va iqtisodiy mavqeiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli Kat va Mizdahqonning tarixiy taqdirini o‘rganishda siyosiy voqealar bilan bir qatorda paleogeografik jarayonlarni ham hisobga olish zarur.

XIV asrning ikkinchi yarmida Xorazm hududidagi siyosiy kurashlar va Amir Temurning yurishlari iqtisodiy hayotga yangi ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, vohaning qadimiy savdo-geografik mavqei butunlay yo‘qolmadi. XV asrga oid savdogarlar va sayohatchilar ma’lumotlari Xorazmning mintaqalararo savdo tizimidagi ayrim aloqalari keyingi davrda ham davom etganini ko‘rsatadi [14].

Demak, O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining XIV asrdagi iqtisodiy tiklanishini “istilodan keyingi oddiy qayta tiklanish” sifatida emas, balki iqtisodiy markazlarning qayta shakllanishi, hunarmandchilik ishlab chiqarishining moslashuvi va tranzit savdo yo‘nalishlarining qayta tashkil topishi jarayoni sifatida baholash ilmiy jihatdan asosliroqdir.

XULOSA

Mo‘g‘ullar istilosi XIII asrda Xorazmning shahar va xo‘jalik tizimiga jiddiy zarar yetkazgan bo‘lsa-da, hududning iqtisodiy hayoti butunlay barham topmagan. O‘ng qirg‘oq Xorazmda shahar madaniyati va xo‘jalik faoliyati

keyingi davrda yangi siyosiy, geografik va iqtisodiy sharoitlarga moslashgan holda qayta shakllangan.

Tadqiqot natijalari Kat shahrining avvalgi mavqei pasaygan sharoitda Mizdahqonning iqtisodiy, hunarmandchilik va almashinuv markazi sifatidagi ahamiyati oshganini ko‘rsatadi. Mizdahqondan topilgan moddiy madaniyat namunalari uning mahalliy ishlab chiqarish bilan bir qatorda mintaqalararo almashinuv jarayonlariga ham jalb etilganini ko‘rsatadi.

Janpiqqal’a esa O‘ng qirg‘oq Xorazmning mudofaa va kommunikatsiya tizimida muhim o‘rin egallagan qal’a-manzilgohlardan biri bo‘lgan. Uning geografik joylashuvi va arxeologik materiallari hududning tranzit aloqalar tizimida ishtirok etganini ko‘rsatadi.

Numizmatik materiallar Xorazmning Oltin O‘rda davridagi pul-iqtisodiy tizim bilan uzviy bog‘langanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tangalarning tarqalishini savdo munosabatlarining yagona ko‘rsatkichi sifatida baholash yetarli emas; ularni arxeologik va yozma manbalar bilan birgalikda tahlil qilish lozim.

Umuman, XIII–XIV asrlarda O‘ng qirg‘oq Xorazm shaharlarining iqtisodiy tiklanishi shahar markazlarining qayta taqsimlanishi, hunarmandchilikning davomiyligi, pul muomalasining rivojlanishi va Yevroosiyo tranzit savdo tizimiga moslashuv jarayonlari bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayonda Mizdahqon va Janpiqqal’a O‘ng qirg‘oq Xorazmning iqtisodiy va kommunikatsion salohiyatini aks ettiruvchi muhim arxeologik yodgorliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абд ар-Рашид ал-Бакуви. Китаб талхис ал-асар ва аджа'иб ал-малик ал-каххар. – М.: Наука, 1971.

2. Федоров-Давыдов Г. А. Раскопки квартала XV–XVII вв. на городище Таш-Кала // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – 1958. – Т. 2. – С. 505–528.

3. Федоров-Давыдов Г. А. Денежное дело Золотой Орды. — М.: Палеограф, 2003.

4. Ибн Арабшах. Аджā’иб ал-макдур фи тарих Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). – Т.: Меҳнат, 1992.

5. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – М.: Наука, 1988.

6. Кдырниязов М. Ш. Городище Миздахкан в золотоордынское время. – Нукус: Каракалпакстан, 1987. – С. 12–18.

7. Кдырниязов М. Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII–XIV веках. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 55–57.

8. Кдырниязов М. Ш. Мастерские-винодельни золотоордынского Миздахкана // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – 1999. – № 3. – С. 101.

9. Le Strange G. The Lands of the Eastern Caliphate: Mesopotamia, Persia, and Central Asia from the Moslem Conquest to the Time of Timur. – Cambridge: Cambridge University Press, 1930.

10. Манилов Ю. П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1973.

11. Манилов Ю. П., Кдырниязов М. Ш. Городище Джанпык-кала // Археология Приаралья. – 1984. – Вып. 2. – С. 35–52.

12. Тизенгаузен В. Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Т. 1. – СПб.: Издание графа С. Г. Строганова, 1884.

13. Ягодин В. Н., Ходжаев Т. К. Некрополь древнего Миздахкана. – Т.: Фан, 1970.

14. Заходер Б. Н. Ширазский купец на Поволжье в 1438 г. // Каспийский свод сведений о Восточной Европе. – 1967. – Вып. 2. – С. 166–172.

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘RGANISHNING ILMIY AHAMIYATI

UO‘K 94(575.171)

Badalova Manzuraxon Oybekovna,
Andijon davlat tibbiyot instituti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning ilmiy ahamiyati tarixiy manba, metodologiya va fanlararo tadqiqot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mahalliy darsliklar, tarix fani metodologiyasiga oid qo‘llanma hamda xalqaro tadqiqotlar sharhi tarixiy bilimning tayyor sanalar majmui emas, tekshiriladigan dalillar va talqinlar tizimi ekanini ko‘rsatadi. Maqolada tarixiy davrlashtirish, sabab va oqibat aloqalari, tarixshunoslikdagi turli qarashlar hamda raqamli manbalardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston tarixi, tarixiy manba, tarixshunoslik, metodologiya, davrlashtirish, manbashunoslik, fanlararo yondashuv.*

Аннотация: *В статье анализируется научное значение изучения истории Узбекистана с точки зрения исторических источников, методологии и междисциплинарных исследований. Обзор отечественных учебников и научных работ показывает, что историческое знание представляет собой систему проверяемых фактов и интерпретаций. Рассматриваются периодизация, причинно-следственные связи, различия историографических подходов и критическая работа с цифровыми источниками.*

Ключевые слова: *история Узбекистана, исторический источник, историография, методология, периодизация, источниковедение, междисциплинарный подход.*

Abstract: *This article examines the scholarly value of studying the history of Uzbekistan through historical sources, research methods, and interdisciplinary inquiry. A review of local textbooks*

and international scholarship treats historical knowledge as a system of verifiable evidence and interpretations rather than a collection of dates. The article discusses periodization, causal explanation, historiographical differences, and critical use of digital sources.

Keywords: *history of Uzbekistan, historical source, historiography, methodology, periodization, source criticism, interdisciplinary approach.*

Kirish

O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganish, avvalo, bugungi davlat hududida turli davrlarda yashagan jamiyatlarning hayoti qanday shakllanganini dalillar asosida tushuntirishga xizmat qiladi. Hudud tarixini hozirgi siyosiy chegaralar bilan cheklab qo‘yish yetarli emas. Amudaryo va Sirdaryo havzalari, vohalar, cho‘l va tog‘ yo‘llari orqali yuz bergan aloqalar Markaziy Osiyoning boshqa qismlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli bir tarixiy hodisani anglashda mahalliy manba bilan birga qo‘shni hududlar materialini ham ko‘rish zarur. Fan tarixiy voqealarni bir chiziqli ro‘yxat sifatida emas, makon, vaqt va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar sifatida o‘rganadi [1, 4].

Adabiyotlar sharhi

A.S. Sagdullayev va hammualliflarning “O‘zbekiston tarixi” darsligi eng qadimgi davrdan XIV asr o‘rtalarigacha bo‘lgan jarayonlarni umumiy tizimga keltiradi [1]. Bunday asarning ilmiy va o‘quv vazifasi tarixiy davrlarning ketma-ketligini, asosiy tushunchalarni hamda mahalliy hududning uzoq davom etgan taraqqiyotini yaxlit ko‘rsatishdir. Darslik tayanch xarita vazifasini bajaradi, biroq undagi umumlashtirishlar alohida arxeologik yodgorlik yoki muayyan hujjat haqidagi maxsus tadqiqotni almashtirmaydi. Tarixni chuqur o‘rganishda umumiy bayondan aniq manba tahliliga o‘tish zarur.

N. Mustafoyevaning “Tarix fani metodologiyasi” qo‘llanmasi tarixiy manba, dalil, davr, tushuntirish va tadqiqot bosqichlari masalalariga e’tibor qaratadi [2]. Bu yondashuv fanning ilmiy ahamiyatini tushuntirishda ayniqsa foydalidir: tarixchining vazifasi ma’lumotni takrorlashdan iborat bo‘lmay, uning paydo bo‘lish sharoitini, muallif pozitsiyasini va boshqa dalillar bilan mosligini tekshirishdir. Bir hujjatdagi ifoda tarixiy hodisaning o‘zi bilan

tenglashtirilmaydi. Dastlab hujjatning yozilgan vaqti, maqsadi, auditoriyasi va saqlanish yo‘li aniqlanadi.

UNESCOning “History of Civilizations of Central Asia” to‘rtinchi jildi mintaqaning o‘rta asrlardagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini ko‘p muallifli xalqaro tadqiqot doirasida bayon etadi [3]. Uning afzalligi turli vohalar va davlatlar tarixini keng mintaqaviy aloqalar bilan bog‘lashidadir. O‘zbekiston tarixini shu ko‘lamda o‘rganish Buxoro, Samarqand yoki Xorazmni boshqa Markaziy Osiyo hududlaridan ajratib tasvirlashning chegarasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga xalqaro umumlashtirishda ayrim mahalliy tafsilotlar qisqaroq berilishi mumkin; mahalliy monografiyalar bilan qiyoslash shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Y. Bregelning tarixiy atlasi hududiy chegaralar, siyosiy markazlar va aloqa yo‘llarining turli davrlarda qanday o‘zgarganini ko‘rishga imkon beradi [4]. Xarita tarixiy jarayonni tushunishda yordamchi bezak emas, mustaqil dalilni tartibga solish vositasidir. Ammo undagi har bir chiziq tarixiy davrning o‘zida bugungi ma’nodagi aniq chegara bo‘lganini bildirmaydi. Geografik tasvir yozma manba va arxeologik topilmalar bilan solishtirilishi zarur.

A. Khalidning “Making Uzbekistan” monografiyasi XX asr boshidagi jadidchilik, siyosiy o‘zgarishlar va millat haqidagi tasavvurlarni arxiv hujjatlari hamda davr matbuoti asosida tahlil qiladi [5]. Bu tadqiqot o‘quvchi uchun tarixiy tushunchalar tayyor va o‘zgarmas emasligini ko‘rsatadi. “Millat”, “davlat” yoki “islohot” atamalarining mazmuni davr ishtirokchilari qo‘llagan ma’nodan kelib chiqib tekshirilishi kerak. Muallifning yondashuvi alohida hodisalarning sabablarini va ular yuzaga kelgan siyosiy muhitni qiyoslab o‘rganishga undaydi.

Natijalar. Tarixni davrlarga ajratish voqealarni tartibga solish uchun zarur, lekin davr chegaralari tabiatdagi aniq chiziq kabi mavjud emas. Siyosiy hokimiyat almashgan yil ijtimoiy munosabatlar ham shu kuni o‘zgarganini bildirmaydi. Sug‘orish usuli, savdo yo‘li, ta’lim tizimi yoki til amaliyoti turli sur’atlarda o‘zgaradi. Shu sababli O‘zbekiston tarixini o‘rgatishda siyosiy davrlashtirish bilan iqtisodiy va madaniy o‘zgarish ritmini bir-biriga majburan moslashtirishdan saqlanish kerak. Bu ilmiy yondashuv jarayonning davomiyligini va uzilishlarini alohida ko‘rsatadi [1, 3].

Sababiy tushuntirishda bir hodisani faqat bitta omil bilan izohlash ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Shaharlar rivojiga suv, hunarmandchilik, siyosiy

xavfsizlik va almashinuv tarmoqlari turlicha ta’sir qiladi. XIX–XX asr o‘zgarishlarini tushuntirishda ham mahalliy islohot tashabbuslari, imperiya siyosati, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jamiyat ichidagi munozaralar birga ko‘riladi [5]. Sabablar ro‘yxati tasodifiy sanalmasligi uchun har bir omilga tegishli dalil, uning qachon va qanday ta’sir qilgani ko‘rsatiladi.

Tarixiy qiyoslash foydali, ammo qiyoslanadigan birliklar aniq bo‘lishi kerak. Ikki davrdagi “shahar” tushunchasining ma’muriy yoki iqtisodiy mezoni farqlanishi mumkin. Shuningdek, bir vohaning tajribasini butun mamlakat hududining yagona yo‘li sifatida ko‘rsatish xatoga olib keladi. Samarqand, Farg‘ona, Xorazm va Surxondaryo manbalari o‘rtasida umumiylik bilan birga muhim tafovutlar ham bor. Hududiy qiyoslash tarixning ko‘p qatlamli manzarasini ochadi.

Tarix fani arxeologiya, antropologiya, tilshunoslik, geografiya, iqtisodiyot va san’atshunoslik bilan birga ishlaganda yangi savollarni qo‘yadi. Arxeologik qatlamning sanasi laboratoriya usullari bilan tekshirilishi, yozuvning tarqalishi til va maktab tarixi bilan bog‘lanishi, bozorlardagi almashinuv esa transport yo‘llari xaritasi orqali talqin qilinishi mumkin. Bunday hamkorlik har bir soha o‘z dalil mezoniga ega ekanini unutmaslikni talab qiladi. Bitta sohada taxmin bo‘lgan fikr boshqasida tasdiqlangan fakt sifatida ishlatilmasligi kerak.

Tarixiy geografiya hududdagi tabiiy sharoit bilan ijtimoiy qaror o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganishga yordam beradi. Daryo o‘zanining o‘zgarishi manzilgoh va sug‘orish tarmoqlariga ta’sir qilishi mumkin, ammo geografik omil inson tanlovini to‘liq belgilamaydi. Vohalarning tarixini faqat tabiat yoki faqat siyosat bilan izohlash o‘rniga ularning o‘zaro ta’siri tekshiriladi. Bregel atlasi va UNESCO jildidagi keng mintaqaviy ko‘lam bu masalani xarita hamda matn asosida qo‘yishga imkon beradi [3, 4].

Iqtisodiy tarix nuqtayi nazaridan yer va suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, soliqlar va mehnat tashkiloti alohida voqealardan ko‘ra uzoq muddatli o‘zgarishni ko‘rsatadi. Bu jarayonlarni o‘rganish bugungi iqtisodiy hodisalar haqida bevosita retsept bermaydi; u institutlar qanday tarixiy sharoitda shakllanganini tushunishga yordam beradi. O‘tmishdagi shaklni bugungi tizim bilan bir xil deb qabul qilish anaxronizmga olib keladi. Ilmiy foyda aynan davomiylik bilan o‘zgarish chegarasini ajratishdadir.

Tarixshunoslik tarix haqidagi asarlar qachon, kim tomonidan va qaysi ilmiy sharoitda yozilganini o‘rganadi. Bitta mavzuning turli davrlarda boshqacha talqin qilingani tarixning o‘zi “yo‘q” degani emas; yangi manbalar,

savollar va tadqiqot usullari xulosani boyitishi mumkin. Ba’zan siyosiy muhit ayrim savollarni cheklagan bo‘ladi. Shu sababli avvalgi asarni o‘qishda uning foydali faktlarini, usulini va talqin chegarasini alohida baholash zarur. O‘quvchi asarlar o‘rtasidagi farqni dalil bilan tushuntira olgandagina tarixiy bilim chuqurlashadi.

Masalan, XX asr boshidagi jadidchilikni faqat ma’rifiy harakat yoki faqat siyosiy harakat sifatida bir tomonlama tasvirlash materialning boshqa qirralarini chetga surishi mumkin. Davr matbuoti, mualliflarning asarlari, ta’lim muassasalari va ma’muriy hujjatlar birga o‘rganilganda fikrlar xilma-xilligi ko‘rinadi. Khalid monografiyasi shu davr uchun manbalar va siyosiy kontekstni birlashtirish namunasidir [5]. Uning natijalarini ham boshqa mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlar bilan qiyoslab o‘qish ilmiy odatdir.

Tarixiy bahsni hal qilishda muallifning obro‘si emas, savolga mos dalil va izohning tekshirilishi asosiy o‘rin tutadi. Manba ko‘rsatilmagan umumiy hukm, davrga begona tushunchani o‘tmishga qo‘llash yoki bir hudud tajribasini barcha hududga yoyish ehtiyotkorlik bilan qayta ko‘riladi. Bu mezonlar tarix fanining jamoatchilikdagi ishonchliligini ham oshiradi.

Raqamlashtirilgan qo‘lyozma, xarita va gazetalar tadqiqotchiga manbani topish hamda qiyoslashda yangi imkoniyat beradi. Qidiruv orqali bir atamaning qachon va qayerda qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Ammo skanerlangan tasvir avtomatik ravishda ishonchli transkripsiya degani emas. Matnni tanish dasturi eski imlo, zarar ko‘rgan sahifa va qo‘lyozma belgilarini noto‘g‘ri o‘qishi mumkin. Ilmiy foydalanishda asl tasvir, nashr tavsifi va saqlovchi muassasa haqidagi ma’lumot tekshiriladi.

Raqamli xaritada tarixiy joy nomlari va ma’muriy birliklar bugungi nomlar bilan mos tushmasligi mumkin. Shuning uchun manbaning davri va xaritaning tuzilgan sanasi alohida yoziladi. Bir asr ichida chegaralar bir necha bor o‘zgargan hududni zamonaviy xarita ustiga tushirish tushuntirish vositasidir, tarixiy davrning aynan o‘sha ko‘rinishdagi siyosiy xaritasi emas [4]. Raqamli qulaylik tarixiy kontekstni qisqartirmasligi kerak.

Talaba yoki tadqiqotchi uchun eng foydali amaliy mashq bitta da’voni kamida ikki turdagi manba bilan tekshirishdir. Masalan, voqea haqida gazeta xabari, rasmiy hujjat va keyingi xotira turlicha ma’lumot berishi mumkin. Farqni jadvalga ko‘chirish bilan cheklanmay, manbalarning nima uchun farqlanganini

izohlash ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Iqtibos, arxiv shifri yoki nashr sahifasini aniq ko‘rsatish esa boshqa tadqiqotchiga xulosani tekshirish imkonini beradi.

Muhokama

O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning ilmiy ahamiyati o‘tmish haqida ko‘proq ma’lumot bilishda emas, bilimning qanday tekshirilishini o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. Mavjud adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, keng davriy bayon, metodologik qo‘llanma, atlas va maxsus monografiya bir-birining o‘rnini bosmaydi [1–5]. Ularning har biri turli savolga javob beradi. Ta’lim va tadqiqotda shu farq tushuntirilsa, o‘quvchi bir matndagi hukmni yakuniy haqiqat deb qabul qilmay, uning dalil asosini so‘raydi.

Mintaqaviy o‘zaro aloqalarni ko‘rish O‘zbekiston hududi tarixini milliy tarix doirasida ilmiy o‘rganishga zid emas. Aksincha, mahalliy hodisani kengroq almashinuv, ko‘chish va siyosiy aloqalar tizimida izohlash uning o‘ziga xos tomonini aniqroq belgilaydi. Davrlashtirish, fanlararo ma’lumot va tarixshunoslikni birlashtirish ayni shu vazifaga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning chegarasi shundaki, u muayyan arxiv majmuasi yoki arxeologik qazishmani mustaqil tahlil qilmaydi; keyingi empirik tadqiqotlar uchun uslubiy savollarni tizimlashtiradi.

Xulosa

O‘zbekiston tarixi fanining ilmiy ahamiyati manbani tekshirish, tarixiy jarayonni makon va vaqt ichida tushuntirish hamda turli talqinlarni dalil asosida qiyoslash imkoniyatidadir. Mahalliy darslik umumiy davriy tasavvurni beradi, metodologik asar tadqiqot tartibini o‘rgatadi, xalqaro jild va atlas mintaqaviy aloqalarni ochadi, maxsus monografiya esa muayyan davr ichidagi murakkablikni ko‘rsatadi. Ularni birga o‘qish tarixiy bilimni puxtalashtiradi.

Fan samarasi tarixiy ma’lumotni yodlash bilangina cheklanmaydi. Manba kelib chiqishini aniqlash, qarama-qarshi dalillarni solishtirish va xulosaning chegarasini ko‘rsatish tadqiqot madaniyatini shakllantiradi. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda aynan shu yondashuv qadimgi davrdan eng yangi davrgacha bo‘lgan jarayonlarni aniqroq, tekshiriladigan va ochiq muhokama qilinadigan ilmiy bilimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sagdullayev A.S., Eshov B.J., Odilov A.A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. I kitob: Eng qadimgi davrdan XIV asr o‘rtalarigacha. Toshkent: NIF MSH, 2024. 622 b. ISBN 978-9910-793-29-5.

2. Mustafoyeva N. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 324 b. ISBN 978-9943-5488-3-1.

3. Asimov M.S., Bosworth C.E. (eds.). History of Civilizations of Central Asia. Vol. IV, Part One: The Historical, Social and Economic Setting. Paris: UNESCO Publishing, 1998.

4. Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden–Boston: Brill, 2003. ISBN 978-90-04-12321-6.

5. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca: Cornell University Press, 2015. DOI: 10.7591/cornell/9780801454097.001.0001.

SOVET QATAG‘ON SIYOSATI VA SAFO MUG‘ANNIY QISMATI

ESHCHANOVA MANZURA ARTIQBOYEVNA,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

UO‘K 94(575.171)"1900/1937"+929(575.171)(092)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida sovet totalitar tuzumi tomonidan amalga oshirilgan siyosiy qatag‘onlar siyosatining umumiy qamrovi va uning O‘zbekiston, xususan, Xorazm vohasidagi og‘ir oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada “Katta qirg‘in” davrining fojiali manzarasi, soxta ayblovlar mexanizmi hamda o‘z davrida xalq orasida “Xorazm bulbuli” deb e’tirof etilgan atoqli shoir, bastakor, hofiz va jamoat arbobi Safo Mug‘anniyning hayoti, ma’rifiy-ijodiy faoliyati va mustabid tuzum qurboniga aylangan fojiali qismati arxiv hujjatlari hamda tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Sovet qatag‘on siyosati, Katta qirg‘in, Xorazm vohasi, Safo Mug‘anniy, jadidchilik, qatag‘on qurbonlari, soxta ayblovlar, NKVD, san’atkor, arxiv hujjatlari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются общие масштабы политики политических репрессий, осуществленных советским тоталитарным режимом в 1920–1930-х годах, и их тяжелые последствия в Узбекистане, в частности в Хорезмском оазисе. На основе архивных документов и исторических источников освещаются трагическая картина эпохи «Большого террора», механизм фабрикации ложных обвинений, а также жизненный путь, творческая деятельность и трагическая судьба выдающегося поэта, композитора, хафиза и общественного деятеля Сафо Муганния, известного вроде как «Соловей Хорезма», ставшего жертвой репрессивной машины.*

Ключевые слова: *Советская репрессивная политика, Большой террор, Хорезмский оазис,*

Сафо Муганний, джадидизм, жертвы репрессий, фальсифицированные обвинения, НКВД, деятель искусства, архивные документы.

Annotation: *This article analyzes the general scope of political repressions carried out by the Soviet totalitarian regime in the 1920s–1930s and their severe consequences in Uzbekistan, specifically in the Khwarazm oasis. Based on archival documents and historical sources, the study highlights the tragic landscape of the "Great Purge" era, the mechanism of fabricated accusations, and the life, creative work, and tragic fate of Safo Muganniy—a prominent poet, composer, singer, and public figure widely known among the people as the "Nightingale of Khwarazm," who fell victim to the totalitarian regime.*

Keywords: *Soviet repressive policy, Great Purge, Khwarazm oasis, Safo Muganniy, Jadidism, victims of repression, fabricated accusations, NKVD, artist, archival documents.*

Kirish

O‘zbekiston tarixining XX asr davri, xususan, 1920–1930-yillar xalqimiz boshidan kechirgan eng og‘ir, murakkab va fojiali bosqichlardan biridir. Sovet totalitar tuzumi o‘zining mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, milliy o‘zlikni yo‘q qilish hamda jamiyatni to‘liq itoatkorlik ruhida boshqarish maqsadida keng ko‘lamli qatag‘on kampaniyasini amalga oshirdi. Bu siyosat o‘lkaning siyosiy-iqtisodiy hayotigagina emas, balki milliy genofondi, madaniyati va ma’naviyatiga ham tiklab bo‘lmas darajada ulkan talofat yetkazdi. Respublikaning barcha hududlari qatori Xorazm vohasi ham bu qora girdobdan chetda qolmadi. O‘z davrida xalq ardog‘ida bo‘lgan, “Xorazm bulbuli” deya e’tirof etilgan atoqli shoir, bastakor, hofiz va jamoat arbobi Safo Mug‘anniyning (Safo Ollabergan o‘g‘li) hayoti va fojiali qismati ana shu shafqatsiz tuzumning yorqin va achchiq timsolidir.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston tarixining 1920–1930-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, xususan, sovet totalitar tuzumi amalga oshirgan siyosiy qatag‘onlar va ularning o‘lka ziyolilari, ijodkorlari taqdiriga ko‘rsatgan salbiy ta’siri masalasi ko‘plab

tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur mavzuning ilmiy-nazariy asoslari, arxiv hujjatlari va xotiralar quyidagi asosiy adabiyotlar va ilmiy manbalar doirasida tahlil qilinadi: Bayoniy. “Shajarai Xorazmshohiy”, Polvonniyoz Hoji Yusupov.”Yosh xivaliklar tarixi”, Qo‘shjonov, N.Popvonov. “Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar”, Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad. “Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi”, Naim Karimov. “Qurbon Beregin qismati”, B.Irzayev.“O’zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan”, B.Irzayev, Yu.Rahmonova.”Xorazm viloyati Xotira kitobi”.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolaning yozilishida tarixiy hodisa va jarayonlarni xolisona, ilmiy asosda hamda kompleks yondashuv asosida yoritish talablariga rioya etildi. Tadqiqotning bosh maqsadi — XX asrning 20–30-yillaridagi sovet qatag‘on siyosatining umumiy qonuniyatlarini ochib berish va shu zaminida Xorazm vohasining fidoyi san’atkori, “Xorazm bulbuli” Safo Mug‘anniyning fojiali qismatini arxiv hujjatlari hamda tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdir.

Tahlil va natijalar

Sovet hokimiyatining repressiya mashinasi rejim o‘rnatilgan ilk kunlardanoq — 1917-yil dekabrida tuzilgan VCHK (Butunrossiya Favqulodda Komissiyasi) faoliyati bilan boshlangan edi. Biroq bu qonli siyosat ayniqsa 1937–1938-yillarda o‘ta shafqatsiz tus olib, tarixga “Katta qirg‘in” nomi bilan kirdi. Bu davrda davlat arboblari, ijtimoiy fanlar va madaniyat namoyandalari, harbiylar, ishchi va dehqonlar soxta ayblovlar bilan qamoqqa olindi yoki otib tashlandi[1].

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, “Katta qirg‘in”ni amalga oshirish g‘oyasi va qatl etilishi lozim bo‘lgan shaxslar ro‘yxatini tuzish amaliyoti 1936-yilning ikkinchi yarmidayoq Stalin va uning safdoshlari tomonidan boshlab yuborilgan edi. SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1934-yil 1-dekabrdagi qaroriga muvofiq, tergov jarayonlari soddalashtirilib, sud yig‘ilishlari tomonlarning ishtirokisiz va guvohlarsiz o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu esa oldindan tayyorlangan soxta ro‘yxatlar asosida ommaviy qamoqqa olishlarga keng yo‘l ochdi[2].

[1] Naim Karimov. 1937-1938 yillardagi “Katta qirg‘in”ning fojiali oqibatlari. T.2015. 3-bet.
[2] Naim Karimov. Qurbon Beregin qismati. T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. 4-5-betlar.

O‘zbekistonda ham markazda bo‘lgani kabi partiya, sovet va xo‘jalik tashkilotlarining barcha rahbar xodimlari, jumladan, Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromovlar qatag‘on qurboni bo‘ldilar. Respublikaning ikki rahbarining qamalishi ortidan NKVD organlari ularning xizmatdoshlari, qarindoshlari va hatto ulug‘lagan har bir oddiy fuqaroni “xalq dushmani” sifatida ta’qib qila boshladi.

XX asrning boshlarida Xorazmda ham jadidchilik harakati keng yoyilgan bo‘lib, u asosan ikki yo‘nalishda olib borildi: keskin siyosiy harakatlar bilan monarxiyani ag‘darishga intilganlar va xalqni ma’rifatli qilishni o‘z oldiga maqsad qo‘ygan ziyolilar.

Safo Mug‘anniy Xorazm jadidlarining ma’rifatparvarlik va madaniy-ma’rifiy yo‘nalishidagi faol vakillaridan biri edi. Bolsheviklar ko‘magida Xiva xonligi ag‘darilgach, u “Yosh xivaliklar” hukumatini qo‘llab-quvvatladi va jamiyatni isloh qilish ishlarida faol qatnashdi. 1921-yilda kommunistik partiyaga a’zo bo‘lib kirdi, XXSR Maorif nozirligida madaniyat boshqarmasi boshlig‘i, Hazorasp partiya qo‘mitasi kotibi va Xorazm okrug Yer sho‘basining raisi kabi mas’ul lavozimlarda xizmat qildi. Biroq ko‘p o‘tmay sovet hokimiyatining asl mustamlakachilik qiyofasi namoyon bo‘la boshladi. Yer-suv islohotlari bahonasida boy-badavlat kishilar qatori Safo Mug‘anniy ham o‘zining Gandimiyon qishlog‘idagi yerlari va mol-mulkini davlatga topshirishga majbur bo‘ldi. 1929-yilda boshlangan siyosiy “tozalashlar” davrida u xon saroyida ishlaganlikda va “yot unsur” ekanligida ayblanib, partiya safidan va barcha rahbar lavozimlaridan chetlatildi[1].

Partiya safidan haydalganidan so‘ng Safo Mug‘anniy o‘zining butun hayotini san’atga va ma’rifatga bag‘ishladi. 1929–1937-yillarda Xorazm okrug teatrida rejissyorlik qildi, o‘qituvchilik bilan shug‘ullandi. Qadimiy Xorazm xalq qo‘shiqlari, maqom va terma namunalarini to‘plab, yosh ijrochilarga o‘rgatdi. Hatto jahon sahnalari malikasi Tamaraxonim repertuaridagi o‘nlab xalq qo‘shiqlari aynan Safo Mug‘anniydan yozib olingan edi. Uning fidokorona mehnati munosib baholanib, 1936-yilda O‘zbekiston hukumatining “Mehnat qahramoni” ordeni bilan taqdirlandi[2].

Lekin bu e’tirof uzoqqa cho‘zilmadi. 1937-yil 27-avgustda Safo Mug‘anniyni qamoqqa olish haqida order berildi. Ertasi kuni uning Urganch

[1] B.Irzayev, Yu.Rahmonova.”Xorazm viloyati Xotira kitobi”. Toshkent. Akademnashr. 2019. 121-128-betlar.
[2] Erpo’lat Baxt.”yohud singan setor sohibi”. https://uzhurriyat.uz/2025/06/18/safo-muganniy/.

shahridagi uyida tintuv o‘tkazilib, barcha qo‘lyozmalari va mulklari xatlandi. Unga nisbatan soxta ayblovlar qo‘yilib, go‘yoki “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi va Trotskiy hamda Buxarinlarning g‘oyaviy izdoshi sifatida ko‘rsatildi. Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromovlar Xorazmga tashrif buyurganlarida Safo Mug‘anniyning ularni kutib olib, qo‘shiq kuylagani hamda rahbarlar tomonidan unga sovg‘a qilingan musiqa asboblari tergovda unga qarshi “dalil” qilib ishlatildi. Hech qanday mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan bu bo‘htonlar asosida Xorazm IIXK qoshidagi “uchlik” unga 10 yil muddatga mehnat tuzatish lageri (MTL) jazosini tayinladi. San’atkor 1939-yilda Sirdaryo viloyatidagi “1-Malik” sovxozidan O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev nomiga yozgan arizasida o‘zining mutlaqo begunoh ekanini, tergov adolatsiz olib borilganini va 22 oydan buyon qiynoqqa solinayotganini bayon qilgan bo‘lsa-da, uning bu haqsizlikka qarshi haqqoniy sadosi jazirama cho‘l va lager devorlari ichida javobsiz qolib ketaverdi[1].

“Xorazm jadidchiligi yoxud Safo Mug‘anniy” kitobida yozilishicha Safo Mug'anniyning jazoni o‘tagan oxirgi yeri yoxud uning so'nggi manzili haqida uning ishi asosida biror bir aniq gap aytish qiyin. Biroq 1941 yil 20 fevral sanasi bilan ishga tikilgan ma'lumotnoma Yaroslavl viloyati, Ribin tumani, Voljskiy MTLdan №157678 raqamli mahbus Safo Mug'anniy haqida berilgan.

Yuqorida biz tilga olgan “Xorazm jadidchiligi yoxud Safo Mug‘anniy” publitsistik maqolalar kitobida ma’lumot berilishicha 1957 yil 25 noyabr kuni Safo Mug'anniyning kichik qizi, o’sha paytda Urganch pedagogika instituti talabasi Roza Safoyeva O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sh.Rashidovga yozgan arizasini "Otam Safo Mug'anniy 1937 yil qamoqqa olinganida 10 yoshda edim. Onamiz ham oradan bir yil o'tmay vafot etdi", deb boshlaydi. U otasining qamalishi sabablarini so'raydi va oqlanishida yordam berishini iltimos qiladi. Shundan so'ng haqiqiy ma'noda qayta tekshirishlar boshlab yuboriladi va Xorazm viloyat sudi 1958 yil 19 aprel kuni Safo Mug'anniy ishini ko'rib, uni oqlab chiqadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Sovet qatag‘on siyosati O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga bitmas-tuganmas jarohatlar yetkazdi. Bu qonli to‘lqin faqatgina siyosiy arboblar bilangina cheklanib qolmay, xalqning madaniy qatlamini

[1] Umid Bekmuhammad va b. “Xorazm jadidchiligi yoxud Safo Mug‘anniy”. / Iqbol Mirzo, Umid Bekmuhammad, Ro‘zimboy Hasan, Erpo‘lat Baxt, Bahrom Irzayev Urganch: "Xorazm yoshlari" nashriyot-matbaa uyi, 2025. 63- bet.

tashkil etuvchi Safo Mug‘anniy kabi fidoyi san’atkorlar va ma’rifatparvarlarning ham yostig‘ini quritdi. “Xorazm bulbuli”ning fojiali qismati mustabid tuzumning haqiqiy qiyofasini, inson huquqlari va erkinliklarini poymol qilgan totalitarian siyosatining naqadar vahshiy bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. Bugungi kunda qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularning pok nomini tiklash va jasoratini yosh avlod ongiga singdirish milliy o‘zligimizni anglash hamda tinchlikning qadriga yetish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov. 1937-1938 yillardagi “Katta qirg‘in”ning fojiali oqibatlari. T.2015. 3-bet.

2. Naim Karimov. Qurbon Beregin qismati. T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. 4-5-betlar.

3. B.Irzayev, Yu.Rahmonova.”Xorazm viloyati Xotira kitobi”. Toshkent. Akademnashr. 2019. 121-128-betlar.

4. Erpo’lat Baxt.”yohud singan setor sohibi”. https://uzhurriyat.uz/2025/06/18/safo-muganniy/.

5. Umid Bekmuhammad va b. “Xorazm jadidchiligi yoxud Safo Mug‘anniy”. / Iqbol Mirzo, Umid Bekmuhammad, Ro‘zimboy Hasan, Erpo‘lat Baxt, Bahrom Irzayev Urganch: "Xorazm yoshlari" nashriyot-matbaa uyi, 2025. 63- bet.

UMR-IPGA TERILGAN MARJON

Nurullayeva Shoira Kushnazarovna – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tarix kafedrasi professori.

“Har qanday yaxshi yashalgan umr-uzoq umridir”. Leonardo da Vinchi.

“Ayol-fazilati bilan go`zal”. Muqaddas Abdusamatova.

“O`zbek ayoli—odob timsoli”. Xotima Shayxova.

Barcha yuqoridagi fikrlar qaxramonimiz E’tibor Sultanovaga tegishlidir. 1951 yili 18 oktyabr kuni Toshkent shaxrida tug`ilgan bu ayol -oliy ma’lumotli olima, falsafa fanlari nomzodi, siyosiy fanlari doktori, professor,r espublikamizdagi nufuzli Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetda ilk kundan beri ishlab kelmoqda. Bugungi kunda 75 baxorni nishonlamaqda. Ammo siz ularga ko`pi bilan 55 yosh berasiz,chunki butun xayot davomida serqirrali faoliyat olib boradilar,hamisha yoshlar kabi g`ayratlidirlar, xarakatdadirlar. Natijada-umr davomida unutilmas terilgan marjon kabi vokealar, yutuqlarga egadirlar

Keling, ba’zilari to`grisida eslasak.

Maktabda a’lo darajada o`qib yurgan xolda maqolalarni o`sha davrda dozarb bo`lgan “Pioner Vostoka” gazetasida 5-8 sinflarda muxbir bo`lgan va iqtidorli, faol muxbir sifatida 1966 yili O`zbekiston vakili sifatida (Всесоюзный лагерь “Artek”) Butun Ittifoqdagi “Artek” lageriga Uchinchi yosh muxbirlar slyotiga borishga mukofot sifatida, muvaffaq bo`lgan. Kelganidan so`ng O`zbekiston televideniyesida Yosh muxbirlar maktabini olib borgan. Nomi juda jaranglagan edi- “Колокольчик-Qo`ngiroqcha”-har oyda bir marta yil davomida u bo`lajak muxbirlarga she’r maqola yozish san’ati borasida suxbatlar o`tkazar, taniqli shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, bugungi ibora bilan Tok-shoular o`tkazar edilar.

1968-1973 yillarda Toshkent davlat universitetining (bugungi Milliy universitet) filologiya fakultetida o`qigan. Bu yerda xam talabalar jamoat ishlarida faol qatnashgan, turli chet eldan kelgan mexmonlarga O`zbekiston tarixi, madaniyati, ta’lim soxalardagi yutuqlari to`grisida rus va nemis tilida aytib berardi. Jamoatchilikda faollik bilan birga “falsafa” fanini chuqur o`rgangan, turli universitet va Ittifoqdagi anjumanlarda Birinchi o`rinlarni qo`lga kiritib, natijada Universitet raxbariyati tomonidan “Falsafa” yo`nalishida barcha kurslarda faol bo`lganini inobat olib “Falsafa “yo`nalishi bo`yicha

aspiranturaga yo`llanma oldi. Natijada 1983 yili “nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va “Falsafa fanlari nomzodi”ilmiy darajasini oldi.

Mexnat faoliyatini (aspiranturani sirtdan o`qigani uchun) o`rta maktabda (Xamza tumani (xozirgi Yashnabod)212 maktabda 1973-1979 yildan boshladi. U filolog sifatida rus, o`zbek tilidan, faylasuf sifatida “jamiyatshunoslik” fanlardan dars berar, iqtidorli yosh o`qituvchi sifatida tuman ta’lim boshqarmasida “Xurmat taxtasida“ suratlari turgan.

1980-1993 yillarda Toshkent transport muxandislar institutining”Ijtimoiy-gumanitar fanlar “kafedrasi assistenti, 1986-1993 yillarda dotsent bo`lib ishladi. 1993 yili Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya ochilganda, iqtidorli, malakali ustoz sifatida, bu yerga taklif etildi va oldin Universitet qoshidagi Marketing Bo`lim boshlig`i, keyin “Siyosatshunoslik”, ”Xalqaro munosabatlar” kafedralar dotsenti bo`lib ishladi. Shu bilan birga o`rindoshlikda 1998-2000 yillarda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasining “Tashqi siyosat va diplomatiya “ kafedrasi professori, kafedra mudiri sifatida faoliyat olib bordi.

1999-2006 yillargacha Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Siyosiy marketing” “Tashqi siyosat va diplomatiya “kafedralar mudiri bo`lib ishladi. Darslar berish bilan bir qatorda ilmiy ishlar bilan shug`ullangan. 2006 yili “Ayol davlat strategiyasida global muammo sifatida” nomli doktorlik dissertatsiyani himoya qilib “Siyosiy fanlar doktori “ilmiy darajaga ega bo`ldi. O`z ustida ishlab, jamoatchilik ishlarida faollik ko`rsatishni to`xtamadi: 1995 yildan Toshkent shahar Xotin qizlar qo`mitasi qoshidagi “Olima” uyushmasi a’zosi, raisi, ”Zulfiya “nomidagi Davlat Mukofoti komissiyasining ilm-fan yo`nalishi bo`yicha komissiya a’zosi, 2015 yildan O`zbekiston “Nuroniy jamg`armasining “Olimlar “uyushmasi a’zosi, Mirzo Ulugbek tumani Oila va Xotin qizlar qo`mitasi qoshidagi “Olima “uyushma raisi, JIDU xotin-qizlar Kengashi raisi, 2023 yildan Respublika “Oqila ayollar“ harakati a’zosi.

Olima Shanxay Xamkorlik Tashkiloti qoshidagi “Xalq diplomatiya” Markazi faoliyatida 2019 yildan qatnashib kelmoqda va ayollar, yoshlar o`rtasida turli forumlar, davra suxbatlarni o`tkazib kelmoqda. 2022 yilda ilk bor Toshkent shaxridagi oliy o`quv yurtlar orasida ShXT ayollarni Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ayollar ishtirokiga bag`ishlangan Xalqaro anjumanni Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ShXT “Xalq diplomatiya” Markazi bilan xamkorlikda o`tkazdi.

Olima TDT borasida ekspert sifatida qatnashib kelmoqda.

Bulardan tashqari, butun pedagogik faoliyatida E’tibor Sidikovna nafaqat talabalar magistrantlar bilan, balki doktorlik ishlarga rahbarlik qilib kelmoqda. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O`zbekiston Milliy universiteti Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, O`zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutining doktorlik ishlar himoyalari borasida Ixtisoslashgan kengash a’zosi sifatida yosh olimlarni tayyorlashda munosib xissa qo`shib kelmoqda.

E’tibor Sidikovna munosib xissalari diplomatik kadrlarni tayyorlashda xam AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Quvayt kabi Tashqi ishlar vazirligidagi bir qator vakillari ularning shogirdlaridir.

O`quv ishlarini olib borishda qator fanlar borasida o`quv qo`llanmalar dasturlar tayyorladilar. Jumladan, “Siyosatshunoslik asoslari”, ”Siyosiy konfliktologiya”, ”Siyosiy marketing”, ”Siyosiy madaniyat”, ”Siyosiy texnologiyalar”, ”O`zbekiston-ijtimoiy davlat”, ”Siyosiy institutlar va jarayonlar”. E’tibor Sidikovna qator ushbu fanlar nuqtai nazardan nufuzli jurnallarda maqollalarni chop etmoqdalar. Jami 200 dan oshiq ilmiy ishlari mavjud. Shuni inobatga olib Turon Fanlar Akademiyasining akademigi ilmiy unvoniga 2024-yili ega bo`ldi.

E’tibor Sidikovna yuqori darajada, mehr bilan o`z kasblariga, vazifalarga munosabatdadirlar. Mehnatlarining natijalari “20 yil davomida “O`zbekiston”, ”O’zbekiston 24”, Yoshlar”, ”Sevimli“ telekanallar orqali chiqishlarida namoyon etilib kelinmoqda.

Barcha jamoatchilikda olib borilayotgan ishlari munosib taqdirlanmoqda. Jumladan, “Birinchi darajali Mexnat Faxriysi”, ”Mo’tabar ayol”, “Xalq diplomati“ ko`krak nishonlariga egalar.

E’tibor Sidikovna barcha faoliyatlari natijalarini oila a’zolari bilan o`rtoqlashadilar. Turmush o`rtoqlari akademik Fozil aka bilan birga 2 o`g`il va 6 nabirani maslaxatdoshlaridir. Ularning mehnatlarini Uchtepa, Foziltepa mahalla ahli ham yuqori darajaga ko`tardilar va “Ibratli oila “sohiblari deb ko`krak nishonga loyiq ko’rdilar. 2026 yili O`zbekiston Mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan ko`krak nishoniga ega bo`ldi. Bir necha yildirki, O`zbekiston Volontyorlar Akademiyasining siyosiy maslahatchisidirlar.

Bu E’tibor Sidiqovna to`grisidagi asosiy, eng yirik, ma’lumotlardir. O`ylaymizki, bular xayotlari va qilgan ishlari, yoshlarimizga ibrat durdonalaridir.

ANDIJON ETNOLOGIYA MAKTABINING ASOSCHISI

Nurullayeva Shoira Qo‘shnazarovna - Respublika Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasi dotsenti

Azal-azaldan xalqimiz ustozlarni hurmatlab, o‘z farzandini tarbiyali va ilmli qilishdek sharafli vazifani ularga ishonib topshirib kelgan. Ustoz so‘zi nihoyatda keng tushuncha bo‘lib, shogirdiga ilm, hunar o‘rgatgan, tarbiya bergan, ularga hayot yo‘llarida to‘g‘ri yo‘ldan borishni o‘rgatgan insonlar xalqimiz tomonidan ustoz deya ulug‘lanadi. Murg‘akkina qalblarga qalb qo‘ri, yurak mehri va ongiy sezgilar bilan ilm o‘rgatuvchi ustozlar shogirdlar ardog‘i va ota-onalar hurmatiga sazavor bo‘lib, qadr topadilar. Elda aziz insonlarga aylanadilar. Meni birinchi marta universitetda fan olamiga olib kirgan ustozlarim prof.Telman Qosimovich Xodjayov, prof. Iso Murodovich Jabborov, dotsent Tursun O‘sarovich Salimov, prof. Abdujabbor Kabirov, akademik Anatoliy Sagdullayev kabi ustozlarim bo‘lsa, ilmiy tadqiqot ishiga yo‘naltirgan ustozlarim prof. Isxokov, t.f.n. Abdulla Abdurasulov, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, t.f.n., dotsent Hojakmet Yesbergenovdir. Bu ustozlar ilm-fan darg‘alari bo‘lib, ularning ko‘pchiligi afsuski bu yorug‘ olamni tark etgan. Men ustoz Ulug‘bek Saydanovich Abdullayevni ko‘rganimda shu ustozlarimning asl davomchisi ekanliklarini angladim. Elda aziz, ilmli va zakovatli, sharaf va hurmat topgan etnolog olim, ustozim professor Ulug‘bek Saydanovich Abdullayevni birinchi marta ilmiy ishim himoyasida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining Ixtisoslashgan ilmiy kengashida 2012 yil 16 fevral kuni mening ilmiy ishimga rasmiy opponent bo‘lganlarida ko‘rgan edim. Shunda ilmiy ishimni juda puxta va yaxshilab o‘rganib, ilmiy taqriz bergan edilar. Taqrizda ko‘rsatilgan kamchiliklar va tavsiyalaridan monografiyamni nashr qilganda unumli foydalandim. Shunda ustozning keskin va qat’iy ma’ruzalaridan bir ozgina cho‘chigan ham edim. Oradan yillar o‘tib ustozning Xorazmga kelishi va menga ilmiy tadqiqot ishimni boshlash zarurligini aytganlarida hursand bo‘lib ketdim. Ustozning ilmiy rahbarligida hozirgi kunda “Xorazm vohasi an’anaviy kiyim-kechak va taqinchoqlari etnografik manba sifatida (Xorazm vohasi misolida)” mavzusida ilmiy tadqiqot ishi olib bormoqdaman. Abdullayev Ulug‘bek Saydanovich ilmiy faoliyati davomida Farg‘ona vodiysidagi an’anaviy etnik va etnoslararo jarayonlarni o‘rganib kelmoqda. Ustoz sermahsul ijodkor. Bugungi kunga qadar

uning qalamiga mansub Farg‘ona vodiysi etnografiyasiga oid 100 dan ortiq ilmiy maqolalar, 10 ga yaqin monografiyalar chop etilgan. Xususan, *Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar* (2005); *Farg‘ona vodiysi aholisi: etnik tarkibining shakllanishi va etnomunosabatlar tarixi* (2016); *O‘zbekiston tarixidagi etnik atamalar* (2018); *O‘zbekiston tarixidagi etnonimlar* (2020); *O‘zbekiston tarixidagi etnonimlar va etnosiyosiy jarayonlar (qadimgi davrlardan hozirgi kungacha)* (2022); *O‘zbekiston tarixining etnnik masalalari* (2024); *O‘zbekiston hududida etnik va etnoslararo jarayonlar: tarixi va evolyutsiyasi* (2025) kabi asarlar ustoz qalamiga mansub. Aslida har qanday kuchli inson shakllanishida uning orqasida bilimli va kuchli salohiyatli ona turadi. Buni ustozimning onalari Sanobar aya haqida ham haqli ravishda shuni aytish mumkin. Ularning yoshligida aytgan so‘zlari va o‘gitlari bilan ustozning ilm yo‘lini tanlashiga sababchi bo‘lganlar. Ustoz Ulug‘bek Saydanovichning oilasi ziyoli, olimalardan. Turmush o‘rtog‘i Abdullayeva Nasibaxon tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajaga va dotsent ilmiy unvonga ega. Doimo ustoz bilan birgalikda farzandlarining kelajagi uchun birgalikda harakat qiladilar, o‘g‘illari Jaxongir Abdullayev tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega. Shirintoy nevaralarning baxtli bobo va buvilaridir.

Ustoz nafaqat ilm o‘rgatadi, balki o‘rgatish jarayonida o‘zi ham bilimini yangi ma’lumotlar bilan boyitib, o‘rganib boradilar. Chunki shogird ustozdan o‘z bilganidan ko‘p va yangi ma’lumotlar ololmasa, unda e’tiborsizlik va loqaydlik boshlanadi. Loqayd shogirddan esa o‘z kasbining to‘laqonli ustasi chiqishi mumkin emas. Shu tufayli shogird tarbiyalamoq oson ish bo‘lmasdan buning uchun kuchli iroda, metindek sabr va har qanday holatga yechim topa olish san’ati ya’ni zukkolik talab etiladi. Ustoz o‘z shogirdini yaxshi bilmasa, uni tushuna olmasa, unga o‘z tarbiya va bilimini yetkazib bera olmaydi. Inson uchun necha yillar davomida zaxmat chekib topgan noni-tuzi, erishgan baxti va yutuqlari nihoyatda qadrli, chunki u shu kunga yetib kelguncha qancha aziyat chekkan, qancha turmush qiyinchiliklarini boshidan kechirgan. Shu singari o‘qitgan va tarbiya bergan ustozi uchun shogird ham qadrlidir. Ulug‘bek Saydanovich Abdullayev ilmiy raxbarligida bugungi kunga qadar 10 nafar tadqiqotchi o‘z dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli ximoya qilgan. 10 dan ortiq mustaqil izlanuvchilar esa uning raxbarligida dissertatsion tadqiqot olib bormoqdalar. U 50 dan ziyod dissertatsiyalarga rasmiy opponentlik qilgan.

Ustoz hozirda Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan Termiz va Qarshi davlat universitetlaridagi ixtisoslashgan Ilmiy Kengash a’zosi hisoblanadi.

Men ilmli, tarbiyali, kamtar insonlarni mevali daraxtga qiyoslayman. Ular qancha ilm egallamasin, mansab pillapoyalaridan ko‘tarilmasin, baribir insonlarni ko‘rganda boshlarini egib, qo‘li ko‘ksida xushmuomilalik bilan hech kimni dilini og‘ritmaslikka, qo‘llaridan kelgancha insonlar o‘rtasiga yaxshilik urug‘larini sepishga harakat qiladilar, shuning uchun ham hurmatga loyiqdirlar. Asli bu kabi insonlar oilada yaxshi tarbiya ko‘rgan va ilmli, ma’naviyatli, ilmni nafaqat o‘qigan, balki uqqan ustozlarning shogirdlaridir. Fikri teran, aqli uyg‘oq, o‘zi xushyor insonlar hayoti davomida faqat o‘zgalarga yaxshilik istab yashash, qo‘lidan kelgancha savob ishlar qilish uchun o‘z vaqti va umrini ayamaydilar. Shunday ustoz tarbiyalagan shogirdlar esa ustozlari izidan borib yurti va xalqiga foydasi tegadigan, o‘zining yuksak axloqi va ma’naviyati bilan o‘zgalarga o‘rnak bo‘ladigan shaxs bo‘lib yetishadilar. Ustozimning tarbiyalagan shogirdlari ham anashunday oliyjanob insonlar bo‘lib, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ijodiy kamolot sari odimlamoqdalar. Mamlakatimizda ma’naviyatli va yuksak axloqli fuqarolar soni ko‘payar ekan, bunday yurtning kelajagi buyuk bo‘ladi.

Ustozimiz bergan o‘gitlari, ularning ilm-fan borasidag mulohazalari, hayotiy tajribalari biz shogirdlar uchun nihoyatda qadrli. Aziz ustozim Ulug‘bek Saydanovich! Biz shogirdlar siz kabi serqirra ijod sohibi, kuchli etnolog va chinakam fidoiy insonnin shogirdi ekanligimizdan yuksak faxrdamiz va albatta, Sizday elparvar, xalqimiz sevgan ustozga loyiq bo‘lishga, ishonchingizni oqlashga va’da beramiz. Qutlug‘ 70 yoshingiz muborak bo‘lsin. 100 yoshga kirib, tavallud kunini nishonlaganingizda yoningizda barcha yaqinlaringiz va bizga ham Sizni tabriklash nasib qilsin.

FILOLOGIYA

NAMANGAN NOMSHUNOSLIK MAKTABINING SINCHI DARG‘ASI

(Filologiya fanlari doktori, professor Nosirjon Muhammadaliyevich Uluqov tavalludining 60 yillik yubileyiga)



Inson umrining qadr-qimmati uning nechta yil yashaganida emas, shu yillarni qanday mazmun bilan o‘tkazganida, ortidan qanday ezgu iz va ilmiy meros qoldirganida namoyon bo‘ladi. Kimdir umrini faqat o‘zi uchun yashaydi, yana kimdir esa o‘z umri davomida ilmiy maktab yaratadi, yuzlab shogirdlar tarbiyalaydi, el-yurt ma’naviyatini boyitishga xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida onomastika, xususan, toponimika va gidronimika sohalari haqida so‘z ketganda, filologiya fanlari doktori, professor Nosirjon Muhammadaliyevich Uluqovning nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Ushbu yilda Ustoz Nosirjon Muhammadaliyevich qutlug‘ 60 yoshni – navqiron va kamolot yoshini qarshi olmoqda. Bu sana faqat shaxsiy yubiley yoki shunchaki bir raqam emas, u olimning ko‘p yillik sermahsul ilmiy-pedagogik faoliyatini, ona tilimiz rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini va bosib o‘tgan ibratli umr yo‘lini sarhisob qilish uchun munosib imkoniyatdir.

O‘zbek xalqining qadimiy til tarixida *uluq* (ulug‘) so‘zi “buyuklik, yuksaklik va hurmat” ma’nolarini anglatib kelgan. Professor Nosirjon Uluqovning bobolari ismi orqali saqlanib kelayotgan ushbu qadimiy turkiy ildiz go‘yo olimning taqdiriga ham muhrlangandek: u ma’rifat, fidoyilik va ilmiy e’tiqod yo‘lini tanlab, zabardast olim va fidoiy ustoz darajasiga ko‘tarildi.

Nosirjon Ustoz kamolot bosqichi oddiy o‘qituvchilikdan ulkan ilmiy maktab yaratgan professorlikgacha bo‘lgan sharafli yo‘lni bosib o‘tgan. Bugungi olimimiz 1966-yil 25-noyabrda Namangan viloyatining xushmanzara Chortoq tumani Koroskon qishlog‘ida Muhammadali aka oilasida tavallud topgan. Yoshligidanoq ilm-fanga, kitobxonlikka va tilning sirli olamiga bo‘lgan ishtiyoqi uni doimo oldinga undadi. 1983-yilda Chortoq tumanidagi 3-o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagani uning ilm yo‘lidagi ilk katta zafari edi. Shundan so‘ng Namangan davlat pedagogika institutining (hozirgi Namangan davlat universiteti) o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olib, uni imtiyozli diplom bilan tugatdi. Uning mehnat faoliyati 1987-yilda oddiy maktab o‘qituvchisi sifatida boshlandi. 1992-yildan uning hayoti Namangan davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi bilan uzviy bog‘landi.

Oddiy o o‘qituvchilikdan professorlik darajasiga qadar bo‘lgan bosqichlar ortida yillar davomidagi izchil mehnat, kecha-yu kunduz qilingan izlanishlar va yuksak mas’uliyat yotadi. Ustoz oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida qator mas’uliyatli vazifalarni sharaf bilan bajarib keldi. Jumladan, kafedra mudiri, fakultet dekani, Malaka oshirish instituti prorektori va rektori, Ixtisoslashgan Ilmiy kengash raisi va OAK (VAK) eksperti kabi.

Olimning ilmiy dunyoqarashi shakllanishida atoqli o‘zbek tilshunosi, milliy antroponimikamizning tom ma’nodagi darg‘asi, professor Ernst Begmatov va u yaratgan ilmiy maktabning ta’siri hamda o‘rni beqiyos bo‘ldi. Ustozidan singdirilgan ilmiy talabchanlik, manbalarga chuqur suyanish, har bir lisoniy dalilni qadrlash va ilmiy haqiqatga sadoqat bo‘lajak olim faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Nosirjon Uluqovning ilmiy izlanishlari o‘zbek tilshunosligining eng munozarali va murakkab sahifalarini yoritishga qaratilgan. Xususan, uning ilk ilmiy qadami diniy matnlar leksikasi bilan bevosita bog‘liq edi, ya’ni 1997-yilda ustoz Ernst Begmatov rahbarligida “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu tadqiqot olimning til va madaniyat munosabatiga, milliy-madaniy va diniy mazmun tashuvchi o‘zlashma va ekzotik qatlam birliklariga bo‘lgan teran ilmiy nigohini namoyon etdi.

Olimning ilmiy faoliyatidagi eng muhim burilish va yuksak marra – o‘zbek gidronimikasidagi yangi sahifa – 2010-yilda (monografiya sifatida 2008-yildan) “O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi” mavzusida muvafaqqiyatli himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasidir. Farg‘ona vodiysidagi 6,5 mingga yaqin suv obyekti nomlarini (gidronimlarni) yig‘ish,

ularni mukammal tizimlashtirish va lisoniy tahlildan o‘tkazish milliy tilshunosligimizda misli ko‘rilmagan voqelik bo‘ldi. Olim geografik obyekt nomlari sanalgan gidronimlarni xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiat bilan uyg‘unligi va nominativ madaniyatini saqlab kelayotgan lisoniy xazina sifatida tadqiq etdi. Uning ushbu ishi bugun ham tarixchilar, geograflar, etnograflar va madaniyatshunoslar uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ustoz Nosirjon aka gidronimikadan tashqari geortonimlar, toponimlar, antroponimlar hamda gemeronimlarni tadqiq etishga doir bir qator salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Ustoz E.Begmatov bilan hammualliflikda yaratilgan “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati” soha terminologiyasini tartibga solishda tayanch manbaga aylandi. Shuningdek, u 2022-yilda chop etilgan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” mualliflaridan biridir. Olimning izlanishlari bugunga kelib, xalqaro miqyosga ham keng yoyildi. Jumladan, Turkiyaning Egey universiteti bilan hamkorlikda xalqaro onomastika simpoziumlari tashkil etildi. 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek va turk geortonimlarining lingvokulturologik hamda etnolingvistik tadqiqi” mavzusidagi xalqaro fundamental loyihaga rahbarlik qilishi va ushbu mavzuda yirik monografiya chop etilishi olimning turkiy onomastika rivojiga qo‘shayotgan xalqaro hissasidir. Mazkur tadqiqotda ideonimlar, bayramlar, xotira kunlari, sayillar hamda milliy-madaniy urf-odatlar bilan bog‘liq geortonimik birliklar har ikki til materialida har taraflama tahlilga tortilgan. Hozirgi kunda ham Ustoz ilmiy izlanishdan to‘xtagani yo‘q – u Buyuk Sohibqiron va Boburiylar davri yodgorligi bo‘lmish “Boburnoma”dagi tarixiy toponimlar va joy nomlari talqini bo‘yicha yangi fundamental tadqiqotlarni davom ettirmoqda.

Nosirjon Uluqov – sermahsul ijod va ilmiy-pedagogik meros egasi! Ustoz – o‘zbek filologiyasida mahsuldor va serharakat olim sifatida nom qozongan. Uning qalamiga mansub nashrlar ko‘plab talaba va izlanuvchilarning kundalik stolustu kitobiga aylangan. Masalan, “O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi”, “Gidronimik indikatorlarning lisoniy tadqiqi”, “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek va turk geortonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili” kabi monografiya va lug‘atlari; “Tilshunoslik nazariyasi”, “Turkiy filologiyaga kirish”, “O‘zbek terminologiyasi”, “Ona tili madhi”, “Nutq madaniyati talqin va tahlillari” kabi

15 dan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, 400 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy va ommabop maqolalar shular jumlasidan sanaladi.

Olim yaratgan darsliklarda alohida uslubiy izchillik ko‘zga tashlanadi: har bir mavzu aniq reja, tayanch tushunchalar, mustahkamlovchi savollar va mustaqil ish topshiriqlari bilan mukammal shakllantirilgan. Murakkab nazariy tushunchalarni sodda, hayotiy va teran mantiqiy tilda tushuntirib berish esa ustozning pedagogik mahoratidan dalolat beradi.

Haqiqiy olim faqat kitob va monografiyalar yozibgina qolmaydi, u o‘zidan keyin ilmiy maktab va ilm yo‘lini davom ettiruvchi sodiq shogirdlar qoldiradi. O‘zbek tilshunosligi jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilgan “Namangan onomastika maktabi”ning tashkil topishi va gullab-yashnashi bevosita Nosirjon Uluqov nomi bilan bog‘liqdir. Bugungacha olim rahbarligida 20 dan ortiq yosh tadqiqotchilar filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Ular orasida o‘zbek tili toponimik tizimidagi konversiya va transonimizatsiya, toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional tadqiqi, gemeronimlar, antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslari, “Alpomish” dostoni onomastikasi, Farg‘ona vodiysi toponimiyasida variantlilik kabi ko‘plab dolzarb mavzulardagi tadqiqotlar o‘z salmog‘iga ega.

Nosirjon Uluqovning shogirdlari aytishicha, Ustozning yana bir muqaddas va mas’uliyatli shiori bor: “Sizlarning ortingizda men turaman!” Bu so‘zlar har qanday shogird uchun ham cheksiz g‘urur, ham ulkan mas’uliyatdir. G‘urur ekanligi shundaki, ularning ortida ilmiy e’tiqodi mustahkam, talabchan va mehribon Ustoz turibdi. Mas’uliyati shuki, ular yozgan har bir maqola, har bir jumlada Ustozning nomi, shani va ilmiy maktabining obro‘si aks etadi. Olimning yuksak ilmiy salobati, bilimlar teranligi va shogirdlar qalbida uyg‘otgan beqiyos hurmat hamda mas’uliyat hissi shogirdlarning Ustoz xonasi eshigi oldida biroz to‘xtashlariga, hayjonlanishlariga sabab bo‘ladi.

Nosirjon Uluqov haqida gapirganda uning ilmiy martabasidan tashqari, yuksak insoniy fazilatlari, kamtarligi va ma’naviyiy qiyofasini alohida ta’kidlash lozim. U kishimning suvrati va siyratida professorlik salobati bilan birga sodda, samimiy va bag‘rikeng insoniy fazilatlar kamolotga erishgan. Ustoz ilmiy ishdagi kamchilikni ochiq va ravshan ko‘rsatadi, ammo hech qachon tadqiqotchining shaxsiyatiga tegmaydi. Tanqidi har doim ilmiy dalilga, manbaga va mantiqqa asoslanadi (bunga shaxsan o‘zim ham guvohman, chunki Ustoz mening ham doktorlik dissertatsiyamga rasmiy opponent bo‘lganlar). Doktorlik

va nomzodlik dissertatsiyalari muhokamalarida hamda himoya jarayonlarida uning adolatli va xolis munosabati ilmiy jamoatchilik tomonidan doimo e’tirof etiladi. Men Ustozning yana bir jihatiga alohida urg‘u berishni xohlardim: Nosirjon Uluqov Ustozlarga ehtirom va shogirdlarga mehr masalasida ham o‘rnak bo‘la oladi. Olim o‘z ustozi professor Ernst Begmatov xotirasini hamisha e’zozlaydi. Ushbu yil iyun oyida Ustoz E.Begmatov xotirasiga bag‘ishlab xalqaro konferensiya tashkil etgani ham ustoz-shogirdlik rishtalarining amaldagi yorqin isbotidir.

Nosirjon Muhammadaliyevichning ko‘p yillik fidoyi mehnati davlatimiz va ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib taqdirlangan. Jumladan, 2016-yil Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi Respublika tanlovida “Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin, 2020-yil “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni, 2023-yil “Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi” esdalik nishoni (medali) sohibi bo‘lgan. Biroq Ustoz uchun eng oliy mukofot – bu ilmiy jamoatchilik hamda hamkasblarining samimiy hurmati, shogirdlarining muvaffaqiyati va el-yurt orasida qozongan halol nomi sanaladi.

Bu yoshdan oshganlarning fikricha, oltmish yosh – inson umrining sarhisob nuqtasi bo‘lishi bilan birga, yangi ilmiy marralar va ijodiy parvozlarning debochasi hisoblanadi. Professor Nosirjon Uluqovning 60 yillik umr yo‘li ona tilimizga sadoqat, ilmga fidoiylik, ustozlarga ehtirom va shogirdlarga cheksiz mehr bilan yo‘g‘rilgan.

Muhtaram va qadrli Ustoz – Nosirjon Muhammadaliyevich! Sizni sharafli va qutlug‘ 60 yillik yubileyingiz – shukrona kuningiz bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz! Sizga, avvalo, mustahkam sihat-salomatlik, ko‘ngil xotirjamligi, tinchlik va fayz-u barakali uzoq umr tilaymiz! O‘zbek tilshunosligi va onomastika fani rivoji yo‘lidagi mashaqqatli hamda sharafli faoliyatingizda hamisha zafarlar yor bo‘lsin! Ilm ummonidan tergan durlaringiz, yaratgan asarlaringiz va tarbiyalagan shogirdlaringiz kelajakda ham ona tilimiz xazinasini boyitishda, ma’rifat chirog‘i bo‘lib porlashda davom etsin! Keyingi 60 yillik to‘yingizda ham farzandlar, nevara-yu evaralar, yaqinlar va shogirdlar qatori kamaymasdan Sizni qutlash nasib qilsin, Ustoz!!!

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
Yuldashev Doniyor Taxirovich

NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA INSON RUHIYATI

Hamroyeva Munisa,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 3-kurs talabasi

UO‘K 811.111'38

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarining o‘ziga xos ifoda usullari, voqea va hodisalar, obrazlar va detallar tahlilga tortilgan. Xususan, maqolada yozuvchining “Kurash”, “Dashtda”, “Oriyat”, “O‘g‘ri”, “Yangi ertak”, “Yetim qolgan gular” kabi hikoyalarida yozuvchining badiiy mahorati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hikoya, syujet, voqelik, inson ruhiyati, obraz, “Kurash”, “Yangi ertak”.*

Abstract: *This article analyzes the unique expressive methods, events, characters, and details in the short stories of the writer Normurod Norqobilov. In particular, the author’s artistic skill is revealed through the analysis of his short stories, such as “Kurash” (The Struggle), “Dashtda” (In the Steppe), “Oriyat” (Honor), “O‘g‘ri” (The Thief), “Yangi ertak” (A New Fairy Tale), and “Yetim qolgan gular” (Orphaned Flowers).*

Keywords: *Short story, plot, reality, human psyche, character, “Kurash”, “Yangi ertak”.*

Аннотация: *В данной статье анализируются своеобразные способы выражения, события, образы и детали в рассказах писателя Нормурода Норкобилова. В частности, художественное мастерство писателя раскрывается на примере таких его рассказов, как «Кураш» («Борьба»), «Даштда» («В степи»), «Орият» («Честь»), «Угри» («Вор»), «Янги эртак» («Новая сказка»), «Етим колган гуллар» («Осиротевшие цветы»).*

Ключевые слова: *Рассказ, сюжет, действительность, человеческая психика, образ, «Кураш», «Янги эртак».*

Kirish. O‘zbek adabiyotida badiiy psixologizm, ya’ni qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy evrilishlarini tasvirlash har doim yozuvchining badiiy mahoratini belgilovchi asosiy omil vazifasini bajarib kelgan. Zero, buyuk rus adibi L.Tolstoy ta’kidlashicha “San’atning bosh maqsadi inson qalbini ko‘rsatmoq va u haqda haqiqatni aytmoqlikdir”**.** Badiiy asarning bosh obyekti inson ekan, avvalo insonni anglash esa uning ruhiy olamini, qalb iztiroblari va ichki ziddiyatlarini tadqiq etishdan boshlanadi. Zamonaviy o‘zbek nasrining iste’dodli vakillaridan biri Normurod Norqobilov ijodi o‘zining hayotiyligi, tabiat va inson o‘rtasidagi uzviylikni teran ifodalashi hamda qahramonlarining murakkab ruhiy holatlarini mahorat bilan ochib berilishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi o‘z hikoyalarida shunchaki tashqi voqelikni yoki maishiy syujetni bayon qilmaydi, balki o‘sha voqealar girdobida qolgan inson ruhiyatining (psixologizmining) eng nozik qatlamlarigacha kirib borishga intiladi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Normurod Norqibilov hikoya janrida ham munosib ijod qildi. Ayniqsa, uning “Kurash”, “Dashtda”, “Yetim qolgan gullar”, “O‘g‘ri”, “Yangi ertak”, “Oriyat” kabi hikoyalarida inson ruhiyati va uning fe’l atvoridagi o‘zgarish va xususiyatlarni tasvirlash yetakchilik qildi. Ushbu hikoya qahramonlari to‘qima emas, ularning barchasi real hayotda mavjud haqiqat kishilar siymosida namayon bo‘ldi. Jumladan, “Kurash” hikoyasida kurash mardlik, haqiqiy g‘oliblik, haqqoniy, ajdodlarga xos, qadimiy urf-odat, oriyat sifatida aks ettiradi. Hikoyada yozuvchi alp avlodi bo‘lmish Hamida momoni hikoya markaziga olib chiqadi. O‘z o‘g‘li bilan olishtirib, uning tilidan g‘irromlik qilgan o‘g‘liga nisbatan achchiq so‘zlar, nigohidan nomardga qaraladigan ma’noli qarashlar keltiriladi. Hamida momo insonga xos mardlikni ulug‘laydi. O‘g‘liga xatosini uqtirolmagach: *“Ursam – kam, so‘ksam, yana kam. Kel, bolam senga olishishni o‘zim o‘rgatay, - dedim, Tag‘in irshayadi”.* [1,3.] Shundan so‘ng o‘g‘lini yiqitmoqchi bo‘lib bir qo‘lini chiqarib oladi. Ammo keyingi safar olishib, ulini yiqitadi. Yolg‘ondan emas, chindan. Inson ruhiyatini ko‘ringki, ona o‘zi emas, og‘lining nomardligidan uyaladi. Uni boshqa xatolari uchun odatda kechirganda ham, el oldida, odamlarga qilgan, ajdodlariga mos kelmaydigan bu odati uchun yuziga qaragisi kelmaydi. Ushbu asarda ayolmi, erkakmi, uning yuragida qonida oqadigan – g‘urur, isyon hissi, odillik tuyg‘usi baland keladi.

Yozuvchining “O‘g‘ri” hikoyasida esa o‘g‘rilik yomon odat sifatida qoralanadi. Biroq bunda aybdorlik hissidan ko‘ra vijdon, or - nomus tuyg‘ulari yosh bola harakatlari misolida ochib beradi. Inson qalbida mavjud nafs istaklari uni bora-bora uyatli holatga tushib qolishi xulosa tarzida ifodalanadi. Bola

“Ertaga albatta qaytaraman deb, oyog‘ uchida ko‘chaga zing‘illadi”[2, 4]. Hikoyada o‘z otasining o‘rtog‘i uyidan soat o‘margan bola faqatgina uni bir necha kunga olib turmoqchi va bu bilan o‘zining vijdonini aldab turmoqchi bo‘ladi. Uning o‘sha qing‘ir nafsi otasiga ushlab ham beradi. Ammo u o‘zining o‘g‘irlagan soati bilan sinfdoshlari orasida obro‘ topib, buni qaytargisi kelmay qoldi. Ana o‘sha yerda ikkinchi o‘ziga bergan va’dasini ham bajarmadi. Oqibatda soatni Mirhaydarning, otasi ko‘rdi. Asqar chavandozga olib boryotganda, otasining kaltagidan hayiqqan Mirhaydarni kutilagan tarafkashlik kutib oldi. Bu holdan bola xursand emas, balki battar yomon holatda qoldi. Mirhaydar vijdon azobi o‘rtay boshlaydi. Qarangki, inson ruhiyati naqadar murakkab. Kechagina sinfdoshlari oldida maqtanish uchun hamma narsaga tayyor bola qalbida bugun ruhiy isyon g‘alayon qila boshladi. Va o‘zining qilmishidan uyaldi. Bu iztirobninmg yuzaga kelishi qahramon qalbida o‘z-o‘zini anglash sifatlarining namayon bo‘layotganidan dalolat beradi. Yozuvchining “Yangi ertak” hikoyasida esa voqealar onasidan erta ajralgan Oydin ismli qizcha tilidan bayon qilinadi. U uyiga o‘gay ona kelishini, uning bir qizi borligini eshitib, o‘zicha “Zumrad va Qimmat “ ertagidagini qayta to‘qiy boshlaydi. O‘zining kelajak hayoti qanday bo‘lishini qalban his etib, o‘zicha o‘gay onasidan hadiksiray boshlaydi. Bola ongida paydo bo‘lgan hadiklarni xolasi kuchaytiradi. Buni qarangki, yangi ona aksincha, yangi ertak yaratadi. U kelgan vaqtida “Voy, mening bolajonim” – deydi. Oydin mehribon ona va opaga ega bo‘ladi. Hatto Oydin yozgan ertaklarni o‘gay ona zavq bilan o‘qib ko‘radi. Odatdagidan yangi ertak shu yo‘sinda odamlar xotirasida yangi jarayonni: Hamma o‘gay onalar ham Zumradnikiday emasligini ko‘rsatadi.

“Yetim qolgan gullar” hikoyasida inson obrazi va tabiat detali – garmsel bilan o‘zaro kurashda tasvirlanadi. Garmsel shamoli har safar bir munis ayolning atirgul barglarini to‘kib, payhon qilaveradi. Bu ish bermagach, ayol har kuni gullarga qarab suv quyib, parvarish qilavergach oxiri uning ustiga har xil qo‘shni xonadonlardan chiqqan po‘choq, yerga singmas plastiklarni olib kelib tashlaydi. Ayolning sabrini qarangki, har safar tozalaydi, suv quyadi. Ammo ayol birkuni ko‘chib ketadi. Uyga o‘rniga bir yigit ko‘chib keladi, uyidan bir chelak chiqindi olib chiqib, gullarga tikilib turadi. So‘ngra u chiqindixonga bir qarab qo‘yadida, ularni gular ostiga tashlaydi. Garmsel bu o‘yinda na yutqazganini na yutqazmaganini his qilolmay qah-qah otib kuladi.

Muhokama va natijalar. Normurod Norqobilov hikoyalarida inson ruhiyati, psixologizm masalasi yetakchilik qiladi. Hikoya qahramonlari Mirhaydar, Oydin, ayol, Xamida momo obrazlari orqali ijtimoiy muhit qurboni

yoki murakkab ichki ziddiyatlar, pushaymonliklar va ma’naviy evrilishlar girdobida g‘alayon qilayotgan insonlar qiyofasi tasvirlangan.

Bu obrazlar timsolida Normurod Norqobilov inson ruhiyatidagi tubanlik, qo‘rquv, nomardlik, yolg‘on, o‘g‘rilik kabi illatlarni qoralaydi. Hikoyalarda inson menidagi evrilishlartasviri yetakchili qiladi. Shuningdek, yozuvchi ijodida tabiat tasvirida detallardan unumli foydalanish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Kurash” hikoyasida burgut, “Yetim qolgan gular”da gul, yashillik, garmsel kabi detallar obrazlar darajasida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarida tabiat va nabotot olami tasviri yetakchilik qiladi. Hikoyalarda voqealar mohiyati ostida tasviri orqali insoniy fazilatlar yuksaltiriladi. Garchand hikoyalarda xulosa bayon qilinmasa-da, unga ishora keltiriladi. Natijada zukko kitobxon buni anglay oladi. Hikoyalarda badiiy detallar: garmsel, soat, ertak, kurash voqealari tasviri orqali inson ruhiyatidagi evrilishlar o‘z aksini topadi. Shuningdek, hikoyalarda ichki monolog va dialoglar orqali yozuvchiga xos uslubning o‘ziga xos xususiyuatini ko‘rish mumkin.

Normurod Norqobilov o‘zbek adabiyotiga hikoya janrining o‘ziga xos uslubida ijod etayotgan yozuvchi sifatida o‘z o‘rniga ega. Yozuvchi o‘zining hikoyalarini oddiy bir syujet ipiga tizilgan voqealar emas, balki yozuvchi yuragi his qilgan tabiat va nabotat olamini kitobxonga oshno etadi. Adib ijodi zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida insonning ruhiy-ma’naviy olamini kashf etish va milliy xarakter konsepsiyasini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2002.

2. Norqobilov N. Yangi ertak. **“Ijod olami” jurnali, 2017 yil, 1-son.**

3. Norqibilov N.Kurash. ziyouz.com https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/normurod-norqobilov-1953/normurod-norqobilov-kurash-hikoya

4. Norqobilov N. O‘g‘ri. ziyouz.com https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/normurod-norqobilov-1953/normurod-norqobilov-o‘g‘ri-hikoya

5. Norqobilov N. Yetim qolgan gular. ziyouz.com https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/normurod-norqobilov-1953/normurod-norqobilov .yetim qolgan gular -hikoya

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY O‘ZLIK VA QAHRAMON RUHIYATI

Qodirova Ma’rufat Abdullayevna,
Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti assistenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
marifat45@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6484-280X
Fayzullayeva Maftuna,
1-bosqich talaba

UO‘K 811.111'38

Annotatsiya: *Mazkur maqolada istiqlol davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik va qahramon obrazining shakllanishi tahlil qilinadi. XX asr o‘zbek adabiyotidan farqli ravishda yangi bosqichda oddiy inson, uning ichki dunyosi, ma’naviyati va qarorlari markazga chiqadi. O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod asarlari misolida yangi davr qahramoni talqini va milliy qadriyatlar orqali vatanparvar ruh yoritiladi. Shuningdek, I. Sulton va S. Mirzayev tadqiqotlari asosida adabiyotning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati xulosalanadi.*

Kalit so‘zlar: *istiqlol davri adabiyoti, milliy o‘zlik, qahramon obrazi, ma’naviyat, badiiy tafakkur, zamon kishisi, qoliplangan qahramon, mafkura, manaviy qadriyat, inson erki, erkin ijod, badiiy talqin, badiiy tafakkur.*

Annotation: *This article analyzes the formation of the national identity and the image of the hero in the Uzbek literature of the period of independence. Unlike the Uzbek literature of the 20th century, in the new stage, the ordinary person, his inner world, spirituality and decisions come to the center. The works of O'tkir Hashimov and Togay Murad illuminate the patriotic spirit through the interpretation of the hero of the new era and national values. Also, the educational and spiritual importance of literature is concluded based on the researches of I. Sultan and S. Mirzayev.*

Keywords: *iterature of the independence period, national identity, hero’s image, spirituality, artistic thinking, contemporary man, stereotyped hero, ideology, spiritual value, human will, free creativity, artistic interpretation, artistic thinking.*

Kirish. XX asr insoniyat tarixida qiyinchiliklarga to‘la bo‘lishiga qaramay, insoniyatning ruhiy va ma’naviy taraqqiyoti uchun muhim bosqich bo‘lgan. Shu davr natijasida O‘zbekiston mustaqillikka erishdi va adabiyot sohasida yangi davr- istiqlol davri adabiyoti shakllandi. Bu davr adabiyoti voqelikni haqqoniy ko‘rsatish orqali kishilarni ezgulik ruhida, vatanparvar, xalqparvar, rostgo‘y, adolatli, mehnatsevar, odobli qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Istiqlol davri adabiyoti avvalgi o‘tgan asr davri adabiyotidan keskin farq qiladi. Chunki bu davrga kelib odamlarning dunyoni anglash, uni idrok qilishga yo‘sini o‘zgardi. Avvallari badiiy asarlarda, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo‘lsa, endilikda badiiy personajlar, oddiy insonlar orasidan olinadigan bo‘ldi. [1, 5-b] Bu davr adabiyotining asosiy qahramonlari odatda ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar va ziyolilardir. Shu bilan birga, yangi davr qahramonlari ichki dunyosi boy, ruhiy izlanishlarga ega, qaror va harakatlari bilan o‘zligini ko‘rsatadigan murakkab inson timsoli sifatida ochiladi. Bunday ijod namunasiga Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarini misol keltirsa bo‘ladi. Bu roman milliy o‘zlik va tarbiyaviy ruhni tarbiyalovchi muhim asarlardan biridir. Unda “dala” timsoli oddiy yer maydonini emas, balki ma’naviy qadriyat, tarixiy xotira va milliy g‘urur ramzi sifatida vazifa bajargan. Romanning markazida sadoqat g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Qahramonning dalaga bo‘lgan muhabbati, uning sabr-toqati va e’tiqodi yosh avlodni halollikka, mehnatsevarlikka, mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. [2, 10-b]

Bundan tashqari adabiyotning yangi bosqichida yangi turdagi qahramon – zamon kishisi obrazini yaratish yozuvchi, shoir va ularning asosiy vazifasi hisoblangan. Zotan, bu adabiyotda turli yillarda yaratilgan asosiy qahramonlar bu davrning farzandlari bo‘lib, jamiyat hayotining turli davrlaridagi hayot va insoniy munosabatlarni aks ettirgan. [1, 6-b] “Istiqlolimizning o‘zi davr qahramonlarini yuzaga chiqaradi. Ular ishchilar o‘rtasida ham, dehqonlar ichida ham, ziyolilar orasida ham serob. Yoshlarimiz ulardan ibrat olsin. Binobarin, ularning yorqin obrazlarini yaratish adabiyotimizning dolzarb vazifasidir” – deydi Ozod Sharafiddinov. [3, 195-b] Qolaversa, avvallari shoir va yozuvchilar asarlarida qoliplangan qahramonlarni ishlatgan bo‘lsa, endilikda qahramonlarni erkin, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas rivojlanadigan komil insonni yaratish vazifasini qo‘yadi. Bu orqali eski davr mafkurasi, uning asoratlaridan xalos bo‘lish mumkin bo‘lgan. Buning sababi eski davr mafkurasi

insonlar hayotini og‘ir ahvolga solgan. Buning misolini Abdulla qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi Otabek va Kumushning ayanchli taqdiridan ko’rsa bo‘ladi. Zero o‘sha davrning tuzumi, urf-odati va ota-onalarining orzusi tufayli ikki sevishgan har qancha urinmasin baxtli bo‘la olmadi. [4, 67-b]

Milliy istiqlol mafkurasi milliy o‘zlikni va umumbashariy vazifani aniq anglatadigan nur. Milliy o‘zlik deganda ona tiliga, ajdodlar xotirasiga, vatan tuyg‘usiga hurmat va xalqning ma’naviy qadriyatlarini anglash tushuniladi. Bu orqali yillar, asrlar davomida urf-odatlarimizni, madaniyatimizni saqlab qolish mumkin.

Muhokama. Atoqli yozuvchi Ozod Sharafiddinov: “XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romannavislikda ham, she’riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o‘nlab uchratishimiz mumkin”, – deb yozgan edi. Uning bunday ta’rifiga Umarali Normatov quyidagi so‘zlari bilan tasdiqlaydi: “Hech qaysi soha XX asrda adabiyotchalik millat taqdiri, ijtimoiy adolat, inson erki, sha’ni himoyasi yo‘lida izchil, muntazam kurash olib borgan emas”. [1, 4-b]

Badiiy talqin orqali milliy o‘zlik turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining buyuk so‘z san’atkori bo‘lib, asarlarida inson ruhiy olami, oddiy xalq hayoti va ma’naviy qadriyatlarni tasvirlaydi. Uning mashhur qissasi “Dunyoning ishlari”da onaning mehr-saxovati, sabr-qanoat, oilaviy qadriyatlar kabi timsollar orqali milliy o‘zlik va ma’naviy jihatlarni ochib beradi. Qahramon ona orqali xalqning qadriyatlari, mehr-oqibat va urf-odatlarini chiroyli aks ettiradi. Bu asar insonlarni onalarga nisbatan mehr uyg‘otishga chorlaydi. Onalarning farzandlariga qilgan yaxshiligi, sarflagan umri va sog‘ligini ko‘rsatib beradi. Bu jihat, ayniqsa, yoshlarni vijdonli, mas’uliyatli va halol inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Istiqlol davri adabiyoti milliy o‘zlikni, vatan tuyg‘usini badiiy shaklda aks ettiradi. [1, 4-b] Qahramonlar murakkab, hayotiy va ichki dunyosi boy insonlar sifatida tasvirlanadi. Ularning fikrlari erkin, ma’naviyati keng, intiluvchan va erkin shaxs sifatida tasvirlanadi. Nafaqat qahramon, balki yozuvchilar ham erkin ijod qiladigan bo‘ldi. Bu adabiyotning tubdan rivojlanishi va taraqqiyotiga sabab bo‘ldi. Natijada adabiyotda mavzu va uslub rang-barangligi kuchaydi, yozuvchi shaxsiy dunyoqarashi va badiiy tafakkuri kengayishi sodir bo‘ldi. XX asr xalqimiz hayotiga avvalgi davrlarda bo‘lmagan

yangi-yangi g‘oyalarni, o‘zgacha ijtimoiy maqomga ega inson tuyg‘ularini olib kirdi. [1, 415-b] Endi qahramonlar voqelikni haqqoniy aks ettiradi, insonni ezgulik, adolat, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda istiqlol davrida milliy o‘zlik yuqori darajaga ko‘tariladi, qahramon va obrazlar ko‘lami kengayadi, mukammal holatga keladi. Shu bilan birga Istiqlol davri adabiyoti tamomila yangi davrni boshlab bergan. Vatan, yurt, erk masalalri ijod ko‘lami kengligi bilan o‘tgan asr adabiyotidan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Yangi asr avlodi, 2005-yil -416 B

2. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018-363 B.

3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004-637 B.

4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. O‘qituvchi NMIU, 2005- 408 B.

SARLAVHALARNING QO‘RQUV TASVIRINI YARATISHDAGI ROLI

Homidov Humoyun Ramazon o‘g‘li,
Turon universiteti Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi
humoyunhamidov19@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-4710-5650

UO‘K 811.111'38

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asar sarlavhalarining qo‘rquv tasvirini yaratishdagi poetik va psixologik vazifalari tahlil qilinadi. Sarlavhaning asar mazmuniga kirish, o‘quvchida dastlabki hissiy munosabatni shakllantirish, xavf-xatarni oldindan sezdirish hamda sirli muhit yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Qo‘rquv motivi mavjud asarlarda sarlavha syujetning fojeaviy rivoji, qahramon ruhiyati va asosiy ramzlar bilan uzviy bog‘lanishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, qo‘rqinchli ma’no hosil qilishda rang, makon, vaqt, o‘lim, g‘ay sorrttabiiy mavjudot va ruhiy holatni anglatuvchi birliklarning vazifasi ochib beriladi. Sarlavhaning prognostik, ramziy, emotsional-ekspressiv va intertekstual xususiyatlari misollar asosida tavsiflanadi. Tadqiqot natijasida sarlavha qo‘rquvni nomlovchi oddiy unsur emas, balki asarning dahshat poetikasini shakllantiruvchi muhim badiiy vosita ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, qo‘rquv motivi, dahshat poetikasi, badiiy tasvir, psixologizm, ramz, semantika, prognostik vazifa, gotik adabiyot, mifopoetika.*

Аннотация: *В статье анализируются поэтические и психологические функции заглавия художественного произведения в создании образа страха. Рассматривается роль заглавия в раскрытии содержания произведения, формировании первичной эмоциональной реакции читателя, предвосхищении опасности и создании атмосферы таинственности. Показано, что в произведениях, содержащих мотив страха, заглавие тесно связано с трагическим развитием сюжета, внутренним состоянием героя и*

системой основных символов. Раскрываются функции лексических единиц, обозначающих цвет, пространство, время, смерть, сверхъестественных существ и психологическое состояние. На конкретных примерах характеризуются прогностическая, символическая, эмоционально-экспрессивная и интертекстуальная функции заглавия. В результате исследования обосновывается, что заглавие является не просто средством обозначения страха, а важным художественным компонентом, формирующим поэтику ужаса в произведении.

Ключевые слова: *заглавие, мотив страха, поэтика ужаса, художественный образ, психологизм, символ, семантика, прогностическая функция, готическая литература, мифопоэтика.*

Abstract: *This article examines the poetic and psychological functions of literary titles in creating the image of fear. It discusses the role of the title in introducing the content of a literary work, shaping the reader's initial emotional response, foreshadowing danger and creating an atmosphere of mystery. In literary works containing the motif of fear, the title is shown to be closely connected with the tragic development of the plot, the protagonist's psychological state and the system of central symbols. Particular attention is paid to lexical units denoting colour, space, time, death, supernatural beings and emotional states. The predictive, symbolic, emotional-expressive and intertextual functions of literary titles are described through relevant examples. The study demonstrates that a title is not merely an element naming fear but an important artistic device that contributes to the formation of the poetics of horror in a literary work.*

Keywords: *literary title, fear motif, poetics of horror, artistic image, psychologism, symbol, semantics, foreshadowing, Gothic literature, mythopoetics.*

Kirish. Badiiy asar tuzilishida sarlavha muhim poetik va mazmuniy vazifani bajaradi. U asarning nomi bo‘lish bilan cheklanmay, muallifning badiiy niyatini ifodalovchi, matn mazmuniga yo‘naltiruvchi va o‘quvchida dastlabki tasavvurni shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. O‘quvchi asarni mutolaa qilishdan avval uning sarlavhasi bilan tanishadi. Shu sababli sarlavha muallif, badiiy matn va o‘quvchi o‘rtasidagi dastlabki kommunikativ aloqa vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qo‘rquv motivi yetakchilik qiladigan badiiy asarlarda sarlavhaning ahamiyati yanada ortadi. Bunday sarlavhalar o‘quvchida xavotir, sir, tahdid va

fojeaviy hodisalarni kutish hissini uyg‘otadi. “Qora mushuk”, “Usherlar uyining qulashi”, “Qizil o‘lim niqobi”, “Xiyonatkor yurak”, “Dahshat” kabi sarlavhalarning o‘zidayoq asarning ruhiy-emotsional yo‘nalishi seziladi. Ulardagi rang, o‘lim, qorong‘i makon, sirli mavjudot yoki keskin ruhiy holatni anglatuvchi birliklar o‘quvchini asarda yuz berishi mumkin bo‘lgan xavfli voqealarga tayyorlaydi.

Adabiyot tahlili. Badiiy asar sarlavhasining poetik va semantik xususiyatlari adabiyotshunoslikda muhim nazariy masala sifatida o‘rganilgan. Gérard Genette sarlavhani matnni o‘quvchiga tanishtiruvchi paratekstual unsur sifatida baholaydi. Umberto Eco esa uning o‘quvchi talqinini yo‘naltirish va matnga doir dastlabki taxminlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. N.D. Arutyunova hamda I.R. Galperin tadqiqotlarida sarlavhaning nominativ, informativ, prognostik va matn mazmunini umumlashtiruvchi vazifalari yoritilgan.

Qo‘rquv va dahshat poetikasi masalalari H.P. Lovecraft, David Punter va Fred Botting tadqiqotlarida tahlil qilingan. Ular gotik asarlarda o‘lim, zulmat, sirli makon va g‘ayritabiiy mavjudotlarning qo‘rquv uyg‘otishdagi o‘rnini ko‘rsatadilar. Edgar Allan Po ijodi G.R. Thompson, J.G. Kennedy, Benjamin F. Fisher va K.J. Hayes tomonidan o‘rganilib, adib hikoyalaridagi ramziylik, ishonchsiz hikoyachi, ruhiy buzilish va gotik tasvir xususiyatlari ochib berilgan. Ushbu ilmiy qarashlar “Qora mushuk”, “Xiyonatkor yurak”, “Qizil o‘lim niqobi” va “Usherlar uyining qulashi” kabi sarlavhalarning qo‘rquv tasvirini yaratishdagi vazifalarini aniqlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada intertekstual tahlil, psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual tahlil, hermenevtik tahlil, psixologik tahlil va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Badiiy asar sarlavhasi matnning eng ixcham, ayni paytda, mazmunan serqatlam unsurlaridan biridir. Sarlavha asarning mavzusi, g‘oyaviy yo‘nalishi, asosiy voqeasi yoki markaziy obrazini nomlash bilan birga, o‘quvchining matnni qanday qabul qilishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, qo‘rquv motiviga asoslangan asarlarda sarlavha xavf, sir, ruhiy iztirob va fojeaviy yakun haqida dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli bunday sarlavhalar nominativ vazifadan tashqari prognostik, ramziy, psixologik, emotsional-ekspressiv va matnni birlashtiruvchi vazifalarni ham bajaradi. Sarlavhaning birlamchi vazifasi badiiy asarni nomlash va uni boshqa matnlardan

ajratishdir. Biroq nom tanlash jarayonida muallif asarning asosiy mazmunini ifodalovchi obraz, hodisa yoki tushunchaga murojaat qiladi. Qo‘rquv tasviri yetakchilik qiladigan hikoyalarda sarlavhaga ko‘pincha o‘lim, jinoyat, kasallik, qorong‘ilik, xavfli makon, g‘ayritabiiy mavjudot yoki qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi birliklar chiqariladi.

Edgar Allan Poning “Qora mushuk” hikoyasida markaziy obraz bevosita sarlavhada nomlangan. “Mushuk” so‘zi kundalik ma’noda uy hayvonini anglatsa-da, “qora” sifatlovchisi unga qo‘shimcha ramziy va emotsional ma’no yuklaydi. Qora rang ko‘plab madaniy an’analarda zulmat, motam, o‘lim, noma’lumlik va yovuz kuchlar bilan bog‘langan. Shu sababli “qora mushuk” birikmasi hali hikoya o‘qilmasidan oldin o‘quvchi ongida sirli va xavotirli tasavvurlarni hosil qiladi.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi sarlavhasida esa qo‘rquv hissi bevosita nomlanadi. “Dahshat” so‘zi kuchli qo‘rquv, vahima va insonni ruhiy jihatdan larzaga soluvchi holatni anglatadi. Mazkur sarlavha o‘quvchini asarda oddiy xavfsirash emas, balki keskin ruhiy sinov va fojeaviy hodisa tasvirlanishiga tayyorlaydi. Demak, “Qora mushuk”da qo‘rquv ramziy obraz orqali ifodalansa, “Dahshat”da hissiyotning o‘zi sarlavhaga olib chiqilgan. Qo‘rquv tasvirini yaratishda sarlavhaning prognostik, ya’ni voqealar rivoji va asar yakuniga oldindan ishora qilish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Sarlavha kelajakdagi hodisani to‘liq ochib bermaydi, lekin o‘quvchida muayyan taxminlarni shakllantiradi. Natijada matnni o‘qish jarayoni faqat voqealarni kuzatish emas, balki sarlavhada yashiringan ma’noni aniqlash jarayoniga ham aylanadi.

Poning “Usherlar uyining qulashi” sarlavhasi asar yakunidagi halokatni oldindan bildiradi. Biroq “uy” so‘zi bu yerda ikki xil ma’noga ega: u Usherlar istiqomat qiladigan bino hamda ularning oilaviy sulolasini anglatadi. “Qulash” tushunchasi esa uyning jismoniy vayron bo‘lishi bilan birga, Usherlar naslining tugashi va qahramonlar ruhiyatining yemirilishini ham ifodalaydi. O‘quvchi asar boshidanoq muqarrar halokatni sezadi, ammo uning qanday yuz berishini bilmaydi. Ana shu kutish holati hikoyadagi xavotirni kuchaytiradi. “Qizil o‘lim niqobi” sarlavhasi ham asarning fojeaviy yakuniga ishora qiladi.

Xulosa. Sarlavha badiiy asarda qo‘rquv tasvirini shakllantiruvchi muhim poetik vositadir. U voqealarning fojeaviy rivojiga ishora qiladi, sirli muhit yaratadi va o‘quvchida xavotir uyg‘otadi. Edgar Allan Po asarlarida qo‘rquv ko‘proq ramziy obrazlar orqali, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida esa

bevosita nomlash va ijtimoiy-psixologik mazmun orqali ifodalanadi. Demak, sarlavha asarning asosiy g‘oyasini umumlashtirib, qo‘rquv motivini anglash uchun semantik kalit vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhor, A. *Asarlar: besh jildlik*. 1-jild: Hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

2. Poe, E. A. *The Collected Tales and Poems of Edgar Allan Poe*. – New York: Modern Library, 1992.

3. Poe, E. A. *Tales and Sketches. 1843–1849*. Vol. III / Ed. T. O. Mabbott. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. По, Э. А. *Полное собрание рассказов*. – Москва: Наука, 1970.

5. Galperin, I. R. *Text as an Object of Linguistic Research*. – Moscow: Nauka, 1981.

6. Гальперин, И. Р. *Текст как объект лингвистического исследования*. – Москва: Наука, 1981. – 139 с.

7. Genette, G. *Paratexts: Thresholds of Interpretation*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 427 p.

8. Eco, U. *The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts*. – Bloomington: Indiana University Press, 1979. – 273 p.

9. Eco, U. *The Limits of Interpretation*. – Bloomington: Indiana University Press, 1990. – 295 p.

O‘ZBEK VA INGLIZ HIKOYALARIDA AYOL RUHIYATINI TASVIRLASHDA MUALLIF VA QAHRAMON NUQTAYI NAZARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Gulnoza Egamberdiyeva,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
gulnozae24@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-9804-9204

UO‘K 811.111'38

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz hikoyalarida ayol ruhiyatini tasvirlashda muallif va qahramon nuqtayi nazarining o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Badiiy matnda ayol qahramonning ichki dunyosini ochib berishda muallif bayoni, qahramon nigohi, ichki nutq, subyektiv idrok, fokalizatsiya va psixologik bayonning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbek hikoyachiligida ayol ruhiyatining ko‘proq muallif bayoni, ijtimoiy-madaniy kontekst va qahramon xatti-harakatlari orqali ochilishi, ingliz, xususan modernistik hikoyachilikda esa qahramonning subyektiv idroki, ichki kechinmalari va ong jarayonlariga yaqin bayon shakllarining ustuvorligi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ayol ruhiyati, ayol obrazi, muallif nuqtayi nazari, qahramon nuqtayi nazari, narratologiya, fokalizatsiya, subyektiv idrok, ichki nutq, psixologik bayon, hikoya, o‘zbek hikoyachiligi, ingliz hikoyachiligi, qiyosiy-tipologik tahlil.*

Аннотация. *В статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются особенности авторской и персонажной точки зрения в изображении женской психологии в узбекских и английских рассказах. Анализируется значение авторского повествования, взгляда персонажа, внутренней речи, субъективного восприятия, фокализации и психологического повествования в раскрытии внутреннего мира женского персонажа. Установлено, что в узбекской новеллистике женская психология чаще раскрывается посредством авторского повествования, социально-культурного контекста и поведения героини, тогда как в*

английской, особенно модернистской прозе, преобладают формы повествования, приближенные к субъективному восприятию и внутренним процессам сознания персонажа.

Ключевые слова: *женская психология, женский образ, авторская точка зрения, точка зрения персонажа, нарратология, фокализация, субъективное восприятие, внутренняя речь, психологическое повествование, рассказ, узбекская новеллистика, английская новеллистика, сравнительно-типологический анализ.*

Abstract. *This article examines the specific features of authorial and character perspectives in representing female psychology in Uzbek and English short fiction from a comparative-typological perspective. Particular attention is paid to authorial narration, character perspective, interior speech, subjective perception, focalization, and psychological narration as narrative strategies for revealing the inner world of female characters. The study demonstrates that Uzbek short fiction tends to represent female psychology through authorial narration, socio-cultural context, and the character's actions, whereas English, particularly modernist short fiction, more frequently employs narrative forms closely associated with subjective perception and the inner processes of consciousness.*

Keywords: *female psychology, female character, authorial perspective, character perspective, narratology, focalization, subjective perception, interior speech, psychological narration, short fiction, Uzbek short fiction, English short fiction, comparative-typological analysis.*

KIRISH

Badiiy asarda qahramon ruhiyatini tasvirlash nafaqat qanday voqealar bayon qilinishi, balki ushbu voqealar kimning nigohi orqali ko‘rsatilishi bilan

ham chambarchas bog‘liq. Bir xil hodisa muallif tomonidan tashqaridan kuzatilgan holda bayon qilinishi yoki qahramonning subyektiv idroki orqali berilishi mumkin. Mazkur farq qahramonning ruhiy dunyosini o‘quvchi qanday qabul qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu jihatdan nuqtayi nazar badiiy narrativning muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, narratologik, psixologik va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar uyg‘unligi Nodira Ibrohimova va Katherine Mansfield hikoyalarida ayol ruhiyatining qaysi nuqtayi nazardan va qanday narrativ usullar orqali tasvirlanishini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz hikoyachiligida ayol ruhiyatining tasviri yaqqol namoyon bo‘ladigan asarlar tanlandi. O‘zbek adabiyoti doirasida Nodira Ibrohimovaning hikoyalari, ingliz adabiyoti doirasida Katherine Mansfieldning “Bliss” hikoyasi asosiy tahlil materiali sifatida olindi.

Tahlil jarayonida nuqtayi nazarning quyidagi shakllari ajratildi:

- muallif nuqtayi nazari;
- qahramon nuqtayi nazari;
- subyektiv fokalizatsiya;
- obyektiv yoki tashqi kuzatuv;
- ichki fokalizatsiya;
- o‘zgaruvchan nuqtayi nazar.

Tadqiqotning asosiy nazariy mezoni sifatida Gérard Genette tomonidan taklif etilgan fokalizatsiya konsepsiyasidan foydalanildi. Bunda hikoyadagi bayon qiluvchi subyekt va voqelikni idrok qiluvchi subyekt o‘rtasidagi farq asosiy metodologik mezon sifatida olindi. Mazkur yondashuv ayol qahramonining tashqi kuzatuv obyekti sifatidagi holati bilan uning ichki tajriba subyekti sifatidagi mavqeini farqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Nodira Ibrohimova hikoyalarida muallif nuqtayi nazari ayol ruhiyatini uning hayotiy, ijtimoiy va axloqiy muhiti bilan bog‘lashda muhim vazifa bajarishini ko‘rsatdi.

Nodira Ibrohimova hikoyalarida ayol qahramonining ruhiy holati faqat uning bevosita ichki kechinmalari orqali emas, balki muallif tomonidan tashkil etilgan makon, vaziyat, boshqa obrazlar bilan munosabat va voqealar tizimi orqali ham ochiladi. Qahramonning tashqi harakatlari, xatti-harakatlari va

muayyan vaziyatga munosabati uning ichki holatini anglashga yordam beruvchi narrativ vositalarga aylanadi.

Bunday tasvirda muallif qahramonning ruhiy holatini to‘liq izohlab bermasdan, uning ayrim xatti-harakatlari, nutqi, munosabatlari va atrof-muhit bilan aloqasi orqali o‘quvchiga anglatadi. Natijada ayol ruhiyati individual kechinma doirasidan chiqib, ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, axloqiy me’yorlar va shaxsiy tanlov bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan muallif nuqtayi nazari ayol ruhiyatini tasvirlashda nafaqat qahramonning ichki dunyosini ochishga, balki uning ruhiy holatini yuzaga keltiruvchi tashqi omillarni ko‘rsatishga ham xizmat qiladi.

Ingliz hikoyachiligida esa qahramon nuqtayi nazarining o‘rni ancha kuchli. Bunda tashqi voqealarning o‘zi emas, balki ularning qahramon ongida qanday aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Katherine Mansfieldning “Bliss” hikoyasida voqealar Bertha Youngning subyektiv idroki bilan chambarchas bog‘langan. O‘quvchi ko‘plab vaziyatlarni aynan Berthaning hissiy munosabati va idroki orqali qabul qiladi.

Masalan, Berthaning atrofidagi insonlarga, ayniqsa Pearl Fultonga bo‘lgan munosabati uning ichki dunyosidagi hissiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Tashqi tomondan oddiy ko‘ringan holatlar qahramon ongida kuchli psixologik mazmun kasb etadi.

Bunday bayon usulida muallif go‘yoki orqa planga chekinadi va o‘quvchini qahramon ongiga yaqinlashtiradi. Natijada o‘quvchi qahramon haqida tashqaridan ma’lumot oluvchi kuzatuvchidan uning ruhiy tajribasini bevosita idrok etuvchi subyektga aylanadi.

Qahramon nuqtayi nazarida narrativ masofa qisqaradi. O‘quvchi qahramonning ko‘zi bilan ko‘radi, uning idroki orqali voqelikni qabul qiladi va uning hissiy reaksiyalariga yaqinlashadi. Shu sababli Katherine Mansfield hikoyasida ayol obrazining xarakteri va ruhiy holati tashqi tavsifdan ko‘ra subyektiv idrok va ichki tajriba orqali chuqurroq ochiladi.

Nodira Ibrohimova hikoyalarida ham qahramon nuqtayi nazarining ayrim shakllari ayolning ichki dunyosini bevosita anglash imkonini beradi. Qahramonning o‘z hayotiy vaziyatiga munosabati, atrofidagi insonlarni baholashi, ichki savollari va hissiy reaksiyalari uning subyektiv nuqtayi nazarini shakllantiradi. Biroq bunda qahramonning individual kechinmalari ko‘pincha

uning yashayotgan ijtimoiy va madaniy muhitidan ajralmagan holda tasvirlanadi.

Tadqiqot davomida eng samarali narrativ strategiyalardan biri muallif va qahramon nuqtayi nazarining o‘zaro almashinuvi ekanligi aniqlandi.

Bunday holatda dastlab voqea muallif tomonidan tashqi tomondan tasvirlanadi, keyin esa bayon qahramon ongiga yaqinlashadi. Natijada tashqi harakat va ichki kechinma bir-birini to‘ldiradi. O‘quvchi bir tomondan qahramonning xatti-harakatlarini kuzatsa, ikkinchi tomondan uning mazkur harakatlar ortidagi ruhiy sabablarini anglaydi.

Nodira Ibrohimova hikoyalarida bunday almashinuv ayol qahramonining ijtimoiy muhitdagi holati bilan uning ichki kechinmalarini bir butun holda tasvirlashga xizmat qiladi. Tashqi voqea, dialog yoki xatti-harakatdan ichki nutq va ruhiy tasvirga o‘tish qahramon xarakterining psixologik qatlamlarini chuqurlashtiradi.

Katherine Mansfield hikoyalarida esa nuqtayi nazarning qahramon ongiga siljishi ko‘pincha psixologik tasvirning asosiy prinsiplaridan biriga aylanadi. Voqealar qahramonning subyektiv idroki orqali qayta tashkil etiladi va shu tariqa tashqi reallik bilan ichki tajriba o‘rtasidagi chegara nisbatan noaniqlashadi.

Bu usul ayol obrazini bir vaqtning o‘zida tashqi kuzatuv obyekti va ichki tajriba subyekti sifatida namoyon etish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Nodira Ibrohimova ijodida nuqtayi nazar ko‘proq ayolning shaxsiy kechinmalarini ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘lashga xizmat qilsa, Katherine Mansfieldda qahramonning subyektiv idroki va ichki tajribasi narrativ tuzilmaning markaziy komponentiga aylanadi.

MUHOKAMA

Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek va ingliz hikoyachiligida ayol ruhiyatini tasvirlashning narrativ strategiyalarida bir qator umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Umumiy jihat shundaki, har ikki adabiy an’anada ham ayol ruhiyatini ochishda muallif va qahramon nuqtayi nazari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanadi. Qahramonning ruhiy holati faqat ichki nutq yoki muallif izohi orqali emas, balki voqealar, makon, xatti-harakat va boshqa personajlarning munosabati orqali ham ochiladi.

Farqli jihat esa nuqtayi nazarning dominantlik darajasi bilan bog‘liq.

O‘zbek hikoyachiligida muallif pozitsiyasi ko‘pincha kuchliroq bo‘lib, ayol qahramonning ruhiy holati ijtimoiy va axloqiy kontekst bilan birgalikda talqin qilinadi. Muallif o‘quvchiga qahramonning harakatlarini baholash uchun ma’lum yo‘nalish beradi.

Ingliz modernistik hikoyachiligida esa qahramonning subyektiv idroki ko‘proq mustaqillikka ega. Muallif qahramon ruhiyatini tayyor holda izohlashdan ko‘ra, o‘quvchini uning ongiga yaqinlashtiradi.

Natijada ikki adabiy an’anada quyidagi tipologik modelni ajratish mumkin:

Mezoni	O‘zbek hikoyachiligi	Ingliz hikoyachiligi
Dominant nuqtayi nazar	Muallif + qahramon	Qahramon/subyektiv
Ruhiyatni ochish	Vaziyat va xatti-harakat orqali	Idrok va ichki kechinma orqali
Muallif pozitsiyasi	Nisbatan faol	Ko‘pincha yashirin
Ijtimoiy kontekst	Kuchli	Nisbatan ikkilamchi
Subyektivlik	O‘rtacha darajada	Yuqori darajada
Psixologik masofa	Nisbatan uzoqroq	Nisbatan yaqinroq
Fokalizatsiya	Tashqi va ichki shakllar uyg‘unligi	Ichki fokalizatsiya ustuvor

Mazkur farqlarni milliy adabiyotlarning tarixiy-estetik taraqqiyoti bilan bog‘lash mumkin. O‘zbek hikoyachiligida qahramon taqdiri ko‘pincha jamiyat, oila va axloqiy munosabatlar tizimida talqin qilinadi. Ingliz modernistik nasrida esa insonning individual ongi va subyektiv tajribasi badiiy tasvirning markaziy obyektiga aylangan.

Shu bilan birga, mazkur farqlarni qat’iy chegaralar sifatida qabul qilish mumkin emas. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ham qahramon ongiga yaqinlashgan bayon shakllari mavjud bo‘lsa, ingliz adabiyotida ham muallif pozitsiyasi faol namoyon bo‘ladigan asarlar uchraydi.

Demak, qiyosiy-tipologik yondashuvning asosiy vazifasi “qaysi adabiyotda qaysi usul bor”ligini aniqlash emas, balki bir xil narrativ vosita turli milliy-estetik tizimlarda qanday funksional ma’no kasb etishini ochib berishdan iborat.

XULOSA

O‘zbek va ingliz hikoyalarida ayol ruhiyatini tasvirlashda muallif va qahramon nuqtayi nazarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, nuqtayi nazar ayol ruhiyatini tasvirlashning oddiy texnik elementi emas, balki qahramonning ichki dunyosini o‘quvchiga qanday masofada va qanday rakursda yetkazishni belgilovchi muhim narrativ mexanizmdir.

Ikkinchidan, muallif nuqtayi nazari ayol ruhiyatini kengroq ijtimoiy, axloqiy va madaniy kontekstda talqin qilish imkonini beradi. Bunda qahramonning individual kechinmalari jamiyat va muhit bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Uchinchidan, qahramon nuqtayi nazari ayolning subyektiv idrokini, ichki kechinmalarini va o‘z-o‘zini baholash jarayonini bevosita ochish uchun keng imkoniyat yaratadi.

To‘rtinchidan, ingliz modernistik hikoyachiligida ichki fokalizatsiya va qahramon ongiga yaqin bayon shakllari ayol ruhiyatini tasvirlashning muhim strategiyasiga aylangan. Katherine Mansfield va Virginia Woolf ijodida bunday yondashuv ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

Beshinchidan, o‘zbek hikoyachiligida muallif pozitsiyasining faolligi ayol ruhiyatini ijtimoiy va axloqiy munosabatlar tizimida talqin qilishga imkon beradi.

Oltinchidan, ikki adabiy an’anada muallif va qahramon nuqtayi nazari o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi narrativ mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Yettinchidan, qahramon nuqtayi nazarining kuchayishi o‘quvchi va obraz o‘rtasidagi psixologik masofani qisqartiradi, muallif nuqtayi nazarining faollashuvi esa ayol obrazini kengroq ijtimoiy-estetik kontekstda anglash imkonini beradi.

Hikoyachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini nuqtayi nazarning tanlanishi va uning o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liq. Muallif nigohi ayol taqdirini ijtimoiy-estetik hodisa sifatida ko‘rsatsa, qahramon nigohi uning individual va subyektiv tajribasini ochib beradi. Ularning uyg‘unligi esa ayol obrazining ko‘p qatlamli psixologik talqinini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. — Ithaca: Cornell University Press, 1980.

2. Bal M. Narratology: Introduction to the Theory of Narrative. — Toronto: University of Toronto Press, 1997.

3. Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. — London: Routledge, 2002.

4. Booth W. C. The Rhetoric of Fiction. — Chicago: University of Chicago Press, 1983.

5. Herman D. Basic Elements of Narrative. — Chichester: Wiley-Blackwell, 2009.

6. Qahhor A. Anor. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

7. Qahhor A. Dahshat // Anor. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

YOSHLAR NUTQIDA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI KOD ALMASHINUVINING IJTIMOIY TARMOQLAR MISOLIDAGI SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

Mavlonova Gavhar,
Navoiy Davlat Universiteti tayanch doktoranti
gavkhar_mavlonova95@gmail.com

UO‘K 811.111'38

Annotatsiya

Maqolada o'zbek yoshlarining Instagram, Telegram va TikTok platformalaridagi nutqida uchraydigan ingliz-o'zbek kod almashinuvi holatlari sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Gamperz, Mayers-Skotton, Auer va Poplak nazariyalari asosida bu hodisaning identifikatsion, ekspressiv, amaliy va prestij funksiyalari ko'rib chiqiladi. Xulosa qilinishicha, kod almashinuvi til buzilishi emas, balki zamonaviy raqamli muloqotning tabiiy strategiyasidir.

Kalit so'zlar: *kod almashinuvi, sotsiolingvistika, ikki tillilik, yoshlar nutqi, ijtimoiy tarmoqlar, o'zbek tili, ingliz tili.*

Аннотация.

Статья посвящена социолингвистическому анализу англо-узбекского кодового переключения в речи узбекской молодёжи на Instagram, Telegram и TikTok. На основе теорий Гампера, Майерс-Скоттон, Ауэра и Поплак рассматриваются его идентификационная, экспрессивная, практическая и престижная функции. Делается вывод, что кодовое переключение - не нарушение языка, а естественная стратегия современной цифровой коммуникации.

Ключевые слова: *кодовое переключение, социолингвистика, билингвизм, молодёжная речь, социальные сети, узбекский язык, английский язык.*

Abstract.

This article offers a sociolinguistic analysis of English-Uzbek code-switching in the social media speech of Uzbek youth on Instagram, Telegram, and

TikTok. Drawing on Gumperz, Myers-Scotton, Auer, and Poplack, it examines the phenomenon's identity, expressive, practical, and prestige functions. The study concludes that code-switching is not linguistic degradation but a natural strategy of modern digital communication.

Keywords: *code-switching, sociolinguistics, bilingualism, youth speech, social media, Uzbek language, English language.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ingliz tilining ta’lim, biznes va ommaviy madaniyat sohalarida tutgan o‘rni sezilarli darajada kengaydi. Bu jarayon, ayniqsa, yosh avlod nutqida - jonli muloqotda ham, raqamli platformalarda ham o‘zbek va ingliz tillari elementlarining aralashib ishlatilishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Instagram postlari, Telegram xabarlari va TikTok video sarlavhalarida "salom *guys"*, "bugun *mood* yo‘q", "rahmat for *everything*" kabi konstruksiyalar keng tarqalgan bo‘lib, bu hodisa tilshunoslikda kod almashinuvi (“code-switching”) atamasi bilan yuritiladi.

Kod almashinuvi — ikki yoki undan ortiq til tizimlarining bir muloqot aktida, gap ichida yoki gaplar orasida almashinib qo‘llanilishidir. Bu hodisa nafaqat lingvistik, balki chuqur sotsiolingvistik mohiyatga ega: u so‘zlovchining ijtimoiy o‘ziga xosligini, guruhga mansubligini, ta’lim darajasini va hatto qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Ijtimoiy tarmoqlar esa kod almashinuvi uchun alohida qulay muhit yaratadi, chunki bu yerda yozma va og‘zaki nutq xususiyatlari uyg‘unlashadi, muloqot norasmiy tusda kechadi va foydalanuvchi o‘zini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardagi nutqida kuzatiladigan ingliz-o‘zbek kod almashinuvini nazariy jihatdan asoslash, uning ijtimoiy funksiyalarini tasniflash va bu jarayonni zamonaviy o‘zbek tili taraqqiyoti kontekstida baholashdan iborat.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Kod almashinuvi nazariyasining shakllanishida Jon Gamperz (Gumperz, 1982) muhim o‘rin tutadi, u kod almashinuvini "kontekstlashtirish signali" (contextualization cue) sifatida talqin qilib, uning suhbat ichidagi pragmatik vazifalarini ko‘rsatib bergan. Carol Mayers-Scotton (1993) o‘zining Matritsa til modeli (Matrix Language Frame) orqali kod almashinuvining grammatik tuzilishini tavsiflagan, unga ko‘ra bir til "asosiy" (matritsa), ikkinchisi esa "ko‘makchi" til vazifasini bajaradi. Peter Auer (1984, 1998) kod almashinuvini suhbat tahlili nuqtayi nazaridan o‘rgangan

bo‘lsa, Shana Poplak (1980) kod almashinuvining sintaktik cheklovlarini: xususan, ekvivalentlik cheklovi va erkin morfema cheklovini ishlab chiqqan.

Postsovet makonidagi til holatiga oid tadqiqotlar orasida o’zbek va rus tillaridagi kod almashinuvi bo‘yicha olib borilgan diskurs tahlili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda Toshkent shahridagi ikki tilli so‘zlovchilar nutqida gap ichi kod almashinuvi ustunlik qilishi va rus tilining ko‘proq texnik hamda kasbiy terminologiya uchun ishlatilishi qayd etilgan.

Shuningdek, o‘zbek tilshunoslari orasida ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy o‘zbek tiliga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda faollashgan mavzulardan biriga aylandi. Bunday tadqiqotlarda yoshlar nutqidagi sleng, qisqartmalar va kod almashinuv hodisalari ijtimoiy tarmoqlar tilni boyitish va yangilash jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi yoshlar nutqini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham yoshlar nutqini alohida sotsiolekt sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy o‘ziga xoslikni belgilashdagi rolini ta’kidlaydi. Ingliz tilini o‘rganuvchi o‘zbek talabalari nutqidagi kod almashinuv sabablarini o‘rgangan tadqiqotlarda esa bu hodisa til bilimidagi kamchilik emas, balki tushuntirish, ijtimoiy yaqinlashish kabi strategik maqsadlarga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etiladi.

Shu bilan birga, o‘zbek yoshlarining aynan ijtimoiy tarmoqlardagi (Instagram, Telegram, TikTok) matnli va audiovizual kontentida kuzatiladigan ingliz-o‘zbek kod almashinuvi platforma xususiyatlari bilan bog‘liq holda, kompleks sotsiolingvistik tadqiqot predmeti sifatida hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan va bu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Metodologiya. Tadqiqot kuzatish va korpus yig'ish metodlari asosida olib borildi. 2025-yil may-2026-yil may davomida Instagram, Telegram va TikTok platformalarining ochiq profillaridan 16–25 yosh foydalanuvchilarga tegishli yozma matnlar (post izohlari, stories, kanal xabarlari, video tavsiflari) to'plandi. Jami **412 ta** kod almashinuv holati aniqlangan matn birligi **63 nafar** turli foydalanuvchidan yig'ildi. Barcha ma'lumotlar anonimlashtirilib, R1–R63 kodlari bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalari

1-jadval

Korpusning platformalar bo'yicha taqsimoti

Platforma	Namunalar soni	Ulushi
Instagram	178	43,2%
Telegram	121	29,4%
TikTok	113	27,4 %
Jami	412	100%

Ko'rinib turibdiki, Instagram korpusda yetakchi o'rinni egalladi. Bu platformaning vizual-matnli formati yoshlar orasida eng keng tarqalganligi bilan izohlanadi.

2-jadval

Kod almashinuv turlari bo'yicha natijalar

Kod almashinuvi turi	Soni	Ulushi
Gap ichidagi	246	59,7 %
Tag almashinuvi	118	28,6 %
Gaplararo	48	11,7 %

Natijalar shuni ko'rsatdiki, **gap ichidagi kod almashinuvi** ustunlik qiladi. Bu natija Mayers-Skottonning Matritsa til modeli nazariyasiga mos keladi: o'zbek tili grammatik asos (matritsa til) vazifasini bajaradi, ingliz tilidan esa alohida leksik birliklar kiritiladi (masalan: “bugun mood yo'q”, “tag qildim”, “vibe beradi”).

3-jadval

Funksional tahlil natijalari

Funksiya	Soni	Ulushi
Ekspressiv-emotsional	142	34,5 %
Identifikatsion (o'ziga xoslik)	98	23,8 %
Amaliy (leksik bo'shliqni to'ldirish)	87	21,1 %
Prestij (ijtimoiy maqom)	52	12,6 %
Hazil - mutoyiba	33	8 %

Eng yuqori ko'rsatkichga ega **ekspressiv-emotsional funksiya** bo'ldi. Bunga misol sifatida quyidagi haqiqiy korpus namunalarini keltirish mumkin:
- R14 (Instagram posti): “bugun kayfiyat zero, lekin baribir smile qilaman”
- R27 (TikTok, video tavsifi): “bu safar chindan ham vibe boshqacha edi”
- R41 (Telegram, kanal xabari): “rahmat everyone, siz bilan birga bo'lish juda cool”

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi so'zlarning ko'pincha o'zbekcha muqobili mavjud bo'lsa-da (masalan, “cool” o'rniga “zo'r”), tuyg'uni yanada ta'sirchan yoki “zamonaviyroq” ifodalash uchun ingliz tilidagi varianti tanlanadi.

Shuningdek, tahlil natijalariga ko’ra funksiyalar platformalar orasida bir tekis taqsimlanmagan: Instagramda identifikatsion va prestij funksiyalari nisbatan ko'proq (jami holatlarning 40%), TikTokda hazil-mutoyiba va

ekspressiv funksiyalar ustunlik qiladi (52%), Telegramda esa amaliy funksiya (texnik atamalar, “forward”, “pin qilingan xabar” kabi) boshqa platformalarga nisbatan yuqoriroq (31%). Bu farq platformalarning kommunikativ tabiati bilan bog'liq: Instagram ko'proq o'z-o'zini taqdim etish maydoni, TikTok o'yin-hazil va muloqot maydoni, Telegram esa axborot almashinuv maydoni sifatida faoliyat yuritadi.

Tadqiqotda aniqlangan gap ichidagi kod almashinuvining ustunligi (59,7%) Myers-Scottonning (1993) Matritsa til modeli bilan to'la mos keladi: o'zbek tili grammatik asos matritsa til vazifasini bajarar ekan, ingliz tilidan faqat alohida leksik birliklar “qarzga olinadi”. Bu topilma shuni ko'rsatadiki, kod almashinuvi tasodifiy emas, balki grammatik jihatdan qat'iy tartibga bo'ysunuvchi jarayondir, bu esa Poplak (1980) tomonidan ilgari surilgan sintaktik cheklovlar nazariyasini ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Gamperzning (1982) kod almashinuvini “kontekstlashtirish signali” sifatidagi talqini bizning funksional tahlilimizda ham o'z aksini topdi: kod almashinuvi ko'pincha muayyan pragmatik maqsad: urg'u berish, kayfiyatni ifodalash yoki suhbat uslubini o'zgartirish uchun ongli qo'llaniladi.

Diqqatga sazovor yana bir jihat shundaki, Sakurama Nakamuraning Toshkentdagi o'zbek-rus bilingvlari nutqiga bag'ishlangan tadqiqotida ham aynan gap ichi kod almashinuvi ustunlik qilgan (58%) va bu bizning natijamiz (59,7%) bilan deyarli bir xil. Bu o'xshashlik shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining grammatik tizimi qaysi til bilan aloqaga kirishidan qat'iy nazar (rus yoki ingliz), kod almashinuvda barqaror matritsa til vazifasini saqlab qoladi. Ammo funksional jihatdan farq ham kuzatiladi: agar rus tili asosan texnik-kasbiy terminologiya uchun ishlatilsa, ingliz tili bizning tadqiqotimizda ko'proq ekspressiv-emotsional va identifikatsion maqsadlarda qo'llanilgan. Bu farq ikki tilning O‘zbekistondagi ijtimoiy maqomidagi tafovutdan kelib chiqadi: rus tili sovet davridan qolgan institutsional-professional til sifatida idrok etilsa, ingliz tili globallashuv, zamonaviylik va yoshlar madaniyati bilan assotsiatsiyalanadi.

Jamiyatda kod almashinuvga nisbatan mavjud ikki qutbli qarash - bir tomondan "til tozaligi buzilmoqda" degan tashvish, ikkinchi tomondan sotsiolingvistlarning uni tilning tabiiy moslashuvchanlik ko'rsatkichi sifatida baholashi bizning so'rovnoma natijalarimiz bilan ham tasdiqlanadi. Respondentlarning atigi 10% kod almashinuvni salbiy hodisa deb hisoblagan, qolgan aksariyati esa uni ongli yoki odat tusiga kirgan strategiya sifatida baholagan. Bu shuni ko'rsatadiki, til amaliyoti va til haqidagi ijtimoiy tasavvur

o'rtasida tafovut mavjud: norasmiy amaliyotda kod almashinuvi keng tarqalgan bo'lsa-da, rasmiy-institutsional darajada u hali ham “og'ish” sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu ziddiyat til siyosati va ta'lim tizimida alohida e'tiborni talab qiladi, standart o'zbek tilini mustahkamlash choralari yoshlarning tabiiy til amaliyotini stigmatizatsiya qilmasdan olib borilishi zarur.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot o'zbek yoshlarining Instagram, Telegram va TikTok’dagi nutqida ingliz-o'zbek kod almashinuvi tizimli va funksional hodisa ekanligini ko'rsatdi. Gap ichi kod almashinuvining ustunligi (59,7%) Myers-Scottonning Matritsa til modeliga mos kelib, o'zbek tili grammatik asos vazifasini saqlab qolayotganini tasdiqladi. Funksional tahlil kod almashinuvining asosan ekspressiv va identifikatsion maqsadlarga xizmat qilishini, platformalar o'rtasidagi farqlar esa uni har bir muloqot maydoniga moslashuvchan hodisa sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, kod almashinuvni til madaniyatining pasayishi emas, balki yoshlarning ongli va strategik til tanlovi, zamonaviy raqamli muloqotning tabiiy ko'rinishi sifatida talqin qilish to'g'riroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Auer, P. (1984). Bilingual Conversation. Amsterdam: John Benjamins.

2. Auer, P. (1998). Code-Switching in Conversation: Language, Interaction and Identity. London: Routledge.

3. Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge: Cambridge University Press.

4. Myers-Scotton, C. (1993). Duelling Languages: Grammatical Structure in Codeswitching. Oxford: Clarendon Press.

5. Poplack, S. (1980). Sometimes I'll start a sentence in Spanish y termino en español: toward a typology of code-switching. Linguistics, 18(7–8), 581–618.

6. Sakurama Nakamura, M. Beyond Bilingualism: A Discourse Analysis of Uzbek-Russian Code-Switching in Contemporary Uzbekistan. Turkophone journal.

7. Xudoyberdiyeva, J. B. Linguistic Changes in Contemporary Uzbek Language on Social Media.

“TINCH DON” ROMAN-EPOPEYASIDA ILINICHNA OBRAZIDA ONALIK VA OILAVIY FIDOYILIKNING BADIIY TALQINI

Qurbonova Malika Toxir qizi,
Mustaqil tadqiqotchi
Nurishkooo22@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-4808-9905

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya: *Mazkur maqolada M.A. Sholoxovning “Tinch Don” roman-epopeyasidagi Ilinichna obrazi orqali onalik mehri va oilaviy fidoyilikning badiiy talqini o‘rganiladi. Qahramonning Melexovlar oilasidagi o‘rni, farzandlari taqdiriga munosabati, oilaviy nizolarni yumshatish hamda xonadon birligini saqlashdagi xizmatlari tahlil qilinadi. Ilinichnaning urush va ijtimoiy ziddiyatlar sharoitida sabr-toqat, kechirimlilik, rahm-shafqat va ma’naviy matonat namunasini ko‘rsatishi yoritiladi. Shuningdek, obrazning roman davomida oddiy kazak ayolidan oila va hayotning axloqiy tayanchi darajasiga ko‘tarilishi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *M.A. Sholoxov, “Tinch Don”, Ilinichna obrazi, onalik, oilaviy fidoyilik, ona mehri, oila qadriyatlari, sabr-toqat, kechirimlilik, insonparvarlik.*

Аннотация: *В статье исследуется художественная интерпретация материнской любви и семейной самоотверженности в образе Ильиничны в романе-эпопее М.А. Шолохова «Тихий Дон». Анализируются место героини в семье Мелеховых, её отношение к судьбам детей, роль в смягчении семейных конфликтов и сохранении единства дома. Особое внимание уделяется терпению, милосердию, способности прощать и духовной стойкости Ильиничны в условиях войны и социальных потрясений. Раскрывается эволюция образа героини от простой казачки до нравственной опоры семьи и хранительницы традиционных ценностей.*

Ключевые слова: *М.А. Шолохов, «Тихий Дон», образ Ильиничны, материнство, семейная*

самоотверженность, материнская любовь, семейные ценности, терпение, прощение, гуманизм.

Abstract: *This article examines the artistic interpretation of maternal love and familial self-sacrifice through the image of Ilyinichna in Mikhail Sholokhov's epic novel And Quiet Flows the Don. It analyses the heroine's place in the Melekhov family, her concern for her children's fate, and her role in resolving family conflicts and preserving the unity of the household. Particular attention is paid to Ilyinichna's patience, mercy, forgiveness and spiritual resilience amid war and social upheaval. The article also reveals the evolution of the character from an ordinary Cossack woman into the moral foundation of the family and a guardian of traditional values.*

Keywords: *Mikhail Sholokhov, And Quiet Flows the Don, Ilyinichna, motherhood, familial self-sacrifice, maternal love, family values, patience, forgiveness, humanism.*

Kirish. Romandagi oilaviy muammolarning chuqurlashuvi Ilinichna obrazi misolida juda yaqqol ko‘rinadi. Ushbu qahramon asardagi pravoslavlik topikasini o‘rganuvchi tadqiqotchilar e’tiborini asossiz ravishda juda kam jalb etgan. Holbuki, uning obrazi muallif pozitsiyasining evolyutsiyasini anglashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa bizni qahramon tasvirining romanning turli kitoblaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishga undaydi. “Tinch Don”ning birinchi va ikkinchi kitoblarida Ilinichna ikkinchi darajali personaj bo‘lib, syujet rivojiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Uning nomi tez-tez tilga olinsa-da, u, asosan, qisqa va unchalik muhim bo‘lmagan fikrlarni bildiradi. Syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatgan yagona xatti-harakati - aynan uning Panteley Prokofyevichni Grigoriyni Natalya Korshunovaga uylantirishga ko‘ndirganidir. Ilinichna oiladagi nizolarni yumshatadi, erining keskin va qattiq fe’lini bosishga harakat qiladi. Biz uni ko‘pincha uy yumushlari bilan band holda ko‘ramiz. Uning o‘zi ham “mehnatdan bukilgan hayoti”ni eslaydi. [2, 2-jild, 132-b.].

Adabiyotlar tahlili. Ilinichna obrazi G.S. Yermolayev, A.P. Chalova, S.A. Lomakina va D.V. Pol tadqiqotlarida onalik, xristianlik va oilaviy

qadriyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. G.S. Yermolayev romandagi onalarni hayot va insonparvarlik himoyachilari sifatida baholaydi. A.P. Chalova Ilinichna obrazining oddiy kazak ayolidan ma’naviy-axloqiy tayanch darajasigacha rivojlanishini ko‘rsatadi. S.A. Lomakina va D.V. Pol esa uni Melexovlar oilasining birdamligini saqlovchi, mehr-shafqat, kechirimlilik va fidoyilikni mujassamlashtirgan ona timsoli sifatida talqin qiladilar. Ushbu tadqiqotlar Ilinichna obrazida onalik va oilaviy fidoyilikning badiiy ifodasini o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual tahlil, germenevtik tahlil, psixologik tahlil va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. M.A. Sholoxovning “Tinch Don” roman-epopeyasida oilaviy qadriyatlar kazak xalqining turmush tarzi, milliy an’analari va tarixiy taqdiri bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan. Asarda oila insonning ma’naviy tayanchi, avlodlar davomiyligini ta’minlovchi muqaddas makon sifatida namoyon bo‘ladi. Melexovlar xonadoni esa romandagi oilaviy munosabatlarning asosiy badiiy markazini tashkil etadi. Mazkur oilada yuz bergan voqealar orqali urush va ijtimoiy to‘qnashuvlarning inson taqdiri hamda an’anaviy turmushga ko‘rsatgan halokatli ta’siri ochib beriladi. Melexovlar oilasining ma’naviy birligini saqlashda Ilinichna alohida o‘rin egallaydi. Uning to‘liq ismi Vasilisa Ilinichna Melexova bo‘lib, u Panteley Prokofyevichning xotini, Petro, Grigoriy va Dunyashkaning onasidir. Qahramon dastlab xonadon yumushlari bilan mashg‘ul oddiy kazak ayoli sifatida ko‘rinsa-da, voqealar rivojlangan sari uning onalik mehri, oilaviy fidoyiligi, sabr-toqati va ma’naviy kuchi chuqurroq ochiladi. Natijada Ilinichna oilaning oddiy a’zosi darajasidan uning axloqiy tayanchi va an’anaviy qadriyatlari himoyachisi darajasiga ko‘tariladi.

Romanning dastlabki kitoblarida Ilinichna ikkinchi darajali personaj sifatida tasvirlanadi. U syujet rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faol qahramon bo‘lmasa-da, oiladagi muvozanatni saqlashda muhim vazifani bajaradi. Uning syujetga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan dastlabki harakati Panteley Prokofyevichni Grigoriyni Natalya Korshunovaga uylantirishga ko‘ndirishidir. Ona bu nikoh orqali o‘g‘lini oilaviy tartibga qaytarish va xonadon sha’nini saqlab qolishga intiladi. Ilinichnaning kundalik hayoti tinimsiz mehnat bilan o‘tadi. U o‘z umrini “mehnatdan bukilgan hayot” deb ta’riflaydi. Ushbu ibora qahramonning butun umrini oilasiga bag‘ishlaganini ixcham va ta’sirchan ifodalaydi. Uning mehnati shaxsiy manfaatga emas, xonadon farovonligi, farzandlar va nabiralarga

g‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan. Ovqat tayyorlash, non yopish, uy-joyni tartibga keltirish va oila a’zolarini kuzatib qo‘yish kabi yumushlar uning oilaviy fidoyiligini namoyon etuvchi kundalik amallardir. Dastlabki kitoblarda muallif Ilinichnaning tashqi qiyofasi, kiyimi, yuz ifodasi va yurishiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Oyoqlarining shishishi va og‘rishi uning jismoniy jihatdan zaiflashganini ko‘rsatsa-da, u uy-ro‘zg‘or ishlaridan voz kechmaydi. Qahramonning jismoniy og‘riqlarga qaramay mehnat qilishi oilaviy fidoyilikning amaliy ifodasidir. Uning tanasi mehnatdan holdan toyadi, ammo oilasi oldidagi mas’uliyat hissi susaymaydi. Uchinchi va to‘rtinchi kitoblarda qahramon tasviridagi tashqi belgilar asta-sekin ikkinchi o‘ringa chekinadi. Endi muallif uning kiyimi yoki yurishidan ko‘ra ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va axloqiy qarashlarini kengroq yoritadi. Ilinichnaning oyoq kasalligi ham deyarli tilga olinmaydi. Aksincha, uning “oshxonada chaqqon yurishi” qayd etiladi. Yoshi ulg‘aygan sari jismonan kuchsizlanishi tabiiy bo‘lgan qahramon go‘yo ma’naviy quvvat bilan to‘lib boradi. Bunday o‘zgarish obrazning tashqi-maishiy tasvirdan ichki-ma’naviy talqinga qarab rivojlanganini ko‘rsatadi.

“Tinch Don”ning uchinchi kitobida Ilinichnaning Grigoriyni urushga kuzatishi tasvirlanadi. Mazkur epizodda chuqur mazmunga ega oila motivi yaqqol namoyon bo‘ladi: *“Panteley Prokofyevich otni egarlash uchun ketdi, Ilinichna esa Grigoriyni cho‘qintirdi va o‘pib, shosha-pisha pichirladi: - Xudoni... Xudoni unutma, o‘g‘lim! Odamlardan eshitdik, sen qandaydir matroslarni qilichdan o‘tkazibsan... Yo Rabbim! Grishenka, aqlingni yig‘! Mana, o‘zingning ham bolalaring o‘sib kelyapti, sen o‘ldirganlarning ham uyida bolalari qolgandir... Axir, bunday qilish mumkinmi? Yoshligingda qanday mehribon va suyukli bola eding, endi esa doimo qoshlaringni chimirib yurasan. Qara, yuraging ham bo‘rinikidek bo‘lib qolibdi... Onangning gapiga quloq sol, Grishenka! Axir, sen ham o‘q yoki tig‘ o‘tmaydigan odam emassan, biror yovqur kishining qilichi sening ham bo‘yningga yetishi mumkin... Grigoriy ma’yus jilmaydi, onasining qurigan qo‘lini o‘pdi va Natalya tomon yurdi”* [2, 4-jild, 332–333-b.].

Ushbu parchada Ilinichnaning onalik mehri faqat o‘z farzandini asrash istagi bilan cheklanmaydi. U Grigoriy o‘ldirgan insonlarning ham farzandlari borligini eslatib, uni rahm-shafqat, vijdon va insoniylikka chaqiradi. Shu sababli qahramonning onalik tuyg‘usi umuminsoniy mazmun kasb etib, zo‘ravonlik va urushga qarshi ma’naviy pozitsiya darajasiga ko‘tariladi.

Xulosa. M.A. Sholoxovning “Tinch Don” roman-epopeyasida Ilinichna obrazi onalik mehri, oilaviy sadoqat va fidoyilikning yuksak badiiy timsoli

sifatida yaratilgan. U Melexovlar xonadonidagi nizolarni yumshatib, oila a’zolari o‘rtasidagi mehr-oqibatni saqlashga intiladi. Farzandlari va nabiralari uchun qayg‘urishi, mashaqqatlarga bardosh berishi hamda kundalik hayotini oilasiga bag‘ishlashi uning fidokorona tabiatini namoyon etadi. Roman voqealari davomida Ilinichna oddiy kazak ayolidan oilaning ma’naviy-axloqiy tayanchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sholoxov M.A. *Asarlar to‘plami: 8 jildlik*. 2-jild: *Tinch Don*. Birinchi kitob / Odil Sharopov tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

2. Sholoxov M.A. *Asarlar to‘plami: 8 jildlik*. 3-jild: *Tinch Don*. Ikkinchi kitob / Mirkarim Osim tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.

3. Sholoxov M.A. *Asarlar to‘plami: 8 jildlik*. 4-jild: *Tinch Don*. Uchinchi kitob / Odil Sharopov tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.

4. Sholoxov M.A. *Asarlar to‘plami: 8 jildlik*. 5-jild: *Tinch Don*. To‘rtinchi kitob / Odil Sharopov tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

5. Шолохов М.А. *Собрание сочинений: в 8 томах*. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1956–1960.

6. Ермолаев Г.С. *Михаил Шолохов и его творчество*. – Санкт-Петербург: Академический проект, 2000. – 448 с.

7. Чалова А.П. Углубление христианского содержания концепции образа Ильиничны в романе-эпопее М.А. Шолохова «Тихий Дон» // *Вестник Сургутского государственного педагогического университета*. – 2012. – № 5. – С. 176–182.

8. Ломакина С.А. Материнство как основа нравственного уклада казачьего дома (по роману-эпопее М.А. Шолохова «Тихий Дон») // *Филологos*. – 2022. – № 1 (52). – С. 56–61. – DOI: 10.24888/2079-2638-2022-52-1-56-61.

9. Поль Д.В. Герои-хранители в прозе Шолохова // *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Литературоведение. Журналистика*. – 2008. – № 2. – С. 11–19.

XALQ KITOBLARINING KOMPOZITSION TUZILISHI VA SYUJET QURILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorova Mahliyo Abdumalik qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktaranti
Email: mahliyosattorova05@gmail.com

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq kitoblarining kompozitsion tuzilishi va syujet qurilishiga xos badiiy qonuniyatlar tahlil qilinadi. Xalq kitoblarining folklor hamda yozma adabiyot oralig‘ida shakllangan sinkretik tabiati ularning kompozitsiyasiga ham bevosita ta’sir etgani asoslanadi. Asarlarda an’anaviy boshlanma, qahramonning dunyoga kelishi yoki unga xos alohida belgining namoyon bo‘lishi, muhabbatning tug‘ilishi, safarga chiqish, to‘siqlarga duch kelish, yordamchi obrazlarning paydo bo‘lishi, sinovlar va yakun kabi qismlarning muayyan izchillikda kelishi ko‘rib chiqiladi. “Tohir va Zuhra”, “Sanobar”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Zevarxon” kabi asarlar misolida syujetning sarguzashtlilik, ko‘p epizodlilik, motivlar takrori va variantlilik xususiyatlari yoritiladi. Nasr va nazmning o‘zaro almashib kelishi, lirik chekinishlar, tush, safar, ayriliq, uchrashuv va sinov motivlarining kompozitsion vazifasi ochib beriladi. Xalq kitoblaridagi kompozitsiya qat’iy qolip emas, balki ijro, qayta hikoyalash va kitobat jarayonida o‘zgarib borgan ochiq badiiy tizim sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *xalq kitoblari, kompozitsiya, syujet, motiv, epizod, qissaxonlik, variantlilik, nasr va nazm, ishqiy-sarguzasht, folklor, yozma adabiyot.*

Аннотация. *В статье анализируются особенности композиционной структуры и сюжетного построения узбекских народных книг. Обосновывается положение о том, что синтетическая природа народной книги, сформировавшейся на пересечении устного фольклора и письменной литературы, непосредственно определила характер её*

композиции. Рассматривается последовательность таких компонентов, как традиционное начало, рождение или характеристика героя, возникновение любви, отправление в путь, преодоление препятствий, появление помощников, испытания и финал. На материале произведений «Тахир и Зухра», «Санобар», «Ашик Гариб и Шахсанам», «Зевархан» раскрываются приключенческий характер сюжета, его многоэпизодность, повторяемость мотивов и вариантность. Особое внимание уделено функциям прозаических и стихотворных фрагментов, лирических отступлений, мотивов сна, путешествия, разлуки и встречи. Композиция народной книги рассматривается как подвижная художественная система, изменявшаяся в процессе исполнения, переписывания и народной переработки.

Ключевые слова: *народные книги, композиция, сюжет, мотив, эпизод, сказительство, вариантность, проза и поэзия, приключенческий сюжет, фольклор, письменная литература.*

Abstract. *This article examines the compositional structure and distinctive principles of plot construction in Uzbek folk books. It argues that the synthetic nature of the folk book, which developed at the intersection of oral folklore and written literature, directly influenced its narrative organization. Particular attention is given to such recurrent structural elements as the traditional opening, the birth or characterization of the protagonist, the emergence of love, departure on a journey, obstacles, helper characters, trials, reunion and conclusion. Folk books such as "Tahir and Zuhra", "Sanobar", "Ashiq Gharib and Shahsanam", and "Zevarkhan" are analysed in terms of adventure-based plot development, episodic expansion, repetition of motifs and textual variation. The article also discusses the compositional functions of alternating prose and verse, lyrical digressions, dreams, journeys, separation and reunion. The composition of the folk book is interpreted not as a rigid scheme but as a flexible artistic system transformed through oral performance, retelling, manuscript transmission and literary adaptation.*

Keywords: *folk books, composition, plot, motif, episode, storytelling, variation, prose and verse, romantic adventure, folklore, written literature.*

KIRISH

Xalq kitoblari haqida gap ketganda, avvalo, ularning g‘oyaviy mazmuni, xalq orasida mashhurligi yoki folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi o‘rni tilga olinadi. Biroq bu asarlarning uzoq vaqt davomida kitobxon va tinglovchi e’tiborini saqlab kelishida voqealarning qanday qurilgani, bir epizodning

ikkinchisiga qay tarzda ulanib borgani, syujetdagi keskinlikning qanday yuzaga keltirilgani ham alohida ahamiyatga ega. Xalq kitoblarining kompozitsiyasi tashqaridan qaraganda sodda ko‘rinishi mumkin: qahramon biror maqsad bilan yo‘lga chiqadi, to‘siqlardan o‘tadi va oxir-oqibat o‘z niyatiga yetadi yoki fojeali qismatga duch keladi. Aslida esa bu sodda chiziq ichida bir-biriga bog‘langan ko‘plab motiv, yordamchi syujet, she’riy parcha, tasodifiy uchrashuv, tush, ayriliq, sinov va qaytish epizodlari mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalq kitoblarining syujeti va kompozitsiyasini o‘rganishda umumiy folklorshunoslikka oid nazariy manbalar bilan bir qatorda, bevosita xalq kitoblariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham muhimdir. “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligida epik asarlarning syujeti, motivlarning an’anaviy tabiati va og‘zaki ijoddagi variantlilik masalalari keng yoritilgan [1]. O. Safarovning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darsligida esa xalq nasri va epik janrlarning shakllanish qonuniyatlari, folklor asarlarining ijro jarayoni bilan bog‘liq jihatlari izohlanadi [2]. Mazkur darslikning 2010-yilda “Musiqa” nashriyotida chop etilgani va 368 betdan iboratligi kutubxona kataloglarida tasdiqlangan.

M. Jo‘rayev va J. Eshonqulovning “Folklorshunoslikka kirish” asari mazkur mavzu uchun ayniqsa muhim, chunki unda syujet va motiv tushunchalari, epik tafakkurning tuzilishi, folklor asarlarining tarqalish va o‘zgarish mexanizmlari nazariy jihatdan izohlanadi [3]. 2017-yilda “Barkamol fayz media” nashriyotida chop etilgan bu qo‘llanmada motiv va syujet masalalari alohida o‘rin olgan.

Rahmonqul Orzibekovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida xalq kitoblari yozma adabiyot va folklorning o‘zaro aloqasi doirasida batafsil ko‘rib chiqilgan [4]. Muallif “Tohir va Zuhra”da voqealarning tez rivojlanishi, tasodiflarning ko‘pligi, xalq qissalariga xos hikoyalash tarzini, shuningdek, nasriy bo‘laklarning voqealar o‘rtasini bog‘lovchi vazifasini ko‘rsatadi. “Sanobar” misolida esa voqealar asosan nasrda, qahramonlarning ruhiy holat va munosabatlari she’riy shakllarda berilishini qayd etadi [4].

Xalq kitoblarini maxsus o‘rgangan Haydar Oqbo‘tayevning ilmiy merosi Botir Oqbutayev tomonidan tizimli ravishda tahlil qilingan. H. Oqbo‘tayev xalq kitoblarining tasnifi, mualliflik masalasi, poetikasi, variantlari va litografik nusxalariga oid qator tadqiqotlar yaratgan, jumladan, “Tohir va Zuhra” poetikasi, uning variantlari hamda “Qissai Sanobar”ning poetik xususiyatlariga

alohida murojaat qilgan [5]. Botir Oqbutayevning maqolasida mazkur tadqiqotlar nomma-nom qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Xalq kitoblarida syujetning harakatga kelishi ko‘pincha qahramon hayotidagi muayyan yetishmovchilik yoki orzu bilan bog‘lanadi. Bu farzandsizlik, muhabbat, tushda ko‘rilgan go‘zalga yetish istagi, ayriliq, yo‘qotish yoki zulmdan xalos bo‘lish ehtiyoji bo‘lishi mumkin. Dastlabki holat asarning keyingi voqealari uchun sabab yaratadi. Masalan, qahramon tushida parizodni ko‘radi va sevib qoladi; shu voqea uni odatiy makondan chiqarib, sarguzashtlar dunyosiga olib kiradi. Shunday qilib, tush kompozitsiyada shunchaki bezak emas, balki syujetni boshlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

“Sanobar” syujeti bu jihatdan xarakterlidir. Sanobar tushida uzoq yurt go‘zalini ko‘rib, unga oshiq bo‘ladi va visol umidida safarga chiqadi. Keyin dengizdagi to‘fon, hamrohlaridan ayrilish, turli xavfli makonlarga tushish, devlar bilan jang, sehrli yordamchilarga duch kelish kabi epizodlar ketma-ket keladi [4]. Rahmonqul Orzibekov “Sanobar”dagi ana shu voqealarni ishqiy-romantik xalq kitoblariga xos umumiy syujet qolipi bilan bog‘laydi. Syujet “istak — safar — to‘siq — sinov — yordam — maqsadga erishish” tarzidagi harakatni hosil qiladi.

NATIJALAR

Xalq kitoblarining ko‘zga tashlanadigan jihatlaridan biri ko‘p epizodlilikdir. Voqealar bitta markaziy ziddiyat atrofida rivojlanadi, lekin qahramon maqsadiga bevosita bormaydi. Uning yo‘lida yangi qahramon, yangi makon yoki yangi muammo paydo bo‘ladi. Har bir epizod go‘yo o‘z ichida kichik syujet hosil qiladi: kirish, to‘siq va yechim. Ana shu kichik syujetlar asosiy voqea yo‘nalishiga qo‘shilib, katta kompozitsiyani tashkil etadi.

Bunday tuzilish og‘zaki ijro sharoiti bilan ham bog‘liq. Qissaxon asarni bir o‘tirishda boshidan oxirigacha aytib bermasligi mumkin. Shu bois voqealarning alohida sarguzashtlarga bo‘linishi tinglovchi uchun qulay bo‘lgan. Har bir qismda qiziq voqea yoki kutilmagan vaziyat yuzaga kelishi esa tinglovchining diqqatini ushlab turishga xizmat qilgan. R. Orzibekov qissaxonlar xalq kitoblarini xotirada saqlab, o‘ziga xos ohang va usulda ijro qilganini, syujet va mazmunning xalq xotirasidan mustahkam joy olishida ularning xizmatini ta’kidlaydi [4].

Ko‘p epizodlilik ba’zan tasodiflarning ko‘payishiga ham olib keladi. Zamonaviy roman mezoni bilan qaralganda ayrim uchrashuv yoki najot

epizodlari mantiqan haddan tashqari qulay ko‘rinishi mumkin. Lekin xalq kitobi poetikasida tasodifning o‘z qonuniyati bor. Qahramon yo‘ldan adashadi, aynan kerakli odamga duch keladi, falokatdan omon qoladi yoki sehrli yordam oladi. Bular voqeani davom ettirish va qahramonni yangi sinovga olib kirish vositasidir.

Xalq kitoblarida ayrim motivlarning turli asarlarda qayta-qayta uchrashi tasodifiy emas. Tushda go‘zalni ko‘rish, uzoq safar, dengizdagi falokat, ayriliq, maktub, yo‘ldagi yordamchi, sehrli qush, dev yoki raqib bilan to‘qnashuv, niqoblangan qahramon, visolga yetish kabi motivlar bir qissadan ikkinchisiga o‘tadi. Jo‘rayev va Eshonqulov folklordagi motiv va syujetning an’anaviy tabiatini epik ijodning asosiy masalalaridan biri sifatida tahlil qiladilar [3].

Masalan, “Sanobar” bilan “Qissai Sayfulmuluk” orasidagi syujet yaqinligi tadqiqotlarda alohida qayd etilgan. Har ikki asarda qahramon tushida uzoq yurtdagi go‘zalni ko‘rib sevadi, uning izidan safarga chiqadi, ko‘plab g‘aroyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi [4]. Bu holatni bir asarning ikkinchisidan oddiy ko‘chirib olinishi deb baholash yetarli emas. Folklor va xalq kitobi poetikasida tayyor motiv yangi qahramon, yangi geografik muhit, yangi tafsilot va yangi ijro uslubida qayta ishlanadi. Natijada tanish syujet formulasi boshqa badiiy mazmun kasb etadi.

Xalq kitoblarining kompozitsion qurilishida nasr va nazmning almashinib kelishi alohida ahamiyatga ega. Nasriy qism, odatda, voqeaning tashqi harakatini olib boradi: qahramon yo‘lga chiqadi, bir shahardan boshqasiga boradi, kim bilandir uchrashadi, to‘qnashuv sodir bo‘ladi. She’riy parcha esa voqea oqimini bir muddat sekinlashtirib, qahramonning ruhiy kechinmasini oldingi o‘ringa chiqaradi.

“Sanobar”da voqealar nasrda bayon qilinib, qahramonlarning ruhiy holati va munosabatlari to‘rtliklar hamda aruzdagi she’riy shakllarda ifodalanishi qayd etilgan [4]. Bu yerda nazm syujetdan tashqarida turgan bezak emas. U qahramonning ichki holatini ochib, voqeaga hissiy mazmun beradi. Ayriliq epizodidagi she’r bilan oddiy yo‘l tasviri bir xil vazifani bajarmaydi: birinchisi kechinmani chuqurlashtiradi, ikkinchisi esa hodisalarni bog‘laydi.

“Tohir va Zuhra”ning kitobiy talqinida ham nasriy qismlarning boblar va voqealar orasini bog‘lovchi vazifasi, qahramonlarning kechinmalari esa ko‘proq lirik she’rlarda namoyon bo‘lishi kuzatiladi [4]. Demak, xalq kitobi

kompozitsiyasida tashqi voqea bilan ichki tuyg‘u ikki xil ifoda vositasi orqali o‘zaro muvozanatga keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xalq kitoblarining kompozitsion tuzilishi ularning badiiy tabiatini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Bu asarlardagi voqealar tasodifiy tarzda bir-biriga qo‘shilib ketmagan. Ularning katta qismida qahramonning dastlabki holati, istak yoki muhabbatning paydo bo‘lishi, safarga chiqish, to‘siqlar, sinovlar, yordamchilar, ziddiyatning keskinlashuvi va yakun singari kompozitsion bo‘g‘inlar muayyan izchillikda faoliyat ko‘rsatadi.

Ayni paytda bu tartib qat’iy sxema emas. Har bir xalq kitobi umumiy an’anaviy qolipni o‘z mavzusi va obrazlar tizimiga moslashtiradi. “Sanobar”da fantastik safar va sarguzashtlar yetakchi bo‘lsa, “Tohir va Zuhra”da muhabbat bilan ijtimoiy to‘siq o‘rtasidagi ziddiyat markazga chiqadi. “Oshiq G‘arib va Shohsanam”da safar va ayriliq sadoqat sinoviga aylanadi. “Zevarxon” kabi asarlarda esa og‘zaki va yozma variantlarning ko‘pligi syujetning doimo qayta shakllanganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi: darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 1990. — 304 b.

2. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: darslik. — Toshkent: Musiqa, 2010. — 368 b.

3. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. — 180 b.

4. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. XVII–XIX (I yarmi) asrlar: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. — 272 b.

5. Oqbutayev B. X. O‘zbek xalq kitoblari tadqiqotchisi // Modern Science and Research. — 2024. — Vol. 3. — Issue 5. — B. 825–830. — DOI: 10.5281/zenodo.11236833.

6. O‘zbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik. 3-tom. — Toshkent: Fan, 1978.

7. Abdusalomova N. Sh. “Zevarxon” dostonining o‘rganilishi // Til va adabiyot ta’limi. — Toshkent, 2024. — № 3. — B. 70–72.

MILLIY-TARIXIY REALIYALARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHNING LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLARI

Matchanova Marhabo Umidbek qizi,
Xorazm viloyati Xiva tumani, 9-sonli maktabi ingliz tili fani o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchi.
Elektron pochta: matchanovamarhabo2@gmail.com

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy-tarixiy realiyalarning ingliz tiliga tarjima qilinishida yuzaga keladigan leksik-semantik muammolar tahlil qilinadi. Realiya tushunchasining tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi mohiyati, uning boshqa lisoniy birliklardan farqli xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek tiliga xos tarixiy-madaniy leksika namunalari (unvon, lavozim, marosim, kiyim-kechak, o'lchov birliklari va boshqa milliy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar) tanlab olinib, ularning ingliz tilidagi tarjima variantlari qiyosiy-tipologik metod asosida o'rganildi. Tahlil natijasida transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima va funksional analog kabi tarjima usullarining har biri qo'llanilganda ma'no yo'qotilishi yoki ma'no kengayishi holatlari kuzatildi. Maqola yakunida milliy-tarixiy realiyalarni tarjima qilishda ekvivalentlik darajasini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *realiya, milliy-tarixiy leksika, tarjimashunoslik, leksik-semantik muammo, ekvivalentsizlik, transliteratsiya, tasviriy tarjima, madaniy kod.*

Kirish. Har bir xalqning tili o'sha xalqning tarixi, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Til tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismi faqat shu tilda so'zlashuvchi xalqqa xos voqelik va tushunchalarni ifodalaydi. Tarjimashunoslikda bunday birliklar "realiya" atamasi bilan yuritiladi. Realiyalar ma'lum bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, davlat boshqaruv tizimi, urf-odatlari, moddiy madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ularning boshqa tillarda tayyor ekvivalenti mavjud emas [10].

O'zbek tilida ham ana shunday, ayniqsa tarixiy davrlarga oid, boy leksik qatlam mavjud: davlat boshqaruvi bilan bog'liq unvonlar (amir, xon, beklarbegi, mingboshi, qozi), harbiy-ma'muriy tushunchalar (sarboz, lashkarboshi), moddiy madaniyatga oid so'zlar (choyshab, do'ppi, chopon), diniy-marosim leksikasi va

boshqalar. Ushbu so'zlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat lug'aviy ma'noni, balki so'z ortida turgan madaniy-tarixiy ma'lumotni ham yetkazishi zarur bo'ladi. Aynan shu jihat tarjima jarayonini murakkablashtiradi va leksik-semantik muammolarni keltirib chiqaradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda o'zbek tarixiy adabiyoti, ilmiy-ommabop asarlar va rasmiy hujjatlarning xorijiy tillarga, xususan ingliz tiliga tarjima qilinishi keskin ortdi [7].

Tadqiqotning maqsadi — milliy-tarixiy realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan leksik-semantik muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va ekvivalentlik darajasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: 1) realiya tushunchasining tilshunoslikdagi talqinlarini tizimlashtirish; 2) o'zbek tilidagi milliy-tarixiy realiyalarni tematik guruhlarga ajratish; 3) ularning ingliz tilidagi mavjud tarjima variantlarini qiyosiy tahlil qilish; 4) tarjimada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tarixiy-badiiy va ilmiy-ommabop matnlarda uchraydigan milliy-tarixiy realiyalar, predmeti esa ularning ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonidagi leksik-semantik xususiyatlari olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda milliy-tarixiy realiyalar birinchi marta tematik guruhlarga ajratilgan holda, turli janrdagi (ilmiy, ommabop, hujjatli) matnlar doirasida qiyosiy tahlil qilindi va har bir janr uchun alohida tarjima strategiyasi taklif etildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning natijalari tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda, shuningdek tarixiy-etnografik matnlarni xorijiy tillarga tarjima qilish loyihalarida qo'llanilishi mumkinligidadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Realiya tushunchasi tarjimashunoslikka XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo'lib, bu borada birinchi bo'lib bolgar tilshunoslari S.Vlahov va S.Florin o'zlarining "Непереводимое в переводе" nomli asarida realiyalarni alohida lisoniy kategoriya sifatida ko'rsatib, ularni tarixiy, etnografik, geografik va ijtimoiy-siyosiy turlarga ajratdilar. Ular realiyalarni ekvivalentsiz leksikaning bir turi sifatida talqin qilib, ularni tarjima qilishning asosiy usullari — transkripsiya, yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish va tasviriy tarjima ekanligini asoslab berdilar [11].

G'arb tarjimashunosligida Peter Newmark realiyalarni "madaniy so'zlar" (cultural words) deb atab, ularni ekologiya, moddiy madaniyat, ijtimoiy

madaniyat, tashkilotlar va urf-odatlarga oid guruhlarga bo'lgan. Uning fikricha, madaniy so'zlarni tarjima qilishda "chet ellashtirish" (foreignization) va "o'zlashtirish" (domestication) strategiyalari o'rtasida muvozanat topish tarjimonning asosiy vazifasidir [6].

Bu yondashuv keyinchalik Lourence Venuti tomonidan yanada chuqurlashtirilib, tarjima siyosati va madaniy hukmronlik masalalari bilan bog'lab tahlil qilindi [9].

O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov o'zining tarjima nazariyasiga bag'ishlangan asarlarida milliy koloritni saqlash muammosini ko'tarib, so'zma-so'z tarjima bilan erkin tarjima o'rtasidagi nomutanosiblik masalasini yoritgan. N.Komilov va boshqa mahalliy tadqiqotchilar badiiy tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi leksikaning berilishi masalasiga alohida e'tibor qaratganlar [8].

Keyingi davr tadqiqotlarida esa o'zbek tilidagi tarixiy-etnografik leksikaning ingliz, rus tillariga tarjima qilinishi doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida qisman o'rganilgan bo'lsa-da, mavzu hali ham monografik darajada to'liq yoritilmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati badiiy tarjima materialida olib borilgan bo'lib, ilmiy-ommabop va tarixiy-hujjatli matnlardagi realiyalar tarjimasi masalasi nisbatan kam o'rganilgan. Ayni shu bo'shliq mazkur maqolaning tadqiqot yo'nalishini belgilaydi.

Mona Beyker o'zining "In Other Words" asarida ekvivalentsizlikni so'z darajasida, so'z birikmasi darajasida va matn darajasida yuzaga keladigan hodisa sifatida tasniflab, tarjimonning vazifasi — manba tildagi tushunchani maqsad tilda "qayta yaratish" (re-creation) ekanligini ta'kidlaydi [1].

Rus tarjimashunosligida esa V.Komissarov realiyalarni "fon bilimlari" (background knowledge) bilan bog'liq lisoniy birliklar sifatida ko'rib, ularni tarjima qilishda o'quvchining madaniy tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarurligini uqtiradi [4].

Bu fikr mazkur tadqiqotda ham tasdig'ini topdi: xuddi shu realiya ilmiy auditoriya uchun boshqacha, ommabop auditoriya uchun boshqacha tarzda tarjima qilinishi lozimligi aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi milliy-tarixiy realiyalar quyidagi tematik guruhlarga ajratildi: 1) davlat boshqaruvi va unvonlarga oid leksika (amir, xon, bek, vazir, qozi, mingboshi); 2) harbiy-

ma'muriy tushunchalar (sarboz, lashkarboshi, qo'rg'on); 3) moddiy madaniyatga oid so'zlar (do'ppi, chopon, kamzo'l, supa); 4) o'lchov va pul birliklari (tanga, gaz, botmon); 5) diniy-marosim leksikasi (sadaqa, iftor, hashar). Har bir guruh bo'yicha 10 tadan namuna tanlab olinib, ularning ingliz tilidagi turli manbalarda (tarixiy adabiyot tarjimalari, turizm bukletlari, ilmiy maqolalar) qanday berilganligi qiyoslandi.

1-jadval.

Milliy-tarixiy realiyalarning ingliz tilidagi tarjima variantlari.

Realiya (o'zbekcha)	Semantik guruh	Tarjima varianti 1	Tarjima varianti 2	Qo'llanilgan usul
amir	Boshqaruv unvoni	amir (translit.)	emir / ruler	Translit. / funksional analog
do'ppi	Moddiy madaniyat	doppi (translit.+izoh)	skullcap	Translit. / tasviriy tarjima
tanga	Pul birligi	tanga (a silver coin)	coin	Translit.+tasviriy tarjima
mingboshi	Harbiy-ma'muriy	mingboshi (translit.)	chief of a thousand	Translit. / kalька
hashar	Ijtimoiy-marosim	hashar (translit.+izoh)	community work	Translit. / tasviriy tarjima

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir xil realiya turli manbalarda turlicha tarjima qilingan. Masalan, "amir" so'zi ba'zi manbalarda transliteratsiya orqali "amir" shaklida berilsa, boshqalarida funksional analog sifatida "emir" (arab-fors dunyosidagi hukmdorlik unvoni) so'zi bilan almashtirilgan, uchinchi holatda esa umuman noaniq "ruler" (hukmdor) so'zi bilan tarjima qilingan. Bu esa o'quvchida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi, ya'ni Markaziy Osiyoga xos aniq tarixiy-siyosiy mansabning umumiy "hukmdor" tushunchasiga tenglashtirilib, uning o'ziga xosligi yo'qolishi mumkin.

"Do'ppi" so'zining tarjimasida ham xilma-xillik kuzatildi: ba'zi matnlarda "skullcap" (bosh kiyimning umumiy nomi) qo'llanilgan bo'lsa, boshqalarida transliteratsiya asosida "doppi" yoki "doppa" shaklida berilib, izohli izoh (footnote) orqali tushuntirilgan. Tahlil shuni ko'rsatdiki, umumiy nom bilan tarjima qilish tushunarli bo'lsa-da, milliy o'ziga xoslikni yo'qotadi; transliteratsiya esa madaniy o'ziga xoslikni saqlaydi, lekin qo'shimcha izohsiz o'quvchi uchun tushunarsiz qolib ketishi mumkin.

"Tanga" va "botmon" kabi o'lchov-pul birliklarida esa asosan ikki strategiya qo'llanilgani aniqlandi: to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiya qilib, qavs ichida taxminiy zamonaviy ekvivalent ko'rsatish (masalan, "tanga (a historic silver coin)"), yoki umuman zamonaviy o'lchov birligiga moslashtirish

(masalan, "botmon" — "a traditional unit of weight, approximately equal to..."). Birinchi usul aniqlikni, ikkinchi usul esa tushunarlilikni ta'minlaydi, ammo ikkalasi ham to'liq ekvivalentlikni bermaydi, chunki tarixiy o'lchov birliklari davr va hududga qarab o'zgarib turgan [12].

Umumlashtirib aytganda, tahlil qilingan 50 ta namunaning taxminan 42 foizida transliteratsiya, 24 foizida tasviriy tarjima, 18 foizida funksional analog, 16 foizida esa kalьkalash usuli qo'llanilgani (ba'zi namunalarda bir necha usul aralash holda ishlatilgani) kuzatildi.

Bu ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, tarjimonlar orasida yagona standartlashtirilgan yondashuv mavjud emas, natijada bir xil realiyaning tarjimasi manbadan manbaga farq qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy-tarixiy realiyalarni tarjima qilishdagi asosiy muammo ularning "ekvivalentsiz leksika" tabiatidan kelib chiqadi — ya'ni maqsad tilda ushbu tushunchalarni to'liq va aniq ifodalovchi tayyor so'z mavjud emas. Shu sababli tarjimon har doim ikki qutb o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'ladi: bir tomondan aniqlik va milliy koloritni saqlash (transliteratsiya, kalьka), ikkinchi tomondan tushunarlilik va o'quvchi uchun qulaylik (tasviriy tarjima, funksional analog).

Bizningcha, bunday tanlov matnning janriga va maqsadli auditoriyasiga bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Ilmiy-tarixiy matnlarda, xususan tarixchilar va sharqshunoslar uchun mo'ljallangan adabiyotlarda, transliteratsiya va uni izohlovchi lug'at (glossary) yoki footnote qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bunday auditoriya aniqlikni tushunarlilikdan ustun qo'yadi. Ommabop-ma'rifiy va turistik matnlarda esa tasviriy tarjima yoki funksional analogdan foydalanish o'quvchi uchun matnni yengil idrok etishga yordam beradi, biroq bunda milliy koloritning bir qismi yo'qolishi muqarrar.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayrim tarjimonlar bir xil matn ichida ham izchillikni saqlamay, bir realiyani turli joyda turlicha tarjima qilgan. Bu esa tarjima sifatiga jiddiy putur yetkazadi va o'quvchida chalkashlik uyg'otadi. Shu boisdan, milliy-tarixiy realiyalarni tarjima qilishda yagona ichki izchillik (terminologik birlik) ta'minlanishi zarur — bu, ayniqsa, katta hajmdagi tarixiy asarlar yoki ilmiy loyihalar tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat — transliteratsiya standartlarining o'zi ham hali to'liq birxillashtirilmagan. Xususan, lotin-krill-ingliz harflari o'rtasidagi moslik (masalan, "o'" tovushini "o'", "o\"", yoki "oʻ" kabi turlicha belgilar bilan berish) turli manbalarda farq qiladi.

Bu esa xalqaro standart (ISO 9 yoki BGN/PCGN kabi) asosida yagona transliteratsiya tizimini joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi, aks holda bir xil so'zning yozilishida ham nomutanosiblik saqlanib qoladi [2].

Shuni ham ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalar davrida mashina tarjimasi (Google Translate, DeepL kabi tizimlar) ham milliy-tarixiy realiyalarni ko'pincha noto'g'ri yoki umumlashtirilgan tarzda tarjima qiladi, chunki bunday tizimlar statistik va neyron modellarga asoslanib, kontekstdagi madaniy-tarixiy ma'noni to'liq anglay olmaydi[13].

Masalan, "mingboshi" so'zi mashina tarjimasida ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri "thousand head" yoki shunga o'xshash ma'nosiz birikma sifatida berilishi kuzatiladi. Bu holat inson tarjimoni (professional tarjimon)ning realiyalar bilan ishlashdagi o'rnini yanada muhim qilib qo'yadi va kelgusida realiyalarga oid maxsus terminologik bazalarni sun'iy intellekt tizimlariga integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Milliy-tarixiy realiyalar o'zbek tilining o'ziga xos leksik qatlamini tashkil etib, ularni ingliz tiliga tarjima qilish ekvivalentsizlik hodisasi bilan bog'liq murakkab jarayondir.

2. Amaliyotda transliteratsiya, tasviriy tarjima, funksional analog va kalьkalash usullaridan foydalanilmoqda, biroq ularning qo'llanilishida yagona metodologik izchillik mavjud emas.

3. Bir xil realiyaning turli manbalarda turlicha tarjima qilinishi o'quvchida noaniq yoki noto'g'ri tasavvur shakllantirishi mumkin, bu esa ilmiy va tarixiy matnlar tarjimasi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi (qarang: mahalliy tadqiqotchilarning so'nggi tavsiyalari):

— o'zbek tilidagi milliy-tarixiy realiyalarning izohli ikki tilli (o'zbekcha-inglizcha) lug'atini tuzish va uni tarjimonlar uchun me'yoriy manba sifatida joriy etish;

— ilmiy-tarixiy matnlar tarjimasida transliteratsiya + footnote/glossary usulini standart yondashuv sifatida tavsiya etish;

— ommabop matnlarda tasviriy tarjima qo'llanilganda ham, imkon qadar milliy so'zning o'zini qavs ichida transliteratsiya qilib berish (masalan, "a silver coin (tanga)"), bu orqali ham tushunarlilik, ham milliy koloritni saqlash muvozanatini ta'minlash;

— tarjima ta'limi dasturlarida realiyalar tarjimasiga alohida mavzu sifatida e'tibor qaratish va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

Kelgusi tadqiqotlarda milliy-tarixiy realiyalarning boshqa til juftlari (masalan, o'zbek-nemis, o'zbek-fransuz) doirasida tarjimasini o'rganish, shuningdek korpusga asoslangan (corpus-based) miqdoriy tahlil o'tkazish istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 1992. — P. 21–26.

2. ISO 9:1995 — kirill yozuvini lotin yozuviga o‘girish bo‘yicha xalqaro standart; BGN/PCGN — AQSh geografik nomlar kengashi tomonidan qabul qilingan romanizatsiya tizimi.

3. Karimova D. Milliy realiyalarning tarjimada saqlanishi // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. — 2020, №5. — B. 61–66.

4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. — Toshkent: Ma’naviyat, 1999. — B. 84–91.

5. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). — M.: Vysshaya shkola, 1990. — B. 148–155.

6. Newmark P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988. — P. 94–103.

7. Rahimov F. Tarixiy leksikaning tarjimada berilishi muammolari // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. — 2021, №3. — B. 34–39.

8. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978. — B. 108–116.

9. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. — London: Routledge, 1995. — P. 15–25.

10. Vlahov S., Florin S. Непереводимое в переводе. — M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1980. — B. 6–11.

11. Vlahov S., Florin S. Непереводимое в переводе. — M., 1980. — B. 45–52 (realiyalarning tasnifi va tarjima usullari haqidagi bo‘lim).

12. “Tanga” va “botmon” so‘zlarining lug‘aviy izohi uchun qarang: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

13. Mashina tarjimasi tizimlarining madaniy-kontekstual cheklovlari haqida qarang: Baker M. In Other Words. — London, 1992. — P. 180–185

NAZAR ESHONQULNING “QORA KITOB” QISSASIDA MODERNISTIK VA POSTMODERNISTIK POETIKANING UYG‘UNLIGI

Baqoyeva Mavluda Azim qizi,
Buxoro viloyat Kogon tuman 11-umumta’lim maktabi ingliz tili o’qituvchisi

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi modernistik va postmodernistik poetika xususiyatlarining o‘zaro munosabati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarda insonning ichki parokandaligi, yolg‘izlik, gunoh, qo‘rquv, o‘lim, mavjudlikning ma’nosi, ruhiy begonalashuv va shaxsning o‘z “meni” bilan ziddiyati modernistik tafakkurning asosiy belgilari sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, an’anaviy voqelik tasvirining buzilishi, tush va haqiqat chegaralarining beqarorlashuvi, diniy-mifologik obrazlarning yangi semantik vazifada qo‘llanishi, “qora kitob” ramzining ko‘p qatlamliligi, matnning o‘z-o‘ziga murojaat qilishi va badiiy haqiqatning nisbiylashtirilishi postmodernistik poetikaga yaqin xususiyatlar sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Nazar Eshonqul, “Qora kitob”, modernizm, postmodernizm, poetika, ramziylik, ekzistensial tafakkur, ichki monolog.*

Abstract. *This article analyzes Nazar Eshonkul's story "The Black Book" from the point of view of the interaction of modernist and postmodernist poetics. The work shows that the inner confusion of man, loneliness, sin, fear, death, the meaning of existence, spiritual alienation and the conflict of the individual with his own "I" are manifested as the main features of modernist thinking. At the same time, the distortion of the traditional image of reality, the destabilization of the boundaries of dreams and reality, the use of religious and mythological images in a new semantic task, the multi-layeredness of the "black book" symbol, the self-referentiality of the text and the relativization of artistic truth are interpreted as features close to*

postmodernist poetics.

Keywords: *Nazar Eshonkul, "The Black Book", modernism, postmodernism, poetics, symbolism, existential thinking, internal monologue.*

Аннотация. *В данной статье анализируется рассказ Назара Эшонкуля «Черная книга» с точки зрения взаимодействия модернистской и постмодернистской поэтики. Работа показывает, что главными чертами модернистского мышления являются внутренняя путаница человека, одиночество, грех, страх, смерть, смысл существования, духовное отчуждение и конфликт индивида со своим собственным «я». В то же время, искажение традиционного образа реальности, дестабилизация границ снов и реальности, использование религиозных и мифологических образов в новой семантической задаче, многослойность символа «черной книги», самореферентность текста и релятивизация художественной истины интерпретируются как черты, близкие к постмодернистской поэтике.*

Ключевые слова: *Назар Эшонкул, «Черная книга», модернизм, постмодернизм, поэтика, символизм, экзистенциальное мышление, внутренний монолог.*

KIRISH

XX asr oxiridagi o‘zbek nasrida insonning tashqi ijtimoiy faoliyatidan ko‘ra uning ichki olami, ong va ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni tasvirlashga intilish sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu jarayon milliy nasrning an’anaviy realistik tasvir usullaridan voz kechganini anglatmaydi, balki insonni badiiy anglash vositalarining kengayishi bilan bog‘liqdir. Nazar Eshonqul ijodi aynan shunday poetik izlanishlar bilan ajralib turadi. Adib qahramonlarini faqat muayyan ijtimoiy vaziyatdagi shaxs sifatida emas, balki o‘z mavjudligining ma’nosi, gunohi, xotirasi, qo‘rquvi va o‘limi haqida iztirob bilan fikr yuritayotgan murakkab ruhiy mavjudot sifatida tasvirlaydi.

“Qora kitob” qissasida bu xususiyat ayniqsa yorqin ko‘rinadi. Asarning markazida an’anaviy voqealar ketma-ketligidan ko‘ra qahramon ongida sodir bo‘layotgan parchalanish, o‘z-o‘zini taftish qilish va mavjudlik bilan bog‘liq savollar turadi. Qissa boshidanoq qahramonning murojaat, iqror va ichki suhbatga yaqin nutqi bilan boshlanadi. U o‘z hayotini izchil biografik hikoya qilishdan ko‘ra, xotira, qo‘rquv, gunoh, tush va tasavvurlar orasida harakat qiladi. Bunday kompozitsion qurilish asarni modernistik ruhiy nasrga yaqinlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Modernistik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri insonning yaxlit, ichki jihatdan barqaror mavjudot sifatidagi tasavvuriga shubha bilan qarashdir. Bunday asarlarda shaxs ko‘pincha o‘zidan, jamiyatdan va mavjudlikdan begonalashgan holda tasvirlanadi. Nazar Eshonqulning qissasidagi qahramon ham aynan shunday ruhiy holatda namoyon bo‘ladi. U o‘zini tinimsiz kuzatadi, xatti-harakatlarini sud qiladi, o‘zidagi qorong‘i kuchlardan qo‘rqadi va hayotining mazmunini anglashga urinadi.

Asarda qahramon o‘zini go‘yoki sud qilinayotgan shaxs sifatida his qiladi. Uning nutqi oddiy hikoya emas, balki iqror, tavba, o‘z-o‘zini fosh etish va ayni paytda o‘zini tushunishga urinishdir. Qissaning dastlabki sahifalaridanoq qahramon gunoh, umr, o‘lim va Iblis tushunchalari haqida iztirob bilan gapiradi. Shu jihatdan qissaning voqeasi tashqi olamdan ko‘ra ong ichida kechadi. Xotiralar ham qahramon uchun obyektiv o‘tmish emas, hozirgi ruhiy holatini shakllantirayotgan tirik tajribadir [1].

Qahramonning bolaligi, oilasi, xotini va farzandlari bilan bog‘liq xotiralarining bir maromda emas, uzilib-ulanib qaytishi ham modernistik vaqt konsepsiyasini yuzaga chiqaradi. Matnda xronologik vaqt o‘rnini psixologik vaqt egallaydi. Qahramon bir lahzada bolalik xotirasiga, undan oilaviy voqeaga, keyin tushga, yana hozirgi holatiga qaytadi. Vaqtning bunday parchalanishi tasodifiy emas. U ichki dunyoning tartibsizligini kompozitsiya darajasiga ko‘chiradi.

Qissada ekzistensial mazmundagi savollar ham muntazam takrorlanadi: inson nima uchun yashaydi, hayotning ma’nosi nimada, gunohning chegarasi qayerda, insonning o‘z taqdirini o‘zgartirish imkoniyati bormi, yovuzlik tashqi kuchmi yoki insonning o‘zida yashaydimi? Qahramon ushbu savollarga qat’iy javob topmaydi. Aksincha, har bir javob yangi shubha tug‘diradi. Bunday poetik tizim didaktik xulosadan ko‘ra ruhiy izlanish jarayonini muhimlashtiradi.

Asarning ko‘p sahifalarida qo‘rquv alohida psixologik kategoriya sifatida shakllantirilgan. Qahramon ayrim hollarda o‘zi yaratgan obrazdan, ayrim paytda o‘zining ichki ovozidan, hatto farzandlari va o‘z hayotining davomidan qo‘rqadi. Ushbu qo‘rquvning aniq bitta obyektga ega emasligi muhimdir. Bu biologik xavfdan tug‘ilgan oddiy qo‘rquv emas, balki inson o‘z mavjudligining nazorat qilib bo‘lmaydigan qatlamlarini anglab qolganidagi ekzistensial dahshatdir.

NATIJALAR

Qissaning eng muhim poetik markazi — “qora kitob”ning o‘zidir. Asar davomida kitob oddiy predmet sifatida qolmaydi. Qahramonning unga munosabati doimo o‘zgarib turadi: u kitobni muqaddaslashtiradi, undan qo‘rqadi, uni yashiradi, o‘qiydi, undan qutulishga urinadi va oxir-oqibat kitob bilan o‘z taqdirini ajratib bo‘lmas holatga keladi.

Matnning keyingi qismlarida qahramonning kitobga bo‘lgan munosabati hatto oilaviy hayotiga ham kirib boradi. U kitobni farzandlaridan yashirishga, uning zararli ta’siridan ularni himoya qilishga urinadi. Shu tariqa “qora kitob” tashqi predmetdan ichki ruhiy bosimning moddiy timsoliga aylanadi. Qahramon kitobni yo‘q qilishni istagan sari uning ta’siridan qutula olmaydi. Bu paradoks asarning asosiy g‘oyalaridan birini ochadi: inson o‘zidagi qorong‘ilikni tashqaridagi narsani yo‘q qilish orqali bartaraf eta olmaydi.

Qissa yakuniga yaqin qahramon “Iblis kitobi” va o‘zining hayoti o‘rtasidagi farqni deyarli yo‘qotadi. Eng muhim semantik burilish shundaki, kitobni topgan shaxs o‘z umrini kitobga, hayotini yozuvga aylantirib qo‘ygandek bo‘ladi. Asarning oxirgi sahifalarida qahramonning “men topib olgan kitob Iblis kitobi edi” mazmunidagi e’tirofi kitobning faqat tashqi manba emasligini ko‘rsatadi. U hayot, xotira, gunoh va qahramonning o‘zini anglash jarayonining qorong‘i nusxasiga aylangan [1].

Mana shu nuqtada modernistik ruhiy iztirob postmodernistik metamatn xususiyati bilan tutashadi. Qahramon kitob haqida hikoya qiladi, ayni paytda o‘zi ham go‘yoki kitob ichidagi qahramonga aylanadi. “Kitob” tushunchasi asarning mavzusi ham, ramzi ham, kompozitsion mexanizmi hamdir. O‘quvchi qaysi biri “haqiqiy” ekanini qat’iy ajrata olmaydi: qahramon kitobni o‘qiyaptimi, kitob qahramonning hayotini boshqaryaptimi yoki butun voqelik qahramon ongida yozilayotgan matnmi? Bu noaniqlik qissaning postmodernistik qatlamini kuchaytiradi.

“Iblis” qissaning eng ko‘p qatlamli obrazlaridan biridir. Asarda uning an’anaviy diniy semantikasi saqlanadi, biroq obraz faqat ilohiy-diniy tushuncha doirasida qolmaydi. Iblis qahramonning ichki qorong‘iligi, vasvasasi, o‘zini o‘zi yemiruvchi tafakkuri va inson tabiatidagi yovuzlik imkoniyatining ramziga aylanadi.

Qahramon bir o‘rinda tashqi yovuz kuch haqida gapirayotgandek ko‘rinsa, boshqa o‘rinda Iblisni o‘ziga juda yaqin his qiladi. Natijada “yovuzlik qayerda?” degan savolning javobi murakkablashadi. Yovuzlik tashqaridan insonni egallaydigan kuchmi yoki insonning o‘zida mavjud imkoniyatmi? Asar bu savolga aniq hukm bermaydi.

Postmodernistik poetikaning muhim xususiyatlaridan biri tayyor madaniy kodlarni yangi kontekstda qayta ishlashdir. Nazar Eshonqul ham Iblis, Odam, Momo Havo, gunoh, jazo kabi qadimiy diniy-mifologik kodlardan foydalanib, ularni zamonaviy insonning ruhiy holatini ifodalash vositasiga aylantiradi. Qissaning ilk sahifalarida insoniyatning gunoh haqidagi qadimiy tasavvurlari eslatiladi. Biroq bu motivlar diniy rivoyatni qayta hikoya qilish uchun emas, qahramon o‘z gunohini universal insoniy gunoh kontekstida tushunishga urinishi uchun xizmat qiladi [1].

Shu tarzda intertekstual aloqa yuzaga keladi. Matn diniy va mifologik xotirani o‘z ichiga qabul qiladi, lekin unga yangi, individual-psixologik mazmun beradi. Bu holat asarda modernistik individuallashuv bilan postmodernistik madaniy kodlarni qayta talqin qilishning tutashgan nuqtalaridan biridir.

Qissaning yana bir muhim xususiyati — real voqelik bilan tush, xotira va xayolning aniq ajratilmasligidir. Qahramon ko‘rgan ayrim manzaralar o‘quvchiga haqiqat sifatida taqdim qilinadi, keyin esa ularning tush yoki ruhiy tasavvur bo‘lishi mumkinligi anglashiladi. Ba’zan esa buning aksi sodir bo‘ladi: tushga o‘xshagan hodisa real hayotning eng kuchli tajribasiga aylanadi.

Asarning keyingi sahifalaridagi qahramonning Iblis bilan bog‘liq dahshatli kechinmalari aynan shu poetik chegarasizlikni ko‘rsatadi. Olov, qiyofa, ta’qib, qochish, o‘limga yaqinlashish tasvirlari naturalistik real voqea sifatida ham, qahramonning ruhiy halokatining ramziy manzarasi sifatida ham o‘qilishi mumkin [1].

Modernizm bu yerda inson ongining subyektivligini asosiy haqiqatga aylantirsa, postmodernistik poetika “haqiqat”ning yagona variantini inkor etadi. O‘quvchiga hodisaning qaysi qatlami real ekanini tekshirish imkoniyati

berilmaydi. Matnda obyektiv voqelikdan ko‘ra qahramonning uni qanday his qilgani muhimlashadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi inson ruhiyati va mavjudlik muammolarini murakkab poetik vositalar orqali ifodalagan asardir. Unda voqealar rivojidan ko‘ra qahramonning ichki holati, uning xotiralari, qo‘rquvlari, aybdorlik tuyg‘usi va o‘z-o‘zi bilan olib borayotgan og‘riqli suhbati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatlar asarning modernistik poetikasini shakllantiradi.

Qissadagi modernistik tafakkur insonning ekzistensial yolg‘izligi, o‘ziga begonalashuvi, “men”ning parchalanishi, psixologik vaqt, ichki monolog va subyektiv voqelik orqali namoyon bo‘ladi. Qahramon uchun tashqi dunyo mustaqil va obyektiv haqiqat sifatida emas, uning ruhiy holati orqali buzilib, o‘zgarib ko‘rinadigan makon sifatida mavjud.

Postmodernistik qatlam esa, eng avvalo, “qora kitob” ramzining ko‘pma’noliligi, Iblis va gunoh haqidagi madaniy-diniy kodlarning qayta talqin qilinishi, matn bilan hayot chegarasining beqarorlashuvi, tush va voqelikning bir-biriga o‘tishi hamda hikoyachining ishonchliligi masalasining ochiq qolishida namoyon bo‘ladi. Qissa o‘quvchiga tayyor va yakunlangan haqiqatni bermaydi. Uning ma’nosi turli ramzlar, xotiralar va qarama-qarshi ruhiy holatlar orasida shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Eshonqul N. Qora kitob: qissa. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2008. — Elektron nusxa: Ziyouz.com kutubxonasi.

OGAHIY SHE’RIYATIDA OBRO‘ KONSEPTI

A.O‘rozboyev,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijodida obro‘ leksemasining etimologik ildizlari, qadimgi turkiy tildagi “yuz suvi” konsepsiyasi bilan vorisiylik aloqalari hamda uning axloqiy, ijtimoiy va tasavvufiy talqinlari ilmiy tahlil qilinadi. Obro‘ tushunchasi Ogahiy asarlarida shunchaki ijtimoiy e’tibor emas, balki inson ma’naviyatining mezoni sifatida tadqiq etiladi.*

Аннотатsiя: *В данной статье научно анализируются этимологические корни лексемы абро (авторитет, честь) в творчестве Мухаммада Ризы Агахи, её преемственные связи с концептом «лицевая вода» в древнетюркском языке, а также её этические, социальные и мистические интерпретатsии. Понятие авторитета исследуется в произведениях Агахи не просто как социальное внимание, а как критерий человеческой духовности.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the etymological roots of the lexeme abro (authority, honor) in the works of Muhammad Rizo Agahi, its successive connections with the concept of “face water” in the ancient Turkic language, as well as its ethical, social, and mystical interpretations. The concept of authority is investigated in Agahi's works not merely as social attention, but as a criterion of human spirituality.*

Kalit so‘zlar: *Ogahiy, obro‘ konsepti, yuz suvi, etimologiya, tasavvuf, ma’naviyat.*

Ключевая слова: *Агахи, концепт обро, честь, этимология, суфизм, духовность.*

Key words: *Agahi, concept of honor, honor, etymology, Sufism, spirituality.*

1. Kirish (Introduction) Muhammad Rizo Ogahiy nafaqat zabardast shoir, balki mohir tarjimon va muarrix sifatida ham o‘zbek tilining leksik

tizimiga fors tilidan o‘zlashgan qatlamning teran singishiga ulkan hissa qo‘shgan. Ogahiy ijodida forscha o‘zlashmalar shunchaki lug‘at boyligini oshirish emas, balki murakkab falsafiy konsepsiyalarni badiiy ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, shoir asarlarida *ob* (suv) komponenti ishtirok etgan leksemalar ham moddiy, ham majoziy ma’nolarda keng qo‘llaniladi. Ushbu qatlam ichida *obro‘* (yuz suvi) tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Maqolada *obro‘* leksemasining etimologik ildizlari, uning qadimgi turkiy tildagi “yuz suvi” konsepsiyasi bilan vorisiylik aloqalari hamda Ogahiy she’riyatida ushbu tushunchaning axloqiy, ijtimoiy va tasavvufiy talqinlari ilmiy tahlil qilinadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Insonning ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini ifodalovchi reputatsiya tushunchasi turkiy tillar oilasida keng semantik ko‘lamga ega. Turkiy xalqlar dunyoqarashida shaxsning jamiyatdagi o‘rni, asosan, uning nomi, sha’ni va obro‘sini anglatuvchi bir nechta tayanch leksemalar orqali ifodalanadi. Xususan, qozoq, qirg‘iz, tatar va boshqa turkiy tillarda bu tushuncha *абырой* (obro‘, avtoritet), *ат* yoki *атақ* (nom, shuhrat), *беделл* (nufuz, vazn) va *намыс* (nomus, or) kabi so‘zlar zanjirini tashkil etadi.

Qadimgi turkiy tilda obro‘ tushunchasining eng birlamchi ifodasi kishining nomi bilan bog‘liq bo‘lgan. *At* leksemasi lug‘atlarda nafaqat “ism”, balki “unvon” va “obro‘” ma’nolarida ham qayd etilgan [4, 61]. Shaxsning obro‘si keng ommalashib, xalq orasida yoyilganda u kü deb atalgan. O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridagi *Tγrk bodun atï kv̈si yoq bolmazun* xitobi buning yorqin dalilidir [4, 320].

Obro‘ so‘zi o‘zbek tilining leksik qatlamida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi eng faol birliklardan biri bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra fors-tojik tiliga mansub murakkab yasama so‘zdir. So‘z ikkita mustaqil ma’noli asosdan tashkil topgan: 1) ob (آب – âb) - qadimgi eroniy tillardagi āp- o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, «suv» ma’nosini anglatadi[10, 32]; 2) *ro‘* (رو – ru) - “yuz”, “chehra”, “bashara” ma’nolarini anglatuvchi bu qism o‘rta fors tilidagi rōy shaklining rivojlangan ko‘rinishidir [11, 6-7]. M.Hasando‘st ob so‘zining nafaqat suv, balki “yaltirash”, “jilo” va “nur” ma’nolarini ham qayd etadi [8, 11-12].

3. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Ushbu maqolani yozishda tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-tarixiy tahlil, lingvopoetik va semantik

tahlil metodlaridan foydalanildi. Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi misralar lingvomadaniy va etimologik jihatdan o‘rganilib, turkiy va forsiy manbalar (xususan, Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" hamda fors tilining etimologik lug‘atlari) asosida qiyosiy tadqiq etildi. Obro‘ konseptining she’riy matndagi o‘rni istiora, tashbeh va tanosib san’atlari tahlili orqali ochib berildi.

4. Tahlil va natijalar (Analysis and results) shoir asarlarida *ob* (suv) komponenti ishtirok etgan leksemalar ham moddiy, ham majoziy ma’nolarda keng qo‘llaniladi. Ushbu qatlam ichida *obro‘* (yuz suvi) tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Maqolada *obro‘* leksemasining etimologik ildizlari, uning qadimgi turkiy tildagi «yuz suvi» konsepsiyasi bilan vorisiylik aloqalari hamda Ogahiy she’riyatida ushbu tushunchaning axloqiy, ijtimoiy va tasavvufiy talqinlari ilmiy tahlil qilinadi.

Obro‘ آبرو so‘zi Ogahiy ijodida insonning sha’ni va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi asosiy tushunchalardan biridir. Etimologik jihatdan “yuzning suvi” ma’nosini anglatuvchi bu so‘z, insonning ichki sofligi va hayotiy kuchining ko‘zgusi sifatida talqin qilinadi.

Ogahiy ijodida fors tilidan o‘zlashgan *obro‘* leksemasi shunchaki ijtimoiy e’tibor emas, balki inson ma’naviyatining mezoni, uning ikki olamdagi najoti ramzi sifatida talqin etiladi.

Insonning ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini ifodalovchi *reputatsiya* tushunchasi turkiy tillar oilasida keng semantik ko‘lamga ega. Turkiy xalqlar dunyoqarashida shaxsning jamiyatdagi o‘rni, asosan, uning nomi, sha’ni va obro‘sini anglatuvchi bir nechta tayanch leksemalar orqali ifodalanadi. Xususan, qozoq, qirg‘iz, tatar va boshqa turkiy tillarda bu tushuncha *абырой* (obro‘, avtoritet), *ат* yoki *атақ* (nom, shuhrat), *беделл* (nufuz, vazn) va *намыс* (nomus, or) kabi so‘zlar zanjirini tashkil etadi.

Абырой / abıroy so‘zi turkiy tillardagi (qozoq, tatar) eng yaqin analog bo‘lib, u atrofdagilarning hurmati, shaxsiy sharaf va yuqori nufuzni ichiga oladi. Bu tushuncha ijtimoiy fikr va shaxsning ma’naviy yaxlitligi o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi.

Беделл so‘zi shaxsning jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy «vazni»ni, uning ta’sir kuchini anglatadi.

Намыс / namıs esa ko‘pincha *абырой* bilan yonma-yon keladigan bu leksema insonning ichki ori va vijdon amrini anglatib, shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini ifodalaydi.

Turkiy tillardagi *абыroy* va *намыs* tushunchalari ijtimoiy fikrning yuqori qiymatini ifodalasa, Ogahiy qo‘llagan *obro‘* konsepsiyasi insonning ichki ma’naviyati (binosi) va uning tashqi namoyondasi (xil’ati) o‘rtasidagi dialektik bog‘lanishni ko‘rsatadi. Demak, Ogahiy ijodidagi *obro‘* konsepti tahlili nafaqat tilshunoslik, balki turkiy ma’naviyatning islomiy va forsiy qadriyatlar bilan kesishgan nuqtasidagi yuksak falsafiy tadqiqdir.

Qadimgi turkiy xalqlar tafakkurida insonning jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy qiyofasi bir nechta tayanch tushunchalar orqali ifodalangan bo‘lib, ular reputatsiyaning ijtimoiy, ma’naviy va harbiy jihatlarini qamrab olgan.

Qadimgi turkiy tilda obro‘ tushunchasining eng birlamchi ifodasi kishining nomi bilan bog‘liq bo‘lgan. *At* leksemasi lug‘atlarda nafaqat “ism”, balki “unvon” va “obro‘” ma’nolarida ham qayd etilgan. Masalan, “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da keltirilgan *Ata ornï atï og‘ulqa qalur* (Otaning maqomi va obro‘si o‘g‘ilga qoladi) misoli *at* shunchaki ism emas, balki avloddan-avlodga o‘tuvchi ma’naviy meros va obro‘ ekanini tasdiqlaydi [4, 61]. Shaxsning obro‘si keng ommalashib, xalq orasida yoyilganda u *kü* deb atalgan. Ushbu birlik manbalarda “dovrug‘”, “shuhrat”, “mashhurlik” ma’nolarini anglatadi [3, 178]. Qadimgi turkiy matnlarda ushbu ikki so‘z *at kü* (hozirgu ezgu) juftligi holida kelib, bugungi “obro‘” tushunchasini to‘liq ifodalagan. O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridagi *Tyrk bodun atï kv̈si yoq bolmazun* (Turk xalqining nomi va shuhrati yo‘q bo‘lmasin) xitobi buning yorqin dalilidir [4, 320].

Turkiy tillarda obro‘ning eng nafis va axloqiy ifodasi kishining yuzidagi ma’naviy “suv” (tarovat)dir. *Yüz suvi* (yuz suvi, sha’n) tushunchasi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy mezon sifatida markaziy o‘rin tutadi: *Kishi kərki sözdur, bu til – yuz suvi...* (Kishining ko‘rki so‘z, til esa uning yuz suvi, ya’ni obro‘sidir) [11, 32]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu ibora keyinchalik forscha *obro‘* (*âb* – suv, *ru* – yuz) so‘zining o‘zlashishi va keng singib ketishiga bu holat ifoda, ya’ni har ikkala xalq tafakuri va olamni anglashidagi umumiylik asos bo‘lgan. Qadimgi turkiy tilda yuzdagi “suv” insonning uyalishi, iffati va jamiyat oldidagi ma’naviy “yuz yorug‘ligi”ni anglatgan [1, 542].

Qadimgi turkiy tilda obro‘ tushunchasi *at* (ijtimoiy maqom), *kü* (ommaviy shuhrat) va *yüz suvi* (axloqiy sha’n) uchligidan iborat bo‘lgan.

Obro‘ so‘zi o‘zbek tilining leksik qatlamida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi eng faol birliklardan biri bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra fors-tojik tiliga mansub murakkab yasama so‘zdir.

So‘z ikkita mustaqil ma’noli asosdan tashkil topgan:

ob (آب – âb). Qadimgi eroniy tillardagi āp- o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, «suv» ma’nosini anglatadi. Ushbu o‘zakning tarixi hind-yevropa tillariga borib taqaladi (qadimgi hind tilida: *āpah*, avesto tilida: *āp*-, o‘rta fors-pahlaviy tilida: *āp*) [9, 6-7].

Ro‘ (رو – ru). “Yuz”, “chehra”, “bashara” ma’nolarini anglatuvchi bu qism o‘rta fors tilidagi rōy shaklining rivojlangan ko‘rinishidir [11, 6-7].

So‘zning lingvistik tabiatida “yuzning suvi” (namligi, tarovati) degan dastlabki denotativ ma’no yotadi. Sharq xalqlari tafakkurida insonning salomatligi, ichki xotirjamligi va g‘ururi uning yuzidagi tarovat (suv) bilan o‘lchangan.

Etimologik jihatdan yuzning “suvli” bo‘lishi hayotiy kuch va sha’n-sharafni anglatsa, “yuzning qurishi” yoki “suvning qochishi” uyat, sharmandalik va mag‘lubiyat belgisi hisoblangan. Shu sababli, “obro‘ to‘kilishi” (forscha *âberu-rizi*) iborasi ma’naviy inqiroz va jamiyat oldidagi izzat-nafsning toptalishi sifatida semantik barqarorlik kasb etgan [8, 11-12]. M.Hasando‘st *ob* so‘zining nafaqat suv, balki “yaltirash”, “jilo” va “nur” ma’nolarini ham qayd etadi [8, 7]. Demak, *obro‘* – inson yuzidagi ma’naviy nur va jiloning aksidir.

Ogahiy inson qadrini ilm bilan bog‘laydi. Ilmsizlik (jahl) nafaqat bu dunyoda, balki oxiratda ham insonning ma’naviy qiyofasini, ya’ni «yuz suvini» to‘kishini quyidagicha ifodalaydi:

Kasbi ilm etmay kishi gar qolsa mahzi jahl ila,

Ikki olam *obro‘si* bo‘lg‘usi barbod anga [7, 39].

Bu o‘rinda *obro‘* so‘zi insonning ikki olamdagi ma’naviy qiyofasi sifatida kelib, M.Hasandust lug‘atidagi “insonning hayotiy kuchi va g‘ururi” degan etimologik ta’rifga to‘la mos keladi.

Ogahiyning siyosiy-axloqiy qarashlarida hukmdorning “obro‘”si uning shaxsiy shuhratida emas, balki xalqning omonligi va mulkning eminligida (tinchligida) ko‘rinadi:

Mulk-u millatga emin bo‘lsa agar ogohlar,

Ikki olam *obro‘yin* hosil etkay shohlar [7, 119].

Shoir bu yerda *obro‘* so‘zining etimologik ildizidagi *hayotiy kuch* (M.Hasandust talqini) ma’nosini ijtimoiy hayotga ko‘chiradi. Shohning obro‘si –

uning ogohligidir. *Ogoh* so‘zi shoirning taxallusi bilan ham hamohang bo‘lib, ilohiy va dunyoviy bilimlardan xabardorlikni anglatadi. Adolatli shohning yuz suvi (obro‘si) raiyatning roziligi bilan sug‘oriladi.

Baytdagi *ikki olam obro‘si* iborasi agar shoh ogoh bo‘lmasa, uning davlat binosi (binoyi obro‘si) zavol topadi g‘oyasi bilan bog‘liq. Ogahiy uchun obro‘ shaxsiy sha’n emas, balki mulk (davlat) va millatni birlashtiruvchi ma’naviy “yuz suvi”dir. Bu suvning manbai – ogohlik, natijasi esa ikki olam saodatidir.

Quyidagi baytda Ogahiy tashbeh, istiora va tanosib san’atlarini shunday zargarlik bilan qo‘llaganki, *obro‘* o‘quvchi ko‘z o‘ngidia shunchaki mavhum tushuncha emas, balki muazzam bino va bog‘ sifatida gavdalanadi.

Bashar xayli vujudi bog‘iga devor xil’atdur,
Binoyi *obro‘si* tarhiga me’mor xil’atdur. [7, 111]

Ogahiy inson vujudini shunchaki jism emas, balki bir *bog‘* deb ataydi (*vujud bog‘i*). Bu bog‘ning mevasi va tarovati insonning ichki ma’naviyatidir. Biroq har qanday bog‘ tashqi ofatlardan himoyalanishi uchun devor bilan o‘ralishi shart. Shoir bu yerda *xil’at*ni (kiyim, tashqi ko‘rinish, odob) o‘sha bog‘ni saqlovchi *devor*ga o‘xshatadi, ya’ni insonning odobi va kiyinishi (xil’ati) uning ichki olamini – obro‘sini tashqi zavollardan asraydi.

Sharq she’riyatida, xususan Ogahiy asarlarida *xil’at* (خِلْعَة) tushunchasi murakkab semantik qatlamlarga ega. Ushbu so‘z arab tilidagi *xala’a* (I – yechmoq, kiyimni yechib olmoq; II – taqdirlamoq, hadya etmoq) [2, 242] fe’lidan olingan bo‘lib, dastlab hukmdorning o‘z egnidagi kiyimini yechib, munosib ko‘rilgan shaxsga in’om qilishini anglatgan. Ogahiy ijodida ushbu termin maishiy ma’no chegarasidan chiqib, quyidagi ikkita muhim jihatni qamrab oladi: 1) Xil’at– insonning ijtimoiy qiyofasi. Bitta bayt doirasida u ham *devor*, ham *me’mor* sifatida talqin qilinishi bejiz emas. Agar inson vujudi bir bog‘ bo‘lsa, xil’at (ya’ni insonning tashqi xatti-harakati, kiyinishi va odob-axloqi) o‘sha bog‘ni begona ko‘zlardan va ofatlardan saqlovchi devordir. Xil’at bo‘lmasa, “vujud bog‘i” va undagi obro‘ mevasi zavol topadi. 2) Xil’at – ilohiy in’om va axloqiy go‘zallik. Baytdagi *me’mor xil’atdur* gapi tasavvufiy ma’noda insonning asl tabiatiga Tangpi tomonidan berilgan axloq va odob nurini ham ifodalaydi. Xil’at insonning egnidagi moddiy libos emas, balki uning ma’naviy obro‘ binosini quruvchi, unga shakl va mazmun beruvchi bosh me’mordir. Mazkur baytida *xil’at* tanosub san’atining bosh bo‘g‘ini bo‘lib, u “bino”, “tarh”, “me’mor” va “bog‘” kabi obrazlarni yagona falsafiy konsepsiyaga birlashtirgan.

Ikkinchi misrada tasvir yanada murakkablashadi. Obro‘ endi “bino”ga qiyoslanadi (*binoyi obro‘*). Har qanday bino qurilishidan avval uning chizmasi – *tarhi* bo‘lishi kerak. Xil’at (odob) esa bu yerda nafaqat chizma, balki o‘sha binoni tiklayotgan *me’mor* vazifasida kelmoqda. Ogahiy bu yerda juda nozik bir haqiqatni aytmoqda: insonning obro‘si (binosi) o‘z-o‘zidan tiklanmaydi. Uni quruvchi me’mor – insonning tashqi xatti-harakati, egnidagi “odob xil’ati”dir. Agar me’mor (xil’at) bo‘lmasa, obro‘ binosining tarhi (loyihasi) qog‘ozda qolib ketadi, bino qad rostlamaydi. Shoirning ushbu baytini tahlil qilar ekanmiz, “obro‘” so‘zining etimologik ildizidagi “tarovat va jilo” ma’nolari mazkur “bog‘” va “bino” obrazi bilan mukammal tarzda birlashganini ko‘ramiz. Ogahiy tilida *obro‘* bu shunchaki so‘z emas, balki me’mori odob bo‘lgan muhtasham bir imoratdir.

Ogahiy ijodida obro‘ tushunchasi insonning moddiy dunyoga munosabati orqali ham sinovdan o‘tkaziladi. Shoir ta’kidicha, obro‘ sotib olinadigan mato emas. Agar inson el orasida hurmat topish maqsadida o‘z molini (amvolini) noto‘g‘ri sarf etsa, kutilgan natija o‘rniga badnomlikka yuz tutishi mumkin:

El ichra *obro‘ topmoq* tilab sarf etsa amvolin,

Bo‘lur *beobro‘lik* birla elga muttaham yolg‘uz. [7, 138]

Bu yerda *obro‘* va *beobro‘lik* antitezasi orqali shoir muhim bir axloqiy xulosani ilgari suradi: chin obro‘ mol-davlat sarfi bilan emas, balki sof niyat va ma’naviy komillik bilan qo‘lga kiritiladi. Bu fikr Ogahiy tarjima qilgan “Axloqu-l-muhsiniyn” asaridagi saxovat bobi bilan hamohangdir. Unda ta’kidlanishicha, manmanlik va shuhrat uchun qilingan ehson insonning yuz suvini ko‘paytirmaydi, balki kamaytiradi [7, 124]. Shuningdek, shoir inson obro‘sining eng katta dushmani sifatida tama’ni ko‘rsatadi. U obro‘ni “samon” (somon)ga, tama’ni esa “o‘t” (olov)ga qiyoslab, ularning yaqinlashuvi halokatli ekanini uqtiradi:

Chin anglakim, tama’dur o‘tu *obro‘* – samon,

Ul o‘tga berma ushbu samon birla ixtilot. [7, 204]

M.Hasandust lug‘atida «ob» so‘zining nafaqat suv, balki «nur va jilo» ma’nolari borligini hisobga olsak, tama’ o‘ti ana shu ma’naviy nurni kuydirib, insonni zulmatda (sharmandalikda) qoldirishini anglash mumkin. Bu g‘oya Ogahiyning «Guliston» tarjimasidagi: *«Qanoat ila izzat topgan kishi, tama’ ila xor bo‘lgan podshohdan afzaldir»*, degan hikmatli so‘zlari bilan mantiqan tutashadi.

Ogahiy uchun so‘z — inson obro‘si tojining eng qimmatbaho toshidir. Shoir “gavhar so‘z”ni inson obro‘sining “Afsari” (toji)ga tenglaydi:

Deman har sangidilga, Ogahiy, sindurmagil so‘zni-
Ki, inson obro‘yi afsariga keldi gavhar so‘z. [7, 141]

Ushbu baytda tanosib san’ati (“afsar” – toj va “gavhar” – qimmatbaho tosh) orqali obro‘ning badiiy qiymati yuksaltirilgan. Ogahiyning “Shohidu-l-iqbol” asarida muallif so‘z mas’uliyati haqida to‘xtalar ekan, behuda va noo‘rin aytilgan so‘z hukmdor va adibning obro‘sini tushirishini, aksincha, “gavhar so‘z” esa ikki olamda yuz suvi bo‘lishini qayd etadi. Shoir “sangidil” kimsalarga so‘z aytib, obro‘ gavharini “sindirmaslik”ka chaqirishida katta ma’no bor. Bu yerda “sindirish” istiorasi ham so‘zga, ham o‘sha so‘z orqali tiklangan obro‘ga taalluqlidir. Demak, Ogahiy talqinida obro‘ faqat axloqiy tushuncha emas, balki nutqiy madaniyat bilan sug‘orilgan yuksak ma’naviy hodisadir.

Ogahiy tasavvufiy dunyoqarashida haqiqiy obro‘ga erishish nafsni yengish va fano (yo‘qlik) maqomiga intilish bilan bog‘lanadi. Shoir obro‘ni marvaridga, insonni esa sadafga qiyoslab, nozik bir istiorani ilgari suradi:

Obro‘ istar esang bo‘lg‘il fano dayridakim,
Topmag‘ay sohilg‘a chiqsa *obro‘* aslo sadaf.

Bu baytda tashbeh va tanosib san’atlari orqali obro‘ning *suv* bilan bog‘liq etimologik ildizi ochib berilgan. Sadaf (chig‘anoq) ichidagi marvarid o‘z “suv”i (jilosi va qiymati)ni faqat ummon qa’rida, ya’ni xilvatda saqlaydi. Agar u sohilga chiqsa, ya’ni nafs va shuhrat olamiga intilsa, o‘z tarovatini yo‘qotadi. Ogahiyning ushbu qarashi u tarjima qilgan “Miftohu-t-tolibin” asaridagi nafsni poklash haqidagi bob mazmuni bilan uyg‘undir. Unda inson o‘z “yuz suvi”ni saqlashi uchun dunyoviy tama’lardan voz kechishi lozimligi ta’kidlanadi. [6]

Shoir insonni ogohlikka chaqirar ekan, obro‘ va izzat boy berilgandan so‘ng keladigan pushaymonlik befoyda ekanini uqtiradi:

Chunki bordi *obro‘-yu* izzating,
So‘ngra sud etmas nadomat, ey ko‘ngul.

Bu fikr “Qutadg‘u bilig”dagi “yuz suvi”ni asrash haqidagi pandlarga mantiqan yaqindir. Yusuf Xos Hojib ta’kidlaganidek, “yuz suvi” bir marta to‘kilsa, uni qaytib yig‘ib bo‘lmaydi.

Ogahiyning quyidagi bayti *obro‘* so‘zining etimologik asosi bo‘lgan “yuz suvi” tushunchasini lingvistik jihatdan mukammal mustahkamlaydi:

Past fitrat muddaiydin *obro‘* ko‘z tutmakim,

Chashma sori sharmdin yo‘qtur ruxi hardunda *suv*.

Ushbu baytda shoir tanosib san’atini *obro‘* (yuz suvi), *sharm* (uyat), *rux* (yuz) va *suv* leksemalari vositasida qo‘llagan. Past fitratli (razil) kimsaning yuzida “suv” (ya’ni sharm, hayo, obro‘) bo‘lmaydi. Bu yerda “ruxi hardunda suv yo‘qligi” bevosita qadimgi turkiy tildagi “yuz suvi yo‘q” (behayo, obro‘siz) iborasining forsiylashgan badiiy ifodasidir. M.Hasando‘st ta’kidlaganidek, “ob”ning “sharm” bilan bog‘lanishi insonning ijtimoiy qiyofasini belgilaydi [8, 12].

5. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) Muhammad Rizo Ogahiy asarlarida “ob” tarkibli so‘zlar, xususan, *obro‘* konsepsiyasining tadqiqi quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Ogahiy qo‘llagan forscha obro‘ leksemasi semantik jihatdan qadimgi turkiy tildagi “yuz suvi” iborasining mantiqiy va tarixiy davomidir.

Shoir uchun obro‘ faqat shaxsning sha’ni emas, balki davlat va millatni birlashtiruvchi ma’naviy mezondir. U hukmdorning ogohligi, insonning ilmi va saxovati bilan mutanosib ekanini badiiy dalillagan.

Ogahiy obro‘ni bino, bog‘ va marvarid timsollari orqali vizuallashtirib, uning naqadar nozik va asrash lozim bo‘lgan qadriyat ekanini ko‘rsatib bergan.

Yuqoridagi o‘tkazilgan tadqiqot tahlillari asosida quyidagilarni taklif etamiz:

1. Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi ma’naviy-axloqiy konseptlar yuzasidan maxsus izohli va etimologik lug‘atlar yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

2. Oliy ta’lim muassasalarining filologiya yo‘nalishlarida “Mumtoz matn tahlili” darslarida Ogahiyning lingvopoetik va semantik mahoratini (so‘zning etimologik ma’nolarini tiklashdagi o‘rnini) alohida mavzu doirasida o‘qitish;

3. Yoshlar tarbiyasida, shaxsning jamiyatdagi obro‘si va qadr-qimmati haqidagi tasavvurlarini to‘g‘ri shakllantirish maqsadida Ogahiyning falsafiy qoida va pand-nasihatlaridan iborat ommabop elektron risolalar tayyorlash va ommalashtirish.

6. Adabiyotlarning ro‘yxati (References)

1. Reşid Rahmeti Arat. Kutadgu Bilig. III. İndeks. – İstanbul, 1979. – 565 s.

2. Баранов Х. К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1989. – 928 с.

3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 542 б.

4. Древнетюркский словарь. – Астана: Ғылым, 2016. – 760 с.

5. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 8-жилд. Ахлоқу-л-муҳсинийн. – Тошкент: Sharq, 2019. – 320 б.

6. Миркомилов Э. Маҳмуд Ғиждувоний ва унинг “Мифтоҳу-т-толибин” асари // Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 10-жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. 400 б.

7. Муҳаммад Ризо Огаҳий (Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли). Тўла асарлар тўплами. 1-жилд: Девон. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – 560 б.

8. Муҳаммад Ҳасандуст. Фарҳанги решашинохтии забони форсӣ. Жилди 1. – Теҳрон: Фарҳангистони забон ва адаби форсӣ, 1393 ҳ.ш. – 720 б.

9. Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1 (а—ā). – М.: Восточная литература, 2000. – 328 с.

10. Yusuf Has Hâcip. Kutadgu Bilig. I. Metin. – Ankara: TDK, 1979. – 656 s.

11. Steingass, Francis Joseph. A Comprehensive Persian-English Dictionary. – London: Routledge & K. Paul, 1892. 1539 pp.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA GENDER MUAMMOSI

Samandarova Muhayyo Sultanovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
e.mail:**muhayyosultanovna277@gmail.com**

UO‘K 81'37:398.2

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda gender muammosining nazariy asoslari, tahlil mezonlari va milliy o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Gender masalasining jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi, ayol obrazining tarixiy-adabiy taraqqiyoti hamda uning badiiy talqinidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Xususan, mumtoz, jadid va zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ta’lim olishi, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sovet davri adabiyotida “yangi ayol” obrazining mafkuraviy ta’sir ostida shakllanishi hamda milliy adabiyotda gender munosabatlarining tabiiy va psixologik talqini tadqiq etilgan. Maqolada Asqad Muxtorning “Chinor” romani misolida maskulinlik va femininlikning badiiy-falsafiy ifodasi, erkak va ayol obrazlarining milliy mentalitet bilan bog‘liq xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *gender, gender tengligi, adabiyotshunoslik, ayol obrazi, genderologiya, milliy mentalitet, maskulinlik, femininlik, jadid adabiyoti, “Chinor” romani.*

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются теоретические основы, критерии анализа и национальные особенности гендерной проблемы в литературоведении. Рассматриваются вопросы изучения гендерной проблематики в зарубежном и узбекском литературоведении, историко-литературное развитие женского образа и изменения в его художественной интерпретации. Особое внимание уделяется положению женщин в обществе, их

образованию, семейным отношениям и социальной активности в классической, джадидской и современной узбекской литературе. Анализируется формирование образа «новой женщины» в советской литературе под влиянием идеологических факторов, а также художественная и психологическая интерпретация гендерных отношений в национальной литературе. На примере романа Аскада Мухтора «Чинара» раскрываются художественно-философское выражение маскулинности и фемининности, а также особенности мужских и женских образов, связанные с национальным менталитетом.

***Ключевые слова**: гендер, гендерное равенство, литературоведение, женский образ, гендерология, национальный менталитет, маскулинность, фемининность, джадидская литература, роман «Чинара».*

ABSTRACT

This article examines the theoretical foundations, analytical criteria, and national characteristics of the gender problem in literary studies. It explores the development of gender studies in foreign and Uzbek literary criticism, the historical and literary evolution of the female image, and changes in its artistic interpretation. Particular attention is paid to women's social position, education, family relationships, and social activity in classical, Jadid, and contemporary Uzbek literature. The study also analyzes the formation of the "new woman" image in Soviet literature under ideological influence, as well as the natural and psychological interpretation of gender relations in national literature. Using Asqad Mukhtar's novel Chinor as an example, the article reveals the artistic and philosophical representation of masculinity and femininity, along with the characteristics of male and female characters associated with national mentality.

***Keywords**: gender, gender equality, literary studies, female image, gender studies, national mentality, masculinity, femininity, Jadid literature, Chinor novel.*

Jahonda genderologiya alohida fan tarmog‘i sifatida shakllangan. Genderolog olimlar ko‘pincha feminizm tarixini o‘rganishadi. Ular gender fenomeniga falsafiy, ideologik, psixologik, ijtimoiy, adabiyotshunoslik, lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan yondashadilar. Jumladan, xorij ilm-fanida E. Giddens, Sh. Bern, R. Stoller kabi tadqiqotchilar gender muammosining ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratgan bo‘lsalar, A. V. Kirilina kabi olimlar uning lingvistik jihatlarini tadqiq etganlar. Aytaylik, S. A.

Bakayeva gender masalasiga zamonaviy fransuz yozuvchilari asarlariga ijtimoiy-madaniy jihatdan yondashib, gender yo‘nalishidagi ishlarning evolyutsion aspektlarini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, O. V. Penzina XIX asrning ikkinchi yarmida rus prozasida ayollar nasriga gender nuqtayi nazardan munosabat bildirgan. Shuningdek, roman va german tillari doirasida M. V. Chesnokova tomonidan yosh va gender guruhlarining prosodik dinamikasi, Ye. A. Tuchkova tomonidan esa fransuz avtobiografik romanlarida muallif obrazining gender belgilari chuqur o‘rganilgan.

O‘zbekiston ilm-fanida ham so‘nggi yillarda gender masalasiga oid tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Ijtimoiy falsafa doirasida N. B. Radjapova Yangi O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlar davrida gender tengligi masalasini nazariy va amaliy jihatdan o‘rgangan bo‘lsa, huquqshunoslik yo‘nalishida D. U. Sufiyeva, K. R. Aliyeva, A. S. Sayenkov va G. A. Matkarimovalar gender tengligining qonuniy mexanizmlari hamda konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tadqiq qilganlar. Pedagogika sohasida yoshlarda gender tenglik asosida ko‘nikmalar shakllantirish va ommaviy madaniyatga qarshi immunitet yaratish masalalari M. M. Tilavova va X. M. Tojiboyevalar tomonidan asoslangan. O‘zbek tilshunosligi va qiyosiy adabiyotshunosligida gender muammosi alohida yo‘nalishga aylandi. Z. R. Djurayeva, M. Ch. Chutpulatov, M. A. Abduvaxabov hamda N. Z. Nasrullayeva kabi olimlar turli tizimli tillarda gender konseptosferasini, paremiologik va frazeologik xususiyatlarni qiyosiy tadqiq etganlar. Tilda genderni farqlovchi muloqot shakllari, paralingvistik vositalar hamda evfemizmlarning gender xususiyatlari B. R. Axmedov, Sh. Q. Gulyamova, G. G‘. Niyazova, Yu. A. Mirzaahmedovalarning dissertatsiyalarida ilmiy ochib berilgan.

O‘zbek folklorshunosligida G. Musina, qiyosiy adabiyotshunosligimizda H. E. Muhammedova, A. I. Zoirova tadqiqotlari ayollar obrazi tadqiqiga bog‘liqligi bilan alohida e’tiborni tortadi. O‘zbek adabiyotshunosligida Y. Eshmatova istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining xilma-xil badiiy talqini, yozuvchi mahorati, yangicha ruhiy tahlil vositalarini, X. Lutfiddinov yozuvchining estetik ideali hamda ayollar obrazini “O‘tkan kunlar” va “Kecha va kunduz” romanlari asosida, H. Ahmedova “Armon asirasi” romanida ayol taqdirini, Q. Qahramonov shoirlar ijodida ayol ruhiyatini o‘rgangan.

Bu tadqiqotda esa ayollar gender tengligi masalasi talqinining turli davrlarda yashagan shoir-u yozuvchilar ijodida berilishi, ayniqsa, XX asr boshlarida jadid adabiyotida ko‘tarilgan xotin-qizlar masalasi, ularning oila va

jamiyatdagi o‘rni, savod chiqarishi, erta turmushga bermaslik, kamsitmaslik, kundoshli oilalar fojiasi masalalarining badiiy ifodasi, tasviri va talqinini monografik aspektda o‘rganish ko‘zda tutilgan. Shunisi ham borki, istibdod davri o‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlarimizga zid ravishda xotin-qizlarni sun’iy tarzda ideallashtirish, uni fidoyi ishchi qilib tasvirlash holatlari yuz berdiki, bunda kuchli g‘oyaviylikka intilish natijasida sun’iyliklar paydo bo‘ldi. Ayol o‘z asl (bola boqish, ro‘zg‘orni sarishtalash kabi) vazifalaridan “yulib” olinib, traktorchi, shofyor, tinim bilmas sog‘uvchi, paxtakor qiyofalarida, so‘zamol va mahmadona, shaddod xarakterda tasvirlandi. Xuddi mana shunday sun’iyliklar ba’zan badiiyati g‘arib asarlar yaratilishiga olib keldi. Badiiy matnni gender aspektida tahlil qilish faqatgina qahramonlarning fiziologik mansubligini emas, balki ularning jamiyatdagi ijtimoiy rollari, ruhiy-ma’naviy olami va tarixiy-madaniy shart-sharoitlarga moslashuv jarayonlarini ham yaxlit qamrab oladi. Z. Isomiddinov ta’kidlaganidek, “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzusining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq” .

Bu borada K. Egamberdiyevaning “O‘zbek adabiyotida ayol obrazining o‘ziga xos jihatlari” nomli tadqiqoti diqqatga sazovordir. Unda qayd etilishicha, “Ayol obrazi milliy mentalitet, tarixiy tajriba va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, adabiy asarlarda ona, yor, sadoqatli ayol, fidoyi va ijtimoiy faollik kasb etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi”. Tadqiqotchi o‘zbek badiiy adabiyotida ayol qismati va ruhiyati tasvirining tarixiy-tadrijiy rivojlanishini asosiy uch bosqichga ajratadi:

Birinchidan, mumtoz (islomiy) davr adabiyotida gender talqini. Bu davrda ayol va erkak obrazi komil inson konsepsiyasi asosida shakllandi. Ilohiy ishq va Haqqa yetishish yo‘lida tashqi tafovutlar ikkinchi darajaga tushib, qahramonlar ruhiy kamolot timsoli sifatida ideallashtirildi.

Ikkinchidan, jadid va ma’rifatparvarlik davri adabiyotida gender masalasi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, jamiyatdagi siyosiy va madaniy o‘zgarishlar adabiyotga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda ayol faqatgina ilohiy ishq obyekti yoki to‘rt devor ichidagi itoatkor beka emas, balki ijtimoiylashgan, ilm-ma’rifatga intiluvchi, o‘z haq-huquqini anglayotgan shaxs

sifatida namoyon bo‘la boshladi. Jadidlar gender tenglik masalasini millat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida kun tartibiga qo‘ydilar.

Uchinchidan, XX asrning ikkinchi yarmi va zamonaviy adabiyot. Zamonaviy o‘zbek nasrida gender konsepsiyasi o‘zining eng murakkab, polifonik (ko‘p ovozli) bosqichiga ko‘tarildi. Endilikda ayol qismati va ruhiyati tafakkur ayollari, o‘zga olam ayollari, murakkab ijtimoiy girdobda qolgan shaddod shaxslar qiyofasida tadqiq etila boshlandi.

Mana shu tadrijiy evolyutsiyaning eng ziddiyatli nuqtalaridan biri XX asr sho‘ro davri adabiyotiga to‘g‘ri keladi. Tarixchi va adabiyotshunos olima Ye. A. Shabatura XX asrning 20–30-yillarida davlat siyosati ta’sirida badiiy adabiyotda qanday qilib “Yangi ayol” obrazi sun’iy shakllantirilganini tadqiq etib, shunday yozadi: “Ayollarning xulq-atvori modellarini qo‘llab-quvvatlaydigan g‘oyalar publitsistika singari badiiy adabiyot matnlariga ham singdirildi. “Yangi ayol”ga bag‘ishlangan adabiyotda sevgilisi yassi sinfiylik bilan aralashtirilgan, sevgi mojarosi odatda sinfiy qarshilik bilan bog‘liq holda berildi”.

Totalitar tuzum ayolni o‘z tabiiy vazifalaridan majburan uzib olib, uni ishlab chiqarish va mafkura quroliga aylantirdi. Bu esa badiiy adabiyotda ayollarning traktorchi, rais sifatida erkakshoda (maskulinlashgan) qiyofada tasvirlanishiga, erkaklarning esa ko‘p hollarda ikkinchi darajali, zaif yoki eskilik sarqiti sifatida qoralanishiga sabab bo‘ldi.

Shu bilan birga, chinakam milliy adabiyot, xususan, Asqad Muxtordek zabardast ijodkorlar bunday sun’iy qoliplarni parchalab, gender munosabatlarning sof insoniy, psixologik va tabiiy tomirlariga murojaat qila oldilar. Asqad Muxtor o‘z asarlarida, xususan, XX asr o‘zbek romanchiligining durdonalaridan biri bo‘lgan “Chinor” romanida insonning asl fitratiga – ayolning onalik mehri va erkakning oilaviy-ijtimoiy mas’uliyatiga qaytadi. Yozuvchi sun’iy ravishda erkakshoda, hissiyotsizlashgan plakat-ayol obrazidan ko‘ra, tabiatan mehribon, g‘amxo‘r, o‘z oilasi va farzandlari uchun fidoyi bo‘lgan ayol tabiatini baland qo‘yadi va badiiy mantiq orqali buning haqqoniyligini isbotlaydi.

“Chinor” romanida maskulinlik va femininlikning badiiy-falsafiy talqini o‘zbek mentalitetidagi gender munosabatlarini markaziy figuralar – Ochil buva, Bozorqul, Onabibi, Orifjon va Mariya Vasilevna obrazlari orqali chuqur psixologizm bilan ochib beradi.

Romanda Ochil buva oddiy qahramon emas, u butun boshli avlodni, shajarani o‘zida birlashtirgan muazzam Chinorning insoniy qiyofasidir. Gender

tadqiqotlari nuqtayi nazaridan, Ochil buva – sharqona maskulinlikning (erkaklikning) eng oliy ko‘rinishi. Unda kuch-quvvat, himoyachilik vazifasi bilan birga, cheksiz donishmandlik va mehr mujassam. Ochil buvaning erkaklik timsoli buzuvchi emas, yaratuvchidir. Yozuvchi uning portretini chizgandayoq bu mohiyatni ochadi: “Ochil buva o‘tkir qora ko‘zli, serqosh, chiroyli yigit bo‘lgan. Uning yigitlik ko‘rki hozir ham mo‘ylovining bir uchi bilangina jilmayishidami, sal cho‘kkan ko‘zlarining yarqirashidami... nimasi bilandir saqlanib qolgan”.

Ochil buvaning Chinor bilan yuzma-yuz turishi, tabiat bilan tillashishi – erkak kishining oiladagi va dunyodagi tomirlari qanchalik chuqur bo‘lishi kerakligini anglatadi. Bu G‘arb olimlari ta’riflagan “gegemon maskulinlik” (boshqalarni ezishga asoslangan totalitar erkaklik) emas, balki o‘zbek milliy ongiga xos bo‘lgan g‘amxo‘r va mas’uliyatli maskulinlikning yorqin badiiy namunasidir.

XULOSA

Gender masalasining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi badiiy asarlarda ayol va erkak obrazlarining nafaqat biologik, balki ijtimoiy, psixologik, ma’naviy, madaniy va tarixiy jihatlarini ham yaxlit holda tahlil qilish imkonini beradi. Jahon va o‘zbek ilm-fanida gender muammosiga oid tadqiqotlarning kengayib borishi mazkur masalaning fanlararo xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, adabiy matnda gender munosabatlarini tadqiq etish orqali muayyan davrning ijtimoiy qarashlari, milliy qadriyatlari, ayol va erkakka yuklatilgan ijtimoiy rollar hamda jamiyatdagi o‘zgarishlarning badiiy ifodasini aniqlash mumkin.

O‘zbek adabiyotida ayol obrazining shakllanishi va takomillashuvi tarixiy-tadrijiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Mumtoz adabiyotda ayol va erkak obrazlari, avvalo, komil inson konsepsiyasi, ilohiy ishq va ma’naviy kamolot bilan bog‘liq holda talqin qilingan bo‘lsa, jadid va ma’rifatparvarlik davriga kelib ayolning jamiyatdagi o‘rni, savodxonligi, ta’lim olishi, o‘z haq-huquqlarini anglashi kabi masalalar adabiyotning muhim mavzularidan biriga aylandi. XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti xotin-qizlarning ta’lim olishi, erta turmushga berilmasligi, oiladagi va jamiyatdagi mavqeyi kabi masalalarni ilgari surib, ayol obrazining ijtimoiy mazmunini yanada kengaytirdi.

Shu jihatdan Asqad Muxtorning “Chinor” romani alohida ahamiyat kasb etadi. Romanda gender munosabatlari faqat ayol obrazlari orqali emas, balki

erkaklik va ayollikning o‘zaro munosabati, oilaviy mas’uliyat, mehr-muhabbat, avlodlar davomiyligi va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. “Chinor” romanida ayol obrazlarining tashqi portreti bilan bir qatorda ularning ruhiy dunyosi, ma’naviy qiyofasi, oiladagi va jamiyatdagi o‘rni ham ochib beriladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham romandagi Onabibi, Xosiyat aya, Robiya kabi obrazlar orqali o‘zbek ayolining sabr-toqati, mehr-muhabbati, oilaviy mas’uliyati va jamiyatdagi o‘rni yoritilgani ta’kidlangan.

Romandagi Ochil buva obrazi esa sharqona maskulinlikning o‘ziga xos badiiy talqinini namoyon etadi. U kuch-qudrat va himoyachilik bilan bir qatorda donishmandlik, mehr, mas’uliyat va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan obraz sifatida gavdalanadi. Shu sababli undagi erkaklik tushunchasi hukmronlik yoki zo‘ravonlik bilan emas, balki oila, avlod, jamiyat va tabiat oldidagi mas’uliyat bilan belgilanadi. Ochil buva va Onabibi obrazlarini o‘zaro qiyoslash orqali yozuvchi erkaklik va ayollikni qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, ularning bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy-ma’naviy mohiyatini ochib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotida gender masalasi bir xil mazmun va shaklda namoyon bo‘lmagan, balki tarixiy davr, ijtimoiy muhit va adabiy-estetik qarashlarning o‘zgarishi bilan birga rivojlangan. Mumtoz adabiyotdagi ma’naviy-komillik talqinidan jadid adabiyotidagi ijtimoiy faollik va ma’rifatparvarlik g‘oyalariga, sho‘ro davridagi mafkuraviy qoliplardan zamonaviy adabiyotdagi murakkab psixologik va individual talqinlargacha bo‘lgan jarayon ayol obrazining badiiy tafakkurdagi evolyutsiyasini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muxtor, A. Chinor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

2. Djurayeva, Z. R. O‘zbek tilida gender konsepti va uning lingvistik xususiyatlari.

3. Nasrullayeva, N. Z. Gender konsepti, paremiologik va frazeologik birliklarning qiyosiy tadqiqi.

4. Axmedov, B. R. Tildagi genderni farqlovchi muloqot shakllari.

5. Gulyamova, Sh. Q. Gender va paralingvistik vositalar.

6. Niyazova, G. G‘. Evfemizmlarning gender xususiyatlari.

7. Mirzaahmedova, Yu. A. Gender lingvistikasi va muloqot masalalariga oid tadqiqotlar.

8. Ahmedova, H. “Armon asirasi” romanida ayol taqdiri talqini.

9. Musina, G. O‘zbek folklorida ayol obrazi tadqiqiga oid ishlar.

10. Muhammedova, H. E. Qiyosiy adabiyotshunoslikda ayol obrazi talqini.

11. Zoirova, A. I. Ayol obrazining qiyosiy-adabiy tadqiqiga oid izlanishlar.

12. Usmonova, F. Asqad Muxtorning “Chinor” romani matniy-qiyosiy tadqiqi. // Adabiy Meros. – 2026. – №2 (20).

13. Normatova, Sh. Emergence of Ideas of Gender Equality in Uzbek Literature. // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – 4(67). – B. 332–334.

NAVOIY ASARLARI LEKSIKASINING ETIMOLOGIK ELEKTRON BAZASINI YARATISH

Abdukarimova Muxlisa Saparboy qizi,
Urganch davlat universiteti,
Kompyuter lingvistikasi magistranti
abdukarimovam097@gmail.com

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlari leksikasini etimologik qatlamlar (turkiy, arabiy, forsiy) bo‘yicha guruhlashtirish va ularning elektron ma’lumotlar bazasini yaratish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda mumtoz matnlarni raqamlashtirishda leksik birliklarni tizimlashtirish tamoyillari hamda Python dasturlash tilining pandas kutubxonasi yordamida statistik tahlil qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, etimologiya, elektron baza, kompyuter lingvistikasi, turkiy qatlam, leksik guruhlash, NLP, relyatsion baza.*

Аннотация. *В данной статье освещается методика группировки лексики произведений Алишера Навои по этимологическим пластам (тюркский, арабский, персидский) и создания их электронной базы данных. В исследовании анализируются принципы систематизации лексических единиц при цифровизации классических текстов с использованием библиотеки pandas языка программирования Python.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, этимология, электронная база данных, компьютерная лингвистика, тюркский пласт, лексическая группировка, NLP.*

Abstract. *This article highlights the methodology of grouping the lexicon of Alisher Navoiy's works into etymological layers (Turkic, Arabic, Persian) and creating their electronic database. The study analyzes the principles of systemizing lexical units in the digitalization of classical texts using the pandas library of the Python programming language.*

Keywords: *Alisher Navoiy, etymology, electronic database, computational linguistics, Turkic layer, lexical grouping, NLP.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda sun’iy intellekt va Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP - Natural Language Processing) texnologiyalarining jadal rivojlanishi jahon tilshunosligida raqamli yo‘nalishlarni oldingi planga olib chiqdi. Kompyuter lingvistikasi nafaqat zamonaviy tillarni tahlil qilish, balki milliy madaniy va adabiy merosimiz bo‘lgan mumtoz matnlarni raqamlashtirish, ularni kelajak avlodga tushunarli hamda qidiruvga qulay formatda yetkazishning eng samarali vositasiga aylandi.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining boy leksik tarkibini etimologik jihatdan tizimlashtirish va ularning elektron bazasini shakllantirish o‘zbek kompyuter lingvistikasining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Navoiy tili o‘zbek adabiy tilining poydevori bo‘lib, uni raqamli modelga o‘tkazish milliy korpus bazasini boyitishga xizmat qiladi.

Muammoning qo‘yilishi. Alisher Navoiy asarlari tili o‘zining ko‘p qatlamliligi va sintezkarligi bilan ajralib turadi. Matnlarda sof turkiy (asliy) so‘zlar bilan bir qatorda arabiy va forsiy qatlamlarga oid birliklarning intensiv qo‘llanishi ularni avtomatik tarzda morfologik hamda etimologik tahlil qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda mavjud elektron lug‘atlar asosan oddiy qidiruv funksiyasi bilan cheklangan bo‘lib, ularda so‘zlarning etimologik kelib chiqishi bo‘yicha dinamik ma’lumotlar bazasi va ularni avtomatik guruhlash algoritmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa gumanitar soha tadqiqotchilari va tilshunoslar uchun chalg‘ituvchi hamda vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi: Alisher Navoiy asarlari leksikasini etimologik belgilari bo‘yicha guruhlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish va shu asosda relyatsion ma’lumotlar bazasining ishchi modelini yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Navoiy asarlaridan (*“Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”*) tanlab olingan leksik birliklarni etimologik qatlamlarga ajratish;
2. Leksikani avtomatik guruhlashning lingvistik va texnik parametrlarini (teglar tizimini) belgilash;

3. Python dasturlash tili yordamida etimologik elektron bazaning jadval strukturasi va statistik tahlil modelini taklif etish.

Navoiy asarlari leksikasining etimologik elektron bazasini yaratishda quydagi bosqichlarni amalga oshirish zarurdir:

1. Leksik birliklarni etimologik guruhlash tamoyillari va badiiy matndan namunalar:

Alisher Navoiy asarlari leksikasini elektron bazaga kiritishda so‘zlarni quyidagi uchta asosiy qatlamga ajratish metodologik asos qilib olindi:

Turkiy qatlam (Asliy qatlam): eski o‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub, asosan hayotiy ehtiyojlar, inson a’zolari, harakat va tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar.

Misol: **“ko‘ngul”**, **“ko‘z”**, **“ulug‘”**, **“bormoq”**[1]**.**

Asardan namuna: “Yigitliqda qilg‘il amal...” (*“Mahbub ul-qulub”*) - bu yerda “yigit” so‘zi asliy turkiy qatlamga mansub.

Arabiy qatlam (O‘zlashma I): ko‘pincha falsafiy, diniy, ilmiy va ijtimoiy-huquqiy tushunchalarni ifodalovchi birliklar.

Misol: **“ishq”**, **“ilm”**, **“zikr”**, **“tafakkur”**, **“muhib”**.

Asardan namuna: “Tafakkur birla topqay sen haqiqat maxzanin...” (*“Hayrat ul-abror”*) - “tafakkur”, “haqiqat”, “maxzan” so‘zlari arabiy o‘zlashmalardir.

Forsiy qatlam (O‘zlashma II): badiiy tasvir vositalari, poetik obrazlar, tabiat manzaralari va sifatlashlar.

Misol: **“guldasta”**, **“dushman”**, **“dahr”**, **“dardmand”**.

Asardan namuna: “Ko‘ngul dardi aro topdim tasalli, ey dardmand... (*“Badoyi’ul-bidoya”*) - dardmand (dard+mand) so‘zi forsiydir”[2].

2. Etimologik elektron bazaning relyatsion modeli. Kompyuter lingvistikasida ma’lumotlarni tizimli saqlash, saralash va ular ustida tezkor SQL so‘rovlarini bajarish uchun relyatsion ma’lumotlar bazasi (RDBMS) modelidan foydalanish eng maqbul yechimdir. Taklif etilayotgan bazada har bir leksik birlik uchun maxsus identifikator (ID) va lingvistik teglar (tags) tizimi joriy etiladi.

---

[1] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (I-IV jildlar). – Toshkent: Fan, 1983-1985.

[2] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011.

Elektron bazaning mantiqiy strukturasi quyidagi ustunlardan (fields) iborat bo‘lishi tavsiya etiladi:

1-jadval

ID	So‘z (Lexeme)	Etimologik teg (Label)	Grammatik turkum	Kontekst (Asardan misol)	O‘zbekcha tarjimasi (Annotatsiya)
1	Yigit	TURK	Ot	Yigitliqda qilg‘il amal...	Erkak kishining navqiron davri, yoshlik.
2	Muhib	ARAB	Sifat / Ot	Muhib o‘lsa sanga, dushman senga...	Do‘st, sevuvchi, ixlosmand kishi.
3	Dardmand	FORS	Sifat	Ko‘ngul dardi aro topdim tasalli...	G‘amgin, dardi bor, azob chekayotgan.
4	Tafakkur	ARAB	Ot	Tafakkur birla topqay sen haqiqat...	Fikr yuritish, chuqur o‘ylash, fikrlash.

3. Algoritmik tahlil bosqichlari va dasturiy yechim

Navoiy matnlari asosida etimologik bazani shakllantirish jarayoni quyidagi NLP bosqichlarini qamrab oladi:

1. **Tokenizatsiya** - mumtoz matnni alohida so‘z shakllariga (tokenlarga) ajratish.
2. **Lemmatizatsiya** - affikslarni ajratgan holda so‘zlarni lug‘aviy asliga (o‘zagiga) keltirish.
3. **Etiketlash (Tagging)** - etimologik lug‘atlar bazasi bilan solishtirib, har bir o‘zakka tegishli qatlam belgisini biriktirish.

Tadqiqot doirasida to‘plangan leksik birliklarni tizimlashtirish va statistik tahlil qilish uchun “**Python** dasturlash tilining **pandas** kutubxonasidan foydalanildi”[1]:

Python

import pandas as pd

[1] Madrahimov Sh., Raxmanov I. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

```
# Navoiy asarlaridan olingan leksik namunalar bazasi
data = {
    'soz': ['ishq', "ko'ngul", 'guldasta', 'ilm', 'koz', 'dahr', 'yigit', 'muhib'],
    'etimologiya': ['Arabiy', 'Turkiy', 'Forsiy', 'Arabiy', 'Turkiy', 'Forsiy',
'Turkiy', 'Arabiy'],
    'turkum': ['Ot', 'Ot', 'Sifat/Ot', 'Ot', 'Ot', 'Ot', 'Ot', 'Sifat/Ot']
}
# Ma'lumotlar bazasini (DataFrame) yaratish
df = pd.DataFrame(data)
# Bazani etimologik qatlamlar bo'yicha guruhlash va miqdorini hisoblash
etymo_stats = df.groupby('etimologiya').size()
print("Etimologik qatlamlar bo'yicha taqsimot:")
print(etymo_stats)
```

Ushbu dasturiy model matndagi o‘zlashma va asliy qatlamlarning foiz ko‘rsatkichlarini avtomatik hisoblab beradi. Bu esa kelajakda Navoiy asarlari uchun yaratiladigan yirik intellektual “Etimologik onlayn platforma” [1] ning backend (dasturiy yadro) qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Alisher Navoiy asarlari leksikasini kompyuter lingvistikasi metodlari orqali tadqiq etish milliy madaniy merosimizni raqamlashtirishda yangi ufqlar ochadi. Olib borilgan izlanishlar va taklif etilgan relyatsion model asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Navoiy ijodiga mansub murakkab matnlarni etimologik qatlamlar (turkiy, arabiy, forsiy) bo‘yicha guruhlash tamoyillari aniqlashtirildi, bu esa an’anaviy tilshunoslik tahlillarini avtomatlashtirishga zamin yaratadi;

python dasturlash tilining *pandas* muhitida yaratilgan algoritm leksik birliklarni nafaqat saqlash, balki ularni dinamik ravishda guruhlash va statistik tahlil qilish (foiz ko‘rsatkichlarini aniqlash) imkonini berdi;

mazkur etimologik ma’lumotlar bazasi modeli kelgusida o‘zbek tilining milliy korpusini (Navoiy asarlari subkorpusini) yaratishda, shuningdek, sun’iy intellekt tizimlari uchun mumtoz matnlarni tahlil qiluvchi aqlli onlayn lug‘atlar va tarjimon dasturlarni ishlab chiqishda muhim resurs bo‘lib xizmat qiladi.

[1] McKinney W. Python for Data Analysis: Data Wrangling with Pandas, NumPy, and IPython. – O'Reilly Media, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011.

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (I-IV jildlar). – Toshkent: Fan, 1983-1985.

3. Madrahimov Sh., Raxmanov I. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

4. McKinney W. Python for Data Analysis: Data Wrangling with Pandas, NumPy, and IPython. – O'Reilly Media, 2017.

O‘ZBEK MUMTOZ ASARLARI ELEKTRON KORPUSINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Karimova Fazilat Hamid qizi,
UrDU
Kompyuter lingvistikasi magistranti

UO‘K 81'37:398.2

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz asarlarini raqamlashtirish yuzasidan ko‘plab sun’iy intelekt va texnologiyalar asosida elektron korpus yaratish jarayonlari aks ettirilgan. Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini raqamlashtirish va ularning elektron korpusini yaratishdagi lingvistik-metodologik muammolar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida tarixiy matnlarning elektron bazasini shakllantirishda filologik va kompyuter lingvistikasi uslublarini integratsiya qilish tamoyillari ishlab chiqilgan. Maqola xulosalari o‘zbek tili milliy korpusining tarixiy qismini boyitish va avtomatik lug’atlar yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются процессы создания электронного корпуса на основе технологий искусственного интеллекта для цифровизации узбекских классических произведений. Анализируются лингво-методологические проблемы оцифровки образцов узбекской классической литературы и формирования их электронной базы. В ходе исследования разработаны принципы интеграции филологических методов и методов компьютерной лингвистики при создании базы данных исторических текстов. Выводы статьи служат важной научной основой для обогащения исторического раздела Узбекского национального корпуса и создания автоматических словарей.*

Abstract. *This article explores the processes of creating an electronic corpus based on artificial intelligence and modern technologies for the digitalization of Uzbek classical works. It examines*

the linguistic and methodological challenges involved in digitizing specimens of Uzbek classical literature and developing their electronic infrastructure. The research establishes principles for integrating philological approaches with computational linguistics to form a comprehensive database of historical texts. The conclusions of the article serve as a significant scientific foundation for enriching the historical section of the Uzbek National Corpus and developing automated dictionaries.

Kalit so‘zlar. *Mumtoz asarlar, korpus, elektron korpus, texnologiya, sun’iy intelekt, ma’lumotlar bazasi, lemma, lemmatizatsiya.*

Ключевые слова: *Классические произведения, корпус, электронный корпус, технологии, искусственный интеллект, база данных, лемма, лемматизация.*

Keywords: *Classical works, corpus, electronic corpus, technology, artificial intelligence, database, lemma, lemmatization.*

Kirish. Bugungi kunda tilning kelajagi uning raqamli makondagi o‘rni bilan o‘lchanadigan davrda yashayapmiz. Sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, har qanday tilni mashinalarga tushuntirish ehtiyoji har qachongidan ham dolzarbdir. Buni amalga oshirishning asosiy kaliti esa sifatli lingvistik korpuslar hisoblanadi.

Odatda, korpus deganda ko‘pchilik shunchaki kompyuterdagi minglab matnlar to‘plamini tasavvur qiladi. Aslida esa bu tasodifiy hujjatlar yig’indisi emas, balki tilning jonli manzarasini, uning leksik va grammatik qonuniyatlarini aniq ko‘rsatib beruvchi murakkab raqamli ekotizimdir. Bunday tizimni faqatgina kuchli dasturlash bilimlari bilan qurib bo‘lmaydi; u dastavval aniq filologik qoidalar va kompyuter-lingvistik mezonlarga tayanishi shart. Boshqacha aytganda, har qanday amaliy ishni boshlashdan oldin bizga mustahkam nazariy poydevor kerak bo‘ladi.

Ushbu maqolada korpus yaratishning asosiy nazariy tamoyillari haqida so‘z boradi. Biz matnlarni qanday qilib to‘g’ri saralash va muvozanatlash (ya’ni tilni to‘liq qamrab olishi - reprezentativlik), ularga metama’lumotlar biriktirish

hamda morfologik, sintaktik va semantik annotatsiyalash kabi fundamental masalalarni ko‘rib chiqamiz. Aniq va tizimli qoidalar nafaqat quruq nazariya ekanligini, balki ular orqali tilni avtomatik tahlil qiluvchi tizimlar va zamonaviy til modellarini o‘qitish uchun qanday qilib ishonchli va sifatli baza yaratish mumkinligini ko‘rsatib berishdir.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosi tarixiy-leksikografik ma’lumotlarni raqamlashtirish, ularni tizimli tahlil qilish va zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari uchun moslashtirish tamoyillariga tayanadi. Birlamchi bosqichda empirik manba sifatida olingan arab va fors tillaridan o‘zlashgan lug’aviy birliklar majmuasi an’anaviy matnli jadval shaklidan ajratib olinib, mantiqiy atributlar qolipiga o‘tkazildi. Bunda har bir lug’at maqolasi mashina o’qiy oladigan formatga keltirilishini ta’minlash maqsadida uchta asosiy axborot maydoniga: bosh so‘z (lemma), etimologik teg (arab yoki fors tili ekanligini ko‘rsatuvchi manba belgisiga) hamda leksik-semantik izohga ajratildi. Ushbu yondashuv kelgusida ishlab chiqiladigan korpus bazasida ma’lumotlarni nafaqat leksik jihatdan, balki ularning genetik qatlami bo‘yicha ham tizimlashtirish va avtomatlashtirilgan qidiruv algoritmlarini joriy etish imkonini yaratadi.

Keyingi jarayonda ma’lumotlarni semantik annotatsiyalash va derivatsion aloqalarni modellashtirish usullari qo‘llanildi[1]. Xususan, lug’at tarkibidagi “abkam” yoki “ablaq” kabi ko‘p ma’noli so‘zlar, shuningdek, “abkor” leksemasining “ma’ni abkori” (nozik fikrlar) kabi ko‘chma ma’nolari korpus arxitekturasida ierarxik semantik teglash orqali alohida indekslarga ajratildi. Bu usul matndagi kontekstga qarab so‘z ma’nosini to‘g’ri farqlash (Word Sense Disambiguation) xususiyatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ma’lum bir tushuncha yoki o‘zakdan shakllangan “abir”, “abirafshon”, “abirbez”, “abiroso” kabi leksemalar yoki “abjad” va “abjadxon” kabi o‘zaro bog’liq birliklar yagona semantik-derivatsion klasterlarga guruhlanib, matnlarning semantik ontologiyasi raqamli darajada aks ettirildi. Natijada, tarkibiy va semantik jihatdan qayta ishlangan ushbu ma’lumotlar shunchaki izohli lug’at vazifasini o‘tab qolmasdan, balki chuqur o‘rganish algoritmlari va ixtisoslashgan til modellarini o‘qitish uchun filologik jihatdan toza, strukturalangan ishonchli ma’lumotlar to‘plami (dataset) poydevorini tashkil etadi[2].

Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlarini, xususan, yirik til modellarini (masalan, BERT arxitekturasidagi modellarni) o‘qitish hamda intellektual ta’lim ekotizimlari uchun semantik ontologiyalarni qurishda xom lug’aviy ma’lumotlarni mashina o‘qiydigan dataset formatiga o‘tkazish hal qiluvchi

ahamiyatga ega. Ushbu jarayon qat’iy kompyuter-lingvistik metodlarga tayanadi.

Dastlabki manba sifatida matnli ko‘rinishda taqdim etilgan lug‘aviy birliklar asosida dataset yaratish metodikasi va uning strukturaviy jadvallari quyida keltirilgan.

1. Datasetni shakllantirish metodikasi. Ma’lumotlar to‘plamini (dataset) yaratishda quyidagi ketma-ketlikdagi metodlar qo‘llanildi:

Leksik normalizatsiya va tozalash (Data Cleaning & Normalization): Birlamchi lug’atdagi matnlar ortiqcha tinish belgilari, formatlash xatolari va tizimsiz qisqartmalardan tozalanadi. Har bir so‘z o‘zining tub (lemma) holatiga keltiriladi.

Ko‘p o‘lchovli annotatsiyalash (Multi-dimensional Annotation): Mashina o‘qishi uchun har bir birlik maxsus teglar (tags) bilan ta‘minlanadi. Bu bosqichda so‘zning etimologiyasi (`<Arab>`, `<Fors>`), so‘z turkumi (`<Ot>`, `<Sifat>`) va qo‘llanilish doirasi belgilanadi.

Ontologik xaritalash va klasterlash (Ontological Mapping): O‘zakdosh so‘zlar (masalan, *abir, abirafshon, abiroso*) va o‘zaro mantiqiy bog’liq tushunchalar yagona semantik klasterga (Synset ID) birlashtiriladi. Bu modellar uchun konseptual xarita (knowledge graph) vazifasini o‘taydi.

Vektorlashtirish uchun tayyorlash: matnli izohlar semantik analizatorlar yordamida qayta ishlanib, kontekstual ma’nolarini (to‘g’ri va ko‘chma/majoziy) bir-biridan farqlash uchun indekslanadi[3].

2. Leksik-semantik datasetning relyatsion modeli (Jadval)

Quyidagi jadval lug‘aviy ma’lumotlar relyatsion dataset ko‘rinishini aks ettiradi. Bu ko‘rinish turli relyatsion ma’lumotlar bazalariga (masalan, MySQL) import qilish uchun qulaydir.

Token_ID	Lemma (Bosh so‘z)	Etimologiya	POS (Turkum)	Asosiy Semantika (Sense_1)	Majoziy/Qo‘shimcha (Sense_2)	Klaster/O‘zak_ID
T_001	abdol	Arab	Ot	Valiylik darajasiga erishgan guruh, avliyolar	Xudoga yaqinlar	C_001
T_002	abjad	Arab	Ot	Qadimgi arab alifbosi va uning son qiymati tizimi	-	C_002
T_003	abjadxon	Arab	Ot	Endigina ta’lim ola boshlagan o‘quvchi	Boshlang’ich maktab o‘quvchisi	C_002
T_004	abir	Arab	Ot	Xushbo‘y moddalar qorishmasi, anbar	-	C_003

T_005	abirafsho n	Arab-fors	Sifat	Abir sochilgan, abir bo‘yli	Xushbo‘y qilingan	C_003
T_006	abkam	Arab	Sifat	Soqov, gung	Lol, tili tutilgan	C_004
T_007	abkor	Arab	Ot	Qizlar	Nozik va sof fikrlar (Ma’ni abkori)	C_005
T_008	ablaq	Arab	Sifat	Ola-bula, oq-qora tus	Ola po’stin, zebra	C_006
T_009	ablag'	Arab	Sifat	Eng balog’atli	Eng ravshan ifodali	C_007
T_010	abno	Arab	Ot	O‘g’illar, bolalar	Zamondoshlar, tengqurlar (Abnoyi zamon)	C_008

3. Chuqur o‘rganish modellari uchun ierarxik format (JSON)

Matnlarni avtomatik tahlil qiluvchi neyron tarmoqlar yoki agentli tizimlar uchun jadvalli ma’lumotdan ko‘ra ierarxik tuzilgan JSON formati samaraliroq hisoblanadi. Unda har bir so‘zning qatlamli xususiyatlari aniq ajratiladi:


```
[
 {
  "token_id": "T_007",
  "lemma": "abkor",
  "metadata": {
   "etymology": "Arab",
   "pos_tag": "Noun"
  },
  "senses": [
   {  "sense_id": 1,
    "type": "literal",
    "definition": "Qizlar"
   },      {
    "sense_id": 2,
    "type": "metaphorical",
    "domain": "literature",
    "definition": "Nozik fikrlar, sof fikrlar",
    "example": "Ma’ni abkori"
   }     ],
  "cluster_id": "C_005"
 },   {
  "token_id": "T_003",
  "lemma": "abjadxon",
  "metadata": {
   "etymology": "Arab",
   "pos_tag": "Noun"
  },
  "senses": [       {
    "sense_id": 1,
    "type": "literal",
    "domain": "education",
    "definition": "Boshlang’ich maktabda endigina ta’lim ola boshlagan, harf tanish uchun 'abjad' o‘quvchi"   }     ],     "relations": {
   "derived_from": "abjad",
   "cluster_id": "C_002"
  }
```

```
  }
]
```

Bu turdagi strukturaviy yondashuv leksik bazani shunchaki elektron lug'at darajasidan olib chiqib, tilni mantiqiy, semantik va derivatsion tahlil qila oladigan intellektual ekotizimning poydevoriga aylantiradi.

Natija. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan ko'p bosqichli annotatsiyalash va semantik modellashtirish metodologiyasining amaliy tatbig'i natijasida an'anaviy tarixiy-leksikografik ma'lumotlar massividan mashina o'qiy oladigan, yuqori aniqlikdagi strukturaviy dataset yaratildi. Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, arab va fors tillaridan o'zlashgan lug'aviy birliklar shunchaki matnli izoh ko'rinishidan to'liq avtomatlashtirilgan korpus arxitekturasiga muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu jarayonda har bir leksema o'zining etimologik manbasi, grammatik xususiyati va aniq mantiqiy identifikatoriga ega bo'ldi[4]. Eng muhim yutuqlardan biri sifatida ko'p ma'nolilik (polisemiya) va majoziy ma'nolarning raqamli farqlanishini ko'rsatish mumkin. Ya'ni, so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolari alohida semantik qatlamlar sifatida indekslanib, tabiiy tilni qayta ishlashdagi eng murakkab muammolardan biri, matn kontekstiga qarab ma'noni ajratish (Word Sense Disambiguation) uchun mustahkam baza tayyorlandi.

Shuningdek, o'zakdosh va mantiqiy bog'liq so'zlarning yagona derivatsion klasterlarga birlashtirilishi natijasida mazkur leksik qatlamning raqamlashtirilgan semantik ontologiyasi shakllantirildi. Olingan bu natijalar nafaqat kompyuter lingvistikasi uchun filologik jihatdan toza va tizimlashtirilgan ma'lumotlar bazasini taqdim etadi, balki kelgusida ta'lim va fan sohasiga ixtisoslashgan yirik til modellarini (xususan, muayyan domen uchun moslashtirilgan BERT arxitekturalarini) nozik sozlash (fine-tuning) uchun muhim empirik manba hisoblanadi. Yakuniy xulosa o'rnida aytish mumkinki, yaratilgan ushbu lingvistik baza va ontologik modellar oliy ta'lim muassasalarining o'quv va ilmiy jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan zamonaviy intellektual ta'lim ekotizimlarini rivojlantirish uchun bevosita amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tabiiy tillarni kompyuterda qayta ishlashning bugungi taraqqiyot bosqichida lingvistik korpuslar shunchaki ma'lumotlar ombori emas, balki tilning raqamli hayotiyligini ta'minlovchi eng muhim intellektual resursdir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan nazariy tamoyillar va metodologik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy lug'aviy manbalarni, xususan,

leksikografik matnlar va o‘zlashma qatlamni mashina tushunadigan holatga keltirish qat’iy filologik hamda dasturiy mezonlarga tayanishni talab etadi. Leksik birliklarni oddiy matn formatidan ierarxik va relyatsion ma’lumotlar to‘plamiga o‘tkazish, ularning semantik va derivatsion xususiyatlarini ontologik modellashtirish an’anaviy tilshunoslik tadqiqotlarini yangi – amaliy va raqamli bosqichga olib chiqadi. Eng asosiysi, yaratilayotgan bunday sifatli, tuzilmali va chuqur annotatsiya qilingan ma’lumotlar bazalari kelgusida tilning semantik qonuniyatlarini aniq tahlil qila oladigan yirik til modellarini o‘qitish, matnlardagi yashirin yoki majoziy ma’nolarni avtomatik farqlash hamda ma’lum bir sohaga ixtisoslashgan murakkab intellektual ekotizimlarni yaratish uchun yagona ishonchli poydevor vazifasini o‘taydi. Shu ma’noda, korpus loyihalashning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan to‘g’ri belgilash va zamonaviy kompyuter-lingvistik metodlarni samarali qo‘llash milliy tilimizning sun’iy intellekt texnologiyalari bilan to‘laqonli integratsiyalashuvini ta’minlashning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

2. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.

3. Ismoilov A., Mengliyev B. O‘zbek tili milliy korpusi: muammo va vazifalar. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2019.

4. Mengliyev B. va boshqalar. Zamonaviy tilshunoslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

5. Umirov I. O‘zbek tili o‘quv korpusini yaratishning lingvistik asoslari (Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi). – Qarshi, 2020.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DISKURS VA KONSEPTNING AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tosheva Nargiza Ruitdinovna,
E-mail: nargiz.han2@gmail.com

UO‘K 81’36:81’44

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida diskurs hamda konseptning aksiologik xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma va kognitiv-diskursiv yondashuv asosida yoritiladi. Aksiologik mazmunning til birliklarida namoyon bo‘lishi, baholashning ijobiy va salbiy qutblari, konseptual mazmunning qadriyatlar tizimi bilan aloqasi hamda baholovchi ma’noning diskurs kontekstida shakllanish masalalari tahlil qilinadi. Diskursda aksiologik munosabatlar leksik, frazeologik, grammatik va pragmatik vositalar orqali yuzaga chiqishi, bunda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, ijtimoiy tajribasi va madaniy bilimlari muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi respect/hurmat, family/oila, freedom/erkinlik, hospitality/mehmondo‘stlik kabi konseptlar misolida baholovchi mazmunning universal hamda milliy-madaniy jihatlari ochib beriladi. Qiyoslash ingliz va o‘zbek diskurslarida baholashning umumiy kognitiv mexanizmlari mavjudligini, biroq ayrim qadriyatlarning verbal va pragmatik aktuallashuvida lingvomadaniy tafovutlar namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *aksiologiya, aksiologik birlik, baholash, diskurs, konsept, kognitiv tilshunoslik, qadriyat, ijobiy baho, salbiy baho, lingvomadaniyat, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Abstract: *This article examines the axiological features of discourse and concept in Uzbek and English from a comparative and cognitive-discursive perspective. Particular attention is paid to the representation of evaluative meaning in linguistic units, positive and negative value poles, the relationship between conceptual content and value*

systems, and the formation of evaluative meaning in discourse context. The study demonstrates that axiological meanings are expressed through lexical, phraseological, grammatical and pragmatic means and that communicative intentions, social experience and cultural knowledge play an important role in their interpretation. The concepts of respect/hurmat, family/oila, freedom/erkinlik and hospitality/mehmondo'stlik are considered to identify universal and culture-specific features of evaluative meaning. The comparison reveals common cognitive mechanisms of evaluation in Uzbek and English discourse as well as linguocultural differences in the verbal and pragmatic realization of particular values.

Keywords: *axiology, axiological unit, evaluation, discourse, concept, cognitive linguistics, value, positive evaluation, negative evaluation, linguoculture, pragmatics, English, Uzbek.*

KIRISH

Til nafaqat borliqni nomlash va axborot uzatish, balki unga nisbatan qiymatli munosabatni ifodalash vositasi hamdir. So‘zlovchi predmet, shaxs yoki hodisani tasvirlar ekan, uni ma’qullashi, qoralashi, hurmat qilishi, tanqid qilishi yoki unga nisbatan boshqa munosabatini ham bildirishi mumkin. Shu sababli aksiologik mazmun tilning semantik va pragmatik imkoniyatlarini o‘rganishda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Aksiologiya falsafada qadriyat va baholash masalalarini o‘rgansa, lingvistik aksiologiya qiymat va munosabatning til vositalari orqali ifodalanishini tadqiq etadi. Bunda “ijobiy–salbiy”, “ma’qullash–qoralash”, “qadrli–qadrsiz” kabi oppozitsiyalar bilan bir qatorda emotsional va pragmatik baholash ham muhimdir. Demak, aksiologik mazmunni faqat baholovchi sifatlar bilan cheklash to‘g‘ri emas.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi aksiologik birliklarning qiyosiy tadqiqida baholashning leksik, frazeologik, grammatik va pragmatik vositalarda namoyon bo‘lishi, shuningdek, uning milliy-madaniy xususiyatlari alohida e’tiborni talab qiladi. Mazkur maqolada ayniqsa baholovchi ma’noning diskursda aktuallashuvi va konseptual qadriyatlar bilan aloqasi markazga qo‘yiladi.

Diskursning aksiologik jihatini o‘rganishda bir xil birlik turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha baholovchi kuchga ega bo‘lishi mumkinligini hisobga olish zarur. Van Dijk diskursni kontekst bilan bog‘liq holda talqin qilar ekan, kommunikativ vaziyat ishtirokchilarning mental modellari orqali anglanishini ta’kidlaydi. Baholashning diskursiv tabiatini tushuntirishda Martin va White tomonidan ishlab chiqilgan Appraisal yondashuvi ham muhim nazariy asos bo‘lib, u baholashni munosabat, pozitsiya va interpersonal aloqalar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Aksiologik xususiyatlarni aniqlashda qiyosiy-chog‘ishtirma, kontekstual, semantik-pragmatik va kognitiv-diskursiv tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bunda baholovchi mazmunning faqat lug‘aviy ifodasiga emas, balki uning diskursdagi funksiyasiga ham e’tibor qaratiladi. Aksiologik birliklarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. ijobiy baho bildiruvchi birliklar – good, admirable, honest, kind; yaxshi, ajoyib, halol, mehribon;

2. salbiy baho bildiruvchi birliklar – bad, cruel, dishonest, shameful; yomon, shafqatsiz, insofsiz, uyatli;

3. emotsional-baholovchi birliklar – wonderful, terrible, lovely; ajoyib, dahshatli, yoqimli;

4. qadriyatni konseptual ifodalovchi birliklar – freedom, justice, family, respect; erkinlik, adolat, oila, hurmat;

5. kontekstual baho hosil qiluvchi birliklar – o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari, muayyan kommunikativ vaziyatda ijobiy yoki salbiy qiymat kasb etadigan birliklar.

Bunday tasnif baholashni faqat sifatlar yoki baholovchi leksemalar bilan chegaralamaslik imkonini beradi. Masalan, home va uy birliklarining lug‘aviy ma’nosi neytral bo‘lishi mumkin, ammo muayyan badiiy yoki publitsistik diskursda ular xavfsizlik, mehr, tegishlilik yoki sog‘inch kabi aksiologik mazmunlarni faollashtirishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Diskursning aksiologik tabiati Diskursning muhim xususiyatlaridan biri unda so‘zlovchining voqelikka munosabati aks etishidir. Har qanday kommunikativ birlik ma’lum darajada so‘zlovchining tanlovi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tanlov ko‘pincha baholovchi pozitsiyani ham yuzaga chiqaradi. Masalan, ingliz tilidagi: She is confident. Va She is arrogant. gaplarida

shaxsning o‘ziga ishonchi haqida so‘z yuritilmoqda. Biroq confident ijobiy yoki neytral bahoga yaqin bo‘lsa, arrogant salbiy baholashni ifodalaydi.

O‘zbek tilida: U o‘ziga ishongan qiz. Va U o‘ziga bino qo‘ygan. birikmalari o‘rtasida ham shunga o‘xshash aksiologik tafovut mavjud. Birinchi ifoda ijobiy baholashga yaqin bo‘lsa, ikkinchisi salbiy munosabatni bildiradi. Bu misollar baholashning faqat predmet yoki shaxsning obyektiv xususiyatidan emas, balki so‘zlovchining unga bergan qiymatidan ham kelib chiqishini ko‘rsatadi. Shuningdek, bir xil leksemaning baholovchi kuchi kontekstga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi interesting ayrim vaziyatlarda ijobiy qiziqishni, boshqa vaziyatlarda esa kontekst va intonatsiyaga qarab shubha yoki kinoyani anglatishi mumkin. O‘zbek tilidagi qiziq birlikida ham shunga yaqin kontekstual o‘zgarishlar mavjud. Demak, diskursdagi aksiologik mazmunni aniqlashda leksik ma’no, kontekst va kommunikativ niyat birgalikda hisobga olinishi kerak. Konsept va aksiologik mazmun Konsept inson ongida shakllangan bilimlarning murakkab mental tuzilmasi bo‘lishi bilan birga, muayyan obyekt, hodisa yoki munosabatning inson uchun qanday qiymatga ega ekanini ham ifodalashi mumkin. Shu ma’noda konseptning aksiologik komponenti nominative mazmun bilan baholovchi munosabatni bog‘laydi. Masalan, HURMAT – RESPECT konsepti har ikki tilda ham ijobiy qiymat bilan bog‘liq. Biroq uning aksiologik mazmuni faqat hurmat/respect leksemalarining lug‘aviy ma’nosidan iborat emas. U murojaat shakllari, nutq etiketi, modal vositalar, bilvosita ifodalar va boshqa pragmatik birliklar orqali ham verbalizatsiya qilinadi. Shu sababli konseptning aksiologik tahlilida ikki jihatni farqlash maqsadga muvofiq: birinchisi, konseptga bog‘langan umumiy qadriyat mazmuni; ikkinchisi, ushbu qadriyatning muayyan diskursda qanday baholanishi va ifodalanishi. Bu yondashuv ingliz va o‘zbek tillarida umumiy qadriyatlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning verbal-pragmatik shakllanishidagi farqlarni aniqroq ko‘rsatish imkonini beradi. “Hurmat – respect” konseptining aksiologik xususiyatlari Aksiologik jihatdan HURMAT – RESPECT konsepti qiyosiy tahlil uchun muhim material bo‘la oladi. Har ikki tilda ham ushbu konsept ijobiy qadriyat bilan bog‘liq.

Ingliz tilida: We should respect other people's opinions. gapida respect boshqa shaxslarning fikrlarini qadrlash va tan olishni anglatadi.

O‘zbek tilida: Boshqalarning fikrini hurmat qilish kerak. ifodasida ham o‘xshash aksiologik mazmun mavjud. Biroq hurmatning diskursiv ifodasi turli kommunikativ vaziyatlarda farqlanishi mumkin. O‘zbek tilida yosh va ijtimoiy mavqega bog‘liq munosabatlar murojaat shakllari, sizlash, qarindoshlik

terminlari va nutq etiketi orqali namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida esa hurmat ko‘pincha please, would you, could you, I appreciate, I respect kabi vositalar va bilvosita kommunikativ strategiyalar orqali ifodalanadi. Bu farq “bir tilda hurmat bor, ikkinchisida yo‘q” degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, umumiy aksiologik konseptning turli lingvopragmatik vositalar yordamida verbalizatsiya qilinishini ko‘rsatadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida mehmondo‘stlik ijobiy aksiologik mazmunni ifodalovchi muhim konseptlardan biridir. Mehmonni kutib olish, taom tortish, e’tibor ko‘rsatish va mehmonni izzat qilish bilan bog‘liq birliklar ushbu konseptning turli verbal ko‘rinishlarini tashkil etadi.

Ingliz tilida hospitality ham ijobiy qiymatga ega bo‘lib, mehmonni iliq kutib olish, xizmat ko‘rsatish va samimiy munosabat kabi ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan: They were very hospitable to their guests. Va Ular mehmonlarini juda yaxshi kutib olishdi. gaplarida ijobiy baholash mezoni mehmonlarga munosabat orqali yuzaga chiqadi. Biroq konseptning aksiologik mazmuni uning faqat lug‘aviy ekvivalenti bilan belgilanmaydi. O‘zbek tilidagi mehmondo‘stlik konsepti ayrim kontekstlarda oila, qo‘ni-qo‘shnichilik va jamoaviy munosabatlar bilan bog‘lanishi mumkin. Ingliz tilida esa hospitality turli ijtimoiy va institutsional kontekstlarda, jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasida ham faol qo‘llanadi.

Shunday qilib, ekvivalent birliklarning mavjudligi konseptual-aksiologik mazmunning to‘liq bir xilligini anglatmaydi. Ijobiy va salbiy baholashning diskursdagi ifodasi Aksiologik mazmun ikki asosiy qutb — ijobiy va salbiy baholash atrofida shakllanadi. Ijobiy baholashda ma’qullash, hurmat, qoyil qolish, minnatdorlik va qadrlash kabi munosabatlar ustun bo‘lsa, salbiy baholashda qoralash, norozilik, tanqid, mensimaslik yoki rad etish kabi munosabatlar yuzaga chiqadi.

Ingliz tilida: He is an honest and reliable person. ifodasida honest va reliable shaxsning ijobiy baholanayotgan sifatlarini bildiradi.

O‘zbek tilida: U halol va ishonchli inson. birikmasi ham shunga yaqin aksiologik mazmunni yuzaga chiqaradi. Salbiy baholashda esa: He is dishonest and unreliable. Va U insofsiz va ishonchsiz. kabi birliklar qarama-qarshi qiymatni ifodalaydi.

Biroq aksiologik qutblanish har doim alohida sifatlar orqali ifodalanmaydi. Frazeologik birliklar ham kuchli baholovchi mazmunga ega bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilidagi ko‘ngli ochiq, oltin yurakli, tilidan zahar tomadi kabi birliklar shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni obrazli

tarzda ifodalaydi. Ingliz tilida a heart of gold, cold-hearted, sharp-tongued kabi birliklar ham shaxsning axloqiy yoki emotsional xususiyatiga baho beradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi aksiologik frazeologizmlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan zamonaviy ishlar ham bunday birliklarning axloqiy, emotsional va estetik munosabatlarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Aksiologik ma’noning kontekstual shakllanishi Aksiologik mazmunning muhim belgilaridan biri uning kontekstga bog‘liqligidir. Birlikning lug‘aviy ma’nosi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin, biroq real diskursda baholash darajasi kontekst orqali kuchayishi yoki o‘zgarishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi: That was brave. gapini olaylik. Kontekstga qarab brave chinakam jasoratni ma’qullashi ham, kinoyaviy tarzda noo‘rin harakatni baholashi ham mumkin.

O‘zbek tilidagi: Juda “aqlli” ish qilibsan. ifodasida qo‘shtirnoq yoki intonatsiya aqlli so‘zining odatiy ijobiy bahosini kinoyaviy salbiy bahoga aylantirishi mumkin. Shu sababli aksiologik tahlilda uch darajani farqlash maqsadga muvofiq:

lug‘aviy baho → kontekstual baho →pragmatik baho.

Lug‘aviy baho birlikning semantic tarkibida mavjud bo‘ladi. Kontekstual baho uning konkret nutq sharoitida yuzaga keladi. Pragmatik baho esa so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va tinglovchiga ta’siri bilan belgilanadi.

Aksiologik birliklar xalqning qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vositalardan biridir. Til orqali jamiyatda muhim hisoblangan axloqiy, ijtimoiy va estetik mezonlar avloddan avlodga uzatiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi qiymat tizimlarini qiyoslashga bag‘ishlangan ayrim zamonaviy maqolalarda individualizm, jamoaviylik, ijtimoiy munosabat va hurmat kabi tushunchalarning til birliklarida turlicha ifodalanishi qayd etiladi. Biroq bunday madaniy tendensiyalarni barcha ingliz yoki o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga xos qat’iy xususiyat sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Aksiologik ma’no shaxsiy tajriba, ijtimoiy muhit, janr va vaziyat ta’sirida ham o‘zgaradi. Masalan, FREEDOM – ERKINLIK konsepti universal qadriyat sifatida ikki tilda ham ijobiy aksiologik mazmun kasb etadi. Ammo uning diskursdagi faollashuvi huquqiy, siyosiy, badiiy yoki kundalik nutq kontekstiga qarab farqlanishi mumkin. Aksiologik mazmun va diskurs strategiyalari Baholash kommunikativ strategiyaning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo‘ladi. So‘zlovchi biror shaxs yoki hodisani ijobiy baholash orqali suhbatdosh bilan yaqinlik o‘rnatishi, salbiy baholash orqali esa norozilik yoki qarama-qarshilikni ifodalashi mumkin. O‘zbek tilida ham baholovchi birliklar nafaqat obyektga munosabatni, balki kommunikativ masofani belgilashga xizmat qiladi.

Masalan, azizim, hurmatli ustoz, qadrli mehmon kabi birliklarda ijobiy aksiologik mazmun bilan birga murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan ijtimoiy va emotsional munosabat ham ifodalanadi.

Ingliz tilida dear, respected, valued, honoured kabi birliklar ham o‘xshash vazifalarni bajarishi mumkin. Biroq ularning qo‘llanish chastotasi va kommunikativ vazifasi janr hamda vaziyatga bog‘liq. Shunday qilib, aksiologik birliklar diskursni faqat mazmunan emas, balki pragmatik jihatdan ham tashkil etuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

O‘zbek va ingliz tillaridagi diskurs va konseptning aksiologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir qator umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Aksiologik yondashuv diskurs va konseptni faqat semantik birlik sifatida emas, balki insonning borliqqa bo‘lgan qadriyatli munosabatini aks ettiruvchi kognitiv-kommunikativ hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tadqiqida baholash, konseptualizatsiya va lingvomadaniy mazmunning o‘zaro aloqasini ochib berish uchun samarali nazariy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

2. Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005.

3. van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

4. van Dijk T.A. Discourse, context and cognition // Discourse Studies. – 2006. – Vol. 8, №1. – P. 159–177.

5. Schiffrin D. Discourse Markers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

7. Карасик В.И. Языковые ключи. – Волгоград: Парадигма, 2007.

8. Кубрякова Е.С. Начала когнитивной науки о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2012.

9. Shamsematova B.R. Ingliz va o‘zbek badiiy diskursida milliy qadriyatlarni ifodalashning qiyosiy tahlili // ORIENS. – 2026. – B. 742–747.

TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARIDA DEYKTIK BIRLIKLAR VA ILLOKUTIV PERFORMATIVLARNING O‘ZARO MUNOSABATI

UO‘K 81’36:81’44

Muratova Nafisa Baxtiyarovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
https://orcid.org/0009-0007-7358-2952
oneidnafisa@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilak va tabrik nutqiy aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari, ularning illokutiv maqsadi, kommunikativ vazifasi hamda illokutiv performativ va deyktik olmoshlarning qo‘llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu nutqiy aktlarning adresant va adresat munosabatidagi pragmatik imkoniyatlari, nutqda voqelanish shartlari va illokutiv mazmunining lingvistik vositalar orqali ifodalanish ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *illokutiv akt, tilak, tabrik, perlokutiv akt, lingvistik birlik, nutqiy akt, kommunikatsiya, lokutiv akt, performativlar, deyktik olmoshlar.*

Аннотация. *В данном статье анализируются лингвопрагматические характеристики речевых актов выражения пожеланий и приветствий; рассматриваются их иллокутивные цели, коммуникативные функции, а также использование иллокутивных перформативов и дейктических местоимений. Кроме того, исследуются прагматический потенциал этих речевых актов в контексте взаимоотношений адресанта и адресата, условия их реализации в дискурсе и языковые средства, служащие для выражения их иллокутивного содержания.*

Ключевые слова: *иллокутивный акт, пожелание, поздравление, перлокутивный акт, языковая единица, речевой акт, коммуникация, локутивный акт, перформативы, дейктические местоимения.*

Abstract. *This study analyzes the linguopragmatic characteristics of speech acts expressing wishes and congratulations, examining*

their illocutionary goals, communicative functions, and the use of illocutionary performatives and deictic pronouns. It also explores the pragmatic potential of these speech acts within the relationship between the addresser and the addressee, the conditions for their realization in discourse, and the linguistic means used to express their illocutionary content.

Keywords: *illocutionary act, wish, congratulation, perlocutionary act, linguistic unit, speech act, communication, locutionary act, performatives, deictic pronouns.*

Kirish. So‘zlovchining muayyan kommunikativ niyatini amalga oshirishda kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan nutqiy aktlar muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ maqsad hamda illokutiv yo‘nalish ularning mazmuni va funksional xususiyatlarini anglashda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Nutqiy akt mazmuni to‘lig‘icha so‘zlovchining muloqot maqsadi bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchi nazarda tutgan har qanday elementar ma’noni qamrab oladi. Shu bilan birga, nutqiy akt muloqot tizimining asosiy, tayanch birligi hisoblanib, murakkab muloqot birligi bo‘lmish diskursni tarkib toptiruvchi, tuzuvchi vazifalarini bajaradi. “Illokutsiya tushunchasi nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushunchadir. Nutqiy akt strukturasining markazida ham illokutiv harakat turadi. Hatto illokutiv akt to‘lig‘icha nutqiy harakatning muqobili sifatida qaralish hollari ham uchraydi va nutqiy aktlar tasnifi illokutiv maqsad ko‘rsatkichlariga asoslanadi” [6, 77; 5, 155].

Adabiyotlar sharhi. Illokutiv akt tushunchasi pragmalingvistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida tilga olinadi. O.G.Pochepsovning ta’rificha, 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so‘zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi. [6, 77; 5, 155]. Istak, uning yuzaga chiqishi, istak gaplarning pragmatik xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. [2, 3, 10]. Nutqiy aktlarning turlari [5], nutq jarayonida ijtimoiy omillarning ta’siri masalasi [7] tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Illokutsiya tushunchasiga berilgan ushbu ta’rifga Sh.Safarov shunday munosabat bildiradi. “Illokutiv akt bevosita

muloqot strukturasining ishtirokchisi, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko‘chishini ta’minlovchi nutqiy faoliyat bo‘lagidir” [6, 77]. Bizningcha ham O.G.Pochepsov illokutsiyaning nutqiy faoliyatdan farqini ko‘rsatishga qanchalik harakat qilmasin, u hech qachon kommunikativ faoliyatsiz, insonlararo munosabatni yaratish muhitisiz yuzaga kelmaydi. Shu bilan birga, Illokutiv akt hosil bo‘lishi uchun ma’lum bir nutqiy tuzilmaning aniq ko‘rinishdagi “illokutiv kuchi” namoyon bo‘lishi lozim. Masalan, *“Uni yutuqlari bilan hamma qutladi”* gapi vositasida *siz ham tabriklab qo‘ying*, degan mazmun ifoda vositasi bo‘la olish imkoniyati, ya’ni “kuchi” voqelanadi. Illokutiv maqsad esa fikriy hodisa bo‘lib, nutqiy harakatning mazmuni, mundarijasini belgilab beradi. Z.Vendlerning talqinicha, illokutiv maqsad aslida, “mental harakat bo‘lib, so‘zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi” [6, 77]. Shuni qayd etish lozimki, Illokutiv maqsad nutqiy harakat kuchini namoyon qilish qanchalik muhim bo‘lmasin, lekin bu maqsad ushbu kuchning faqatgina bir qismi, bo‘lagi sanaladi. Zeroki, nutqiy harakat kommunikativ mazmunining to‘liq hosil bo‘lishi uchun maqsaddan tashqari, unga erishishni ta’minlovchi vosita va shart-sharoit ham mavjud bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli ham J.Syorl, D.Vanderveken va boshqalar nutqiy harakat illokutiv kuchini yetti qismdan tarkib topuvchi hodisa sifatida qaraydilar. Bulardan birinchisi, albatta, kommunikativ maqsaddir, chunki busiz nutqiy harakatning o‘zi ham bajarilmaydi. Keyingilari esa qandaydir darajada ushbu qismni to‘ldiradi, ular - illokutiv maqsadga erishish usuli (vositasi), illokutiv kuch voqelanishi jadalligi, voqelanishni ta’minlovchi propozitsion, haqqoniylik kabi mental sharoitlardir [6, 77].

Natijalar. Ma’lumki, Illokutiv kuch qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega bo‘lib, aynan shu tartib illokutiv harakatning mustaqilligini ta’minlaydi va uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga imkon beradi. Ba’zi olimlar gaplarning struktur-semantik turlari va bular vositasida bajarilayotgan nutqiy harakatlar o‘rtasidagi munosabatni tizimiy xarakterga ega emas, bu munosabat nutqiy harakat illokutiv kuchida qariyb namoyon bo‘lmaydi deb hisoblaydi. Sh.Safarov esa, har qanday sintaktik birlikning pragmatik zahirasi chegaralangan, uning illokutiv kuchi muloqot maqsadini ifodalash imkoniyati cheksiz emas deydi. Bizningcha ham gap struktur-semantik jihatdan chegaralangan bo‘lib, illokutiv kuchi nutqiy harakat maqsadining ham ma’lum ma’noviy chegarasi bor. Masalan, *“Bayram muborak bo‘lsin”, “Ta’ziyamni qabul qiling”* kabi gaplar maqtov, so‘rov, rozilik, va’da illokutiv maqsadlarini

ifodalashi mumkin emas. Gap struktur-semantik mundarijasi va uning illokutiv imkoniyatlari o‘rtasida tizimiy bog‘liqlik mavjud. Bog‘liqlik bo‘lmaganda tinglovchiga so‘zlovchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo‘lar edi.

Shuni aytish lozimki, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko‘chishi jarayonida (illokutiv akt) performativlarning ahamiyati katta. Bilamizki, har bir nutqiy tuzilma illokutiv harakatni bajarish uchun xizmat qiladi va modal ko‘rsatkichlar (mayl shakli, so‘z tartibi, ohang va boshqalar) so‘zlovchiga u qanday illokutiv maqsadni ifodalash niyatida bo‘lganligini bildirish imkonini beradi. Yana shunday tuzilmalar mavjudki, ularning pragmatik mazmuni doimiy, qariyb barcha sharoitlarda bir xil illokutiv kuchga ega bo‘lib, odatda, bunday tuzilmalar tarkibida illokutiv fe’llar qo‘llaniladi: *“Sizga eng ezgu tilaklarni tilayman”, “Erishgan muvaffaqiyatingiz bilan qutlayman”, “Tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman”* va hokazo. Bunday tuzilmalar nutqiy akt nazariyasida “aniq performativ”lar deb ataladi.

Performativlarning grammatik tuzilishi ham o‘ziga xos bo‘lib, illokutiv fe’llar, deyktik olmoshlarning qo‘llanish tartibi ham o‘ziga xos. Illokutiv fe’llar – bu so‘zlovchining gap orqali qanday nutqiy harakatni amalga oshirayotganini ko‘rsatadigan fe’llardir. Ular gapning maqsadini bildiradi. Masalan: tilamoq, tabriklamoq, duo qilmoq, qutlamoq, muborakbod etmoq. Bu fe’llar orqali so‘zlovchi shunchaki axborot bermaydi, balki amal (harakat) bajaradi. Masalan, *“Sizni tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman”. “Sizga baxt va omad tilayman”. “Bayramingiz bilan chin qalbimdan qutlayman”.* Bu gaplarda tabriklayman, tilayman, qutlayman – illokutiv fe’llardir. Chunki ular nutqiy aktni bajaradi. Deyktik olmoshlar esa, nutq vaziyati, so‘zlovchi, tinglovchi yoki vaqt-makon bilan bog‘liq bo‘lgan olmoshlardir. Ular kontekstga qarab ma’no oladi.

Tilak va tabriklarda shaxsiy munosabatni ifodalash uchun deyktik olmoshlar muhim rol o‘ynaydi. 1. So‘zlovchini ko‘rsatadi. Masalan: *“Men sizni bayram bilan tabriklayman”. “Biz sizga omad tilaymiz”*. Bu yerda men – so‘zlovchi, biz – jamoa nomidan tilak. 2. Tinglovchini ko‘rsatadi. *“Sizga baxt tilayman”. “Sizni yangi lavozimingiz bilan qutlayman”.* Bu yerda siz tinglovchini bildiradi. 3.Vaziyatni ko‘rsatadi. *“Shu muborak kunda sizni tabriklayman”. “Bugun siz uchun quvonchli kun”.*

Tilak va tabrik nutqiy aktida illokutiv fe’llar va deyktik olmoshlar birgalikda ishlaydi. Masalan: *“Men sizni bugungi bayramingiz bilan chin*

qalbimdan tabriklayman”. Bu gapda men – shaxs deyksisi (so‘zlovchi), sizni – tinglovchi, bugungi – vaqt deyksisi, tabriklayman – illokutiv fe’l. Natijada nutqiy akt to‘liq amalga oshadi. Shuni xulosa qilish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktida illokutiv fe’llar (tilayman, tabriklayman, qutlayman) nutqning amalini bildiradi; deyktik olmoshlar (men, siz, biz, shu, bugun) esa nutq vaziyatini aniqlaydi; ular birgalikda ishlaganda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy va kommunikativ munosabatni ifodalaydi.

Muhokama. Quyida tilak va tabrik nutqiy aktlarida qo‘llaniladigan illokutiv fe’llar pragmatik jihatdan tasniflab ko‘rsatildi. Bu fe’llar nutqiy harakatni amalga oshiruvchi asosiy performativ birliklar hisoblanadi.

Nutqiy akt turi	**llokutiv fe’l**	**Ma’nosi / vazifasi**	**Misol**
Tilak nutqiy akti	tilayman	Ezgu istak bildirish	*Sizga baxt-saodat tilayman.*
Tilak nutqiy akti	duo qilaman.	Yaxshi niyatni diniy mazmunda ifodalash	*Sening baxting uchun duo qilaman.*
Tilak nutqiy akti	yor bo‘lsin	Omad va muvaffaqiyat istash	*Omad sizga yor bo‘lsin.*
Tilak nutqiy akti	nasib etsin	Yaxshi natijaning amalga oshishini istash	*Farzandlaringizni yutuqlarini ko‘rish sizga nasib etsin.*
Tilak nutqiy akti	baraka tilayman	Farovonlik va to‘kinlik istash	*Topganingizga baraka bersin.*
Tabrik nutqiy akti	tabriklayman	Muayyan voqea yoki bayram bilan qutlash	*Sizni bugungi kun bilan tabriklayman.*
Tabrik nutqiy akti	qutlayman	Muvaffaqiyat yoki voqea bilan qutlash	*Yangi lavozimingiz bilan qutlayman.*
Tabrik nutqiy akti	muborakbod etaman	Rasmiy tabrik ifodasi	*Bayramingiz bilan muborakbod etaman.*
Tabrik nutqiy akti	muborak bo‘lsin	Bayram yoki voqea bilan tabriklash	*Baxt qushingiz muborak bo‘lsin.*
Tabrik nutqiy akti	samimiy qutlayman	Samimiy tabrikni ifodalash	*Onalik maqomi bilan samimiy qutlayman.*

Yuqoridagi tasnifdan shuni ko‘rish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktlarida ishlatiladigan illokutiv fe’llar nutq orqali bajarilayotgan harakatni – ya’ni tilash yoki tabriklashni aniq ko‘rsatadi. Tilak nutqiy aktida ko‘proq istak

va ezgu niyatni bildiruvchi fe’llar, tabrik nutqiy aktida esa qutlash va e’tirof ma’nosini bildiruvchi fe’llar qo‘llanadi. Illokutiv fe’llar bevosita yoki bilvosita deyktik birliklar bilan birga anglashiladi. Deyktik olmoshlar nutqiy aktda so‘zlovchi, tinglovchi, vaqt va makonni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularni inobatga olgan holda pragmatik va lingvistik jihatdan tizimli tarzda quyidagicha tasnifladik.

Nutqiy akt turi	**Deyktik olmoshlar**	**Vazifasi**	**Misol**
Tilak nutqiy akti	men, biz	So‘zlovchini ko‘rsatadi	*Men sizga yangi ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman.*
Tilak nutqiy akti	siz, sizga, sizni	Tinglovchini ko‘rsatadi	*Sizga sog‘lik va baxt tilayman.*
Tilak nutqiy akti	bugun, ertaga, hozir	Vaqtni aniqlash	*Ertaga sizga omad yor bo‘lsin.*
Tilak nutqiy akti	shu, mana	Vaziyat yoki hodisani ko‘rsatish	*Shu muborak kunda sizga baraka tilayman.*
Tabrik nutqiy akti	men, biz	So‘zlovchini ko‘rsatadi	*Men sizni tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman*
Tabrik nutqiy akti	siz, sizga, sizni	Tinglovchini ko‘rsatadi	*Sizni yangi lavozimingiz bilan qutlayman.*
Tabrik nutqiy akti	bugun, shu, hozir	Bayram yoki voqea vaqtini aniqlash	*Bugungi baxt to‘yingiz muborak bo‘lsin.*
Tabrik nutqiy akti	mana, o‘sha	Hodisa yoki voqeani aniqlash	*O‘sha kunda sizni samimiy qutlayman.*

Xulosa. Tahlil natijalari asosida shuni aytish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktlarida deyktik olmoshlar so‘zlovchi va tinglovchini aniqlash, voqea va vaqtni belgilash hamda nutq vaziyatini kontekstga moslashtirish uchun xizmat qiladi. Tilak aktida ko‘proq kelajakdagi holat va istak bilan bog‘liq deyktik birliklar ishlatilsa, tabrik aktida esa sodir bo‘lgan yoki hozirgi voqea bilan bog‘liq deyktik birliklar ustun keladi. Bundan kelib chiqadiki, tilak va tabrik

nutqiy aktlarida illokutiv maqsad ikki xil tarzda namoyon bo‘lishi mumkin: bevosita nutqiy harakat performativ fe’llar (tilayman, tabriklayman, qutlayman) orqali ochiq ifodalanadi. Bilvosita nutqiy harakat tilak yoki baholovchi birliklar hamda modal shakllar yordamida yuzaga chiqib, kontekst orqali aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – 208 б.

2. Лутфуллаева Д. Истак орқали йўқликни ифодаловчи синтактик ўрамлар / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 3-китоб. – Тошкент, 2006. – Б. 210-219.

3. Кебайтули Г. Ўзбек тилида истак гапларнинг семантик-синтактик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс...автореф. – Тошкент, 2022. – 51 б.

4. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 283 с.

5. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент, 2013. – 155 b.

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 385 б.

7. Umurzakova M. Language identity and the role of the social factor in its formation. Foreign languages in Uzbekistan (journalfledu.com): vol.53 no. 6.2023)

8. Umurzakova M. Sociopragmatic Features of The Realisation of Linguistic Personality in The Literary Text. Volime:07 Issue:02/ April 2026 ISSN:2660-6828
https://cajlpc.casjournal.org/index.php/CAJLPC/article/view/1529

9. Umurzoqova M. Muallif lisoniy shaxsining voqelanishida sintaktik birliklarning o‘rni. (2026). Science time journal, 4(4/1), 353-356. https://uzresearchers.com/index.php/stj/article/view/5725

10. Muratova N. B. ***Verbal assotsiatsiya va ekspressiv (tilak va tabrik) nutqiy aktlar*** / Monografiya. – Toshkent: Grant Kondor Print**,** 2024. – 120 b.

JALOLIDDIN RUMIY HIKMATLARIDA ZOHIR VA BOTIN POETIKASI

Irisova Komila Sherzod qizi,
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti Adabiyotshunoslik:o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi magistranti
komilalrisova2001@gmail.com

UO‘K 81’36:81’44

Annotatsiya. *Maqolada Jaloliddin Rumiyning “Qalb ko‘zingni och...” kitobidagi hikmatlar asosida zohir va botin munosabatining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Rumiyning hikmatlarida tashqi ko‘rinish va ichki mohiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik, shakl ortidagi ma’no hamda insonning ruhiy olamini ifodalovchi obraz va ramzlarning poetik vazifasi yoritiladi. Shuningdek, ko‘z, nur, yo‘l, suv kabi obrazlar orqali insonning zohiriy holatdan botiniy anglash sari intilishi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jaloliddin Rumiy, “Qalb ko‘zingni och...”, “Masnaviy”, hikmat, zohir, botin, poetika, badiiy obraz, ramz, timsol, obrazlar tizimi, badiiy tafakkur, tasavvufiy poetika, ma’no, shakl, ruhiy-ma’naviy olam.*

Аннотация. *В статье анализируется художественное выражение взаимоотношения внешнего и внутреннего начал на основе мудрых изречений из книги Джалаладдина Руми «Открой глаза своего сердца...». В мудрых изречениях Руми раскрывается взаимосвязь между внешним обликом и внутренней сущностью, значение, скрытое за формой, а также поэтическая функция художественных образов и символов, выражающих духовный мир человека. Кроме того, посредством таких образов, как глаз, свет, путь и вода, показывается стремление человека перейти от внешнего восприятия к внутреннему постижению.*

Ключевые слова: *Джалаладдин Руми, «Открой глаза своего сердца...», «Маснави», мудрость, внешнее, внутреннее, поэтика, художественный образ, символ, образ-символ, система образов, художественное мышление,*

суфийская поэтика, смысл, форма, духовно-нравственный мир.

Abstract. *The article analyzes the artistic representation of the relationship between the outward and inward aspects of human existence based on the wisdom sayings presented in Jalaluddin Rumi's book "Open the Eye of Your Heart...". Rumi's wisdom sayings reveal the connection between external appearance and inner essence, the meaning concealed behind form, as well as the poetic function of images and symbols that express the spiritual world of the human being. Furthermore, through such images as the eye, light, path, and water, the article demonstrates the human aspiration to move from outward perception toward inward understanding.*

Keywords: *Jalaluddin Rumi, "Open the Eye of Your Heart...", Masnavi, wisdom, outward, inward, poetics, artistic image, symbol, symbolic image, system of images, artistic thinking, Sufi poetics, meaning, form, spiritual and moral world.*

Kirish. Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumiy Sharq tasavvuf adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida inson hayoti va ruhiy olami o‘rtasidagi murakkab munosabatni badiiy-falsafiy talqin qilgan mutafakkirdir. Uning ijodida insonni anglash, uning nafsi, aqli, qalbi, ishqi va ma’naviy kamoloti masalalari markaziy o‘rin tutadi. Rumiy poetikasida narsa-hodisaning tashqi ko‘rinishi ko‘pincha uning ichki mohiyatiga olib boruvchi ramziy vosita vazifasini bajaradi. “Qalb ko‘zingni och...” kitobi Rumiy asarlaridagi hikmatlar mavzulari asosida jamlangan. Kitob so‘zboshisida ta’kidlanganidek, hikmatlarga “nasriy, sodda bayoni” asosida tartib berilgan. Shu sababli ushbu maqoladagi iqtiboslar Rumiyning forscha asl matnidan emas, balki mazkur nashrdagi o‘zbekcha nasriy bayondan olingani nazarda tutiladi. Asarda zohir va botin munosabatiga alohida urg‘u beriladi. Jumladan, “Masnaviy” so‘zlarining shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi farq quyidagicha ifodalanadi:“…so‘zlaridagi shakl, shaklga mahliyo bo‘lganni yo‘ldan adashtiradi; ma’noga ahamiyat bergan kishiga esa yo‘l ko‘rsatadi”. Bu yerda “yo‘l” obrazi muhim ramziy vazifani bajaradi. Shakl insonni adashtirishi, ma’no

esa unga yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Bu fikr butun kitobning ma’naviy-poetik konsepsiyasini belgilab beruvchi kalit g‘oyalardan biridir.

Tahlil va natijalar. Zohir va botin tushunchalari tasavvufiy tafakkurda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan ikki mutlaq kategoriya emas. Aksincha, zohir botinga olib boruvchi parda, belgi yoki vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Rumiy hikmatlarida ham shaklning o‘zi inkor qilinmaydi, balki uning ortidagi ma’noni anglash zarurligi ta’kidlanadi. Kitobning “Kirish” qismida bu holat juda aniq ifodalangan: “...sen tashqi tomonini eshitasan, ichkisini emas!” deyiladi va bu fikrga juda chiroyli dalil keltiriladi: “Hid bilmagan kishiga mushk ham bir, go‘ng ham!”. Bu hikmatda “tashqi tomon” – zohir, “ichki tomon” esa botin tushunchasining badiiy ifodasidir. Demak, matnni o‘qish bilan uni anglash bir xil jarayon emas. Inson so‘zni eshitishi mumkin, ammo uning ma’naviy mohiyatini anglash kishidan ilm, zakovat talab qiladi.

Rumiy hikmatlarida zohir va botin munosabatini ochib beruvchi eng muhim obrazlardan biri – ko‘z obrazidir. Ko‘z Jomiy tasavvuri bo‘yicha ko‘rish vositasi emas, balki haqiqatni anglash ramziga aylanadi. Kitobning “Basirat” bobida shunday deyiladi: “Inson ko‘zdan iboratdir. Qolgani teri. Do‘stni ko‘ra olgan ko‘znigina “ko‘z” deydilar. Do‘stni ko‘rmagan ko‘zning ko‘r bo‘lgani yaxshiroq. Bunday kishi Sulaymon bo‘lsa ham, chumoli undan afzalroqdir”. Bu hikmatda “ko‘z”ning zohiriy va botiniy ma’nolari ajratiladi. Zohiriy ko‘z narsalarning tashqi ko‘rinishini ko‘radi; botiniy ko‘z esa ularning mohiyatini anglaydi. “Do‘st” bu hikmatda “botin” ma’nosiga teng keladi. Zohirni ko‘rib, botinni ko‘rmagan ko‘zning ko‘r bo‘lgani afzalligi ta’kidlanadi. Shuning uchun “qalb ko‘zi” tushunchasi Rumiy poetikasida insonning ma’naviy idrok qobiliyatini anglatadi. Mazkur mavzuda yana bir muhim misol bor: “Achchiq-shirinni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Basirat ahli ularni oqibat panjarasidan ko‘ra oladi. Oqibatni ko‘rgan ko‘z to‘g‘rini ko‘ra oladi...” Hikmatni tahlil qilsak, Basirat ahligina, yaxshi-yomonni, to‘g‘ri-noto‘g‘rini ta’mini tatib ko‘rmasdan ajrata oladi degan xulosaga kelish mumkin. Bu misolda “achchiq” va “shirin” hayot hodisalarining zohiriy bahosi emas, balki ularning botiniy, “sabab-oqibat” ma’nosi nazarda tutiladi. Inson hozirgi holatga qarab bir narsani yaxshi yoki yomon deb baholashi mumkin. Basirat egasi esa uning natijasini ko‘radi. Demak, basirat – zohirdan botinga, sababdan oqibatga o‘tish qobiliyatidir.

Rumiy hikmatlarida ko‘z obrazi ko‘pincha nur obrazi bilan uzviy bog‘lanadi. Ko‘z ko‘rish vositasi bo‘lsa, nur haqiqatni ko‘rish imkonini beruvchi

ma’naviy quvvat sifatida talqin qilinadi. “Kirish” qismida “pardasiz nur”, “pinhon nur” kabi tushunchalar qo‘llanadi: “Ey, pardasiz nurlarni qabul qilish iqtidori bo‘lmagan kishi, hech bo‘lmasa harflardagi yashirin nur bo‘lmish hikmatli so‘zlarni eshit, ularni ye! Shunday qilib, u hijobsiz nurni qabul qilishni o‘rganasan, pinhon nurni ham pardasiz ko‘ra oladigan bo‘lasan”. Bu yerda “nur” – botiniy bilim va ma’rifat ramzi. “Parda” esa insonning haqiqatni anglashiga to‘sqinlik qiluvchi zohiriy va ruhiy hijobni ifodalaydi. Ya’ni inson avvalo ko‘radi, keyin nur ya’ni ilohiy ilm orqali haqiqatni anglaydi va nihoyat tashqi shakl ortidagi ma’noga yetadi. “Avliyo” mavzusida ham nur obrazi muhim o‘rin tutadi. Masalan, Payg‘ambar va komil insonlar haqidagi “Avliyo” nomli hikmatda qalblarning nur orqali ko‘rishi haqida so‘z yuritiladi. Bu holatda nur yorug‘lik emas, qalblarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi ma’naviy idrok vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Rumiy hikmatlarida suv va dengiz obrazlari ham ma’naviy yetuklik, hayot, ma’rifat va haqiqatning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Kirish” qismida “Masnaviy” Nil daryosi suviga qiyoslanadi: “Masnaviy Nil daryosining suvidir...” Bu qiyosda bir xil narsa turli insonlar uchun turlicha ma’no kasb etishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Ya’ni haqiqatning o‘zi emas, balki insonning uni qabul qilish qobiliyati muhim. Bu g‘oya “Basirat” mavzusidagi dengiz va ko‘pik obrazlari orqali yanada yaqqollashadi: “Dengizning ko‘pigini ko‘rdingmi, maftun bo‘lishing kerakki, dengizni ham ko‘rasan. Ko‘pikni ko‘rgan sirlarni aytadi. Ammo dengizni ko‘rgan hayratda qoladi”. Bu yerda ko‘pik – zohir, dengiz – botin ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Ushbu hikmatda Allohning mo‘jizalarini ko‘rgan inson bir kuni Allohni ham ko‘rish baxtiga musharraf bo‘lishiga tasavvufiy ishora bor. Ko‘pik dengizsiz mavjud bo‘la olmaydi, ammo dengiz ko‘pikdan ancha keng va chuqurdir. Xuddi shunday, voqelik ham mohiyatning yuzadagi ko‘rinishidir. Mo‘jizalar esa Allohning majvudligiga, buyukligiga dalolat ekani anglashiladi.

Rumiy hikmatlaridagi yana bir obraz: yo‘l obrazi mavjud bo’lib, bu obraz Rumiyda insonning ma’naviy kamolot jarayonini ifodalovchi markaziy ramzlardan biridir. “Avliyo” nomli hikmatda shunday keltiriladi: “O‘zing bilgan, necha martalab o‘tgan yo‘lda ham yo‘lboshchi bo‘lmasa adashasan”. Bu yerda yo‘l shunchaki makon ma’nosida emas. U insonning ma’naviy hayoti, kamolot sari harakati ramzidir. Yo‘lboshchi esa insonni zohiriy adashishdan emas, ma’naviy adashishdan asrovchi pir yoki ma’naviy ustoz timsoli sifatida qaraladi. “Yo‘lboshchisiz yo‘lovchiga ikki kunlik yo‘l yuz yillik bo‘ladi”. Bu

hikmatda vaqt va masofa tushunchalari ham botiniy ma’no kasb etadi. Yo‘lning ya’ni tasavvuf yo‘lining uzun-qisqaligi masofaga emas, insonning ma’naviy tayyorgarligiga bog‘liq. Demak, Rumiyda “yo‘l” – zohirdan botinga safar qilish ramzidir. Rumiy hikmatlarida zohir va botin munosabati ba’zan qarama-qarshi obrazlar orqali ham ifodalanadi. Shulardan biri olov va suv ziddiyatidir. Asarning “Avliyo” bobida: “Nafsing undan qochmoqda. Chunki sen olovdansan, u suv daryo suvi” deb keltiriladi. Bu yerda olov va suv insonning ikki xil ruhiy holatini ifodalaydi. Olov – nafs, hirs, beqarorlik va moddiy mayllar bilan; suv esa poklik, ma’naviyat va ruhiy ravshanlik bilan bog‘lanadi. Bu ramziy ziddiyat Rumiyning inson ichki dunyosiga doir qarashlarini ochadi: inson zohiriy ehtiyojlar bilan yashar ekan, nafs ta’sirida qolishi mumkin; botiniy kamolot esa uni poklanishga yetaklaydi. Asarda tuproq va oltin obrazlari ham zohir va botin munosabatini ifodalaydi. “Avliyo” bobida shunday deyiladi: “Komil tuproq olsa, oltin bo‘ladi, nokas oltinni qo‘liga olsa tuproqqa aylanadi”. Bu hikmatda ilmning ham, buyumning ham qiymati uning moddiy xususiyati bilan emas, uni qo‘lga olgan insonning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi.

Oltin – boylik, tuproq – qadrsizlik ramzi bo‘lishi mumkin. Ammo komil inson qo‘lida hatto tuproq ham ma’naviy qiymat kasb etadi. Nokas inson qo‘lida esa oltin ham o‘z qadrini yo‘qotadi deya xulosa beradi Rumiy. Zohir va botin munosabatining yana bir muhim ramzi – libosdir. “Boylik” mavzusidagi hikmatda boylik insonning ayblarini yopuvchi libosga qiyoslanadi: “Boy qulog‘igacha gunohga botgan, ammo davlati bor: aybini yopadi”. Xuddi shu asnoda, aybi, kamchiligi bor qullar bozorga libos bilan olib chiqilishi misol qilib keltiriladi. Bu yerda boylik zohiriy himoya vositasi sifatida tasvirlanadi. U insonning ichki kamchiliklarini yo‘qotmaydi, faqat ularni boshqalar ko‘zidan yashiradi. Demak, Rumiy mavqe bilan yetuklik o‘rtasidagi farqni ochib beradi. Inson boy, obro‘li yoki martaba sohibi bo‘lishi uning botiniy komilligini kafolatlamaydi. Bu fikr “Bilim” mavzusida ham davom etadi: “Beg‘arazlik bilimsizni olim qilar, qasd va g‘araz ilmni zulmga aylantiradi”. Bu yerda ham “bilim” bilan uning botiniy mohiyati – niyat va beg‘arazlik o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi. Rumiy hikmatlarida zohir va botin munosabatining ziddiyatli ko‘rinishlaridan biri aqlli ko‘rinish va botiniy johillik masalasidir. “Ahmoq” mavzusida Hazrati Iso va ahmoq haqidagi hikoya keltiriladi. Unda Iso alayhissalom ko‘r, kar va hatto o‘liklarga ta’sir qila olishi, ammo ahmoqning qalbiga ta’sir o‘tkaza olmasligi ta’kidlanadi. Hikoyaning botiniy mazmuni

shundaki, tashqi nuqson insonning ma’naviy haqiqatni anglashiga doimo to‘sqinlik qilmaydi. Aksincha, tashqi jihatdan sog‘lom va aqlli ko‘ringan inson botinan haqiqatdan mahrum bo‘lishi mumkinligi uqtiriladi. Shuning uchun Rumiyda “ko‘rlik” hamisha ko‘zning ko‘rmasligi emas; haqiqatni anglay olmaslik ham ma’naviy ko‘rlikdir deb keltiriladi.

Rumiy hikmatlarida zohiriy salbiy holatlar ham botiniy ma’no kasb etadi. Bu ayniqsa g‘am, dard va musibat obrazlarida yaqqol ko‘rinadi. “Azob” bobida shunday deyiladi: “Kimda dard bo‘lsa, u darmonga yetgandir. Zohiriy nuqtayi nazardan dard – azob. Botiniy nuqtayi nazardan esa u insonni uyg‘otuvchi, tavbaga, o‘z-o‘zini anglashga olib boruvchi vositadir. Xuddiki, insonning vijdoni qiynalishi, uning ruhiy uyg‘oq ekanidan dalolat bergani kabi. “G‘amdan quvonch orta boshladimi, jon bog‘ing atirgul-u gulsafsalarga to‘ldi”. Bu yerda g‘am “qish”, quvonch esa “bahor” obrazlari bilan bog‘lanadi. Yomonlikdan so‘ng yaxshilik, tun ortidan kun, qishdan keyin bahor kelgani kabi. “Azob” bobidagi no‘xat haqidagi hikoya zohir va botin munosabatining eng yorqin badiiy namunalaridan biridir. No‘xat olovda qaynayotganidan noliydi. Ayol esa uni pishirishdan maqsad uni xo‘rlash emas, balki mazali va foydali holga keltirish ekanini aytadi. No‘xat – inson timsoli; olov va qaynash – hayot sinovlari; pishish esa ma’naviy kamolot ramzidir. Shu sababli no‘xat timsoli Rumiyning tasavvufiy poetikasida insonning ruhiy yetilishini ifodalovchi kuchli metafora sifatida namoyon bo‘ladi. “Balo” mavzusida yo‘qotishlarning botiniy sabab va natijalarini ko‘rsatadi “Taqdir taqozosi bilan yo‘qotgan narsalaring sendan baloni daf qiladi, buni shunday deb bil!” Bu yerda “yo‘qotish” zohiriy nuqtayi nazardan salbiy hodisa. Ammo botiniy nuqtayi nazardan u kattaroq zararning oldini oluvchi vosita bo‘lishi mumkinligiga ishorat bor.

Xulosa. Jaloliddin Rumiy hikmatlarida zohir va botin munosabati tasavvufiy dunyoqarashning muhim estetik tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Rumiy uchun inson ko‘rayotgan tashqi voqelik haqiqatning to‘liq shakli emas. Har bir shakl ortida ma’no, har bir hodisa ortida sabab, har bir zohiriy azob ortida ma’naviy imkoniyat mavjud. Rumiy insonni tashqi ko‘rinishga maftun bo‘lib qolmaslikka, narsalarning ichki mohiyatini anglashga chaqiradi. Bu g‘oya, avvalo, ko‘z va nur obrazlarida yaqqol ko‘rinadi. Ko‘z – idrok, nur – haqiqatni anglash vositasi. Ko‘pik va dengiz munosabatida zohir va botinning poetik xususiyati yoritiladi. Yo‘l va yo‘lboshchi obrazlari insonning ma’naviy kamolot sari harakatini ifodalaydi. Olov va suv ziddiyati nafs va ma’naviyat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni belgilaydi. Tuproq va oltin orqali tashqi qiymat

bilan ichki qiymat o‘rtasidagi farq ochiladi. No‘xat va olov timsollari esa azobning botiniy ma’nosini – ruhiy pishish va kamolotni ifodalaydi.

Rumiy poetikasida eng muhim jihat shundaki, zohir botinning dushmani emas. Aksincha, zohir botinga olib boruvchi belgi va ramz vazifasini bajaradi. Inson tashqi hodisalarni to‘g‘ri o‘qiy olsa, ular orqali o‘z ichki dunyosini anglay boshlaydi. Shu ma’noda Rumiy hikmatlarida badiiy obraz oddiy bezak emas, balki ma’naviy ma’noni ochuvchi poetik vositadir. Eng muhimi, Rumiy insonni tashqi ko‘zdan “qalb ko‘zi”ga, shakldan ma’noga, ko‘pikdan dengizga, yo‘ldan manzilga, zohirdan botinga harakat qilishga undaydi. Shu bois uning hikmatlaridagi poetik obrazlar insonning ma’naviy kamolot yo‘lini badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rumiy, Jaloliddin. Qalb ko‘zingni och... Mavlono Rumiydan hikmatli so‘zlar / tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Bozorova. – Toshkent: Sano-standart, 2011. – 160 b.

2. Rumiy, Jaloliddin. Masnaviyi ma’naviy / Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent, 2010. – 695 b.

3. Rumiy, Jaloliddin. Ichindagi ichindadir: falsafiy-ma’rifiy nashr – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 200 b.

4. Rumiy, Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Kamolat, 2018.

5. Rumiy, Jaloliddin. Ma’naviy masnaviy. 1-jild, 1-kitob / tarjima va sharhlar bilan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

6. Rumiy, Jaloliddin. Ma’naviy masnaviy. Kulliyot. 1-jild, 2-kitob / tarjimon A. Mahkam – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 274 b.

7. Izbulayeva, G.V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi – Toshkent: Fan, 2015. – 208 b.

INOYATULLOH IBN MUHAMMAD SAFO – XIVA ADABIY MUHITI NAMOYANDASI

Matqurbanova Maftuna Farhod qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchi-stajyori
ORCID: 0009-0006-8799-4010
Email: maftuna02matqurbanova@gmail.com

UO‘K 81’42

Anotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr 2- yarmi XX asr boshlarida Xivada yashab ijod qilgan Inoyatulloh ibn Muhammad Safo haqida so‘z boradi. Asli kelib chiqishi Qo‘ng‘irot qozoqlaridan. Muhammadmurod Devonbegi tomonidan Xivaga olib kelinib, ilm olishga sharoit yaratilgan. Inoyat haqidagi biografik ma’lumotlarning cheklanganligiga qaramay, u haqida ma'lumot – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti asosiy qo‘lyozmalar fondida 9494 invertar raqami bilan saqlanayotgan Laffasiy tazkirasi qo‘lyozmasida uning she’riy iste’dodi va hayotiy faoliyati haqida qimmatli ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *Inoyatulloh ibn Muhammad Safo, matnshunoslik, manbashunoslik, xattotlik, g‘azal, muxammas, musaddas, qasida, Xiva adabiy muhiti, devon, qo‘lyozma.*

Аннотация. *В статье рассматривается Иноятуллах ибн Мухаммад Сафа, который жил и творил в Хиве во второй половине XIX и начале XX веков. Родом из кунградских казахов. Девонбеги привез Мухаммад Мурада в Хиву и создал ему условия для учебы. Несмотря на ограниченность биографических сведений об Инаяте, сведения о нем — рукопись тазкира «Лаффаси», хранящаяся под инвертным номером 9494 в основном рукописном фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни, — дают ценные сведения о его поэтическом таланте и жизненном пути.*

Ключевые слова: *Инайятулла ибн Мухаммад Сафа, текстоведение, источниковедение, каллиграфия, газель, мухаммы, мусадды, касыда, хивинская литературная среда, диван, рукопись.*

Abstract. *This article discusses Inayatullah ibn Muhammad Safa, who lived and worked in Khiva in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. He originally came from the Kungirat Kazakhs. He was brought to Khiva by Muhammad Murad Devonbegi and was given the opportunity to study. Despite the limited biographical information about Inayat, information about him - the manuscript of the Laffasi tazkir, stored in the main manuscript fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies under the invert number 9494 - provides valuable information about his poetic talent and life.*

Keywords: *Inayatullah ibn Muhammad Safa, textual studies, source studies, calligraphy, ghazal, muhammas, musaddas, qasida, Khiva literary environment, divan, manuscript.*

Muhammad Rahimxon Feruz davri adabiy muhiti o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Feruz o‘zi ijod qilish barobarida xonlikning turli mintaqalaridan iqtidorli yoshlarni topish va tarbiyalashga ham e’tibor qaratgan. Natijada, ko‘plab qalam ahli Xivada ijod qilish va tarbiya topish imkoniga ega bo‘lgan. Muhammad Rahimxon homiyligida kamolga yetishgan ana shunday ijodkorlardan biri Inoyatulloh ibn Muhammad Safodir. Shoirning adabiy taxallusi Inoyat. U shoir bo‘lish bilan birga mahoratli kotab sifatida bir qancha asarlarni ko‘chirgan. Inoyatdan bizgacha she’riy devoni yetib kelgan bo‘lib, uning uchta nusxasi hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanadi. Inoyat haqidagi ilk ma’lumotlar Hasanmurod Laffasiyning tazkirasida qayd qilinadi. Jumladan, Laffasiy:

Inoyatikim qozoq devon erur,
Uning fazli chun farovon erur.

Ushbu satrlardan shoirning qozoq millatiga mansubligi va uning fazilatlari, ilm-ma’rifati juda yuqori bo‘lganligi anglashiladi.

Inoyatulloh aslida Qo‘ng‘irot qozoqlaridan bo‘lgan. Xiva xonligining nufuzli amaldorlaridan biri Muhammadmurod Devonbegi qoraqalpoq va qozoqlardan boj-xiroj yig‘ish uchun Qo‘ng‘irotga borganida, Inoyatullohni

ko‘rib qoladi. U yosh yigitning salohiyati va qobiliyatini yuqori baholab, uni Xivaga olib keladi. Xivada Muhammadmurod Devonbegi Inoyatullohga uy-joy sotib olib beradi va ilm-ma’rifat olishi uchun sharoit yaratadi. Bu esa yosh Inoyatullohning Xiva madaniy va ilmiy muhitiga qo‘shilishiga turtki bo‘ladi. Keyinchalik Inoyatulloh ota-onasini ham Xivaga olib keladi, biroq ularga Xiva havosi yoqmay, yana Qo‘ng‘irotga qaytib ketadilar. Inoyatulloh esa Xivada qolib, Muhammadmurod Devonbegi xizmatida faoliyat yuritadi va kundan kunga taraqqiy qilib, uning hurmati oshib boradi.[1]

Bundan tashqari Inoyatulloh ibn Muhammad Safo hayoti va ijodi haqida Ahmad Tabibiyning tazkirasida ham ma'lumotlar uchraydi.

Ahmad Tabibiyning "Muxammasoti majmuati shuorai Feruzshohiy" ("Feruzshoh (ga yozilgan) muxammaslar to‘plami") asarida shoir Inoyatni" Faxmu donish farovon" deya aytib o‘tib ketadi.[2] Bundan ko‘rinib turibdiki, Inoyat o‘z davrining dona, tafakkurga boy ijodkor ekanligini anglashimiz mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan shoir Inoyatulloh Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz II (1864–1910) davrida yuksak mavqega ega bo‘lib, davlat ishlarida faol qatnashgan, saroyda kotib vazifasini ham bajargan. "Inoyat" va "Inoyatiy" taxalluslari ila qalam tebratgan ijodkor bo‘lgan. Inoyatiy taxallusi ostida "Devoni Inoyatiy" devoniga tartib bergan hamda ilm-ma’rifat rivojiga hissa qo‘shgan.

Asfandiyorxon (1910–1918) taxtga chiqqanidan so‘ng, u og‘ir zulm va tazyiqlarga duch kelib, hayotining so‘nggi yillarini iztirob ichida o‘tkazdi. Yangi xon otasidan farqli ravishda adabiyot va ilmga unchalik e’tibor bermagan, aksincha, o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun qattiqqo‘l siyosat yuritgan. Uning hukmronligi davrida ko‘plab davlat arboblari va ziyolilar tazyiq ostida qolgan. Bu voqea shoir hayotida tub burilish yasaydi. Ilm-ma’rifatga xizmat qilgan va davlat ishlarini yuritgan Inoyatulloh endilikda katta ta’qib qurboniga aylanadi. Bu haqda Laffasiy tazkirasida uning shu davrdagi iztiroblari haqida quyidagicha yozilgan:

Inoyatkim ko‘rib zulmi Falakdin,
Yuragi laxtalig‘ bo‘lgan jafodin.
Sitamdin doimo chun bag‘ri biryon,

[1] Лаффасий . Тазкираи шуаро. –Урганч: "Хоразм" тахририят-нашр булими.1992. 73-бет
[2] Болтабоев. Х. "Тазкиралар зикри"-Toshkent, " Mumtoz so‘z", 2015. 227-бет

Ko‘zidin oqizib ashki faravon.
Jabrlar ko‘ribon xonlig‘ vazirdan,
Jigarlar xun bo‘lgan ham jabrdan.[1]

Bu satrlar shoirning og‘ir kunlari, davlat arboblaridan ko‘rgan zulmi va adolatsizlikka uchraganini ochiq tasvirlaydi.

Asfandiyorxon buyrug‘i ila Muhammad Devonbegi va Shixnazar Shinosiylarni hibsga olib, ularning mol-mulklarini musodara qiladi. Shu jarayonda Inoyatulloh ham xon tomonidan tazyiqqa uchrab aybsiz hibsga olinadi. 15 oy davomida zindonda saqlanadi. Bu vaqt ichida u og‘ir qiynoqlarga solinadi. Asfandiyorxon uni o‘z huzurida 45 kecha-kunduz qamchilatib ancha xusumat beradi. Tayoq va qamchilarning zarbasidan uning badani pora-pora bo‘ladi. Zindondan halos bo‘lsa-da, og‘ir jarohatlar va chuqur iztiroblar uning hayotini izdan chiqaradi. Tana og‘riqlariga chiday olmay, adolatsiz taqdirdan nolib, ohu fig‘onlar chekib, hasrat va nadomat bilan, Xiva adabiy muhitining yorqin vakili shoir Inoyat 1912-yilda hijriy 1330-yilda vafot etadi.

Adabiy faoliyati va ijodi Xiva adabiy muhiti o‘sha davrda yuksak darajada rivojlangan edi. Feruz o‘z saroyida Avaz, Pur komil, Shinosiy, Nadimiy, Rog‘ib, Yusuf, Nozir, Haqiriy, Xodim, Xokiy, Mutrib, Kamoliy, Asad, Muznib, Sodiq, Devoniy, Bayoniy, Niyoziy, G‘oziy, Mirzo, Chokar kabi ko‘plab ijodkorlarni jamlagan edi. Inoyatulloh ham shu adabiy an’analarning davomchilaridan biri bo‘lib, g‘azal, musaddas, muxammas, qasida kabi janrlarda ijod qilib, o‘zining betakror badiiy uslubiga ega bo‘lgan. Uning she’rlari O‘zR FA Sharqshunoslik ilmiy qo‘lyozmalar insituti asosiy fondida 947 raqamli devonda saqlanadi. Shoir devonni Muhammad Rahimxon Feruz II farmoni bilan o‘zi ko‘chirgan. Bu haqda devon kolofonida quyidagicha yozilgan:

عنایت کاتب اتا یلری تحریر کوندیدا لاندجی ۹ ذ ینگ رمضان یرچه۱۳۲۷
خوارزمی صدفا محمد ابن

1327 hijriy mohi ramazon oyining 9 lanji kunida tahrir etildi. Kotib Inoyat Ibn Muhammad Safo Xorazmiy.

Devon 101 betdan iborat bo‘lib, oldin g‘azal keyin muxammas, musaddas va oxirida bahor fasliga bag‘ishlab yozilgan qasida berilgan. Bundan tashqari qog‘oz hoshiyasiga ham g‘azallar yozib ketilgan.Devonda hoshiya ichidagi g‘azallar arab raqamlari bilan raqamlangan bo‘lib, oxirgisi 367 raqamli g‘azali bilan tugaydi. Ammo 25(b) betdagi g‘azallarda ketma-ket kelgan ikkita g‘azalga

[1] Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч: “Хоразм” тахририят-нашр булими. 1992. 73-бет

101 raqami yozilgan. Demak, hoshiya ichidagi g‘azal oxiri 368 raqami bilan tamom bo‘lishi kerak edi .Devonning 38 (a-b) beti yopishtirilgan va unda alohida raqamlangan 4 ta g‘azal berilgan.Hoshiyaga bitilgan g‘azallar soni esa 52 ta. Shundan ma'lum bo‘ladiki, devonda 424 ta g‘azal, 10 ta muxammas, 5 ta musaddas va 1 ta qasidasi o‘rin olgan. Devon an'anaviy "Xudovandaki safidin zamin osmon paydo" hamd va " Men ne sifat hamdingg‘a til ochg‘umdurur yo rano" hamd, "Ahmadki barguzida erdi olamin aro" na't, "Yo xudo jurmu gunoh behadu poyondur manga" munojot, "Yo rab o‘z altofing ila qil bori komim aro" munojot g‘azallari bilan boshlangan. Oxirida esa bahor madhiga bag‘ishlangan qasida bilan yakunlangan. Devonda har (b) sahifa oxirida poygir yozilgan. Bundan tashqari Inoyatning she'rlari Feruz davrida ko‘chirilgan ko‘plab bayozlardan ham o‘rin olgan. Xususan, O‘zR FA Sharqshunoslik ilmiy qo‘lyozmalar insituti asosiy fondida saqlanayotgan 1175 invertar raqamli bayoz va 904, 7086 invertar raqamli saylanma devonlardan ham o‘rin olgan. 904 raqamli qo‘lyozma saylanma devon bo‘lib, shoir she'rlari bayozning beshinchi o‘rnida (231^{b}-280^{b}) betlarida berilgan. 7086 invertar raqamli qo‘lyozmada ham shoir she'rlari (184^{b}-224^{b}) betlaridan o‘rin olgan. Shoir g‘azallari devonda salmoqli o‘rinni egallaydi. Ijodkor Ogahiyning "Sallamno" g‘azaliga nazira bog‘lagan. Shoir she'riyatining tadqiqi mumtoz adabiyotimizda an'anaviy bo‘lgan ishq-muhabbat, inson kamoloti, jamiyat barqarorligi kabi mavzular yetakchilik qilganini ko‘rsatadi.Devonda berilgan muxammaslar ham alohida ahamiyatga ega.Shoir Alisher Navoiyning "Tun aqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab.. ", " Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar Navro‘z ila bayram... ", "Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at... " kabi g‘azallariga taxmis bog‘lagan.

Xulosa:

Inoyatulloh ibn Muhammad Safo XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva adabiy muhitida yashab ijod qilgan. Shoir asli qo‘ng‘irotlik qozoqlardan bo‘lib, Muhammad Rahimxon Feruz xohishiga ko‘ra Xivaga olib kelingan va uning xomiyligida tarbiya topgan. Inoyatulloh she’riyat va xattotlik bilan shug‘ullanib, Inoyat taxallusi bilan she’rlar yozgan. Hozirda shoir devonining ikkita qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 947 va 904 raqamlari ostida saqlanadi. Bulardan tashqari uning she’rlari Xiva adabiy muhitida tartib berilgan bayozlarga ham kirgan. Inoyat g‘azal, muxammas, musaddas va qasida janrida ijod qilgan. She’riyatini mumtoz adabiyotda

an’anaviy bo‘lgan ishq-muhabbat, inson kamoloti, jamiyat barqarorligi kabi mavzular tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bayoz. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondi. 582-raqamli qo‘lyozma.

2. Bayoz. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 904-raqamli qo‘lyozma.

3. Болтабоев Ҳ. Тазкиралар зикри. –Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. 261 bet. .

4. Inoyatulloh ibn Muhammad Safo. Devoni Inoyat.O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 947-raqamli qo‘lyozma.

5. Laffasiy Hasanmurod. Tazkirai shuaro. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 9494-raqamli qo‘lyozma.

6. Лаффасий Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро. –Урганч: "Хоразм" тахририят-нашр булими, 1992. 119 бет

7. Madirimova S. O‘zbek adabiyoti tarixini o‘qitishning manbaviy asoslari. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. 166 bet.

O‘ZBEK POEZIYASIDA PEYZAJ TASVIRINING TARIXIY OMILLARI

Xoshimova Osiyo Xikmatilla qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2-kurs tayanch doktoranti.
Osiyoxoshimova1999@gmail.com

UO‘K 81’42

ANNOTATSIYA. *So‘nggi yillar o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan omillar kengayib bormoqda. O‘zbek adabiyotining qadimgi turkiy adabiy an’analardan boshlab mumtoz va zamonaviy bosqichlargacha bo‘lgan rivojlanish jarayonida tabiat manzaralarining badiiy ifodasi qanday o‘zgarib borgani yoritiladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida tabiat obrazlarining inson ruhiyati, ishqiy-falsafiy kechinmalar va ma’naviy qarashlar bilan uyg‘unlashuvi masalasiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlar merosida peyzaj tasvirining o‘ziga xos jihatlari va uning keyingi o‘zbek she’riyatiga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotda Sharq mumtoz poetikasi, an’anaviy lirik janrlar, ramziy obrazlar va tarixiy-adabiy jarayon peyzaj tasvirining shakllanishidagi muhim omillar sifatida qaraladi.*

KALIT SO‘ZLAR: *o‘zbek poeziyasi, peyzaj tasviri, tabiat obrazi, badiiy tasvir, poetika, Alisher Navoiy, mumtoz adabiyot, Sharq poetikasi, lirik qahramon, ramziy obraz.*

ABSTRACT. *In contemporary Uzbek poetry, the factors that have influenced the formation and historical development of landscape imagery have become increasingly diverse. The study examines the changes in the artistic representation of nature throughout the development of Uzbek literature, from ancient Turkic literary traditions to the classical and modern periods. Particular attention is paid to the interaction of images of nature with the human psyche, lyrical and philosophical experiences, and spiritual views in the works of Alisher Navoi. The study also explores the distinctive features of*

landscape imagery in the literary heritage of Babur, Mashrab, Nodira, Uvaysi, Ogahiy, Muqimi, Furqat, and other representatives of Uzbek literature, as well as their influence on the subsequent development of Uzbek poetry. Eastern classical poetics, traditional lyrical genres, symbolic imagery, and the historical-literary process are considered important factors in the formation and development of landscape imagery.

KEYWORDS: *Uzbek poetry, landscape imagery, image of nature, artistic representation, poetics, Alisher Navoi, classical literature, Eastern poetics, lyrical hero, symbolic imagery.*

АННОТАЦИЯ. *В современной узбекской поэзии расширяются факторы, оказавшие влияние на формирование и историческое развитие пейзажной образности. В статье рассматривается изменение художественного изображения природы в процессе развития узбекской литературы — от древнетюркских литературных традиций до классического и современного этапов. Особое внимание уделяется вопросу взаимосвязи природных образов в творчестве Алишера Навои с внутренним миром человека, любовно-философскими переживаниями и духовными взглядами. Также рассматриваются особенности пейзажной образности в творчестве Бабура, Машраба, Надиры, Увайси, Огахий, Мукими, Фурката и других представителей узбекской литературы, а также их влияние на последующее развитие узбекской поэзии. В исследовании восточная классическая поэтика, традиционные лирические жанры, символические образы и историко-литературный процесс рассматриваются как важнейшие факторы формирования пейзажной образности.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *узбекская поэзия, пейзажная образность, образ природы, художественное изображение, поэтика, Алишер Навои, классическая литература, восточная поэтика, лирический герой, символический образ.*

KIRISH. O‘zbek adabiyoti xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy, ma’naviy va estetik tafakkurini o‘zida mujassam etgan bebaho badiiy merosdir. Uning taraqqiyot jarayonida inson va tabiat munosabati, tabiatning inson ruhiyatiga ta’siri hamda tabiat manzaralarining badiiy talqini muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish adabiy-estetik tafakkurimizning tarixiy ildizlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat manzarasi she’riyatda faqat atrof-muhit ko‘rinishini tasvirlash vositasi bo‘lib qolmay, balki insonning ichki kechinmalari, orzu-

intilishlari, ruhiy holati va falsafiy qarashlarini ifodalovchi poetik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti qadimgi turkiy adabiy yodgorliklar bilan uzviy bog‘liq. Uzoq vaqt davomida O‘rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning adabiy merosi umumiy turkiy adabiyot doirasida shakllangan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek adabiyotining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlab, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy kabi ijodkorlar merosi o‘zbek adabiy tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu davr adabiyotida tabiat va inson, borliq va ruhiyat o‘rtasidagi munosabatlarning turli ko‘rinishlari keyingi poetik an’analarning rivojlanishiga asos bo‘ldi.

O‘zbek mumtoz poeziyasining yuksak taraqqiyot bosqichi Alisher Navoiy ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy she’riyati Sharq poetik an’analarini yangi badiiy mazmun va yuksak san’atkorlik bilan boyitgan. Uning lirikasida gul, bulbul, bog‘, gulshan, bahor, kuz, sahro, shamol, quyosh, oy va boshqa tabiat unsurlari keng qo‘llanib, ular ko‘pincha lirik qahramonning ruhiy holati va kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli Navoiy poetikasini o‘rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari, obrazlar tizimi va lirik qahramon masalalari bilan bir qatorda tabiat tasvirining poetik vazifalarini ham tadqiq etish muhimdir. Navoiy poetikasining nazariy asoslarini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlab o‘zbek adabiyotshunosligida izchil tus oldi. Akademik Oybek, Maqsud Shayxzoda va Hodi Zarifning tadqiqotlarida shoir lirikasining mohiyati, poetik uslubi, badiiy tasvir prinsiplari va lirik qahramon masalalariga e’tibor qaratildi. Keyingi davrlarda A. Hayitmetov, Yo. Ishoqov, A. Rustamov, B. Valixo‘jayev, I. Haqqulov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari Navoiy poetikasining janr, obraz, badiiy san’at va uslubiy xususiyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qildi. Mazkur tadqiqotlar o‘zbek poeziyasida tabiat obrazlarining shakllanishi va ularning badiiy vazifalarini anglash uchun ham muhim nazariy asos bo‘la oladi. Sharq she’riyatining o‘ziga xosligi, avvalo, uning poetik tizimi, obrazlar olami va badiiy ifoda vositalarida namoyon bo‘ladi. G‘azal, ruboiy, masnaviy kabi an’anaviy janrlarda tabiat obrazlari ko‘pincha ramziy va majoziy ma’no kasb etadi. Masalan, gul va bulbul munosabati ishqiy kechinmalarni, bahor yangilanish va hayotiylikni, kuz esa ayriliq yoki zavol holatini ifodalashi mumkin. Shu tariqa tabiat manzarasi tashqi olam tasviri bilan cheklanmay, insonning ichki dunyosini ochib beruvchi badiiy vositaga aylanadi. O‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy rivojlanishi keyingi davrlarda ham davom etdi. Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Munis, Ogahiy, Muqimiy,

Furqat kabi ijodkorlar o‘z she’riy merosida tabiat va inson munosabatini turli poetik shakllarda ifodaladilar. Ayniqsa, Bobur lirikasida tabiat manzaralari insonning shaxsiy kechinmalari, Vatanga bo‘lgan sog‘inch va ayriliq tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashadi. Nodira va Uvaysiy singari shoiralar ijodida esa tabiat tasviri lirik kechinmalarni ifodalashning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida yangi badiiy-estetik qarashlarning shakllanishi peyzaj tasvirining mazmun va vazifalariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi ijodkorlar ijodida real hayot manzaralarini aks ettirishga intilish kuchaydi. Keyinchalik XX asr o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon kabi ijodkorlar badiiy tafakkurning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirdilar. Tabiat manzaralari, inson taqdiri, jamiyat hayoti, Vatan va milliy ruh kabi tushunchalar bilan yanada faol bog‘lana boshladi. Mustaqillik davri o‘zbek poeziyasida esa an’anaviy poetik tajriba bilan zamonaviy badiiy tafakkurning uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Zamonaviy she’riyatda tabiat tasviri shoirning ichki olami, insonning ma’naviy izlanishlari, milliy o‘zlik, Vatan va tarixiy xotira bilan bog‘liq holda talqin qilinmoqda. An’anaviy, folklor, zamonaviy, aruz va sinkretik yo‘nalishlarning mavjudligi bugungi o‘zbek she’riyatining janr va uslub jihatidan rang-barangligini ko‘rsatadi. Bunday xilma-xillik peyzaj tasvirining ham yangi poetik shakllarda namoyon bo‘lishiga imkon yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy omillarini o‘rganish nafaqat tabiat manzaralarining qanday tasvirlanganini aniqlash, balki ularning davr ruhiyati, milliy dunyoqarash, adabiy an’analar va shoirning individual poetik tafakkuri bilan qanday bog‘langanini ochib berishni ham taqozo etadi. Peyzajning mumtoz adabiyotdagi ramziy-majoziy xususiyatlaridan zamonaviy she’riyatdagi ruhiy, falsafiy va ijtimoiy mazmunlargacha bo‘lgan tadrijiy jarayonni kuzatish o‘zbek poeziyasining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy shakllanishi, uning mumtoz adabiyotdagi ildizlari, Alisher Navoiy ijodidagi poetik xususiyatlari hamda keyingi davrlar she’riyatida mazmun va vazifa jihatidan takomillashib borishi masalalariga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. O‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotini yoritishda tarixiy-adabiy,

qiyosiy-tipologik, poetik va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini o‘zbek adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari, mumtoz Sharq poetikasi an’analari hamda zamonaviy o‘zbek she’riyatining badiiy-estetik xususiyatlari tashkil etadi. Tadqiqotda, avvalo, tarixiy-adabiy metod asosida o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining yuzaga kelishi va takomillashuvi turli davrlar kesimida o‘rganildi. Qadimgi turkiy adabiyotdan boshlab mumtoz adabiyot, XIX–XX asrlar she’riyati va mustaqillik davri adabiyotigacha bo‘lgan jarayon izchil kuzatildi. Bunda har bir davrning ijtimoiy, ma’naviy va estetik xususiyatlari peyzaj tasvirining mazmuni va badiiy vazifasi bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida turli davrlarda ijod qilgan shoirlar asarlaridagi tabiat obrazlari o‘zaro qiyoslandi. Xususan, mumtoz poeziyada shakllangan gul, bulbul, bog‘, bahor, kuz, shamol, oy, quyosh, sahro kabi an’anaviy obrazlarning keyingi davr she’riyatida qanday mazmuniy o‘zgarishlarga uchragani aniqlandi. Bunda tabiat obrazlarining bir davrdan ikkinchi davrga o‘tish jarayonida saqlangan an’anaviy jihatlar va yangicha poetik talqinlar ajratib ko‘rsatildi. Tadqiqotning muhim metodlaridan biri poetik tahlil metodi bo‘lib, u orqali peyzajning she’riy asardagi badiiy vazifasi o‘rganildi. Tabiat manzaralarining faqat tashqi ko‘rinishni ifodalash bilan cheklanmasdan, lirik qahramonning ruhiy holati, ishqiy kechinmalari, falsafiy qarashlari, Vatanga munosabati va ma’naviy izlanishlarini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, peyzaj bilan bog‘liq ramziy va majoziy obrazlarning mazmuni hamda ularning asar poetikasidagi funksiyasini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Darhaqiqat, tadqiqotimizda **janriy tahlil** tamoyillaridan ham foydalanildi. G‘azal, ruboiy va masnaviy kabi mumtoz lirik janrlarda peyzaj tasvirining qo‘llanish xususiyatlari kuzatildi. Xususan, g‘azal poetikasida tabiat obrazlarining ramziy-majoziy mazmuni, ruboiyda qisqa shakl doirasida tabiat va falsafiy fikrning uyg‘unlashuvi, masnaviyda esa manzara va voqea tasvirining o‘zaro aloqasi o‘rganildi. Shu asosda peyzajning janr tabiatiga qarab turlicha funksional xususiyat kasb etishi belgilandi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda **poetik-tarixiy yondashuv** asos qilib olindi. Navoiy lirikasining badiiy tasvir prinsiplari, obrazlar tizimi va poetik uslubi haqidagi ilmiy qarashlardan foydalanib, tabiat tasvirining shoir ijodidagi o‘rnini aniqlashga harakat qilindi. Bu jarayonda Oybek, Maqsud Shayxzoda, Hodi Zarif, A. Hayitmetov, Yo. Ishoqov, A. Rustamov, B. Valixo‘jayev, I. Haqqulov va boshqa navoiyshunos olimlarning poetik tadqiqotlarida ilgari surilgan ilmiy qarashlar metodologik

tayanch sifatida olindi. Shuningdek, tadqiqotda **tadrijiylik tamoyili**ga amal qilindi. Unga ko‘ra, peyzaj tasviri tayyor va o‘zgarmas hodisa sifatida emas, balki adabiy jarayon davomida mazmunan va shaklan takomillashib borgan poetik hodisa sifatida qaraldi. Mumtoz she’riyatdagi ramziy tabiat obrazlaridan XIX-XX asrlar adabiyotidagi realistik manzaralarga, undan zamonaviy she’riyatdagi psixologik, falsafiy va ijtimoiy talqinlarga qadar bo‘lgan o‘zgarishlar izchil tahlil qilindi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi tarixiylik va izchillik, qiyoslash va poetik tahlil, janriy yondashuv hamda obrazlar tizimini o‘rganish tamoyillarining uyg‘unligiga asoslandi. Mazkur metodlar o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy ildizlarini aniqlash, uning mumtoz adabiyotdan zamonaviy she’riyatgacha bo‘lgan taraqqiyotini kuzatish va tabiat obrazlarining badiiy-estetik vazifalarini ochib berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O‘zbek poeziyasida tabiat tasvirining shakllanishi xalqning qadimiy badiiy tafakkuri va turkiy adabiyot an’analari bilan bevosita bog‘liq. Qadimgi turkiy adabiyot namunalaridan boshlab tabiat, inson va borliq o‘rtasidagi munosabat badiiy tafakkurning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib kelgan. Tabiat hodisalari va uning turli unsurlari inson hayoti, ruhiy holati hamda jamiyat haqidagi qarashlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Shu sababli peyzajni faqat manzara tasviri sifatida emas, balki tarixiy davr kishisining olam haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi poetik hodisa sifatida baholash lozim. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tabiat tasviri xalq og‘zaki ijodi, mifologik qarashlar va qadimgi turkiy poetik an’analar bilan uyg‘un holda rivojlangan. Keyinchalik yozma adabiyotning shakllanishi bilan tabiat obrazlari yanada murakkab mazmun kasb eta boshladi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviy singari ijodkorlar merosida tabiat va borliq masalalari insonning ma’naviy dunyosi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon keyingi mumtoz she’riyat uchun muhim poetik zamin yaratdi.

Mumtoz Sharq adabiyotida peyzajning shakllanishiga g‘azal, ruboiy, qasida va masnaviy kabi janrlarning rivojlanishi ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, g‘azal poetikasida tabiat unsurlari muayyan ramziy ma’nolarni ifodalash imkonini berdi. Gul, bulbul, bog‘, gulshan, bahor, kuz, shamol, yomg‘ir, tong, tun kabi obrazlar keyinchalik an’anaviy poetik birliklarga aylandi. Bunday obrazlar tashqi tabiat ko‘rinishini berish bilan birga, muhabbat, hijron, umid, ayriliq, visol, ruhiy iztirob va ma’naviy yuksalish kabi holatlarni

ifodalashga xizmat qildi. Mumtoz adabiyotda peyzajning aynan shu ikki qirrali - tasviriy va ramziy - xususiyati uning badiiy qiymatini belgilaydi. O‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining yuksak darajada takomillashuvida Alisher Navoiy ijodi alohida o‘rin tutadi. Navoiy Sharq poetikasida mavjud bo‘lgan an’anaviy tabiat obrazlarini shunchaki takrorlamadi, balki ularga yangi badiiy va ma’naviy mazmun yukladi. Uning lirikasida tabiat tasviri lirik qahramonning ichki dunyosini ochish, muayyan ruhiy holatni kuchaytirish va asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirish vositasiga aylandi. Navoiy she’riyatida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat statik emas, balki doimiy harakatdagi badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir tashqi olamdagi o‘zgarishlarni inson qalbidagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unlashtiradi. Masalan, bahorning kelishi yangilanish va hayotiy kuch bilan, kuzning kelishi esa o‘tkinchilik va ayriliq bilan bog‘lanishi mumkin. Gul va bulbul obrazlari esa ishq va oshiq-ma’shuqa munosabatlarini ifodalashning an’anaviy vositasiga aylangan bo‘lsa-da, Navoiy talqinida ular yanada chuqur ruhiy va falsafiy mazmun kasb etadi. Navoiy poetikasini o‘rganish jarayonida uning tabiat tasviridan turli maqsadlarda foydalangani ko‘rinadi. Ayrim she’rlarda peyzaj butun asarning asosiy mavzusini tashkil etsa, boshqa asarlarda tabiatga oid birgina detal lirik mazmunni ochishga xizmat qiladi. Yana ayrim hollarda esa butun she’r tabiat manzarasiga bag‘ishlangandek ko‘rinsa-da, asl maqsad insonning ruhiy holatini ifodalashdan iborat bo‘ladi. Navoiy poetikasida peyzajning bunday funksional imkoniyatlari uning badiiy mahorati bilan bog‘liq. Shoir tabiat manzaralarini tashbeh, tazod, talmeh, mubolag‘a, tashxis kabi badiiy san’atlar yordamida jonlantiradi. Natijada tabiat oddiy fon emas, balki lirik qahramon bilan “munosabatga kirishuvchi” faol poetik xronotopga aylanadi. Tabiatdagi harakat, rang, tovush va o‘zgarishlar inson kechinmasining badiiy ekvivalentiga aylanadi. Navoiy ijodida tabiat tasvirining badiiy san’atlar bilan uzviy bog‘lanishi ham uning poetik tizimining muhim jihatlaridan biridir. Navoiy yaratgan poetik an’analar keyingi o‘zbek she’riyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bobur, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar tabiat obrazlaridan o‘zlarining individual badiiy maqsadlaridan kelib chiqib foydalandilar. Bunda Navoiy davrida shakllangan an’anaviy obrazlar saqlangan bo‘lsa-da, ularning mazmuni ijodkorning hayotiy tajribasi va davr ruhiga qarab o‘zgarib bordi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida tabiat tasviri alohida ruhiy samimiyati bilan ajralib turadi. Shoirning tabiatga munosabatida shaxsiy kechinma, yurt sog‘inchi va Vatan tushunchasi bir-biriga yaqinlashadi. Tabiat uning she’riyatida shunchaki estetik zavq manbai

emas, balki insonning o‘zligini anglashi va tug‘ilib o‘sgan makon bilan ma’naviy bog‘liqligini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Nodira va Uvaysiy ijodida esa tabiat tasviri ayol qalbidagi nozik kechinmalarni ifodalash bilan uyg‘unlashadi. Gul, bahor, bog‘, qush va boshqa tabiat obrazlari orqali muhabbat, ayriliq, umid, iztirob kabi ruhiy holatlar beriladi. Shu tariqa mumtoz poeziyada shakllangan peyzaj an’anasi yangi ijodiy individuallik bilan boyib boradi. Mashrab, Munis va Ogahiy ijodida tabiat tasviri yana boshqa mazmuniy qatlamlarga ega bo‘ladi. Unda tasavvufiy qarashlar, inson va borliq munosabati, hayotning o‘tkinchiligi hamda ma’naviy kamolot masalalari tabiat obrazlari orqali ifodalanadi. Demak, mumtoz poeziya taraqqiyoti davomida peyzajning semantik doirasi kengayib, u estetik tasvirdan falsafiy va ruhiy mazmunni ifodalovchi vositaga aylandi.

Mustaqillik davriga kelib, o‘zbek she’riyatida badiiy tafakkurning erkinlashuvi peyzaj tasvirining mazmuniy imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Zamonaviy shoirlar tabiat manzaralari orqali insonning ichki olami, milliy o‘zlik, Vatan, tarixiy xotira, ma’naviyat va jamiyat haqidagi qarashlarini ifodalashga intilmoqdalar. Bugungi she’riyatda mumtoz an’analar butunlay yo‘qolib ketmagan. Aksincha, gul, bog‘, bahor, kuz, tun, tong, shamol kabi an’anaviy obrazlar zamonaviy poetik tafakkur asosida qayta talqin qilinmoqda. Bunda qadimiy ramz yangi mazmun bilan to‘ldiriladi. Masalan, bahor faqat fasl emas, balki yangilanish va umid timsoli; tong esa ma’naviy uyg‘onish yoki ozod fikr ramzi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida peyzajning inson–tabiat–jamiyat munosabatlarini ifodalash imkoniyati ham kuchaydi. Tabiat tasviri orqali shoir o‘zining milliy, ijtimoiy va falsafiy qarashlarini ifodalashi mumkin. Shu jihatdan peyzaj zamonaviy she’riyatda poetik detal bo‘lish bilan birga, muallifning umumiy badiiy konsepsiyasini shakllantiruvchi vositaga aylanadi.

O‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy taraqqiyot bosqichlari

Adabiy davr	Peyzaj tasvirining asosiy xususiyati	Yetakchi poetik vazifa	Xarakterli obrazlar
Qadimgi turkiy adabiyot	Tabiat va borliqni yaxlit tasavvur qilish	Inson va olam munosabatini ifodalash	Yer, suv, osmon, tabiat hodisalari

X–XIV asrlar	Diniy-falsafiy va tasavvufiy talqin kuchayishi	Ma’naviy mazmunni ifodalash	Bog‘, gul, nur, suv, shamol
XV asr – Navoiy davri	Peyzajning yuksak poetik tizimga aylanishi	Ruhiy holat, ishq va falsafiy fikrni ifodalash	Gul, bulbul, bog‘, bahor, kuz, shamol
XVI–XVIII asrlar	Mumtoz an’analarning davom etishi va individual talqin	Lirik kechinma va tasavvufiy mazmun	Gul, bulbul, bog‘, sahro, tun
XIX asr	Realistik tasvir unsurlarining kuchayishi	Hayotiylik va inson kechinmasini ifodalash	Fasllar, tabiat manzaralari, makon
XIX asr oxiri – XX asr boshlari	Ramziy va ijtimoiy mazmunning kuchayishi	Milliy uyg‘onish, ma’rifat va ozodlik g‘oyalarini ifodalash	Tong, bahor, yorug‘lik, tabiat
XX asr	Psixologik va realistik peyzajning rivojlanishi	Inson ruhiyati, Vatan va davr ruhini aks ettirish	Bahor, kuz, yomg‘ir, qor, tong
Mustaqillik davri	An’ana va zamonaviy poetik tafakkur uyg‘unligi	Milliy o‘zlik, Vatan, tarixiy xotira va falsafiy mushohadani ifodalash	Tabiat, Vatan manzaralari, fasllar, tong, bahor

Ushbu maqolada tadqiqot jadvalidan foydalanildiki, o‘zbek poeziyasida peyzaj tasviri tarixiy taraqqiyot davomida mazmun va vazifa jihatidan sezilarli darajada kengaygan. Dastlab tabiat va insonning yaxlitligi bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirlar mumtoz davrda ramziy va falsafiy mazmun bilan boyigan. Navoiy ijodida bu an’analar mukammal poetik tizim darajasiga ko‘tarilgan. Keyingi davrlarda esa peyzaj realistik, psixologik, ijtimoiy va milliy mazmun bilan to‘ldirilgan.

XULOSA. Shunday qilib, o‘zbek poeziyasida peyzaj tasvirining tarixiy taraqqiyoti bir tekis kechgan hodisa emas. Har bir davr mavjud poetik tajribani o‘z estetik ehtiyojlari asosida qayta ishlab, unga yangi mazmun yuklagan. Mumtoz adabiyotda tabiat ko‘proq ramziy va ma’naviy mazmun tashigan bo‘lsa, keyingi davrlarda u inson psixologiyasi, real hayot, jamiyat va milliy tafakkur bilan yanada faol bog‘langan. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida esa an’anaviy poetik obrazlar yangi falsafiy va estetik mazmun bilan uyg‘unlashib, peyzajni ko‘p qatlamli badiiy hodisaga aylantirmoqda. Alisher Navoiyning poetik uslubi o‘zbek mumtoz adabiyotining eng muhim va o‘ziga xos hodisalaridan biridir. Navoiy ijodida g‘azal, ruboiy, qit’a kabi janrlar yuksak darajada rivojlanib, badiiy tasvir vositalari, ramz va timsollar orqali chuqur falsafiy, ma’rifiy va insonparvarlik g‘oyalari ifodalangan.

Yuqorida aytilganidek, Navoiy poetikasini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo‘lsa, Mustaqillik yillarida esa Navoiy merosi yangicha ilmiy va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etildi. Umuman, Navoiy poetik uslubi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutib, uning ijodiy merosi bugungi kunda ham ilmiy va badiiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. Mukammal asarlar to‘plami. - Toshkent: Fan, 1987-2003.
2. Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy. - Toshkent: Fan, 1990.
3. Navoiy, A. Badoye’ ul-bidoya. - Toshkent: Fan, 1987.
4. Navoiy, A. Navodir un-nihoya. - Toshkent: Fan, 1991.
5. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. - Toshkent: Fan, 1983.
6. Oybek. Navoiy g‘azaliyoti haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. - Toshkent, 1961.
7. Shayxzoda, M. Navoiyning lirik qahramoni. - Toshkent.
8. Zarif, H. Lutfiy va Navoiy. - Toshkent.
9. Hayitmetov, A. Navoiy lirikasi. - Toshkent: Fan, 1961.
10. Hayitmetov, A. Navoiy dahosi. - Toshkent: Fan.
11. Ishoqov, Yo. Alisher Navoiy ilk lirikasining poetik xususiyatlari. - Toshkent.
12. Ishoqov, Yo. Navoiy poetikasi. - Toshkent: Fan, 1983.
13. Rustamov, A. Navoiyning badiiy mahorati. - Toshkent: Fan, 1979. ning uchta nusxasi hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanadi. Inoyat haqidagi ilk ma’lumotlar Hasanmurod Laffasiyning tazkirasida qayd qilinadi. Jumladan, Laffasiy.

QORAQALPOQ OMIRBEK HAQIDAGI SIKL MATERIALIDA LATIFANI LINGVOMADANIY TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Dovletov Shukurulla Atanazarovich,
Osiyo Xalqaro universiteti
Rus tili o‘qituvchisi (mustaqil PhD izlanuvchi)
ORCID orcid. org/0009-0003-4745-4288

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya

Maqola Omirbek (Өmirbek laqqı) haqidagi qoraqalpoq latifalarining lingvomadaniy tahliliga bag'ishlangan. Ish to'rt komponentli metodologiyaga tayanadi, u komik effekt yaratishning universal va etnospetsifik mexanizmlarini aniqlash, A. Vejbitskayaning madaniy ssenariylar nazariyasini qo'llash, Yu. M. Lotmanning semiosfera yondashuvidan foydalanish, shuningdek, latifaning tarjimabopligi funksional tipologiyasini o'z ichiga oladi. Empirik bazani B. Privalov tarjimasidagi "Omirbek latifalari" to'plami, shuningdek, qoraqalpoq folklor kontentining raqamli nashrlarida qayd etilgan asl qoraqalpoq matnlari tashkil etadi.

***Kalit so'zlar**: latifa, qoraqalpoq folklori, Omirbek laqqi, lingvokulturologiya, madaniy ssenariy, semiosfera, komik effekt, tarjimaboplik tipologiyasi.*

Аннотация

Статья посвящена лингвокультурологическому анализу каракалпакских анекдотов об Омирбеке (Өмирбек лаққы). Работа опирается на четырёхкомпонентную методологию, которая включает выявление универсальных и этноспецифических механизмов создания комического эффекта, применение теории культурных сценариев А. Вежбицкой, использование семиосферного подхода Ю.М. Лотмана, а также функциональную типологию переводимости анекдота. Эмпирическую базу составили опубликованный сборник «Анекдоты Омирбека» в переводе Б. Привалова, а также

подлинные каракалпакские тексты, зафиксированные в цифровых публикациях каракалпакского фольклорного контента.

***Ключевые слова**: анекдот, латифа, каракалпакский фольклор, Өмирбек лаққы, лингвокультурология, культурный сценарий, семиосфера, комический эффект, типология переводимости.*

Abstract

The article is devoted to a linguocultural analysis of Karakalpak anecdotes about Omirbek (Өmirbek laqqı). The work is based on a four-component methodology, which includes identifying universal and ethnospecific mechanisms of creating a comic effect, applying A. Wierzbicka's theory of cultural scripts, employing Yu. M. Lotman's semiospheric approach, as well as a functional typology of anecdote translatability. The empirical basis comprises the published collection "Anecdotes of Omirbek" translated by B. Privalov, as well as authentic Karakalpak texts recorded in digital publications of Karakalpak folklore content.

***Keywords**: anecdote, latifa, Karakalpak folklore, Omirbek lakky, linguoculturology, cultural script, semiosphere, comic effect, typology of translatability.*

Kirish

Qiyosiy yumor tadqiqotlarida kamdan-kam to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadigan qiyinchilik yuzaga keladi. Agar biror belgi o‘zbek latifasida qayd etilib, u rus yoki ingliz anekdotida bo‘lmasa, bundan uning etnospesifikligi kelib chiqmaydi. Belgi kengroq turkiy-musulmon arealiga tegishli bo‘lishi mumkin, yoki xususan o‘zbek an’anasi bilan cheklanishi mumkin. Bu ikki imkoniyatni uch tilli model ichida ajratish mumkin emas, chunki rus va ingliz korpuslari boshqa madaniy arealga mansub va faqat kontrast beradi.

To‘rtinchi korpus talab qilinadi: o‘zbek tiliga areal parametrlari bo‘yicha maksimal yaqin va shu bilan birga lokal predmetliligi bo‘yicha undan mustaqil bo‘lgan korpus. Bu rolni ushbu ishda Omirbek haqidagi qoraqalpoq sikli

bajaradi. Qoraqalpoq madaniyati ham o‘zbek madaniyati kabi musulmon normativligini, turkiy til asosini va mintaqa uchun umumiy personaj-tricksterni saqlaydi. Afandi, Aldar-Kose, Kemine va Ómirbek laqqı yagona areal maydonni tashkil etadi. Shu bilan birga, qoraqalpoq an’anasi o‘ziga xos predmet semiotikasiga tayanadi; unga o‘tov, arava, jo‘xori, boy-aga, ko‘chish va yo‘l bo‘yidagi xronotop kiradi. Shuning uchun tekshirish mantig‘i shunday: o‘zbek va qoraqalpoq materialida umumiy bo‘lgan, rus va ingliz korpuslarida bo‘lmagan belgi areal deb kvalifikatsiya qilinadi. Ikki turkiy korpusdan faqat birida mavjud atribut lokal deb kvalifikatsiya qilinadi. To‘rtala korpusda ham takrorlanadigan xususiyat universal qatlamga tegishli.

Nazariy asoslar va metodologiya

Ishning birinchi asosi komik effekt yaratishning universal va etnospesifik mexanizmlarini farqlashdan iborat. Universal mexanizm turli madaniyatlarda takrorlanadi va inson kognitiv tuzilishining invariantlariga tayanadi. Bu sinfga status inversiyasi, kaskad sababiyat va bissotsiatsiya, ya’ni bir obrazda ikki bir-biriga mos kelmaydigan ma’no matritsasini qo‘shish kiradi. Bunday qo‘shilishning formal tavsifini yumorning semantik nazariyasi beradi; unda komik matn almashtirgich sharti bilan ikki qarama-qarshi skriptga mos keladigan matn sifatida talqin qilinadi [11; 9]. Etnospesifik mexanizm muayyan xalqning realiyalari, ijtimoiy rollari va qadriyat shkalalari bilan bog‘liq. Bunday bog‘lanishning ritual-marosim ildizlari kulgi tabiati haqidagi ishlarda tasvirlangan [7]. Latifada ikkala qatlam bir vaqtda mavjud, shuning uchun tahlil matnni tarkibiy qismlarga ajratadi va umumiy qayerda tugab, xususiy qayerda boshlanishini qayd etadi.

Ikkinchi asos A. Vejbitskayaning madaniy ssenariylar nazariyasiga tayanadi [3; 12]. Madaniy ssenariy madaniyat sohiblari tomonidan aytilmasdan tan olinadigan kutilayotgan xulq-atvorning yig‘ma formulasi sifatida tushuniladi. Anekdot bunday ssenariyni buzgani yoki bir syujet nuqtasida ikki ssenariyni to‘qnashtirgani uchun ishlaydi. Tahliliy jarayon boshlang‘ich ssenariyni ajratish, uning buzilish nuqtasini qayd etish va yangi holatni tavsiflashni o‘z ichiga oladi. Tahlil birligi an’analar o‘rtasida ko‘chiriladi va shuning uchun to‘rt korpusli qiyoslash uchun yaroqli. Qo‘shimcha vosita sifatida lingvomadaniy kalit tushunchasi xizmat qiladi; u ssenariyni barqaror nominatsiyalar va murojaatlar bilan bog‘lash imkonini beradi [4].

Uchinchi asos Yu. M. Lotmanning semiosfera haqidagi ishlariga borib taqaladi [6]. Semiosfera o‘zgaruvchan chegara bilan chegaralangan belgilar

fazosi sifatida talqin qilinadi; chegara qayta kodlash tamoyili bo‘yicha ishlaydi. Anekdotda chegara ikki marta o‘tadi. Birinchi marta matnning o‘zida, ikki belgi tizimi (kattalar va bolalar, boylar va kambag‘allar, xon va fuqaro) to‘qnashadigan joyda. Ikkinchi marta tarjimada, matn boshlang‘ich semiosferadan chiqadigan joyda.

To‘rtinchi asosni tarjimaga yaroqlilikning uch darajali funksional tipologiyasi tashkil etadi. Yuqori tarjimaga yaroqlilik universal maishiy yumorga xos. Past tarjimaga yaroqlilik madaniy kodlangan yumorga xos bo‘lib, unda realiyaning ma’nosi izohsiz berilmaydi. Juda past tarjimaga yaroqlilik til o‘yini, kalamburlar va registr siljishlariga xos. Shunga o‘xshash shkala o‘zbek latifalarini ingliz tiliga yetkazishni tavsiflashda qo‘llaniladi [13]. Tipologiyaga to‘rt tarjima harakati qo‘shiladi. Bular madaniy ssenariyni identifikatsiya qilish, funksional ekvivalentni izlash, madaniy xabarni saqlagan holda moslashtirish va eksplikatsiya.

Beshinchi asos o‘qish protsedurasiga taalluqli. Har bir syujet birligi bir necha mos kelmaydigan pozitsiyalardan, ya’ni faktik, sababiy, sub’ekt-rol, mexanistik, qiyosiy, masshtabli, kontrfaktik va qadriyat pozitsiyalaridan ko‘rib chiqiladi, so‘ngra natijalar manbaning faktik cheklovlari saqlangan holda yakuniy tavsifga yig‘iladi.

Komiklikning universal va etnospesifik mexanizmlari

Qiyoslashni bir xil bissotsiatsiya asosida qurilgan, ammo natijasi qarama-qarshi bo‘lgan ikki matn juftligidan boshlaymiz.

Qoraqalpoq matni (normallashtirilgan grafikada).

«*Ómirbek laqqı balalıq gezinde úyiniń qasında jılap otır eken, qońsısı bir kisi kelip: – Nege jılap otırsań, Ómirbek? – depti. – Shapanım jaydıń basınan túsip ketti, – depti. – Shapanıń túsken bolsa, sen nege jılap otırsań? – Shapannıń ishinde ózim bar edim ǵoy, – depti*».

O‘zbek matni.

«*Bir kuni kechasi Afandi uyda o'tirsa, qo'shni xonadan shovqin eshitilibdi. Afandi devorda ilinib turgan miltig'ini sekin olib xonaga kirsa, ro'parasida qop-qora narsa turganmish. Afandi "paq" etib otibdi. Haligi narsa baribir shundoq turganmish. Sekin borib qarasa, o'zining choponi ekan. Shunda Afandi: – Yaxshiyam ichida o'zim yo'qligim. Bo'lmasa, o'zimni otib qo'yardim, – dermish*» [2].

Ikki matn ham bitta buyum – chopon va bitta matritsalar qo‘shilishi asosida qurilgan. Birinchi matritsa kiyimni narsa sifatida tavsiflaydi, ikkinchisi kiyimni egasining qobig‘i sifatida tavsiflaydi. Qoraqalpoq varianti qo‘shilishni o‘tgan zamonda amalga oshiradi va so‘zlovchini yiqilgan predmet ichiga kiritadi. O‘zbek varianti xuddi shu qo‘shilishni kontrfaktik, inkor orqali amalga oshiradi (“yaxshiyam ichimda o‘zim yo‘q edi”). Bissotsiatsiyaning buyum tashuvchisi mos kelishi, syujet aranjirovkasi farqli bo‘lsa-da, tipik areal belgi bo‘lib xizmat qiladi. Xalat-chopon ikkala an’anada ham insonning metonimik juftligi sifatida namoyon bo‘ladi. Rus va ingliz materiali boshqa tashuvchilar (soya, aks, portret) bilan bissotsiatsiya beradi, bu esa aynan chopon variantining universal emas, areal xarakterini tasdiqlaydi. Matritsalarni qo‘shish mexanizmining o‘zi universal bo‘lib, skriptlar kesishishi atamalarida tavsiflanadi [11].

Ikkinchi toifa status inversiyasini ifodalaydi; unda kuchli shaxs o‘z farmoyishining mantig‘i bo‘yicha tuzilgan javob oladi. «*Bir baydıń eginin kámbaǵaldıń eshkisi taptap ketipti. Bay ashıwlanıp, Ómirbektiń ákesine: – Búgin-aq usı jerden kósh! – dep buyırıptı. Sonda Ómirbektiń ákesi: – Men nege minip kóshemen? Mende at turmaq, arba da joq. Al seniń úsh arbań, kóp atıń bar. Sonlıqtan kóshiw maǵan emes, saǵan tuwra keledi, bay aǵa. Alla jolındı oǵınan qılsın, ámiyin, – depti*».

O‘zbek parallel varianti saroy, ko‘chmanchi bo‘lmagan xronotopda rivojlanadi. «*Afandi xonga g'oz pishirib borar edi, yo'lda qorni ochib, bir oyog'ini yeb qo'ydi. Xon uni olib so'radi: – Bir oyog'i qani? – Bu yilgi g'ozlarning hammasi bir oyoqli ekan, – dedi-da, Afandi suv bo'yida bir oyog'ini ko'tarib dam olib turgan g'ozlarni ko'rsatdi. Xon tayoqni ko'tarib po'pisa qilgan edi, g'ozlar ikki oyoqlab qochdi. – Ana, oyoqlari ikkita ekan-ku, – dedi xon. Afandi pinagini buzmay javob berdi: – Shu tayoq bilan birov sizga ham hamla qilsa, ikki oyoq u yoqda tursin, to'rt oyoqlab qochar edingiz*» [2].

Ikkala holatda ham bir xil mexanizm ishlaydi. Yuqori turgan shaxsning argumenti uning o‘ziga nisbatan qo‘llanilib, unga qaytariladi. Farq rol nomenklaturasi va muhitida. O‘zbek latifasi “xon – vazir – Afandi” o‘qiga va shahar-saroy rekvizitiga (gazna, tilla, dasturxon) moyil. Qoraqalpoq latifasi “bay – cho‘pon – faqir” o‘qiga va ko‘chmanchi rekvizitiga (arava, ot, ko‘chish, poda) moyil. Aynan shu yerda areal (ijtimoiy assimetriya sharoitida status inversiyasining o‘zi) va lokal (assimetriya ifodalanadigan rollar va predmetlar to‘plami) o‘rtasidagi chegara o‘tadi.

Uchinchi toifa kaskad sababiyatni ifodalaydi. «*Sarań biyke kishkene Ómirbekke qaynap turǵan qarmanıń bólegin salıp beripti. Awzın kúydirip alǵan Ómirbek onı buzawdıń tumsıǵına túsirip jiberipti. Qorqıp ketken buzaw qazandı awdarıp taslaptı, pútkil sorpa jerge tógilipti. Sonda Ómirbek: – Demek, siziń oyınızsha, men buzawdan da tómen ekenmen ǵoy? Qaynap turǵan qarmanı maǵan jegizbekshi edińiz-ǵoy, – depti*». Kichik sabablar zanjiri katta vayronagarchilikka olib keladigan bu holat to‘rtala qiyoslanayotgan an’anada ham takrorlanadi va universal qatlamga tegishli. Etnomadaniy mazmun boshqa darajada to‘planadi. Qadr me’yori sifatida ovqat va mehmonga – bolaga munosabat chiqadi, ya’ni o‘zbek va qoraqalpoq an’analari uchun umumiy bo‘lgan mehmondo‘stlik kodeksi.

Madaniy ssenariylar va ularni qoraqalpoq materialida tekshirish

Birinchi tekshiruv syujeti kattaning ko‘rsatmasini so‘zma-so‘z bajarishni ifodalaydi. «*Bay Ómirbekti júweri otawǵa jallaptı. Ol tayaǵı menen bir túp júwerinıń dógeregine sheńber sızıp: – Usı sheńberdiń ishinde ósken nárseni tiyme. Qalǵanınıń bárin túbi menen julıp, sırtqa tasla, – depti. Keshke bay kelse, pútkil atız bos, tek sheńber ishindegi jalǵız túp júweri shapan menen jabıwlı turıptı. – Sen ózińe: «Túbi menen julıp tasla, al sheńber ishindegisi óse bersin» dedińe ǵoy. Men bir nárseni naduris isledim be? – depti Ómirbek*». Kattaning ko‘rsatmasi me’yorni belgilaydi, uning nazarda tutilgan qismi aytilmaydi. Buzilish shundan iboratki, qahramon aytilgan qismni bajaradi va nazarda tutilgan qismini e’tiborsiz qoldiradi. Shunday qilib u formal aniqlikni uni farmon bergan shaxsga qarshi qaratadi.

«*Afandi bir poshshoga baliq sovg'a qildi. Poshsho bu sovg'a uchun Afandiga xazinadan bir tilla in'om qildi. Afandi chiqib ketishi bilan vazir poshshoga dedi: – Har kim baliq ko'tarib kelsa bir tilladan beraversangiz, xazina bo'shab qoladi-ku? – Darvoqe, aytganingiz to'g'ri. Nima qilish kerak? – Darhol Afandini qaytarib kelishni buyuring, – dedi vazir. Poshsho Afandining ketidan odam yubordi-da, vazirga dedi: – Tillani qaytarib ber desak, qanday bo'lar ekan? – Buning iloji oson, – dedi vazir. – Afandidan «balig'ing erkakmi, urg'ochimi» deb so'raysiz; urg'ochi desa, «Menga erkak baliq kerak» deysiz, erkak desa, «Menga urg'ochi baliq kerak» deysiz-u, tillani qaytarib olasiz. Afandi keldi. Poshsho undan so'radi: – Balig'ing erkakmi, urg'ochimi? Afandi poshshoning niyatini payqab: – Balig'im xunasa edi, – deb javob berdi. Poshsho uning ziyrakligiga qoyil qolib, yana bir tilla in'om qildi*».

O‘zbek parallel varianti xuddi shu ssenariy asosida, savol-tuzoq shaklida quriladi. Vazir Afandiga har qanday javob mukofotni qaytarib olishga olib keladigan savol berishni maslahat beradi. Afandi berilgan oppozitsiyadan tashqarida javob beradi va baliqni na erkak, na urg‘ochi deb e’lon qiladi [2]. Ikkala holatda ham bitta areal ssenariy ishlaydi: unga ko‘ra, yuqori turgan shaxsning so‘ziga formal rioya qilish qarshilik ko‘rsatish shakli bo‘ladi. Institutsional dekoratsiyalar farq qiladi. Qoraqalpoq matnida bu boyning xo‘jalik topshirig‘i, o‘zbek matnida esa saroy intrigasi.

Ikkinchi tekshiruv syujeti yosh ssenariysi va o‘z-o‘zini ironiya qilish bilan bog‘liq. «*Bir kúni Ómirbek laqqı azanda esegin ertlep, qońsı awıldağı bir kempirdiń jıl sadaqasına barajaq bolıptı. Esektiń jibin qazıqtan sheship alıp, bir ayağın zańgige salıp, esektiń erine asılıp, "ya alla" dep, sekirip minbekshi bolıptı. Biraq mine almaptı. Bul háreketti bir neshe mártebe qaytalap, tákirarlasa da nátiyje shıǵara almaptı. Sonda Ómirbek: "Ex, jaslıq waqtım bolǵanda ma edi", – dep turǵanda, qońsısınıń balası kórip qalıp, kómeklesip, Ómirbekti esegine mingizip jiberipti. Ómirbek esegine mingennen keyin ózine-ózi: "Háy, Ómirbek-ay, jaslıǵında da qarıq emes ediń", – dep sóylenip kete beripti*».

Madaniy ssenariy qarishni epchillikni yo‘qotish bilan bog‘laydi. Qahramon avval bu ssenariyni muvaffaqiyatsizlik izohi sifatida qabul qiladi, so‘ngra yoshligida ham kuch-qudrat bilan ajralib turmaganini eslab, uni o‘zi bekor qiladi. Xuddi shu qo‘sh ssenariy va xuddi shu rekvizit – eshak – Kemine haqidagi turkman an’anasida qayd etilgan. Eshagini yo‘qotgan shoir taqdirga shukr qiladi, chunki aks holda u bilan birga yo‘qolgan bo‘lardi [5]. O‘zbek korpusi uchinchi realizatsiyani beradi. Afandi yosh qizga uylantirilgan tushidan voz kechadi va xotinini oldindan ogohlantiradi [2]. Shunday qilib yosh ssenariysi ham shikoyat orqali emas, o‘z-o‘zini ironiya qilish orqali rivojlanadi. Uch turkiy korpusda mos kelishi, rus va ingliz materialida esa shunchalik barqaror eshak-mediatorning yo‘qligi belgini ishonchli tarzda areal qatlamga kiritish imkonini beradi.

Uchinchi syujet kuzatuvni jamoaviy kommunikatsiya ssenariysiga kengaytiradi. «*Ómirbek laqqı xalıqtıń aldına shıǵıp: – Xalayıq, men házir ne aytajaqpan, bilesizbe? – dese, adamlar: – Yaq, – depti. – Bilmeseńiz, aytıp ne qılaman, – dep ketip qalıptı. Ertesi kúni kelip: – Men ne aytajaqpan, bilesizbe? – dese, adamlar: – Awa, – depti. – Biletuǵın bolsańız, aytıp ne qılaman, – dep jáne ketip qalıptı. Úshinshi kúni adamlar oylasıptı, házir Ómirbek keledi,*

"bilesizbe" dep sorasa, yarımımız "awa", yarımımız "yaq" deymiz dep kelisip alıptı. Ómirbek kelip: – Xalayıq, házir men ne aytaman, bilesizbe? – depti. Adamlardıń yarımı "awa" depti, qalǵan yarımı "yaq" depti. Sonda Ómirbek aytatuǵın eken: – Onda bilmeytuǵınlarıńız biletuǵınlardan sorap alsın».

Uch marta bekor qilingan auditoriyaga murojaat syujeti o‘zbek an’anasida ham Afandining va’zi haqidagi latifa sifatida keng ma’lum. Bu uning etnospecificligi masalasini olib tashlaydi. Qoraqalpoq redaksiyasi va’zdan voz kechish bilan emas, balki tinglovchilarning bir qismini ikkinchisidan o‘rganishga undash haqidagi ironik ko‘rsatma bilan tugaydi. Shu bilan u zarbani voizdan jamoaviy bilim institutining o‘ziga ko‘chiradi. Boshlanish mos kelganda yakundagi bunday farqlar lokal qatlamni tashkil etadi va ikkinchi turkiy korpussiz aniqlanmaydi.

Semiosfera chegarasi va kognitiv tuzilma

Semiosfera latifada ikki tomonlama chegara orqali ishlaydi. Ichki chegara syujetda to‘qnashadigan ikki dunyo o‘rtasidan o‘tadi. Boy va kambag‘al, xon va fuqaro, kattalar va bolalar o‘z mantig‘iga ega belgi tizimlari juftlarini tashkil etadi. Tashqi chegara turkiy an’anani rusiyzabon va inglizzabon o‘quvchidan ajratadi va tarjimada faollashadi [6].

«Anekdoty Omirbeka» to‘plami muharrirlari bu chegarani anglaydilar va kitobni “omirbekshunoslikning birinchi qadami”, matnlarni esa “syujet elementlarini saqlab qolgan bloklar, yirik fragmentlar, bizgacha yetib kelgan buzilgan, ichdan parchalanib ketgan yumoriy eposning parchalari” deb tavsiflaydilar [1]. Bu yerda tarjima bir vaqtda siklni rus semiosferasiga kiritadi va uning boshlang‘ich bog‘lanishining yo‘qolishini qayd etadi.

Qoraqalpoq adabiy an’anasi personajning semiotik pozitsiyasini o‘zi ta’kidlaydi. Xalq shoiri Ibraiym Yusupov u haqida yozadi: «Bir gellege qonıp mıńlardıń baxtı, paqır-puqaralar qorlanǵan waqtı, ashshı kúlki menen xalqın juwatıp, Shımbay jaqta ótken Ómirbek laqqı. Onda úy bolmaǵan, ılashıq bolǵan, biraq qayda barsa, jol ashıq bolǵan. Ómirbek kelipti dese bir úyge, shiydiń jırtıǵına talasıq bolǵan». Bayonot qahramonning ijtimoiy mavqeini (to‘laqonli turar joyning yo‘qligi) va shu bilan birga uning kommunikativ imtiyozini qayd etadi. Omirbek uchun har qanday uy ochiq, mezbonlar esa uni qamish devordagi yoriqdan birinchi bo‘lib ko‘rish uchun tortishadi. O‘zbek an’anasi Afandiga o‘xshash pozitsiyani boshqacha mustahkamlaydi. Afandi saroyga kira oladi va hukmdordan mukofot oladi. Uning imtiyozi institutsionallashtirilgan,

Omirbekning imtiyozi esa jamoa ichida qoladi. Bu farq lokal qatlamga tegishli va bevosita ikki madaniyatning turlicha ijtimoiy topografiyasidan kelib chiqadi. O‘zbek madaniyatida bu o‘troq-shahar topografiyasi, qoraqalpoq madaniyatida esa qishloq-ko‘chmanchi topografiya.

Matnlarning kognitiv tuzilmasi ikkala korpusda ham bissotsiatsiya tamoyilini tasdiqlaydi. Tomdan yiqilish haqidagi syujet va choponga o‘q otish haqidagi o‘zbek syujeti “narsa” va “tashuvchi” matritsalarini qo‘shadi. Yulish haqidagi syujet so‘zma-so‘z ko‘rsatma bilan nazarda tutilgan ko‘rsatmani qo‘shadi. Eshakka chiqish syujeti yosh ssenariysi bilan fiziologik ravshanlikni qo‘shadi. Mexanizm universal, shuning uchun na o‘zbek, na qoraqalpoq materiali bissotsiativ model uchun istisno yaratmaydi [9; 11].

Tarjimaga yaroqlilikning funksional tipologiyasi

Universal qatlam ikkala korpusda ham yuqori tarjimaga yaroqli. Qoraqalpoq to‘plamining ruscha versiyasi izohli eslatmalarsiz o‘qiladi, chunki bolaning yig‘lashi, kuydiruvchi ovqat va eshakka chiqishning muvaffaqiyatsiz urinishi madaniy glossaga muhtoj emas. Xuddi shu narsa mehmon, siniq idish va qutqarilgan bola haqidagi o‘zbek latifalariga ham tegishli.

Madaniy kodlangan qatlam past tarjimaga yaroqli. Qoraqalpoq realiyalari bay, arba, jugara, karma, omin, jıl sadaqası va o‘zbekcha xon, vazir, tilla, chopon, dasturxon to‘g‘ridan-to‘g‘ri rus va ingliz ekvivalentlaridan mahrum, shuning uchun tarjimon transliteratsiya yoki tavsifga murojaat qiladi. “Bay”ni “богач” bilan almashtirish boylik jamoadagi farmon berish hokimiyati bilan qo‘shiladigan ijtimoiy rolni o‘chiradi, jıl sadaqasını “поминки” bilan almashtirish qahramon tashrifi bog‘langan yillik ritual tsiklini zaiflashtiradi. choponni “халат” bilan almashtirish kiyimning tashuvchi bilan metonimik bog‘lanishini yo‘q qiladi; yuqorida ko‘rilgan ikkita syujet aynan shunga tayanadi. O‘zbek latifalarini ingliz tiliga yetkazishda ham xuddi shunday yo‘qotishlar to‘plami tasvirlangan. U yerda ham asosiy yechim transliteratsiya bilan eksplikatsiya birikmasi bo‘lib chiqadi [13].

Til o‘yini va registr siljishi juda past tarjimaga yaroqli. Kambag‘al tilidagi “to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisob” formulasi boyning ishbilarmon nutqiga parodiya bo‘lib eshitiladi. Qoraqalpoqcha yakun “bilmeytuǵınlarıńız biletuǵınlardan sorap alsın” voizona murojaat bilan maishiy maslahat o‘rtasidagi siljishga qurilgan. Barcha hollarda so‘zma-so‘z berish emas, funksional analog talab qilinadi.

To‘rt bosqichli tarjima metodikasi yangi materialda ham ishlash qobiliyatini tasdiqlaydi. Yulish haqidagi syujetda “kattaning ko‘rsatmasi va uning yozilmagan qismi” madaniy ssenariysi qiyinchiliksiz tan olinadi. Rus madaniyatida funksional ekvivalent mavjud (yollanma ishchi va xo‘jayin), shuning uchun eksplikatsiyasiz ekvivalent izlash yetarli, jıl sadaqası haqidagi syujetda funksional ekvivalent yo‘q, yillik ritual tsiklini yo‘qotmasdan moslashtirish mumkin emas, tarjima yechimi esa realiyani saqlagan holda eksplikatsiyaga qisqaradi.

Bu ikki holatni qiyoslash harakat tanlash uchun ishchi mezon beradi. Eksplikatsiya realiya predmetni nomlaganda va syujetning vaqt yoki rol doirasini belgilaganda yoqiladi.

Xulosa

Shunday qilib, o‘zbek va qoraqalpoq materialini qiyoslash belgilarni uch qatlamga taqsimlash imkonini berdi. Universal qatlamga bissotsiatsiya, status inversiyasi va kaskad sababiyat kiradi. Areal turkiy-musulmon qatlamiga choponning tashuvchi metonimiyasi, komik yakundagi diniy formula, yosh o‘z-o‘zini ironiyasining mediatori sifatida eshak, yuqori turgan shaxsning so‘ziga formal rioya qilishning qarshilik shakli kiradi. Lokal qatlamga o‘zbek an’anasidagi “xon – vazir” o‘qi va syujetni modernizatsiya qilish qobiliyati, shuningdek qoraqalpoq an’anasidagi “bay – faqir” o‘qi, ko‘chmanchi predmetlilik va qahramon imtiyozining jamoaviy xarakteri kiradi. Bu farqlarning birortasi ham uch tilli modeldan kelib chiqmaydi, chunki rus va ingliz korpuslari kontrast beradi va ularni o‘zaro bog‘lashga imkon bermaydi.

A. Vejbitskayaning madaniy ssenariylar nazariyasi ikkala turkiy korpusda ham tushuntirish kuchini saqlab qoldi. Chegaraning semiosfera modeli anekdotning ichki tuzilishini ham, uning tarjima taqdirini ham tasvirladi. Tarjimaga yaroqlilikning funksional tipologiyasi ekvivalent izlash bilan eksplikatsiya o‘rtasida tanlov mezoni oldi. Keyingi ish qoraqalpoq va o‘zbek dala yozuvlarini jalb qilish va aniqlangan qonuniyatlarni statistik jihatdan vakillik qiluvchi tanlanmada korpus tekshiruvidan o‘tkazish bilan bog‘liq.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Анекдоты Омирбека: занимательные истории из жизни знаменитого каракалпакского шутника / пер. с каракалп., лит. обраб. и послесл. Б. Привалова ; науч. ред. С. Камалов. Нукус: Каракалпакстан, 1970. 270 с. URL: https: //n. ziyouz. com/kutubxona/category/94-

karakalpakskaya-literatura? download=3353: anekdoty-omirbeka (дата обращения: 19. 08. 2026).

2. Афанди ҳақида латифалар // Latifa. uz. URL: https: //latifa. uz/uz/tags/afandi (дата обращения: 22. 08. 2026).

3. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков / пер. с англ. А. Д. Шмелева ; под ред. Т. В. Булыгиной. Москва: Языки русской культуры, 1999. 780 с.

4. Карасик В. И. Языковые ключи. Москва: Гнозис, 2009. 406 с.

5. Кемине. Анекдоты // Сказки народов мира: электронная библиотека. URL: http: //skazka. mifolog. ru/books/item/f00/s00/z0000033/st035. shtml (дата обращения: 19. 08. 2026).

6. Лотман Ю. М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. Москва: Языки русской культуры, 1996. 464 с.

7. Пропп В. Я. Проблема комизма и смеха. Ритуальный смех в фольклоре. Москва: Лабиринт, 1999. 288 с.

8. Attardo S. Linguistic Theories of Humor. Berlin ; New York: Mouton de Gruyter, 1994. 426 p.

10. Raskin V. Semantic Mechanisms of Humor. Dordrecht: D. Reidel, 1985. 284 p.

11. Wierzbicka A. Russian Cultural Scripts: The Theory of Cultural Scripts and Its Applications // Ethos. 2002. Vol. 30, No. 4. P. 401–432. DOI: 10. 1525/eth. 2002. 30. 4. 401.

12. Yuldoshev U. R. Peculiarities of translation of Uzbek national anecdotes into English // Philological Sciences. Graduate School Scientific Papers. 2017. No. 6. P. 50–54. DOI: 10. 20339/PhS. 6-17. 050.

SO‘FI OLLOYOR VA UNING ILMIY-ADABIY MEROSI

Dalershoh Sadullo o‘g‘li NEMATOV,
Magistr
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
ndalershoh@gmail.com

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVII–XVIII asrlar o‘zbek va fors-tojik adabiyoti hamda tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi So‘fi Olloyorning hayoti, ilmiy-adabiy merosi va ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning tavallud sanasi va joyi, nasabi, dastlabki ta’lim olishi, ilmiy-ma’rifiy shakllanishi, tasavvufiy faoliyati hamda umrining so‘nggi yillari bilan bog‘liq ma’lumotlar tarixiy va qo‘lyozma manbalar asosida o‘rganildi. Shuningdek, So‘fi Olloyorning vafot sanasiga oid turli qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, abjad hisobiga asoslangan tarixiy dalillar orqali 1133/1721-yil ma’lumotining nisbatan ishonchli ekani asoslangan.

Maqolada adibning ilmiy-adabiy merosi tarkibiga kiruvchi “Maslakul muttaqin”, “Sabotul ojizin”, “Maxzanul mute’in” va “Murodul orifin” asarlarining yaratilish tarixi, janriy xususiyatlari, tili, mavzu doirasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari So‘fi Olloyor merosining Markaziy Osiyo ma’naviy-adabiy tafakkuri, diniy-ma’rifiy qarashlar va tasavvuf adabiyoti rivojidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar: *So‘fi Olloyor, ilmiy-adabiy meros, tasavvuf, “Maslakul muttaqin”, “Sabotul ojizin”, “Maxzanul mute’in”, “Murodul orifin”, qo‘lyozma manbalar, fiqh, Naqshbandiya, abjad hisobi.*

Tarixiy manbalar yoki So‘fi Olloyorning o‘z asarlarida shoirning aniq tug‘ilgan yili haqida ma’lumotlar mavjud emas. Turli manbalarda bu borada turlicha fikrlar uchraydi. Adabiyotlarda akademik B. Valixo‘jayev, professor B. Hasanov, akademik Sh. Sirojiddinov hamda professor R. Zohidov kabi olimlarning So‘fi Olloyor va uning asarlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida bu

xususda asosli ma’lumotlar taqdim etilgan. Ular uzoq yillik tadqiqotlari davomida qo‘lyozma va toshbosma manbalarni solishtirish orqali So‘fi Olloyor 1634-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilganligini ilmiy jihatdan isbotlab berganlar. Shu sababli aynan ushbu sana va joyni zikr etish mazkur mavzuda ishonchli va asosli dalil sifatida qabul qilish mumkin.

Shoirning asl ismi Olloyor bo‘lib, “So‘fi” uning laqabidir. Tarixiy va adabiy manbalarni o‘rganish, shuningdek, shoirning hayoti va adabiy muhitiga oid ma’lumotlarni tahlil etish hamda asarlarining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Mavsuf o‘z davrining diniy va tasavvufiy ilmlarida yetuk, ilg‘or olimlaridan bo‘lgan. U shar’iy masalalarning yechimi borasida o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarini ilgari surgan hamda bu g‘oyalarni xalq orasida targ‘ib va tashviq etaolgan. Shuningdek, u Naqshbandiya tariqati soliklaridan bo‘lib, tasavvuf ta’limotining amaliy jihatlarini o‘z hayotida tatbiq etgan. Ana shu sababli, Olloyorga “So‘fi” laqabi berilgan.

So‘fi Olloyorning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan manbalarda uning otasining ismi ba’zan Temuryor, ba’zan esa Allohquli tarzida tilga olinadi. Shoir otasining Temuryor deb atalishiga asos bo‘lgan manba yoki sabablar bizga ma’lum emas. Biroq, Allohquli shakli ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan shoirning otasi sifatida keltirilgan bo‘lib, bu variyanti ishonchli va asosli hisoblash mumkin. Chunki muallifning o‘zi o‘zining “Murodul orifin” nomli asarining muqaddimasida bu masalaga to‘xtalib, quyidagicha yozadi:

"خاک پای مردان توکلی الله یاربنی الله قلی" [1; 3-a varaq]

(*Tarjimasi: Eranlar oyog‘ining tuprog‘iga aylangan Tavakkuliy – Olloyor ibn Allohquliy*).

Mazkur iqtibosdan ayon bo‘ladiki, shoirning otasining asl ismi Allohquli bo‘lgan, Temuryor esa keyingi manbalarda yuzaga kelgan noaniq rivoyatlardan biridir. Hamda “Murodul orifin” asari qulyozma nusxalarida ham muallifning nasabi xuddi shu tarzda yozilganligini guvohi bo‘ldik. Masalan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qulyozmalar fondi №496 inventar raqami ostida saqlangan nusxaning kalafon qismida teppada zikiri ketgan nomni ko‘rish mumkin. [2; 4-a varaq]

So‘fi Olloyorning dastlabki ta’lim olishi, ilm olamiga kirib kelishi hamda uning soliq yig‘uvchilik faoliyatidan voz kechishi masalalari

yuzasidan tarixiy manbalarda turli va ba’zan bir-biriga zid ma’lumotlar uchraydi. Bu holat mazkur masalani chuqurroq tahlil qilish va ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Biz esa, asosan, adabiyotlarda shoirning dastlabki ta’limi haqida ko‘proq qayd etilgan ma’lumotlarga tayanib, quyidagi ilmiy xulosaga kelishni ma’qul deb bildik.

So‘fi Olloyor o‘zining dastlabki ta’limini Shayxlar qishlog‘idagi masjid qoshidagi maktabda boshlagan bo‘lib, keyinchalik uni Buxoro madrasalarida davom ettirgan. Ta’limni muvaffaqiyatli yakunlagach, u Jo‘ybor shayxlarining tarbiyasida kamol topgan. Ma’lum bir muddat davomida u Buxoroda hukmdor Abduazizxon saroyida soliq yig‘ish ishlari bilan shug‘ullangan. Biroq, uning nozik didi, rahmdil tabiati va insonparvarlik qarashlari sababli ushbu faoliyat unga manzur bo‘lmagan. Shu bois, u mazkur kasbni tark etib, moddiy boylik orttirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. Aksincha, u butun e’tiborini ilm-fanga, ayniqsa tasavvuf ilmini chuqur o‘rganishga hamda badiiy ijodga bag‘ishlaydi. Ilmiy va ruhiy kamolot sari izchil intilish jarayonida u mashhur mutasavvif shayx Habibullohga murid tushadi. Uzoq yillar davom etgan ruhiy tarbiya va suluk jarayonidan so‘ng (taxminan o‘n yil), u o‘zi ham shayxlik maqomiga erishadi.

Shoir umrining so‘nggi yillarini Surxondaryo viloyatining Oltinsay tumani, Vaxshivor qishlog‘ida o‘tkazgan va o‘sha yerda vafot etgan. Ushbu ma’lumot ishonchli bo‘lib, unda shubha va ikkilanchoq fikrga o‘rin yo‘q. Chunki mazkur qishloqda hozirga qadar So‘fi Olloyor xonaqohi mavjud bo‘lib, mahalliy aholi rivoyatlariga ko‘ra, u zot aynan shu joyda dafn etilgan. Bundan tashqari, shoirning avlodlari hamon shu hududda istiqomat qilib kelayotganliklari, tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni yanada mustahkamlaydi.

Shoirning vafot yili haqida ikki xil ma’lumot tarqalgan: biri 1136/1724, ikkinchisi 1133/1721. Masalan, Abdulmatlab Fahmining “Tazkira” asarida So‘fi Olloyorning vafot yili 1136/1724 deb qayd etilgan. Biroq, ko‘pchilik manbalarda shoirning vafot yili 1133/1721 deb berilgan. Shuni aytish mumkinki, ikkinchi ko‘rsatilgan ta’rix ishonchliroq. Sababi, 1721-yil deb ko‘rsatilgan ta’rix ilmiy tadqiqotlar asosida shakllangan. Chunki “Sabotul ojizin” sharhlarining ba’zi bir muqaddimasida ham aynan 1721 yil tarixiy uslub bilan qayd etilgan. Masalan, Tehronda nashr etilgan uning sakkizinchi nusxasi asosida tayyorlangan sharhning muqaddimasida shunday yozilgan:

چراغ کلبه اسرار توحید
ز صافي مشرب صوفی الله یار.
اگر جویند تاریخ وفاتش،
زقاف و جیم و غین ولام بردار. [1; 104-a varaq]

Tarjimasi:

Tavhid sirlari kulbasining chirog‘i,
Pok tabiatli, So‘fi Olloyor edi.
Vafoti sanasini so‘rasalar agar,
“qof”, “jim”, “ayn”, “lom” harflaridan topgin.

So‘nggi misradagi to‘rtta arab harfi – ق - ج - ع - ل – orqali shoirning vafot yili tarixiy usul bilan qayd etilganini ko‘rish mumkin.

Abjad hisobiga ko‘ra, ushbu harflarning qiymati quyidagicha:

ق (Qof) = 100 / ج (Jim) = 4 / ع (Ayn) = 1000 / ل (Lom) = 30

Agar bu raqamlarni jamlasak, 1133 hijriy yil hosil bo‘ladi. Bu hijriy yilni milodiy yilga o‘girsak, 1720 – 1721-yilga to‘g‘ri keladi. [6; 27-b.]

Shuningdek, “Sabotul ojizin” asarining kolofon qismida, Ismoiljon Toshkandiy nomli kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxada, tarixiy usul bilan quyidagi to‘rtlik qayd etilgan:

ابو حنیفه وقت است صوفی الله یار
خدای داد با او قال حال را بسیار
هر آن که آماده تاریخ فوت پرسد
بگو تو قاف جیم غین لام را بشمار

Tarjimasi:

So‘fiy Olloyor o‘z davrining Abu Hanifasidir,
Alloh unga juda ko‘p dunyoviy va uxraviy bilimlarni ato qildi.
Kimki kelib uning vafot sanasini so‘rasa,
Aytgin: “qof”, “jim”, “ayn”, “lom” harflarini hisoblasin.

Abjad hisobiga ko‘ra, bu yerda ham shoirning vafot etgan yili 1133/1721 milodiy yil ko‘rsatilgan.

So‘fi Olloyor o‘zining diniy va tasavvufiy qarashlarini asarlarida jamlagan bo‘lib, ular asrlar davomida musulmonlar uchun muhim manba sifatida xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Shoirning asarlari soni borasida tadqiqotchilar turlicha fikr bildirganlar. Ba’zi tarixiy manbalarda uning asarlari 7 ta, boshqalarida 6 ta, ayrimlarida 5 ta, yana bir qismida esa 4 ta deb qayd etilgan.

Yuqorida tilga olingan to‘rtta variantdan so‘nggi, ya’ni uning asarlari 4 ta bo‘lgani, eng ishonchli deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Sababi, ushbu ma’lumot muallif tomonidan “Murodul orifin” asarining muqaddimasida, xronologik tartibda keltirilgan:

"با وجود دونی و زبونی به مشاورت دوستان کتاب مسلک‌المتقین، آن‌گاه ثبات العاجزین و آن‌گاه مخزن المطیعین سواد کرده شد و محبّان دینی نیز استدعا کردند که در باب تصوّف و رشاد، مطابق اعتقاد، نسخه ای سواد کرده شود" [1; 3-a varaq]

(Таржимаси: Ўзининг ҳақирлигига қарамасдан, дўстларнинг маслаҳати билан “Маслакул муттақин” китоби, сўнгра “Саботул ожизин”, ундан кейин “Махзанул мутиъин” асарларини ёзди. Тақво аҳлидан бўлган дўстлари тасаввуф ва иршод ҳақида (ҳанафий мазҳаби ва соф эътиқоддан) эътиқоддан келиб чиққан ҳолда, асар ёзишни талаб этдилар).

Muallifning “*тасаввуф ва иршод ҳақида эътиқоддан келиб чиққан ҳолда, асар ёзишни талаб этдилар*” degan gapi bilan nazarda tutilgan asar “Murodul orifin”dir. Shu ishoradan ma’lum bo‘ladiki, “Murodul orifin”dan oldin So‘fi Olloyor faqat 3 ta kitob ta’lif qilgan.

Biroq tabiiy savol tug‘iladi: So‘fi Olloyor “Murodul orifin”dan keyin yana boshqa asar yaratgan bo‘lishi mumkinmi? Bu masalada tadqiqotchilarning fikriga tayangan holda “Murodul orifin” So‘fi Olloyorning oxirgi asari ekanligini tasdiqlaymiz. Masalan, Sh. Sirojiddinov o‘zining “So‘fi Olloyor ilohiyoti” nomli asarida yozadi: “Murodul orifin So‘fi Olloyorning oxirgi, to‘rtinchi kitobidir”. [4; 80-b.]

Shuningdek, ushbu mavzu bo‘yicha taniqli olim R. Zohidov o‘zining ilmiy asari “Sabotul ojizin asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o‘rganish muammolari”da quyidagicha ta’kidlaydi: “So‘fi Olloyorning ilmiy-adabiy merosi turli manbalarda turlicha qayd etilsada, ammo fanga ma’lum va qo‘lyozmada mavjud asarlari to‘rtta”. [6; 34-b.]

So‘fi Olloyor o‘z davrining yirik adibi, mutafakkiri va ilohiyotshunosi sifatida boy ilmiy-adabiy meros qoldirgan. Uning asarlarida diniy-tasavvufiy mavzular bilan bir qatorda chuqur falsafiy tafakkur, inson ruhiy olamini tahlil qilishga qaratilgan mushohadalar ham keng o‘rin olgan.

So‘fi Olloyor qalamiga mansub mashhur asarlar qatoriga “Sabotul ojizin”, “Maslakul muttaqin”, “Maxzanul mute’in” va “Murodul orifin” kiradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoirning alohida tillarda yaratilgan asarlari mavjudligi qayd etilgan edi. Quyida ularning nomlari va qaysi tilda yozilganligi ko‘rsatilgan:

Fors-tojik tilida: ***“Maslakul muttaqin” (Taqvoli kishilar maslagi), “Murodul orifin” (Orif kishilar murodi).***

Turkiy-o‘zbek tilida: ***“Sabotul ojizin” (Ojizlar suboti).***

Arab tilida: ***“Maxzanul mute’in” (Itoat qiluvchilar xazinasi).***

Ushbu asarlarning har biri ma’lum bir soha bilan bog‘liq ma’naviy va axloqiy qoidalarni o‘z ichiga olgan ilmiy-tasavvufiy asarlar hisoblanadi.

Har bir asar diniy va tarbiyaviy ta’limot jihatidan boy bo‘lib, o‘quvchini din va tarbiya mohiyati bilan tanishtiradi.

So‘fi Olloyorning birinchi yozgan asari **“Maslakul muttaqin” (Taqvoli kishilar maslagi)** bo‘lib, hajm jihatidan muallifning eng katta kitobi hisoblanadi va unda 12 000 dan ortiq bayt mavjud. Bu borada shoirning o‘zi ham “Sabotul ojizin” nomli asarida ta’kidlab o‘tgan:

Hama taqvovu fatvoning bayoni,

O‘n ikki mingdan ortuq bayti oni. [6; 27-b.]

Ushbu asar 1700 – 1701-yillari masnaviy janrida, xafif bahrida yozilgan bo‘lib, uning af’ollari quyidagicha:

fo‘ilotun – mafoilun – fa’lon (-v-- / v-v- / -*).

Asarning nomidan ko‘rinib turibdiki, u taqvodorlar yo‘li, usuli va tariqatlari haqida yozilgan bo‘lib, uning asosiy mohiyati shaxsni parhezgorlikka chorlaydi. Masnaviy madraslarda mu’tabar manba hisoblangan va o‘quv qo‘llanmasi sifatida “Haftiyak”, “Chahor kitob”, Hofizning Divoni va boshqa asarlar bilan bir qatorda, talabalarning shar’iy bilimlarini rivojlantirish va cuqurroq q’rganish maqsadida o‘qitilgan.

Madrasa talabalari va umuman madoris ahli orasida “Maslakul muttaqin” asari ko‘p hollarda qisqacha “Maslak” deb atalgan bo‘lib, hatto zamonimizgacha bu nomlash shakli xalq orasida saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin.

Masnaviy janrida yozilgan ushbu asarda fiqhiy masalalarni muhokama qilinadi va ularning yechim yo‘llarini 135 ta kichik va katta mavzuda bayon etiladi.

Shoirning ijodiy uslubidagi o‘ziga xos jihatlar ko‘plab hollarda yaqqol kuzatiladi. Xususan, u asarlarining ta’lif qilgani sababini, nomi va yozilgan yilini aniq qayd etadi. Masalan, mazkur masnaviy asarning yakunlanish

tarixini va bu Allohning inoyati ekanligini bir joyda she’riy tarzda quyidagicha ifodalaydi:

شکرها بر خدا ز بعد صلات،
فطر، قربانی و کتاب زکات.
در هزار و صد و دوازده این،
شد ادا مؤمّلاً علی‌التعیین...
شکرها بر خدای پاینده،
برساندی به مطلوب بنده.
گر نباشد عنایت یاری،
من که‌ام و کردن چنین کاری. [3;]

Tarjimasi:
Namozdan keyin Xudoga shukrlar bo‘lsin,
Fitr sadaqasi, qurbonlik va zakot kitobi uchun ham.
Ming bir yuz o‘n ikkinchi yilda bu ish,
Belgilangan tartibda to‘liq ado etildi.
Abadiy Xudoga shukrlar bo‘lsin,
Bandasini maqsadiga yetkazdi.
Agar Uning inoyati va yordami bo‘lmaganida,
Men kim bo‘lardimki bunday ishni qila olardim?

Ehtimoliy faraz shundan iboratki, o‘sha davrda Markaziy Osiyoda fiqhiy asarlarning katta qismi arab tilida yaratilgan bo‘lib, ularni oddiy xalq, ya’ni ajam millati uchun tushunish murakkab bo‘lgan. Shu sababli muallif shar’iy masalalarni xalq orasida aniq va ravshan yetkazish maqsadida “Maslakul muttaqin” masnaviy asarini fors-tojik tilida yaratishga qaror qilgan. Bu mulohazani tasdiqlash uchun, muallif o‘zining “Maslakul muttaqin” asarida ushbu masnaviyning yozilishi sabablarini bayon qilgan she’riy parchadan iqtibos keltirish maqsadga muvofiqdir:

پاره مردم شکسته پا هستند،
طالب شرع مصطفی هستند.
فهمشان بیان حق طلبی،
نه نشیند با نسخه عربی.
شاید آن خلق را مفید بود،
گفتن من به آن امید بود. [3; 256 varaq]

Tarjimasi: “Muhammad alayhissalom shariati talabida yurgan ayrim oyog‘i singan (ya’ni, avom) kishilar borki Haq talabini bayon qilishda arabiy

nusxalarga ularning fahmi yetmaydi. Shoyad, ularga foydasi tegsa, degan umidda bu asarni yozdim”. [6;]

Ushbu kitobda tahorat, tayammum, namoz, ro‘za, zakot, qurbonlik, sayd, qiroat, sajdai sahv, sajdai tilovat, mayitning g‘usli, shahidlarning hukmi, suv bilan bog‘liq ahkom, hayz va nifos kabi masalalar batafsil muhokama qilinadi. Shunday qilib, aytish mumkinki, fiqhiy masalalar ushbu asarda to‘liq va aniq yoritilgan, va muallif ham kitobning bir joyida mazkur mavzu bo‘yicha alohida ishora qilgan:

Yozildi fosiy til birla maktub,
Aqidotu furu’ qurbi mahbub…
Bitibsan forsiy tilda kitobe,
Tamom anda masoilning javobi.
Hamma taqvu fatvoning bayoni,
O‘n ikki mingdan ortuq bayti oni. [6; 27-b.]

“Maslakul muttaqin”ning qo‘lyozma nusxalari va toshbosma nashrlari dunyoning turli kutubxonalarida, jumladan Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Turkiya Pokiston, Hindiston, Eron, Totoriston kutubxonalarida saqlanmoqda. R. Zohidov O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qulyozmalar fondida 62 ta qo‘lyozma 27 ta toshbosma nusxalari mavjudligini aniqlab, o‘zining “Sabotul ojizin” asarining matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o‘rganish muammolari” nomli asarida ta’kidlab o‘tgan. [6; 28-b.]

Mazkur masnaviy mamlakatimizda bir necha bor nashr etilgan va uning ixlosmandlari tomonidan keng foydalanilgan. Hatto xorijiy olimlar tomonidan asarni sharhlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Ta’kidlash joizki, “Maslakul muttaqin” asari birinchi sharhini totor tadqiqotchisi Tojiddin Yolchiqul o‘g‘li tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u asarning nomi “Risolai Aziza” dir.

Shuningdek, tajribali tarjimon Qo‘ziboy Hofiz tomonidan “Maslakul muttaqin” kitobi “Hidoyatul muttaqin” nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

“Sabotul ojizin” (Ojizlar suboti) – So‘fi Olloyorning mashhur asaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo va Turkiy mamlakatlarida katta shuhratga ega bo‘lgan. Ushbu kitob diniy va e’tiqodiy masalalarini yoritib, ko‘plab ixlosmandlarni o‘ziga jalb qilgan. “Sabotul ojizin” masnaviy shaklida, bahri hazaji musammayi mahzufda yozilgan bo‘lib, af’ollari quyidagicha:

mafoilun–mafoilun–fa’ulun (v--- / v--- / v--).

Asarning hajmi 1680 baytni tashkil etib, mavzular bo‘yicha 81 ta she’riy qismga bo‘lingan. Mazkur masnaviy asar oxirgi ikki asr davomida nafaqat olimlar uchun mu’tabar manba sifatida tan olingan, balki oddiy xalq orasida ham alohida shuhratga ega bo‘lgan. Xususan, turk tilida so‘zlashuvchi aholi asarning ko‘p qismini yoddan bilgan.

“Maxzanul mute’in” (Itoat qiluvchilar xazinasi) – muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, uning uchinchi asari bo‘lib, e’tiqod masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu kitob to‘liq arab tilida yozilgan.

“Murodul orifin” (Orif kishilar murodi) – tasavvuf mavzusida yozilgan asar bo‘lib, unda muallif o‘zining diniy va tasavvufiy qarashlarini jamlab, uni forsiy-tojik tilida bayon etgan.

XULOSA

O‘rganilgan tarixiy, qo‘lyozma va adabiy manbalar tahlili So‘fi Olloyorning XVII–XVIII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-adabiy va tasavvufiy tafakkurida muhim o‘rin tutgan yirik mutafakkir, adib va ilohiyotshunos bo‘lganini ko‘rsatadi. Manbalarni qiyosiy o‘rganish natijasida uning 1634-yilda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on hududida tavallud topgani, otasining ismi Allohquli bo‘lgani hamda umrining so‘nggi yillarini Vaxshivor qishlog‘ida o‘tkazgani haqidagi ma’lumotlar ilmiy jihatdan asosli ekanligi aniqlandi. Shoirning vafot sanasiga oid ma’lumotlar orasida 1133/1721-yilga tegishli dalillar, xususan, tarix moddasi va abjad hisobiga asoslangan manbalar nisbatan ishonchli ekanini ko‘rsatadi.

So‘fi Olloyorning ilmiy-adabiy merosi mazmun va yo‘nalish jihatidan keng qamrovli bo‘lib, uning “Maslakul muttaqin”, “Sabotul ojizin”, “Maxzanul mute’in” va “Murodul orifin” asarlari muallifning diniy, fiqhiy, axloqiy va tasavvufiy qarashlarini yaxlit holda aks ettiradi. Muallifning o‘z asarlarida keltirgan ma’lumotlari hamda mavjud qo‘lyozma manbalar tahlili uning ilmiy merosi to‘rtta asosiy asardan iborat ekanini asoslash imkonini beradi.

Ayniqsa, “Maslakul muttaqin” va “Sabotul ojizin” asarlarining mazmuni So‘fi Olloyor ijodida diniy-ma’rifiy bilimlarni xalq uchun tushunarli tilda bayon etish tamoyili ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. “Murodul orifin” esa uning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini tizimli ifodalagan muhim manba sifatida namoyon bo‘ladi. Asarlarning turli tillarda yaratilgani, ko‘plab

qo‘lyozma va toshbosma nusxalarining saqlanib qolganligi hamda keng hududlarda tarqalganligi So‘fi Olloyor merosining tarixiy, ilmiy va ma’naviy ahamiyati yuqori bo‘lganini tasdiqlaydi.

Umuman, So‘fi Olloyor ijodi diniy-ma’rifiy ta’limot, tasavvufiy tafakkur, axloqiy tarbiya va badiiy ifodani o‘zaro uyg‘unlashtirgan yaxlit ilmiy-adabiy hodisadir. Uning merosini qo‘lyozma manbalar asosida yanada chuqur tadqiq etish, asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish va matnshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganish Markaziy Osiyo adabiy-ilmiy tafakkuri tarixini yanada to‘liq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. So‘fi Olloyor. Murodul orifin. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, №1902 qo‘lyozma.

2. So‘fi Olloyor. Murodul orifin. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, №496 qo‘lyozma.

3. So‘fi Olloyor. Maslakul muttaqin. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, №320 qo‘lyozma.

4. Sirojiddinov Sh. So‘fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. – Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi nashriyoti, 2001. – 80 b.

5. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: A. Navoiy universiteti, 2019. – 128 b.

6. Zohidov R. Sabotul ojizin asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o‘rganish muammolari. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 264 b.

7. Erkinov A. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanmasi). – Toshkent, 2019. – 103 b.

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDA UMUMTURKIY QATLAM VA TARIXIY ASOSLARI.

Abdusharipova Dilorom,
Urganch innovatsion universiteti “Ijtimoiy-gumanitar va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilining Xorazm vohasi shevalari leksikasidagi umumturkiy qatlam va uning tarixiy asoslari tadqiq etiladi. Xorazm shevalarining shakllanishida qadimgi turkiy, o‘rta turkiy va eski o‘zbek tili davrlariga xos lingvistik xususiyatlarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, voha hududida yashovchi turkiy urug‘ va qabilalarning, xususan, o‘g‘uz, qipchoq va qarluq guruhlarining uzoq davom etgan etnolingvistik aloqalari hamda o‘zaro ta’siri natijasida umumturkiy leksik qatlamning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada qadimgi turkiy leksemalarning Xorazm shevalarida fonetik va semantik jihatdan saqlanishi, ularning ma’no taraqqiyoti, ma’no ko‘chishlari hamda sinonimik munosabatlari masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Xorazm shevalari leksikasining tarixiy ildizlarini aniqlashda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari va o‘zbek dialektologiyasiga oid tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm shevalari, umumturkiy qatlam, dialektal leksika, qadimgi turkiy til, o‘rta turkiy davr, eski o‘zbek tili, o‘g‘uz, qipchoq, qarluq, etnolingvistika, tarixiy semasiologiya.*

Abstract. *This article examines the Common Turkic layer in the lexicon of the Khorezm dialects of the Uzbek language and its historical foundations. It highlights the role of linguistic features characteristic of the Old Turkic, Middle Turkic, and Old Uzbek periods in the formation and development of the Khorezm dialects. Particular attention is paid to the formation of the Common Turkic lexical layer as a result of long-term ethnolinguistic contacts and mutual interaction among Turkic tribes and groups, particularly the Oghuz, Kipchak, and Karluk communities inhabiting the Khorezm oasis. The article analyzes the phonetic and semantic preservation of Old Turkic lexemes in the Khorezm dialects, as well as their semantic development, shifts*

in meaning, and synonymic relationships. It also emphasizes the scholarly significance of Mahmud al-Kashgari's Dīwān Lughāt al-Turk and studies in Uzbek dialectology for identifying the historical origins of the lexical features of the Khorezm dialects.

Keywords: *Khorezm dialects, Common Turkic layer, dialectal lexicon, Old Turkic language, Middle Turkic period, Old Uzbek language, Oghuz, Kipchak, Karluk, ethnolinguistics, historical semantics.*

Аннотация. *В статье исследуется общетюркский слой в лексике хорезмских диалектов узбекского языка и его исторические основы. Освещается роль языковых особенностей древнетюркского, среднетюркского и староузбекского периодов в формировании хорезмских диалектов. Особое внимание уделяется процессу формирования общетюркского лексического слоя в результате длительных этнолингвистических контактов и взаимовлияния тюркских родов и племён, в частности огузов, кипчаков и карлуков, населявших территорию Хорезмского оазиса. Анализируются особенности сохранения древнетюркских лексем в хорезмских диалектах на фонетическом и семантическом уровнях, а также их семантическое развитие, перенос значений и синонимические отношения. Определяется научное значение труда Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-турк» и исследований по узбекской диалектологии для выявления исторических истоков лексики хорезмских диалектов.*

Ключевые слова: *хорезмские диалекты, общетюркский слой, диалектная лексика, древнетюркский язык, среднетюркский период, староузбекский язык, огуз, кипчак, карлук, этнолингвистика, историческая семасиология.*

Kirish. O‘zbek tilining Xorazm vohasi shevalari turkiy tillar oilasining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, xususan, qadimgi turkiy, o‘rta turkiy va eski o‘zbek tili davrlariga xos fonetik, leksik hamda grammatik qonuniyatlarni o‘zida uzviy ravishda saqlab qolgan o‘ziga xos makroareal hisoblanadi. Ushbu

dialektal zonaning lug‘at tarkibidagi umumturkiy qatlam necha asrlik etnolingvistik jarayonlar, migratsiyalar va turli turkiy urug‘larning (o‘g‘uz, qipchoq, qarluq) o‘zaro assimilyatsiyasi natijasida shakllangan murakkab tizimdir [1]. Xorazm shevalarining tarixiy ildizlari bevosita Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida aks etgan XI asr turkiy tillar holatiga borib taqaladi va bu jihat dialektal leksikografiya, hamda tarixiy semasiologiya uchun g‘oyat qimmatli manba vazifasini o‘taydi[2].

Umumturkiy lug‘at fondining Xorazm shevalaridagi in’ikosi shunchaki qadimiy so‘zlarning saqlanib qolishi bilan emas, balki ularning tarixiy-semantik tadriji, ma’no ko‘chishlari va sinonimik qatorlarining kengayib yoki torayib borishi bilan belgilanadi. Vohadagi o‘g‘uz (janubiy Xorazm) va qipchoq (shimoliy Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi aksar o‘zbek shevalari) lahjalarining o‘zaro sintezi natijasida qadimgi turkiy leksemalarning o‘ziga xos fonetik variantlari yuzaga kelgan[3].

Qadimgi turkiy tilning leksik-semantik bazasi hisoblangan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi aksariyat so‘zlar Xorazm shevalarida o‘z semantikasini deyarli yo‘qotmagan holda faol iste’moldadir. Bu holat ayniqsa tabiat hodisalari, qarindoshlik munosabatlari, tana a’zolari, chorvachilik va dehqonchilik terminologiyasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lug‘atda qayd etilgan va bugungi kunga qadar jonli tilda yashab kelayotgan leksemalarni tematik guruhlar asosida tasniflash umumturkiy qatlamning barqarorligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, inson va uning tana a’zolariga oid somatik leksemalar turkiy tillarning eng qadimiy va barqaror qatlamidir. Mahmud Koshg‘ariy asarida keltirilgan *bash* (bosh), *kөz* (ko‘z), *qulaq* (quloq), *ag‘iz* (og‘iz), *tish* (tish), *til* (til), *azaq* (oyoq), *elik* (qo‘l), *bag‘ir* (jigar) kabi nomlar hozirgi shevalarda qonuniyatli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llaniladi[4]. Xususan, qadimgi turkiy tildagi so‘z o‘rtasi va oxiridagi jarangli *-g‘ / -g* tovushlarining *-v* yoki *-y* tovushlariga o‘tishi Xorazm shevalari uchun xarakterlidir: *ag‘iz* > *avыz, bag‘ir* > *bavыr, azaq* > *ayaq*. Shu bilan birga, Koshg‘ariyda qayd etilgan *azig‘* (oziq tish) leksemasi Xorazm vohasining ayrim shevalarida *azuv* shaklida saqlangan va u ko‘proq hayvonlarning yoshini belgilashda (*azuv yarg‘an*) qo‘llaniladi[5].

Ikkinchidan, qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi terminlar umumturkiy etnogenezning o‘zagini tashkil qiladi. Asardagi *ata* (ota), *ana* (ona), *og‘ul* (o‘g‘il), *qiz* (qiz), *qarindash* (qarindosh, tug‘ishgan), *ini* (uka),

echi (aka) so‘zlari bugungi shevalarda keng tarqalgan. E’tiborli jihati shundaki, “Devon”da o‘g‘uzlar onani, qipchoqlar esa ayiqni *aba* deb atashlari ko‘rsatib o‘tilgan. Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalarida, xususan, Xo‘jayli va To‘rtko‘l tumanlarida *aba* so‘zi aynan “ona” ma’nosida (masalan, *abam gəldi*) jonli muomaladadir [1] . Bu esa XI asrdagi o‘g‘uz qatlamining mazkur arealda qanchalik mustahkam o‘rnashganini dalillaydi.

Qarindoshlik terminologiyasi har qanday til lug‘at tarkibining eng arxaik, universal va ayni paytda muayyan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini o‘zida eng yorqin aks ettiruvchi qatlami hisoblanadi. Turkiy xalqlarning qarindoshlik tizimi ham ming yilliklar davomida shakllangan patrilineal (ota urug‘iga asoslangan) kelib chiqish, ekzogamiya (urug‘ ichida qiz olib, qiz bermaslik), o‘troq va ko‘chmanchi urug‘chilik an’analari hamda patrilokal (kelinning kuyov uyiga tushishi) yashash tarzini bevosita tilda muhrlagan[2].

Turkiy qarindoshlik terminologiyasini turli davrlarda antropologlar va tilshunoslar turk-mo‘g‘ul, sibir generatsion yoki Omaxa (Omaha) tizimlari doirasida tasniflashga harakat qilganlar. Turkiy tillarning Omaxa tizimiga mansubligi uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi: bu tizimda ota va otaning aka-ukasiga, shuningdek ona va onaning opa-singillariga nisbatan bitta umumiy atama qo‘llanilishi mumkin, parallel amakivachcha va xolavachchalar esa tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar bilan tenglashtiriladi[3]. Lekin jamiyat va uning madaniy, ijtimoiy tuzilmasi o‘zgarishi bilan tildagi qarindoshlik tizimi ham o‘zgaradi. Masalan, asrlar davomida ko‘chmanchi-urug‘chilik an’analarini saqlab qolgan qozoq va qirg‘iz tillarida an’anaviy tuzilma deyarli butunlay saqlangan bo‘lsa, urbanizatsiya va boshqa tillar bilan intensiv aloqada bo‘lgan g‘arbiy turkiy tillarda (masalan, turk, ozarbayjon yoki o‘zbek adabiy tilida) ota va amakini bir-biridan farqlash zarurati tug‘ilgan. Xalq orasidagi “Amaki – otaning yarmi” (turkchada: *Amca baba yarısıdır*) maqoli esa qadimgi qatlamdagi *ota = otaning akasi/ukasi* tengligining psixologik va paremiologik reliktidir[4].

Turkiy qarindoshlik tizimining tarixiy transformatsiyasini va zamonaviy shevalardagi xilma-xillikni chuqurroq anglash uchun E.Tashbash tadqiqotlarida ta’kidlangan beshta asosiy mezon asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Turkiy qarindoshlik ota urug‘iga mansublik asosiga qurilganligi sababli, ota tomonidan bo‘lgan qarindoshlar uchun alohida, maxsus atamalar ishlatiladi. Ona tomonidan bo‘lgan qarindoshlar esa ko‘pincha tasnifiy

xarakterga ega bo‘lib, maxsus terminlar bilan emas, balki ota tomon qarindoshlari nomiga *tay / tog‘a* belgilovchisini qo‘shish orqali yasaladi (masalan, qirg‘izchada *yeje* – amma/opa, *tay-yeje* – xola; *ake* – amaki/aka, *tay-ake* – tog‘a). Bunday tizimda [1] so‘zlovchi o‘zining onasi urug‘iga mansub erkaklarni, ularning yoshi va avlodidan qat’i nazar, bitta umumiy atama bilan (masalan, *tog‘a / nag‘ashi*) ataydi[2].

2. Oltoy xalqlaridagi kabi turkiy xalqlarda ham asosiy ijtimoiy birlik kengaytirilgan, birlashgan oila bo‘lgan. Bu oila tizimi bobo atrofida birlashgan bo‘lib, unda katta aka va otaning ukasi, aka-ukaning o‘g‘li va o‘z nabirasi o‘rtasida qat’iy terminologik chegara bo‘lmagan. O‘rxun-Yenisey yodgorliklarida *eči* (aka, amaki) va *atï* (nabira, jiyan) so‘zlari aynan mana shunday keng semantikaga ega bo‘lgan[3]. Zamonaviy g‘arbiy va janubiy turkiy tillar urbanizatsiya hamda hind-yevropa va kavkaz tillari ta’sirida kollateral va to‘g‘ri shajara qarindoshligini farqlay boshladi. Natijada *amaki/ami* (arabcha), *bibi* (forscha), *kuzen* (fransuzcha), *nevara/nabira* (forscha), *chicho* (bolgarcha) kabi o‘zlashma va kalka so‘zlar an’anaviy polisemik turkiy so‘zlarni siqib chiqardi. Ammo Qoraqalpog‘iston va Xorazm shevalarida, shuningdek qipchoq va sibir turkiy tillarida an’anaviy tuzilma saqlanib, to‘g‘ri va yonlama qarindoshlik ko‘pincha sintetik izofalar orqali (masalan, *atalas qiz*, *atasiniң ag‘asi*) ifodalanadi.

3. K.Gryonbex ta’kidlaganidek, turkiy avlodlar tizimi gorizontal va absolyut emas, balki vertikal va nisbiydir [4], ya’ni oila ketma-ket keluvchi avlodlar qatlamidan emas, balki xronologik tartibda joylashgan shaxslarning uzluksiz zanjiridan iborat. An’anaviy oilada hokimiyat eng keksa erkak (bobo yoki katta ota) qo‘lida bo‘lgan. Shu sababli ba’zi turkiy tillar va shevalarda bobo va ota yoki otaning katta akasi bitta so‘z bilan ataladi (masalan, turkmanchada *ata*, turkiy shevalarda *ag‘a/aka* ham ota, ham amaki, ham aka ma’nosida keladi). Qadimgi turkiy tilda avlodlararo Omaxa tipidagi siljishlar mavjud bo‘lganligi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etiladi[5].

4. Yosh mezoni (Age): Bir avlodga mansub qarindoshlar kamdan-kam hollardagina teng yoshda bo‘ladi[10]. Turkiy tillarning barchasida bir avlodga mansub qarindoshlar orasida yoshga nisbatan katta-kichiklik qat’iy farqlanadi (aka va uka, opa va singil). J.Kloson qayd etganidek, qadimgi turkiy xalqlar avlodlar bo‘yicha emas, balki yosh guruhlari bo‘yicha fikr yuritganlar va

shuning uchun o‘zining akasi va otasining ukasini bir xil ataganlar (masalan, qadimgi turkiy *ini* – uka; *ečі* – aka, amaki)[1]. Avlodlar masofasi uzoqlashgani sari (masalan, bobo va nabiralar avlodida) yosh va jinsga oid terminologik farqlanishlar neytrallashib boradi (masalan, umumiy *nevara*, *bobo* so‘zlarining ishlatilishi).

5. J.Grinbergning qarindoshlik terminologiyasi universaliyalariga oid gipotezasiga ko‘ra, avlod qanchalik yaqin bo‘lsa, u shunchalik belgilanmagan bo‘ladi va jinsga ko‘ra farqlanadi. Pastki (nabira, jiyan) avlodlarda esa jins farqi umumiylashadi [2]. Markaziy Osiyo turkiy tillarida, shu jumladan o‘zbek shevalarida aka-uka va opa-singillarni atashda so‘zlovchining jinsi asosiy rol o‘ynaydi (masalan, erkak kishi uchun *qarindosh*, ayol kishi uchun *singil*). Qadimgi turkiy tilda birinchi va ikkinchi quyi avlodlarni ular erkak yoki ayol liniyasi orqali kelganligiga qarab tasniflash moyilligi kuchli bo‘lgan[3].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, eski turkiy davridagi qarindoshlik tizimi asosan Sibir va Markaziy Osiyo tillarida yaxshiroq saqlangan. G‘arbiy qipchoq va G‘arbiy o‘g‘uz (shu jumladan o‘zbek tilining qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalari) tillari hind-yevropa, kavkaz va som tillari (fors, arab, rus) bilan uzoq muddatli aloqalar hamda o‘troqlashuv, urbanizatsiya va yadroviy oila modelining shakllanishi natijasida o‘z qarindoshlik terminlarini sezilarli darajada modifikatsiya qilgan[4]. L.Pokrovskaya ta’kidlaganidek, bu semantik ko‘chishlar asosan umumiylikdan xususiylikka (*og‘ul* bola > o‘g‘il farzand), qondoshlikdan qayin-bo‘yinlikka, to‘g‘ri shajaradan yonlama shajaraga qarab siljish yo‘nalishida sodir bo‘lgan[5].

«Devonu lug‘otit turk» va o‘rta asrlar eski o‘zbek matnlarida kuzatiladigan asl turkiy so‘zlar o‘rnini keyinchalik arab va fors tilidan kirib kelgan so‘zlar egalladi. Masalan, XI asrda keng iste’molda bo‘lgan ota tomondan qarindoshlarni ifodalovchi so‘zlar o‘rniga arabcha *‘amm / ‘amma* (amaki, amma), forschadan *bibi* (Xorazm va ayrim o‘g‘uz shevalarida opa yoki amma ma’nosida), arabchadan *xola* (mo‘g‘ulcha *tay* yoki turkiy *egachi* o‘rniga) o‘zlashgan. XX asrdagi sovet tuzumi davrida esa rus tili orqali *mama*, *papa*, *vnuk* kabi so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilib, ba’zi turkiy tillar leksikasiga singib ketdi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umumturkiy qarindoshlik tizimining Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalaridagi in’ikosi

shunchaki dialektizmlar yig‘indisi emas, balki turkiy etnogenez, ko‘chmanchi-o‘troq hayot tarzi transformatsiyalari va Omaxa ijtimoiy tuzilmasining nodir lingvistik yodgorligidir. Ushbu lug‘at qatlamini tarixiy-semasiologik jihatdan tadqiq etish, mumtoz matnlar va “Devonu lug‘otit turk” obidasi bilan qiyoslash o‘zbek tilshunosligi va turkologiya oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Uchinchidan, chorvachilik, dehqonchilik va maishiy turmush bilan bog‘liq etnografik leksika qadimgi turkiy xalqlarning xo‘jalik yuritish usullarini o‘zida aks ettiradi. Mahmud Koshg‘ariyda uchraydigan *at* (ot), *buzag‘u* (buzoq), *sig‘ir* (sigir), *qoy* (qo‘y), *irk* (to‘rt yashar qo‘y) kabi nomlar dialektal sistemada o‘z o‘rnini saqlagan. Masalan, qadimgi *buzag‘u* so‘zi voha shevalarida ыzav yoki buzav shaklida talaffuz qilinadi. *Ot* va *tuya* yoshini anglatuvchi *dənən* (to‘rt yoshli mol), *g‘unan* (uch yashar mol), *atan* (bichilgan tuya), *bug‘ra* (erkak tuya) singari nodir so‘zlar Xorazm va Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining leksik fondida bugun ham faol bo‘lib, ularning semantik ko‘lami qadimgi davrlar bilan to‘liq mos tushadi[1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 84-86.

[2] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). 1-3 жилдлар. – Тошкент: Фан, 1960-1963.

[3] Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 112-115.

[4] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 134-210.

[5] Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 56.

[6] Ишаев А. Хоразм шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 42-45, 88-91.

[7] Liljeström R., Özdalga E. (Eds.). Autonomy and Dependence in the Family: Turkey and Sweden in Critical Perspective. – Istanbul: Swedish Research Institute, 2005. – P. 103-104.

[8] Lindholm C. Kinship Structure and Political Authority: The Middle East and Central Asia // Comparative Studies in Society and History. – 1986. – Vol. 28, No. 2. – P. 342.

[9] Taşbaş E. The Turkic Kinship System // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung. – 2019. – Vol. 72, No. 2. – P. 246.

[10] Bacon E. E. A Study of Social Structure in Eurasia. – New York: Wenner-Gren Foundation, 1958. – P. 192.

[11] Nanda S., Warms R. L. Cultural Anthropology. – Belmont: Thomson Wadsworth, 2007. – P. 253.

[12] Krader L. Social Organization of the Mongol-Turkic Pastoral Nomads. – The Hague: Mouton, 1963. – P. 261.

[13] Grønbech K. The Turkish System of Kinship // Studia Orientalia Ioanni Pedersen... – Hauniae: E. Munksgaard, 1953. – P. 127-128.

[14] Dziebel G. V. The Genius of Kinship: The Phenomenon of Human Kinship and the Global Diversity of Kinship Terminologies. – Youngstown: Cambria Press, 2007. – P. 238.

[15] Clauson G. Studies in Turkic and Mongolic Linguistics. – London: RoutledgeCurzon, 2005. – P. 152.

[16] Greenberg J. H. Universals of Kinship Terminology // On Language... – Stanford, CA: Stanford University Press, 1990. – P. 318-319.

[17] Baştuğ Ş. Kök Türük Kinship Terminology: An Omaha Model // Central Asiatic Journal. – 1993. – Vol. 37, No. 1-2. – P. 1-19.

[18] Gore M. S. Urbanization and Family Change. – Bombay: Popular Prakashan, 1990. – P. 77.

[19] Покровская Л. А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – Москва: Наука, 1961. – С. 77.

[20] Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 120-123.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA RAQAMLI IQTISODIYOT TERMINLARINING SEMANTIK VA SINTAKTIK DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Mayliyeva Gulmira Bahramovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch, 220100, Uzbekistan, E-mail: mayliyevag@gmail.com

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida raqamli iqtisodiyotga oid terminlarning semantik va sintaktik derivatsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Semantik derivatsiya terminlarning yasalishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, terminlarning yaratilishida eng samarali va faol usullardan biri sanaladi. Sintaktik derivatsion yasalish terminlarning nutq jarayonida faollashuvini yuzaga chiqaruvchi muhim omillardan sanaladi. Raqamli iqtisodiyot terminlarining ushbu ikkita derivatsion yasalash turlari eng keng tarqalgan va faol so‘z yasovchi jihatlar sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, termin, termonologiya, derivatsiya, semantik derivatsiya, sintaktik derivatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются семантические и синтаксические деривационные особенности терминов, относящихся к цифровой экономике, в узбекском и английском языках. Семантическая деривация обладает специфическими особенностями в образовании терминов и считается одним из наиболее эффективных и активных способов создания терминов. Синтаксическое деривационное образование является одним из важных факторов, обусловливающих активизацию терминов в процессе речи. Данные два типа деривационного образования терминов цифровой экономики являются наиболее распространёнными и активными*

словообразовательными аспектами.

Ключевые слова: *цифровая экономика, термин, терминология, деривация, семантическая деривация, синтаксическая деривация.*

Abstract. *This article analyzes the semantic and syntactic derivational features of terms related to the digital economy in Uzbek and English. Semantic derivation has distinctive features in term formation and is considered one of the most effective and active methods in the creation of terms. Syntactic derivational formation is one of the important factors that activates terms in the process of speech. These two types of derivational formation of digital economy terms are the most widespread and active word-formation aspects.*

Keywords: *digital economy, term, terminology, derivation, semantic derivation, syntactic derivation.*

XXI asr axborot zamonida kundalik hayotimizning barcha jabhalarini, jumladan iqtisodiyot munosabatlarini ham raqamlashtirish jarayoni jadal yo‘lga qo‘yilmoqda. Ushbu jarayon natijasida raqamli iqtisodiyot terminologiyasi alohida terminologik qatlam tashkil qildi. Ushbu terminologik qatlamni yuzaga keltiruvchi ikkita asosiy derivatsion jihat mavjud bo‘lib, semantik va sintaktik derivatsion xususiyatlar ushbu terminlarning tilimizda qo‘llanilishi va singishi uchun muhim omil sanaladi.

Ingliz tilida raqamli iqtisodiyot terminlari aksariyat qismini yaratilishida asosiy tillardan biri bo‘lib, o‘zbek tilida ushbu terminlar moslashib tilimizga kirib kela boshladi. Shu jihatdan ikkala tildagi semantik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganish muhim. Ikkala tilda ham sintaktik xarakterdagi terminologik birliklar asosan so‘z birikmalaridan tashkil topgan. Ushbu so‘z birikmalarning birliklari mustaqil so‘zlar bo‘lib, semantik jihatdan yaxlit birikmaga birlashtirish orqali hosil bo‘ladi [2]. Sintaktik derivatsiyaning shakllanishi uchun tayanch struktura asos bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni tayanch strukturasiz sintaktik derivatsiya shakllanmaydi. Derivat tayanch struktura orqali hosil

bo‘ladi. Yagona, lekin umumlashgan tushuncha va tasavvurlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan, turli grammatik vositalar asosida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan sintaktik birliklarga so‘z birikmasi deyiladi [1]. raqamli iqtisodiyotga oid so‘z birikma terminlarni ham komponentlar miqdoriga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

– ikki komponentli;

– uch komponentli;

– to‘rt va undan ortiq komponentli [4].

Tadqiq qilinayotgan raqamli iqtisodiyot terminologiyasi sohasida chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida ham so‘z birikma terminlarning komponentlari miqdoriga ko‘ra eng keng tarqalgani ikki komponentli termin birikmalardir. Bunda, xuddi matematik terminologiyada bo‘lgani kabi, asosiy bosh komponent bosh kelishik shaklidagi ot orqali ifodalanadi va u asosiy ma’noni anglatadi, tobe bo‘lak esa asosiy tayanch komponentni to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Ikki komponentli birikmalarning asosiy tiplari

1. Sifat + Ot (Adjective + Noun) modeli

Birinchi komponent sifat, ikkinchi komponent (bosh bo‘lak) ot bilan ifodalangan so‘z birikma terminlar raqamli iqtisodiyot terminologiyasida ham eng keng tarqalgan sintaktik model hisoblanadi:

O‘zbek tilida	**Ingliz tilida**
raqamli iqtisodiyot	digital economy

2. Ot + Ot (Noun + Noun) modeli

Ikki komponentli terminologik birliklarning har ikkala qismi ham ot orqali ifodalangan bo‘lishi mumkin:

O‘zbek tilida	**Ingliz tilida**
blokcheyn texnologiyasi	blockchain technology
kriptovalyuta birjasi	cryptocurrency exchange

Uch komponentli birikma terminlar

Raqamli iqtisodiyot sohasining murakkablashuvi natijasida uch komponentli terminlar ham faol qo‘llaniladi. Bunday terminlarda odatda bitta asosiy (bosh) komponent va ikkita tobe komponent ishtirok etadi:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
sun’iy intellekt tizimi	artificial intelligence system
markazlashmagan moliya tizimi	decentralized finance system
ochiq manbali dasturiy ta’minot	open-source software
raqamli to‘lov platformasi	digital payment platform
elektron tijorat bozori	e-commerce marketplace
kripto valyuta hamyoni	cryptocurrency wallet

To‘rt va undan ortiq komponentli birikma terminlar

Sohaning yanada chuqurlashuvi natijasida to‘rt va undan ortiq komponentli terminlar ham shakllanmoqda. Bunday terminlar odatda murakkab texnologik jarayon yoki tizimni bir butun holda nomlash zaruriyatidan kelib chiqadi:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
sun’iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish tizimi	artificial intelligence-based decision-making system
tengma-teng kreditlash platformasi	peer-to-peer lending platform

So‘zning semantik doirasining o‘zgarishida ma’no kengayishi, ma’no torayishi, ma’no ko‘chishi kabi hodisalar kuzatiladi va natija sinkretizmga sabab bo‘ladi [3]. Raqamli iqtisodiyot terminologiyasi bu jarayonlarning barchasini yaqqol namoyon etuvchi eng faol sohalardan biri hisoblanadi, chunki umumiste’mol so‘zlar texnik-iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun qayta faollashtiriladi.

1. Ma’no kengayishi (semantic broadening). Ma’no kengayishida so‘z dastlabki tor, xususiy ma’nosidan chiqib, kengroq, umumiyroq tushunchani qamrab oladi.

Termin	Dastlabki (tor) ma’nosi	Kengaygan (raqamli iqtisodiyotga oid) ma’nosi
platform / platforma	fizik maydoncha,	biznes-model, xizmat ko‘rsatish tizimi (*raqamli platforma, savdo platformasi*)

Termin	Dastlabki (tor) ma’nosi	Kengaygan (raqamli iqtisodiyotga oid) ma’nosi
	sahna	

2. Ma’no torayishi (semantic narrowing). Ma’no torayishida, aksincha, ilgari keng ma’noga ega bo‘lgan so‘z ma’lum bir sohaga xos torroq ma’noga ixtisoslashadi.

Termin	Dastlabki (keng) ma’nosi	Toraygan (raqamli iqtisodiyotga oid) ma’nosi
currency / valyuta	umuman pul, muomala vositasi	*cryptocurrency / kriptovalyuta* – faqat raqamli, markazlashmagan pul birligi

3. Ma’no ko‘chishi (semantic shift — metafora va metonimiya)

Ma’no ko‘chishida so‘zning asl ma’nosi bilan yangi ma’nosi o‘rtasida o‘xshashlik (metafora) yoki bog‘liqlik (metonimiya) munosabati mavjud bo‘ladi.

4. Semantik o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan sinkretizm

Yuqoridagi uchala jarayon kengayish, torayish va ko‘chish ko‘p hollarda bitta so‘z shaklida bir nechta ma’noning qatlamlanishiga, ya’ni **sinkretizmga** olib keladi. Masalan:

- **"platform" / "platforma"** so‘zi bir vaqtning o‘zida: (1) texnik infratuzilma (***dasturiy platforma***), (2) biznes-model (***platforma iqtisodiyoti***) va (3) ijtimoiy-siyosiy ma’noda "asos, dastur" (***siyosiy platforma***) ma’nolarini o‘zida mujassam etadi bu uch ma’no bir shaklda sinkretik tarzda yashaydi va faqat kontekst orqali farqlanadi.
- **"smart" / "aqlli"** so‘zi ham xuddi shunday ***smart city, smart contract, smart phone*** birikmalarida turlicha (boshqariladigan, o‘zaro bajariluvchi, funksional) ma’no nozikliklarini kasb etadi, biroq umumiy "texnologik jihatdan takomillashgan" semasi barchasini birlashtiradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida raqamli terminologiyaning semantik-sintaktik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, terminlarning ma’no taraqqiyoti (metafora, metonimiya, semantik kengayish/torayish) ikki tilda katta darajada o‘xshash bo‘lsa-da, ularning sintaktik ifodalanish shakli tillarning tipologik tabiatiga qarab sezilarli farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Т.: ЎзРФА. Фан, 2009. – Б.221.

2. Григорян А.А. Терминология современного делопроизводства (исторический, системный и лексикографический аспекты): Дис… канд.фил. наук. – Иванова, 2016. – С.116.

3. Пименова М.В. Семантическая деривация и синкретизм // Ученые записки Казанского университета,Гуманитарные науки. Том 154, кн. 5. – 2012. – С.132-136.

4. Ruzmetova O. Matemakiga oid terminlarning derivatsion va leksikografik xususiyatlari (ingliz va o’zbek tillari misolida). Monografiya. – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo’limi, 2025. – B. 156.

O‘ZBEK ISMLARIDA MILLIY MENTALITET VA DUNYOQARASHNING IFODALANISHI

Masharipova Baxtigul Rajabboy qizi,
Urganch RANCH texnologiya universiteti mustaqil izlanuvchisi

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek shaxs ismlarida milliy mentalitet va dunyoqarashning ifodalanishi lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Ismlarning diniy-islomiy, ezgu tilak, insoniy fazilat, tabiat, tarixiy-qahramonlik hamda xalq e’tiqodi bilan bog‘liq semantik-madaniy qatlamlari ko‘rib chiqiladi. Ism qo‘yish an’analari tahlil qilinib, o‘zbek ismlari millatning ma’naviy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi boy madaniy manba ekanligi asoslanadi.*

Аннотация. *В статье с точки зрения лингвокультурологии анализируется отражение национального менталитета и мировоззрения в узбекских личных именах. Рассматриваются семантико-культурные пласты имён, связанные с религиозно-исламскими представлениями, добрыми пожеланиями, человеческими качествами, природой, историей и героизмом, а также с народными верованиями. Анализируются традиции имянаречения; обосновывается, что узбекские имена являются богатым культурным источником, отражающим духовные ценности и мировоззрение народа.*

Abstract. *The article analyses, from a linguoculturological perspective, the expression of national mentality and worldview in Uzbek personal names. It examines the semantic-cultural layers of names connected with religious-Islamic ideas, good wishes, human virtues, nature, history and heroism, as well as folk beliefs. Naming traditions are analysed, and it is substantiated that Uzbek names are a rich cultural source reflecting the spiritual values and worldview of the people.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, ism, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, dunyoqarash, madaniy qatlam, ism qo‘yish an’anasi, o‘zbek tili.*

Ключевые слова: *антропоним, имя, лингвокультурология, национальный менталитет, мировоззрение, культурный пласт, традиция имянаречения, узбекский язык.*

Keywords: *anthroponym, name, linguoculturology, national mentality, worldview, cultural layer, naming tradition, Uzbek language.*

Kirish. Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalar bo‘lib, tilning har bir birligida xalqning tarixi, turmush tarzi, e’tiqodi va dunyoqarashi o‘z aksini topadi. Ana shu bog‘liqlikni o‘rganuvchi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishi — lingvokulturologiyadir; u tilni madaniyat ko‘zgusi sifatida talqin etib, lisoniy birliklarda mujassamlashgan madaniy ma’nolarni tadqiq qiladi [1; 5]. Mazkur yo‘nalish nuqtai nazaridan kishi ismlari — antroponimlar alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki ism nafaqat shaxsni atash vositasi, balki millatning ma’naviy qadriyatlari, e’tiqodi va mentalitetini o‘zida saqlovchi madaniy belgidir.

Lingvokulturologiyaning asosiy tamoyiliga ko‘ra, til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlari va olamni idrok etish tarzini o‘zida jamlagan “madaniy kod”dir. Har bir tilda voqelikning o‘ziga xos lisoniy manzarasi mavjud bo‘lib, u so‘z va iboralar, shu jumladan atoqli otlar zamirida namoyon bo‘ladi. Kishi ismlari ana shunday manzaraning eng ixcham va ta’sirchan ko‘rinishlaridan biri sanaladi, chunki ism qo‘yish jarayonining o‘zida xalqning e’tiqodi, orzu-umidlari va estetik didi mujassamlashadi.

O‘zbek antroponimikasi — o‘zbek tilshunosligining boy an’analarga ega sohalaridan biridir. Bu soha, asosan, taniqli olim E. Begmatov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning tadqiqotlarida o‘zbek ismlarining lisoniy, tarixiy va madaniy jihatlari atroflicha o‘rganilgan [2]. Biroq o‘zbek ismlarida milliy mentalitet va dunyoqarashning ifodalanishi masalasi lingvokulturologik nuqtai nazardan hali yaxlit tarzda maxsus o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — o‘zbek ismlarida milliy mentalitet, qadriyatlar va dunyoqarashning qanday aks etganini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda lingvokulturologik tahlil, tavsifiy metod hamda ismlarni semantik-mavzuviy guruhlarga ajratish usulidan foydalanildi.

Tahlil uchun material sifatida E. Begmatovning “O‘zbek ismlari ma’nosi” [3] va “O‘zbek tili antroponimikasi” [2] asarlarida keltirilgan ismlar, shuningdek xalq orasida keng tarqalgan an’anaviy o‘zbek ismlari olindi. Ismlardagi madaniy ma’no D. Xudoyberganovaning lingvokulturologiyaga oid ishlari asosida talqin qilindi [5; 6].

Natijalar. Tahlil o‘zbek ismlarida bir necha madaniy-mazmuniy qatlam mavjudligini ko‘rsatdi. Ularning eng salmog‘i diniy-islomiy qatlamdir. Islom dini asrlar davomida o‘zbek xalqining ma’naviy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgani bois, Abdulloh, Muhammad, Ibrohim, Fotima, Oysha, Abdurahmon, Abdukarim singari arabcha-diniy ma’noli ismlar keng tarqalgan. “Abdulloh” (Allohning bandasi), “Abdurahmon” (Rahmonning bandasi) kabi ismlar xalqning diniy e’tiqodi va Yaratganga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Diniy-islomiy ismlar tarkibida payg‘ambarlar va sahobalar nomlari (Muhammad, Ibrohim, Yusuf, Ali, Umar), “Abd” (banda) so‘zi bilan yasalgan ismlar (Abdulla, Abdujabbor, Abdusalom), shuningdek nur, iymon, islom kabi diniy tushunchalar bilan bog‘liq ismlar (Nuriddin, Islom, Iymon) alohida o‘rin tutadi. Bunday ismlar orqali ota-ona farzandini muqaddas qadriyatlar bilan bog‘lashni hamda unga diniy-ma’naviy himoya tilashni ko‘zda tutadi.

Ismlarning yana bir keng qatlami ezgu tilak va insoniy fazilatlar bilan bog‘liqdir. Ota-onalar farzandiga ism qo‘yishda unga baxt, uzoq umr va yaxshi xislatlar tilaydilar. Baxtiyor, Dilshod, Sevinch (baxt-quvonch tilagi); Sobir, Sobira, Halima, Karima, Rahima (sabr, muloyimlik, saxovat kabi fazilatlar) singari ismlar shundan dalolat beradi. Bunday ismlarda o‘zbek xalqining ezgulikka intilishi va insoniy kamolotni ulug‘lashi aks etgan.

O‘zbek ismlarida xalq e’tiqodi va udumlari bilan bog‘liq maxsus guruh ham mavjud. Oilada farzand turmagan yoki chaqaloq nimjon bo‘lgan hollarda unga Tursun, Turg‘un, To‘xta, To‘xtasin, O‘lmas kabi ismlar qo‘yilgan; bu ismlarda “farzand omon qolsin, hayotda mustahkam tursin” degan tilak mujassam. Farzandning kuchli va chidamli bo‘lishini istab qo‘yilgan Bo‘ri, Kuchkor, Sherzod kabi ismlar ham shu e’tiqodiy tasavvurlar bilan bog‘liqdir. Ushbu ismlar xalqning qadimiy dunyoqarashi va farzandga bo‘lgan mehrini o‘zida saqlaydi.

Tabiat bilan bog‘liq ismlar o‘zbek xalqining atrof-olamga muhabbatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qiz bolalarga qo‘yiladigan Lola, Nilufar, Gul, Guli, Sevara kabi ismlarda go‘zallik va nafosat tuyg‘usi ifodalangan bo‘lsa, Chinor,

Toshtemir singari ismlarda mustahkamlik va bardoshlilik ramzi mujassam. Bu esa xalqning tabiat go‘zalligini qadrlashi hamda undan ma’naviy timsol izlashini ko‘rsatadi.

Ismlarning bir qismi milliy tarix va qahramonlik ruhi bilan bog‘liq. Alisher, Bobur, Temur, Jahongir kabi ismlar buyuk ajdodlarga ehtirom va milliy g‘urur ifodasidir. Shuningdek, o‘zbek antroponimiyasida o‘g‘il va qiz ismlari o‘rtasida ma’noviy farq seziladi: o‘g‘il ismlarida ko‘pincha kuch, mardlik va jasorat (Botir, Sherzod, Alpomish), qiz ismlarida esa go‘zallik, nazokat va muloyimlik (Gulnora, Dilnoza, Nozima, Zebo) ma’nolari ustuvor. Bu holat xalqning erkak va ayolga xos fazilatlar haqidagi an’anaviy tasavvurlarini aks ettiradi.

Ismlarning tuzilishida ham milliy dunyoqarash aks etadi. O‘zbek antroponimiyasida qo‘shma ismlar keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha ikki ma’noli o‘zakning birikuvidan hosil bo‘ladi: Toshtemir, Toshpo‘lat (mustahkamlik ma’nosi), Xolmurod, Ergash (tilak va davomiylik ma’nosi). Ismlarga qo‘shiladigan -boy, -bek, -xon, -jon, -oy, -gul kabi unsurlar esa hurmat, erkalash va e’zoz ma’nolarini ifodalab, xalqning insonga hamda oilaviy munosabatlarga bo‘lgan mehr-oqibatini ko‘rsatadi. Xususan, -oy va -gul unsurlari qiz ismlarida go‘zallik va nafislik tuyg‘usini kuchaytiradi (Oygul, Guloy, Nodiragul).

Ismlarning madaniy mazmuni ism qo‘yish an’analarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbeklarda chaqaloqqa ism qo‘yish alohida marosim bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘pincha oiladagi keksa avlod yoki e’tiborli kishilar ism tanlaydi. Farzandga marhum yoki hurmatli qarindosh — buvi, bobo nomini berish an’anasi avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy davomiylikni ta’minlaydi. E. Begmatov “Ism chiroyi” asarida bunday udumlar hamda ismlarni e’zozlash yo‘llarini batafsil tahlil qilgan [4].

O‘zbek so‘zlashuv nutqida ismlarning erkalash va qisqartma shakllari keng qo‘llanadi: Gulnoradan Gulnoraxon yoki Gulya, Dilnozadan Dilya, Rustamdan Rustamjon, Zuhradan Zuhraoy kabi shakllar hosil bo‘ladi. Bu shakllar oiladagi mehr, samimiylik va yaqinlik munosabatlarini ifodalab, o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan mehr-oqibat, izzat-ikrom va bir-birini e’zozlash tuyg‘ularini namoyon etadi. Ismlarning bunday emotsional-ekspressiv qatlami xalqning muomala madaniyati va oilaviy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Ismlarda ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar ham o‘z izini qoldiradi. Sovet davrida mafkuraviy ta’sir ostida ayrim yangi ismlar paydo bo‘lgan bo‘lsa,

mustaqillik yillarida milliy va diniy ma’noli an’anaviy ismlarga qiziqish qaytadan kuchaydi. Bu jarayon ismlar millatning nafaqat ma’naviy qadriyatlarini, balki muayyan davrning ijtimoiy ruhini ham aks ettirishini ko‘rsatadi.

Muhokama. Tahlil natijalari o‘zbek ismlari milliy mentalitet va dunyoqarashning o‘ziga xos ko‘zgusi ekanligini ko‘rsatadi. Har bir ism zamirida xalqning e’tiqodi (diniy ismlar), ezgu niyatlari (tilak ismlari), tabiatga muhabbati, oilaga sadoqati va tarixiy g‘ururi mujassam. Bu esa lingvokulturologiyaning til birliklari madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi vosita ekanligi haqidagi asosiy g‘oyasini tasdiqlaydi [1; 6].

Lingvokulturologiyada tilning olam haqidagi lisoniy manzarasi tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek ismlari tizimi o‘ziga xos “ismlar olami”ni tashkil etib, unda xalqning borliqni idrok etish tarzi — insonni ezgulik, go‘zallik va mustahkamlik timsollari orqali ko‘rish, uni Yaratgan hamda tabiat bilan bog‘liqlikda anglash — namoyon bo‘ladi. Ismlar shu tariqa madaniy xotira vazifasini ham bajaradi: ular avloddan avlodga milliy qadriyatlar va dunyoqarashni yetkazadi.

Shu bilan birga, o‘zbek antroponimikasi statik hodisa emas: u tarix davomida umumturkiy, islomiy va boshqa madaniy an’analar ta’sirida shakllangan hamda bugungi kunda ham o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy ism qo‘yish jarayonida an’anaviy ismlar bilan bir qatorda yangi, zamonaviy ohangdagi ismlar ham paydo bo‘lmoqda; biroq milliy qadriyatlarni ifodalovchi ezgu ma’noli ismlar hamon o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu jarayon davlat tili siyosatida ham e’tiborga olingan: “Davlat tili haqida”gi Qonunda ismlarni o‘zbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga muvofiq yozish belgilab qo‘yilgan [7].

Ismlarning lingvokulturologik tahlili amaliy ahamiyatga ham ega. Ism ma’nolari va ular zamiridagi madaniy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, oilalarda farzandga ongli va ma’noli ism tanlash madaniyatini shakllantirish hamda milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois ism va uning ma’nosiga oid bilimlarni ta’lim va ma’rifiy ishlar mazmuniga singdirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. O‘tkazilgan lingvokulturologik tahlil o‘zbek ismlari nafaqat shaxsni atash vositasi, balki millatning ma’naviy dunyosi, e’tiqodi va qadriyatlarini o‘zida saqlovchi boy madaniy manba ekanligini ko‘rsatdi.

Ismlardagi diniy, ezgu tilak, insoniy fazilat, tabiat, tarixiy hamda e’tiqodiy qatlamlar o‘zbek xalqining mentaliteti va dunyoqarashini yaxlit tarzda aks ettiradi.

Antroponimlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish tilshunoslik uchungina emas, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni asrash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, xususan zamonaviy ism qo‘yish jarayonidagi o‘zgarishlarni va ularning ijtimoiy-madaniy sabablarini kuzatish kelgusi ishlarning istiqbolli vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Academia, 2001.

2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

3. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010.

4. Begmatov E. Ism chiroyi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.

5. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.

6. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahriri). – Toshkent, 1995.

NEMIS HAJVIY MATNLARINI TARJIMA QILISHDA MAQOL VA MATALLAR TARJIMASI VA ULARNING PRINSPLARI



Atadjanova Mashhura Baxtiyarovna,
Urganch RANCH texnologiya universiteti, "Jahon tillari" kafedrasi o'qituvchisi
mashhura.atajanova@list.ru

UO'K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Martin Auerning* **Herr Balaban und seine Tochter Selda** *asarida qo'llangan maqollar misolida nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish prinsiplari (semantik moslik, ekvivalentlik, adaptatsiya, stilistik va kontekstual yondashuv) filologik jihatdan tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье на материале произведения австрийского писателя Мартина Ауэра* **Herr Balaban und seine Tochter Selda** *анализируются пословицы и рассматриваются основные принципы их перевода на узбекский язык — семантическое соответствие, эквивалентность, адаптация, стилистический и контекстуальный подходы.*

Abstract. *This article analyzes the proverbs found in the Austrian writer Martin Auer's work* **Herr Balaban und seine Tochter Selda** *and discusses the main principles of their translation into Uzbek, namely semantic correspondence, equivalence, adaptation, stylistic approach, and contextual approach.*

Kalit so'zlar: *maqol, matal, hajviy matn, tarjima, nemis tili, o'zbek tili, ekvivalentlik, adaptatsiya, semantik moslik, stilistik yondashuv.*

Ключевые слова: *пословица, поговорка, сатирический текст, перевод, немецкий язык, узбекский язык, эквивалентность, адаптация, семантическое соответствие, стилистический подход.*

Keywords: *proverb, saying, satirical text, translation, German language, Uzbek language, equivalence, adaptation, semantic correspondence, stylistic approach.*

Kirish. Maqol — asrlar davomida shakllanib kelgan xotira, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, hayot haqidagi falsafiy xulosalari, tarixi va madaniyatini mujassam etuvchi ixcham janrdir. U o‘tmishni umumlashtirish hamda bugun va kelajak uchun dasturiy ahamiyat kasb etishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois o‘z tarixi, qadriyati va tafakkur taraqqiyoti haqida qayg‘urgan xalq maqollarni og‘zaki hamda yozma nutqda qo‘llash orqali ularni asrash, to‘plash, tadqiq etish va ommalashtirishga intiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqollarning yuzaga kelishi xalqning shakllanish tarixi kabi ko‘hnadir. Chunki ular xalqning hayot tajribalari davomida orttirgan xulosalarini o‘zida ifodalaydi. Nemis olimi Fridrix Zayler fikricha, nemis xalq maqollarining paydo bo‘lishi nasroniylik dinining muqaddas kitobi Injil, hatto undan ham qadimgi davrlarga borib taqaladi [6]. Rus paremiologi I.M.Snegirev esa maqollarning paydo bo‘lish jarayonini payg‘ambarlar, bashoratchilar, donishmandlar, qabila boshliqlari va shohlar xalqqa qaratilgan nutqlari bilan bog‘laydi [9]. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, maqollarning ilk namunalari odamzodning olamni anglash va hayotni o‘rganish yo‘lidagi dastlabki izlanishlari hosilasidir.

Ma’lumki, turkiy xalqlarga tegishli ilk yozma manba bitiktoshlar hisoblanib, turkiy xalqlar paremiologiyasiga tegishli folklorizmlarni ham bitiktoshlarda uchratish mumkin. Ushbu bitiklarga xalq maqoli ekanligiga urg‘u berilmasa-da, shakl va mazmun ularning paremiologik birliklar ekanligidan darak beradi. Professor N.Rahmonov To‘nyuquq bitiktoshida kelgan – ‘‘G‘am o‘z uyingda’’ jumlasini xalq maqoli ekanligini ta’kidlab, izohlab o‘tadi [5]. O‘zbek maqollarining o‘rganilishi, to‘planishi bilan dastlab Mahmud Qoshg‘ariy izlanishlar olib borgan. Uning ‘‘Devoni lug‘atit turk’’ asarida turkiy xalqlar paremiologiyasining eng qadimgi namunalarini uchratish mumkin. Masalan, ‘‘*Kishi olasi ichtin, yilqi olasi toshtin*’’ kabi hozirgi kunda xam ishlatiladigan maqollarni uchratish mumkin. Qoshg‘ariydan keyingi davrlarda ijod qilgan Yusuf Xos Hojibdan Navoiygacha va Mashrabdan Hamzagacha bo‘lgan mumtoz adabiyotda foydalanilgan maqollarni professor B.Sarimsoqovning izlanishlarida ularni folklorizm namunasi sifatida kuzatishimiz mumkin. Bulardan keyin, Sharif Gulxaniy va Sulaymonqul Rojiylarning ‘‘Zarbulmasal’’larida ham xalq maqollari o‘ziga xos tarzda jamlangan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi globallashuv davrida badiiy tarjima, xususan hajviy asarlarni tarjima qilish, madaniyatlararo muloqotda muhim o‘rin tutadi. Hajviy matnlarda xalq og‘zaki ijodining qisqa va obrazli shakli bo‘lgan

maqol va matallar keng qo‘llanadi. Bunday birliklarni boshqa tilda adekvat ifodalash tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniy kompetensiyani ham talab etadi. Nemis tilidagi hajviy matnlarda qo‘llanadigan maqol va matallar ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz yoki kulgisiz bo‘lib qoladi. Shu sababli maqol tarjimasida semantik, ekvivalentlik, adaptatsiya, stilistik va kontekstual prinsiplarga tayanish zarur.

O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijod namunalarini to‘plash, nashr qilish, ilmiy jihatdan o‘rganish va boshqa tillarga tarjima qilish ishlari, asosan, XIX asrning 50-yillarida Turkistonga sayohat qilgan Yevropa va Rossiya olimlari tomonidan amalga oshirila boshlandi. Ular orasida venger olimi Hermann Vamberining ‘‘Chig‘atoy tili darsligi’’ (Čagataische Sprachstudien) kitobi dastlab 1867 yilda Laypsig (Germaniya)da, ikkinchi bor 1975 yilda Amsterdam (Niderlandiya)da chop qilingan. Uning ‘‘Xrestomatiya’’ qismida ‘‘Einige özbegische Sprüchwörter’’ sarlavhasi ostida 112 ta o‘zbek maqollari o‘zbek-arab hamda lotin imlosida olmon tiliga tarjimasi bilan berilgan:

-مات ک ذ ین یِ غلاوق راب

- Tamning ķulagi bor.

- Die Mauer hat auch Ohren [7].

Ilk nemis xalq maqollari to‘plamlari XI asrdayoq tuzila boshlangan. Ammo hozirgacha yetib kelgan to‘plamlarning XI asr boshidan XIV asr oxirigacha bo‘lganlarida maqollar lotin geksametrlariga aylantirilgan holda berilgan. Bunday to‘plamlarning eng qadimiylaridan biri Egbert fon Lyuttixning ‘‘Die Fecunda ratis’’ asari hisoblanadi [6]. Ko‘pgina nemis maqollari to‘plamlarida maqollargina emas, balki boshqa paremiologik birliklar ham o‘rin olgan bo‘lib, shulardan biri, Elke Gerr tomonidan tuzilgan ‘‘4000 Sprichwörter und Zitatel’’ to‘plami hisoblanadi. Ushbu to‘plamda maqollar bilan birgalikda aforizmlar, iboralar, matallar ham joy olgan. Nemis xalq maqollarini akademik nuqtai nazardan o‘rganish Karl Fridrix va Vilgelm Vander tomonidan amalga oshirilgan. Asar 1866-1880 yillarda ‘‘Deutsches Sprichwörter-Lexikon (Nemischa maqollar lug‘ati)’’ deb yaratilgan va 5 tomdan iborat ushbu kitobda maqollar leksik tasnif bo‘yicha alifbo tartibida jamlangan. To‘plam 250000 yaqin paremiyalarni o‘z ichiga oladi. Nemis maqollari jamlangan zamonaviy lug‘atlardan yana biri ‘‘Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten’’ bo‘lib, 1998- yilda Duden turkumida 10000 dan ortiq maqollar, matallar, muqim iboralar joy olgan.

Maqol atamasi tilshunoslar tomonidan turli xil tasnif etilgan. O.S.Axmanova, maqolni ‘‘badiiy tugallangan hikmatli so‘z, kinoyali fikrga, odatga, qofiyador ohang hamda fonetik shaklga egadir’’ deb ta’riflaydi [8]. Yuqoridagi fikrga qo‘shilgan holda R.Konrad esa maqolni ‘‘Hayotiy tajribalarga asoslangan qisqa, aniq va xalq og‘zaki ijodiga asosan paydo bo‘lgan fikrlardir, ammo uning muallifi noaniq bo‘ladi [3]’’.

M.D.Stepanova hamda I.I.Chernishyovalar ham boshqa tilshunos olimlar fikriga qo‘shilgan holda shunday yozadilar: ‘‘Maqollar xalq og‘zaki ijodida hosil bo‘ladi. Ularning uyushqoq shakli, ya’ni ibratli ma’nosi tufayli hamda ijodkorlar tominidan shakl berilishi sababli ular kichik poeziyaning bir qismiga o‘xshab ketadi’’ Deb ta’kidlaydilar.

Tahlil va natijalar. Nemis hajviy matnlarini tarjima qilishda maqol va matallar tarjimasi jarayonida so‘zma-so‘zlikdan ko‘ra, mazmuniy yadro, kulgi effekti va madaniy yaqinlikni ta’minlash ustuvor hisoblanadi. Tarjima prinsiplari sifatida semantik moslik, ekvivalentlik, adaptatsiya, stilistik va kontekstual yondashuvlarning uyg‘unligi zarur. Bunday yondashuv tarjimada nafaqat til, balki madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini ham oshiradi. Avstriyalik yozuvchi **Martin Auer**ning “Herr Balaban und seine Tochter Selda” asarida hajviy uslub asosiy poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Muallif hajviy g‘oyalarini yanada ta’sirchan qilish maqsadida xalq maqollaridan, pand-nasihatli iboralardan va stereotipik nutq birliklaridan keng foydalanadi. Quyida asarda ishlatilgan maqollar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi filologik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan maqollar bir nechta kommunikativ vazifani bajaradi:

1. **Hajviylikni kuchaytirish** – maqollar ironik kontekstda qo‘llanib, o‘quvchini kuldiradi.

2. **Xarakter yaratish** – qahramonlarning nutqida maqollar ularning milliy va ijtimoiy ruhiyatini ochib beradi.

3. **Didaktik funksiya** – maqollar orqali muallif ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat bildiradi.

Martin Auer matnlarida ko‘plab nemis xalq maqollari hajviy ohangda qayta talqin etilgan. Quyida berilgan har bir misol Sh.S.Imyaminova “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati” da berilgan o‘zbekcha ekvivalentlari orqali tahlil qilingan.

1) Viele Köche verderben den Brei.

- **O‘zbek ekvivalenti *“Oshpaz ko‘p bo‘lsa, osh kuyadi.”***

Bu fraza literal imkoniyatga ega, lekin asosiy maqsad – ***ko‘p boshqaruvchi, ko‘p maslahat – ishni buzadi*** degan maqomni yetkazish hisoblanadi. Imyaminova printsipiga ko‘ra (frazeologizmlarni tarjimada) – **idiomatik ma’noni saqlash** ustuvor ekanligi bois so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra xalqona, tushunarli ekvivalent tanlangan. Bu usul stilistik va pragmatik funksiyani saqlaydi.

2) Wer andern eine Grube gräbt, fällt selbst hinein.

- **O‘zbek ekvivalenti: *“Birovga choh qazigan o‘zi yiqilar.”***

Bu umumiy axloqiy maqol bo‘lib, o‘zbek tilidagi variant bilan semantik jihatdan to‘liq mos keladi. Imyaminova printsiplarida bunday hollarda mavjud xalq maqoliga murojaat qilinadi va ekvivalentini qo‘llashni afzal deb hisoblaydi.Bu tarjimada ham hajviy, ham didaktik ohangni ifodalashga yordam beradi.

3) Lügen haben kurze Beine.

- **O‘zbek ekvivalenti: *“Yolg‘onning oyog‘i qisqa.”*** yoki ***“Yolg‘on tez ochiladi.”***

Imyaminova frazeologizmlarni tarjima qilishda **metaforik tasvirni saqlash hamda tushunarli talaffuzni ta’minlash** tarafdori. “Oyog‘i qisqa” ifodasi o‘zbek tilida ham ishlatiladi lekin agar kontekstda o‘quvchi uchun noto‘g‘ri tushuncha tug‘ilish xavfi bo‘lsa, tarjimon izohlash yoki biroz moslashtirish (explicitation) qilishi mumkin. Va ushbu maqolni ‘‘Yolg‘onning umri qisqa’’ shaklida tarjimon o‘z lug‘atida keltirib o‘tgan.

4) Den Nagel auf den Kopf treffen.

- **O‘zbek ekvivalenti: *“Xuddi o‘rniga aniq tegdi”* / *“aslida to‘g‘ri aytdi”*** (soddaroq: ***“to‘g‘ri tanqid qildi”***).

Bu frazeologizmning maqsadi **to‘g‘ri, aniq fikrni ifodalash** bo‘lib, Imyaminova tavsiyasi: badiiy kontekstda stilistik ohangni (qattiq/emotiv) saqlab qolish muhim, shuning uchun o‘zbekchada ham o‘sha aniq, empatik ifodani beruvchi konstruktsiya tanlanadi.

5) Jemandem einen Bären aufbinden.

- **O‘zbek ekvivalenti: *“Birovga bo‘sh gap aytmoq”*** yoki ***“birovni aldagan gap bilan o‘ynatmoq”*** (ya’ni «aldamoq» kontekstida).

Imyaminova prinsiplari: **madaniy translatsiya** metafora olib tashlanib, o‘rniga aniq o‘zbek frazasi qo‘yilsa, badiiy effekt kamaymasligi kerak. (Agar

muallifning original metaforik kulguli ta’sirini saqlash zarur bo‘lsa, tarjimon ikkilamchi metod – izoh + original metafora – qo‘llashi mumkin.)

Martin Auerning “Herr Balaban und seine Tochter Selda” asari xalq maqollari vositasida kuchli hajviy yo‘nalishga ega. Nemis maqollarining o‘zbek tiliga tarjimasi jarayonida ma’no, milliy ruh va hajviylikni asrab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar bu asarda nafaqat folklor elementlari sifatida, balki ijtimoiy tanqid, kinoya va qahramonlarning psixologik portretini ochuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

O‘zbek va nemis folklorida uchrovchi bir-biriga muqobil maqollar ikki xalqning o‘zaro aloqalari, o‘xshash yaqin turmush tarzi, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlarning ta’siri o‘laroq dunyoga kelgan. Shu bois ular orasida aynan bir xillarini ham, shaklan turlicha, mazmunan o‘xshashlarini ham va shaklan biroz farqlanadigan, ammo mazmuni bir- birini takrorlaydiganlarini ham uchratish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, o‘zbek va nemis xalq maqollarini tematik jihatdan 2 guruhga ajratish mumkin: a) umuminsoniy qadriyatlar mavzusidagi; b) milliy qadriyatlar mavzusidagi maqollar.

Xulosa va takliflar. Nemis hajviy matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda maqol va matallarning o‘rni beqiyosdir. Chunki ular nafaqat folkloriy boylik, balki ijtimoiy-tarbiyaviy, estetik va hajviy funksiyani ham bajaradi. Tadqiqotdan ko‘rinadiki, tarjima jarayonida maqollarni so‘zma-so‘z emas, balki mazmuniy yadro va kulgi effektini saqlagan holda ekvivalent yoki adaptatsiya yo‘li bilan berish ustuvor hisoblanadi. Martin Auerning ***Herr Balaban und seine Tochter Selda*** asarida qo‘llangan maqollar Sh.S.Imyaminova lug‘atidagi o‘zbekcha ekvivalentlar orqali tarjima qilinganda, matnning ironik ohangi hamda didaktik maqsadi samarali ifodalanadi.

Nemis va o‘zbek maqollaridagi o‘xshashliklar ikki xalqning umumiy hayotiy tajribasi, qadriyatlari va tafakkur shakllarining mushtarakligidan dalolat beradi. Shuningdek, milliy farqlar tarjimada moslashuvchan yondashuvni talab etadi. Demak, hajviy matn tarjimasida maqol va matallarni adekvat berish tarjimonning madaniy kompetensiyasi, stilistik sezgirligi va ijodiy yondashuviga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli maqol va matallarni tarjima qilish nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim vositasi sifatida ham qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Auer M. Donishmand Balaban va uning qizi Selda haqida g‘aroyib voqealar / tarj. Sh.S. Imyaminova. – Toshkent: Zamin nashr, 2019. – 64 b.

2. Auer M. Herr Balaban und seine Tochter Selda. 222 Geschichten. – Weinheim: Beltz & Gelberg, 2002. – 192 S.

3. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini / Hrsg. R. Conrad. – 1. Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – 281 S.

4. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor: O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy me’nosi, 2013. – 320 b.

5. Rahmonov N. Turk xoqonligi. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 128 b.

6. Seiler F. Deutsche Sprichwörterkunde. – München: C.H. Beck, 1922. – 455 S.

7. Vámbéry H. Csatagaische Sprachstudien. – Amsterdam: Philo Press, 1975. – 360 S.

8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.

9. Снегирев И.М. Русские народные пословицы и притчи. – М.: Института русской цивилизации, 2014. – 528 с.

O‘ZBEK XALQ LATIFALARI VA ANEKDOT JANRINING TARJIMASHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI



Atadjanova Mashhura Baxtiyarovna,
Urganch RANCH texnologiya universiteti,
“Jahon tillari” kafedrasi o‘qituvchisi
mashhura.atajanova@list.ru

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq latifalari va anekdotning rivojlanishi va ularni jahon adabiyoti tarjimashunosligida tutgan o‘rni va ularning yetakchi namunalari haqida fikr yuritiladi. Latifa va anekdot atamalariga izoh berilib, yetuk olimlar fikrlari keltirib o‘tiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются развитие узбекских народных латиф и анекдотов, их место в мировой литературе и переводоведении, а также ведущие образцы этих жанров. Даются объяснения терминов ‘‘латифа’’ и ‘‘анекдот’’, приводятся мнения крупнейших ученых.*

Abstract. *This article examines the development of Uzbek folk “latifas” and anecdotes, their place in world literature and translation studies, and prominent examples of these genres. Definitions of the terms “latifa” and “anecdote” are provided, alongside the views of leading scholars.*

Kalit so‘zlar. *Latifa, latoif, zarifa, ajiba, paskvil hajv, anekdot.*

Ключевые слова: *латифа, латифы, зарифа, аджиба, пасквильная сатира и анекдот.*

Keywords*: “latifa”, “latifas”, “zarifa”, “ajiba”, lampoon/satire, and anecdote.*

Kirish. O‘zbek xalqining azaldan o‘lmas an’analarini o‘zida mujassam etgan hajviy matnlar mavjud bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi, takomillashuvi va boyitishi insoniyat jamiyati bilan hamkorlikda amalga oshirilib, dolzarb voqealarni aks ettirishga xizmat qilgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida adabiy merosda ham saqlanib qolgan hajviy janrlardan biri latifa hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘zbek latifalarini va ularning nemis tiliga tarjima qilinish jarayonini chuqur anglash, ularning tarixiy ildizlari, hikoya tuzilmalari, mavzu chuqurligi va jahon adabiyotining keng kontekstida joylashishini o‘rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, ko‘plab yevropa adabiyotlarida o‘zbek

xalq latifalarining ekvivalenti sifati tilga olinadigan anekdot janriga ham izoh berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zining mazmunli va ko‘pincha hazilkash bayoni bilan mashhur bo‘lgan o‘zbek xalq latifalari jamiyat ijtimoiy-madaniy va tarixiy voqealarini aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini bajaradi. Avlodlarga o‘tib kelayotgan bu hikoyalar xalq og‘zaki ijodi, axloqiy saboqlar va inson tabiatini sinchkovlik bilan kuzatishni aynan latifa janri o‘zida mujassam qilgan. Ularning qisqaligi va soddaligi ko‘pincha adolat, insoniy ahmoqlik va shaxslararo munosabatlarning murakkabliklari kabi universal mavzular bo‘yicha taqdim etayotgan tushunchaning chuqurligini inkor etadi.

Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa surishda kulguli latifalar juda samarali vosita hisoblanadi. ‘‘Latifa’’ atamasi arabcha ‘‘*lutf*’’ so‘zidan olingan bo‘lib, *mutoyiba*, *hazil*, *nozik fikrlash*, *yaxshilik qilmoq*, *muruvvat ko‘rsatmoq*, *sharaflamoq* ma’nolarini anglatadi [1].

‘‘O‘zbek tilining izohli lug‘ati’’ da **latifa** (latif.- nazokat, noziklik; oqilona so‘z; ot) kulguli voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya [2] deb izohlangan. Latifa termini o‘rnida dunyo xalqlari asosan ‘‘anekdot’’ terminini ishlatishgani uchun ba’zi manbalardagi anekdot so‘zining ma’nolariga ham e’tibor qaratib o‘tdik.

Xususan, ‘‘Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati’’ da anekdotga quyidagicha ta’rif berilgan: (gr. Anekdotos- bosib chiqarilgan) – g‘alati voqea, kulguli hodisa to‘g‘risidagi maroqli hikoya. Kulguli tasodiflarga asoslanib tuzilgan hikoya yoki biror asardagi ayrim epizod ham anekdot yoki anekdot hikoyasi deyiladi.

Anekdotlar adabiy va lingvistik fenomen sifatida XVII-XVIII asrlarda ilmiy o‘rganila boshlandi. Ilk tadqiqotchilar Volter hajviy hikoyalar va anekdotlarning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilgan. J.Grimm nemis folklorshunosligi doirasida anekdotlarni xalq og‘zaki ijodining bir turi sifatida o‘rgangan. M.Tven anekdotlarni adabiy janr sifatida rivojlantirgan [3].

XX asrda anekdotlar lingvistika, psixologiya va sotsiologiya doirasida keng tadqiq etildi. Tilshunos S. Freyd *hajv va ongsiz jarayonlar* asarida anekdotlarning psixoanalitik ahamiyatini tahlil qilgan. M.Nitshe nemis folklorshunosligi doirasida anekdotlarni klassifikatsiya qilgan. A. Jolles anekdotlarni ‘‘oddiy janrlar’’ sifatida tasniflagan. U. Eko semiotik nuqtayi nazardan anekdotlarning ramziy ma‘nolarini tadqiq qilgan [4].

XX asrda anekdotlar ideologik nazorat ostida bo‘lsa ham, ularni folklor, lingvistika va sotsiologiya nuqtayi nazaridan o‘rganish davom etdi. M. Baxtin hajviy janrlar, jumladan, anekdotlarni ‘‘karneval madaniyati’’ doirasida tadqiq qilgan. V.Propp anekdotlarning strukturaviy tahlilini amalga oshirgan. B. Putilov rus xalq hajviy hikoyalari va anekdotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan. A.Troitskiy anekdotlarning ijtimoiy-siyosiy rolini o‘rgangan [5].

O‘zbek adabiyotida anekdot mustaqil janr sifatida alohida rivojlanmagan bo‘lsa-da, u latifa va hajviy hikoyalarning tarkibiy qismi sifatida keng tarqalgan. Hajviy adabiyotning rivojlanishi, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida

A.Qahhor, G‘.G‘ulom kabi yozuvchilar ijodida muhim o‘rin egallagan. Bu hikoyalarda hayotning turli qirralari kulgi orqali aks ettiriladi, biroq ular nafaqat hazil uchun, balki jiddiy ijtimoiy va ma‘naviy muammolarni yoritish uchun ham xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nemis tarjimashunosligida hajviy matnlarni tarjima qilish muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u lingvistik, semantik va pragmatik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. O‘zbek latifalarining nemis tiliga tarjima qilinishida lingvistik tafovutlar, madaniy kontekstlarni yetkazish muammolari va pragmatik xususiyatlarni saqlash masalalari asosiy qiyinchiliklarni tashkil etadi. Ushbu dissertatsiya o‘zbek latifalarining nemis tiliga tarjima jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilib, tarjima usullarini va natijalarini baholaydi [6].

Dastlabki tarjimalarni amalga oshirgan tarjimonlar va tadqiqotchilar asosan XX asrning boshlarida Germaniya Demokratik Respublikasi bilan ilmiy-madaniy hamkorligi doirasida faoliyat yuritgan. Ushbu davrda o‘zbek latifalari nemis tilida chop etilgan to‘plamlar va adabiy jurnallar orqali taqdim etilgan.

Tarjima jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, adaptatsiya, ekspansiya va izohlash kabi usullar qo‘llanadi. Nemis tarjimashunosligida hajviy matnlarning tarjimasi pragmatika, intertekstual aloqalar va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bu borada skopos nazariyasi, dinamik ekvivalentlik va pragmatik yondashuv asosiy metodologik yondashuvlar hisoblanadi.

XX asrda (1922–1991 yillar oralig‘ida) o‘zbek adabiyotining tarjima jarayoni markazlashgan holda amalga oshirildi. Ushbu davrda o‘zbek xalq anekdotlari avval rus tiliga tarjima qilinib, so‘ngra boshqa tillarga, jumladan, nemis tiliga o‘tkazildi. Biroq, bu tarjimalar jarayonida kuchli ideologik senzura mavjud bo‘lib, milliy o‘ziga xosliklar ko‘pincha qisqartirildi yoki o‘zgartirildi. Masalan, anekdotlardagi diniy yoki milliy mavzular siyosiy sabablarga ko‘ra o‘zgartirilgan yoki butunlay olib tashlangan.

1920-1930-yillar: XX asrning dastlabki yillarida tarjima faoliyati asosan rus tiliga qaratilgan edi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining namunalarini rus tiliga tarjima qilish orqali boshqa ittifoqdosh respublikalarga tanishtirish maqsad qilingan.

1940-1950-yillar: Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda tarjima ishlari sekinlashdi. Biroq, urushdan keyingi yillarda madaniy almashinuvni kuchaytirishga intildi va bu davrda o‘zbek adabiyoti namunalarini boshqa tillarga, jumladan, nemis tiliga tarjima qilishga e’tibor berildi.

1960-1980-yillar: Bu davrda O‘zbekiston va Germaniya Demokratik Respublikasi o‘rtasida madaniy aloqalar kuchaydi. Natijada, o‘zbek adabiyoti, jumladan, xalq anekdotlari nemis tiliga tarjima qilina boshladi. Biroq, bu tarjimalar ko‘pincha rus tilidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu esa asl matnning ba’zi madaniy va lingvistik xususiyatlarining yo‘qolishiga olib kelgan.

I.Ivanov rus tiliga tarjima qilgan taniqli tarjimonlardan biri bo‘lib, uning tarjimalari keyinchalik nemis tiliga o‘tkazilgan.

H.Müller nemis tarjimoni bo‘lib, u rus tilidan nemis tiliga o‘zbek anekdotlarini tarjima qilgan. Uning tarjimalari asosan 1970-yillarda nashr etilgan.

1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarjima jarayonlari erkin tus oldi. Endilikda o‘zbek xalq latifalari bevosita o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilina boshladi. Bu davrda milliy o‘ziga xosliklarni saqlab qolish va madaniy xususiyatlarni to‘liq yetkazish maqsad qilingan.

1990-yillar: Mustaqillikning dastlabki yillarida tarjima ishlari asosan individual tashabbuslar asosida amalga oshirildi. O‘zbek anekdotlarini nemis tiliga tarjima qilishda milliy xususiyatlarni saqlashga alohida e’tibor berildi.

2000-yillar: Bu davrda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi madaniy aloqalar yanada kuchaydi. Natijada, o‘zbek anekdotlarini nemis tiliga tarjima qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirildi.

G.Karimova o‘zbek tarjimoni bo‘lib, u 1990-yillarda o‘zbek anekdotlarini nemis tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullangan. Uning tarjimalari milliy xususiyatlarni saqlashga qaratilgan.

M.Schmidt nemis tarjimoni bo‘lib, u 2000-yillarda o‘zbek anekdotlarini nemis tiliga tarjima qilishda faol ishtirok etgan. Uning tarjimalari Germaniyada nashr etilgan.

Nemis olimlari o‘zbek latifalariga qiziqish bildirgan bo‘lib, ularni nafaqat hajviy matn sifatida, balki xalq tafakkurining o‘ziga xos namunasi sifatida o‘rganganlar. Ayniqsa, latifalarning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatlari nemis tahlilchilarini qiziqtirgan.

Tahlil va natijalar. Hajviy matnlarni tarjima qilish murakkab jarayon bo‘lib, bunda leksik-semantik xususiyatlar, stilistik o‘ziga xosliklar va madaniy kontekst hisobga olinadi. Nemis tarjimashunosligida o‘zbek latifalarini tarjima qilishda quyidagi tamoyillar va usullar qo‘llaniladi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima: bu usul leksik va sintaktik jihatdan asl matnga maksimal darajada yaqin bo‘lishni ta’minlaydi. Biroq, madaniy kontekst yetarlicha farq qiladigan hollarda bu usul samarali bo‘lmasligi mumkin. O‘zbek latifalarida uchraydigan metaforalar, iboralar yoki xalqona hikmatlar nemis tiliga aynan o‘girilganda, ularning ma’nosi buzilishi yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

Misol:

O‘zbek tilida: ***“Ikki qo‘lni qovushtirib o‘tirish”*** (Hech qanday harakat qilmaslik)

Nemis tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima: ***‘‘Mit verschränkten Händen sitzen’’*** Nemis tilida bu ifoda aynan o‘zbek tilidagi ma’noni bermaydi, shuning uchun boshqa usullarga ehtiyoj tug‘iladi.

Adaptatsion tarjima: ushbu usul madaniy tafovutlarni hisobga olib, matnni moslashtirishga asoslanadi. O‘zbek latifalaridagi mahalliy realiyalar, tarixiy yoki diniy tushunchalar nemis auditoriyasi tushunishi mumkin bo‘lgan ekvivalentlar orqali ifodalanadi.

Adaptatsiya jarayonida tarjimon latifaning umumiy ma’nosini saqlab, uni nemis tilida tushunarli bo‘lishi uchun qayta ishlaydi. Masalan, o‘zbek latifalarida mahalliy xarakterlarga (Nasriddin Afandi, Cho‘lpon) asoslangan hikoyalar nemis auditoriyasi uchun tushunarli bo‘lishi uchun boshqa mashhur hajviy personajlar bilan almashtirilishi mumkin.

Misol:

O‘zbekcha latifa: ***Nasriddin Afandi bozorga boribdi. U yerdan oldin sigir, keyin esa o‘zini sotib olibdi.***

Nemischa adaptatsiya: ***Till Eulenspiegel geht auf den Markt und kauft zuerst eine Kuh, dann sich selbst.***

Bu holatda **Nasriddin Afandi** obrazi nemis tilidagi mashhur hajviy personaj **Till Eulenspiegel** bilan almashtirilgan, chunki nemis auditoriyasi uchun Afandining milliy xarakteri tushunarli bo‘lmasligi mumkin.

Lokalizatsiya – tarjima jarayonida matnni ma’lum bir madaniyatga moslashtirish. O‘zbek latifalarida mahalliy qahramonlar, an’ana va tarixiy shaxslar bo‘lishi mumkin, ularni nemis madaniyatiga yaqinroq elementlar bilan almashtirish yoki tushuntirish talab etiladi.

Lokalizatsiya usullari:

Ismlar va joy nomlarini almashtirish – o‘zbek madaniyatiga oid tushunchalarni nemis madaniyatidagi ekvivalent tushunchalar bilan almashtirish.

Madaniy kontekstni tushuntirish – agar latifada madaniy yoki tarixiy kontekst bo‘lsa, qo‘shimcha tushuntirish kiritish.

O‘zbek latifalari ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi, tarixiy voqealar yoki diniy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tarjima qilishda intertekstual unsurlarni saqlash katta muammo tug‘diradi.

Intertekstual unsurlar quyidagi shakllarda uchraydi:

Tarixiy shaxslar va voqealar: O‘zbek latifalarida Amir Temur, Nasriddin Afandi, Alisher Navoiy kabi shaxslar haqida hajviy hikoyalar bo‘lishi mumkin. Agar ushbu shaxslar nemis auditoriyasiga notanish bo‘lsa, tarjima jarayonida ularning nomlari tushuntirilishi yoki o‘xshash obrazlar bilan almashtirilishi mumkin.

Folklor va diniy matnlar: Islomiy qadriyatlarga asoslangan latifalar nemis jamiyatiga tanish bo‘lmagan tushunchalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon qo‘shimcha izoh va sharhlar kiritishiga to‘g‘ri keladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek xalq latifalarini nemis tiliga tarjima qilish jarayoni lingvistik va madaniy tafovutlar sababli muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tarjima jarayonida milliy madaniy xususiyatlarni yetkazish, semantik va stilistik tafovutlarni moslashtirish hamda humor elementlarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir xalqning hajviy tafakkuri va kulgi estetikasi o‘ziga xos bo‘lib, tarjimada ularning adekvat ifodasini ta’minlash tarjimonlardan chuqur lingvistik bilim, madaniyatlararo kommunikatsiya tajribasi va badiiy mahorat talab qiladi.

Shuningdek, o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi struktural farqlar ham tarjima jarayonida qo‘shimcha murakkabliklar tug‘diradi. O‘zbek tili

agglutinativ tizimga ega bo‘lib, ko‘pincha so‘z yasalishi va fleksiyalarga asoslangan humor shakllaridan foydalanadi. Bunga javoban, nemis tili infleksion xususiyatga ega bo‘lib, grammatik murakkabliklar orqali hajviy ma’no yaratish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, o‘zbek xalq latifalarining nemis tiliga adekvat tarjimasini ta’minlash nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishi sanaladi.

O‘zbek latifalarining tarjimalari bilan tarjimashunoslikda yetakchi o‘rinlarda N. Bekirovaning “Translating Humor: The Global Journey of Ozbek Anekdotes” asari ushbu madaniy boy hikoyalarni jahon auditoriyasiga tarjima qilishning qiyinchiliklari va nozik tomonlarini ko‘rib chiqadi. J.Smit “Jahon adabiyoti va xalq hikoyalari taqdiri” asarida o‘zbek latifalarining jahon adabiyotida qanday qabul qilinishini o‘rganadi, ularning turli madaniy sharoitlarda qanday moslashtirilgani va talqin qilinganligi haqida fikr yuritadi. Nasriddin afandi latifalarini o‘zbek tilidan olmon tiliga tarjimasi 1911 yildan boshlangan edi. O‘zbek tilidan olmon tiliga 1991 yilda ‘‘Der Sündensack (Anekdoten, Schwänke und Witze von Nasriddin Afandi aus Uzbekistan)’’ (tarjimonlar: Otaboy Jumaniyozov va Haydi Shtaynlar) hamda, 1995- yilda ‘’Wer die Maus unter dem Arm kitzelt (Usbekischer Volkshumor)’’ (tarjimon:Yo‘ldosh Parda), asarlari tarjima qilingan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek latifalari nafaqat O‘zbekiston madaniy merosining muhim qismi, balki jahon adabiyotining boy rang-barangligiga ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Ular hikoyalarning vaqt va joydan oshib ketish, ko‘ngil ochish, ta'lim berish va ilhomlantirish, madaniy va lingvistik tafovutlarni bartaraf etish kuchini namoyish etadi. Shunday qilib, ular davom etayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim mavzu bo‘lib qolmoqda va butun dunyo bo‘ylab o‘quvchilar va tinglovchilar uchun zavq va donolik manbai bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Madayev. O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: Mumtoz so’z, 2010, 96 b.

2. O’zbek tilining izohli lug’ati. 2-jild. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007, 488 b.

3. Voltaire. Dictionnaire Philosophique. 1764. Deutsche Mythologie. 1835 // Twain. M. How to Tell a Story. 1895.

4. Freud. S. Der Witz und seine Beziehung zum Unbewußten. 1905//Jolles. A. Einfache Formen. 1930//Eco. U. Lector in Fabula. 1981.

5. Baxtin M.M. Tvorchestvo Fransua Rable. 1965 // Propp V. Morfologiya skazki. 1928 // Troitsky A. Back in the USSR. 2000.

6. Munday J. ***Introducing Translation Studies: Theories and Applications.*** London: Routledge. 2016.

OSHIQ ERKIN ASARLARI TILIDAGI DIALEKTIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLAR

Dildoraxon Sultanova Azamat qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy adabiyot tilining boyligi uchun tilning lug‘at tarkibidagi turli xil leksemalarning miqdor jihatdan ko‘pligi hamda ma’no doirasining kengligi va torligiga qarab ham belgilanadi. Oshiq Erkin ijodida qo‘llanilgan ana shunday noadabiy qatlam, aniqrog‘i, til vositalari sirasiga kiruvchi dialektizmlar tahlilga tortilgan.*

Аннотация. *В данной статье богатство языка художественной литературы определяется количественным обилием различных лексем в его словарном запасе, а также широтой и узкостью значений. Анализируется такой нелитературный слой, или, скорее, диалектизмы, которые входят в число языковых средств, используемых в творчестве Ашика Эркина.*

Abstract. *In this article, the richness of the language of fiction is determined by the quantitative abundance of various lexemes in the vocabulary of the language, as well as the breadth and narrowness of the meaning. Such a non-literary layer, or rather, dialectisms, which are included in the language tools used in the work of Ashiq Erkin, are analyzed.*

Kalit so‘zlar: *dialektizmlar, noadabiy qatlam, adabiy til, o‘g‘uz lahja, leksemasi, polisemantik xususiyatlar, fonetik dialektizm, grammatik dialektizm, semantik dialektizm.*

Ключевые слова: *диалектизмы, нелитературный слой, литературный язык, огузский диалект, лексема, полисемантические особенности, фонетический диалектизм, грамматический диалектизм, семантический диалектизм.*

Keywords: *dialectisms, non-literary layer, literary language, Oghuz dialect, lexeme,*

polysemantic features, phonetic dialectism, grammatical dialectism, semantic dialectism.

KIRISH. Dialektizmlar umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo‘lib, asosan, jonli so‘zlashuv nutqiga xos leksemalar hisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e’tibor qaratiladi. Shuning uchun ham, tilshunoslikka oid ko‘pgina tadqiqotlarda dialektizmlar, shevaga xos so‘zlar umumxalq doirasidagi nutq turi sifatida qarab kelingan va adabiy til me’yorlariga mos holatlarda qo‘llanilishi haqida fikrlar bildirilgan.

Umuman, dialektizmlar badiiy asarlarda turli maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, ularning uslubiy vazifalarni bajarib kelishi bilan badiiy asar tilining boy hamda jozibador bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ular adabiy tilning funksional nutq doirasiga o‘tadi, o‘sha uslubga mos emotsional bo‘yoq oladi, xususan, “oddiy so‘zlashuv stiliga xos bo‘yoq oladi” – degan fikrlar ham asoslidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Oshiq Erkin asarlari tilining lingvokulturologik tahlili o‘zbek tilshunosligida badiiy matn jozibadorligini lisoniy-madaniy omillar uyg‘unligida o‘rganish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Lingvokulturologik birliklar qatorida Xorazm hududiga xos dialektal birliklar ham alohida ahamiyatga ega. *Gizlänìb* [gizlanib], *bičibsän [bichibsan], qar ätmaq* [qor atmoq], *čaşadì* [choshodi], *äläştirmäŋ* [alashtirmang], *dinǯaqmisan* [dinjoqmisan], *jaşűllì* [yoshulli], *čìqan* [chiqon], *kejvänì* [keyvani], *häzlik* [hazlik], *koz ajdin* [ko‘z oydin], *čogìrmä* [cho‘girma], *täqiysì* [taqiyosi], *ǯűndik* [jundik], *gommä* [go‘mma], *iǯǯan* [ijjon], *ǯoxarìxordä* [jo‘xorixo‘rda] va *bal* [bol] kabi dialektizmlarning she’riy misralarida ifodalanishi yozuvchining individual uslubi, so‘zning estetik vazifasi hamda shevaga xos birliklarning adabiy matnda ifodalanish xususiyatlarini aniqlashda alohida amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, etimologik tahlil va lingvomadaniy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar Oshiq Erkin asarlaridagi dialektitik birliklarning ma’noviy xususiyatlarini har tomonlama va tizimli o‘ganish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shoir ijodida uchraydigan dialektlar ko‘pincha harakat-holatni ifodalaydi:

O‘zga so‘zlariga darhol uchibsan,

O‘ylamayin bo‘lak reja *bichibsan,*
Qanot bog‘lab samolarni quchibsan,
Dildoringiz o‘zim bo‘lay degan kim? [MTHO, 82]

Ushbu misrada ham *bičibsän [bichibsan]* – *bichmoq* fe’li Xorazm shevasiga xosdir. Lekin bichmoq fe’li o‘zbek adabiy tilida tikuvchilik faoliyatida ishlatiladigan fe’l bo‘lib, *“kuylakni bichmoq”* tarzida qo‘llaniladi. Shoir tuzmoq leksemasi o‘rnida bichmoq leksemasini qo‘llagan va tilimizdagi polisemantik xususiyatlarni ham ochib berishga harakat qilgan.

Idalar gullasa, qizlar *choshodi,*
Gap otishib hadlarinnan oshadi.
Tug‘yon urib tomirlarda qonimiz,
Yurak qurg‘ur daryo bo‘lib toshadi. [MTHO, 90]

Xalqimiz orasida “*idalar gullasa, qizlar choshodi”, “Idani teyinda uxlosang, jilli bo‘lasan”* degan naql bor. Bu aslida ida gulining hidi boshni aylantiradigan darajada kuchli tarqalishi hisobiga paydo bo‘lgan. Idaning o‘zi ham yovvoyi butalar turkumiga kiradi. *Čaşadì* [choshodi] dialekti yo‘rig‘idan, qonun qoidadan chiqib esidan og‘moq degan ma’noda ishlatilgan. Shevamizda *ida* so‘zi bilan bog‘liq yana bir ibramiz shuki*, “itdan olib, idalikka soldi”,* ya’ni idaning tikanlari ko‘p va qattiq bo‘lganligi bois, it tishlagandan ham yomon ahvolga tushdi degan ma’noni beradi. Ida so‘zi o‘zbeklarda salbiy ma’no ifodalaydi.

Quyidagi misrada qo‘llangan *qojmadìŋìz* [qo‘ymadingiz] so‘zi ham o‘zbek millatiga xos bo‘lgan izzat, iltifot va ikromga javoban aytiladigan so‘zlar sirasiga kiradi. Rozilik ma’nosini bildiradi.

Gaplashaylik, yuring bir deb qo‘ymadingiz, qo‘ymadingiz,
Go‘zal suhbat quring bir deb qo‘ymadingiz, qo‘ymadingiz. [MTЙ, 57]

Shoir ijodida yuqoridagi misralarga hamohang, shevamizda kundalik hayotda ishlatiladigan nutqiy odat undov so‘zlarini nasriy va nazmiy asarlarida birdek qo‘llay olgan. Oshiq Erkinning Xudoybergan Devonov xotirasiga bag‘ishlangan “Chaqmoq” hujjatli qissasida ham Xorazm shevalariga oid dialektizmlar talaygina.

…Shunchaki, *bir gűriŋläšìb* [guringlashib] *olay* dedim… [Ch, 30] Gaplashib olaylik, maslahatlashib olaylik variantlari bor.

O‘g‘uz lahjasida turdosh otlar adabiy tildan farqli ishlatiladi. *Aγa* [og‘a] – *aka, ota – dada, äpkä* [apka] – *opa, daji* [doyi] – *tog‘a, čiqan* [chiqon] – *dugona, bobo – ota, buvi – ana, kelin – galin, qayin singil – qajin bikä* [qayin

bika], *qayn aka yoki uka – qajin ағa* [qayn og‘a] variantlarda ishlatiladi. Namunalar:

Qomati zebo laylo *chiqonl*aridan a’lo,
Lablari uni shakkar, ko‘zlari uni shahlo. [MTЮ, 61]
O‘yin tushsa tovus kabi xiromon,
Hazzatar jon, *hazzatur* ruh-romon,
Hamma joying yayrab ketar farovon,
Jon bag‘ishlar *og‘asining* sozina,
Besh ketarman shu sanamni nozina. [MTЙ, 35]

Ushbu misrada ham leksik va fonetik hodisalar birday qo‘llanilgan. Xorazmda *häzzät* [hazzat] dialektizmi – mazza qilmoq ma’nosida ishlatiladi. Faollik darajasi yuqori bo‘lgan bu so‘z gemminatsiya hodisasiga uchragan. Bu so‘zning asosi haz z harfi ikkilanishi natijasida yuzaga kelgan. Shevadagi sinonimlari haz, hazlikdir. Shoir nafaqat madaniyatimizni aks ettiruvchi dialektlardan, balki iboralardan ham unumli foydalanib, asarlariga singdirib yuborgan. “Besh ketmoq” frazemasi “qoyil qolmoq” ma’nosini beradi. Xorazmda baholashning eng yuqori darajasi sifatida besh soni faol ishlatilgan. Bugungi kunda qo‘llanilish doirasi toraygan.

Xorazm kiyim-kechaklarini ifodalovchi so‘zlar ham o‘ziga xos bo‘lib, boshqa joyda uchramaydigan *cho‘girma, taqiyosi / taxyosi* bosh kiyimlari hududning o‘ziga xos madaniyatini aks ettiruvchi lingvokulturemalari hisoblanadi. Nomlanishi bir xil bo‘lsa-da, materiali, naqshlari va tayyorlanish usuli bilan farq qiladi. Yuqoridagi misrada bosh irg‘ab birikmasi ham salomlashi paytida hosil bo‘ladigan odatlardan biri hisobanadi va hurmat ma’nosini ifodalaydi. Insonlar ko‘z va bosh orqali muloqot qiladi. Cho‘girma, lechak va taqyo so‘zlarining o‘zbek adabiy tilida ekvivalenti yo‘q.

Keyingi misrada ham t tovushining d tarzida qo‘llangan holatni kuzatamiz. *Dindirmoq* - qutulmoq, tashlab, tark etib, voz kechmoq ma’nolarini beradi. *Dindirmoq* leksemasining omonimlari ham bor. 1) dindirmoq – ovutmoq yg‘idan to‘xtatmoq. Bartaraf qilmoq. 2) ishlarini yumushlarini yakunlamoq. 3) qutulmoq, tark etmoq. Shoir dinjoqmisan dialektini qo‘llash orqali tinchlanmoqchimisan demoqchi, bizningcha

Haddan oshirib sitamni, o‘ldirib *dinjoqmisan*,
Hasratingda bo‘lg‘onimcha bo‘ldirib dindirjoqmisan.[MTЙ,26]

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Oshiq Erkin ijodining aksariyat qismi ishqiy mavzularda bo‘lib, u muhabbatni, sevgini kuylashga qaratilganligi bilan bir qatorda uning ijodida, she’rlarida Xorazm shevasiga xos bo‘lgan o‘ziga xos tarzdagi so‘zlarni uddaburonlik bilan qo‘llaganini payqash qiyin emas. Quyida endi ana shu kabi she’rlardan parchalar keltirishga harakat qilamiz.

To‘rtmi – besh kunlik *qo‘nog‘ingman* axir,
Tutma lutfingni darig‘ mehmoninga.

Keltirilgan she’riy parchaning birinchi misrasidagi *qonaγ‘ŋman* [qo‘nog‘ingman] so‘zi aslida Xorazm shevasiga xos bo‘lmasa-da, hududiy jihatdan Xorazm va Qoraqalpog‘istonning yonma-yon joylashgani natijasida, muhitning ta’sirida mazkur so‘z Xorazm shevasida ham parallel qo‘llaniladigan leksik parallellarni yuzaga keltirib, mazkur so‘zning o‘zbek adabiy tilidagi varianti mehmoningman degan ma’noni ifodalamoqda. Keyingi misralarda ham qipchoq lahjasiga mansub *barajiq* [boroyiq] dialekti – boraylik adabiy tilda qo‘llanadi. Bu ham o‘ziga xos alohida jihatni aks ettiradi.

Yoqolarini bir-bir chok aylasin raqiblar,
Barin parishon aylab, ishq bog‘ina *boroyiq*. [MTЙ, 38]

“Har qanday nutq ko‘rinishi bu – o‘zida muayyan ijtimoiy - madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs faoliyatining natijasidir”.

Oshiq Erkin o‘z she’rlarida Xorazm shevasiga xos bo‘lgan dialektizmlarni ham mahorat bilan qo‘llagan:

Qiynamas bulbulini gulg‘uncha ham,
Ofatijon bo‘lmasang, yor, buncha ham,
Oshig‘ingni vasliga yetkazmayin,
Qaqshatib qo‘ymoq bo‘lurmu shuncha ham,
Hormading izingda zor *g‘izillatib*,
Jismi jonimni yomon *jizzillatib*. [KG, 75]

Ko‘rinib turganiday shoir qo‘llagan ushbu satrlardagi *qaqshatib, hormading, g‘izzillatib va jizzillatib* so‘zlari Xorazm shevasiga xos so‘zlardir, qaqshatib so‘zini shoir qiynab, azob berib kabi ma’nolarda qo‘llagan bo‘lsa, hormading so‘zining o‘zbek adabiy tilidagi ekvivalenti charchamading degan ma’noni ifodalamoqda.

XULOSA.

Oshiq Erkin she’riyati, uning asarlari tili o‘ziga xos badiiy uslubda yozilgan. Shunga ko‘ra, uning she’riyati tili badiiy va lingvistik jihatdan

o‘rganilishga loyiq, ular jiddiy tadqiqotlarga to‘la material bo‘la oladi va ana shu xususiyati bilan u hali ko‘plab alohida va jiddiy izlanishlar uchun obyekt bo‘la oladi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, shoir Oshiq Erkin o‘z asarlari tilida *dapsinishib, bodimni, burtini, chiqonlaringni, havasini gatirib, asirib, dodimas, manglayi sho‘r, sas, cholip kabi* ko‘plab dialektizmlardan keng foydalangan. Uning she’riyati tilida uchragan dialektizmlar turli maqsadlarda qo‘llanilgani bilan ajralib turadi: a) makonga munosabat; b) xalq tili va mahalliy koloritga munosabat; d) ta’sirchanlikni, xalqchillikni ifodalash kabilar. Shoir asarlarini lingvokulturologik planda o‘rganish milliy qadriyatlarimizni avloddan avlodga o‘tishiga va tilimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – III tom. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.65.

2. Norboyeva Sh., Sa’dullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari lug`ati. – Urganch. 2024. – B. 131.

3.Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиси нашриёти , 1961. – Б 23.

4.Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: 2002. – Б. 165.

5.Звегинцев В. А. / Иванова С. В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ... док. филол. наук. – Уфа, 2003. – С. 364

6.Файзуллаев Б. Бадиий асарларда диалектизмлар. – Тошкент, 1979. – Б. 31.

7.Худойберганов Р.Ю., Ўрозова Н. Хоразм шеваларидаги фразеологимларнинг ўргалишига доир // филологик тадқиқотлар. – Урганч, 2011. – Б. 67.

8.Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 28.

9. Шомақсумов А. Ўзбек тил стилистикаси. – Тошкент, 1974. – Б 16.

PAREMIOLOGIK BIRLIK LISONIY-SEMIOTIK KATEGORIYA SIFATIDA: CHEGARALASH MEZONLARI VA XORAZM O‘G‘UZ SHEVALARI MATERIALI

Ismailova Anaxon Kamoladdin qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Maqolada paremiologik birlikning lisoniy-semiotik kategoriya sifatidagi maqomi tahlil qilinadi. Muallif paremiyani frazeologik birlikdan hamda erkin so‘z birikmasidan chegaralashning to‘rt mezonini – umumlashgan semantika, sintaktik tugallanganlik, barqarorlik va kognitiv-madaniy yuk – ajratadi va ularni Xorazm o‘g‘uz shevalaridan olingan material asosida sinovdan o‘tkazadi. Tadqiqot manbasi 969 birlikdan iborat dialektal korpus bo‘lib, undan olingan misollar har bir mezonning amal qilish chegarasini ko‘rsatadi. Maqolada paremiyaning propozitsional, pragmatik va madaniy qatlamlari o‘zaro munosabati masalasi ham ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В статье анализируется статус паремиологической единицы как языково-семиотической категории. Автор выделяет четыре критерия отграничения паремии от фразеологической единицы и свободного словосочетания – обобщённая семантика, синтаксическая завершённость, устойчивость и когнитивно-культурная нагрузка – и проверяет их на материале огузских говоров Хорезма. Источником исследования служит диалектный корпус из 969 единиц; приведённые примеры показывают границы действия каждого критерия. Рассматривается также вопрос о соотношении пропозиционального, прагматического и культурного слоёв паремии.*

Abstract. *The article examines the status of the paremiological unit as a linguo-semiotic category. Four criteria for distinguishing a proverb from a phraseological unit and a free word combination are identified – generalised semantics, syntactic completeness, stability and cognitive-cultural load – and tested against material from the Oghuz dialects of Khorezm. The study draws on a dialectal corpus of 969 units; the examples cited demonstrate the operational limits of each criterion. The relationship between the*

propositional, pragmatic and cultural layers of the proverb is also considered.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, paremiologik birlik, maqol, matal, frazeologik birlik, umumlashgan semantika, dialektal paremiologiya, Xorazm o‘g‘uz shevalari.*

Ключевые слова: *паремиология, паремиологическая единица, пословица, поговорка, фразеологическая единица, обобщённая семантика, диалектная паремиология, огузские говоры Хорезма.*

Key words: *paremiology, paremiological unit, proverb, saying, phraseological unit, generalised semantics, dialectal paremiology, Oghuz dialects of Khorezm.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning ustuvor mavqega ega bo‘lishi barqaror til birliklarini tadqiqot markaziga chiqardi. Xalq donishmandligining lisoniy shakllari – maqol, matal va paremiyalashgan aforizmlar – ana shu birliklarning eng barqaror qatlamini tashkil etadi. Ammo ushbu qatlamning til tizimidagi o‘rnini belgilash masalasi bugungacha yakuniy yechimini topgan emas.

Muammoning mohiyati atama chalkashligida emas, birliklarning lisoniy tabiatiga baho berishdadir. Paremiya frazeologik birlikning bir turimi yoki mustaqil kategoriyami? Bu savolga berilgan javob butun tadqiqot metodologiyasini belgilaydi: birinchi holatda paremiya frazeologiya usullari bilan, ikkinchisida esa alohida apparat yordamida o‘rganiladi. Mazkur maqolada savol dialektal material asosida hal etiladi, chunki adabiy til korpusi me’yorlashtirish jarayonidan o‘tgani sababli chegaraviy holatlarni yashiradi; sheva materiali esa ularni ochiq qoldiradi.

Tadqiqot manbasi sifatida Xorazm o‘g‘uz shevalaridan to‘plangan 969 paremiologik birlikdan iborat korpus olindi. Korpus to‘rt manbadan tashkil topgan: «Xorazm folklori» seriyasining XI tomi, H. Vamberi XIX asrda yozib olgan materiallar, Komil Avazning «Mo‘jaz maqollar va naqllar» to‘plami hamda Xorazm shevalari maqollarining izohli lug‘ati.

Atama va uning tarixiy taraqqiyoti. Paremiologiya atamasi yunoncha *paroimia*, ya’ni hikmatli so‘z, zarbulmasal hamda *logos*, ya’ni ta’limot so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Dastlab u diniy-axloqiy matnlarni

izohlash amaliyoti doirasida qo‘llangan; XIX asrdan boshlab esa folklorshunoslik va tilshunoslik atamasi sifatida mustahkamlangan.

Atamaning ilmiy muomalaga kirishi turli milliy an’analarda turli tezlikda kechdi. Rus tilshunosligida G.L. Permyakovning tuzilmaviy paremiologiyaga oid ishlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi: olim maqollarni klishelashgan belgilar tizimi sifatida tavsiflab, ularning ostida universal mantiqiy sxemalar yotishini asoslab berdi[1]. G‘arb an’anasida W. Miederning umumlashtiruvchi qo‘llanmasi paremiologiyani mustaqil soha sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynadi[2].

O‘zbek tilshunosligida esa paremiologik material uzoq vaqt folklorshunoslik doirasida qaraldi. Lisoniy tahlil obyekti sifatida maqollarni o‘rganish X. Abdurahmonovning sintaktik tadqiqotlari bilan boshlandi va keyingi bosqichda semantik hamda lingvokulturologik yo‘nalishlar bilan to‘ldirildi.

An’anaviy tilshunoslik paremiyalarni uzoq vaqt frazeologiyaning tarmog‘i sifatida talqin qildi. V.V. Vinogradov rahbarligida shakllangan rus frazeologik maktabi maqollarni frazeologik birliklarning kengaytirilgan turi deb hisobladi[3]. Bunday yondashuv ikki birlik o‘rtasidagi umumiy belgilarga tayanadi: barqarorlik, qayta qo‘llanuvchanlik, obrazlilik va lug‘atlarda mustahkamlanganlik.

Ammo farqlovchi belgilar ancha keskin. Frazeologik birlik nominativ vazifa bajaradi: u tushunchani nomlaydi va gap tarkibiga bo‘lak sifatida kiritiladi. Paremiya esa kommunikativ birlik bo‘lib, o‘zi yaxlit hukm ifodalaydi va matn maqomiga ega bo‘ladi. V.N. Teliya frazeologik birlikning madaniy konnotatsiyasini tahlil qilar ekan, uning ma’no tuzilishi leksik birlikka yaqin turishini ta’kidlaydi [4]; paremiya semantikasi esa propozitsiya darajasida shakllanadi.

Farqni sheva materiali yaqqol tasdiqlaydi. *Og‘zi qulog‘ida* frazeologik iborasi gapda kesim vazifasini bajaradi va mustaqil qo‘llanmaydi. *Bir qoltïqqa ičči tarvuz sïymas* maqoli esa nutqda alohida kommunikativ yuk ko‘taradi: u

---

[1] Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

[2] Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 304 p.

[3] Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.

[4] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

javob, baho yoki ogohlantirish sifatida yakka holda ishlatiladi va hech qanday kontekstga kiritilishni talab qilmaydi[1]. Ikki birlikning sintaktik xulqi tubdan farq qiladi va bu farq ularni bir kategoriyaga birlashtirishga to‘sqinlik qiladi.

Chegaralash mezonlari va ularning sheva materialidagi amali

Umumlashgan semantika. Har qanday paremiya alohida voqeani emas, qonuniyatni ifodalaydi. *Bir gűŋä höčiz ölmäs, iči gűŋä ägäsi bärmäs* maqoli muayyan ho‘kiz yoki muayyan egaga taalluqli emas[2]; u qarz olish va berish munosabatining umumiy modelini beradi. Obrazning asosi ijara amaliyotida: bir kunlik yordam odob doirasida, doimiy yordam kutish esa o‘rinsiz. Denotativ qatlamdan signifikativ qatlamga o‘tish shu tariqa amalga oshadi.

Mezonning ishlash chegarasi *Lajgä taš atsaŋ, jűziŋä sačrajdì* birligida yanada aniq ko‘rinadi[3]. Tashqi qarashda birlik loy va tosh haqidagi aniq vaziyatni tasvirlaydi, aslida esa har qanday nomunosib to‘qnashuvga taalluqli: past darajadagi kishi bilan bahslashgan odam o‘zi ziyon ko‘radi. Umumlashuv darajasi aynan shu ikki qatlamning masofasi bilan o‘lchanadi.

Sintaktik tugallanganlik. Paremiya gapning bo‘lagiga aylanmaydi, balki o‘zi to‘liq gap vazifasini bajaradi. X. Abdurahmonov o‘zbek xalq maqollarining sintaktik qurilishini maxsus tadqiq etib, ularning aksariyati sodda yig‘iq yoki qo‘shma gap qolipida shakllanishini ko‘rsatgan[4]. Xorazm materialida bu xulosa tasdiqlanadi: korpusdagi birliklarning katta qismi ikki qismli tuzilishga ega bo‘lib, ikkinchi qism birinchisiga nisbatan natija, zidlik yoki qiyoslash munosabatida turadi. *Taš izlägän taš tapadì, aš izlägän aš tapadì* birligida ikki parallel qism bir mantiqiy modelni – intilish yo‘nalishi natijani belgilaydi – ikki marta takrorlaydi[5].

Barqarorlik va qayta qo‘llanuvchanlik. Paremiya nutqiy jarayonda har safar yangidan yaratilmaydi, tayyor formula sifatida xotiradan olinadi. Barqarorlikning o‘lchovi masalasi paremiologiyada alohida muammo hisoblanadi. G.L. Permyakov paremiologik minimum tushunchasini kiritib, ona tili sohiblarining aksariyati faol biladigan birliklar doirasini eksperimental yo‘l

---

[1] Xorazm folklori. XI tom. – B. 30.

[22] Xorazm folklori. XI tom. – B. 30.

[3] Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 85.

[4] Абдураҳмонов Х. Ўзбек халқ мақолларининг синтактик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1964.

[5] Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 39.

bilan aniqlashga urindi[1]. Dialektal sharoitda bu mezon o‘ziga xos tarzda ishlaydi: birlikning bir necha mustaqil manbada qayd etilishi uning fonddagi mavqeini ko‘rsatadi. Tadqiqot korpusida *Qošnïŋ gör bosa, čöziŋni görkä tut* birligi XIX asr qaydida *Joldašïŋ gör bolsa, čöziŋni qïsïb tut* shaklida uchraydi[2]; ikki variant o‘rtasidagi farq mantiqiy modelga emas, faqat leksik to‘ldiruvga tegishli.

Kognitiv-madaniy yuk. Paremiya madaniy tajribani saqlovchi va uzatuvchi lisoniy mexanizm vazifasini bajaradi. Bu vazifa birlikning leksik tarkibida ham iz qoldiradi. *Bägara barsam ätär, iγränsäm gűnim ötär* maqolida *begora*, ya’ni begona joyga mardikorlikka borish hamda *igranmoq*, ya’ni ip yigirmoq so‘zlari saqlangan[3]. Bu leksemalar bugungi yosh avlod nutqida amal qilmaydi; ular tegishli xo‘jalik amaliyoti bilan birga tildan chiqqan, ammo paremiya tarkibida qolgan. Shu ma’noda maqol yo‘qolgan turmush tarzining lisoniy izi bo‘lib xizmat qiladi.

Paremiyaning ichki qatlamlari

V.A. Maslova paremiyalarni yaxlit lisoniy hodisa sifatida tavsiflab, ularda uch qatlam birlashishini ko‘rsatadi: propozitsional mazmun, pragmatik yo‘naltirilganlik va madaniy konnotatsiya[4]. Xorazm materialida bu uch qatlamning o‘zaro munosabatini kuzatish mumkin.

Majdalanmagan taš baš jaradï birligining propozitsional mazmuni oddiy: maydalanmagan tosh boshni yoradi[5]. Pragmatik yo‘naltirilganligi ogohlantirish: nazorat qilinmagan vaziyat zarar keltiradi. Madaniy qatlami esa toshni maydalash amaliyotiga borib taqaladi – qurilish va yo‘l ishlarida tosh maydalanmasa foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan. Uch qatlamning birortasini olib tashlash birlikni tushunarsiz qiladi.

Kognitiv tilshunoslik bu tuzilmani freym tushunchasi bilan boyitadi. Ch. Fillmore ishlab chiqqan freym semantikasiga ko‘ra, til birligining ma’nosi ongdagi tuzilgan bilim sohasiga tayanadi[6]. Paremiya nutqda qo‘llanganda

---

[11]Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

[22]Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 33.

[33]Xorazm folklori. XI tom. – B. 30.

[4]Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

[5]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 34.

[6]Fillmore Ch.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.

tinglovchi ongida butun bir vaziyat modeli faollashadi. J. Lakoff va M. Johnson asoslab bergan konseptual metafora nazariyasi esa maqollarning aksariyati bir soha tajribasini boshqa soha hodisalari orqali ifodalashini tushuntiradi[1]: *Ustì jaltìraq deši qaltìraq* birligida tashqi ko‘rinish va ichki mohiyat zidligi butunlay obraz zimmasiga yuklanadi, hech qanday ochiq nasihat berilmaydi[2].

Xulosa. Bajarilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, paremiologik birlik frazeologik birlikning turi emas, mustaqil lisoniy-semiotik kategoriyadir. Uni ajratuvchi hal qiluvchi belgi – kommunikativ mustaqillik: frazeologizm gap bo‘lagi sifatida kontekstga kiritiladi, paremiya esa o‘zi matn maqomiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, chegaralashning to‘rt mezoni – umumlashgan semantika, sintaktik tugallanganlik, barqarorlik va kognitiv-madaniy yuk – bir vaqtda va bir xil kuch bilan namoyon bo‘lmaydi. Ayrim birliklarda obrazlilik yetakchilik qiladi, boshqasida didaktik yo‘naltirilganlik ochiq ifodalanadi. Shu bois mezonlar majmui sifatida qo‘llanishi va birlikning kategoriyaga mansubligi ular yig‘indisi asosida belgilanishi lozim.

Uchinchidan, dialektal material chegaralash masalasini hal etishda adabiy til korpusidan ko‘ra ishonchliroq tayanch beradi. Sheva birliklari me’yorlashtirish jarayonidan o‘tmagani sababli ularda paremiyaning tabiiy tuzilishi to‘liq saqlanadi. Xorazm o‘g‘uz shevalari materiali, xususan, arxaik kasb va maishiy leksikani saqlagan birliklar hisobiga kognitiv-madaniy yuk mezonini eng aniq ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, paremiyaning uch qatlami – propozitsional, pragmatik va madaniy – o‘zaro ajralmas birlikni tashkil etadi. Tahlilda faqat bitta qatlam bilan cheklanish birlikning lisoniy tabiatini to‘liq ochmaydi; shu sababli paremiologik tadqiqot kompleks metodologiyani talab qiladi.

---

[1] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

[22] Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 33.

XORAZM O‘G‘UZ SHEVALARI PAREMIOLOGIK FONDINI TO‘PLASH TARIXI VA MANBAVIY BAZANING DIAXRON TAHLILI

Ismailova Anaxon Kamoladdin qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

UO‘K 81'42, 82-7, 316.77

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi paremiologik birliklarni to‘plash tarixi to‘rt bosqichga ajratib tahlil qilinadi: XIX asrgacha bo‘lgan yozma qayd an’anasi, XIX asrning ikkinchi yarmidagi dala qaydlari, sovet davri dialektologik ekspeditsiyalari hamda mustaqillik davri paremiografiyasi. Har bir bosqichning metodologik yutuq va cheklovlari ko‘rsatiladi. 969 birlikdan iborat manbaviy bazaning miqdoriy tahlili asosida fondning xronologik notekisligi, izohlanish darajasi va hududiy qayd muammosi aniqlanadi. H. Vamberi qaydlari bilan zamonaviy manbalar chog‘ishtirilib, paremiologik fondning diaxron barqarorligi baholanadi.*

Аннотация. *В статье история собирания паремиологических единиц огузских говоров Хорезма рассматривается в четырёх этапах: традиция письменной фиксации до XIX века, полевые записи второй половины XIX века, диалектологические экспедиции советского периода и паремиография периода независимости. Показаны методологические достижения и ограничения каждого этапа. На основе количественного анализа источниковой базы из 969 единиц выявлены хронологическая неравномерность фонда, степень комментированности и проблема территориальной паспортизации. Сопоставление записей Г. Вамбери с современными источниками позволяет оценить диахронную устойчивость паремиологического фонда.*

Abstract. *The article traces the history of collecting paremiological units in the Oghuz dialects*

of Khorezm across four stages: the pre-nineteenth-century tradition of written attestation, the field records of the second half of the nineteenth century, the dialectological expeditions of the Soviet period, and the paremiography of the independence era. The methodological achievements and limitations of each stage are set out. A quantitative analysis of a source base of 969 units reveals the chronological unevenness of the fund, the degree of annotation and the problem of territorial attribution. Comparison of H. Vamberi's records with modern sources allows the diachronic stability of the paremiological fund to be assessed.

Kalit so'zlar: *dialektal paremiografiya, Xorazm o'g'uz shevalari, manbaviy baza, dala tadqiqoti, H. Vamberi, diaxron qiyos, paremiologik variant.*

Ключевые слова: *диалектная паремиография, огузские говоры Хорезма, источниковая база, полевое исследование, Г. Вамбери, диахронное сопоставление, паремиологический вариант.*

Key words: *dialectal paremiography, Oghuz dialects of Khorezm, source base, field research, H. Vamberi, diachronic comparison, paremiological variant.*

Kirish. O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan Xorazm viloyati dialektologik jihatdan murakkab manzarani tashkil etadi. Ye.D. Polivanov tasnifiga ko'ra, o'g'uz lahjasining janubiy Xorazm dialekti Xiva, Urganch, Shovot, G'azovat, Hazorasp, Yangiariq va Xonqa shevalarini qamrab oladi[1]. Ushbu hududlarda mahalliy aholi nutqida o'g'uzcha leksik va grammatik izlar yaqqol ko'rinadi.

Dialektologik tadqiqotlar tarixida paremiologik materialni sheva asosida o'rganish masalasi uzoq vaqt ustuvor yo'nalish sifatida e'tiborga olinmadi. Lug'aviy, fonetik va grammatik dialektizmlarni tahlil qilish birinchi o'rinda turdi; paremiologik birliklar esa ko'pincha illyustrativ material sifatida qayd

[1]Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933.

etildi. Bu holatning nazariy oqibati jiddiy: G.L. Permyakov paremiologik fondning miqdoriy chegarasi aniqlanmaguncha nazariy umumlashmalar qilib bo‘lmasligini asoslagan edi[1].

Mazkur maqolaning maqsadi – Xorazm o‘g‘uz shevalari paremiologik materialini to‘plash tarixini bosqichlarga ajratib tavsiflash va shu asosda shakllantirilgan manbaviy bazaga miqdoriy baho berishdir.

XIX asrgacha bo‘lgan davr: yozma manbalardagi qayd an’anasi

Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi paremiologik materialni qayd etish tarixi o‘rta asrlar merosiga borib taqaladi. XI asrda yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari turkiy xalqlar, shu jumladan o‘g‘uzlarning til va madaniy hayotini aks ettiruvchi eng qadimgi manba hisoblanadi[2]. Asarda keltirilgan maqollar leksik birliklarning ma’nosini ochish uchun misol sifatida berilgan, ya’ni ular mustaqil tadqiqot obyekti emas, illyustrativ material vazifasini bajargan.

XIII–XIV asrlarda Xorazm turkiy adabiy tilining o‘ziga xos yozma an’anasi shakllandi. Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy», Qutbning «Xusrav va Shirin», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» kabi yodgorliklar tilida xalq so‘zlashuv nutqiga xos obrazli ifodalar saqlangan. XVI–XIX asrlarda Xivada rivojlangan adabiy muhit ham xalq og‘zaki ijodini o‘zida mujassam etdi.

Ushbu davrning umumiy belgisi shundaki, paremiologik material alohida to‘plam sifatida qayd etilmadi – u lug‘at va badiiy matnlar tarkibida saqlandi. Shu sababli uni dialektologik nuqtayi nazardan tahlil qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi: yozma matnga kirgan birlik allaqachon adabiy ishlovdan o‘tgan bo‘lishi mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi: dastlabki maqsadli dala qaydlari

Xorazm paremiologik birliklarining ilk maqsadli dala qaydi venger sharqshunosi Herman Vamberi nomi bilan bog‘liq. 1863-yilgi safari davomida u Xiva va uning atrofida to‘plagan materialni keyinchalik nashr ettirgan[3]. Ushbu qatlam tadqiqot korpusiga 112 birlik bergan.

Qaydlarning ikki jihati diqqatga sazovor. Bir tomondan, bu Xorazm paremiologiyasining eng qadimgi maqsadli yozma qaydi bo‘lib, bugungi holat bilan qiyoslash orqali bir yarim asrlik diaxron kesimni ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, qaydlar chig‘atoy yozma an’anasi ta’sirida shakllangan.

---

[1] Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

[2] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960–1963.

[3] Vámbéry H. Čagataische Sprachstudien. – Leipzig: F.A. Brockhaus, 1867.

Buni *Iči kemäni tutgan yarq ičidä qalur* birligi ko‘rsatadi[1]: undagi *-ur* kelasi zamon qo‘shimchasi jonli Xorazm nutqida deyarli qo‘llanmaydi.

Demak, Vamberi yozib olgan matnlar sof sheva talaffuzini emas, o‘sha davr savodli qatlami nutqidagi kitobiylashgan variantni aks ettiradi. Bu holat qaydlarning qimmatini kamaytirmaydi, ammo ulardan foydalanishda tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

Sovet davri: ekspeditsiyalar va dialektologik maktabning shakllanishi

XX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlari tili va folklorini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1920–30-yillardan boshlab Toshkent va Samarqand ilmiy markazlari qoshida dialektologik ekspeditsiyalar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi. Xorazm shevalarini monografik o‘rganish F. Abdullayev nomi bilan bog‘liq: uning «O‘zbek tilining Xorazm shevalari» asari ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda shevalar lug‘ati, ikkinchisida tasnif va grammatika beriladi[2].

Sovet davri dialektologiyasi to‘plash sohasida bir qator muhim natijalar berdi: dala tadqiqoti usuli institutlashtirildi, axborotchi bilan ishlash, fonografik yozib olish va leksik kartochkalar tuzish kabi metodlar keng qo‘llana boshladi[3]. Shevashunoslik lug‘atlarini tuzish an’anasi shakllandi.

Ayni paytda bosqichning xarakterli cheklovi ham aniq. Paremiologik birlik mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qaralmadi – u fonetik yoki grammatik hodisani ko‘rsatuvchi misol sifatida qayd etildi. Natijada material tanlovi tasodifiy tus oldi: lug‘atga kirgan maqol o‘zining paremiologik qimmati bo‘yicha emas, tarkibida kerakli tovush yoki qo‘shimcha uchragani uchun tanlandi. Bu esa fondning tizimli manzarasini tiklashga imkon bermadi.

Mustaqillik davri: milliy paremiografiyaning yangi bosqichi

1991-yildan so‘ng mahalliy shevalar va ularning paremiologik boyligi ilmiy tadqiqotning ustuvor obyektiga aylandi. Bu davrda Xorazm folklorini to‘plash va nashr etish keng yo‘lga qo‘yildi: S. Ro‘zimboyev tayyorlagan «Xorazm folklori» seriyasining XI tomi tadqiqotimiz uchun 172 birlik bergan, Komil Avazning «Mo‘jaz maqollar va naqllar» to‘plami esa 307 birlikni qamragan[4].

---

[1] Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 35.

[2] Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.

[3] Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

[44] Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 26.

Bosqichning eng muhim paremiografik natijasi sifatida Xorazm shevalari paremiologiyasiga bag‘ishlangan birinchi maxsus lug‘atning yuzaga kelishi ko‘rsatiladi. Sh. Norboyeva va hammualliflarining nashri o‘zbek dialektal leksikografiyasida sheva maqollarini alohida obyekt sifatida qayd etgan dastlabki tajriba hisoblanadi[1]; undan 378 birlik olindi.

Shu bilan birga, bu bosqich nashrlarining aksariyati ilmiy va havaskorlik oralig‘ida turadi. Ularda maqollarning ma’noviy izohi berilgan, ammo fonetik transkripsiya qo‘llanilmagan; hududiy qayd deyarli yo‘q; birliklarning umumo‘zbek fondiga munosabati aniqlanmagan. Shu bois mazkur lug‘atlar tayyor ilmiy baza emas, qayta ishlovni talab qiluvchi xomashyo sifatida qaraladi.

Manbaviy bazaning miqdoriy tahlili

Sanab o‘tilgan manbalar asosida jami 969 birlikni qamrovchi yagona ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Uning tahlili bir necha muhim xulosa chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, 969 birlikdan 188 tasi, ya’ni 19,4 foizi to‘plovchining o‘zi tomonidan umumo‘zbek yoki kitobiy qatlamga kiritilgan. Ularni mexanik chiqarib tashlash noto‘g‘ri bo‘lardi: bu birliklar dialektal paremiyalarni ajratishda nazorat guruhi vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, manbalar xronologik jihatdan notekis taqsimlangan: 112 birlik XIX asrga, 479 birlik XX asr oxiri va XXI asr boshiga, 378 birlik so‘nggi yillarga to‘g‘ri keladi. XX asrning 30–70-yillaridagi akademik dialektologiya davri esa deyarli bo‘sh qolgan. Mazkur uzilish yuqorida ko‘rsatilgan metodologik cheklovning bevosita natijasidir.

Uchinchidan, izoh berilganlik darajasi past: 969 birlikning atigi 132 tasida, ya’ni 13,6 foizida manba muallifining o‘z izohi mavjud. Qolgan birliklarning semantik talqini axborotchilar bilan ishlash asosida tiklandi.

To‘rtinchidan, eng jiddiy kamchilik sifatida hududiy qaydning, ya’ni pasportning yo‘qligi ko‘rsatiladi. 969 birlikning faqat to‘rttasida qaysi tumanda qo‘llanishi ko‘rsatilgan; qolgan 99,6 foiz birlik umumiy «Xorazm» yorlig‘i bilan berilgan. Bu esa Xiva va Urganch, Shovot va G‘azovat shevalari o‘rtasidagi farqni aniqlashga to‘sqinlik qiladi.

Diaxron qiyos natijalari

[11] Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 72.

Vamberi qaydlarini zamonaviy manbalar bilan chog‘ishtirish paremiologik fondning barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi. Qiyos ikki turdagi munosabatni ochib berdi.

Birinchi tur – obrazning mahalliylashuvi. *Tujagä ot käräk bolsa, bojnìnì uzatur* birligi[1] zamonaviy manbada *Tujagä jantaq käräk bolsa, bojnìnì čözädi* shaklida qayd etilgan[2]. Umumiy ma’noli *o‘t* leksemasining o‘rnini aniq mintaqaviy realiya – cho‘l o‘simligi *yantoq* egallagan. Demak, paremiya vaqt o‘tishi bilan mintaqaviy belgisini kuchaytirgan; bunday komponentlar O.V. Lomakina atamasi bilan etnolingvomarker deb nomlanadi[3].

Ikkinchi tur – tayanch obrazning ijtimoiy almashinuvi. Vamberi yozib olgan *Joldašìŋ gör bolsa, čöziŋni qìsìb tut* birligida asosiy shaxs – *yo‘ldosh*, ya’ni yo‘l hamrohi[4]. Zamonaviy manbalarda esa xuddi shu mantiqiy model *Qošnìŋ gör bolsa, čöziŋni qìja tut* shaklida, *qo‘shni* obrazi bilan uchraydi[5]. Ijtimoiy munosabatning tayanch figurasi yo‘l hamrohidan o‘troq qo‘shniga ko‘chgan. Bu almashinuvni ko‘chmanchi turmushdan o‘troq dehqonchilik jamoasiga o‘tishning paremiologik izi sifatida talqin qilish mumkin.

Uchinchi kuzatuv – predmet kodining yangilanishi. *Suv görmägűnčä, etäk čečmä* birligi[6] zamonaviy manbada *Arìq görmägűnčä, šimniŋ pačasìnì qajtarma* shaklida saqlangan[7]. Mantiqiy model o‘zgarmagan, ammo kiyim realiyasi almashgan: arxaik *etak* o‘rnini zamonaviy *shim pochasi* egallagan. Demak, paremiya o‘z tuzilishini saqlagan holda moddiy madaniyat tarixidagi o‘zgarishni ham qayd etib qolgan.

Xulosa. Xorazm o‘g‘uz shevalari paremiologik materialini to‘plash tarixi to‘rt bosqichni bosib o‘tgan va har bir bosqich o‘z metodologik cheklovini qoldirgan. XIX asrgacha bo‘lgan davrda material mustaqil obyekt sifatida ajratilmadi; XIX asr qaydlari kitobiylashgan variantni bergan; sovet davri paremiyani illyustrativ misol darajasida qoldirgan; mustaqillik davri nashrlari esa transkripsiya va hududiy qaydsiz shakllangan.

---

[1] Xorazm folklori. XI tom. – B. 36.

[2] Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 72.

[3] Ломакина О.В. Паремии в текстах Л.Н. Толстого: лингвокультурологический комментарий // Вестник Орловского государственного университета. Серия: Новые гуманитарные исследования. – 2010. – № 6. – С. 217–221.

[4] Xorazm folklori. XI tom. – B. 36.

[5] Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 93.

[6] Xorazm folklori. XI tom. – B. 36.

[7] Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 26.

Manbaviy bazaning miqdoriy tahlili uch jiddiy bo‘shliqni ko‘rsatdi: xronologik uzilish, izohlanish darajasining pastligi va pasportlashtirish tizimining amalda yo‘qligi. Ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish dialektal paremiografiyaning navbatdagi vazifasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, mavjud material diaxron tahlil uchun yetarli asos beradi. Vamberi qaydlari bilan zamonaviy manbalar chog‘ishtirilganda paremiyaning mantiqiy modeli barqaror qolib, leksik to‘ldiruvi yangilanishi aniqlandi. Uch turdagi o‘zgarish qayd etildi: obrazning mahalliylashuvi, tayanch ijtimoiy figuraning almashinuvi va predmet kodining yangilanishi. Bu natijalar dialektal paremiologik fondni nafaqat lisoniy, balki madaniy-tarixiy manba sifatida ham qarash mumkinligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933.

2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.

3. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

4. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.

5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960–1963.

6. Vamberi H. Čagataische Sprachstudien. – Leipzig: F.A. Brockhaus, 1867.

7. Ломакина О.В. Паремии в текстах Л.Н. Толстого: лингвокультурологический комментарий // Вестник Орловского государственного университета. Серия: Новые гуманитарные исследования. – 2010. – № 6. – С. 217–221.

8. Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 72, 93.

9. Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 34–36.

10. Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 26.

RUS TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VA ONLAYN PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Sadullaeva Sevara Bahodir qizi,
Magistr, Osiyo Xalqaro universiteti
ORCID: 0000-0000-0000-0000
E-mail: sevara200225@icloud.com

UO‘K 811.161.1'243:37.02

Annotatsiya

Ushbu maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va onlayn platformalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida turli onlayn ta'lim vositalari — til o'rganish ilovalari, masofaviy ta'lim tizimlari, tilni almashish platformalari va elektron lug'atlar tahlil qilingan hamda ularning o'quv jarayoniga ta'siri o'rganilgan. So'rovnoma va kuzatuv metodlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli vositalarning til o'zlashtirish sifatiga, xususan, lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalar va nutqiy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan onlayn resurslarni uyg'unlashtirilgan (aralash) shaklda qo'llash eng samarali yondashuv ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *rus tili, xorijiy til sifatida o'qitish, kompyuter texnologiyalari, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim vositalari, aralash ta'lim, lingvodidaktika.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы использования современных компьютерных технологий и онлайн-платформ в процессе обучения русскому языку как иностранному. В ходе исследования проанализированы различные онлайн-средства обучения — приложения для изучения языка, системы дистанционного обучения, платформы языкового обмена и электронные словари, изучено их влияние на учебный процесс. Результаты исследования, проведённого на основе методов анкетирования

и наблюдения, показали, что цифровые инструменты оказывают положительное влияние на качество усвоения языка, в частности на расширение словарного запаса, грамматические навыки и речевую активность. Вместе с тем обосновано, что наиболее эффективным подходом является смешанное обучение, сочетающее традиционные аудиторные занятия с онлайн-ресурсами.

Ключевые слова: *русский язык, обучение как иностранному языку, компьютерные технологии, онлайн-платформы, дистанционное обучение, цифровые образовательные средства, смешанное обучение, лингводидактика.*

Annotation

This article examines the use of modern computer technologies and online platforms in teaching Russian as a foreign language. The study analyzes various online learning tools — language-learning applications, distance-learning systems, language-exchange platforms and electronic dictionaries — and their impact on the educational process. Findings obtained through surveys and observation show that digital tools have a positive effect on the quality of language acquisition, particularly on vocabulary expansion, grammatical skills and speech activity. At the same time, the article substantiates that a blended approach, combining traditional classroom instruction with online resources, is the most effective solution.

Key words: *Russian language, teaching as a foreign language, computer technologies, online platforms, distance learning, digital educational tools, blended learning, linguodidactics.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda xorijiy tillarni, jumladan, rus tilini o'rganish ehtiyoji nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, mehnat migratsiyasi va

madaniy almashinuv nuqtai nazaridan ham dolzarbligicha qolmoqda. So'nggi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi lingvodidaktika sohasida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari va onlayn platformalar rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy va aralash ta'lim shakllari barqaror tendensiyaga aylandi, biroq bu jarayonning lingvodidaktik samaradorligi, uni tashkil etish metodikasi va o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa xususiyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan (1).

Tadqiqotning maqsadi — rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llaniladigan asosiy onlayn platformalar va kompyuter texnologiyalarini tasniflash, ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: onlayn ta'lim platformalarining turlarini va funksional xususiyatlarini tahlil qilish; ularning til o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sirini empirik tekshirish; an'anaviy va raqamli ta'lim vositalarini uyg'unlashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot 2025-2026 o'quv yilida rus tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan oliy ta'lim muassasasi talabalari (jami 64 nafar respondent) ishtirokida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oldi: 1) ilmiy-metodik adabiyotlarni tahliliy o'rganish; 2) pedagogik kuzatuv; 3) talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma (anketa); 4) natijalarni statistik qayta ishlash va qiyosiy tahlil qilish.Tadqiqot uchun tanlangan onlayn vositalar to'rt guruhga bo'lib o'rganildi: til o'rganish ilovalari (Duolingo, Busuu turidagi), masofaviy ta'lim platformalari (Zoom, Google Classroom asosidagi kurslar), tilni almashish tarmoqlari (Tandem, HelloTalk) hamda elektron lug'at va tarjima xizmatlari. Har bir respondent guruhi ma'lum bir davr (8 hafta) mobaynida tegishli vositalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarida qatnashdi, so'ngra nazorat testlari va so'rovnoma orqali natijalar qayd etildi (2).

Olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida nazorat guruhi (faqat an'anaviy auditoriya darslarida qatnashgan talabalar) va tajriba guruhi (aralash shaklda ta'lim olgan talabalar) natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 78 foizi onlayn platformalardan muntazam foydalanish lug'at boyligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatganini qayd etdi. Tajriba guruhida nazorat testlaridagi o'rtacha ko'rsatkich nazorat guruhiga nisbatan 15-18 foizga yuqori bo'ldi, bu esa raqamli vositalarning til o'zlashtirish samaradorligiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi (3). Bu natija E.G.Azimov va A.N.Shchukin tomonidan ilgari surilgan, axborot texnologiyalarining o'quvchi faolligini oshirishga xizmat qilishi haqidagi nazariy qarashni amaliy jihatdan tasdiqlaydi (1).

Guruhlar kesimida solishtirganda, natijalar bir xil emasligi aniqlandi. Til o'rganish ilovalaridan foydalangan guruhda lug'at boyligi bo'yicha ko'rsatkich eng yuqori (o'rtacha 22 foizga o'sish) bo'lgani holda, grammatik to'g'rilik ko'rsatkichi nisbatan past (7-9 foiz o'sish) qayd etildi. Aksincha, masofaviy ta'lim platformalari (Zoom, Google Classroom) orqali o'qituvchi nazoratida ta'lim olgan guruhda grammatik to'g'rilik ko'rsatkichi 19 foizga oshgan, biroq lug'at boyligi o'sishi nisbatan sekinroq (12 foiz) kechgan. Bu farq T.I.Kapitonova va L.V.Moskovkin ta'kidlagan fikrga mos keladi: ularning fikricha, o'qituvchisiz avtomatlashtirilgan mashqlar leksik ko'nikmalarni tezlashtiradi, ammo grammatik tizimni ongli anglash uchun izohli-tushuntiruvchi ta'lim zarur (4).Talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalari bo'yicha eng yuqori natija video darslar va audiomateriallardan tizimli foydalangan talabalarda kuzatildi (o'rtacha 24 foiz o'sish), bu ko'rsatkich an'anaviy guruhdagi shu ko'nikma o'sishidan (11 foiz) ikki baravarga yaqin yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, tilni almashish platformalaridan (Tandem, HelloTalk) foydalangan respondentlarning nutqiy faolligi va erkin muloqot qilish ko'nikmasi boshqa barcha guruhlarga nisbatan yuqori (o'rtacha 27 foiz o'sish) ekanligi aniqlandi, bu esa O.V.Shcherbakova tomonidan keltirilgan, jonli til muhitiga yaqinlashtirish nutqiy faollikni eng samarali rivojlantiruvchi omil ekanligi haqidagi xulosani dalillaydi (3).

Biroq tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, faqat onlayn vositalarga tayangan holda ta'lim olgan talabalarda grammatik jihatdan murakkab konstruksiyalarni (fe'l boshqaruvi, kelishik va bog'lovchi tizimi) to'g'ri qo'llash borasida muayyan qiyinchiliklar saqlanib qoldi — xatolar darajasi an'anaviy guruhdagiga nisbatan 21 foizga yuqori bo'ldi. Bu holat o'qituvchining bevosita nazorati va tuzatishlar kiritish zaruratini ko'rsatadi va Kapitonova hamda Moskovkinning yuqorida keltirilgan qarashini yana bir bor tasdiqlaydi (4).Olingan natijalarni tahlil qilish

shuni ko'rsatadiki, kompyuter texnologiyalari va onlayn platformalar rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi, biroq ular an'anaviy o'qituvchi rahbarligidagi ta'limning to'liq o'rnini bosa olmaydi. Bu xulosa yuqorida keltirilgan raqamli ko'rsatkichlar — xususan, faqat onlayn vositalar bilan cheklangan guruhda grammatik xatolar darajasining yuqoriligi (4-bo'limga qarang) — bilan bevosita dalillanadi. Tadqiqot natijalarini N.R.Karimovning pedagogik tadqiqoti bilan qiyoslash ham diqqatga sazovor: uning ma'lumotlariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalar motivatsiyasini 30 foizga oshirgan, biroq bilim sifatini nazorat qilish mexanizmi zaif bo'lgan hollarda bu o'sish barqaror bo'lmagan (2). Bizning tadqiqotimizda ham xuddi shunday tendensiya kuzatildi: motivatsiya va faollik ko'rsatkichlari barcha onlayn vositalardan foydalangan guruhlarda yuqori bo'lgan, ammo bilim mustahkamligi faqat muntazam nazorat va fikr-mulohaza (feedback) mavjud bo'lgan hollardagina saqlanib qolgan. Demak, Karimov tadqiqotida ilgari surilgan taxmin bizning empirik ma'lumotlarimiz bilan to'liq tasdiqlanadi.

Sh.T.Rahimovning aralash ta'lim texnologiyalari samaradorligi haqidagi xulosasi bilan solishtirganda ham (5), bizning natijalarimiz mos keladi: aralash guruhdagi umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi (o'rtacha +19 foiz) alohida-alohida faqat onlayn (+13 foiz) yoki faqat an'anaviy (+9 foiz) ta'lim shaklidan yuqori bo'lib chiqdi. Bu qiyosiy ma'lumot aralash ta'lim modelining ikkala yondashuv kamchiliklarini o'zaro qoplashi haqidagi farazni raqamli jihatdan dalillaydi: onlayn vositalar leksik-nutqiy faollikni, auditoriya darslari esa grammatik ongli anglashni ta'minlaydi.

Shunday qilib, tahlil qilingan manbalar va olingan empirik natijalar o'rtasidagi muvofiqlik quyidagi fikrni asoslashga imkon beradi: onlayn platformalarning o'ziga xos afzalliklari (moslashuvchanlik, individuallashtirish, jonli muloqot imkoniyati) va cheklovlari (grammatik chuqurlikning yetishmasligi, o'z-o'zini nazorat talab etishi) mavjud bo'lib, ularni izolyatsiyada emas, balki o'qituvchi rahbarligidagi aralash tizim doirasida qo'llashgina yuqori natijaga olib keladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish, platformalarni tanlashda ularning metodik-lingvodidaktik asoslanganligini hisobga olish hamda o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, kompyuter texnologiyalari va onlayn platformalar rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi; ikkinchidan, ularning ta'siri, ayniqsa, lug'at boyligi, talaffuz va nutqiy faollikni rivojlantirishda yaqqol namoyon bo'ladi; uchinchidan, eng yuqori natijaga faqat onlayn yoki faqat an'anaviy ta'lim emas, balki ikkalasini uyg'unlashtirgan aralash ta'lim modeli orqali erishiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda sun'iy intellekt asosidagi individuallashtirilgan o'qitish tizimlarining rus tilini xorijiy til sifatida o'zlashtirishga ta'sirini chuqurroq o'rganish, shuningdek turli yosh va til darajasidagi o'quvchilar uchun onlayn platformalarni qo'llashning differensial metodikasini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalish sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov E.G., Shchukin A.N. Yangi pedagogik texnologiyalar zamin muallimlar lug'ati (til o'qitish nazariyasi va amaliyoti). — Moskva: "Ikar" nashriyoti, 2018 yil. 448 bet.

2. Karimov N.R. Xorijiy tillarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2021 yil. 156 bet.

3. Shcherbakova O.V. Distansion o'qitishda rus tili kursini loyihalashtirish // "Rus tili chet tili sifatida" ilmiy jurnali. — 2022. — №3. — B. 45-52.

4. Kapitonova T.I., Moskovkin L.V. Rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi. — Sankt-Peterburg: "Zlatoust" nashriyoti, 2019 yil. 312 bet.

5. Raximov Sh.T. Aralash ta'lim texnologiyalarining lingvodidaktik asoslari // "Innovatsiya va taraqqiyot" ilmiy jurnali. — 2024. — №6. — B. 88-95.

XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA ARGO VA JARGONNING SHAKLLANISH MODELLARI: QIYOSIY-SEMANTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Jalilova Hilola Jo‘rabek qizi,
erkin izlanuvchi
hilolajalilova3466@gmail.com
ORCID 0009 0009 5953 561X

UO‘K 811.161

ANNOTATSIYA. *Maqolada xitoy va o‘zbek tillaridagi 137 ta tanlanma argo-jargon birliklari qiyoslanib, qo‘llanish muhiti, struktur modellari, pragmatik vazifalari va tarjimadagi muammolari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *argo, jargon, xitoy tili, o‘zbek tili, sotsiolekt, semantik siljish, o‘zlashma, pragmatika, tarjima.*

ABSTRACT. *The article compares 137 selected Chinese and Uzbek argot and jargon items, focusing on usage domains, formation patterns, pragmatic functions, and translation challenges.*

Keywords: *argot, jargon, Chinese, Uzbek, sociolect, semantic shift, borrowing, pragmatics, translation.*

АННОТАЦИЯ. *В статье проводится сопоставительный анализ 137 отобранных единиц арго и жаргона китайского и узбекского языков, рассматриваются сферы их употребления, структурные модели, прагматические функции и проблемы, возникающие при их переводе.*

Ключевые слова: *арго, жаргон, китайский язык, узбекский язык, социолект, семантический сдвиг, заимствование, прагматика, перевод.*

KIRISH

Noadabiy leksika muayyan ijtimoiy guruhlarning tajribasi, o‘zaro munosabati va muloqot ehtiyojini aks ettiradi. Argo odatda tashqi auditoriya uchun ma’noni qisman yashirish, guruh chegarasini belgilash va ichki birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilsa, jargon kasbiy, yoshga oid yoki qiziqish atrofida shakllangan guruhlar muloqotida tezkor nomlash va o‘zaro tanishlikni ta’minlaydi. Ularning sleng va terminlar bilan chegarasi har doim

qat’iy emas: bir birlik muayyan vaziyatda guruh kodi, boshqa vaziyatda esa ommaviy norasmiy ifodaga aylanishi mumkin [4; 5; 7].

Xitoy va o‘zbek tillarining qiyosi raqamli makon bilan og‘zaki va professional muloqotning bir-biriga ta’sirini ko‘rsatadi. Dissertatsiyada xitoycha materialda ierogliflarga asoslangan metafora, semantik siqish va internet muhitidagi qisqa birliklar, o‘zbekcha materialda esa ruscha-inglizcha o‘zlashmalar hamda mahalliy fe’l bilan tuzilgan gibrid birikmalar qayd etilgan [7]. Ammo alohida misollardan tilning butun leksik tizimiga xulosa chiqarish o‘rniga, tasniflangan tanlanmadagi nisbatlar va birliklarning kontekstual vazifasini ko‘rsatish muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nazariy yondashuv

Hallidayning antitil haqidagi yondashuvi guruhga xos nutq ijtimoiy chegaralarni shakllantirish bilan bog‘liq ekanini izohlashga imkon beradi [5]. Eble slengni guruh ichidagi yaqinlik va norasmiylik bilan aloqador holda tavsiflaydi [4]; Adams va Coleman ishlarida uning ijodiy hamda ijtimoiy xususiyatlari yoritiladi [1; 3]. Allan va Burridge tadqiqoti tabu va ma’no bo‘yoqdorligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [2]. Mazkur maqolada bu qarashlar dissertatsiyadagi funksional ajratish mezonlari bilan birlashtirildi: yopiq kodga yaqin birliklar argo, guruh ichidagi tezkor va o‘ziga xos nomlashlar jargon, ommalashgan emotsional variantlar esa ular bilan kesishuvchi sleng sifatida kontekstga ko‘ra talqin qilinadi [7].

Struktur tahlilda o‘zbek tilidagi so‘z yasalishi va ma’no o‘zgarishi haqida Hojiyev [6] hamda Rahmatullayev [9] asarlarida yoritilgan tushunchalar, xitoycha internet birliklarining obrazliligini tavsiflashda konseptual metafora bilan bog‘liq Niu tadqiqoti [8] nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Bu adabiyotlar maqola doirasida yangi mustaqil empirik ma’lumotlar manbasi sifatida emas, mavjud tanlanmaning izoh mezonlari sifatida qo‘llanildi.

Material va tahlil tartibi

Maqola uchun alohida yangi respondent so‘rovi yoki mustaqil keng korpus yig‘ilmadi. Empirik asos — 2026-yildagi magistrlik dissertatsiyasida shakllantirilgan 66 ta xitoycha va 71 ta o‘zbekcha birlikdan iborat 137 birlikli tanlanmadir [7]. Dissertatsiyada bundan tashqari 137 ta xitoycha va 142 ta o‘zbekcha birlikning namunaviy kontekstlari umumiy izohlar doirasida jamlangan; ular tahliliy tanlanma bilan bir xil hajmdagi statistik korpus sifatida

qabul qilinmadi. Materiallar ochiq ilmiy va lug‘aviy manbalar, internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar, so‘zlashuv va badiiy matn namunalari asosida tanlangan [7].

Tanlashda birlikning guruhga xosligi, kontekstga bog‘liqligi, ma’nosini tavsiflash imkoniyati va tarjimadagi qiyinchilik e’tiborga olingan. Birliklar dastlab qo‘llanish sohasi (raqamli muloqot, IT, media, yashirin muhit, ta’lim, savdo va shahar nutqi), so‘ng shakllanish modeli (metafora/semantik siljish, qisqartma, birikma/gibrid, o‘zlashma, kompozit, terminlashuv va boshqa) bo‘yicha dissertatsiyadagi tasnifga muvofiq solishtirildi. Tavsifiy-qiyosiy, komponent, kontekstual va funksional-pragmatik tahlil usullari qo‘llanildi; son va ulushlar dissertatsiyaning 3- va 4-jadvallaridan olindi [7].

Hisoblarda har bir til tanlanmasi alohida maxrajga ega: xitoy tili n = 66, o‘zbek tili n = 71. Foiz ko‘rsatkichlari dastlabki dissertatsiyada berilgan bir xonali aniqlikda saqlandi. Tanlanma ehtimoliy tanlash asosida tuzilmaganligi sababli olingan ulushlar butun xitoy yoki o‘zbek tilidagi barcha jargonlar tarqalishini emas, aynan ushbu materialning ichki tarkibini tavsiflaydi [7].

NATIJALAR

Qo‘llanish sohalari bo‘yicha taqsimot

Dissertatsiya tanlanmasida raqamli muloqotga oid xitoycha birliklar 28 tani (42,4%), o‘zbekcha birliklar 14 tani (19,7%) tashkil etgan. O‘zbekcha tanlanmada yashirin/jinoyat muhiti 15 ta (21,1%), yoshlar va shahar nutqi 11 ta (15,5%), IT va texnika 10 ta (14,1%) birlik bilan ifodalangan. IT hamda ta’lim kategoriyalaridagi sonlar ikki til tanlanmasida bir-biriga yaqin, savdo/biznes kategoriyasida esa o‘zbekcha tanlanmada 8 ta, xitoychada 1 ta birlik keltirilgan [7].

1-jadval.

Tanlanmaning qo‘llanish sohasi bo‘yicha taqsimoti (dissertatsiya ma’lumotlari asosida)

Qo‘llanish sohasi	Xitoy tili, n (%)	O‘zbek tili, n (%)
Internet va raqamli muloqot	28 (42,4%)	14 (19,7%)
IT va texnika	9 (13,6%)	10 (14,1%)
Media va marketing	6 (9,1%)	8 (11,3%)
Yashirin/jinoyat muhiti	10 (15,2%)	15 (21,1%)
Ta’lim muhiti	5 (7,6%)	5 (7,0%)

Qo‘llanish sohasi	Xitoy tili, n (%)	O‘zbek tili, n (%)
Savdo va biznes	1 (1,5%)	8 (11,3%)
Yoshlar va shahar nutqi	7 (10,6%)	11 (15,5%)
Jami	**66 (100%)**	**71 (100%)**

Ushbu taqsimot, avvalo, tahlilga jalb etilgan birliklarning mavzularini ko‘rsatadi. Masalan, xitoycha “吃瓜” (chīguā) voqeani chetdan kuzatish, “社死” (shèsǐ) ijtimoiy uyatga qolish, “内卷” (nèijuǎn) haddan tashqari raqobatni obrazli ifodalaydi; o‘zbekcha “xayp”, “bomba” va “gap yo‘q” kabi birliklar esa baholash va ekspressivlikka oid misollar sifatida tavsiflangan [7]. Ushbu misollar qatlamlar o‘rtasidagi mutlaq milliy farqni emas, tanlanmada kuzatilgan semantik markazlarni namoyon qiladi.

Struktur modellar bo‘yicha taqsimot

Xitoycha tanlanmada metaforik yoki semantik siljish modeli 24 ta (36,4%), birikma/gibrid modeli 17 ta (25,8%) birlikka to‘g‘ri kelgan. O‘zbekcha tanlanmada esa o‘zlashmalar 46 tani (64,8%) tashkil etib, keyingi o‘rinda birikma/gibrid model 11 ta (15,5%) birlik bilan kelgan. Alohida kompozit toifasiga xitoycha tanlanmada 9 ta birlik kiritilgan, o‘zbekcha tanlanmada esa bu toifaga birlik ajratilmagan [7]. Bu natija mazkur tanlanmadagi tasnifga tegishli, o‘zbek tilida umuman kompozit shakllar mavjud emas degani emas.

2-jadval.

Tanlanmaning struktur model bo‘yicha taqsimoti (dissertatsiya ma’lumotlari asosida)

Struktur model	Xitoy tili, n (%)	O‘zbek tili, n (%)
Metaforik/semantik siljish	24 (36,4%)	3 (4,2%)
Qisqartma	5 (7,6%)	2 (2,8%)
Birikma/gibrid	17 (25,8%)	11 (15,5%)
O‘zlashma	4 (6,1%)	46 (64,8%)
Kompozit	9 (13,6%)	0 (0,0%)
Terminlashuv	5 (7,6%)	5 (7,0%)
Boshqa	2 (3,0%)	4 (5,6%)
Jami	**66 (100%)**	**71 (100%)**

Xitoycha “躺平” (tǎngpíng), “摆烂” (bǎilàn), “带货” (dàihuò) va “涨粉” (zhǎngfěn) birliklari ixcham shaklda ijtimoiy holat yoki harakatni ifodalaydi. O‘zbekcha “like bosmoq”, “ban qilmoq”, “post tashlamoq”, “story qo‘ymoq” misollarida esa xorijiy asos mahalliy fe’l bilan birikib, yangi kommunikativ harakat nomini yaratadi. Dissertatsiyada bu birliklar mos ravishda semantik zichlashuv hamda o‘zlashma asosidagi gibrid moslashuv namunalari sifatida tavsiflangan [7].

Pragmatik va tarjimaviy natijalar

Kontekstual tahlilda ikki til uchun takrorlanuvchi vazifalar aniqlandi: ijobiy yoki salbiy baholash, emotsional ta’sir, guruh identifikatsiyasi, ma’noni yashirish, nutqiy iqtisodiylik va suhbat uslubini boshqarish [7]. Masalan, “社恐” (shèkǒng) ijtimoiy vaziyatdan tortinadigan shaxs tipini qisqa nomlasa, “绝绝子” (juéjuézǐ) kuchli bahoni bildiradi. O‘zbek tilidagi “zo‘r”, “gap yo‘q” va “qotdi” esa ma’qullash yoki ta’sirchan baholash bilan bog‘liq, “krisha” va “sxema” kabi birliklar ayrim kontekstlarda yashirin guruh munosabatini anglatadi [7].

Tarjimada birlikning shakli bilan uning muloqotdagi vazifasi har doim mos kelavermaydi. “吃瓜”ni so‘zma-so‘z “qovun yeyish” tarzida ko‘chirish internet kontekstidagi “voqeani chetdan kuzatish” ma’nosini bermaydi; “gap yo‘q” birikmasining xitoychadagi oddiy so‘zma-so‘z ko‘rinishi ham ijobiy bahoni yetkazmasligi mumkin. Dissertatsiyada transliteratsiya, semantik ekvivalent, izohli tarjima, funksional almashtirish va qo‘shma usul ajratilgan bo‘lib, strategiyani kontekst, auditoriya va matn janriga qarab tanlash taklif qilingan [7].

MUHOKAMA

Natijalar shakllanish modeli, kommunikativ muhit va pragmatik vazifani birgalikda ko‘rish lozimligini ko‘rsatadi. Tanlanmada xitoycha raqamli birliklarning nisbatan ko‘pligi metaforik va semantik siljish modellarining faolligi bilan yonma-yon keladi: bitta qisqa birlik foydalanuvchi holatini, ijtimoiy bahoni va guruhga mansublik signalini birlashtirishi mumkin. “社死”ni faqat “ijtimoiy o‘lim” shaklida tushunish uning uyat, noqulaylik va bo‘rttirish ma’nolarini yetarli ochmaydi. Bunday kuzatish Niu tavsiflagan konseptual metafora yo‘nalishi bilan mavzu jihatidan tutashadi [8], biroq bu maqolada mustaqil eksperiment yoki sabab-oqibat ta’siri aniqlangani da’vo qilinmaydi.

O‘zbekcha tanlanmadagi o‘zlashmalarning yuqori ulushi, ayniqsa, IT va media muhitidagi nomlashda xorijiy asoslarning mahalliy grammatik resurs bilan uyg‘unlashishiga e’tibor qaratadi. “Like bosmoq”dagi o‘zlashma komponent mustaqil xalqaro belgi bo‘lsa, “bosmoq” fe’li konstruktsiyani o‘zbekcha sintaktik tizimga moslashtiradi. Bu yerda qisqa nomlash va kundalik muloqotga moslik bir vaqtda amalga oshadi. Biroq korpusning tanlanma tabiatini hisobga olib, mazkur foizlardan “o‘zbek jargoni doimo o‘zlashmadan tuziladi” degan umumiy hukm chiqarish mumkin emas [7].

Tarjima uchun asosiy natija — leksik o‘xshashlik emas, kontekstual va pragmatik moslikni tekshirish zaruratidir. Badiiy dialog, subtitr va lug‘at maqolasi bir xil ifoda imkoniyatiga ega emas: subtitrda qisqalik birinchi o‘ringa chiqsa, izohli lug‘atda kelib chiqish va qo‘llanish muhiti ko‘rsatilishi mumkin. Shuning uchun “吃瓜” uchun “chetdan kuzatish”, “gap yo‘q” uchun esa maqtov ohangini saqlovchi xitoycha ifoda tanlanishi haqidagi dissertatsiya tavsiyasi matn turiga bog‘liq strategiya sifatida o‘qilishi kerak [7].

Tadqiqotning cheklovi shundaki, birliklar keng miqyosli tasodifiy tanlama yoki vaqt bo‘yicha kuzatuv natijasi emas; ayrimlari platforma, hudud va davrga bog‘liq holda ma’no o‘zgartirishi mumkin. Shuningdek, 66 va 71 birlikli tanlanmalarning nisbiy ulushlari turlicha tanlash tarkibiga ham bog‘liq. Keyingi ishlar manba va sana ko‘rsatilgan katta korpus, real suhbatlar hamda bir xil kodlash mezonlari yordamida bu tendensiyalarni tekshirishi lozim [7].

XULOSA

Dissertatsiyaning 137 birlikli tahliliy tanlanmasini qayta tizimlashtirish natijasida qo‘llanish sohasi va struktur modelning o‘zaro bog‘liq jihatlari aniq ko‘rsatildi: xitoycha materialda internet va raqamli muloqot birliklari 42,4%, metaforik/semantik siljish modeli 36,4% ulushni; o‘zbekcha materialda esa o‘zlashmalar 64,8% ulushni tashkil etdi. Bular aynan o‘rganilgan tanlanmaga oid ko‘rsatkichlardir [7].

Har ikki tilda argo va jargon baholash, guruh identifikatsiyasi, sir saqlash hamda nutqiy iqtisodiylik vazifalarini bajaradi, ammo bu vazifalarning leksik va grammatik ifodasi farqlanadi. Tarjimada denotativ ma’nodan tashqari norasmiylik darajasi, auditoriya va emotsional ta’sirni hisobga olish lozim. Amaliy yo‘nalish sifatida misollarni kontekst, qo‘llanish sohasi, struktur model va tavsiya etiladigan tarjima usuli bilan birgalikda beradigan ikki tilli izohli

lug‘atni ishlab chiqish, keyingi bosqichda esa natijalarni kengroq va vaqt bo‘yicha belgilangan korpusda sinash tavsiya etiladi [7].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adams, M. (2009). Slang: The people’s poetry. Oxford University Press.

2. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge University Press.

3. Coleman, J. (2012). The life of slang. Oxford University Press.

4. Eble, C. (1996). Slang and sociability: In-group language among college students. University of North Carolina Press.

5. Halliday, M. A. K. (1976). Anti-languages. American Anthropologist, 78(3), 570–584.

6. Hojiyev, A. (2010). O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. Fan.

7. Jalilova, H. J. (2026). Xitoy va o‘zbek tillarida argo va jargonlarning qo‘llanilishi [Magistrlik dissertatsiyasi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti].

8. Niu, G. (2025). Analyzing internet language from the perspective of conceptual metaphor—A case study of the top ten internet buzzwords from 2018 to 2023. Modern Linguistics, 13(8), 696–702.

9. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Universitet.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AFFIKSATSIYA, KOMPOZITSIYA VA KONVERSIYA ASOSIDA SO‘Z YASALISHINING RIVOJLANISHI

Tursunov Akmal Rahmatullayevich,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “O‘zbek va chet tillar” kafedrasi dotsenti
akmal_tursunov_1971@mail.ru

UO‘K 811.161

Annatatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishining asosiy usullari - affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya hodisalarining shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibini boyitishda affiksatsiyaning mahsuldor usul sifatidagi o‘rni, so‘z va so‘z birikmalarining qo‘shilishi asosida yangi leksemalarning yuzaga kelishi, shuningdek, konversiya orqali bir turkumdagi birliklarning boshqa so‘z turkumiga o‘tishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Mazkur so‘z yasash usullarining tarixiy taraqqiyoti, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi faollik darajasi hamda ularning o‘zaro munosabati yoritiladi.*

Аннотация: *В статье анализируются становление и особенности развития основных способов словообразования в узбекском языкознании: аффиксации, словосложения и конверсии. Особое внимание уделяется роли аффиксации как продуктивного способа обогащения лексики узбекского языка, возникновению новых лексем путем соединения слов и словосочетаний, а также переходу языковых единиц из одной части речи в другую посредством конверсии. Рассматриваются историческая эволюция этих способов словообразования, степень их активности в современном узбекском литературном языке и их взаимосвязь.*

Kalit so‘zlari: *o‘zbek tilshunosligi, so‘z yasalishi, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, so‘z yasovchi affiks, qo‘shma so‘z, leksema, derivatsiya, til taraqqiyoti.*

Ключовая слова: *Узбекское языкознание, словообразование, аффиксация, словосложение,*

конверсия, словообразовательный аффикс, сложное слово, лексема, деривация, развитие языка.

Keywort: *Uzbek linguistics, word formation, affixation, compounding, conversion, derivational affix, compound word, lexeme, derivation, language development.*

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadigan murakkab va dinamik tizimdir. Mazkur tizimning izchil takomillashib borishida so‘z boyligining kengayishi, yangi leksik birliklarning yuzaga kelishi hamda mavjud birliklarning yangi ma’no va vazifalarda qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Til lug‘at tarkibining yangilanishi, avvalo, so‘z yasalishi jarayonlari bilan chambarchas aloqadordir. Shu jihatdan so‘z yasalishi nafaqat tilning ichki imkoniyatlarini namoyon etuvchi hodisa, balki uning tarixiy taraqqiyoti, grammatik qurilishi va nominativ imkoniyatlarini belgilovchi muhim lingvistik omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilida yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi turli usul va vositalar orqali amalga oshadi. Xususan, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya kabi so‘z yasash usullari o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibini boyitishda alohida o‘rin tutadi. Affiksatsiya asosida yangi leksemalarning yuzaga kelishi o‘zbek tilining agglutinativ xususiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda o‘zak yoki negizga turli so‘z yasovchi affikslarning qo‘shilishi natijasida yangi ma’noli birliklar hosil qilinadi. Kompozitsiya esa ikki yoki undan ortiq mustaqil komponentning mazmuniy va strukturaviy jihatdan birikishi asosida yangi leksik birliklarning shakllanishini ta’minlaydi. Konversiya jarayonida esa mavjud til birligining shakliy jihatdan o‘zgarmagan yoki minimal o‘zgarish asosida boshqa turkumga mansub birlik sifatida qo‘llanishi kuzatiladi.Mazkur so‘z yasash usullarining shakllanishi va rivojlanishi o‘zbek adabiy tilining turli tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq holda kechgan. Tilning qadimgi va o‘rta davrlariga oid yozma manbalarda uchraydigan yasama hamda qo‘shma birliklar o‘zbek tilida so‘z yasalish mexanizmlarining uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Keyingi davrlarda adabiy tilning takomillashuvi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning jadallashuvi natijasida yangi tushunchalarni ifodalash

ehtiyoji ortib, so‘z yasashning mavjud modellari faollashgan hamda yangi modellar shakllangan.

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi masalalari uzoq yillar davomida morfologiya, leksikologiya va grammatikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek tilida yangi ijtimoiy, ilmiy, texnik va madaniy tushunchalarning yuzaga kelishi natijasida nominatsiya jarayonlari faollashmoqda. Bu jarayon mavjud so‘z yasash imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, yangi yasash qoliplarining shakllanishiga ham olib kelmoqda. Natijada affiksatsiya va kompozitsiya bilan bir qatorda, konversiyaga xos hodisalarning ham ko‘lami va funksional xususiyatlarini aniqlash, ularni boshqa grammatik va leksik jarayonlardan farqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda so‘z yasalishini faqat muayyan yasama birliklarning yig‘indisi sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot, strukturaviy o‘zgarish, semantik rivojlanish va kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dinamik jarayon sifatida talqin qilish muhimdir. Bunday yondashuv affiksatsiya, kompozitsiya va konversiyaning o‘zbek tili taraqqiyotidagi o‘rnini yanada aniqroq belgilash, ularning mahsuldorlik xususiyatlarini aniqlash hamda yangi so‘zlarning shakllanish qonuniyatlarini izohlash imkonini beradi.Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilshunosligida affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya asosida so‘z yasalishining rivojlanish jarayonlarini tarixiy va hozirgi til materiallari asosida o‘rganish, mazkur usullarning strukturaviy-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘zaro munosabatini belgilash hamda zamonaviy o‘zbek tilidagi faoliyatini tavsiflash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kompozitsiya ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemalarning qo‘shilishi natijasida yangi ma’no kasb etgan so‘zlar hosil bo‘lishini anglatadi. O‘zbek tilida bu usul tarixan mavjud bo‘lib, ayniqsa nomlash ehtiyoji kuchaygan davrlarda faol qo‘llanilgan.Qo‘shma so‘zlar orqali tabiat hodisalari, predmet va tushunchalar aniq va ixcham tarzda ifodalangan: *oqqush, temiryo‘l, kungaboqar, qo‘lqop*. XX asr va mustaqillik davrida ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasida kompozitsiya asosida yasalgan terminlar soni yanada oshdi: *axborot texnologiyalari, davlat boshqaruvi.*

Konversiya usuli so‘zning tashqi shakli o‘zgarmagan holda, uning bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi orqali yangi leksik birlik hosil bo‘lishini anglatadi. O‘zbek tilshunosligida bu usul nisbatan kechroq ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo‘lsa-da, amaliy til materialida qadimdan mavjud. Masalan,

fe’l shaklining otlashuvi yoki sifatlashuvi konversiya orqali amalga oshadi: *o‘qish (jarayon)*, *yaxshi (odam)*, *kelajak (zamon)*. Bu usul tilning tejamkorlik tamoyiliga mos kelib, nutq jarayonida ixchamlik va ma’no aniqligini ta’minlaydi.

O‘zbek tilining leksik tarkibi asrlar davomida tizimli taraqqiyotni boshdan kechirib kelgan bo‘lib, bu jarayonda so‘z yasalishi alohida muhim o‘rin tutadi. So‘z yasalish usullari tilning ichki imkoniyatlari, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda umumturkiy antitipologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

So‘z ma’nosining kengayishi, tor-mayish, ko‘chma ma’no hosil qilishi ham hozirgi tilda faol mexanizm oyoq: (asos)→oyoq (oyoq kiyimining pastki qismi) Konversiya (suffikssiz o‘sish) ham jonli: yangi - yangi (ravish),oq-oq (fe‘l).O‘zbek so‘z yasalish tizimining asosiy yadrosi qadimiy turkiy davrdan beri deyarli o‘zgarmagan. -li, -siz, -chi, -la kabi affikslar ming yilliklar davomida o‘z vazifasini saqlagan.

Tarixiy davrlardagi arab-fors ta’siri qanday bo‘lsa, hozirgi zamonda rus, ingliz va internatsional terminologiya ta’siri shunchalik kuchaygan. -atsiya, -logiya, -ist, -izm kabi modellar zamonaviy o‘zbek derivatsiyasining muhim qatlamini tashkil etmoqda.

Shunday ekan, so‘z yasovchi affikslarni morfologiya bilan bog‘lab, ular yordamida so‘z yasalish usulini morfologik usul deb atash yetarli asosga ega bo‘lmaydi. Bu usulni so‘z yasalishining affiksatsiya usuli deb atash esa hodisaning mohiyatiga to‘la mos keladi.

Adabiyotlar tahlili: So‘z yasalishining asosiy tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari masalasidir. A.G‘.G‘ulomov o‘z izlanishlarida bu masalaga katta e’tibor bergan. U “O‘zbek tilida so‘zning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar orqali so‘z yasash” maqolasida so‘z yasashning sakkiz usulini ko‘rsatadi: affiksatsiya, kompozitsiya, omonimizatsiya, aksentuatsiya, abbreviatsiya, reduplikatsiya, so‘zning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar orqali so‘z yasash, bir so‘z turkumining boshqasiga o‘tishi. [1:4].

Kitobda ko‘rsatilishicha, “So‘z yasashning bundan boshqa yo‘llari ham bor:

1. Leksik yo‘l bilan yasash - biror so‘zning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi. Masalan, Turdi, Tursun kabi otlar fe’lning otga ko‘chuvi orqali yasalgan.

2. Fonetik yo‘l bilan yasash - urg‘uni ko‘chirish orqali bir so‘zdan yangi so‘z hosil qilish. Masalan: yangi (noviy) - yangi (hozirgina). Qisqartma so‘zlarning hosil bo‘lishi qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lishi doirasiga kiritilgan. Reduplikatsiya (so‘zlarning takrorlanishi, qo‘shaloqlanishi, so‘z takrori) ham keng ma’noda juft so‘zlarga kiradi.

Bu tip yoki so‘z yasash yo‘llari qaytadan guruhlanib, ikki umumiy turga ajratilgan:

1. Grammatik so‘z yasash: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya (boshqa turkumga ko‘chirish - kategorial ko‘chish yo‘li bilan yasash).
2. Leksik-semantik so‘z yasash (ma’no o‘zgarishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi).
3. Fonetik so‘z yasash (fonetik vositalar, har xil fonetik o‘zgarishlar yordami bilan yasash).

A.G‘.G‘ulomov o‘zining ko‘p yillik ilmiy izlanishlari va fan yutuqlari mohiyati bo‘yicha original konsepsiya yaratgan olimdir. Bu konsepsiya tilshunosligimizning keyingi rivoji uchun asos, poydevor vazifasini bajardi.

O‘zbek tilida so‘z yasalishi tizimi ko‘p asrlik tarixiy rivojlanishning uzviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek tilida ham ana shu tarixiy asosning modernizatsiyalangan, globaliq ta’sirida jadal taraqqiy etgan shakli kuzatiladi. Tarixiy va hozirgi so‘z yasalish usullari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bu bog‘liqlik tilning genetik barqarorligi va innovatsion imkoniyatlarini ta’minlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya bir-biridan mutlaqo ajralgan holda emas, balki o‘zaro ta’sir va aloqadorlik asosida amal qiladi. Ayrim so‘z yasalish modellarida morfologik, sintaktik va leksik-semantik omillarning uyg‘unlashuvi natijasida murakkab derivatsion jarayonlar shakllanadi. Bu holat o‘zbek tilida so‘z yasalishini faqat alohida usullar majmui sifatida emas, balki o‘zaro munosabatdagi yaxlit derivatsion tizim sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya asosida so‘z yasalishining rivojlanishi o‘zbek tilining leksik-semantik va grammatik tizimidagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan uzluksiz va dinamik jarayon ekanligi aniqlanadi. Mazkur usullarning tarixiy shakllanishi, funksional imkoniyatlari va hozirgi tildagi mahsuldorligi o‘zbek tilining so‘z yasash tizimi ichki imkoniyatlarga boy, taraqqiy etuvchi va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchan tizim ekanini ko‘rsatadi. Bu esa so‘z yasalishi hodisalarini

kompleks va tizimli tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining nazariy hamda amaliy vazifalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.G‘ulomov A.G‘ va boshq.O‘zbek tili morfem lug‘ati.Toshkent,“O‘qituvchi,”1977, 462- b.

2. G‘ulomov A.G‘. Morfologiya (kirish). O‘zbek tili grammatikasi, II tomlik, I-tom, Toshkent, 1975.

3. G‘ulomov A.G‘. Sifat haqida mulohazalar (ikkinchi maqola)// “O‘zbek tilida so‘z yasalishi” to‘plami, Toshkent, 1979.

4. G‘ulomov A.G‘. So‘z yasalishi//O‘zbek tili grammatikasi, 1-tom, Toshkent, 1975.

TA’LIQ YOZUVINING IJODIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Asrorov Kozimxon Olimxon o‘g‘li,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-7706-9691
Email: kozimxon001@gmail.com

UO‘K 811.161

Annotatsiya. *Mazkur dissertatsiya Markaziy Osiyo xattotlik an’analarida nasx va ta’liq yozuvlarining tarixiy taraqqiyoti, grafik tamoyillari hamda ularning adabiy, ijodiy va tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asosda tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda yozuv matn mazmuni va janri bilan uzviy bog‘liq estetik hodisa sifatida talqin qilinib, nasx va ta’liq yozuvlarining o‘zaro integratsiyasi paleografik va tekstologik tahlil asosida yoritilgan. Adabiyotda ta’liq yozuvining ijodiy ifoda va estetik didni shakllantirishdagi, shuningdek, shaxs ma’naviy tarbiyasiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari qo‘lyozma merosni o‘rganish, matnshunoslik va xattotlikka oid fanlarni o‘qitishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, xattotlik san’ati, nasx yozuvi, ta’liq yozuvi, grafik integratsiya, qo‘lyozma meros, adabiyot.*

Abstract. *This dissertation provides a scholarly study of the historical development and graphic principles of the Naskh and Ta'liq scripts within Central Asian calligraphic traditions, as well as their literary, creative, and educational significance. Interpreting writing as an aesthetic phenomenon intrinsically linked to textual content and genre, the research illuminates the integration of the Naskh and Ta'liq scripts through paleographic and textual analysis. It provides a scientific basis for the role of the Ta'liq script in shaping creative expression and aesthetic taste in literature, as well as its impact on the spiritual and moral education of an individual. The research findings carry both theoretical and practical significance for the study of manuscript heritage, textual criticism, and the teaching of*

calligraphy-related disciplines.

Keywords: *Central Asia, art of calligraphy, Naskh script, Ta'liq script, graphic integration, manuscript heritage, literature.*

Аннотация. *Настоящая диссертация посвящена научному исследованию исторического развития, графических принципов, а также литературного, творческого и воспитательного значения почерков насх и таълик в каллиграфических традициях Центральной Азии. В исследовании письмо рассматривается как эстетическое явление, органически связанное с содержанием и жанром текста; на основе палеографического и текстологического анализа освещается взаимная интеграция почерков насх и таълик. Научно обоснованы роль почерка таълик в литературе в формировании художественной выразительности и эстетического вкуса, а также его влияние на духовное воспитание личности. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для изучения рукописного наследия, преподавания текстологии и дисциплин, связанных с каллиграфией.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, каллиграфическое искусство, почерк насх, почерк таълик, графическая интеграция, рукописное наследие, литература.*

Adabiy matnning shakli va mazmuni o‘rtasidagi munosabat masalasi adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va matnshunoslik fanlarida muhim nazariy muammo hisoblanadi. Qo‘lyozma madaniyat hukmron bo‘lgan davrlarda adabiy asar faqat semantik birlik sifatida emas, balki vizual-estetik hodisa sifatida ham idrok etilgan. Shu bois matnni tashuvchi yozuv shakli adabiy mazmunning qabul qilinishi, talqin etilishi va estetik baholanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Markaziy Osiyo adabiy muhitida aynan ta’liq yozuvi adabiy matnlar bilan uzviy bog‘langan grafik tizim sifatida shakllangan. Ta’liq

yozuvi nasx yozuvidan farqli ravishda qat’iy me’yor va statiklikka emas, balki dinamiklik, ritm va plastik ifodaga asoslangan. Shu sababli u she’riy va badiiy matnlarning ichki ohangi, hissiy rang-barangligi va poetik tuzilmasiga mos kelgan. Bu holat ta’liq yozuvini adabiyot tarixida oddiy texnik yozuv emas, balki ijodiy-estetik vosita sifatida baholash imkonini beradi[1]. Nazariy jihatdan qaralganda, ta’liq yozuvi adabiy matn bilan ikki darajada munosabatga kirishadi: birinchidan, u matnni fizik jihatdan tashuvchi grafika bo‘lsa, ikkinchidan, matn mazmunining estetik talqinini vizual shaklda ifodalovchi vositadir. Shu ma’noda ta’liq yozuvi adabiy asarning semantik qatlamini kuchaytiruvchi ikkinchi darajali badiiy til vazifasini bajaradi. Ta’liq yozuvining grafik xususiyatlari - harflarning qiya joylashuvi, cho‘zilma elementlar, satrning pastga tomon oqimi - she’riy nutqning ritmik va musiqiy tabiatiga mos keladi. Adabiy matnning ohangdorligi yozuv orqali ham seziladi. Shu bois ko‘plab adabiy qo‘lyozmalarda ta’liq yozuvi matnning estetik ruhini vizual tarzda mustahkamlaydi. A.Schimmel ta’kidlaganidek, sharq adabiy an’anasida yozuv “o‘qiladigan matn” bilan bir qatorda “ko‘riladigan san’at” hamdir. Markaziy Osiyo adabiy merosining yirik namunalari - Alisher Navoiy, Bobur, Jomiy ijodi aynan ta’liq yoki nasta’liq yozuvida ko‘chirilgani bejiz emas. Bu tanlov adabiy matnning badiiy va estetik tabiatidan kelib chiqqan. Masalan, Navoiy devonlari va Xamsa qo‘lyozmalarida ta’liq yozuvi matnning poetik tuzilishini kuchaytiradi. Har bir satr faqat mazmun emas, balki estetik kompozitsiya sifatida qabul qilinadi. Ta’liq yozuvi adabiyotda muallif va xattot o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltiradi. Muallif so‘z orqali obraz yaratgan bo‘lsa, xattot yozuv orqali ushbu obrazning yozma talqinini amalga oshiradi. Natijada adabiy asar ikki ijodiy subyekt, shoir va xattot tomonidan birgalikda shakllantirilgan murakkab san’at mahsuliga aylanadi. Bu holat ta’liq yozuvining ijodiy ahamiyatini yanada oshiradi[2]. Nazariy umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ta’liq yozuvi adabiyotda faqat matnni qayd etuvchi grafik tizim emas, balki adabiy mazmunni estetik jihatdan boyituvchi, poetik tafakkurni vizual shaklda ifodalovchi ijodiy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli ta’liq yozuvini adabiyot tarixidan ajratib o‘rganish ilmiy jihatdan yetarli emas; u adabiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinishi lozim.

[1] Safadi Y. Islamic Calligraphy. London: Thames & Hudson, 1978, 61-b.
[2] Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. Toshkent: Fan, 1971, 69-b.

Ta’liq yozuvining adabiy-estetik mohiyatini chuqurroq anglash uchun uni faqat xattotlik tarixining bir bosqichi sifatida emas, balki adabiy tafakkur shakllanishiga bevosita ta’sir etuvchi til sifatida ko‘rib chiqish zarur. Sharq adabiy an’anasida so‘z hech qachon ochiq holatda mavjud bo‘lmagan; u doimo yozuv, bezak, sahifa kompozitsiyasi va makon bilan uzviy bog‘liq holda idrok etilgan. Shu sababli ta’liq yozuvi adabiy matnning tashqi shakli emas, balki uning estetik mavjudlik usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan ta’liq yozuvi adabiy matn bilan ikonik va indeksial munosabatga kirishadi. Ya’ni yozuv shakli matn mazmunini bevosita “tasvirlamaydi”, ammo uning ohangi, hissiy holati va ritmini tasvirli ifodalaydi. She’riy matndagi ichki musiqiylik, vazn va qofiya tizimi ta’liq yozuvida qiya satrlar, cho‘zilma harflar va grafik oqim orqali sezilarli bo‘ladi. Bu holat ta’liq yozuvini adabiy matnning semiotik kengaytmasi sifatida talqin qilish imkonini beradi[1]. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, ta’liq yozuvi matnni idrok etish jarayonida qo‘shimcha estetik qatlam hosil qiladi. O‘quvchi matnni faqat semantik darajada emas, balki vizual-estetik darajada ham qabul qiladi. Shu bois qo‘lyozma adabiy asar bilan bosma matn o‘rtasidagi farq faqat texnik emas, balki estetik tafovut hamdir. Ta’liq yozuvida bitilgan matn ko‘pincha sekin, mulohaza bilan o‘qiladi; yozuvning o‘zi o‘quvchini shoshilmaslikka, matn bilan ichki muloqotga chorlaydi. Ta’liq yozuvi adabiyotda ijodiy erkinlikning vizual ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Nasx yozuvida qat’iy me’yor va barqarorlik ustuvor bo‘lsa, ta’liq yozuvida xattotga ijodiy improvizatsiya imkoniyati beriladi. Bu improvizatsiya mutlaqo erkinlik emas, balki matn ruhiga mos keluvchi estetik qarorlar majmuidir. Har bir satrning qanchalik qiya tushishi, qaysi harflarning cho‘zilishi yoki qisqarishi matn mazmuni bilan ichki uyg‘unlikda belgilanadi. Shu sababli ta’liq yozuvida xattot ijodi adabiy ijodning vizual davomiga aylanadi. Markaziy Osiyo adabiy muhitida ta’liq yozuvining keng qo‘llanishi aynan poetik tafakkurning yetuklashuvi bilan bog‘liqdir. Alisher Navoiy ijodida so‘zning ichki musiqasi, obrazlarning nozikligi va falsafiy qatlamning chuqurligi yozuvda ham mos estetik ifoda topgan. Navoiy devonlari va “Xamsa” qo‘lyozmalarida ta’liq yoki nasta’liq yozuvining tanlanishi tasodifiy emas; bu tanlov matnning yuksak badiiy darajasiga mos grafik ifoda zaruratidan kelib chiqqan. Bobur ijodida esa ta’liq yozuvi adabiy matnning shaxsiy va tarixiy ohangini kuchaytiradi. “Boburnoma” qo‘lyozmalarida yozuvning nisbatan erkin

[1] Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. New York: New York University Press, 1984, 91-b.

va oqimlilikka asoslangan tuzilishi muallif nutqining jonliligi, voqealarning bevosita kuzatuv asosida bayon etilishi bilan uyg‘unlashadi. Bu holat ta’liq yozuvining faqat she’riyatda emas, balki nasriy-badiiy matnlarda ham ijodiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ta’liq yozuvining adabiy-estetik mohiyati uni ijodiy maktab sifatida ham baholash imkonini beradi. Ta’liq yozuvini egallagan xattot faqat texnik ko‘nikmaga emas, balki estetik sezgi, adabiy did va badiiy tafakkurga ham ega bo‘lishi talab etilgan. Shu sababli an’anaviy xattotlik ta’limida ta’liq yozuvi nasxdan keyingi, ya’ni yetuklik bosqichi sifatida o‘rgatilgan. Bu pedagogik yondashuv adabiy va estetik tarbiyaning uzviyligini ko‘rsatadi.

Nazariy umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ta’liq yozuvi adabiyotda uch asosiy funksiyani bajaradi: birinchidan, matnning estetik qimmatini oshiradi; ikkinchidan, ijodiy tafakkurni vizual shaklda davom ettiradi; uchinchidan, o‘quvchi va matn o‘rtasida chuqur estetik muloqot muhitini yaratadi. Shu jihatdan ta’liq yozuvini adabiy jarayondan ajratib o‘rganish mumkin emas. U adabiy matnning tashqi qobig‘i emas, balki uning badiiy mavjudlik shakllaridan biri sifatida talqin qilinishi lozim. Ta’liq yozuvi adabiy ijod jarayonida matnni shunchaki qayd etuvchi grafik vosita emas, balki ijodiy mexanizm sifatida ishtirok etadi. Sharq qo‘lyozma madaniyatida adabiy asar muallif tomonidan yozilgan so‘zlar majmui bilangina emas, balki xattot tomonidan tanlangan yozuv turi, satr qurilishi va grafikaning umumiy ritmi orqali ham shakllantirilgan. Shu sababli ta’liq yozuvi adabiy matnning estetik qabul qilinishiga, mazmunning chuqurroq idrok etilishiga va asarning umumiy badiiy qimmatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Adabiy ijodda ta’liq yozuvining roli, avvalo, so‘z va grafika o‘rtasidagi ijodiy sintezda namoyon bo‘ladi. She’riy va nasriy-badiiy matnlarda so‘zning ichki ohangi, ritmi va hissiy rang-barangligi ta’liq yozuvining qiya satrlari, cho‘zilma harflari va oqimlilikka asoslangan grafikasida tasvirini topadi. Ta’liq yozuvi adabiy ijodda muallif va xattot o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni yuzaga keltiradi. Muallif badiiy mazmunni til orqali yaratgan bo‘lsa, xattot ushbu mazmunni yozuv orqali estetik talqin qiladi. Bu holatda xattot ijodi matnni buzmaydi, aksincha, uning ichki ohangini kuchaytiradi. Shu sababli ko‘plab qo‘lyozma adabiy asarlarda xattot nomi ham alohida hurmat bilan tilga olinadi; u ijod jarayonining ikkinchi subyekti sifatida qabul qilingan. Markaziy Osiyo adabiy muhitida ta’liq yozuvining ijodiy roli ayniqsa Alisher Navoiy ijodida yaqqol ko‘rinadi. Navoiy devonlari va “Xamsa” qo‘lyozmalarida ta’liq yoki

nasta’liq yozuvining tanlanishi badiiy zarurat bilan izohlanadi. Shoirning murakkab poetik tizimi, ramziy obrazlar va falsafiy qatlamlar yozuvda ham mos estetik ifoda talab qilgan. Bobur ijodida ta’liq yozuvi adabiy ijodning yana bir jihatini shaxsiylik va subyektivlikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. “Boburnoma” qo‘lyozmalarida yozuvning erkin va oqimlilikka asoslangan tabiati muallif nutqining jonliligi, voqealarning bevosita kuzatuv asosida bayon etilishi bilan uyg‘unlashadi. Bu holat ta’liq yozuvining nasriy-badiiy matnlarda ham ijodiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[4]. Ta’liq yozuvi adabiy ijodda tempo va ritmni boshqaruvchi grafik omil vazifasini ham bajaradi. Yozuvning qiya satrlari o‘quvchini sekinroq, mulohazali o‘qishga undaydi. Ayniqsa, falsafiy va liriko-epik asarlar uchun muhim bo‘lib, matn mazmunining chuqurroq idrok etilishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda ta’liq yozuvi adabiy asarning o‘qilish rejimini ham belgilaydi. Adabiy ijodda ta’liq yozuvining yana bir muhim roli badiiy tanlov mezoni sifatida namoyon bo‘lishidir. Qo‘lyozma an’anasida nasx yozuvi ko‘proq ilmiy va diniy matnlar bilan, ta’liq yozuvi esa adabiy-badiiy matnlar bilan bog‘langan. Bu tanlov tasodifiy emas, balki adabiy janr va estetik talablar bilan belgilangandir. Shunday qilib, yozuv turi asarning janriy mansubligini oldindan “kodlab” beradi. Xattotlik metodikasi nuqtayi nazaridan ta’liq yozuvi adabiy ijodda ijodiy risk va estetik mas’uliyatni talab qiluvchi yozuv hisoblanadi. Har bir xattot she’riy yoki badiiy matnni ko‘chirar ekan, yozuv orqali matn ruhiga mos keladigan estetik qarorlar qabul qilgan. Bu jarayon xattotni passiv nusxa ko‘chiruvchi emas, balki faol ijodiy subyektga aylantirgan[1].

Shu tariqa ta’liq yozuvi adabiy ijodda uch asosiy funksiyani bajaradi:

1. badiiy mazmunni vizual jihatdan kuchaytiradi;
2. ijodiy hamkorlik muhitini yuzaga keltiradi;
3. o‘quvchi va matn o‘rtasida chuqur estetik muloqotni ta’minlaydi.

Bu funksiyalar ta’liq yozuvini adabiy jarayonning ajralmas qismi sifatida baholash imkonini beradi. Ta’liq yozuvining tarbiyaviy ahamiyati masalasi xattotlik san’atini faqat estetik faoliyat sifatida emas, balki shaxsni shakllantiruvchi ma’naviy-pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Sharq madaniy-ma’rifiy an’analarida yozuvni o‘rganish hech qachon texnik ko‘nikma bilan cheklanmagan; u doimo axloqiy intizom, estetik did va ichki muvozanatni tarbiyalashga qaratilgan jarayon sifatida qaralgan. Shu jihatdan

[1] Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. Toshkent: Fan, 1971, 84-b.

ta’liq yozuvi xattotlik ta’limining eng yuqori, eng mas’uliyatli va eng tarbiyaviy bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’liq yozuvi tarbiyaviy jihatdan, avvalo, estetik didni shakllantiruvchi vositadir. Uning qiya, oqimlilikka asoslangan grafikasini egallash uchun xattotdan mutanosiblikni his qilish, ritmni anglash va bo‘shliqlar bilan ongli ishlash talab etiladi. Bu jarayon shaxsni vizual go‘zallikni sezishga, tafakkurini estetik mezonlar asosida tartibga solishga o‘rgatadi. Natijada ta’liq yozuvini o‘rgangan shaxs nafaqat chiroyli yozishni, balki go‘zallikni anglashni ham o‘zlashtiradi. Ta’liq yozuvining tarbiyaviy ta’siri uning sabr-toqat va ichki intizomni talab etishi bilan ham bog‘liq. Ta’liq yozuvida har bir harf, har bir cho‘zilma va satrning umumiy oqimga mos kelishi muhim. Bitta noto‘g‘ri harakat butun kompozitsiyani buzishi mumkin. Shu sababli ta’liq yozuvi xattotni shoshilmaslikka, diqqatni jamlashga va ichki sokinlikni saqlashga majbur qiladi. Bu holat xattotlikni ruhiy tarbiya vositasiga aylantiradi.

An’anaviy xattotlik maktablarida ta’liq yozuvining bosqichli o‘rgatilishi ham uning tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatadi. Dastlab nasx yozuvi orqali grafik intizom va qat’iy me’yor o‘rgatilgan, keyin esa ta’liq yozuviga o‘tilgan. Bu pedagogik ketma-ketlik shaxsning avval o‘zini nazorat qilishni, so‘ng esa ijodiy erkinlikni ongli tarzda boshqarishni o‘rganishini ta’minlagan. Shu sababli ta’liq yozuvi xattotlik ta’limida yetuklik bosqichi sifatida qaralgan. Ta’liq yozuvi tarbiyaviy jihatdan ijodiy mas’uliyatni ham shakllantiradi. Nasx yozuvida xattot ko‘proq me’yorlarga bo‘ysunsa, ta’liq yozuvida u mustaqil estetik qaror qabul qiladi. Biroq bu erkinlik mas’uliyatsizlik emas; aksincha, yozuvning har bir unsuri uchun xattot javobgar bo‘ladi. Bu jarayon shaxsda ijodiy erkinlik va axloqiy mas’uliyatning uyg‘un shakllanishiga olib keladi.

Adabiy matnlar bilan bog‘liq holda qaralganda, ta’liq yozuvining tarbiyaviy ahamiyati yanada chuqurlashadi. Ta’liq yozuvida bitilgan she’riy va badiiy matnlar o‘quvchini faqat mazmunni tushunishga emas, balki matn bilan estetik muloqot qilishga undaydi. O‘quvchi yozuvni kuzatar ekan, matnni sekin, mulohazali o‘qishga majbur bo‘ladi. Bu holat adabiyotning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi va shaxsda fikrga chuqur yondashish odatini shakllantiradi. Ta’liq yozuvi, shuningdek, ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Sharq an’analarida yozuv Alloh kalomi, ilm va hikmat bilan chambarchas bog‘langan. Ta’liq yozuvida adabiy va falsafiy matnlarni ko‘chirish jarayoni xattot uchun ma’naviy mashq vazifasini bajargan. Yozuv

jarayonida matn mazmuni ichki tafakkurdan o‘tkazilgan, natijada yozuv va fikr o‘rtasida uzviy aloqadorlik yuzaga kelgan.

Pedagogik nuqtayi nazardan ta’liq yozuvi shaxsni o‘zini anglash va o‘zini tarbiyalashga yo‘naltiradi. Xattot yozuv orqali o‘z ichki holatini, kayfiyatini va estetik qarashlarini namoyon qiladi. Shu bois ta’liq yozuvi xattotlik san’atida shaxsiy kamolot mezoni sifatida baholanadi. Bu yozuvni egallagan shaxs nafaqat texnik jihatdan yetuk, balki ma’naviy va estetik jihatdan ham shakllangan hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham ta’liq yozuvining tarbiyaviy ahamiyati dolzarbdir. Bugungi tezkor axborot muhitida sekinlik, mulohaza va ichki sokinlik qadri pasayib borayotgan bir paytda ta’liq yozuvi shaxsni tafakkur intizomi va estetik muvozanatga qaytaruvchi pedagogik vosita bo‘lishi mumkin. Shu sababli ta’liq yozuvini nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy tarbiyaviy resurs sifatida ham baholash zarur. Umuman olganda, ta’liq yozuvi tarbiyaviy jihatdan uch asosiy vazifani bajaradi:

1. estetik did va vizual tafakkurni rivojlantiradi;
2. sabr-toqat, diqqat va ichki intizomni shakllantiradi;
3. ijodiy erkinlik va ma’naviy mas’uliyat uyg‘unligini ta’minlaydi.

Bu jihatlar ta’liq yozuvini xattotlik san’atining eng yuqori, eng tarbiyaviy va eng mas’uliyatli yozuv turi sifatida baholash imkonini beradi. Umuman olganda, ta’liq yozuvining adabiyot bilan uzviy bog‘liqligini, uning ijodiy va tarbiyaviy salohiyati yuqori ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ushbu xulosalar dissertatsiyaning umumiy konsepsiyasini mustahkamlab, Markaziy Osiyo yozma va adabiy merosini o‘rganishda yozuvni estetik va ma’naviy tafakkur bilan bir butun hodisa sifatida talqin qilish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. Toshkent: Fan, 1971.

2. Safadi Y. Islamic Calligraphy. London: Thames/Hudson, 1978.

Schimmel A. Calligraphy and Islamic Culture. New York: New York University Press, 1984.

BERDAQ ASARLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMALARI
(Mirtemir, Muzaffar Ahmad, Rustam Musurmon tarjimasi asosida)

Raxmanova Zulxumar Aybergenovna, Nukus davlat texnika universiteti assistant o‘qituvchisi

UO‘K 811.161

Annotatsiya: *Maqolada qoraqalpoq mumtoz shoiri Berdaq asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari tahlil qilinadi. Tarjimonlar Mirtemir, Muzaffar Ahmad va Rustam Musurmon tarjimalari qoraqalpoqcha asl nusxa bilan qiyoslab o'rganiladi.*

Tayanch so'zlar: *Mumtoz shoir, tarjima, tarjimon, poeziya, adabiyot, original, badiiy tarjima, ekvivalentlik.*

Аннотация: *В статье анализируются переводы произведений каракалпакского классика поэта Бердаха на узбекский язык. Переводы Миртемира, Музаффара Ахмада и Рустама Мусурмана сопоставляются и изучаются в сравнении с каракалпакским оригиналом.*

Ключевые слова: *Классик поэт, перевод, переводчик, поэзия, литература, оригинал, художественный перевод, эквивалентность.*

Annotation: *The article analyzes translations of the works of the classical Karakalpak poet Berdaq into Uzbek. The translations by Mirtemir, Muzaffar Ahmad, and Rustam Musurman are studied in comparison with the Karakalpak original.*

Keywords:*Classical poet, translation, translator, poetry, literature, original, literary translation, equivalence.*

Qoraqalpoq mumtoz shoiri Berdaq asarlarining tarjimalari o'tgan asr boshlarida qo'lga olingan. Qo'shni xalqlar-o'zbek, qozoq, turkman tillariga mohirona tarjimalar amalga oshirilgan. Tarjima haqida olim Á. Jaqsıbaev: «Tarjima-bu bir xalqning tilida yozilganni ikkinchi xalqning tiliga o'girishdir» [9, 40], - deb o'rinli ta'riflaydi.

A. Ganiev, V. Komissarov kabi olimlarning ishlarida ham tarjima masalasi o'rganilgan. Biz Berdaq asarlarining o'zbek tiliga tarjimalariga

to'xtalmoqchimiz. Bu haqda olimlar S. Ahmetov, Q. Sultonov [1], K. Mambetov [8], B. Qurbonboev [10], G. Quramboeva [11] o'z ishlarida alohida to'xtaladilar. Berdaq asarlari o'zbek tilida 1978-yilda [2], 1979-yilda [7], 1983-yilda [3], 1998-yilda [4], 2021-yilda [5] nashr etilgan.Shoir sifatida Mirtemir Berdaq asarlarini o'zbek xalqiga birinchi bo'lib yetkazuvchi bo'ldi. Muzaffar Ahmedovning tarjimalarida ham Berdaq asarlari yorug' ko'rdi. Rustam Musurmon ijodida Berdaq asarlaridan tashqari qoraqalpoq adabiyotidagi bir qancha ijodkorlarning asarlari ham o'zbek tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilingan. Berdaq G'arg'aboy o'g'lining R. Musurmon tomonidan tarjima qilingan «Bulbul» she'rining o'zbek tilidagi tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

R. Musurmon tarjimasida: Pari tushib qanotidan, /
Kórki ketib hayotidan, /
Tikon tirnab ayoǵidan, /
Qonatganda qoni bólmas. [5,90].

Mirtemir tarjimasida: Pari tushib qiyoǵidan, /
Savlat ketib siyoǵidan, /
Tikan botib oyoǵidan, /
Qonatganda qoni bólmas. [2,16].

Muzaffar Ahmedov tarjimasida: Pari tushib qiyoǵidan, /
Kórki ketib siyoǵidan, /
Tikon tirna bayoǵidan, /
Qonatganda qoni bólmas. [4,33].

Asl nusxada: Pári túsip qıyaǵınan, /
Sıyqı ketip sıyaǵınan, /
Tiken tırnap ayaǵınan, /
Qanatqanda qanı bolmas. [6,34].

Tarjimon sifatida R. Musurmonning mahorati ushbu tarjimada ko'rinadi. Masalan, she'rning asl nusxasida har bir qator 8 bo'g'inga qurilgan bo'lib, tarjimada ham asosan shu 8 bo'g'inli o'lchov saqlangan. Shuningdek, tarjimon birinchi qatordagi qoraqalpoq tilidagi «qıyaq» so'zining ko'chma ma'nosini saqlab, o'zbek tiliga to'g'ri ma'nosida «qanot» deb tarjima qilgan. Chunki qoraqalpoq tilidagi «qıyaq» so'zining ko'chma ma'nosi o'zbek tiliga unchalik mos kelmasdi. Ikkinchi qatordagi «sıyaq» so'ziga esa, o'zbek tilidagi ikkinchi qatorda «hayoti» so'zini mahorat bilan qo'llay olgan. Uchinchi va to'rtinchi qatorlarda esa to'liq so'zma-so'z to'g'ri tarjima qilingan. Mirtemir esa, «Savlat

ketib siyog'idan» qatorida asl nusxadagi «kórk» so'zini «savlat» deb berishi orqali tarjima talabiga muvofiq ekvivalentlardan foydalanganini ko'ramiz. «Tikan botib oyog'idan» qatori qoraqalpoq nusxasida «Tiken tırnap ayaǵınan» deb berilgani aniqlandi. M. Ahmedov esa so'zma-so'z tarjima qilgan. Bu ham tarjima talabiga mos-xususan, so'zma-so'z tarjimaning badiiy vazifasini bajargan. Demak, har uch muallif ham tarjima talablariga muvofiq muvaffaqiyatli ish olib borganini ko'ramiz. Keyingi bandlarni ham solishtirib xulosa chiqarish o'rinli bo'ladi. Masalan, R. Musurmon tarjimasida: *Changalga qóngan bulbulning, / Ishq dardida qizil gulning, / Chumchuqdek kóp soni bólmas, / Sayrasa darmoni bólmas. [5,90].*

Mirtemir tarjimasida: Changalga qóngan bulbulning, /
Chumchuqcha ham shoni bólmas, /
Sevgisida qizil gulning, /
Sayrashga darmoni bólmas. [2,16].

M. Ahmedov tarjimasida: Jangalga qóngan bulbulning, / Chumchuqchalik soni bólmas, /
Xasratinda qizil gulning, /
Sayrasa darmoni bólmas. [4,33].

Asl nusxada: Sheńgelge qonǵan búlbildiń, /
Shımshıq qurlım sáni bolmas, /
Íshqısında qızıl gúldiń, /
Sayrasa dármanı bolmas. [6,34].

Berdaqning qoraqalpoq tilidagi asl nusxasiga o'zbek tilidagi uch variantdan R.Musurmon tarjimasi eng yaqin va badiiy jihatdan aniq mos keladigan variant hisoblanadi. Berdaqning qoraqalpoqcha originalidagi «Íshqısında» va «dármanı bolmas» so'z birikmalari an'anaviy klassik sharq she'riyati ham da tasavvuf falsafasi bilan sug'orilgan bo'lib, bu badiiylik birinchi variantdagi «Ishq dardida» qatorida o'zining haqiqiy semantic ma'nosini to'liq saqlab qolgan. Mirtemir tarjimasidagi «Sevgisida» so'zi barqaror ma'noga ega bo'lgani sababli, Berdaqning tasavvuf qarashi va qoraqalpoq adabiy tili asl nusxasidagi lirik qahramon orzusidagi aniq «ishq» (ilohiy va chuqur tuyg'u) tushunchasini to'liq ochib bera olmaydi, balki ma'noni soddalashtirib yuboradi. Bu yerda qoraqalpoqcha asl nusxada «muhabbat» so'zi bilan berilganda to'g'ri deb ma'qullash mumkin bo'lar edi. Shu bilan birga, asl nusxadagi «Shımshıq qurlım sáni bolmas» qatori R. Musurmon variantida «Chumchuqdek ko'p soni bo'lmas» deb berilishida noto'g'rilik seziladi. Mirtemir tarjimasidagi

«Chumchuqcha ham shoni bo'lmas» degan qator ma'no jihatidan asl nusxadagi soddalik va ma'no chuqurligiga nisbatan yaqinroq seziladi. M. Ahmedov tarjimasining tili Berdaqning XIX asrdagi qoraqalpoq adabiy tilidagi sharq xalqlari she'riyatiga xos umumiy leksik ohangni va she'rning an'anaviy ritmini to'g'ri saqlab, asl nusxa qatorlarining badiiy darajasini buzmay yetkazib bergan. Ushbu she'r qatorlarining 2-qatorida qoraqalpoq tilida «Shımshıq qurlım sáni bolmas» deb berilgan. Ya'ni, «qurlım» so'zining ma'nosi bosh kelishikda otlashgan yoki otlashish vazifasida qo'llaniladigan so'zlarni boshqarib, o'zlari bilan birikib keladigan so'zlar bilan birga tilde ko'pincha qiyoslash, ba'zan solishtirish, ba'zan esa miqdor ma'nosini bildiradi [12, 71]. Mana shundan ma'lum bo'ladi. «Sáni» so'zi esa, insonning ko'rki bilan bog'liq so'zni «soni» deb, miqdor, o'lchovga bog'liq holda berib, xatoga yo'l qo'yilganining guvohi bo'lamiz. Ya'ni, qoraqalpoqcha ma'nosi go'zallik, saltanat, salobat, husn ma'nolarini bildirib keladi. Bu yerda sonlik ma'nodagi «son» so'zi bilan almashtirilgan kamchilikni ko'rish mumkin. Endi keying bandga nazar tashlaylik. Bu bandning to'rtinchi qatorida «torǵay» so'zi noto'g'ri berilgan. Ya'ni, o'zbek tilida «tóqay» so'zi ma'nosi bo'yicha «to'qay» (o'rmonzor) degan ma'noni bildiradi. Ammo bu she'r qatorida «torǵay» (turg'ay) qushi haqida so' zboradi.

Kunlar óta rarmon bilan,	*Kúnle róter árman menen,*
Yuking keta rkarvon bilan,	*Júgiń keter kárwan menen,*
Nomi bulbu lbólgan bilan,	*Atı búlbil bolǵan menen,*
Tóqayday davroni bólmas. [5,91].	*Torǵayday dáwranı bolmas. [6,35].*
Oqshom yuldu zoqib ótar,	*Aqsham juldız aǵıp óter,*
Yurak baǵrim yoqib ótar,	*Júrek bawırım jaǵıp óter,*
Ǵamsiz kun shod balqib ótar,	*Ǵamsız kúnim naǵıp óter.*
Dardimning darmoni bólmas. [5,92].	*Dártimniń dármanı bolmas. [6,35].*

Ushbu she'rning uchinchi qatorida «Ǵamsiz kun shod balqib ótar» degan qator qoraqalpoqcha nusxada «Ǵamsız kúnim naǵıp óter» deb, berilgan. «Ǵamsiz kun shod balqib ótar» qatori, ya'ni «G'amsiz kun shodlik bilan to'la o'tadi» degan ma'no bilan noto'g'ri qo'llanilgan. Bu yerda Berdaq shoir asosan «G'amsiz kun qanday o'tadi» degan ma'noda yozgan bo'lsa, «shod balqib ótar» qatorini «naǵıp óter» bilan tarjimada ma'no jihatidan uzoqlashtirgan. «G'amsiz kunim qanday o'tar» deb berilganda ma'noga yaqin, she'rning aniq mazmunini

beruvchi bo'lar edi. Shunga qaramay, tarjimon «Bulbul» deb nomlangan she'rning 13 banddan iborat qismida faqat yuqorida ko'rsatib o'tganlarimizdan boshqa qatorlarini mahorat bilan badiiy tarzda tarjima qila olgan. Ularning har bir qatoriga milliy koloritni yo'qotmagan holda yondashgan. Hajmi, mazmuni to'liq saqlanib, asl nusxaga yaqin holda yetkazilgan. Bu tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishi Berdaq asarlarining o'zbek adabiyoti uchun ham ahamiyatini belgilaydi. Ikki xalqning madaniy aloqasi uchun muhim xizmat bajaradi, deb hisoblaymiz.*Mirtemir tarjimasida:*

Kunlar ótar armon bilan, *Oqshom yulduz oqib ótar,*
Yukim keta rkarvon bilan, *Yurak-baǵrim yoqib ótar,*
Oti bulbul bólgan bilan, *Ǵamsi kunim chalqib ótar,*
Tórǵaychalik sozi bólmas. [2,17]. *Dardimning darmoni bólmas. [2,18].*

Muzaffar Ahmedov tarjimasida:
Kunlar ótar armon bilan, *Oqshom yuldu zoǵib ótar,*
Yukin gketarkarvon bilan, *Yurak-baǵrim yoqi bótar,*
Oti bulbul bólgan bilan, *Ǵamsiz kunim naqlib ótar,*
Tórǵayday davroni bólmas. [4,34]. *Dardimning darmoni bólmas. [4,34].*

Ushbu bandlarning qatorlarini solishtirib, Berdaqning mahoratini o'zbek tilida qaysi biri samaraliroq ko'rsatib bera olganini tasdiqlash jarayonida tahlil qilamiz. Berdaqning ush bu bandlarini ikki tildagi tarjimada solishtirar ekanmiz, Mirtemir nusxasi shoir mahoratini o'zbek tilida aniq, tabiiy va badiiy tarzda yetkazib berganini ko'rishimiz mumkin. Mirtemir tarjimasidagi «Tórǵaychalik sozi bólmas» degan qator Berdaqning asl nusxasidagi turg'ay va bulbul qiyoslash orqali yetkazgan sozandalik va ovoz obrazini aniq saqlab qolgan. Mirtemir qoraqalpoq tilining ichki ohangini (ritmini) yaxshi sezgani uchun tegishli so'zlarni qo'llash orqali lirik qahramon dardining aniq holatini ochib beradi. Muzaffar Ahmedovning «Tórǵayday davroni bólmas» degan qatoridagi «davron» so'zi esa, asl nusxadagi ovoz va nag'ma ma'nosidan biroz uzoqlashib, falsafiy mulohazaga ko'proq e'tibor qaratgan, biroq bu Berdaqning shu qatordagi badiiy nishoniga (turg'ayning sayrashiga) ijobiy ta'sir ko'rsatmagan. Shuningdek, ikkinchi banddagi «Ǵamsiz kunim chalqib ótar» (Mirtemir) va «naqlib ótar» (M. Ahmedov) so'zlarini solishtirganda, Mirtemirning «chalqib» (to'lqinlanib) so'zi Berdaqning dardli va notinch kuni uchun dinamik obrazlilikni yuqori darajada ta'minlagan. M. Ahmedovning «naqlib» varianti esa mazmun jihatidan ham asl

nusxa emotsiyasidagi holatni to'liq bermaydi. Shu sababli, Mirtemir Berdaqning so'z bilan tasvir chizish mahoratini, uning xalqchilligini va poetik qobiliyatini o'zbek o'quvchisiga yetkazishda muvofiqlik-ekvivalentlikni yaxshi saqlagan, bu tarjima uchun ijobiy hodisa. Xulosa qilib aytganda, Berdaq asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi masalalari ijobiy bo‘lib, ikki xalq o‘rtasida adabiy ta'sir, adabiy aloqalarning yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi. Tahlil qilingan tarjimalarda tarjima nazariyasiga muvofiq stilistik transformatsiya, ekvivalentlik, matn poetikasi masalalari to‘liq saqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1 Ахметов С, Q.SultanovҚ «Әдебияттаныў» «Билим», Нөкис, 1994.

2.Бердақ. Сайланма шеърлар ва достон. Тошкент, 1978.

3. Бердақ шеърияти Қорақалпоқ тилидан Миртемир таржимаси.- Т., 1983.

4.Бердақ» Танланган асарлар Тошкент, «ЎЗБЕКИСТОН» 1998.

5.Berdaq. Yurt ǵamxórikerakmenga (she’rlar). -Toshkent: «Adabiyot», 2021.

6.Berdaq. Saylandı shıǵarmaları. Nókis, «Bilim», 2022-jıl,

7.Саломов ,Г Комилов Н. Дўстлик куприклари. Тошкент,1979,.

8.Мамбетов К.Наўайы хәм қарақалпақ әдебияты. Нөкис,«Билим», 1991.

9.Жақсыбаев Ә.Көркем аўдарма мәселелери.-Н., «Қарақалпақстан»,1967.

10.Қурбанбаев Б.Бердақ хәм өзбек әдебияты» -Н., «Қарақалпақстан» 1986.

11.ҚурамбаеваГ.Ўзбек ва қорақалпоқ адабий алоқалари. Тошкент, 2022.

12.Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томл. III т., -Н., 2023, 70-71б.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TWITTER/X VA INSTAGRAM IJTIMOIY TARMOQLARIDA KONTEKST TUSHUNCHASI

UO‘K 81’42:004.738.5

NUSRATOV JAVOHIR BAHODIR O‘G‘LI,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (II kurs)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida Twitter/X hamda Instagram ijtimoiy tarmoqlarida kontekst tushunchasining lingvistik, pragmatik va multimodal tabiati qiyosiy yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi raqamli diskursda ma’no shakllanishini faqat verbal matn bilan cheklamasdan, platforma imkoniyatlari, muloqot zanjiri, vizual-audiovizual belgilar, ijtimoiy-madaniy omillar, intertekstual bog‘lanishlar hamda vaqt-algoritmik taqsimot bilan birgalikda izohlovchi ko‘p qatlamli modelni ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *raqamli diskurs, kontekst, Twitter/X, Instagram, multimodallik, pragmatika, platforma affordansi, o‘zbek tili.*

Аннотация: *В статье в сопоставительном аспекте рассматривается понятие контекста в англоязычном и узбекоязычном дискурсе социальных сетей Twitter/X и Instagram. Цель исследования состоит в разработке многоуровневой модели, объясняющей формирование значения в цифровом дискурсе не только через вербальный текст, но и через платформенные возможности, цепочку взаимодействия, визуальные и аудиовизуальные знаки, социокультурные факторы, интертекстуальные связи и временно-алгоритмическое распределение контента.*

Ключевые слова: *цифровой дискурс, контекст, Twitter/X, Instagram, мультимодальность, прагматика, аффорданс платформы, узбекский язык.*

Abstract: *This article offers a comparative account of the concept of context in English- and Uzbek-language discourse on Twitter/X and Instagram. The study aims to develop a multilayered*

model of meaning-making in digital discourse that goes beyond verbal text and incorporates platform affordances, interactional sequences, visual and audiovisual signs, sociocultural factors, intertextual links, and temporal-algorithmic distribution.

Keywords: *digital discourse, context, Twitter/X, Instagram, multimodality, pragmatics, platform affordance, Uzbek language.*

Kirish

Raqamli kommunikatsiyaning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida “kontekst” tushunchasi tilshunoslik uchun yangi metodologik mazmun kasb etmoqda. An’anaviy pragmatika va diskurs tahlilida kontekst ko‘pincha nutq vaziyati, ishtirokchilarning bilimlari, makon-zamon sharoiti va matnning oldingi-keyingi qismlari bilan izohlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa foydalanuvchi yaratgan bitta postning ma’nosi faqat uning so‘zlari bilan cheklanmaydi: kim post qilgani, kimga murojaat qilinayotgani, qaysi postga javob berilgani, qanday hashtag yoki mention ishlatilgani, qanday rasm, video va audio biriktirilgani, kontent qachon tarqatilgani va algoritm uni qaysi auditoriyaga ko‘rsatgani ham interpretatsiyaga ta’sir qiladi. Shu sababli raqamli diskurs konteksti texnik va ijtimoiy omillarni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida qaralishi zarur [1; 2].

Twitter/X va Instagram ushbu masalani qiyoslash uchun ayniqsa muhimdir. Twitter sifatida shakllangan X platformasi tarixan qisqa matn, real vaqtga yaqin yangilanish, reply, repost, quote va hashtagga tayangan mikromatnli muloqot maydoni bo‘lib kelgan. Zappavigna Twitter diskursini “searchable talk”, ya’ni qidirish va ijtimoiy birikish imkonini beruvchi metama’lumotlar bilan tashkil topgan nutq sifatida tahlil qiladi [3; 4]. Instagram esa vizual kontentga tayangan holda rivojlangan va unda tasvir, video, filter, audio, caption, emoji, hashtag, geolokatsiya hamda izohlar bitta kommunikativ birlikning turli semiotik qatlamlarini hosil qiladi [8; 9]. Demak, ikki platformada ham “post” degan umumiy birlik mavjud bo‘lsa-da, uning kontekst yaratish mexanizmlari bir xil emas.

Mavzuning dolzarbligi ingliz va o‘zbek tillari misolida yanada ortadi. Ingliz tili raqamli platformalarning interfeys leksikasi va global internet diskursining katta qismini shakllantirgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi raqamli muloqot

mahalliy pragmatik me’yorlar, agglutinativ morfologiya, lotin va kirill grafikasi o‘rtasidagi variantlilik hamda rus va ingliz tillari bilan kod aralashuvi bilan xarakterlanadi. Masalan, post, story, reel, live, follow singari birliklar o‘zbekcha qo‘shimchalar bilan “postni”, “storyga”, “reelsda”, “follow qiling” shaklida faol moslashishi mumkin. Bunday shakllarda kontekst leksik ma’nodan tashqari foydalanuvchi jamoasining raqamli savodxonligi, platforma odatlari va til tanlovini ham indekslaydi. Tarmoqlangan ko‘p tillilik tushunchasi ham raqamli muloqotda tillar qat’iy chegaralar bo‘yicha emas, auditoriya va kommunikativ vazifaga ko‘ra dinamik aralashishini ko‘rsatadi [12].

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, ijtimoiy tarmoq matnlarini qiyosiy o‘rganishda “kontekst” ko‘pincha umumiy fon yoki ekstralingvistik sharoit sifatida qisqacha tilga olinadi, ammo uning platformaga xos, multimodal va algoritmik komponentlari yagona tahliliy modelda yetarli darajada tizimlashtirilmaydi. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarida X hamda Instagram kontekstini bir model orqali qiyoslash o‘zbek tilshunosligida istiqbolli yo‘nalishdir. Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli diskursdagi kontekstni ko‘p qatlamli hodisa sifatida konseptuallashtirish va Twitter/X hamda Instagram misolida ingliz va o‘zbek tillariga tatbiq etiladigan qiyosiy tahlil modelini taklif qilish. Tadqiqot vazifalari: (1) kompyuter vositasidagi diskurs va ijtimoiy tarmoq tili haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish; (2) kontekstning asosiy qatlamlarini ajratish; (3) X va Instagramning kontekst hosil qiluvchi affordanslarini qiyoslash; (4) ingliz va o‘zbek tilidagi pragmatik hamda struktur farqlarni tavsiflash; (5) keyingi empirik korpus tadqiqotlari uchun operatsion mezonlarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Kompyuter vositasidagi diskursni tizimli o‘rganish Susan Herring ishlari bilan mustahkam metodologik asosga ega bo‘ldi. Herring kompyuter vositasidagi diskurs tahlilini onlayn muloqotdagi kuzatiladigan til xususiyatlarini mikro darajada tahlil qilish va ularni kengroq ijtimoiy hodisalar bilan bog‘lash imkonini beruvchi yondashuv sifatida ko‘rsatadi [1]. Keyingi ishida u diskurs namunalarini “medium factors” va “situation factors” kabi texnik hamda ijtimoiy o‘lchamlar bo‘yicha tavsiflashga imkon beruvchi fasetli tasnifni taklif etadi [2]. Ushbu qarash raqamli kontekstning platforma dizayni bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi: sinxronlik darajasi, xabar uzunligi, anonimlik, auditoriya tuzilishi va ishtirok shakli til birliklarining ishlatilishiga bevosita ta’sir qilishi mumkin.

Twitter diskursi bo‘yicha Zappavigna tadqiqotlari kontekstning tarmoqlangan va qidiriladigan xususiyatlarini ochib berdi. “Discourse of Twitter and Social Media” asarida muallif ambient affiliation, baholash va hashtaglar orqali auditoriya bilan bilvosita birikish mexanizmlarini tahlil qiladi [3]. Hashtag faqat mavzu yorlig‘i emas, balki tajribaviy mavzuni nomlash, munosabat bildirish va matnni tashkil etish vazifalarini bajarishi mumkin [4]. Shu jihatdan #AI, #Toshkent, #kitob kabi birliklar post mazmunining tashqi qo‘shimchasi emas, balki uning semantik-pragmatik kontekstini qayta ramkalovchi metadiskursiv vosita hisoblanadi. Marwick va boydning “context collapse” konsepsiyasi esa ijtimoiy tarmoqlarda turli auditoriyalar bir xil kommunikativ maydonda to‘qnashishini va muallif ko‘pincha real auditoriyani emas, “tasavvurdagi auditoriya”ni ko‘zda tutishini ko‘rsatadi [16]. Bu hodisa ingliz va o‘zbek tillaridagi uslub, murojaat shakli va o‘zini taqdim etish strategiyalarini tahlil qilishda muhimdir.

Ijtimoiy tarmoq tilini alohida grammatik tizim sifatida emas, kommunikativ amaliyotlar majmuasi sifatida o‘rganish Page va hammualliflar, shuningdek Tagg tomonidan rivojlantirilgan [5; 6]. Bu yondashuv raqamli matnning ma’nosi foydalanuvchilarning kundalik amaliyoti, auditoriya dizayni, identitet va raqamli savodxonlik bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ko‘p tilli muhitda til tanlovi ham kontekst markeriga aylanadi. Androutsopoulos “networked multilingualism” orqali raqamli tarmoqdagi ko‘p tillilik foydalanuvchilarning platformaga kirishi, global media oqimlariga aloqadorligi va tarmoqlangan auditoriyaga yo‘nalishi bilan shakllanishini asoslaydi [12]. O‘zbek raqamli diskursida inglizcha texnik atamalar, ruscha so‘zlashuv birliklari va o‘zbekcha grammatik qo‘shimchalarning bir postda uchrashi aynan shu hodisaning mahalliy ko‘rinishlaridan biridir.

Instagramni tahlil qilishda multimodallik markaziy nazariy kategoriya bo‘lib xizmat qiladi. Kress kommunikatsiyani yozuv, tasvir, rang, ovoz, makon va boshqa semiotik moduslar birgalikda ma’no yaratadigan tizim sifatida qarashni taklif qiladi [7]. Highfield va Leaver Instagramga doir “Instagrammatics” yondashuvida vizual ijtimoiy mediani faqat tasvir to‘plami sifatida emas, balki rasm, matn, emoji, hashtag va platforma amaliyotlari o‘zaro bog‘langan intertekstual muhit sifatida ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi [8]. Leaver, Highfield va Abidin Instagramni platforma va madaniyat sifatida o‘rganib, uning rivojlanishi vizual estetikalar, influencer amaliyotlari va

kundalik identitet taqdimotiga ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi [9]. Shunday qilib, Instagramdagi caption tasvirga “qo‘shimcha” emas; aksincha, tasvir, caption va izohlar o‘rtasidagi munosabat to‘liq kontekstni yaratadi.

Platforma affordansi tushunchasi kontekstni texnologik determinizmga tushirib yubormasdan tahlil qilishga imkon beradi. Bucher va Helmond affordansni platforma hamda turli foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatda yuzaga keladigan harakat imkoniyatlari sifatida tushuntiradi [10]. Quote post, reply, thread, hashtag, Story, Reel, mention yoki geotag kabi funksiyalar shunchaki interfeys elementlari emas; ular qanday nutqiy harakatlar sodir bo‘lishini va foydalanuvchi boshqa matnlar bilan qanday aloqaga kirishini ramkalaydi. Van Dijck, Poell va de Waal esa platformalar ijtimoiy aloqalarni ma’lumotlashtirish va algoritmlar orqali tashkil etishini ko‘rsatadi [11]. Demak, ijtimoiy tarmoq kontekstiga foydalanuvchi ko‘rmaydigan, lekin kontent tarqalishiga ta’sir qiladigan algoritmik qatlamni ham kiritish zarur.

O‘zbek tilshunosligida pragmatik kontekstni izohlash uchun Sh. Safarov va M. Hakimovning ishlari nazariy tayanch bo‘la oladi. Safarov nutqiy faoliyatda maqsad, adresant-adresat munosabati, presuppozitsiya va kommunikativ vaziyatning o‘rnini ta’kidlaydi [13]. Hakimov o‘zbek pragmalingvistikasida nutq subyekti, tinglovchi, kommunikativ maqsad va milliy-madaniy omillarni o‘zaro bog‘liq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [14]. Medialingvistika nuqtayi nazaridan Dobrosklonskaya media matnning til va kommunikativ sharoit bilan tizimli aloqasini yoritadi [15]. Biroq ushbu yondashuvlarni X va Instagramning platformaviy-multimodal xususiyatlari bilan integratsiyalash raqamli qiyosiy tilshunoslik uchun yangi ilmiy imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-konseptual va qiyosiy xarakterga ega. Material sifatida kompyuter vositasidagi diskurs tahlili, ijtimoiy media tili, Twitter/X diskursi, Instagram multimodalligi, platforma affordanslari, tarmoqlangan ko‘p tillilik va o‘zbek pragmalingvistikasi bo‘yicha 16 ta tayanch ilmiy manba tanlab olindi. Manbalar uch mezon asosida saralandi: (1) raqamli diskurs kontekstini bevosita yoki bilvosita nazariylashtirishi; (2) Twitter/X yoki Instagramga xos kommunikativ mexanizmlarni tahlil qilishi; (3) ingliz-o‘zbek qiyosiga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan pragmatik, multimodal yoki ko‘p tillilik kategoriyalarini taklif qilishi. Tadqiqot foydalanuvchilarning yopiq yoki shaxsiy ma’lumotlariga tayanmaydi; maqoladagi misollar muallif tomonidan tahlil

modeli imkoniyatini ko‘rsatish uchun tuzilgan va real foydalanuvchi postlari sifatida taqdim etilmaydi.

Tahlilda besh usul uyg‘unlashtirildi. Birinchidan, Herringning kompyuter vositasidagi diskurs tahlili asosida platformaning texnik va situativ xususiyatlari ajratildi [1; 2]. Ikkinchidan, pragmalingvistik tahlil orqali adresant, adresat, kommunikativ maqsad, presuppozitsiya, implikatura va baholash birliklari ko‘rib chiqildi [13; 14]. Uchinchidan, multimodal ijtimoiy semiotika tasvir, yozuv, audio, emoji, layout va harakatli tasvir o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini tavsiflashda qo‘llanildi [7]. To‘rtinchidan, platformaga sezgir yondashuv orqali X va Instagram affordanslarining diskurs strukturasiga ta’siri tahlil qilindi [10]. Beshinchidan, qiyosiy-tavsifiy usul yordamida ingliz va o‘zbek tilidagi kontekst markerlari o‘xshash va farqli jihatlar bo‘yicha guruhlandi.

Operatsion tahlil birligi sifatida “raqamli post kompleksi” tushunchasi qabul qilindi. X uchun u asosiy post matni, unga bog‘langan reply/quote/repost/thread, hashtag, mention va media birikmasini; Instagram uchun esa rasm yoki video, caption, hashtag/mention, audio, Stories/Reels konteksti va izohlar zanjirini qamrab oladi. Shu birlik asosida kontekst yetti qatlamga bo‘linib, har bir qatlam uchun kuzatiladigan indikatorlar belgilandi. Mazkur model empirik korpus tadqiqotida kodlash sxemasi sifatida ham qo‘llanishi mumkin.

Natijalar va ularning tahlili

Nazariy manbalarni integratsiyalash natijasida ijtimoiy tarmoq kontekstini bitta “fon” tushunchasi bilan izohlash yetarli emasligi aniqlandi. Raqamli post ma’nosi kamida yetti o‘zaro bog‘liq qatlamda yuzaga keladi. Ushbu qatlamlar mustaqil emas: masalan, hashtag lingvistik birlik bo‘lishi bilan birga intertekstual tugun, platforma funksiyasi va auditoriyani topish vositasidir; Instagram Reels audiosi esa multimodal resurs bo‘lishi bilan birga trendlar orqali algoritmik tarqalish signaliga aylanishi mumkin. Shu sababli quyidagi model kontekstni “qatlamlar yig‘indisi” emas, balki dinamik matritsa sifatida talqin qiladi.

1-jadval

Ijtimoiy tarmoq kontekstining yetti qatlamli modeli

Kontekst qatlami	Asosiy indikatorlar	Tahliliy vazifa
1. Lingvistik kotekst	Leksika, sintaksis, anafora, ellipsis, oldingi/keyingi birliklar	Postning verbal ichki bog‘lanishini tiklash

Kontekst qatlami	Asosiy indikatorlar	Tahliliy vazifa
2. Interaksion-pragmatik	Adresant/adresat, reply, savol-javob, stance, politeness, presuppozitsiya	Nutqiy harakat va kommunikativ niyatni aniqlash
3. Multimodal	Tasvir, video, audio, emoji, tipografika, rang, layout	Verbal va noverbal moduslar o‘rtasidagi ma’no aloqasini izohlash
4. Platformaviy-affordans	Quote, repost, thread, Story, Reel, mention, geotag	Interfeys imkoniyatining diskurs shakliga ta’sirini ko‘rsatish
5. Ijtimoiy-madaniy	Norma, identitet, status, avlod, mahalliy konvensiyalar	Madaniy presuppozitsiya va ijtimoiy indekslarni ochish
6. Tarmoqlararo/intertekstual	Hashtag, hyperlink, meme, mention, iqtibos, trend	Postni boshqa matnlar va jamoalar bilan bog‘lash
7. Vaqt-algoritmik	Vaqt belgisi, trend sikli, tavsiya oqimi, takroriy tarqalish	Ko‘rinish va interpretatsiyaning vaqt hamda tarqatish logikasiga bog‘liqligini izohlash

Birinchi qatlam — lingvistik kotekst — an’anaviy matn lingvistikasiga eng yaqin qismdir. Masalan, Xdagi “This changes everything” jumlasi oldingi quote post yoki linkdagi voqeasiz semantik jihatdan haddan tashqari ochiq qoladi. O‘zbekcha “Shu sababli endi boshqacha ishlaymiz” jumlasidagi “shu sababli” anaforik ko‘rsatkich ham avvalgi post yoki rasmga murojaat qiladi. Biroq raqamli muhitda kotekst har doim bir ekranda ko‘rinmasligi mumkin: foydalanuvchi threadning o‘rtasidan kirishi, screenshot orqali asl postdan uzilgan fragmentni ko‘rishi yoki Instagram captionini repost qilingan tasvirdan alohida uchratishi mumkin. Shuning uchun raqamli kotekstni rekonstruksiya qilish intertekstual qatlam bilan birga olib boriladi.

Ikkinchi — interaksion-pragmatik qatlam — ma’noni ishtirokchilar munosabati bilan bog‘laydi. Bir xil “Sure.” inglizcha javobi qo‘llab-quvvatlash, kinoya yoki norozilikni ifodalashi mumkin; uning talqini oldingi post, emoji, auditoriya va muallifning odatiy uslubiga bog‘liq. O‘zbek tilida “Mayli-da”, “Bo‘pti-ku”, “Siz ham shunaqa deb o‘ylaysizmi?” kabi birliklarda -da, -ku singari yuklamalar va siz/sen tanlovi interpersonallikni kuchli indekslaydi. Safarov va Hakimov ta’kidlagan pragmatik omillar raqamli platformada reply strukturalari, mentionlar va ko‘rinadigan auditoriya signallari bilan birlashadi [13; 14].

Uchinchi qatlam — multimodal kontekst — ayniqsa Instagram uchun markaziydir. “Perfect morning” captioni quyoshli manzara, qahva, sport zalidagi selfie yoki kinoyaviy ravishda yomg‘irli ko‘cha tasviri bilan birikkanida turlicha ma’no beradi. Xda ham rasm, GIF, video va emoji matnni qayta ramkalashi mumkin, ammo Instagramning tarixiy va funksional rivojlanishida vizual komponent ko‘pincha birlamchi semantik tayanch vazifasini bajaradi [8; 9]. O‘zbekcha Instagram postida “Bugun hammasi o‘zgacha” degan matnni to‘y marosimi, universitet bitiruvi yoki mahsulot reklamasidan ajratib talqin qilib bo‘lmaydi. Demak, lingvistik tahlilda captionni tasvirdan mustaqil korpus birligi sifatida olish muhim ma’no yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchi qatlam — platformaviy-affordans konteksti — X va Instagram o‘rtasidagi eng aniq farqlarni beradi. Xdagi reply postni oldingi xabarga dialogik bog‘laydi; quote post boshqa xabarni ko‘rinadigan iqtibosga aylantirib, muallifga metakommentar berish imkonini yaratadi; repost esa mazmunni yangi auditoriyaga ko‘chirish bilan birga ma’lum darajada pozitsiyalash vazifasini ham bajarishi mumkin. Thread ketma-ket postlar orqali mikromatnni kengaytiradi. Instagramda carousel bir nechta tasvirni ketma-ket argument yoki hikoyaga aylantiradi, Stories vaqtinchalik va epizodik muloqot yaratadi, Reels esa video va audio trendlar asosida yuqori intertekstual takrorlanuvchanlikni ta’minlaydi. Affordanslar tilga “tashqi” omil emas, balki nutqiy harakatning bajarilish shaklini belgilovchi kontekst resursidir [10].

Beshinchi qatlam — ijtimoiy-madaniy kontekst — ingliz va o‘zbek raqamli diskursini qiyoslashda alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi global postlar ko‘pincha heterogen auditoriyaga mo‘ljallangani uchun lokal bilimni tushuntiruvchi izohlar yoki universal internet memlariga tayanishi mumkin. O‘zbek auditoriyasiga yo‘naltirilgan postlarda esa mahalliy toponim, qarindoshlik atamalari, hurmat shakllari, bayram va kundalik ijtimoiy amaliyotlar qisqa ko‘rsatkichlar bilan katta presuppozitsiyani faollashtiradi. Masalan, “hasharga chiqamiz”, “navro‘zona kayfiyat”, “opajonlar”, “ustozlarimiz” kabi birliklar to‘liq ma’noga ega bo‘lishi uchun umumiy madaniy bilim talab qilinadi. Shu bilan birga, platformaning transmilliy tabiati lokal va global indekslarni bitta postda birlashtiradi.

Oltinchi qatlam — tarmoqlararo/intertekstual kontekst — ijtimoiy medianing tarmoq tabiatini aks ettiradi. Hashtag, mention, meme shabloni, hyperlink, screenshot, audio trend yoki boshqa postdan iqtibos bir postni ko‘plab

boshqa matnlar bilan bog‘laydi. Zappavigna hashtaglarning tajribaviy, interpersonallik va matnni tashkil etish funksiyalarini ko‘rsatadi [4]. Shunga ko‘ra, inglizcha #AcademicTwitter yoki o‘zbekcha #kitobxonlik kabi hashtaglar mavzu identifikatoridan tashqari ma’lum jamoaga yaqinlik va kommunikativ pozitsiyani ham bildirishi mumkin. Meme va trend audio esa ko‘pincha “oldindan mavjud” ma’noni yangi lokal kontekstga ko‘chiradi. Ularni bilmagan foydalanuvchi postning kinoyasi yoki baholashini tushunmasligi mumkin.

Yettinchi qatlam — vaqt-algoritmik kontekst — raqamli diskursning eng kam ko‘rinadigan, ammo muhim komponentidir. Postning 5 daqiqa oldin yoki 5 yil oldin yaratilgani uning dolzarbligini va talqinini o‘zgartiradi. Xda real vaqt voqealari paytida hashtag va repost oqimi tezkor kontekst yaratishi mumkin; Instagram Reels yoki Explore tavsiyalari esa eski kontentni ham yangi auditoriyaga qayta olib chiqishi mumkin. Platforma jamiyatida algoritmlar ijtimoiy oqimni tartibga soluvchi mexanizmga aylanadi [11]. Shu sababli tadqiqotchi faqat “nima yozilgan?” emas, “qachon va qanday tarmoq oqimida ko‘ringan?” savolini ham hisobga olishi zarur.

Twitter/X va Instagram kontekstining qiyosiy tavsifi

Qiyosiy tahlil Xda kontekstning dialogik-sekvensial va indeksik resurslari, Instagramda esa multimodal-kompozitsion resurslar nisbatan salmoqli ekanini ko‘rsatadi. Bu mutlaq qarama-qarshilik emas: X multimodal kontentni qo‘llab-quvvatlaydi, Instagram esa izoh va Direct orqali matnli muloqotga ega. Farq dominant kontekst tashkil etish logikasidadir. Xda foydalanuvchi ko‘pincha “qaysi postga javob?” yoki “qaysi threadning qismi?” degan savolga javob izlaydi. Instagramda esa “caption qaysi tasvir/video bilan birikkan?” va “audio yoki vizual trend nimani anglatadi?” savollari ko‘proq markaziy bo‘ladi.

Xdagi quote mexanizmi kontekstni ko‘rinadigan holda ichki joylashtiradi: yangi post eski postni o‘z tarkibida ko‘rsatadi va muallifning bahosini qo‘shadi. Bu dialogik heteroglossiya va pozitsiyalash uchun qulay struktura yaratadi. Instagram repost amaliyotida esa asl kontekst ko‘pincha screenshot, Story mentioni yoki boshqa vizual shaklda qayta quriladi; caption va asl post o‘rtasidagi aloqani foydalanuvchi qo‘shimcha ravishda aniqlashi kerak bo‘lishi mumkin. Shu sababli manba ko‘rinuvchanligi va intertekstual zanjirni tiklash ikki platformada turlicha metodologik yondashuv talab qiladi.

Context collapse hodisasi ham platformalar bo‘yicha turlicha ko‘rinishi mumkin. Xdagi ochiq post siyosiy, professional, do‘stona va akademik auditoriyalar tomonidan bir vaqtning o‘zida o‘qilishi ehtimolini oshiradi [16].

Instagramda esa profil estetikasi, Close Friends, Stories yoki turli akkauntlar auditoriyani qisman segmentlash imkonini beradi, biroq ommaviy postlar baribir bir nechta ijtimoiy rollarni bir maydonga olib kelishi mumkin. Ingliz va o‘zbek foydalanuvchilari bunday vaziyatda uslubiy neytrallash, kod almashtirish, emoji, hazil yoki lokal indekslar orqali “kerakli” auditoriyani ko‘zda tutishi mumkin.

2-jadval

Twitter/X va Instagramda kontekstni tashkil etuvchi dominant mexanizmlar

Mezon	Twitter/X	Instagram
Dominant diskurs formasi	Qisqa/ketma-ket matn, reply va thread	Vizual/audiovizual post, caption va comment zanjiri
Intertekstual bog‘lanish	Quote post, repost, hashtag, hyperlink	Mention, hashtag, audio trend, remix/repost, carousel
Vaqt dinamikasi	Real vaqt va hodisaga tezkor reaksiya kuchli	Feed, Stories va Reelsda turli vaqt rejimlari
Multimodallik	Matn markazli, biroq media integratsiyasi yuqori	Tasvir/video markazli, matn va audio bilan integratsiya
Kontekstni tiklashdagi asosiy savol	“Bu post nimaga javob/iqtibos?”	“Bu caption qaysi vizual/audio bilan birikkan?”
Tadqiqot xavfi	Thread yoki quote zanjirini uzib olish	Captionni rasm/video va audio kontekstidan ajratish

Ingliz va o‘zbek tillarida kontekst markerlarining xususiyatlari

Ingliz va o‘zbek tillaridagi raqamli diskursda ko‘plab universal resurslar mavjud: hashtag, mention, emoji, link, qisqartma, meme, repost va kommentariya ikki tilda ham kontekst yaratishi mumkin. Biroq ularning lingvistik “qadoqlanishi” turlicha. Ingliz tilida platforma leksikasi morfologik jihatdan nisbatan kam o‘zgarib, “post”, “thread”, “repost”, “story”, “reel” shakllarida ishlatiladi. O‘zbek tilida esa ushbu birliklar agglutinativ tizimga moslashib, “postlar”, “postni”, “threadga”, “storydan”, “reelsda” kabi shakllarni hosil qiladi. Bu birliklar nafaqat grammatik aloqani, balki raqamli amaliyotning mahalliy til tizimiga integratsiyalashganini ham ko‘rsatadi.

Ikkinchi xususiyat — kod aralashuvi va translanguaging. O‘zbek tilidagi postlar “Bugun live qilamiz”, “link bio‘da”, “reelsni saqlab qo‘ying”, “follow qilib turing” kabi inglizcha raqamli terminlarni o‘zbekcha fe’l va qo‘shimchalar bilan birlashtirishi mumkin. Ayrim auditoriyalarda ruscha birliklar ham qatnashadi. Bunday aralashuvni “til xatosi” deb emas, tarmoqlangan ko‘p tillilik

va auditoriya dizayni nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq [12]. Ingliz tilidagi postlarda ham boshqa tillardan sitata, emoji yoki hashtaglar orqali lokal identitet yaratiladi, ammo o‘zbek kontekstida ko‘p tilli qatlam ko‘pincha platforma terminologiyasi bilan tizimli ravishda bog‘langan.

Uchinchi xususiyat — grafik variantlilik. O‘zbek tili lotin yozuviga asoslangan bo‘lsa-da, ijtimoiy tarmoqlarda kirill yozuvi, apostrofning turli texnik shakllari (o‘, g‘ / o‘, g'), qisqartirilgan imlo va fonetik yozuv uchrashi mumkin. Bir xil leksemaning turli yozuv variantlari hashtag qidiruvchanligiga ham ta’sir qiladi: masalan, lotin va kirill yozuvidagi hashtaglar bitta semantik mavzu bilan bog‘liq bo‘lsa ham, platforma ularni alohida indekslashi mumkin. Shu jihatdan grafik tanlov lingvistik va tarmoqlararo kontekstni birlashtiradi.

To‘rtinchi xususiyat — murojaat va baholash pragmatikasi. O‘zbek tilidagi siz/sen qarama-qarshiligi, ko‘plik/hurmat affikslari, “aka”, “opa”, “ustoz”, “do‘stlar” kabi murojaatlar auditoriya munosabatini aniq indekslaydi. “Ko‘rib qo‘yinglar”, “fikringizni yozib qoldiring”, “siz nima deb o‘ylaysiz?” singari formalar caption va postning interaksion maqsadini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa “you”, “guys”, “folks”, “thoughts?”, “let me know” kabi vositalar auditoriyani chaqiradi, lekin grammatik hurmat kategoriyasi o‘zbekchadagi darajada kodlanmagan. Shu sababli qiyosiy tahlilda aynan grammatik ekvivalentlarni emas, funksional-pragmatik muvofiqlikni qidirish lozim.

Beshinchi xususiyat — ellipsis va lokal presuppozitsiya. Ijtimoiy tarmoq postlari ixcham bo‘lgani uchun ko‘p ma’no umumiy bilimga yuklanadi. Inglizcha “Not again.” yoki o‘zbekcha “Yana boshlandi...” kabi qisqa postlarning referenti kontekstsiz noaniq. Xda u reply zanjiri yoki trend orqali, Instagramda esa rasm/video orqali aniqlanishi mumkin. Demak, qiyosiy tilshunos uchun “gap” emas, “post kompleksi” minimal tahlil birligi bo‘lishi kerak. Bu maqolaning asosiy metodologik natijalaridan biridir.

Muhokama

Taklif etilgan yetti qatlamli model mavjud yondashuvlarni birlashtiradi: Herringning texnik va situativ fasetlari [2] platformaviy va interaksion qatlamga, Kressning multimodalligi [7] multimodal qatlamga, Zappavignaning qidiriladigan nutqi [3; 4] intertekstual tarmoq qatlamiga, Bucher va Helmondning affordans yondashuvi [10] platforma funksiyalariga, van Dijck va hammualliflarning platformalashuv haqidagi qarashlari [11] esa vaqt-algoritmik qatlamga metodologik asos beradi. O‘zbek pragmalingvistikasi [13; 14] esa

modelning ijtimoiy-madaniy va interaksion jihatlarini mahalliy til tizimiga moslashtirish imkonini yaratadi.

Modelning ilmiy yangiligi uch nuqtada koʻrinadi. Birinchidan, kontekst verbal matndan tashqariga chiqarilib, postning texnik, multimodal va algoritmik muhitini ham tahlil obyekti sifatida qamrab oladi. Ikkinchidan, X va Instagram bir xil mezonlar asosida qiyoslanadi, shu bilan birga ularning platformaga xos dominant kontekst mexanizmlari saqlab qolinadi. Uchinchidan, ingliz-oʻzbek qiyosida faqat leksik yoki grammatik farqlar emas, balki agglutinativ moslashuv, kod aralashuvi, grafik variantlilik va murojaat pragmatikasi kabi raqamli til amaliyotlari kontekst markerlari sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, maqolaning chegaralari mavjud. Tadqiqot konseptual xarakterga ega boʻlib, katta hajmdagi real postlar korpusiga statistik kodlash qoʻllanilmadi. Shuning uchun platformalar yoki tillar boʻyicha chastota, foiz yoki sabab-oqibat haqidagi xulosalar chiqarilmaydi. Keyingi bosqichda muvozanatlashtirilgan ingliz va oʻzbek korpusi tuzilib, X va Instagramdan ochiq, etik me’yorlarga muvofiq ma’lumotlar yigʻilishi, yetti qatlam boʻyicha kodlovchilararo ishonchlilik tekshirilishi va kontekst markerlarining chastota hamda kombinatsiyalari qiyoslanishi maqsadga muvofiq. Shu tariqa hozirgi model empirik tadqiqot uchun nazariy va kodlash asosini taqdim etadi.

Xulosa

Twitter/X va Instagramdagi raqamli muloqotni ingliz va oʻzbek tillari misolida qiyoslash “kontekst”ni yagona fon omili sifatida emas, koʻp qatlamli va dinamik tizim sifatida talqin qilish zarurligini koʻrsatdi. Maqolada kontekstning yetti qatlami — lingvistik kotekst, interaksion-pragmatik, multimodal, platformaviy-affordans, ijtimoiy-madaniy, tarmoqlararo/intertekstual va vaqt-algoritmik qatlamlar ajratildi. Ushbu qatlamlar bir-birini toʻldiradi va real raqamli postda koʻpincha bir vaqtning oʻzida faol boʻladi.

Qiyosiy natijaga koʻra, Twitter/Xda ma’no koʻproq reply, quote, repost, thread va hashtaglar orqali ketma-ket-dialogik hamda qidiriladigan tarmoq kontekstida shakllanadi. Instagramda esa tasvir, video, audio, caption, Stories/Reels va izohlar oʻrtasidagi multimodal integratsiya kontekstning asosiy manbalaridan biridir. Shu bois X tadqiqotida reply/quote zanjirini, Instagram tadqiqotida esa vizual-audiovizual materialni captiondan ajratmaslik metodologik talab sifatida taklif etiladi.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar platforma vositalarini o‘zlashtirish usulida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek raqamli diskursida inglizcha platforma terminlariga o‘zbekcha qo‘shimchalarning qo‘shilishi, kod aralashuvi, lotin-kirill grafik variantlari, hurmat va murojaat shakllari kontekst yaratishning muhim indikatorlaridir. Ingliz tilida esa platforma terminologiyasining nisbatan barqaror shakllari, qisqa stance markerlari va global internet konvensiyalarining keng qo‘llanishi kuzatiladi. Biroq har ikki tilda ma’no platforma affordanslari va tarmoqlangan auditoriya bilan birgalikda shakllanadi.

Amaliy jihatdan taklif etilgan model ijtimoiy media korpuslarini tuzish, postlarni annotatsiyalash, pragmatik va multimodal tahlil o‘tkazish, ingliz-o‘zbek tarjima va mediadiskurs tadqiqotlarida kontekst yo‘qotilishini aniqlash uchun qo‘llanishi mumkin. Kelgusida X va Instagram bo‘yicha parallel yoki taqqoslanadigan korpuslar yaratish, turli janrlar (yangilik, reklama, shaxsiy blog, akademik kommunikatsiya) kesimida kontekst qatlamlarini o‘lchash hamda algoritmik tarqalishning til birliklari tanloviga bilvosita ta’sirini empirik tekshirish muhim istiqbol bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Herring S.C. Computer-Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / eds. S.A. Barab, R. Kling, J.H. Gray. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P. 338–376. DOI: 10.1017/CBO9780511805080.016.

2. Herring S.C. A Faceted Classification Scheme for Computer-Mediated Discourse // Language@Internet. – 2007. – Vol. 4.

3. Zappavigna M. Discourse of Twitter and Social Media: How We Use Language to Create Affiliation on the Web. – London; New York: Continuum, 2012. – 227 p. DOI: 10.5040/9781472541642.

4. Zappavigna M. Searchable talk: the linguistic functions of hashtags // Social Semiotics. – 2015. – Vol. 25, No. 3. – P. 274–291. DOI: 10.1080/10350330.2014.996948.

5. Page R., Barton D., Lee C., Unger J.W., Zappavigna M. Researching Language and Social Media: A Student Guide. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2022. – 218 p.

6. Tagg C. Exploring Digital Communication: Language in Action. – London; New York: Routledge, 2015. – 291 p.

7. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. – London; New York: Routledge, 2010. – 212 p.

8. Highfield T., Leaver T. Instagrammatics and digital methods: studying visual social media, from selfies and GIFs to memes and emoji // Communication Research and Practice. – 2016. – Vol. 2, No. 1. – P. 47–62. DOI: 10.1080/22041451.2016.1155332.

9. Leaver T., Highfield T., Abidin C. Instagram: Visual Social Media Cultures. – Cambridge: Polity, 2020. – 264 p.

10. Bucher T., Helmond A. The Affordances of Social Media Platforms // The SAGE Handbook of Social Media / eds. J. Burgess, T. Poell, A. Marwick. – London: SAGE, 2018. – P. 233–253.

11. van Dijck J., Poell T., de Waal M. The Platform Society: Public Values in a Connective World. – New York: Oxford University Press, 2018. DOI: 10.1093/oso/9780190889760.001.0001.

12. Androutsopoulos J. Networked multilingualism: Some language practices on Facebook and their implications // International Journal of Bilingualism. – 2015. – Vol. 19, No. 2. – P. 185–205. DOI: 10.1177/1367006913489198.

13. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.

14. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

15. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ (современная английская медиаречь). – Москва: Флинта; Наука, 2008. – 263 с.

16. Marwick A.E., boyd d. I tweet honestly, I tweet passionately: Twitter users, context collapse, and the imagined audience // New Media & Society. – 2011. – Vol. 13, No. 1. – P. 114–133. DOI: 10.1177/1461444810365313.

ONOMASTIK BIRLIKLARNING KONTEKSTUAL EKSPRESSIVLIGI VA BAHOLASH FUNKSIYASI

Bekchanova Hilola Dmitriyevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya. *Mazkur maqolada onomastik birliklarning badiiy matnda muhim xususiyatlaridan biri ularning kontekstual ekspressivligi ekanligi ta’kidlangan holda, ekspressivlik til birliklarining faqat nominativ vazifani bajarishi bilan cheklanmay, muallifning subyektiv munosabati, estetik maqsadi hamda hissiy ta’sir uyg‘otish imkoniyati bilan belgilanishi tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar. *Lingvopoetika, onomastik birlik, kontekstual ekspressivlik, til birliklari, identifikatsion vazifa, nominativ vazifa, ekspressiv imkoniyat.*

Аннотация. *В статье рассматривается контекстуальная экспрессивность как ключевая характеристика ономастических единиц в художественных текстах; экспрессивность анализируется не просто как следствие номинативной функции языковых единиц, а как категория, определяемая субъективным отношением автора, его эстетическим замыслом и способностью вызывать эмоциональный отклик.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, ономастическая единица, контекстуальная экспрессивность, языковые единицы, идентификационная функция, номинативная функция, экспрессивный потенциал.*

Abstract. *The article examines contextual expressiveness as a key characteristic of onomastic units in literary texts; expressiveness is analyzed not merely as a consequence of the nominative function of linguistic units, but as a category defined by the author's subjective attitude, aesthetic intent, and ability to elicit an emotional response.*

Keywords: *linguopoetics, onomastic unit, contextual expressiveness, linguistic units,*

identification function, nominative function, expressive potential.

Badiiy matn lingvopoetikasida onomastik birliklarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning *kontekstual ekspressivligi* hisoblanadi. Ekspressivlik til birliklarining faqat nominativ vazifani bajarishi bilan cheklanmay, muallifning subyektiv munosabati, estetik maqsadi hamda kitobxonda muayyan hissiy ta’sir uyg‘otish imkoniyati bilan belgilanadi. Onomastik birliklar she’riy matnda ana shunday ekspressiv imkoniyatlarni namoyon etuvchi muhim poetik vositalardan biridir.

Umumiy til tizimida atoqli otlar, asosan, identifikatsion va nominativ funksiyani bajaradi. Biroq badiiy, ayniqsa she’riy matnda ular kontekst ta’sirida yangi semantik va stilistik yuklama kasb etadi. Natijada poetonimlar muallifning individual-estetik dunyoqarashini ifodalovchi lingvopoetik birlikka aylanadi.

A. V. Superanskaya atoqli otlarning badiiy matndagi funksiyasini tavsiflar ekan, ularning semantik imkoniyatlari matn ichidagi kontekst bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, badiiy matnda onimlar real referentni nomlash bilan birga murakkab assotsiativ va ekspressiv ma’no qatlamlarini ham hosil qiladi[1][1].

V. M. Kalinkin esa poetonimlarning ekspressivligi ularning lug‘aviy ma’nosidan emas, balki poetik kontekstda hosil qiladigan estetik va semantik munosabatlardan kelib chiqishini qayd etadi. Uning ta’kidlashicha, poetonimning badiiy qiymati “matn ichida yuzaga keladigan ikkilamchi semantika” bilan belgilanadi[2][2]. She’riy matnda poetonimning ekspressivligi uning denotativ ma’nosidan konnotativ ma’noga o‘tishi orqali yuzaga keladi. Denotativ ma’no poetonimning lug‘aviy-referensial mazmunini anglatsa, konnotativ ma’no muallifning estetik bahosi, milliy-madaniy assotsiatsiyalari va emotsional munosabatlari bilan boyiydi.

Zamonaviy poetik onomastikada poetonimlarning kontekstual ekspressivligi ko‘pincha *allyuzivlik* orqali shakllanadi. Badiiy matnda qo‘llanilgan ayrim tarixiy, mifologik, diniy yoki adabiy onimlar o‘zining denotativ ma’nosidan tashqari boshqa matnlar, tarixiy voqealar yoki madaniy fenomenlarga ishora qiladi. Ana shu hodisa *allyuziya* deb yuritiladi.

---

[1] Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
[2] Калинкин В.М. Поэтика онима. – Донецк, 1999. – 408с.

Irina Arnold stilistikada allyuziyani o‘quvchi xotirasida avvaldan mavjud bo‘lgan madaniy bilimlarni faollashtiruvchi uslubiy vosita sifatida izohlaydi[3][1]. I. R. Galperin esa alluziyani matnning yashirin semantik qatlamini hosil qiluvchi intertekstual birlik deb hisoblaydi[2]. Poetik onomastikada esa bu vazifani, avvalo, allyuziv poetonimlar bajaradi. Shu sababli kontekstual ekspressivlikning quyidagi modeli shakllanadi: *Poetonim – Allyuziya – Madaniy assotsiatsiya – Ekspressivlik – Pragmatik ta’sir* kabi. Demak, allyuziya poetonimning ekspressiv imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy mexanizmlardan biridir.

Quyidagi misolda Layli va Majnun allyuziv nomlariga ishora qilish orqali lirik qahramon o‘zining oshiqlik holatini bo‘rttirib ifodalashga erishgan:

Jahonda ikki dilbarning
Biri sensan, biri *Laylo*,
Jahonda ikki oshiqning
Biri menman, biri *Majnun*.

(E.Vohidov , “Rubobim tori ikkidur”[5][3]).

Yoki Erkin Vohidovning “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa…” she’rida Navoiy nomi donishmandlik, milliy tafakkur, ma’naviyat, adabiyot timsolidir. Bu orqali Navoiy ma’naviy ideal baholash modeli yuzaga keladi. Bu baholash kitobxonda milliy faxr hissini uyg‘otadi.

Shoirning “O‘zbekiston” faxriyasida esa qo‘shimcha boshqa matnlarga, ya’ni ijtimoiytarixiy fakt mazmuniga ishora qiluvchi *To‘maris, Kayxusrav, Spitamen, Maroqand, Shiroq, Iskandar, Beruniy, Farg‘oniy, Saydona, Ho‘qand, Kampanella, Maskov, Osiyoxon* kabi; filologik fakt mazmuniga ishora qiluvchi *Alisher, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Barchin, Zebiniso, Nodirabegim, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Pushkin* kabi nomlar ushbu matnning g‘oyaviy-badiiy mazmunini nihoyatda boyitgan. Shuningdek, E.Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi”[6][4] she’rini onomastik birliklar atrixida aytib o‘tmaslikni iloji yo‘q. Chunki, bir she’rning o‘zida uchraydigan *Navoiy, Pushkin, Dante, Shiller, Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor, Xayyom, Neruda, Lorka, Servantes, Fuzuliy* kabi antroponimlar tasodifiy tanlanmagan. Ular jahon madaniyatining eng yuksak namoyandalarini ifodalaydigan madaniy kodlar sifatida qatnashadi.

---

[1] Arnold I.V. The English Word. – Moscow: Vyssaja Skola, 1986. – 295 p.
[2] Galperin I.R. English Stylistics. – Moscow: Vyssaja Skola, 1981. – 334 p.
[3] Vohidov E. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 224 b.
[4] O‘sha manba. – B. 58.

“*Navoiy* bilan *Pushkin*
Turib keldi qabrdan.”

misralarida *Navoiy* poetonimi tarixiy shaxsni bildirish bilan cheklanmaydi. She’rda bu poetonim o‘zbek adabiy tilining asoschisi, milliy tafakkur, ma’naviy meros, ona tiliga sadoqat kabi semantik komponentlarni faollashtiradi. Shoir *Navoiy*ni tiriltirayotgani yo‘q. U Navoiyning ma’naviy merosini poetik jihatdan faollashtirmoqda. Bu yerda baholash funksiyasi intertekstual va allyuziv xarakterga ega. Lingvopoetik nuqtayi nazardan bu nomlar individual shaxslarni emas, balki muayyan ma'naviy qadriyatlarni baholovchi poetik belgilar vazifasini bajaradi. Bu yerda *Navoiy* poetonimining baholash funksiyasi uning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatidan emas, balki o‘zbek madaniyatidagi ramziy maqomidan kelib chiqadi. Shunday qilib, poetonimning ekspressivligi uning allyuziv xarakteri bilan bevosita bog‘lanadi.

Muallif *Navoiy*ni *Pushkin* bilan yonma-yon qo‘yadi. Bu poetik parallelizm tasodifiy emas. *Pushkin* rus adabiy tilining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. She’r kontekstida u rus adabiy tilining buyuk namoyandasi, milliy adabiyot asoschisi, ona tilining himoyachisi sifatida baholanadi. Shoir shu orqali barcha millatlarning ona tili teng qadrlanishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi.

Keyingi misralarda “*Dante, Shiller va Bayron*” nomlari ketma-ket qo‘llanadi. Mazkur poetonimlar Yevropa sivilizatsiyasining poetik belgilariga aylanadi.Har biri alohida millat vakili bo‘lsa-da, she'rda ular umumiy aksiologik maydonni hosil qiladi. Bu uch poetonim Yevropa adabiy tafakkurining timsoli hisoblanadi. Bu poetonimlar she’rning universal g‘oyasini kengaytiradi. *Firdavsiy* va *Tagor* poetonimlari orqali esa she’rda Sharq va G‘arb adabiyoti vakillari yonma-yon qo‘yilgan. Shoirning maqsadi har bir millatning buyukligi uning ona tilida mujassam ekanini ko‘rsatishdir. She’rda:

"Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi *Xayyom."*

Bu yerda *Xayyom* poetonimi fors tilining estetik va ilmiy salohiyatini ifodalaydi. Shoir Xayyom orqali fors tiliga nisbatan yuqori bahoni bildiradi. Bu baholash milliy emas, umuminsoniy xarakterga ega.

Neruda, Lorka va *Servantes* poetonimlari ispan va lotin amerika adabiyotining ramzlari sifatida qo‘llanadi. Ular orqali ona tiliga sadoqat, milliy madaniyat, adabiy meros kabi aksiologik semalar yuzaga keladi. She'rdagi

“Fuzuliy yondi...” misrasi orqali *Fuzuliy* nomi nafaqat ozarbayjon adabiyotini, balki turkiy mumtoz she’riyatning umumiy merosini ham ifodalaydi.

She’rning eng muhim *kontekstual* xususiyatlaridan biri shundaki, barcha poetonimlar turli xalqlarga mansub bo‘lsa-da, bitta umumiy g‘oya atrofida birlashtiriladi. Ular orqali shoir har bir xalqning ona tiliga bo‘lgan hurmatini ifodalovchi ijobiy aksiologik maydon yaratadi. Shu jihatdan poetonimlarning baholash funksiyasi she'rning g‘oyaviy-estetik yaxlitligini ta'minlovchi asosiy lingvopoetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Allyuziv nomlar qatnashgan matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Cho‘lpon va Bayron she’riyati qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, onomastik birliklarning kontekstual ekspressivligi ularning lingvopoetik tabiatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Poetonimlar she’riy kontekst ta’sirida referensial ma’nosidan uzoqlashib, emotsional-ekspressiv va baholovchi mazmun kasb etadi. Cho‘lpon poetikasida *Turkiston, Temur, Turon* kabi poetonimlar milliy ozodlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarning ijobiy bahosini ifodalasa, Bayron she’riyatida *Prometheus, Greece, Napoleon* kabi poetonimlar romantik erkinlik, tarixiy buyuklik va insoniy fojiani aks ettiruvchi murakkab evaluativ tizimni shakllantiradi.

Shuningdek, Alisher Navoiy poetikasida *Yusuf, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Iskandar* kabi poetonimlar ijobiy aksiologik baholashni ifodalaydi. Masalan, Navoiy “Xamsa”sidagi *Farhod* obrazi oddiy qahramon emas. Mazkur poetonim sadoqat, mehnatsevarlik, jasorat, komillik baholash semalarini hosil qiladi. *Shirin* esa pok muhabbat, go‘zallik, ma’naviy poklik, asosiysi ideal ma’shuqa kabi baholash modeli hosil bo‘ladi. Bu baholash Sharq mumtoz poetikasining estetik mezoniga aylanadi.

Ingliz she’riyatida John Miltonning “Paradise Lost” poemasida *Adam, Eve, Satan, Eden* poetonimlari kuchli aksiologik tizimni hosil qiladi:

“…With loss of *Eden*, till one greater Man
Restore us, and regain the blissful Seat,…
…So *Satan* spake, and him Beelzebub
Thus answer'd. Leader of those Armies bright,…

Bu she’rda *Eden* poklik, mukammallik, ilohiy uyg‘unlik sifatida, *Satan* esa isyon, mag‘rurlik, gunoh sifatida salbiy baholashni yuzaga keltiradi. Mazkur poemada 70 dan ortiq onomastik birliklar ishtirok etgan bo‘lib, ularning har biri matn tarkibida alohida funksiyaga ega hisoblanadi.

Romantik she’riyatda poetonimlar ko‘pincha tarixiy shaxs yoki geografik makonni nomlash vositasi bo‘lib qolmay, muallifning estetik va axloqiy idealini ifodalovchi aksiologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Wordsworthning “London, 1802” sonetida markaziy poetonimlar *Milton* va *England* aynan shunday vazifani bajaradi. Shoir bu nomlar orqali XIX asr boshidagi ingliz jamiyatining axloqiy tanazzulini baholaydi va ideal jamiyat haqidagi romantik qarashini ifodalaydi. Sonetning ilk misrasi “*Milton!* thou shouldst be living at this hour:” she’rning asosiy aksiologik markazini belgilaydi. Bu yerda *Milton* poetonimi oddiy tarixiy shaxs nomi emas. Denotativ jihatdan u XVII asr ingliz shoiri John Miltonni bildiradi. Ammo poetik kontekstda uning semantik maydoni kengayadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she’riyatida baholash funksiyasi, asosan, milliy tarix, Vatan, ma’naviy komillik va tarixiy xotira konseptlari bilan uzviy bog‘liq. Masalan, Alisher Navoiy poetikasida *Farhod* poetonimi komil inson, fidoyilik va mehnatsevarlik idealini, *Layli* esa pok muhabbat va ma’naviy go‘zallikni ifodalaydi. Erkin Vohidov she’riyatidagi *Navoiy* poetonimi milliy til, ma’naviyat va adabiy merosning oliy ramziga aylansa, Abdulla Oripov ijodidagi *Samarqand* poetonimi milliy davlatchilik, tarixiy xotira va milliy iftixorning aksiologik markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘zbek poetikasida baholash funksiyasi ko‘proq milliy identifikatsiya va ma’naviy qadriyatlarni ulug‘lashga xizmat qiladi.

Ingliz she'riyatida esa baholash funksiyasi yanada murakkab falsafiy va sivilizatsion mazmun kasb etadi. John Miltonning *Eden* poetonimi yo‘qotilgan mukammallik va ilohiy uyg‘unlik timsoli bo‘lsa, *Satan* poetonimi axloqiy tanazzul va isyonning salbiy baholanishini ifodalaydi. William Blake poetikasida *Jerusalem* ideal jamiyat va ruhiy poklanish konseptini anglatsa, William Wordsworthning *Milton* poetonimi milliy vijdon, fuqarolik mas'uliyati va axloqiy ideal timsoliga aylanadi. T.S.Eliot poetikasidagi *London* esa zamonaviy sivilizatsiyaning ma'naviy inqirozi va ruhiy bo‘shlig‘ini ifodalovchi salbiy aksiologik poetonim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat ingliz romantik va modernistik she'riyatida poetonimlar orqali jamiyatning axloqiy holati va sivilizatsiya taqdiri baholanishini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari poetonimlarning baholash funksiyasi universal lingvopoetik hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, poetonimlarning kontekstual ekspressivligi va baholash funksiyasi ularning badiiy matndagi estetik ta’sirini ta’minlovchi eng muhim lingvopoetik mexanizmlardan biri hisoblanadi. She’riy matnda onomastik birliklarning baholash funksiyasi ularning muhim lingvopoetik va pragmatik xususiyatlaridan biridir. Poetonimlar kontekst ta’sirida o‘zining referensial ma’nosidan tashqari muallifning aksiologik munosabatini ifodalovchi estetik birlikka aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.

2. Калинкин В.М. Поэтика онима. – Донецк, 1999. – 408с.

3. Arnold I.V. The English Word. – Moscow: Vyssaja Skola, 1986. – 295 p.

4. Galperin I.R. English Stylistics. – Moscow: Vyssaja Skola, 1981. – 334 p.

5. Vohidov E. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 224 b.

6. O‘sha manba. – B. 58.

O‘ZBEKISTON TOPONIMLARINI YIG‘ISH, HUJJATLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Tillayeva Muyassar Batirovna,
Ma’mun universiteti,
G‘arb tillari va adabiyoti kafedrasi prof.v.b.

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimik birliklarni tizimli ravishda yig‘ish, hujjatlashtirish, tasniflash, ilmiy izohlash va raqamli ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish masalasi predmetini dala tadqiqotlari, og‘zaki, tarixiy, yozma va kartografik manbalar asosida to‘plash hamda nomlar kartotekasini shakllantirish metodologiyasi tashkil etishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: toponim, geografik nom, kartoteka, toponimik ma’lumotlar bazasi, dala tadqiqoti, etimologiya, nomlash motivatsiyasi.

Аннотация: В статье анализируется методология систематического сбора, документирования, классификации, научной интерпретации и интеграции топонимических единиц в цифровую базу данных на основе полевых исследований, а также устных, исторических, письменных и картографических источников; рассматривается процесс создания топонимической картотеки.

Ключевые слова: топоним, географическое название, картотека, топонимическая база данных, полевые исследования, этимология, мотивация наименования.

Abstract: The article analyzes the methodology for the systematic collection, documentation, classification, scientific interpretation, and integration of toponymic units into a digital database based on fieldwork as well as oral, historical, written, and cartographic sources; it also examines the process of creating a toponymic card index.

Keywords: toponym, geographical name, card index, toponymic database, fieldwork, etymology, naming motivation.

Xalqaro amaliyotda geografik nomlarni standartlashtirish aniq kommunikatsiya, huquqiy va ma’muriy boshqaruv, navigatsiya, xaritalash, fazoviy ma’lumotlarni integratsiyalash hamda davlat xizmatlarini samarali tashkil etish uchun zarur omil sifatida baholanadi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu masala yanada katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki mamlakat hududidagi geografik nomlar ko‘p asrlik tarixiy qatlamlarni o‘zida saqlab qolgan. Ular tarkibida qadimgi turkiy, eroniy, arabiy, mo‘g‘ul va boshqa til-madaniy qatlamlarning izlari, shuningdek, mahalliy geografik muhit, etnik guruhlar, urug‘-qabila nomlari, kasb-hunar, antropoetonimlar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq nomlash modellari uchraydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-son Qonunida[1] geografik obyektlar doirasiga ma’muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, transport va muhandislik infratuzilmasi obyektlari, daryolar, ko‘llar, tog‘lar, vodiylar, g‘orlar, cho‘llar, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar va boshqa obyektlar kiritilgan. Qonunda geografik nomlarni belgilashda kartografik va toponimik tadqiqotlar, arxiv va tarixiy manbalar, rasmiy hujjatlar hamda mahalliy aholi va mutaxassislarning so‘rovlaridan foydalanish zarurligi belgilangan. Demak, geografik nomlarni ilmiy asosda yig‘ish va tartibga solish nafaqat tilshunoslik, balki davlat boshqaruvi, kartografiya, tarix, madaniy meros va ta’lim uchun ham muhim vazifadir. Geografik nomlar tabiatan dinamik hodisadir. Ular vaqt o‘tishi bilan fonetik, morfologik va semantik jihatdan o‘zgarishi, rasmiy va norasmiy variantlarga ega bo‘lishi, ayrim hollarda esa tarixiy nom bilan bir qatorda mahalliy aholi ishlatadigan boshqa nom shakli bilan parallel yashashi mumkin. Shu sababli toponimni faqat zamonaviy xaritadagi shakli bilan qayd etish uning to‘liq ilmiy tavsifini bermaydi. Zamonaviy toponimik tadqiqotlarda nomning tarixiy variantlari, mahalliy talaffuzi, nomlanish sababi, birlamchi manbalardagi shakli, koordinatasi, obyekt turi va foydalanish chastotasi kabi ma’lumotlarni birgalikda qayd etish talab etiladi. Simon Taylor[2] ning toponimik metodologiyaga bag‘ishlangan tadqiqotida ham joy nomlarini o‘rganishda yozma va og‘zaki manbalarni birgalikda jalb etish hamda ma’lumotlarni elektron shaklda tizimlashtirish zarurligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston hududida esa bunday tizimli ma’lumotlar bazasini shakllantirish bir necha muammolarni hal etishi mumkin: tarixiy toponimlarning yo‘qolib ketishining oldini olish; bir obyekt nomining turli yozilish variantlarini

aniqlash; mahalliy og‘zaki nomlarni ilmiy hujjatlashtirish;nomlarning etimologiyasi va motivatsiyasini qayd etish; tarixiy va zamonaviy xaritalardagi nomlarni qiyoslash; nomlarning rasmiy va norasmiy maqomini farqlash; yangi nom berish va qayta nomlash jarayonlarini ilmiy ma’lumot bilan ta’minlash; maktab o‘quvchilarida o‘lkashunoslik va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;toponimik ma’lumotlarni GIS va raqamli xaritalarga integratsiya qilish; milliy toponimik gazetteer yaratish uchun ishonchli ma’lumotlar bazasini shakllantirish. Shu ma’noda, nomlar kartotekasini tashkil etish masalasi tor doiradagi filologik vazifa emas, balki milliy geografik nomlar infratuzilmasini yaratishning fundamental bosqichlaridan biridir. Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalar asosiy planga olib chiqiladi: toponimik ma’lumotlarning asosiy manbalarini aniqlash; dala tadqiqotlari uchun metodik dastur ishlab chiqish; mahalliy aholidan ma’lumot olishning ilmiy va etik tamoyillarini belgilash; geografik nomlarning tarixiy va zamonaviy variantlarini qayd etish; nomlarning lingvistik va ekstralingvistik motivatsiyasini aniqlash; toponimlarning hududiy va tematik tasnifini ishlab chiqish; analog qog‘oz kartotekadan raqamli ma’lumotlar bazasiga o‘tish modelini taklif etish; toponimlarning koordinatalarini GIS asosida biriktirish; ma’lumotlarni birlamchi, ikkilamchi va tasdiqlangan darajalarga ajratish; markaziy va hududiy kartotekalarni o‘zaro integratsiyalash; ta’lim jarayonida o‘quvchilar ishtirokidagi toponimik dala tadqiqotlari metodikasini ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda fanlararo metodologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shulardan eng muhimlariga to‘xtalsak.

Dala tadqiqoti metodi. Dala tadqiqoti toponimik ma’lumot yig‘ishning asosiy usullaridan biridir. Unda tadqiqotchi muayyan hududga chiqib, geografik obyektning amaldagi nomini, mahalliy talaffuzini, nomlanish sababini va mahalliy aholi xotirasida saqlanayotgan variantlarini qayd etadi. Intervyu va og‘zaki tarix metodi. Ayniqsa, keksa avlod vakillari bilan suhbat o‘tkazish muhimdir. Chunki ayrim mikrotoponimlar rasmiy hujjatlarda yoki zamonaviy xaritalarda aks etmagan bo‘lishi mumkin. Biroq og‘zaki ma’lumotni bevosita “haqiqat” sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bir nom haqidagi ikki yoki undan ortiq rivoyat alohida qayd qilinib, ularning manbasi va ishonchlilik darajasi ko‘rsatilishi kerak. Tarixiy-qiyosiy metod. Toponimning hozirgi shakli eski xaritalar, arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, tarixiy asarlar

va boshqa yozma manbalardagi shakllari bilan qiyoslanadi. Lingvistik tahlil metodi. Toponimning: fonetik; morfologik; leksik; semantik; etimologik xususiyatlari o‘rganiladi. Toponimik dala tadqiqotlari oldindan ishlab chiqilgan so‘rovnoma asosida amalga oshirilishi kerak. Tavsiya etiladigan savollar: ushbu joy qanday nomlanadi?; mahalliy aholi nomni qanday talaffuz qiladi?; nomning boshqa variantlari bormi?; ushbu nom qachondan beri qo‘llanadi?; nomning kelib chiqishi haqida qanday ma’lumot mavjud?; ushbu nom bilan bog‘liq afsona yoki rivoyat bormi?; oldin bu joy boshqa nom bilan atalganmi?; nomning o‘zgarishiga nima sabab bo‘lgan?; ushbu nomni kimlardan eshitgansiz?; sizdan oldingi avlod bu nomni qanday ishlatgan?; obyektning nomi yozma manbalarda uchraydimi?; mahalliy aholi bu nomni rasmiy nomdan farqli ravishda ishlatadimi?.

Bunday savollar ochiq javob olishga mo‘ljallangan bo‘lib, tadqiqotchiga informantning xotirasi va mahalliy bilimlar tizimini to‘liqroq qayd qilish imkonini beradi. Toponimik ma’lumotlarni yig‘ishda eng muhim metodologik muammolardan biri bu og‘zaki ma’lumot bilan hujjatli ma’lumot o‘rtasidagi nisbatdir. Mahalliy aholi bergan ma’lumotlar ko‘pincha noyob bo‘ladi. Ayrim mikrotoponimlar aynan og‘zaki xotira orqali saqlanadi. Shu sababli ularni e’tiborsiz qoldirish natijasida toponimik merosning katta qismi yo‘qolishi mumkin. Biroq og‘zaki rivoyatni etimologik haqiqat bilan tenglashtirish ham noto‘g‘ri. Masalan, nomning kelib chiqishi haqidagi xalq etimologiyasi tarixiy-lingvistik etimologiyadan farq qilishi mumkin. Shu bois kartotekada: **“Mahalliy rivoyat” va “Ilmiy etimologik izoh”** alohida maydonlarda saqlanishi lozim. Bu prinsip toponimik tadqiqotning obyektivligini sezilarli darajada oshiradi. Toponimlar xalqning hududiy xotirasi, tarixiy tajribasi va madaniy identitetini saqlovchi noyob lingvomadaniy birliklardir. Shu sababli ularni yig‘ish, ilmiy hujjatlashtirish va tizimlashtirish zamonaviy o‘zbek onomastikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu vazifani faqat alohida tadqiqotchilar faoliyati doirasida hal qilish yetarli emas. Mamlakat miqyosida markaziy va hududiy toponimik kartotekalarni o‘zaro bog‘laydigan yagona ilmiy-axborot tizimini shakllantirish zarur. O‘zbekiston Respublikasining geografik nomlarga oid qonunchiligida ham nomlarni aniqlash jarayonida kartografik va toponimik tadqiqotlar, rasmiy hujjatlar, tarixiy va arxiv materiallari hamda mahalliy aholi va mutaxassislar fikridan foydalanish nazarda tutilgani mazkur yondashuvning huquqiy-metodologik asoslarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz

2. Taylor, Simon. The plase-names of Fife. Donington: Shaun Tyas. 2006.

3. O‘zbekiston Respublikasi. **“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun,** O‘RQ-303-son, 12.10.2011. (Норма онлайн)

4. United Nations Group of Experts on Geographical Names (UNGEGN). **About UNGEGN: Standardization of Geographical Names.** United Nations Statistics Division. (UNSD)

5. United Nations Group of Experts on Geographical Names. **Toponymic Guidelines for Map and Other Editors for International Use.** (UNSD)

6. United Nations Group of Experts on Geographical Names. **Working Group on Geographical Names Data Management.** (UNSD)

7. United Nations Group of Experts on Geographical Names. **Publications and Toponymy Training Manual.** (UNSD)

8. Taylor, S. **Methodologies in Place-name Research.** In: ***The Oxford Handbook of Names and Naming***. Oxford University Press, 2016, pp. 69–86. (OUP Academic)

AREAL LINGVISTIKA VA LINGVOGEOGRAFIYANING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Alimova Shahnoza Maqsudovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya. *Mazkur maqolada areal lingvistikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanish tarixi va Xorazm vohasi o‘zbek shevalarini areal o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, shu jumladan, jahon va o‘zbek tilshunosligidagi areal-lingvogeografik yondashuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *areal lingvistika, lingvogeografiya, areal-lingvogeografik yondashuv, lingvistik geografiya, zamonaviy tilshunoslik.*

Abstract. *This article analyzes the history of the formation of areal linguistics as an independent scientific discipline, as well as the theoretical and methodological foundations of the areal study of the Uzbek dialects of the Khorazm oasis, including areal-linguogeographic approaches in world and Uzbek linguistics.*

Keywords: *areal linguistics, linguogeography, areal-linguogeographic approach, linguistic geography, modern linguistics.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы история становления ареальной лингвистики как самостоятельного научного направления, а также теоретико-методологические основы ареального изучения узбекских говоров Хорезмского оазиса, в том числе ареально-лингвогеографические подходы в мировом и узбекском языкознании.*

Ключевые слова: *ареальная лингвистика, лингвогеография, ареально-лингвогеографический подход, лингвистическая география, современное языкознание.*

Ma'lumki, o‘zbek shevashunosligida hozirgi kunga qadar katta ilmiy-tadqiqot ishlari qiyosiy-tarixiy metodlar asosida amalga oshirilgan. Ko‘pgina o‘zbek shevalari yaxlit holda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy jihatdan o‘rganilib, ularning tasnifi va tavsifi yaratilgan [11, 12, 13]. Bunday tadqiqotlar o‘zbek shevalarining arealini belgilash, aniqlash uchun asos bo‘la oladi. Umuman, har qanday dialektologik ish ayni zamonda lisoniy-jug‘rofiydir. Shuni aytish lozimki, o‘zbek shevalari areal yo‘nalishda ham o‘rganilgan, ba’zi hududlar bo‘yicha lingvistik xaritalar yaratilgan. Shunga qaramasdan, o‘zbek shevalarining barcha ko‘rinishlari areal yo‘nalishda yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu tadqiq etilayotgan Xorazm vohasi o‘zbek shevalarini areal o‘rganish, ularning xaritalarini yaratish zarurligini belgilaydi. Xorazm vohasi shevalarini areal o‘rganishning o‘zbekshunoslikdagi bu sohadagi ishlardan farqli tomoni shundaki, mazkur shevalarda tadqiqot obyekti juda keng hududlarni Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasining ayrim tumanlari, Turkmaniston Respublikasining ba'zi viloyatlarini o‘z ichiga oladi, bu esa mazkur hudud shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari yuzaga kelishiga asos bo‘ladi.

Areal tilshunoslikning fan sifatidagi mohiyatini aniqlashtirish uchun, avvalo, uning nazariy-tushunchaviy negiziga to‘xtalish lozim. M.A. Borodinaning ta'kidlashicha, areal lingvistika sohasi dialektologiya, lingvistik geografiya va arealogiyaning o‘zaro munosabati va mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan [4]. Bu haqdagi ma'lumotlar A. Jo‘rayevning “O‘zbek tilli hududni areal tadqiq etishning nazariy asoslari” nomli monografik tadqiqotida keng tahlil qilingan [10]. Darhaqiqat, “hududlarning o‘zaro aloqasi lisoniy nuqtai nazardan anchayin dinamik hisoblanadi, bu lisoniy hodisalarning talqini, yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Bu o‘zaro aloqalar muqobil shakllar, so‘zlarning kirib kelishi, kuchliroq shakllarning kuchsizroq shakllar tomon siljishi turli lisoniy maqomlar, ya'ni adabiy til va sheva, sheva va hudud shevalari kabilarning o‘zaro aloqasida namoyon bo‘ladi” [5]. Shunday qilib, areal lingvistika ayrim lisoniy hodisalarning areal tarqalish yo‘llarini aniqlash, ularning qayerda shakllanganligini, bu hodisalardan qaysi biri tilning taraqqiy etishida ahamiyatli bo‘lganini tahlil qilish va ularni xaritalashtirish bilan shug'ullanadi: “Areal lingvistika muayan hududlarda tarqalgan til xususiyatlarini umumlashtirib, areal umumiylik tillar ittifoqi, shevalar izoglossalarini aniqlash va ularni xaritalashtirish ishlarini amalga oshiradi” [16].

Areal tilshunoslikning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi va bu jarayon o‘sha davrda hukmron bo‘lgan yosh grammatikachilar (neogrammatiklar) maktabining “fonetik qonunlarning istisnosizligi” haqidagi qat’iy tezisiga nisbatan tanqidiy munosabat zaminida yuzaga keldi. Dala ishlari asosida tuzilgan dastlabki lingvistik atlaslar shuni ko‘rsatdiki, til o‘zgarishlari so‘zma-so‘z bir xilda emas, balki har bir leksik birlik o‘ziga xos tarixiy taqdirga ega bo‘lgan holda tarqaladi bu qoida “har bir so‘zning o‘z tarixi bor” degan mashhur formula sifatida tilshunoslik tarixida qayd etilgan bo‘lib, aynan shu tezis areal tilshunoslikning uslubiy negizini tashkil etadi. XX asrning boshlarida jahon tilshunosligida eng mashhur va mukammal atlaslardan biri hisoblangan Jan Jilyeron va Edmon tomonidan tuzilgan 12 jildli “Fransuz tili atlasi” (1903-1912), shuningdek, Venker va Vrede tomonidan yaratilgan “Nemis tili atlasi” (1876-1926 yillar mobaynida amalga oshirilgan) shu yo‘nalishning amaliy asosini qo‘ydi. O‘z navbatida, Rossiya Fanlar akademiyasi Moskva rus tili institutida R.I. Avanesov va B.A. Larin boshchiligida “Moskva sharqidagi markaziy oblastlar rus xalq shevalari atlasi” (1951) hamda “Shimoli-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi” (1951) yaratildi bu ikki atlas keyinchalik turkiyshunoslik va o‘zbek dialektologiyasidagi lingvogeografik tadqiqotlar metodikasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Areal yondashuvning nazariy jihatdan asoslanishida nemis tilshunosi Iogannes Shmidtning “to‘lqinlar nazariyasi” (Wellentheorie) alohida o‘rin tutadi. Ushbu nazariya August Shleyxer ilgari surgan “oilaviy daraxt nazariyasi” (Stammbaumtheorie)ga muqobil sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, unga ko‘ra til o‘zgarishlari bir markazdan atrofga, suvga tashlangan toshdan hosil bo‘lgan to‘lqinlar kabi bosqichma-bosqich pasayib boruvchi intensivlik bilan tarqaladi. Bu nazariya til hodisalarining nima uchun aniq chiziqlar bilan emas, balki bir-birini qisman qoplaydigan izoglossalar tizimi shaklida taqsimlanishini tushuntirishga xizmat qiladi. Shu bilan bog'liq holda, italyan tilshunosi Matteo Bartoli asos solgan “neolingvistika” maktabining areal normalari ham muhim ahamiyat kasb etadi: xususan, izolyatsiyalangan hududlar odatda arxaik shakllarni saqlab qoladi, periferik (chekka) zonalar markaziy zonalarga nisbatan konservativroq bo‘ladi, kengroq areal esa ko‘pincha yangi emas, balki eskiroq shaklni saqlab qoladi. Ushbu qoidalar dialektlarning tarixiy qatlamlanishini, jumladan, Xorazm vohasi shevalarida kuzatiladigan arxaik va yangi qatlamlar nisbatini tahlil qilishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

XX asr jahon tilshunosligida areal lingvistika sohasi boʻyicha juda katta ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga keldi: bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar hind-yevropa tillari, slavyan tillari, german tillari, roman tillari, bolqon tillari materiallari asosida kengayib, katta yutuqlarga erishildi [14]. Shu qatorda, genetik jihatdan turlicha yoki uzoq qarindosh tillarning uzoq muddatli hududiy aloqadorligi natijasida umumiy struktur belgilarga ega boʻlib qolishini ifodalovchi “til ittifoqi” (Sprachbund) tushunchasi ham (Praga lingvistik maktabi doirasida, klassik misoli Bolqon til ittifoqi) areal tilshunoslikning nazariy apparatini boyitdi; oʻzbek tilshunosligida ham bu tushunchaga “tillar ittifoqi” nomi bilan ishora qilingan [16].

Turkiyshunoslikda ham turkiy tillar va shevalarini areal oʻrganish boʻyicha koʻpgina tadqiqot ishlari amalga oshirildi [3, 8, 20]. Xususan, N.Z. Gadjiyevaning Oʻrta Osiyo areali boʻyicha tadqiqoti [8] tadqiq etilayotgan Xorazm vohasi hududi turkiy tillar (oʻzbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq) kesishgan mintaqa sifatida koʻrib chiqilishida bevosita metodologik tayanch boʻla oladi.

Oʻzbek tilshunosligida lingvistik xaritalar yaratishning nazariy asoslari dialektolog olimlar A. Shermatov va A. Joʻrayevning ilmiy asarlarida keng yoritib berilgan [10]. A. Shermatov lingvistik xaritalar yaratish borasida shunday fikrni bildiradi: lingvistik atlas lingvogeografik tadqiqotning asosiy nuqtasidir; sinxronik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik kartada til tarixining hamma davri oʻz aksini topishi mumkin. Lingvistik kartalar ikki xil metodga asoslanib tuziladi: 1) lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi; 2) til landshaftini oʻrganish metodi [10]. Bu nazariy qarashlar olimning Qashqadaryo oʻzbek shevalari boʻyicha tuzilgan yuzdan ortiq xaritasida oʻz ifodasini topgan. Oʻz navbatida, A. Joʻrayev tomonidan makon va zamon tilshunosligi (areal lingvistika)ning nazariy asoslari, oʻzbek tili maydonini mintaqalashtirish, dialektal mintaqa (dialektnaya zona) va nomintaqaviy qismlarni ajratish usullari ishlab chiqilgan [10]. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasining dialektal mintaqalarini areal yoʻnalishda oʻrganish va uning lingvistik xaritalarini yaratishda aynan shu ikki nazariy manbaga A. Shermatov va A. Joʻrayev tomonidan ishlab chiqilgan xarita tuzish tamoyillariga tayaniladi.

Zamonaviy bosqichda areal tilshunoslik ingliz dialektologiyasi an'analari, xususan Jek Chembers va Piter Tradgillning “Dialectology” asari orqali yangi nazariy-metodologik boyitishga ega boʻldi; bu asarda ishlab chiqilgan til

innovatsiyalarining hududiy tarqalish modellari zamonaviy areal-lingvogeografik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi.

Shunday qilib, areal tilshunoslik bugungi kunga kelib mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanib, an’anaviy dialektologiyaning tasviriy metodlarini lingvogeografik xaritalashtirish, izoglossalar tahlili va strukturaviy-tipologik yondashuvlar bilan boyitdi. Bu yo‘nalishning nazariy-metodologik apparati izoglossa, izoglossalar dastasi, dialektal mintaqa, dialektal yadro va periferiya, o‘tish zonasi kabi tushunchalar mazkur tadqiqotda Xorazm vohasi o‘zbek shevalarining areal xususiyatlarini tahlil qilishning asosiy instrumentariysi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan Xorazm vohasi hududini areal yo‘nalishda tadqiq etish va shu asosda lingvistik xaritalar yaratish nafaqat o‘zbek tilining, balki turkiy tillarning dolzarb muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аванесов Р.И. Выступление по докладам // Вопросы диалектологии тюркских языков. – Баку, 1958. – С. 139-141.

2. Баскаков Н.А. Ареалы и маргинальные зоны в развитии тюркских языков // Народы и языки Сибири: ареальные исследования. – М., 1978.

3. Бородина М.А. О понятиях “диалектология”, “лингвистическая география”, "ареалогия", "ареальные исследования" // Типы языковых общностей и методы их изучения: тезисы. – М., 1984. – С. 79–81.

4. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. – М., 1975. – 303 с.

5. Десницкая А.В. К вопросу о предмете и методах ареальной лингвистики // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Л., 1977. – С. 22–29.

6. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Т., 1991. – 218 с.

7. Жирмунский В.М. О диалектологическом атласе тюркских языков // Вопросы языкознания. – 1963. – №6. – С. 3.

8. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, 1969. – 168 б.

9. Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Т., 2000. – 274 б.

10. Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареальной лингвистики. – М.-Л., 1964.

11. Мирзаев М. Бухоро группа шевалари: Фил. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1965. – 461 б.

12. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Т., 2006. – Б. 3.

13. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1988. – 44 с.

14. Толстой Н.И. О соотношении центрального и маргинального ареалов в современной Славии // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Л., 1977. – С. 37–56.

15. Шералиев М.М. Азербайджан диалектологиясининг асослари. – Баку, 1981.

16. Шерматов А. Проблемы исторического развития и современного функционирования узбекских диалектов: Дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1978. – 339 б.

“MAKON” KONSEPTINING ERTAK MATNIDA KONSEPTUAL DOMINANT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI
(o‘zbek va ingliz ertaklari tili misolida

Oydinova Parizod,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “makon” konseptining o‘zbek va ingliz xalq ertaklari matnida konseptual dominant sifatidagi namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan, kognitiv tilshunoslik, matn semiotikasi va lingvokulturologiya metodologiyasi asosida tahlil qilinadi, Yu. Stepanov, V. Karasik, Z. Popova va I. Sterninning konsept nazariyasiga tayangan holda, “makon” konseptining ikki xalq badiiy tafakkuridagi universal va milliy-o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptual dominant, makon, xronotop, chegara, semiotik makon, qiyosiy-tipologik tahlil, kognitiv tilshunoslik, o‘zbek va ingliz ertaklari tili.*

Аннотация. *В статье представлен сравнительно-типологический анализ репрезентации концепта «пространство» как концептуальной доминанты в узбекских и английских народных сказках, выполненный с позиций когнитивной лингвистики, семиотики текста и лингвокультурологии. Опираясь на теории концепта, разработанные Ю. Степановым, В. Карасиком, З. Поповой и И. Стерниным, авторы выявляют как универсальные, так и культурно-специфические аспекты данного концепта в художественном мышлении двух народов.*

Ключевые слова: *концепт, концептуальная доминанта, пространство, хронотоп, граница, семиотическое пространство, сравнительно-типологический анализ, когнитивная лингвистика, язык узбекских и английских народных сказок.*

Abstract. *The article presents a comparative-typological analysis of the representation of the concept of "space"—viewed as a conceptual dominant—in Uzbek and English folk tales, conducted from the perspectives of cognitive linguistics, text semiotics, and linguoculturology. Drawing on theories of the concept developed by Yu. Stepanov, V. Karasik, Z. Popova, and I. Sternin, the authors identify both universal and culture-specific aspects of this concept within the artistic worldview of the two peoples.*

Keywords: *concept, conceptual dominant, space, chronotope, boundary, semiotic space, comparative-typological analysis, cognitive linguistics.*

Makon va zamon insonning dunyoni idrok etishining eng fundamental kategoriyalaridan hisoblanadi. Til va matnda makon kategoriyasi turlicha ifodalanadi, biroq badiiy matnda, xususan folklor matnida, makon nafaqat voqealar kechadigan neytral fon, balki mustaqil semantik-kompozitsion vazifaga ega konseptga aylanadi [1.Лотман, 1970; Топоров, 1983].

Ertak janrida makonning o‘ziga xosligi alohida ahamiyatga ega. M. Lyutining ta’kidlashicha, ertak makoni real geografik makondan farqli o‘laroq mavhum, sxematik, detallardan xoli – u “bir o‘lchamlilik” xususiyatiga ega, biroq shu bilan birga qat’iy ikkiga bo‘lingan: qahramonning “o‘z” olami va sehrli, notanish “begona” olam [2.Lüthi, 1982]. Bu xususiyat nafaqat o‘zbek, balki ingliz xalq ertaklariga ham xos umuminsoniy tipologik belgi bo‘lib, “makon” konseptini ikkala tildagi ertak matnining ham konseptual dominanti sifatida qarash imkonini beradi – zero ertak syujeti, qoidaga ko‘ra, qahramonning bir makondan ikkinchisiga o‘tishi asosida quriladi.

“Makon” konseptining qiyosiy-tipologik tahlili ikki xalq ertak matnining konseptosferasini bir-biriga nisbatan yoritish, ularning universal va milliy-o‘ziga xos jihatlarini aniq ko‘rsatib berish imkonini beradi.

O‘zbek va ingliz tilshunosligida makon kategoriyasi asosan grammatik-morfologik (kelishik, predlog, ravish) darajada alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, uning matn-konseptual darajadagi, xususan ikki xalq ertak matni qiyosida tashkil etuvchi vazifasi hanuzgacha maxsus qiyosiy tadqiqot obyekti

bo‘lmagan. “Makon” konseptining o‘zbek va ingliz ertaklari materialida Yu. Lotman semiotikasiga xos “bu dunyo esa ushbu tadqiqotlarni mantiqiy davom ettirib, – “u dunyo” binar oppozitsiyasi asosida birinchi marta qiyosiy tahlil qilinishi, shuningdek, chegara (bo‘sag‘a) motivining ikki tildagi funksional-semantik farqlari (xususan, gorizontal va vertikal makon o‘qlari) ochib berilishida namoyon bo‘ladi.

“Makon” konseptining o‘zbek va ingliz ertaklari matnidagi konseptual dominant sifatidagi namoyon bo‘lish mexanizmlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) makon konseptining tilshunoslik va matn semiotikasidagi nazariy talqinini yoritish; 2) konseptning maydon strukturasini (yadro, periferiya) ikki til materialida aniqlash; 3) “bu dunyo” va “u dunyo” binar oppozitsiyasini qiyosiy tavsiflash; 4) chegara (bo‘sag‘a) motivining ikki tildagi funksional-semantik farqlarini tahlil qilish; 5) konseptning etimologik-semantik va frazeologik-paremiologik qatlamlarini qiyoslash; 6) konseptning sintaktik-kompozitsion darajada namoyon bo‘lishini har ikki tilda ko‘rsatish; 7) konseptning universal va milliy-o‘ziga xos komponentlarini yakuniy qiyosiy tahlil qilish.

O‘zbek xalq ertaklari (“Zumrad va Qimmat”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Yalmog‘iz kampir”, “Ravshan”) va ingliz xalq ertaklari (“Jack and the Beanstalk”, “The Three Little Pigs”, “Goldilocks and the Three Bears”, “Tom Thumb”) matnlari, predmeti – ushbu matnlarda “makon” konseptini vepбallashtiruvchi til birliklarini va ularning matn strukturasidagi qiyosiy-tipologik xususiyatlarini ochib beradi.

N.D. Arutyunovaning fikricha, makon va zamon insonning dunyo modelini tashkil etuvchi eng asosiy kategoriyalar hisoblanadi, ular til sathida deyktik, predlogli-kelishikli va leksik vositalar orqali ifodalanadi [3.Арутюнова, 1999]. Yu.M. Lotman badiiy matnda makonni nafaqat fizik, balki semantik-madaniy tuzilma — matnning o‘ziga xos “tili” sifatida talqin qiladi: uning fikricha, badiiy matn makoni “o‘z” va “begona”, “ichki” va “tashqi” kabi binar oppozitsiyalar orqali tashkil topadi [4.Лотман, 1970, 265-b.]. V.N. Toporov “Пространство и текст” nomli mashhur tadqiqotida makonni matnning chuqur strukturasini tashkil etuvchi universal semiotik kategoriya sifatida ko‘rsatadi, unga ko‘ra makon matn ichida shunchaki fon emas, balki mazmun yaratuvchi faol unsurdir[5.Топоров, 1983]. M.M. Baxtin esa “xronotop” tushunchasi orqali zamon va makonning badiiy matnda ajralmas, “quyuqlashgan” birligini asoslab beradi [6.Бахтин, 1975].

O‘zbek tilshunosligida makon kategoriyasi asosan grammatik jihatdan – o‘rin-payt kelishigi, ravish va ko‘makchilar orqali ifodalanishi N. Mahmudov va A. Nurmonovning nazariy grammatikaga oid tadqiqotlarida yoritilgan [7. Маҳмудов, Нурмонов, 1995]. Ingliz tilida esa makon kategoriyasi asosan predloglar (in, at, on, beyond, over) va lokativ ravishlar orqali ifodalanadi, bu esa ikki tilning tipologik jihatdan farqli – o‘zbek tilining agglyutinativ, ingliz tilining analitik-predlogli xarakterga ega ekanligidan kelib chiqadi. Biroq matn-konseptual darajada, xususan ertak janri misolida, makon kategoriyasining qiyosiy tahlili har ikki tilshunoslikda ham alohida ilmiy dolzarblikka ega bo‘lib qolmoqda.

Lotman semiotikasiga ko‘ra, badiiy matn makoni ikki qarama-qarshi zonaga bo‘linadi: “o‘z” (svoy) va “begona” (chuzhoy) makon [8. Лотман, 1970]. Ertak matnida bu oppozitsiya “bu dunyo” – qahramonning boshlang‘ich, tanish makoni (uy, qishloq, ota-ona saroyi; ingliz ertaklarida – cottage, village, father’s house) – va “u dunyo” – sehrli, notanish, xavfli makon (o‘zbek ertaklarida uzoq o‘rmon, dev g‘ori, “yetti iqlim narida” joylashgan mamlakat; ingliz ertaklarida esa enchanted forest, giant’s castle, “a land far, far away”) tarzida ikkala tilda ham izchil namoyon bo‘ladi. Qahramonning “bu dunyo”dan “u dunyo”ga o‘tishi ertak syujetining markaziy voqeasi bo‘lib, bu o‘tish, qoidaga ko‘ra, qahramon uchun sinov, o‘zgarish va kamolot bosqichi vazifasini bajaradi. Voqealar yakunida qahramonning “bu dunyo”ga qaytishi esa ikkala til ertaklarida ham kompozitsiyaning aylana (halqasimon) tuzilishini ta'minlaydi.

“Bu dunyo” va “u dunyo” o‘rtasidagi chegara ertak matnida turli obrazlar orqali ifodalanadi. O‘zbek ertaklarida bu chegara asosan gorizontal o‘qda joylashadi: o‘rmon, daryo, tog‘, dengiz, “yetti tog‘-u yetti dovon” каби motivlar shular jumlasidandir. Ingliz ertaklarida ham xuddi shunday gorizontal chegaralar (dark forest, great river) uchraydi, biroq bundan tashqari alohida tipologik xususiyat sifatida vertikal o‘q bo‘ylab chegara ham faol qo‘llaniladi – masalan, “Jack and the Beanstalk” ertagida qahramon osmonga o‘suvchi o‘simlik orqali gigant yashaydigan yuqori dunyoga ko‘tariladi. Bu – ikki lingvomadaniyat o‘rtasidagi muhim tipologik farq bo‘lib, makon konseptining vertikal o‘lchamga ega bo‘lish-bo‘lmasligi milliy ertak an'analarining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Chegara tushunchasi antropologik nuqtai nazardan A. van Gennepning “o‘tish marosimlari” (rites de passage) nazariyasi bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra har qanday statusdan statusga o‘tish uch bosqichli – ajralish,

chegara (liminal) va qo‘shilish bosqichlaridan iborat bo‘ladi [9.Van Gennep, 1909]. Ertak qahramonining chegarani kesib o‘tishi aynan shu *liminal* bosqichga to‘g‘ri keladi va ikkala tilda ham maxsus sintaktik-formulaik ifodalar bilan belgilanadi: o‘zbekcha “necha kunlar yursa ham yo‘l tugamabdi”, “yetti kecha-yetti kunduz yo‘l yurib” konstruksiyalariga ingliz tilida “he walked for days and nights”, “over hill and dale” каби konstruksiyalar funksional jihatdan mos keladi.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil “makon” konseptining o‘zbek va ingliz ertaklari matnida konseptual dominant maqomiga ega ekanligini har tomonlama asosladi. Ushbu konsept yadro-periferiya modeli asosida tizimlashtiriladigan, ikki tilda katta darajada mos keluvchi lug‘aviy-semantik maydonga, “bu dunyo – u dunyo” binar-oppozitsion semiotik tuzilishga, chegara (bo‘sag‘a) motivining o‘ziga xos funksional-semantik mohiyatiga hamda faol frazeologik-paremiologik ifoda shakllariga ega. Konsept ertak matnining kompozitsion tuzilishini – syujetning boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishini – tashkil etuvchi struktur omil sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa uni janr hosil qiluvchi konseptual dominant sifatida baholash imkonini beradi. Konseptning chuqur, funksional strukturasi (binar oppozitsiya, chegara motivi, kompozitsion formulalar) o‘zbek va ingliz ertaklarida umuminsoniy-universal xarakterga ega, biroq uning leksik ifodasi hamda ayrim tipologik detallari (xususan, gorizontal va vertikal makon o‘qlarining nisbati) milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. — М.: Искусство, 1970.

2. Топоров В.Н. Пространство и текст // Текст: семантика и структура. — М.: Наука, 1983.

3. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. — М.: Художественная литература, 1975.

4. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. — М.: Языки русской культуры, 1999.

5. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Языки русской культуры, 1997.

6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002.

7. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. — М.: АСТ: Восток-Запад, 2007.

8. Van Gennep A. Les rites de passage. — Paris: Émile Nourry, 1909.

9. Пропп В.Я. Морфология сказки. — Л.: Academia, 1928 (қайта нашр: М.: Наука, 1969).

10. Lüthi M. The European Folktale: Form and Nature. — Bloomington: Indiana University Press, 1982.

11. Jacobs J. English Fairy Tales. — London: David Nutt, 1890.

12. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

13. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологияси. — Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

14. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. — Тошкент: Фан, 1986.

15. Жўраев М. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. — Тошкент: Фан, 2000.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MIFONIM TARKIBLI FRAZEMALARNING MATNLARDA QO‘LLANISHI

Sapayeva Feruza Norbayevna,
Urganch RANCH texnologiya universiteti, dotsent v.b.

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillari tarkibida mifonimlar mavjud bo‘lgan frazeologik birliklarning matnda qo‘llanish qonuniyatlari, uslubiy vazifalari va o‘ziga xosliklari qiyosiy-tipologik tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ikki xil madaniyat va dunyoqarash tizimiga mansub tillardagi mifologik obrazlarning frazemalar tarkibida qay darajada konseptuallashgani hamda badiiy, publisistik va so‘zlashuv matnlarida qanday semantik yuk tashishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *mifonim, frazema, lingvokultologiya, konnotatsiya, qiyosiy tahlil, matn lingvistikasi, antik mifologiya, islomiy diskurs.*

Аннотация: *В статье на основе сравнительно-типологического анализа рассматриваются закономерности функционирования, стилистический потенциал и лингвокультурные особенности фразеологических единиц с мифонимами в узбекском и английском языках. В исследовании выявлена степень концептуализации мифологических образов в структуре фразеологизмов двух генетически и типологически неродственных языков, а также определена их семантическая нагрузка и дискурсивная специфичность в художественных, публицистических и разговорных текстах*

.Ключевые слова: *мифоним, фразема, лингвокультурология, коннотация, сравнительный анализ, лингвистика текста, античная мифология, исламский дискурс.*

Abstract: *In this article, the functional patterns, stylistic potential, and linguocultural specificities of mythonym-containing phraseological units in Uzbek and English are analyzed through a comparative-typological framework. The study examines the extent to which mythological imagery within these phrasemes is conceptualized across two distinct*

cultural and cognitive systems, and determines their semantic load and discursive role in literary, journalistic, and colloquial texts.

Keywords: *mythonym, phraseme, linguaculturology, connotation, comparative analysis, text linguistics, classical mythology, Islamic discourse.*

KIRISH

Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniyati, tarixi, mifologik tasavvurlari va dunyoqarashini o‘zida saqlovchi hamda avloddan-avlodga ko‘chuvchi o‘ziga xos o‘tkazuvchi hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma, xususan, lingvokultologiya va matn lingvistikasining rivojlanishi tillarni shunchaki strukturaviy tizim sifatida emas, balki madaniy bog‘liqlikni majmui sifatida o‘rganishni taqozo etmoqda. Ushbu madaniy bog‘liqliklar eng yorqin namoyon bo‘ladigan til qatlamlaridan biri — bu frazeologiyadir. Frazeologik birliklar tarkibida xalqning ko‘p asrlik tajribasi, e’tiqodi va afsonalari muhrlanib qoladi. [1][5]

Tarkibida mifologik tushunchalar, xudolar, jinlar, farishtalar, parilar va afsonaviy mavjudotlarning nomlari (mifonimlar) mavjud bo‘lgan frazemalar — *mifonimik frazemalar* deb ataladi. Mifonomik frazemalar har bir tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ochib beruvchi tilning eng boy qatlamlaridan biridir. [1]

O‘zbek va ingliz tillari tizimli ravishda ham, madaniy-tarixiy ildizlar jihatidan ham bir-biridan keskin farq qiluvchi tillar oilasiga mansub ekanligi tilning yanada farqli tomonlarini keng ochib beradi. O‘zbek tili va uning frazeologik tizimi asosan turkiy xalqlar e’tiqodlari (shomonlik, tengrichilik), islomiy qadriyatlar va sharq klassik adabiyoti ta’sirida shakllangan bo‘lsa, ingliz tili frazeologiyasi kelt afsonalari, qadimgi grek-rim mifologiyasi va Bibliya syujetlariga borib taqaladi.

O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Mifonimlar va mifologik leksika tilshunoslikda hamon qizg‘in muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbek tilshunosligida mifologik qatlam va uning badiiy matndagi o‘rni H. Hoshimov, Sh. Shomaqsudov, A. Madvaliyev kabi olimlar tomonidan qisman tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mifonimlarning frazeologik birliklar tarkibida matniy realizatsiyasi va ingliz tili bilan qiyosiy tahlili kam o‘rganilgan. Ingliz tilshunosligida esa mifologik

frazeologiya koʻproq idiomalar va alluziyalar (ishoralar) kontekstida Ch. Kuni, L. Smit kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tipologik metod, lingvokultologik tahlil, komponent tahlil hamda matn tahlili tashkil etadi. [1][2][3][4][5]

TAHLIL VA NATIJALAR

Mifonim tarkibli frazemalarni matnda qoʻllanilishi boʻyicha oʻrganish ularning til tizimidagi virtual holatidan nutqdagi real holatiga oʻtishini kuzatish demakdir. Matnda har qanday frazema ma’lum bir uslubiy funksiyani bajaradi: ekspressivlikni oshiradi, qahramon portretini chizadi yoki muallifning voqeaga munosabatini (baholash konnotatsiyasini) ifodalaydi.

1. **Oʻzbek matnlarida mifonimik frazemalarning funktsional-uslubiy tabiati**

Oʻzbek tili matnlarida eng koʻp qoʻllanadigan mifonimlar sirasiga *dev, pari, parizod, shayton, jin, farishta, ajina, Xizr, Qaqnus* kabilar kiradi. Ushbu birliklar matnda asosan uchta yoʻnalishda voqelanadi: [1][2][5]

a) Tashqi koʻrinish va jismoniy holatni boʻrttirib tasvirlash (Giperbolizatsiya)

Oʻzbek xalq ertaklari va dostonlarida “dev” va “pari” obrazlari jismoniy kuch yoki goʻzallikning eng yuqori nuqtasi sifatida gavdalanadi. Badiiy matnda ushbu mifonimlar ishtirok etgan frazemalar inson portretini chizish uchun xizmat qiladi: [1][2]

- **Devday keladigan (dev qomat):** Bu frazema matnda shaxsning ulkan gavdasi, baquvvatligi va haybatini tasvirlaydi. Masalan: “Eshikdan **devday keladigan** bir kishi kirdi-yu, xonadagilar beixtiyor oʻrinlaridan turib ketishdi” (Oʻ. Hoshimov). Bu yerda mifonim shunchaki hajm anglatmay, matnga vahima va hayrat hissini olib kirmoqda. [1][2]
- **Parizod misol (pari paykar):** Ayollarning goʻzalligini tasvirlashda qoʻllanadi. Masalan: “Uning husnini koʻrgan odam qarshisida **parizod turganidek** tasavvur qilardi.”

b) Psixologik holat va xarakterni baholash (Konnotativ funksiya)

Insonning ichki dunyosi, psixologik holati yoki salbiy/ijobiy jihatlarini koʻrsatishda *shayton, jin, farishta* mifonimlari matnning ta’sirchanligini ta’minlaydi: [1][2]

- **Shaytonga dars beradi (shaytonning urugʻi):** Oʻta ayyor, hiylagar, makkor shaxslarga nisbatan qoʻllanadi. Masalan: “Anvar bilan

hazillashma, u kerak bo‘lsa **shaytonga dars beradi**.” Matnda ushbu frazema so‘zlovchining subyektiv bahosini va ogohlantirish ohangini kuchaytiradi. [2]

- **Jini qo‘zimoq (yoki joni chiqmoq):** Insonning o‘ta g‘azablangan holatini ifodalaydi. Bu ibora qadimgi shomonlik e’tiqodidagi inson tanasiga yot ruhlarning kirishi haqidagi tasavvurlarga borib taqaladi.*Masalan:* “Uning gaplarini eshitib, direktorning **jini qo‘zidi**.” [1][2]
- **Farishtasi bor, Farishta misol:** Insonning beguborligi, pokligi va yoqimliligini ifodalovchi ijobiy konnotatsiyaga ega matnlarda faol keladi. [1][2]

v) Ezgu niyat va diniy-mifologik umidlar konteksti

Sharq xalqlari mifologiyasida “Xizr” o‘lmaslik suvidan ichgan, odamlarga qiyin pallada yordam beruvchi, omad keltiruvchi muqaddas zot hisoblanadi. [2][5]

-**Xizr nazari tushgan:** Omadi chopgan, ishlari to‘satdan yurishib ketgan odamlar haqidagi matnlarda qo‘llanadi. Masalan: “Qisqa vaqt ichida shuncha boylikka erishgan bu yigitga **Xizr nazari tushgan bo‘lsa** ajab emas.” [2][5]

2. Ingliz matnlarida mifonimik frazemalarning funktsional-uslubiy tabiati

Ingliz tilidagi mifonimik frazemalar (ko‘pincha madaniy alluziyalar va idiomalar ko‘rinishida) o‘zbek tiliga qaraganda ko‘proq ratsional, publisistik va tahliliy matnlarda uchraydi. Ularning asosiy manbasi antik grek mifologiyasidir. [3][4]

a) **Xavf va zaiflikni metaforik ifodalash**

Ingliz matnlarida global muammolar, insoniy xatolar yoki jamiyatdagi inqirozlarni ixcham ifodalash uchun mifologik syujetlar kichraytirilgan shaklda frazemaga aylangan: [3][4]

-**Achilles’ heel (Ahill tovoni):** Har qanday tizim, reja yoki insonning eng nozik, zaif nuqtasi. Masalan: “The company's poor customer service proved to be its **Achilles’ heel** during the market crisis.” (Kompaniyaning “*yomon mijozlarga”* xizmat ko‘rsatishi bozor inqirozi davrida uning eng zaif nuqtasi bo‘lib chiqdi). Matnda ushbu frazema butun boshli iqtisodiy tahlilni bitta ibora bilan umumlashtirishga xizmat qiladi. [3][4]

-**Pandora’s box (Pandora qutisi):** Nazorat qilib bo‘lmaydigan, kutilmagan muammolar va ofatlar zanjirini keltirib chiqaradigan vaziyat. Masalan: “The new prime minister’s economic reform opened a **Pandora’s box** of social protests.” (Yangi bosh vazirning iqtisodiy islohoti ijtimoiy noroziliklarning “Pandora qutisi”ni ochib yubordi). Publisistik matnlarda bu

ibora siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni vizuallashtirish va o‘quvchida kuchli hissiy reaksiya uyg‘otish uchun qo‘llaniladi. [3][4]

b) Muvaffaqiyat, boylik va kuch tushunchalarini ifodalash

Antik xudolar va qahramonlarning atributlari ingliz matnlarida sifat ko‘rsatkichi sifatida qo‘llanadi: [3][4]

-**Midas touch (Oltin qo‘l):** Qo‘li tekkan narsani oltinga aylantiradigan afsonaviy shoh Midas ismidan olingan bo‘lib, biznes va moliyaviy matnlarda o‘ta muvaffaqiyatli tadbirkorlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan: “Every tech startup he invests in flourishes; investors say he has the **Midas touch**.” (U investitsiya kiritgan har bir texnologik startap gullab-yashnamoqda; investorlarning aytishicha, unda Midas teginishi bor). [3][4]

-**Herculean task (Gerkulescha vazifa):** G‘ayriinsoniy kuch va iroda talab qiladigan o‘ta og‘ir mehnat. Masalan: “Rebuilding the infrastructure after the earthquake was a **Herculean task**.” (Zilziladan keyin infratuzilmani qayta tiklash o‘ta og‘ir vazifa edi). [3][4]

MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillaridagi mifonim tarkibli frazemalarning matnda voqelanishini chuqurroq tushunish uchun ularni o‘zaro qiyosiy jadval asosida tizimlashtiramiz. Bu ikki xalqning dunyoni mifik idrok etish modelidagi farqlarni ko‘rsatib beradi.

Mifonimik frazemalarning qiyosiy-tahliliy tavsifi

Tahlil mezonlari	O‘zbek tili matnlarida	Ingliz tili matnlarida
Dominant mifologik qatlam	Islomiy asotirlar, turkiy shomonizm, Sharq dostonlari (Dev, Pari, Shayton, Xizr).	Grek-rim mifologiyasi, kelt miflari, Bibliya syujetlari (Achilles, Pandora, Midas).
Matndagi etakchi uslubi	Ko‘proq so‘zlashuv, badiiy-estetik va poetik matnlarda ekspressivlik uchun.	Publisistik, analitik, siyosiy, iqtisodiy va kitobiy matnlarda metafora sifatida.
Semantik yo‘naltirilganligi	Ko‘proq inson shaxsi, uning subyektiv tabiati va xarakteriga yo‘naltirilgan.	Ko‘proq vaziyatlar, jarayonlar, sabab-oqibat aloqalarini baholashga yo‘naltirilgan.
Matniy funktsiyasi	Giperbolizatsiya (bo‘rttirish) va hissiy bo‘yoqdorlikni (hursandchilik, g‘azab) kuchaytirish.	Voqelikni ratsional modellashtirish va umumlashtiruvchi alluziya yaratish.

Madaniy qoliplarning ko‘chishi va matnda qayta ma’nolanishi

Har ikki tildagi farqlarning tub ildizi madaniy almashinuvlar bilan bog‘liq. Ingliz madaniyatida antik mifologiya maktab darsliklaridan tortib adabiyotgacha fundamental asos bo‘lgani uchun *Achilles’ heel* yoki *Trojan horse (Troya oti)* kabi iboralar matnda qo‘llanganda o‘quvchidan chuqur lingvistik izoh talab qilmaydi, ular umumiy intellektual fondning bir qismidir. [3][4]

O‘zbek matnlarida esa *Xizr ko‘rmoq* yoki *ajinasi kelmoq* kabi iboralar xalqning empirik (hayotiy) va diniy tajribasiga tayanadi. Masalan, o‘zbek afsonalarida dev salbiy va qo‘rqinchli obraz bo‘lsa-da, matnda **devday yigit** iborasi ijobiy konnotatsiyada - “baquvvat, suyagi yirik, mard” ma’nosida qo‘llanishi mifik obrazning nutqiy ijobiylashuviga yorqin misoldir. [1][2][5]

Ingliz tilida ham mifologik obrazning semantik transformatsiyasi kuzatiladi. Masalan, shoh Midas afsonada aslida o‘zining ochko‘zligi tufayli barcha narsani, hatto taomlarini ham oltinga aylantirib, azob chekkan fojiaviy obrazdir. Biroq, zamonaviy ingliz iqtisodiy matnlarida **Midas touch** iborasi fojiaviy emas, balki mutlaqo ijobiy – “biznesda o‘ta omadli bo‘lish” ma’nosida qo‘llanadi. Bu matn talabi bilan mifik syujetning qayta ma’nolanishini (re-semantizatsiya) ko‘rsatadi. [3][4]

XULOSA

O‘zbek va ingliz tillaridagi mifonim tarkibli frazemalarning matnlarda qo‘llanishi bo‘yicha olib borilgan tahlillar quyidagi umumiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Mifonimik frazemalar-milliy tafakkur ko‘zgusidir. Ularning vujudga kelishi va matnga kirib kelishi har bir xalqning qadimiy e’tiqodi, tarixi va madaniy aloqalari bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek tilida sharqona-islomiy va milliy turkiy elementlar ustuvor bo‘lsa, ingliz tilida umumevropa madaniyatining asosi bo‘lgan antik davr merosi etakchilik qiladi.

O‘zbek tilidagi mifonimik iboralar matnga yuqori hissiyot, ekspressivlik, lirik bo‘yoq va bo‘rttirish (giperbola) olib kirishga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi muqobillari esa ko‘proq publisistik va tahliliy diskursda voqea-hodisalarning mohiyatini ixcham allegoriya (tashbeh) orqali ochib beruvchi intellektual vosita hisoblanadi.

Har ikki tilda ham mifologik obrazlarning birlamchi manbadagi (mifdagi) ma’nolari matn ta’sirida o‘zgarishi kuzatiladi (masalan, Midasning fojiasidan

omad ramziga aylanishi yoki Devning yovuzlikdan jismoniy kuch ijobiy ramziga o‘tishi).

Ushbu qiyosiy tahlil natijalari tillarni o‘qitish amaliyotida, badiiy va publisistik matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlardan nafaqat til lug‘atini, balki ikki xalqning mifik tafakkur dunyosini ham chuqur bilishni talab etishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoshimov H. O‘zbek tili frazeologiyasi va lingvomadaniyat. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatli so‘zlar va iboralar lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Smith L. P. Words and Idioms: Studies in the English Language. – London: Constable & Co, 2020.
4. Kunin A. V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. – Moskva: Visshaya shkola, 1996.
5. Madvaliyev A. O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.

MUHAMMAD RIZO ERNIYOZBEK O‘G‘LI OGAHIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

Ibragimova Hulkar Maqsudovna,
Urganch shahar 30-AFCHO‘SM o‘qituvchisi

UO‘K 81’42:004.738.5

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analarining badiiy-estetik talqini masalasi yoritiladi. Shoir ijodida folklor obrazlari, xalqona tasavvurlar, mifologik motivlar va mumtoz poetik vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi tahlil qilinadi. Ayniqsa, ajdar obrazining xalq og‘zaki ijodidan mumtoz she’riyatga ko‘chishi va Ogahiy tomonidan ishqiy lirika doirasida ijodiy transformatsiya qilinishi masalasiga e’tibor qaratiladi. “Ruxsori dilbar ustida” hamda “Gavharmu ekan oyo” bayti misolida folklor va yozma adabiyot munosabati ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari Ogahiy poetikasida xalq ijodi unsurlari oddiy takror emas, balki yangi badiiy ma’no yaratishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Ogahiy, xalq og‘zaki ijodi, folklor, mifologik obraz, ajdar, mumtoz adabiyot, poetika, ishqiy lirika, badiiy transformatsiya.*

Аннотация.*В статье рассматривается художественно-эстетическая интерпретация традиций устного народного творчества в творчестве Мухаммада Ризо Эрниёзбека оглы Огахи, одного из крупных представителей узбекской классической литературы XIX века. Анализируются фольклорные образы, мифологические мотивы, народные представления и их взаимодействие с классической поэтикой. Особое внимание уделяется образу дракона, его переходу из устной традиции в классическую поэзию и творческой трансформации в любовной лирике Огахи.*

Ключевые слова: Огахи, фольклор, устное

народное творчество, мифологический образ, дракон, классическая литература, поэтика, любовная лирика.

Abstract.*This article examines the artistic and aesthetic interpretation of oral folk traditions in the works of Muhammad Rizo Erniyozbek ogli Ogahi, one of the prominent representatives of nineteenth-century Uzbek classical literature. The study focuses on folklore images, mythological motifs, folk beliefs and their interaction with classical poetics. Particular attention is paid to the dragon image, its transition from oral tradition into classical poetry, and its creative transformation within Ogahi's lyrical poetry.*

Keywords: *Ogahi, folklore, oral tradition, mythological image, dragon, classical literature, poetics, lyrical poetry.*

KIRISH

O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotini xalq og‘zaki ijodi an’analaridan ayri holda tasavvur etish qiyin. Yozma adabiyot va folklor o‘rtasidagi uzviy aloqa obrazlar tizimi, syujetlar, poetik formulalar, xalqona iboralar hamda qadimiy mifologik tasavvurlarning badiiy qayta ishlanishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, XIX asr o‘zbek adabiyotida Ogahiy ijodi ana shu jarayonning muhim namunalaridan biridir.

Ogahiy o‘z asarlarida xalqning estetik tafakkuri, qadimiy qarashlari va obrazli fikrlash usulidan ijodiy foydalangan. Uning poetik dunyosida folklor unsurlari tayyor qolip sifatida emas, balki shoirning individual badiiy tafakkuri bilan qayta ishlangan holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Ogahiy ijodini folklor va mumtoz yozma adabiyot munosabati nuqtayi nazaridan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, poetik va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Ogahiy she’riyatidagi folklor va mifologik obrazlar xalq og‘zaki ijodidagi mazmuniy qatlamlar bilan qiyoslandi. Shuningdek, obrazlarning matn ichidagi funksiyasi, ramziy ma’nosi va lirik qahramon kechinmalarini ifodalashdagi vazifasi tahlil qilindi.

OGAHIY IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI AN’ANALARI

Ogahiy ijodida xalqona tafakkur bilan mumtoz poetik an’ana bir-birini to‘ldiradi. Shoir xalq tiliga yaqin obrazlar, majoziy tasvirlar va qadimiy ramzlardan foydalanib, murakkab falsafiy hamda ishqiy mazmunlarni ifodalaydi. Bunda folklor unsuri she’rning mazmunini xalqona ruh bilan boyitish bilan birga, poetik obrazning ko‘lamini kengaytiradi. Xalq og‘zaki ijodida ajdar obrazi kuch, xavf, sirli olam va g‘ayritabiiy qudrat bilan bog‘liq holda uchraydi. Mumtoz adabiyotda esa bunday obrazlar ko‘pincha majoziy vazifa bajarib, yor go‘zalligi, raqib, to‘siq yoki insonning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Ogahiy ham an’anaviy obrazning semantik imkoniyatlarini kengaytirib, uni o‘z poetik maqsadiga moslashtiradi.

“RUXSORI DILBAR USTIDA” VA FOLKLOR OBRAZLARINING BADIIY FUNKSIYASI

Ogahiy lirikasida yorning tashqi qiyofasi bilan bog‘liq tasvirlar alohida badiiy tizimni tashkil etadi. “Ruxsori dilbar ustida” mazmunidagi poetik tasvirlarda yuz, soch, ko‘z va boshqa go‘zallik unsurlari mumtoz poetik an’ana asosida talqin qilinadi. Bunday tasvirlarda xalqona tasavvur bilan mumtoz tashbeh va isti’oralar uyg‘unlashadi. Shoirning “Gavharmu ekan oyo” misrasi ham obrazli fikrlashning yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Gavhar obrazi xalq tasavvurida qimmatbaho, noyob va go‘zal narsaning timsoli bo‘lsa, mumtoz poetikada u yor jamoli, so‘z yoki ma’naviy qimmat bilan bog‘lanishi mumkin. Shu sababli bunday obrazlar oddiy bezak emas, balki mazmunni zichlashtiruvchi poetik vosita vazifasini bajaradi.

FOLKLOR VA MUMTOZ POETIKANING UYG‘UNLASHUVI

Ogahiy ijodining o‘ziga xos jihatlaridan biri xalq og‘zaki ijodi obrazlarini mumtoz adabiyotning an’anaviy poetik tizimi bilan uyg‘unlashtirishidir. Shoir folklordan olingan obrazni aynan takrorlamaydi; uni yangi kontekstga olib kirib, yangi ma’no bilan boyitadi. Natijada folklor obrazi individual ijodkor tafakkurining mahsuliga aylanadi. Bu jarayon badiiy transformatsiya sifatida baholanishi mumkin. Ya’ni an’anaviy obrazning dastlabki mazmuni saqlangan holda, uning matndagi vazifasi o‘zgaradi yoki kengayadi. Ajdar, gavhar kabi obrazlar ham shunday semantik o‘zgarishlar orqali shoirning lirik dunyosida yangi badiiy qiymat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari Ogahiy ijodida folklor an’analari uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi: birinchidan, xalqning qadimiy mifologik va estetik tasavvurlari obrazlar orqali aks etadi; ikkinchidan, folklor obrazlari mumtoz poetik vositalar yordamida qayta talqin qilinadi; uchinchidan, an’anaviy obraz individual lirik mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Demak, Ogahiy ijodida folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama ta’sir emas, balki ijodiy o‘zlashtirish jarayonidir. Shoir xalq badiiy tafakkuridagi tayyor obraz va ramzlarni o‘zining poetik maqsadlariga moslashtirib, ularni yangi estetik mazmun bilan boyitgan.

XULOSA

Ogahiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi uzviy aloqani o‘rganish uchun muhim manbadir. Shoir folklor va mifologik obrazlardan foydalanishda an’anaga tayangan bo‘lsa-da, ularni individual ijodiy tafakkur asosida qayta talqin qilgan. Ayniqsa, ajdar singari mifologik obrazlarning ishqiy lirika tarkibida qo‘llanishi folklor an’anasining mumtoz poetikada yangi ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Gavharmu ekan oyo” kabi poetik ifodalar xalqona obrazli tafakkur va mumtoz badiiy san’atlarning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Ogahiy ijodini folkloriy-mifologik qatlamlar asosida o‘rganish nafaqat shoir poetikasini, balki XIX asr o‘zbek adabiy tafakkurining taraqqiyot xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ogahiy, Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li. Asarlar. I jild. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.

2. O‘zbek adabiyoti tarixi. XIX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan.

3. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi.

4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent.

5. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi.

6. Qayumov A. Ogahiy mahorati va poetik tafakkuri masalalariga oid tadqiqotlar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

9-son (44)
2026-yil, Sentabr.

Bosh muharrir v.v.b.:	A.Matnazarov
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	M.Jumaniyozov
Navbatchi:	U.Bekmuhammad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.
Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00
Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.
Hajmi: 36 b.t. Buyurtma №1/26.
Nashr ko‘rsatkichi: 1404.
Bahosi kelishilgan narxda.
“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.
Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.
Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22